

Knyga išleista dėl žmonių

L.N. Tolstov




Anna
Karenina

Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих

выдач

Т-4. Зак. № 2005





161 1-3

7. 64

Rus adabiyoti durdonalari


LEV NIKOLAYEVICH
TOLSTOY



Anna
Karenina

Roman

Ikkinchi kitob



TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2020

UO'K 821.161.1-3
KBK 84(2Ros-Rus)1
I'64

Mirzakalon Ismoiliy
tarjimasi

Tolstoy, Lev Nikolayevich

T 64 Anna Karenina [Matn] K.2: roman / L.N. Tolstoy. Ikkinchchi kitob.
Mirzakalon Ismoiliy tarjimasi. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU,
2020. – 464 b.

ISBN 978-9943-25-949-2

Jamiyatda yuqori mavqega ega bo‘lgan xonodon bekasi qalbidagi kemtiklikni muhabbatdan izlaydi. Unga o‘scha muhabbat nasib ham bo‘ladi. Xo‘sha, Anna nega unda atrofidagi mayda muammolardan qat’i nazar, mehr-muhabbatdan sarmast bo‘lishi kerak bo‘lgan pallada o‘ziga so‘nggi chora – o‘limni ravo ko‘rdi? Vronskiy-chi? U Annaning vasliga erishgach, qalbi daryo, muhabbat yo‘lida sobit ayolga hamisha yana nimadir yetishmayotganini anglashi, his qilishi qiyinmidi?

Darhaqiqat, Lev Tolstoy bu asari haqida «Anna Karenina – men o‘zim», deb aytadi. Anna timsoli orqali yozuvchi hayot-mamot, inson taqdiri, yashashdan maqsad, odamzodning ma’naviy kamoloti, a’moli kabilarga o‘zining haqqoniy va samimiyy munosabatini bildiradi.

Romanda keltirilgan Kareninlar, Oblonskiylar va Levinlardan iborat uchta katta oilaning turmush tarzi, ularni bog‘lagan rishtalar, qahramonlardagi e’tiqod masalasi, Vronskiyini Annaga (yoki Annani Vronskiyiga) tomon talpintirgan kuch, nihoyat, Annaning halokatli o‘limi tasvirlarini o‘qirkan, kitobxon o‘zini beixтиyor Tolstoiga yaqindek, Tolstoiga hamfikrdek, balki Tolstoy qalbini o‘qiyotgандек his etadi.

UO'K 821.161.1-3
KBK 84(2Ros-Rus)1

*Ushbu kitobni tayyorlashda yaqindan yordam berган «Yangi asr avlodи»
nashriyotiga minnatdorlik bildiramiz.*

ISBN 978-9943-25-949-2

© M. Ismoiliy (tarj.), 2020
© «O‘zbekiston» NMIU, 2020



BESHINCHI QISM

I

Knyaginya Shcherbatskaya qizining to'yini besh haftadan so'ng keladigan ro'za kunlarigacha qilib bo'lmaydi, degan fikrda edi, chunki qiziga beriladigan sepning yarmi bu muddatgacha tayyor bo'lmazı; ammo Levin ro'zadan keyinga surish ham to'yni haddan ziyod kechiktirib yuboradi, degan fikrni aytganda, knyaginyaning bu fikr-ga ham qo'shilmay iloji qolmadi, chunki knyaz Shcherbatskiyning qari xolasi og'ir kasal bo'lgani uchun o'lib qolishi mumkin edi, unda azaxonlik to'yni yana ham orqaga surib yuborardi. Shu sababdan knyaginya qiziga beriladigan sepni ikki qismga, ya'ni katta va kichik qismlarga bo'lib berishga qaror qilib, to'yning ro'za kunlarigacha o'tkazilishiga rozi bo'ldi. Knyaginya sepning kichik qismini hozirdanoq tayyorlab berishga, katta qismini esa to'ydan keyin yuborishga qaror qildi-yu, bunga rozimi-yo'qligini jiddiyroq aytmagani uchun Levindan qattiq jahli chiqdi. Sepni ikki qismga bo'lib berish ma'qul edi, chunki yoshlar to'y o'tishi bilanoq qishloqqa chiqib ketishar, sepning katta qismiga u yerda zarurat qolmas edi.

Levin kunlarni shunday bir telba holatda o'tkazardiki, uning nazarida, o'zi bilan baxti butun mavjudotning go'yo asosiy va birdan-bir maqsadini tashkil qilardi, shuning uchun ham endi hech narsaning g'amini yemasligi, o'ylab o'tirmasligi kerak, chunki hamma narsa o'z-o'zidan bo'laveradi, uning uchun hamma ishni boshqalar qiladi. Kelajak hayoti uchun hatto rejsi ham, muayyan maqsadi ham yo'q edi; hamma ishning ko'ngildagidek bo'lishini bilgani uchun bu masalaning hallini boshqalarga tashlab qo'ydi. Nima qilish kerakligini Levinga o'z akasi Sergey Ivanovich, Stepan Arkadich va knyaginya ko'rsatib turishdi. Levin esa nimaiki taklif qilishsa, hammasiga jon-dili bilan qo'shilardi. Akasi uning uchun pul qarz oldi, knyaginya to'ydan

keyin Moskvadan ko'chib ketishni maslahat qildi. Stepan Arkadich esa chet elga jo'nash maslahatini berdi. Levin hammasiga rozi bo'ldi. «Ixtiyorlaringiz, ko'ngillaringizga nimaiki yoqsa, qilaveringlar. Men baxtliman, nimaiki qilmanglar, bundan mening baxtim kamayib ham qolmaydi, ko'payib ham», deb o'yldi. U Stepan Arkadichning chet elga jo'nash to'g'risidagi maslahatini Kitiga aytganda, Kitining bunga ko'nmaganligini, kelajak hayotlari to'g'risida muayyan talablari borligini bilib, juda-juda hayron qoldi. Kiti Levinning qishloqda yaxshi ko'rgan ishi borligini bilardi. Kiti bu ishning qandayligini tushunish u yoqda tursin, tushunishni istamaganligini ham Levin ko'rib turardi. Shunday bo'lsa ham, bu narsa o'sha ishni juda muhim ish deb hisoblashiga xalaqit bermas edi. Shuning uchun Kiti uylarining qishloqda ekanligini bilar, shu sababli borib turishmaydigan chet elga emas, borib turishadigan qishloqdagi uylariga jo'nashni istar edi. Bu aniq bayon qilingan fikr Levinni hayron qoldirgan edi. Lekin o'ziga bari bir bo'lgani uchun, Levin darhol Stepan Arkadichdan (go'yo bu uning vazifasidek) qishloqqa chiqib, hamma ishlarini nozik ta'bi, didiga muvofiq to'g'rilib kelishni iltimos qildi.

Stepan Arkadich yoshlarning qishloqqa chiqib borishlariga hamma narsani taxt qilib qaytgandan so'ng Levindan:

- Menga qara, ro'za tutganing to'g'risida shahodatnomang bormi? – deb so'rab qoldi.
 - Yo'q. Nima bo'pti?
 - Busiz nikoh qilib bo'lmaydi.
 - Bay, bay, bay! – deb yubordi Levin. – Chamamda to'qqiz yilchadan beri ro'za tutmayman. Esimga ham kelgani yo'g'-a.

Stepan Arkadich kulib:

- Chakki emassan! – dedi. – Tag'in meni nigilistsan deb yurasan! Yo'q, bu ishing to'g'ri kelmaydi. Ro'za tutishing kerak.
- Qachon tutaman? Faqat to'rt kuni qoldi-ku.

Stepan Arkadich bu masalani ham bir yoqlik qildi. Levin ro'za og'iz bo'lib qoldi. Levin din-aqidaga ishonmaydigan va ayni zamonda din-aqidaga ishonadigan boshqa odamlarni hurmat qiladigan bir kishi bo'lgani sababli cherkovga borish va har xil toat-ibodatlarda qatnashish uning uchun nihoyatda og'ir edi. Hamma narsaga hassoslik bilan qarab, ko'ngli yumshab yurgan hozirgi paytlarida

o'zini dindorlikka solish majburiyati Levinga yolg'iz og'ir emas, balki unga imkon xorijda ham bo'lib ko'rinardi. Mana endi shuhrat qozongan, gullab-yashnagan bir paytda yo riyokorlik yoki gumrohlik qilishi kerak. Levin uni ham, buni ham qilishga qodir emasligini his qilardi. Levin Stepan Arkadichdan: «Ro'za tutmasdan shahodatnomaga olib qo'yaverilsa bo'lmaydimi?» deb har qancha so'rasa ham, Stepan Arkadich iloji yo'q deb turib oldi.

— Nima, ikki kunga ham chiday olmaysanmi? Pop juda odamshavanda, aqlli chol. Og'rib turgan tishingni shunday sug'urib oladiki, o'zing sezmay qolasan.

Levin o'n olti yoshidan boshlab o'n yetti yoshga to'lguncha kuchli diniy aqida bilan yashagan edi; shu birinchi ibodatida ana o'sha o'smirlik xotiralarini jonlantirishga urinib ko'rgan bo'lsa ham, buning sira-sira iloji yo'qligiga darhol qanoat hosil qildi. U bu narsalarning hammasiga vizit qilish¹ odati singari hech qanday ahamiyati bo'lмаган behuda odat deb qarashga ham urinib ko'rdi; ammo bu narsaning hammasida chiga olmasligini sezdi. Levin ham zamondoshlarining ko'pchiligi qatori, dinga munosabati juda noaniq edi. Dinga ishonishga ishona olmas, shu bilan birga, bu narsalarning hammasi bekorchi gap degan qattiq aqidada ham emas edi. Qilayotgan narsasining muhimligiga ishonishga, bu narsalarga behuda rasmiyatchilik deb qarashga qodir bo'lмагани учун, o'zi anglamagan, binobarin, qalbi aytib turganidek, yolg'on va yomon narsalar qilayotgani учун ro'za kunlarida xijolat chekib, o'ng'aysiz ahvolga tushdi.

Levin ibodat mahalida o'qilayotgan duo va oyatlarga o'z qarashlariga monand ma'no berishga tirishib qulqolar, goh bu oyat va duolarni tushuna olmasligini, ularni qoralashi kerakligini sezib, qulqol solmaslikka tirishardi, buning o'mniga o'z o'ylari, kuzatishlari va xotiralari bilan mashg'ul bo'lardi: cherkovda bekor turgan paytida bu narsalar miyasida ajoyib bir ravshanlik bilan saf tortib o'tardi.

U ertalabki, kunduzgi va kechki ibodatlarda hozir bo'ldi, ertasiga ham odatdagidan barvaqtroq uyg'ondi-yu, nahor ham qilmasdan, ertalabki ibodatda bo'lish va tavba-tazarru qilish учун ertalab soat sakkizda cherkovga jo'nadi.

¹ Tanish-bilishlarni yo'qlab turish.

Cherkovda bitta gado soldat, ikkita kampir va cherkov xodimlaridan bo'lak hech kim yo'q edi.

Yupqa rido tagidan uzun yag'rinining ikki kuragi yaqqol bilinib turgan yosh dyakon Levinni qarshi olib, darhol devor yonidagi stolcha oldiga keldi-da, toat-ibodat qoidalarini o'qiy boshladi. O'qib turganda, ayniqsa: «Tangrim, rahm qil» so'zlarini tez-tez takrorlaganda, bu so'zlar «tang qil, tang qil» shaklida eshitilganda, Levin o'z fikrlari qulfband ekanligini sezib, ularni bezovta qilib bo'lmasligini, aks holda chuvalashib ketishini o'ylar, shuning uchun dyakon orqasida turib, uning so'zlariga qulq solmas, ma'nosiga ham bormas, faqat o'z o'ylarini davom ettirar edi. Kecha burchakdagi stol yonida Kiti bilan birga o'tirgan paytini eslab: «Qo'l harakatlaridagi ifoda odamni hayron qoldiradi» deb o'ylandi. Ko'pincha shunday paytlarda gaplashishga mavzu topilmay qoladi, shuning uchun Kiti qo'lini stolga qo'yib, panjalarini goh yumib, goh ochib o'tirar, qo'lining harakatiga qarab o'zicha kular edi. Levin mana shu qo'lni o'pganini, so'ngra pushti kaftidagi tutashgan chiziqlarni ko'zdan kechirganini esladi. Keyin u ta'zim qilayotgan dyakonning kiftlari harakatiga qarab o'zi ham ta'zim qildi va cho'qinib turib: «Yana tang qil», deb o'ylandi. «So'ngra Kiti mening qo'limni ushlab, kaftimdagи chiziqlarga qaradi: – Qo'lingiz ajoyib ekan, dedi». Shu o'yidan keyin o'zining qo'liga, dyakonning ham kalta qo'liga bir qarab oldi. «Ha, tezda tamom bo'ladi, – deb o'ylandi. So'ngra oyatga qulq solib: – Yo'q, chamamda yana boshidan tushdi, – deb tag'in o'ylandi. – Yo'q, tugatyapti; ana, yerga egilib ta'zim qilyapti – oxiriga yaqinlashganda hamma vaqt shunday qilishadi».

Dyakon baxmal yengi qaytarib qo'yilgan qo'li bilan uch so'mlik qog'oz pulni sekin, sezdirmasdan oldi-da, «xo'p, yozib qo'yaman», dedi; keyin bo'sh cherkovning plita polini yangi etiklari bilan g'arch-g'urch bosib, mehrobga bordi. Bir daqiqachadan so'ng u yerdan turib Levinni imladı. Levinni hozirgacha miyasida karaxt bo'lib yotgan fikr qimirlay boshladi, ammo Levin uni darhol quvib yubordi. «Bir amali bo'lar», deb o'ylandi-yu, amvonga¹ qarab yurdi. Pog'onalardan chiqib o'ngga burildi, shunda popni ko'rib qoldi, siyrak soqollari moshkichiri bo'lib qolgan chuvakkina, horg'in ko'zlari muloyim qari

¹ Amvon – pravoslav cherkovida, mehrob oldidagi balandlik (*tarj.*).

pop analog¹ yonida bir diniy kitobni varaqlab turardi. Pop, Levinga xiyol ta'zim qilib qo'yib, odat bo'lib qolgan bir ovoz bilan darhol oyat o'qishga tutindi. O'qib bo'lganidan so'ng sajda qildi, keyin yuzini Levinga o'girdi-da, Isoning qo'llari yozilib kaftlaridan taxtaga qoqligan suratiga ishora qilib turib:

– Hazrati Iso sizning tavba-tazarrularingizni mana shu yerda ko'zga ko'rinxay turib eshitadi, – dedi. Keyin yuzini Levindan teskari o'girib olib va qo'llarini ko'ksida qovushtirib turib, so'zini davom qildirdi: – Muqaddas cherkovning bizga bergen ta'limlariga ishonasizmi?

Levin o'ziga yoqmagan bir ovoz bilan:

– Men shak keltirar edim, hamma narsaga shak keltiraman, – deb darrov jim bo'lib qoldi.

Pop, u yana biron narsa deyarmikan, deb bir necha soniya sabr qilib turdi, keyin ko'zlarini yumib olib, Vladimir viloyati lahjasida «»ni bo'rttirib, tez-tez gapira ketdi:

– Odam bolasida shak keltirish hollari bo'ladi, lekin Tangridan imon tilab, munojot qilishimiz kerak. – Keyin vaqtini zoe ketkazmaslikka tirishayotgandek, gapini zarracha ham to'xtatmasdan ilova qildi: – Nima gunoh qilgansiz?

– Mening eng katta gunohim – shak keltirganim. Hamma narsaga shak keltiraman, ko'pincha shak-shubha ichida yashayman.

– Odam bolasida shak keltirish hollari bo'ladi, – dedi pop yana boyagi so'zlarini takrorlab, – xo'sh, asosan nimalarga shak keltirasiz?

– Hamma narsaga shak keltiraman. Gohi mahallar hatto xudoning borligiga ham shak keltiraman, – Levin ixtiyorsh shunday dedi-yu, nojo'ya aytgan gapidan qo'rqib ketdi. Ammo Levingning so'zları popga ta'sir qilmagandek ko'rindi.

Pop miyig'ida bir kulimsirab qo'ydi-yu, darrov:

– Xudoning borligiga qanaqa shak bo'lishi mumkin? – dedi.

Levin indamadi.

Pop yana odatdagicha tez, bidirlab gapira boshladi:

– Xoliqulqudratning xilqatlarini ko'zingiz ila ko'ra turib, yana bunga nechuk shak keltira olasiz? Falakni shams-yulduzlar bilan kim

¹ Analoy – cherkovda bo'ladigan va ustiga ikonalar bilan kitoblar qo'yiladigan baland stol (*tarj.*).

muzayyan qildi? Yerga kim tarovat berdi? Xoliqlqudratsiz shunday narsalarning bo‘lishi mumkinmi? – dedi u Levinga savol nazari bilan qarab.

Levin pop bilan falsafiy munozara boshlashni o‘ziga ep ko‘rmadi, shuning uchun faqat savolga taalluqli javobnigina qildi:

– Bilmayman.

– Bilmaysiz? Bo‘lmasa, hamma narsani Rabbim yaratganiga nechuk shak keltirasiz? – dedi pop hayrat bilan kulimsirab.

Levin o‘zining gaplari bema’niligini va shunday paytda bema’niligi muqarrar bo‘lishini payqab:

– Hech narsaga fahmim yetmaydi, – dedi.

– Xudoyi taologa munojot qiling, so‘rang, tilang. Cherkov peshvolari orasida ham shak keltirganlar bo‘lgan, ular ham Egamdan imon tilaganlar. Shaytonning kuchi zo‘r, biz uning vasvasalariga uchmasligimiz kerak. Xudoyi taologa munojot qiling, so‘rang, tilang. Xudoyi taologa munojot qiling, – dedi pop yana tezgina takrorlab.

Pop, xuddi xayol surayotgandek, bir necha dam sukut saqladi, keyin kulimsirab:

– Eshitdim, siz mening qavmim – xudojo‘y knyaz Shcherbatskiyning qiziga uylanmoqchi emishsiz, – dedi. – Ko‘p ajoyib qiz-da!

Levin popning gapidan qizarib:

– Ha, – deb qo‘ya qolgan bo‘lsa ham, «tavba-tazarru paytida buni so‘rab nima qilar ekan-a?» deb o‘yladi.

Pop, uning miyasiga kelgan fikrga javob qilayotgandek:

– Siz boshingizni ikkita qilmoqchisiz, juda soz, Rabbim farzand ato qilsa ajab emas, shundaymi? Yaxshi, lekin sizni kufr yo‘liga boshlayotgan shaytonning vasvasalarini yengmasangiz, bolalaringizga qanday qilib tarbiya bera olursiz? – dedi pop beozor bir ta’na bilan. – Agar o‘z pushti kamaringizdan bo‘lgan farzandlaringizni sevsangiz, yaxshi ota bo‘lsangiz, bolalaringizga yolg‘iz davlat va ziynat, shuhrat va sarvat orzu qilmaysiz; siz ularga imon tilaysiz, qalblarining haqiqat yog‘dusi bilan munavvar bo‘lishini orzu qilasiz. Shunday emasmi? Ma’sum bola mabodo sizdan: «Otajon! Bu yorug‘ dunyoda meni maftun qilgan er, suv, quyosh, gul, o‘lanlarning hammasini kim yaratgan?» deb so‘rab qolsa, siz nima deb javob berasiz? Nahotki unga ham: «Bilmayman» deb javob bersangiz? Yaratgan Egam o‘zining ulug‘ qudrati va shafqati bilan bu narsalarni sizga ko‘rsatib

qo‘yibdi, buni bilmasdan ilojingiz yo‘q. Yoinki bolangiz sizdan: «U dunyoda holim nima kechadi?» deb so‘rab qoldi. Modomiki siz hech narsani bilmas ekansiz, unga nima deb javob qilasiz? Qani, nima deb javob qilasiz? Uni yorug‘ dunyoning orzu havaslari-yu shaytonning vasvasalariga topshirib qo‘yasizmi? Bu yaxshi bo‘lmaydi! – dedi-yu, pop boshini bir yonga egib, Levinga mehribon, mo‘min ko‘zlar bilan tikilganicha jim bo‘lib qoldi.

Levin pop bilan munozaraga kirishishni xohlamagani uchun emas, yo‘q, unga hech kim bu xil savollarni bermagani uchun churq etolmay qoldi; bolasi shunaqa savollarni beradigan bo‘lganda esa qanday javob qilishni o‘ylashga fursat topiladi.

Pop so‘zida davom etdi:

– Siz o‘zingizga yo‘l tanlab olish va shu yo‘ldan borish lozim bo‘lgan bir davrga kirib borayotibsiz. Tangriga munojot qiling, u o‘zining oljanobligi bilan sizga yordam qo‘lini cho‘zib, afv etgay, – dedi pop so‘zining oxirida. – Egamiz, parvardigorimiz hazrati Iso o‘zining insonparvarlik shafqati va rahmati bilan osiy bandasini kechirsin... – Pop o‘z duosini tugatdi-da, fotiha berib, Levinni chiqarib yubordi.

Levin shu kuni uyiga qaytib keldi-da, noqulay ahvoldan qutulgani, bunda yolg‘on gapirishga majbur bo‘lmagani uchun quvonib terisiga sig‘may ketdi. Bundan tashqari, mehribon va dilbar chuvak chol aytgan gaplari avval unga birmuncha bema’ni tuyulgan bo‘lsa ham, haqiqatda unday emasligi, bu gaplarda aniqlash lozim bo‘lgani allaqanday narsalar borligi ham Levinning esiga tushdi.

«Albatta, hozir emas, keyin vaqt soati bilan aniqlanar», – deb o‘yladi Levin. U qalbida ta‘bini xira qilib turgan qandaydir dudmal bir narsa borligini, dinga munosabatida esa boshqalarda ravshan ko‘rgan, yoqimsiz bir holatda ekanini ilgarigi vaqtlardagidan ham kuchliroq his etdi: u mahallar shu sifatlari uchun oshnasi Sviyajskiyga ta‘na qilar edi.

Levin oqshomni qaylig‘i bilan Dollinikida vaqtichog‘ bo‘lib o‘tkazdi va ichiga sig‘mayotgan xursandligini Stepan Arkadichga ta‘riflab turib, o‘zining shodligini chambardan sakrashga o‘rgatilgan va o‘zidan talab qilingan narsani axiyri tushunib, chambardan sakrab o‘tgan, suyunganidan g‘ingshib, dumini jil panglatib stolga, derazaga irg‘ishlab chiqa boshlagan itning quvonchiga o‘xshatdi.

II

Levin to'y kuni odat bo'yicha qaylig'ini ko'rmadi (hamma urf-odatlarning bajarilishini knyaginya bilan Darya Aleksandrovna qattiq talab qildi), tushgan musofirxonasida ittifoqo to'plangan uchta so'qqabosh odam bilan ovqat qildi; bular Sergey Ivanovich, Levinning universitetda birga o'qigan o'rtog'i, hozir tabiiy fanlar professori Katavasov (buni Levin ko'chada ko'rib qolib, nomeriga sudrab olib kirgan edi) va kuyov jo'rasi, Levin bilan birgalikda ayiq ovalshgan Moskva mirovoy sudyasi Chirikov edi. Ovqat ustida chaqchaqlashib o'tirishdi; Sergey Ivanovichning kayfi chog' edi, u Katavasovning g'alati qiliqlarini ermak qilib kular edi. Katavasov o'z qiliqlarining ta'riflanganligini, hamma payqaganligini sezib, besh battar havolalar edi. Chirikov hamma gapga xushchaqchaqlik bilan qo'shilib o'tirardi.

Katavasov kafedrada orttirgan odati bilan so'zlarni cho'zib:

– Qarang, oshnamiz Konstantin Dmitrich qanday layoqatli yigit edi, – deyardi. – Men g'oyiblar to'g'risida gapiryapman, chunki u odam endi yo'q. Universitetni tugatgan paytlarida fanni ham sevar edi, insoniy zavqqa ham ega edi; endi esa layoqatining yarmi o'zini aldashga, yarmi esa aldamchilikni oqlashga sarf bo'lyapti.

– Uylanishga sizchalik tish-tirnog'i bilan dushman bo'lgan kishini hali ko'rganim yo'q, – dedi Sergey Ivanovich.

– Yo'q, men dushman emasman. Men mehnat taqsimoti tarafdoriman. Qo'lidan hech narsa kelmaydigan odamlar odam bino qilishlari, qolganlar esa bunday odamlarning baxtli va ma'rifatli bo'lishlari uchun ko'maklashishlari kerak. Mana men shunday deb o'layman. Bu ikki kasbni adashtirish borib turgan johillik, men esa bundaylar jumlasidan emasman.

– Ishqqa mutbalo bo'lganingizni ko'rsam, baxtiyor bo'lardim, – dedi Levin. – To'yingizga chaqiring-da meni, baraka topkur.

– Allaqachon mutbaloman.

– Karakatitsaga¹ mutbalosiz. – Levin akasiga qarab gapirdi: – Bilasanmi, Mixail Semyonich ovqatlanish va yana bir nima to'g'-risida asar yozyapti.

– Qo'ying, gapni chalg'itmang! Nima to'g'risida bo'lsa ham farqi yo'q. Karakatitsaga ishqim tushgani aniq gap.

¹ Yumshoq dengiz shilliqqurti (*tarj.*).

- Karakatitsa xotiningizni sevishingizga xalaqit bermaydi.
- U-ku xalaqit bermaydi-ya, xotinim xalaqit beradi.
- Nega endi?
- Ko‘rasiz-da. Mana, masalan, siz xo‘jalik ishlarini, ovni yaxshi ko‘rasiz, boshingizga tushganda bilasiz.
- Bugun Arxip keluvdi, Prudnovda kiyik to‘lib yotgan emish, ikkita ayiq ham ko‘rdim, deydi, — dedi Chirikov.
- Mensiz ham o‘zingiz qoyil qilib tashlaysiz.
- Mana bu gaping to‘g‘ri, — dedi Sergey Ivanovich. — Bundan bu yoq ayiq ovi bilan xayr-ma’zur qilib qo‘yaver, endi xotining qo‘ymaydi!

Levin kulimsiradi. Xotinining ovga chiqishiga qo‘ymaganligini ko‘z oldiga keltirib, shunday huzur qildiki, ayiqni ko‘rish shavqidan uzil-kesil voz kechgisi kelib ketdi.

— Gap-ku shunday-yu, lekin shu ikkita ayiqni sизsiz qo‘lga tushirishlari yomon alam qiladi-da! Xapilovda qilgan keyingi ovimiz esingizdami? Ammo ajoyib ov bo‘lardi-da, — dedi Chirikov.

Levin ovdan ham yaxshiroq narsalar borligini aytib, uning ta‘bini xira qilgisi kelmadi, shu vajdan hech nima demadi.

— Bo‘ydoqlik hayoti bilan xayr-ma’zur qilishlik odati bekor rasm bo‘lmagan, — dedi Sergey Ivanovich. — Ozmi-ko‘pmi baxt ko‘rasan-u, lekin erkingdan ayrilganing alam qiladi.

— Rostini aiting, Gogol pesasidagi kuyov singari sizda ham derazadan tashlab qochish istagi bordir?

— Albatta, bordir, lekin tan bermaydi-da! — deb Katavasov qah-qah urib kulib yubordi.

— Marhamat, deraza ochiq... Hozir Tverga jo‘naymiz! Bittasi urg‘ochi ayiq, iniga tikka bostirib boraverish mumkin. Kelinglar, soat beshdag‘i poezd bilan jo‘nay qolaylik! Bu yerdagilar bilganini qilishsin, — dedi kulimsirab Chirikov.

Levin ham kulimsirab:

— Erkimdan ayrilaman deb afsus yeyayotgan bo‘lsam, Xudo ursin, ko‘nglimda shunday his yo‘q! — dedi.

— Iye, ko‘nglingiz hozir shunday alag‘daki, nima bor, nima yo‘qligini bilmaysiz, — dedi Katavasov. — Shoshmang, biroz o‘zingizni bosib olganingizdan keyin bilasiz!

– Yo‘q, ko‘nglimda o‘z sezgi... (u sevgi demoqchi bo‘ldiyu, aytmad) va baxtimdan bo‘lak bir narsa bo‘lsa, erkimdan ayrilayotibman, degan zarracha afsus bo‘lsa boshqa gap edi... Aksincha, bunaqangi erkinlikdan ajralayotganim uchun shodman.

– Yomon bo‘libdi! Tamom bo‘libdi bu odam! – dedi Katavasov. – Kelinglar, buning tuzalishi yoki orzularining loaqal yuzdan biri ushalishi uchun ichaylik. Ana unda shunday bir baxtga erishasizki, bunday baxt hali yer yuzida bo‘lgan emas!

Mehmonlar to‘yga kiyinib kelish uchun ovqatdan keyin darrov jo‘nab ketdilar.

Levin yolg‘iz qolgandan keyin haligi takasaltanglarning gaplarini eslab, o‘zidan yana bir marta so‘radi: «Ular erkinligingdan ayrilayotganing uchun afsus yeyapsan, deyishdi. Ko‘nglimda shunday his bormi?» – shu savolni bera turib, Levin o‘zidan o‘zi kulimsirab yubordi. «Erk? Erkinlikning nima keragi bor? Butun baxt – sevgi va havasda, u nimani orzu qilsa, o‘shani orzu qilish, nimani o‘ylasa, o‘shani o‘ylash, ya‘ni har qanday erkinlikning bahridan o‘tishda – baxt deb shuni aytadilar!

«Lekin uning o‘y va fikrlari, orzu va havaslari, sezgi va tuyg‘ularini bilasanmi?» deb birdan allaqanday tovush shipshiy boshladidi. Levinning yuzidagi tabassum yo‘qoldi, u o‘ylanib qoldi. Shu dam yuragida g‘alati bir his uyg‘ondi. Yuragida vahm bilan gumon, hamma narsadan gumonsirash hissi paydo bo‘ldi.

«Bordi-yu, u meni sevmasa? Bordi-yu, menga erga tegish uchungina tegayotgan bo‘lsa? Bordi-yu, qilayotgan narsasini o‘zi ham bilmay qilayotgan bo‘lsa? – deb so‘rardi o‘zidan. – U esini yig‘ishtirib olishi, to‘ydan keyin meni yaxshi ko‘rmasligini va yaxshi ko‘rmaganligini anglashi mumkin». Shundan keyin miyasiga Kiti to‘g‘risida g‘alati, eng yomon fikrlar kela boshladidi. Bir yil muqaddam Kitini Vronskiy bilan ko‘rgan kechasi xuddi kechagini bo‘lib o‘tgandek rashki keldi. Kiti sirlarini yashirdi, hammasini aytmadidi, deb gumon qila boshladidi.

Levin dast o‘rnidan turdi. «Yo‘q, bunday qoldirib bo‘lmaydi! – dedi jaholati qo‘zg‘ab. – Oldiga boraman, so‘rayman, oxirgi marta aytaman: «Boshimiz ochiq. To‘yni to‘xtatganimiz ma’qul emasmi?» deyman. Hamisha baxtsiz, sharmanda bo‘lib yurgandan,

vafosizlik ko'rgandan ko'ra boshqa har qanday jabr-u jafoga chidagan yaxshi!» Levin yuragida bir isyon, hamma odamlarga, o'ziga, Kitiga qarshi bir g'azab bilan musofirxonadan chiqib, qaylig'inikiga ketdi.

U Kitini orqa tomondagi bo'lmalarning biridan topdi. Kiti sandiq ustida xizmatkor qizga allaqanday ishlar buyurib, stullarning suyanchiqlariga tashlangan, yerda yotgan rang-barang ko'yaklarini taxlatib o'tirgan edi.

Kiti Levinni ko'rib:

– Voy! – deb yubordi-yu, suyunganidan charaqlab ketdi. – Voy, qanday kelding, qanday keldingiz? (shu kungacha Kiti uni goh sensirab, goh sizsirab kelardi). Sizni kelib qolarsiz deb o'ylamovdim! Qizlik ko'yaklarimni olib ko'ryapman, kimga qaysisini...

– O, juda soz! – dedi Levin xizmatkor qiz tomonga xo'mrayib.

– Bor, Dunyasha, keyin o'zim chaqiraman, – dedi Kiti. Xizmatkor qiz chiqib ketgandan keyin esa uni dadil sensirab: – Nima bo'ldi senga? – deb so'radi. Kiti uning avzoyi buzuqligini, yuzidagi haya-jonni va qovoqlaridan qor yog'ib turganini sezib, o'zi ham qo'rqib ketdi.

Levin qaylig'i oldida to'xtadi-da, ko'zlariga mo'ltirab qarab turib:

– Kiti! Qiynalyapman. O'z yog'imga o'zim qovurilishga rozi emasman, – dedi ma'yus bir ovoz bilan. Levin qaylig'ining sevgi to'la rostgo'y yuzini ko'rib, aytmoqchi bo'lib kelgan gapidan hech narsa chiqmasligiga aqli yetsa ham, yana ko'nglini Kitining o'zi tinchitishini xohlar edi. – Hali fursat borligini aytgani keldim. Bu narsalarni to'xtatish, ishni o'ngiga burib yuborish mumkin.

– Nima? Hech narsa tushunmayapman. Nima bo'ldi senga?

– Buni ming martalab aytganman, buni miyamdan hech chiqarolmayman... Senga men munosib emasman. Menga tegmaslikning yo'lini topolmading. O'ylab ko'r. Xato qilyapsan. Yaxshilab o'ylab ko'r. Menga ko'ngil berolmaysan... agar... yaxshisi: ayt-qo'y, – dedi Kitidan ko'zlarini olib qochib. – Bebaxt bo'laman. Mayli, kim nima desa, deyaversin: hamma gaplar ham bebaxtlikdan afzalroq... hali fursat bor, bir yoqlik qilganimiz ma'qul.

– Hayron bo'lib qoldim, – dedi Kiti vahimaga tushib, – nima, meni olmaydigan bo'lodingmi... qaytyapsanmi?..

– Ha, agar meni yomon ko'rsang.

Kiti zardasi qaynaganidan qizarib, qichqirib yubordi:

– Jinni bo‘psan!

Ammo Levinning chehrasi shu qadar ayanchli, xomush ediki, Kiti o‘zini bosib olib, kursidan ko‘ylagini olib tashladi-da, Levinga yaqinroq kelib o‘tirdi.

– Nimalarni o‘ylab yuribsan? Gapir hammasini.

– Meni yaxshi ko‘rolmaysan, deb o‘ylayman... Mening nimamni yaxshi ko‘rishing mumkin?

– Voy Xudo! Nima qilay axir! – dedi-yu Kiti yig‘lab yubordi.

Levin:

– Obbo, nima qilib qo‘ydim-a! – deb qichqirdi-da, qiz oldida tiz cho‘kib, qo‘llarini o‘pa boshladi.

Besh daqiqachadan keyin knyaginya uygaga kirganda ular allaqachon apoq-chapoq bo‘lib ketishgan edi. Kiti yaxshi ko‘rganligiga Levinni ishontiribgina qolmay, hatto «meni nimam uchun yaxshi ko‘rasiz?» degan savoliga ham javob berib, nimasi uchun yaxshi ko‘rganligini batafsil so‘zlab berdi. Kiti uning ko‘nglidagi hamma niyatlarini tushungan, u nimani yaxshi ko‘rishi kerakligini bilgan va u sevgan narsalarning hammasi yaxshi narsalar bo‘lgani uchun Levinni sevganligini aytgan edi. Bu gaplar Levinning ko‘nglini ravshan qildi. Knyaginya kirganda, ular sandiq ustida yonma-yon o‘tirishib, Kitining ko‘ylaklarini ko‘rishar, Kiti Dunyashaga bermoqchi bo‘lgan jigarrang ko‘ylak ustida talashar edi; Levin «Dunyashaga havo rang ko‘ylagingni bera qol, men senga og‘iz solgan kunim kiyib chiqqan jigarrang ko‘ylagingni hech kimga berma», deb tixirlik qilayotgan edi.

– Nega tushummaysan-a? Dunyasha qorachadan kelgan qiz, bu yarashmaydi... men hammasini hisobga olib qo‘yanman.

Knyaginya Levinning nimaga kelganligini bilgandan so‘ng, yarim hazil, yarim jiddiy qiyofada to‘ng‘illab berdi. Keyin: «Kitining taranib-tuzanishiga xalaqit berma, hali zamon Sharl kelib qoladi», deb Levinni uyiga jo‘natib yubordi.

– Hali ham bu shu kunlarda hech nima yemay, ozib-to‘zib ketdi, sen bo‘lsang, o‘lganning ustiga chiqib tepganday bema‘ni gumonlaring bilan ko‘nglini buzasan, – dedi unga knyaginya. – Jo‘na, jo‘nab qol tezroq, baraka topgur.

Levin Kitinikidan aybdor kishidek, xijolat tortib chiqqan bo‘lsa ham, musofirxonasiga ko‘ngli tinchib qaytdi. Akasi, Darya

Aleksandrovna va Stepan Arkadich yasangan-tusangan holda unga Iso surati bilan fotiha bermoqchi bo'lib turishgan edi. Vaqt ziq, shoshilish kerak edi. Hali Darya Aleksandrovna uyiga borib, yuziga upa-elik surtilgan, sochlari jingalak qilingan o'g'lini ham olib kelishi kerak, chunki kelinchakni cherkovga Iso surati bilan shu bola boshlab kirardi. Innankeyin, bitta karetani kuyov jo'rasiga yuborish, Sergey Ivanovichni olib boradigan ikkinchi karetani esa qaytarib keltirish kerak... umuman, nazardan qochirib bo'lmaydigan ishlar nihoyatda ko'p edi. Lekin bittasiga shubba yo'q edi: imillab bo'lmasdi, chunki soat allaqachon olti yarim bo'lib qolgan edi.

Iso surati bilan beriladigan fotihadan hech narsa chiqmadi. Stepan Arkadich kulgili bir tarzda bo'lib, tantanali bir qiyofada xotinining yoniga kelib turdi, qo'liga Iso suratini oldi, Levinga sajda qilishni buyurdi-da, muloyim va masxaraomuz bir tabassum bilan fotihani berib, uni uch bor o'pdi; Darya Aleksandrovna ham shunday qildi-yu, darhol yo'l taraddudiga tushib qoldi; chiqib ketayotib karetalarning qaysi birini qayerga yuborish kerakligini yana adashtirib qo'ydi.

– Bo'lmasa bunday qilaylik: sen bizning karetamizda kuyov jo'ranikiga bor, Sergey Ivanovich bo'lsa, odamshavandalik qilib, karetada borsa-yu, keyin bu yoqqa yuborsa yaxshi bo'lardi.

– Xo'p, jon deb boraman.

– Biz bu bilan yetib boramiz. Narsalar yuborilganmi? – dedi Stepan Arkadich.

Levin:

– Yuborilgan, – deb javob qildi-da, Kuzmaga kiyimlarini keltirishni buyurdi.

III

Xaloyiq, ayniqsa, xotin-qizlar, nikoh o'qitish uchun yoritilgan cherkovni o'rab oldi. Cherkov ichiga kirolmay qolgan odamlar derazalar yonida uymalashib, bir-birlarini itarishib, janjallahish, panjaralardan ichkariga mo'ralashadi. Yigirma chog'li karetani jandarmlar ko'cha bo'ylab qator qilib tizib qo'ygan. Politsiya ofitseri qahraton sovuqni pisand qilmay, eshik og'zida mundirini yaraqlatib turadi. Paydar-pay karetalar keladi, goh gul ko'targan xonimlar uchun etaklarini yig'ishtirib, goh erkaklar kepkalari yo qora shlapalarini

qo'llariga olib ichkari kirishadi. Cherkov ichida esa har ikkala chilchiroq bilan avliyolar surati yonidagi shamlar yoqib qo'yilgan. Zarrin yog'du sochib turgan qizil ikonastas¹ ham, ikonalarning zarhal naqshlari ham, isiriqdon va shamdonlarning kumush bezaklari ham, pol plitalari va gilamchalari ham, kliros² yonidagi baland zinalar ham, qorayib ketgan eski kitoblar ham, rido va abolar ham nurga cho'mgan. Iliq cherkovning o'ng tomonida fraklar va oq galstuklar, mundirlar va shtoflar, baxmallar va atlaslar, sochlар va gullar, ochiq yelkalar va yalang'och qo'llar, uzun qo'lqoplar orasida yuksak gumbazda g'alati aks sado berib turgan bosiq tovushlar eshitiladi. Eshik har safar g'ichillab ochilganda, xaloyiq orasidagi gurung to'xtaydi-da, hamma kuyov bilan kelin keldimikan, deb o'sha yoqqa qaraydi. Lekin eshik o'n martacha ochilgan bo'lsa ham, har safar kechikkan biror mehmon kirib keladi-yu, taklif qilinganlar to'piga, o'ng tomonga o'tib ketar yoki politsiya ofitserini aldagan yoxud uni iyitib olgan tomoshabin kirib, chap tomondagi to'pga borib qo'shiladi. Qarindosh-urug'lar ham, yot-u begonalar ham kutaverib xunob bo'ldilar.

Oldin bunchalik kechikib qolganlariga hech qanday ma'no bermasdan, kuyov bilan kelin hozir keladi, deb o'ylashdi. Keyin esa bir nima bo'lib qolmadimikan, deb eshik tomonga tez-tez qaraydigan bo'lishdi. Oxirida, bu narsa hammani noqulay ahvolga solib qo'ygandan keyin, qavm-qarindoshlar bilan mehmonlar o'zlarini kuyovni xayollariga ham keltirmagan, o'z suhbatlari bilan mashg'ul bo'lgan kishilarga sola boshladilar.

Bosh dyakon vaqtning qimmat ekanligini pisanda qilayotgandek, dam-badam yo'talib, deraza oynalarini ziringlatar edi. Klirosda toqatlari toq bo'lgan, ovozlarini sinayotgan xonishchilarining burun qoqishlari eshitilardi. Pop kuyov kelmadimikan deb goh kichik dyakonni³, goh dyakonni⁴ tez-tez xabar oldirgani yogurtirar, safsar rido kiygan va zarrin kamar taqqan popning o'zi esa ora-sira yon eshikdan chiqib, kuyovni kutar edi. Nihoyat, xonimlardan biri soatiga

¹ *Ikonastas* – pravoslav cherkovida ikonalar bilan bezatilgan va cherkovning qolgan qismini mehrobdan ajratib turadigan devor (*tarj.*).

² *Kliros* – Ikonastas oldida xonishchilar uchun qurilgan baland joy (*tarj.*).

³ *Kichik dyakon* – pravoslav dinida eng past martabali cherkov ruhonisi (*tarj.*).

⁴ *Dyakon* – pravoslav va katolik cherkovida popdan keyingi o'rinda turgan cherkov ruhonisi (*tarj.*).

qarab: «Juda g'lati bo'ldi-kun deb xutordi. Ana shundan keyin inemmonlar besaranjom bo'lishib, ajablana va naroziqliklarini baland ovoz bilan gapira boshladilar. Kuyov jo'ralaridan biri nima gapligini bilib kelgani ketdi. Bu vaqt Kiti allaqachon taxt bo'lgan, oq ko'ylak kiyib, yuziga uzun, harir parda tutgan, boshiga gulchambar qo'ygan holda, yangasi va opasi Lvova bilan birga Shcherbatskiylar uyining zalida derazadan qarab turardi; kuyovning cherkovga kelganligini kuyov jo'rasi xabar qilishi kerak edi; yarim soatdan beri unga ko'zlar to'rt bo'lib turardi.

Levin bo'lsa bu orada pantalonda, jiletsiz, fraksiz, o'z xonasida u yoqdan bu yoqqa yurar, dam-badam eshikdan suqilib yo'lakka qarardi. Lekin yo'lkada uni intizor qilgan kishi ko'rinxmas, u yana jig'ibiyroni chiqib qaytib kirar, bamaylixotir papirosh chekib o'tirgan Stepan Arkadichga qo'llarini silkitib gapirardi.

– Dunyoda menchalik ahmoq bo'lgan odam bormikan! – dedi u.

Stepan Arkadich uni jahlidan tushiradigan bir tabassum bilan jilmayib:

– Ha, xunuk bo'ldi, – deb tasdiqladi. – Mayli, o'zingni bos, hozir olib kelishadi.

– Yo'q, bu qanaqasi axir? – derdi Levin g'azabini arang bosib. – Yana bu ahmoqona oldi ochiq jiletini aytmaysanmi? Ey tavba! – dedi ko'ylagining g'ijim bo'lib qolgan ko'kragiga qarab. Keyin fig'oni chiqib qichqirdi: – xuddi o'chakishgandek ul-bullarni temir yo'lga olib borib qo'yishdi-ya!

– Bo'lmasa menikini kiya qol.

– Allaqachon shunday qilish kerak edi.

– Mayna bo'lish yaramaydi... sabr qil! O'nglanib ketadi.

Voqeal bunday bo'lgan edi: Levin kiyimlarini keltirishni buyurganda, qari xizmatkori Kuzma frakini, jiletini, boshqa hamma kerakli narsalarini olib keldi. Shunda Levin:

– Ko'ylak-chi?! – deb qichqirdi.

– Ko'ylak egningizda, – deb Kuzma xotirjam bir tabassum bilan javob berdi.

Toza ko'ylak olib kelishga Kuzmaning fahmi yetmabdi. Hamma ul-bulni yig'ishtirib, Shcherbatskiylarnikiga eltilash tashlash to'g'-risida buyruq olgandan so'ng (kuyov bilan kelin bugun kechqurun o'sha yerdan jo'nab ketishardi), xo'jayinning aytganini qilib, frak-

jiletdan boshqa hamma kiyimlarni joylab yuboribdi. Levin ertalab kiygan ko'y lagi g'ijim bo'lib qolgani uchun oldi ochiq jilet tagidan kiyishga yaramas edi. Shcherbatskiylarnikiga odam yuboray desa, uzoq. Darrov ko'y lak sotib oldirgani yuborishdi. Lakey quruq qaytib keldi: yakshanba bo'lgani uchun do'konlar berk ekan. Keyin Stepan Arkadichnikidan ko'y lak oldirib kelishdi; qarashsa, o'lguday keng, kalta ekan. Oxiri Shcherbatskiylarnikiga odam yogurtirib, bo'g'chadan olib keltiradigan bo'lishdi. Bu orada kuyovni cherkovda sarg'ayib kutishar, Levin esa xuddi qafasga tushgan yirtqich hayvonday, uyda u yoqdan bu yoqqa yurar, yo'lakka chiqib qarar, boyaga Kitiga aytgan bema'ni gaplarini dahshat va alam bilan eslab, Kiti nima deb o'ylayotibdi ekan, deb ezilar edi.

Nihoyat, aybdor Kuzma qo'lida ko'y lak bilan xonaga halloslab otilib kirdi.

– Oz bo'lmasa kech qolardim. Aravaga yuklab qo'yishgan ekan, – dedi Kuzma.

Levin uch daqiqadan so'ng, yarasiga tuz sepib o'tirmaslik uchun soatiga ham qaramasdan, yo'lakda chopib chiqib ketdi.

Stepan Arkadich uning orqasidan shoshilmay yo'lga tushdi-yu:

– Bekor yugurasan, foydasi yo'q, – dedi jilmayib. – Ishing o'nglanib ketadi, dedim-ku.

IV

Levin qaylig'ini cherkov zinapoyasi oldida uchratib, u bilan cherkovga kirganda, xaloyiq orasida:

– Kelishdi! Ana kuyov! Qaysinisi? Yoshrog'imi? – Voy o'lay, kelin bechoraning rangida rang qolmabdi! – degan gaplar eshitildi.

Stepan Arkadich kechikib kelganlarining sababini xotiniga aytib bergen edi, mehmonlar jilmayishib, o'zaro shivirlasha boshlashdi. Levinning ko'ziga hech kim, hech narsa ko'rinas edi; u ko'zlarini uzmay, qallig'iga tikilib turardi.

Hamma Kitini so'nggi kunlarda husnini yo'qotibdi, nikoh libosida ilgarigidan xunukroq ko'rinyapti, derdi, ammo Levin bunday fikrda emas edi. U Kitining baland qilib turmaklangan sochlariga, undagi oq parda va oq gullarga, uzun bo'ynini iffat bilan yonlardan to'sib, old tomonini ochib turgan baland burma yoqasiga, kishini maftun qiladigan mo'rhamiyon beliga tikilar, u hozir Levinga har mahalgidan

ham latofatli ko‘rinardi; bu gullar, bu oq parda, Parijdan keltirilgan bu ko‘ylak husniga husn qo‘shayotgani uchun emas, yo‘q; maxsus tayyorlangan bu hashamatli bezaklarga qaramasdan, dilbar chehrasi, ko‘zlari, lablarining ifodasi iffat va rostgo‘ylikning ayni o‘zi bo‘lgani uchun ham yaxshi ko‘rinardi.

Kiti Levinga tabassum qilib:

– Seni qochib ketdingmi, deb o‘ylabman, – dedi.

Levin qizarib ketdi.

– Yo‘g‘-e, shunday bir bema’ni ish bo‘ldiki, aytishga odam uyaladi! – dedi-yu, yoniga kelgan Sergey Ivanovich tomonga yuzini o‘girishga majbur bo‘ldi.

Sergey Ivanovich kallasini chayqatib kulimsirab turib:

– Ko‘ylak mojarosi rosa boshingni qotiribdi-ku! – dedi.

Levin nima deganlarini payqamay:

– Ha-ha, – deb qo‘ya qoldi.

Shu payt Stepan Arkadich yasama bir vahima bilan:

– Menga qara, Kostya, endi bir muhim masalani hal qilishing kerak, – dedi. – Bu masalaning qanchalik muhimligini payqashga hozir qodirsan. Menden: «Yoqilgan shamlarni yoqaylikmi yo yoqilmaganlarinimi?» deb so‘rashyapti. Farqi o‘n so‘m, – dedi u lablari bilan kulib. – Men bir qarorga keldim, lekin sen rozi bo‘lmasmikansan, deb qo‘rqaman.

Levin bu gapning hazilligini fahmlagan bo‘lsa ham, lekin kulmadi.

– Nima deysan? Yoqilganinimi yo yoqilmaganimi? Hal qil.

– Xo‘p, xo‘p! Yoqilmaganini.

– Ey, xayriyat, xursand qilding. Masala hal bo‘ldi! – dedi Stepan Arkadich kulimsirab. Keyin Levin unga parishon holda qarab qo‘yib, qallig‘iga yaqinroq turib olganda, Chirikovga qarab:

– Odamlar mana shunday paytlarda xo‘p esini yeb qo‘yishadi, – dedi.

Grafinya Nordson yaqin kelib:

– Hay, Kiti, gilamga sen oldin o‘t, – dedi. Keyin Levinga qarab:

– Chakki emassiz! – deb qo‘ydi.

Kitining qari ammasi Marya Dmitriyevna:

– Qalay, qo‘rqayotganing yo‘qmi? – deb so‘radi.

Kelinchakning opasi Lvova bo‘lsa:

– Sovuq yeyayotganing yo‘qmi? Oqarib ketding. Shoshma, egil, – dedi-da, bo‘liq, chiroyli qo‘llarini kerib, tabassum bilan qiz boshidagi gullarni tuzatib qo‘ydi.

Dolli singlisining yoniga keldi, bir nima demoqchi bo‘ldi, lekin gapirolmay yig‘lab yubordi, keyin g‘ayritabiyy qilib kului.

Kiti ham Levin singari parishon, u ham hammaga beparvo qarab turardi. O‘ziga aytilgan so‘zlarning hammasiga baxt tabassumi bilangina javob berar, bu tabassum unga hozir shu qadar yarashib tushardi.

Bu orada cherkov ahli ibodat vaqtida kiyadigan liboslarini kiyib oldilar, pop bilan dyakon cherkov to‘ridagi analog yoniga keldi. Pop Levinga qarab bir nima dedi, Levin popning so‘zini uqmay qoldi.

– Qallig‘ingizni qo‘lidan ushlab olib boring, – dedi Levinga kuyov jo‘rasi.

Levin o‘zidan talab qilinayotgan narsalarni ancha vaqtgacha uqolmadi. Uning noto‘g‘ri harakatlarini ancha vaqtgacha tuzatishdi va oxiri qo‘l siltamoqchi ham bo‘lishdi, chunki Levin chap qo‘li bilan qizning chap qo‘lini ushlar edi, nihoyat, holatini o‘zgartirmasdan, o‘ng qo‘li bilan qizning o‘ng qo‘lini ushlash kerakligini anglatdi. Qallig‘ining o‘ng qo‘lini ushlashi bilanoq, pop ular oldiga tushib, bir necha qadam ilgari yurib borib analog yonida to‘xtadi. Qavm-qarindoshlar, tanish-bilishlar g‘ovur-g‘uvur gaplashib, uzun etaklarini shitirlatishib orqalaridan borishdi. Birovi egilib kelinning tagini to‘g‘rilab qo‘ydi. Cherkovga shunday bir jimlik cho‘kdiki, sham mumlarining tomGANI eshitila boshladi.

Oppoq sochlari quloqlaridan oshib, ikki yoqqa ajrab kumushday tovlanib turgan chuvak pop, orqasiga zarhal kumush xoch osilgan og‘ir zarbof rido tagidan kichkina qo‘llarini chiqarib, analog yonida bir narsalarni ola boshladi.

Stepan Arkadich sekingina pop yoniga keldi-da, qulog‘iga bir nima degandan keyin Levinga ko‘zini bir qisib qo‘yib, yana orqaga o‘tib ketdi.

Pop gullar bilan bezatilgan ikkita shamni yoqdi, chap qo‘li bilan qiyshaytirib ushlagan shamning mumini tomizib, kelin bilan kuyov tomonga yuzini o‘girdi. Levinni tavba-tazarru qildirgan pop – shu

pop edi. U kelin bilan kuyovga horg'in, g'amgin ko'zlar bilan qarab xo'rsindi, keyin o'ng qo'lini rido tagidan chiqarib, kuyovga fotiha berdi, so'ngra ehtiyyotkor bir nazokat bilan juftlashtirilgan barmoqlarini Kitining egilgan boshiga qo'ydi. Keyin shamlarni ularga berib, qo'liga isiriqdonni oldi-da, sekin-sekin ular yonidan yurib ketdi.

Levin: «Nahotki, shu haqiqat bo'lsa?» deb o'ylab, darrov qallig'iga qaradi. Biroz pastroqdan Kitining yuzi ko'rindi; shunda lablari bilan kipriklarining xiyol qimirlashidan, o'zining qaraganligini payqaganini sezdi. Kiti o'girilib qaramadi, lekin baland burma yoqasi qimirlab ko'tarildi, kichkina, pushti rang qulog'iga tegdi. Levin qallig'inining nafasi ko'kragida turib qolganini, sham ushlab turgan uzun qo'lqopli kichkina qo'lchasining titrayotganligini ko'rdi.

Hamma to'polon, ko'ylak mojarosi, kechikishi, tanishlar, qarindoshlar bilan bo'lgan gaplar, ularning noroziliklari, o'zining kulgili ahvoli – hammasi birdan yo'q bo'ldi, endi uning ichi quvonchga, dahshatga to'ldi. Zarbof rido kiygan, tarab qo'yilgan jingalak sochlari ikki yonda dikkayib turgan basavlat, barvasta bosh dyakon dadil oldinga chiqdi-da, odat bo'lib qolgan bir harakat-la ikki barmog'i bilan orarni¹ baland ko'tarib, pop qoshida to'xtadi.

Havoni to'lqinlantirib sekin-sekin, birin-ketin tantanali ovozlar yangradi:

«Yo Par-var-digor, O'zing madad-kor!»

Chuvak pop, analogda allanimani paypaslab turib, muloyim, mayin tovush bilan: «Parvardigor, bugun ham, ertaga ham to abadulabad madadkordir», deb javob qildi. So'ngra ko'zga ko'rinmas sozdan silliq, jarangdor sado yangrab, derazadan gumbazgacha ko'tarildi, kuchaydi, keyin sekin-sekin to'xtadi.

Har mahalgidek u dunyo, imon, cherkov, podsho haqida munojot qildi; Tangrining nikoh qilinuvchi qullari Konstantin bilan Yekaterina haqiga duo qildi.

«Munojot qilaylikkim, Tangri bularga ishq-u muhabbat ato qilsin, tinch-totuv yashashsin, Parvardigor madadkor bo'lsin», – deyayotgan dyakon ovozi bilan butun cherkov nafas olayotgandek edi.

¹ *Orar* – dyakon libosining bir qismi, yelkasidan oshirib tashlab qo'yiladigan uzun lenta (*tarj.*).

Levin bu so‘zлarni eshitib, hayron bo‘lar edi. U keyingi paytlardagi qo‘rquv va gumonlarini eslab: «Madad kerakligini, faqat madad kerakligini bular qayerdan bilishdi-ya?» deb o‘ylardi. – Men nima bilaman? Bu qo‘rquinchli ishda madad bo‘lmasa, qo‘limdan nima keladi? Menga hozir xuddi shu madad kerak».

Dyakon munojotini tugatgandan so‘ng pop nikoh qilinuvchilarga kitob bilan murojaat qildi.

«Tole va taqdirlarini, sevgi va muhabbatlarini bir-biriga payvand qilib qovushtiruvchi qudratli parvardigor, – deb muloyim, mayin tovush bilan o‘qiy ketdi, – bandalaringga ibrat qoldirgan Is‘hoq bilan Rafaqani qovushtirgan ulug‘ tangrim, ushbu qulbachchalarining Konstantin bilan Yekaterinaga ham o‘zing madadkor bo‘l, xayr-u saxovatingni darig‘ tutma. Illo, rahm-u shafqating, bandalaringga muhabbatning bepoyondir; sen ota, o‘g‘il va muqaddas ruhga; bugun, erta va ilalabad qudrati ilohiga munojot qilamiz». Yana havoda ko‘zga ko‘rinmas bir xor yangradi: – «Omin!»

«Tole va taqdirlarini, sevgi va muhabbatlarini bir-biriga payvand qilib qovushtiruvchi» – qanchalik ma’nosи chuqur so‘zlar bu! Shu damdagi his va tuyg‘ularga naqadar monand so‘zlar bu! – deb o‘ylardi Levin. – Unda ham mendagi tuyg‘ular bormikan?»

Shundan keyin Levin yalt etib qaradi-yu, Kitining ko‘zlariga duch keldi.

Levin uning ko‘zlaridan u ham o‘zi singari tushunib turganligini angladi. Lekin bu noto‘g‘ri edi. Kiti ibodat so‘zlarini qariyb tushunmagan, hatto nikoh paytida munojotlarga quloq ham solmagan edi. Uning quloq solishga, tushunishga madori qolmagan: yuragida qudratli bir his uyg‘onib, qalbini to‘ldirgan, hamon kuchayib borayotgan edi. Bu his bir yarim oydan beri qalbida maskan topib, shu olti haftadan beri quvontirib, qiyab kelgan narsalarning to‘la amalga oshganidan bunyodga kelgan shodlik edi. Arbat ko‘chasidagi uylarining zalida egnida jigar rang ko‘ylak bilan Levin yoniga jimgina kelib taslim bo‘lgan kunida, xuddi o‘sha kun va soatda Kitining qalbi o‘tmish hayotidagi barcha narsalar bilan aloqasini batamom uzgan va o‘ziga butunlay noma‘lum bo‘lgan tamoman boshqa, yangi hayot boshlagan bo‘lsa ham, lekin amalda eski hayot davom etib kelayotgan edi. Bu olti hafta Kiti uchun eng shirin, eng azobbaxsh davr bo‘ldi. Butun hayoti, butun orzu-havaslari, butun umid va tilaklari hali hozir

o'zi yaxshi bilmagan kishiga bog'liq bo'lib qoldi, uni o'sha kishiga bog'lab turgan his esa o'sha kishidan ham mubhamroq his edi: bu his Kitini goh unga yaqinlashtirar, goh uzoqlashtirar, bunga qaramay, u eski hayot sharoitida yashab kelardi. Eski hayot ichida yashab turgan, o'zidan va o'tmishtga aloqador bo'lgan narsalarga: buyumlariga, odatlariga, o'zi ham, o'zini ham yaxshi ko'rgan odamlarga, o'zida paydo bo'lgan parvosizlikdan koyib yurgan onasiga, ilgari dunyoda hammadan ortiqroq yaxshi ko'rgan mehribon otasiga hech bir yo'il bilan yengib bo'lmaydigan bir parvosizlik bilan qaray boshlaganidan qo'rqrar edi. Goh bu parvosizlikdan dahshatga tushar, goh bu parvosizlikka sabab bo'lgan narsalardan quvonar edi. U bu odam bilan birga turmush qilishdan boshqa hech narsani o'yamas, hech narsani orzu qilmas edi; lekin u orzu qilgan yangi hayot hali kelmagan, uni hatto ravshanroq tasavvur ham qilmagan edi. Yuragida bir intazorlik bo'lsa, bu yangi va noma'lum hayot vahmi va shodligi edi. Mana endi intazorlik ham, noma'lumlik ham, o'tmisht hayotdan voz kechishdan pushaymon bo'lish ham – hammasi tugaydi, yangi hayot boshlanadi. Bu yangi hayot noma'lumligi bilan vahima tug'dirmay iloji yo'q edi; lekin vahimalimi-yo'qmi bu yangi hayot bundan olti hafta burun Kitining qalbidan joy olgan: qalbida qachonlari bunyodga kelgan narsalar mana endi muqaddaslashtirilyapti.

Pop yana analog tomonga burildi-da, Kitining kichkina uzukchasiini topdi, keyin Levinga qo'lingizni bering deb, uzukni barmog'inining birinchi bo'g'iniga taqib qo'ysi. «Tangrining bandasi Konstantin Tangrining quli Yekaterinaga uylanyapti», dedi pop; keyin Kitining bo'shashgan kichkina, pushtirang barmog'iga kattakon uzukni taqib, pop yana yuqoridagi so'zlarini takrorladi.

Kuyov bilan kelin nima qilish kerakligini bilib olishga urnab ko'rishgan bo'lsa ham, har safar adashib qolishar, pop shivirlab xatolarini tuzatardi. Nihoyat, pop qilinishi lozim bo'lgan narsalarni qilib bo'lgandan so'ng, yana Kitiga katta, Levinga esa kichik uzukni berdi. Kuyov bilan kelin yana adashdi, uzuklarni ikki marta qo'ldan qo'lga berishdi, oqibat, talab qilingan qoidani joyiga keltirisha olmadidi.

Dolli, Chirikov va Stepan Arkadich ularning xatolarini tuzatgani borishdi. G'ala-g'ovur, pichirlashlar, jilmayishlar boshlandi, lekin kelin bilan kuyov yuzidagi tantanali ifoda, muloyimlik o'zgarmadi; aksincha, qo'llarini chalkashtirish bilan qiyofalari ilgarididan anche

jiddiy, ancha tantanali tus oldi. Stepan Arkadich: «Har biringiz o‘z uzugingizni taqib oling», deb shivirladi-yu, yuzida paydo bo‘lgan tabassumi lablarida qotib qoldi. Stepan Arkadichga har qanday tabassum ularni haqorat qiladigandek tuyulardi.

Uzuklar almashib taqilgandan so‘ng, pop: «Sen o‘zing avvalo ushbu erkak zotini va ushbu ayol zotini bunyod qilding, – deb o‘qiy boshladi. – Bani odam urug‘ini ko‘paytirmoq, unga ko‘mak bermoq uchun erkak zotiga xotin yubording. Yo parvardigori olam, osiy bandalaringga haqiqat yo‘lini ko‘rsat, sen bizning panohimiz, madadkorimizsan, marhamatingni darig‘ tutma. Bandang Konstantindan va bandang Yekaterinadan shafqat yuzingni o‘girma, ularning nikohlarini imonlari bilan, ahillik va muhabbatlari bilan mustahkamla...»

Levin uylanish to‘g‘risidagi fikrlari, turmush qurish to‘g‘risidagi orzu-havaslari – bularning hammasi yosh bolalik ekanligini, bular hozirgacha o‘zining fahmi yetmagan va hozir boshiga tushgan bo‘lsa ham, yana battar fahmi yetmayotgan narsalar ekanligini tobora ko‘proq his qila boshladi; ko‘ksida dam sayin kuchayib borgan titroq turdi, ko‘zlarida itoatsiz yoshlар paydo bo‘ldi.

V

Cherkovga butun Moskva, qarindosh-urug‘lar, tanish-bilishlar to‘plangan edi. Nikoh marosimida ham, chiroq yog‘dulariga cho‘mgan cherkovda, yasan-tusan qilgan ayollar, qizlar va oq galstuklar taqib, frak, mundir kiygan erkaklar orasida odob doirasida bosiq gurung davom etib turdi. Gapni ko‘pincha erkaklar boshlar, ayollar esa bu dabdabali marosim ikir-chikirlarini kuzatish bilan band edilar, chunki bunday marosimlar ularning hislariga hamisha qattiq ta’sir qilardi.

Kitining ikkita opasi: Dolli va chet eldan yetib kelgan go‘zal, muloyim Lvova o‘ziga yaqin turgan to‘dada edi.

Korsunkaya:

– Mariga nima bo‘pti, to‘yga zangori ko‘ylak kiyib olibdi, xuddi qora kiygandak-a? – dedi.

– Yuzining rangi odamning ensasini qotiradi... – deb javob qildi Drubetskaya. – Hayronman, to‘yni nega kechqurun qilishdi ekan? Savdogar zoti...

Korsunkaya:

— Chiroyliroq bo'ladi. Men ham kechqurun nikoh qildirganman, — dedi-yu, o'sha kuni naqadar dilbar bo'lganligini, eri juda kulgili tarzda unga oshiq bo'lganligini, endi hamma narsa o'zgarib ketganligini eslab, xo'rsindi.

Graf Sinyavin o'ziga mayli bo'lgan nozanin knyajna Charskayaga:

— Kimda-kim o'n martadan ortiq kuyov jo'rasi bo'lsa, uylanmas emish. Men uylanishdan o'zimni saqlash uchun o'ninchи kuyov jo'rasi bo'lmoqchi edim, o'rin band bo'lib qolibdi, — dedi.

Charskaya faqat tabassum bilangina javob qildi. U shu tobda graf Sinyavin bilan Kiti singari qachon yonma-yon turar ekanman, hozirgi hazilini o'shanda esiga solarmikanman, degan o'y bilan Kitiga tikilib turardi.

Shcherbatskiy qari Freylin Nikolayevaga Kitining boshiga baxtli bo'lsin deb toj kiygizish niyatida ekanligini gapirdi.

Nikolayeva qachonlardan beri qo'lga tushirmoqchi bo'lib yurgan qari tul erkak o'ziga uylansa, to'yini odmigina qilib o'tkazishga qaror qilgan edi, shuning uchun:

— Toj kiydirish kerak emas, men bunday balandparvozlikni yomon ko'raman, — dedi.

Sergey Ivanovich Darya Dmitriyevna bilan hazillashib, to'yan keyin kelin bilan kuyovning jo'nab ketish odati shuning uchun rasm bo'lganki, kelin bilan kuyov har vaqt bir muncha xijolat tortishadi, deyardi.

— Ukangiz faxrlansa bo'ladi. Bu qiz — bir mo'jiza. Nazarimda, ko'zingiz kuyayotganga o'xshaydi?

— Yo'q, men unday yoshdan o'tib qolganman, Darya Dmitriyevna, — dedi-yu Sergey Ivanovich birdan yuzi jiddiy, g'amgin tus oldi.

Stepan Arkadich qayinegachisiga taloq so'zini payrov qilib, askiya qilayotgan edi, qayinegachisi qulq solmay:

— Gulchambarni tuzatib qo'yish kerak, — dedi.

— Attang, bechora husnini yo'qotib qo'ydi-ya! — deyardi grafinya Nordston Lvovaga. — Baribir, Levin uning tirmog'iga ham arzimaydi. Shunday emasmi?

— Yo'q, u menga juda yoqadi. Lekin u beau frere¹ bo'lgani uchun emas, — deb javob qildi Lvova. — Qarang, o'zini qanday yaxshi tutadi-

¹ Kuyov (*frans.*).

ya! Holbuki, odamlarga kulgi bo‘lmaslik uchun bunday paytlarda o‘zini tutish ham og‘ir. U kulgi bo‘ladigan ahvolda emas, unda yasamalik yo‘q, aftidan, ta’sirlangan ko‘rinadi.

- Siz shunga tegishni xohlagan bo‘lsangiz kerak?
- Shunday desa bo‘ladi. Kiti uni hamma vaqt yaxshi ko‘rardi.
- Keling, qaraylik, qaysi biri oldin gilamga oyoq bosar ekan.

Men Kitiga o‘rgatib qo‘ygan edim.

– Baribir, – dedi Lvova, – bizning hammamiz itoatkor xotinlarmiz, urug‘imiz shunaqa.

– Vasiliyga tekkanimda men jo‘rttaga oldin qadam qo‘yganman. Siz-chi, Dolli?

Dolli bular yonida turib gaplarini eshitayotgan bo‘lsa ham, grafinyaning savoliga javob qilmadi. Ko‘ngli buzilgan edi. Ko‘zлari jiqla yosh, bir narsa desa yig‘lab yuborar edi. U Kiti bilan Levinning baxtini ko‘rib quvonardi; xayolida o‘z to‘yini eslab, charaqlab turgan Stepan Arkadichga yer ostidan qarab qo‘yar, hozirgi ahvolini unutib, ko‘ngil bergen dastlabki ma’sum kunlarini eslar edi. U bir o‘zini emas, o‘ziga yaqin va tanish xotinlarning hammasini yodladi: u xotinlarning hozir Kiti singari boshlarida sevgi chambari, yuraklarida vahima va umid gavhari bilan o‘tmishlaridan voz kechib, sirli kelajakka qadam tashlayotgan birdan-bir tantanali paytlarini yodladi. Shu tobda esiga tushgan barcha kelinchaklar orasida dili-jonidan yaxshi ko‘rgan va yaqinda taloq qilinishini eshitgan o‘z Annasini ham esiga oldi. U ham oq gulchambar va harir parda ostida shunday pok siymo bilan turgan edi. Endi nima bo‘ldi?

- Juda ham g‘alati ish, – dedi o‘zicha.

Faqat Kitining opalari, dugonalari, qarindosh-urug‘larigina bu diniy marosim tafsilotlariga ko‘z tikib turgan emas edilar; begona xotin-xalajlar, tomoshabinlar ham nafaslarini qisib, hayajon bilan kuzatib turishar, kelin bilan kuyovning har bir harakatini, yuz ifodasini ko‘zdan qochirmaslikka tirishar, hazillashgan yoki boshqacha gap qilgan parvosiz erkaklarning so‘zlarini eshitmas, eshitsalar ham jahllari chiqib javob qilmasdilar.

- Voy, nimaga yig‘laydi? Yo zo‘rlab erga berishyaptimikan?

– Gapingni qara, shunaqa yigitga ham zo‘rlab berishadimi? Knyaz emishmi?

– Oq atlasdan ko‘ylak kiygan anavi juvon opasimi? Hay, qulog solinglar, hozir dyakon: «Eringdan qo‘rq», deydi.

– Chudovskoyelikmi?

– Sinodalniylik.

– Lakeyidan so‘radim. Hozir qishlog‘iga olib ketadi, deydi. O‘lguday boy emish. Shuning uchun ham berishgan-da.

– Yo‘q, ikkovi ham bir-biriga munosib.

– Siz talashib yuribsiz, Marya Vasilevna, burma yubka keng qilib tikiladi deb. Anavi napormon ko‘ylaklini qarang, elchining xotini emish, bir ajoyib qilib tikibdi... Bunaqasiga, yana bunaqasiga.

– Tasaddug‘ing ketay, kelinchakni qara, yasatib qo‘yilgan qo‘-g‘irchoqday-a! Har nima bo‘lganda ham xotinlarning sho‘ri qursin.

Cherkov ichiga kirib olgan tomoshabin xotinlarning gap-so‘zлari shu xilda edi.

VI

Nikoh o‘qish marosimi tugagandan so‘ng cherkov xodimlari cherkovning o‘rtasiga bir parcha pushti rang shoyi mato keltirib solishdi. Xor chiroyli va murakkab munojot boshladi, unda bas bilan tenor ovozlar bir-biriga hamohang edi. Pop kelin bilan kuyov tomonga o‘girilib, yerga solingan pushti matoni ko‘rsatdi. Bularning ikkovi: gilamga kim oldin qadam qo‘ysa, oilada o‘sha ustun turadi, degan rivoyatni har qancha ko‘p eshitgan bo‘lsa ham, gilam tomon ketishayotganda bu narsa na Levinning esiga tushdi va na Kitining. Ba’zilar birinchi bo‘lib Levin qadam qo‘ydi deb, boshqalari ikkovi baravar qadam qo‘ydi, deb shang‘illashib gap talashar, ular esa aytilgan gaplarni ham, o‘rtada chiqqan talash-tortishuvni ham eshitishmas edilar.

– Bir-biringizning nikohingizga kirishni xohlaysizmi, yo‘qmi, boshqalarga va’da bermaganmisiz, – kabi odatdagи savollardan va ularning o‘z qulqlariga g‘alati eshitilgan javoblaridan so‘ng yangi ibodat boshlandi. Kiti ibodat so‘zlarining ma’nosiga tushunish uchun diqqat bilan qulog solgan bo‘lsa ham, tushunolmadi. Rasm-rusumlar birin-ketin o‘tgan sari Kitining qalbini zo‘r tantana va yorqin shodlik hislari to‘ldirib es-hushini olib qo‘ygan edi.

«Parvardigori olam, bu osiy bandalaringga tavfiq ber, o‘g‘il-qizlar ato qilib, boshlarini ko‘kka yetkur», deb munojot qildilar. Parvardigor

xotinni hazrati Odam Atoning qovurg'asidan yaratganini, «shuning uchun ota-onaga emas, erga yo'ldosh bo'lishini, ular bir jon, bir tan, zero, bu ulug' bir sirri-asror» ekanligini tilga olishdi; Tangri Ishoq va Ravekkaga, Yusuf va Zulayhoga, Muso va Safuraga bergen pushti gavharlarni bularga ham bersin, o'g'illarining o'g'illarini – nevara-chevaralarini ko'rsatsin, deb iltijo qilishdi. Kiti bu so'zlarni eshitib: «Bu narsalar nihoyatda yaxshi, bundan o'zgacha bo'lmasligi kerak», deb o'yldi. Shunda shodlik tabassumi tarovatlari yuzini yoritib yubordi, hamma beixtiyor jilmaydi.

Pop ularga toj qo'yayotganda, har yoqdan:

– Butunlay kiygizing! – degan maslahatlar eshitildi; Shcherbatskiy uch tugmali qo'lqop kiygan qo'lini qaltiratib, qizining boshi ustida tojni baland ko'tarib turgan edi.

– Kiygizing! – deb Kiti kulimsirab shivirladi.

Levin yalt etib yoriga qaradi-yu, yuzidagi shodlik yog'dusini ko'rib asir bo'ldi; qizning qalbini to'ldirgan his beixtiyor unga ham o'tdi. Uning qalbi ham Kitiniki singari yorishdi, quvonch-larga to'ldi.

Sahobalar nomasining o'qilishini va so'nggi surada bosh dyakonning ovozi guldurab chiqishini chet kishilar sabrsizlik bilan kutib turishardi; kuyov bilan kelin bularni eshitib zavqlari kelib ketdi. Taypoq kosadan suv aralashtirilgan iliq qizil mayni ham vaqtichog'lik bilan ichishdi; pop ridosining barlarini ochib tashlab, ikkovlarining qo'llarini o'z qo'liga olgan holda, «Iso, ruhing shod bo'lzin» sadosi ostida analoy atrofida aylantira boshlaganda vaqtleri yana ham chog' bo'lib ketdi. Tojlarni ushlab yurgan Shcherbatskiy bilan Chirikov kelinchakning uzun etagiga o'ralashib jilmayishar, nimadandir quvonishib, goh orqada qolib ketishar, goh pop to'xtaganda kelin bilan kuyovga kelib urilishar edi. Kitining qalbida yongan shodlik uchqunlari cherkovdagilarga ham yoyilib borardi. Levinning nazarida pop bilan dyakon ham o'zi singari jilmaygilari kelib turgandek edi.

Pop kelin bilan kuyovning boshidan tojlarini olib qo'yib, oxirgi oyatni o'qigandan so'ng, yoshlarni muborakbod etdi. Levin Kitiga qaradi, uni hech vaqt mana shunday go'zallikda ko'rmagan edi. U chehrasida barq urib turgan yangi baxt yog'dusi bilan ochilib ketgan edi. Levin yoriga bir nima demoqchi bo'ldi-yu, lekin marosimning

tugaganmi-yo‘qligini bilmadi. Pop joniga ora kirdi. U saxovatgo‘y og‘zini jilmaytirib, past ovoz bilan:

– Xotiningizni o‘ping, siz ham eringizni o‘ping, – dedi-da, qo‘llaridan shamlarni oldi.

Levin qallig‘ining jilmayib turgan lablaridan avaylab o‘pdi, qo‘lini tutqizdi, keyin unga yangi, g‘alati bir yaqinlik sezib, cherkovdan chiqib ketdi. Levin buning haqiqatligiga ishonmas, ishona ham olmas edi. Faqat ajablangan va hurkak ko‘zları bir-biriga to‘qnashgandagina, Levin buning haqiqatligiga ishondi, chunki yori bilan bir tan, bir jon bo‘lib qolganini endigina sezdi.

Shu kecha kechki ziyofatdan keyin yoshlar qishloqqa jo‘nab ketishdi.

VII

Vronskiy bilan Anna uch oydan beri Yevropa bo‘ylab sayohat qilib yurar edi. Ular Venetsiyada, Rimda, Neapolda bo‘lishdi. Mana hozirgina bir necha muddat turish maqsadida o‘rtamiyona bir italyan shahriga kelib tushishdi.

Pardoz moy surtilgan, qalin sochlaring farqi bo‘ynidan boshlab ochilgan, egniga frak va ko‘kragi ochiq oq batist ko‘ylak kiygan, yumaloq qorni ustida soat zanjiri osilib turgan xushro‘y ober-kelner musofirxona eshigi oldida to‘xtagan janobga qo‘llarini cho‘ntaklariga solgan va ko‘zlarini nafrat bilan qisgan holda tars-turs javob qilardi. Narigi eshik tomondan zinaga chiqib kelayotgan kishining oyoq dupurini eshitib, kelner qayrilib qaradi-da, musofirxonalarida eng yaxshi nomerga tushgan rus grafini ko‘rib, qo‘llarini ehtirom bilan cho‘ntaklaridan chiqardi-yu, ta’zim qilgandan so‘ng kuryer kelganligini, chorvoq ijarasi hal bo‘lganligini aytdi. Bosh mudir shartnomani imzolashga tayyor emish, dedi.

– E, shundaymi! Juda soz! – dedi Vronskiy. – Xonim uydalarmi?

– Sayr qilgani chiqqan edilar, hozir qaytdilar, – dedi kelner.

Vronskiy boshidan serbar yumshoq shlapasini oldi-da, ter bosgan peshonasini, so‘ngra qulqlarining yarmigacha tushirilib, orqasiga qaratib taralgan va boshining taqir joyini yopib turgan sochlarni ro‘molcha bilan artdi. Naryoqda haligacha o‘ziga tikilib turgan janobga parishonxotir qarab qo‘ygandan so‘ng kirib ketmoqchi bo‘ldi. Shunda ober-kelner:

– Bu janob rus, sizni so‘rayaptilar, – dedi.

Vronskiy nariroqqa borib to‘xtagan janobga tanish-bilishlardan hech qochib qutulib bo‘lmas ekan-da, degan achinish va bir qolipda o‘tayotgan hayoti uchun biron ermak topilarmikan, degan istakdan iborat aralash bir his bilan yana bir marta qayrilib qaradi; shu payt ikkovining ko‘zi ham baravar chaqnab ketdi.

– Golenishchev!

– Vronskiy!

Haqiqatan ham, bu Vronskiyning pajlar korpusida birga o‘qigan o‘rtog‘i Golenishchev edi. Golenishchev korpusda liberallar partiya-sida edi, shuning uchun korpusni grajdaniq martabasi bilan bitirib chiqdi-yu, lekin hech yerda xizmat qilmadi. Bu ikki o‘rtoq korpusni tugatgandan so‘ng ajralib ketdi, keyin faqat bir martagina uchrashdi.

Ana o‘sha uchrashuvda Vronskiy Golenishchevning allaqanday olimaqom bir liberal faoliyatni tanlab olganligini, natijada, Vronskiyning faoliyati va unvoniga nafrat ko‘zi bilan qaraydigan bo‘lib qolganini payqagan edi. Shuning uchun Vronskiy u bilan uchrashganda mag‘rurlik bilan sovuqqina muomala qildi, odamlarga: «Mening hayot tarzim sizga yoqadimiyoqmaydimi, buning men uchun aslo farqi yo‘q; lekin men bilan tanish-bilishlik qilgingiz kelsa, meni hurmat qilishingiz kerak», degandek munosabatda bo‘ldi. Golenishchev esa Vronskiyning yurish-turishiqa nafratomuz bir parvosizlik bilan qarardi. Bu uchrashuv ularni bir-biridan yana ham uzoqlashtirib yuborishi kerakday edi. Hozir esa bir-birlarini tanishlari bilanoq yuzlari yorishib qichqirib yuborishdi. Vronskiy Golenishchevni ko‘rganda shunchalik suyunaman deb o‘ylamagan edi, buning sababi – o‘zining qanchalik zerikkanini bilmagani bo‘lsa kerak. U so‘nggi uchrashuvdan qolgan bemaza taassurotni unutib, ochiq, shodon bir chehra bilan eski o‘rtog‘iga qo‘l cho‘zdi. Golenishchev yuzidagi ilgarigi tashvish alomati suyunch ifodasi bilan almashindi.

Vronskiy do‘stona bir tabassum bilan puxta, oppoq tishlarini ko‘rsatib:

– Seni ko‘rib biram suyundim! – dedi.

– Vronskiy degan ot qulog‘imga chalindi-yu, lekin qaysi biri ekan, deb bilolmay yuruvdim. Xayriyat, sen ekansan, juda quvondim, juda quvondim!

- Kiraylik. Xo'sh, nimalar qilib yuribsan?
 - Ikki yildan beri shu yerdaman. Ishlayman.
 - E! – dedi Vronskiy achingansimon. – Qani, ichkari kiraylik.
- Vronskiy musofirxona xizmatchilaridan yashirish uchun ruscha gapirish o'rniga, ruslarning odatini qilib, fransuzcha gapirib yubordi;
- Karenina bilan tanishmisan? Birga sayohat qilib yuribmiz. – Keyin Golenishchevning yuziga diqqat bilan tikilib turib, fransuzcha gapirdi: – Men Kareninaning yoniga kirib ketayotibman.

– E! Xabarim yo'q ekan (lekin o'zi bundan xabardor edi), – dedi beparvogina. Keyin: – Ancha bo'ldimi kelganingga? – deb qo'shib qo'ydi.

– To'rt kun bo'ldi, – deb javob qildi Vronskiy o'rtog'inining yuziga yana bir karra diqqat bilan tikilib.

Vronskiy Golenishchev yuzidagi ifodadan va gapni boshqa yoqqa aylantirib yuborganidan: «Ha, bu tuzuk odam, masalaga to'g'ri qaraydi, – dedi o'ziga. – Anna bilan tanishtirib qo'ysam bo'ladi, masalaga to'g'ri qaraydi».

Vronskiy Anna bilan chet elda birga o'tkazgan shu uch oyi mobaynida yangi odamlarga to'qnash kelganda, o'zining Anna bilan bo'lgan munosabatiga bu yangi odam qanday qarar ekan, deb har vaqt o'zidan so'rар va aksar erkaklarda masalaga to'g'ri qarash borligini ko'rар edi. Agar uning o'zidan va «masalaga to'g'ri» qaraydiganlardan bu iboraning ma'nosini so'rasalar, o'zi ham, ular ham javob berishga ojizlik qilar edilar.

Vronskiyning fahmicha, «masalaga to'g'ri» qaraydiganlar ham haqiqatda buning nimaligini anglamasdi, balki hayoti har tomonidan o'rab olgan murakkab va chigal masalalarga nisbatan odobli kishilar o'zlarini qanday tutsalar, bular ham o'zlarini shunday tutar edilar – o'zlarini shama va pichingdan, ta'bni xira qiladigan savollar berishdan saqlar, odob doirasidan chiqmasdilar. Ular o'zlarini ro'y bergen ahvolning ahamiyati va ma'nosini to'la tushungan kishilarga o'xshatib ko'rsatardilar, hatto ma'quillardilar ham, lekin bu narsalarni uqtirib o'tirishni o'rinsiz, ortiqcha deb hisoblardilar.

Vronskiy hozir Golenishchevni o'shanday odamlardan deb hisoblab, uni ko'rganiga juda-juda xursand bo'ldi. Haqiqatan ham, Golenishchev nomeraga olib kirilganda, Karenina oldida o'zini Vronskiy

kut anday tutdi. O'ng aysizlikka sabab bo'ladigan gaplardan o'zini tiyib turganligi ravshan edi.

Golenishchev ilgari Annani tanimas edi, shuning uchun husni jamoliga, bundan ham ortiqroq o'zini nihoyatda sodda tutishiga asir bo'lib qoldi. Vronskiy uni boshlab kirganda Anna qizarib ketdi, uning ochiq, chiroqli yuzini qoplab olgan ana shu ma'sum rang Golenishchevga juda ham yoqib tushdi. Begona odam o'z ahvollarini xato tushunmasin degandek qilib, Vronskiyini darhol, jo'rttaga soddacha Aleksey deb atay boshlagani va ikkovlari bu yerda palatso deb ataladigan uyni ijaraga olib chiqib ketishayotganligini aytgani unga hammasidan ham ko'proq yoqib tushdi. O'z vaziyatiga bunday bevosita, sodda munosabatda bo'lishi Golenishchevga juda ham yoddi. Aleksey Aleksandrovich bilan Vronskiyini taniydigan Golenishchev Annaning kuch-g'ayratga to'lib, mehribonlik bilan o'ynab-kulib mulomala qilishini ko'rib, uni tushunayotgandek bo'ldi. Erini baxtsiz qilib, eri bilan o'g'lini tashlab, o'zining yaxshi sha'niga dog' tushirgan Anna yana o'zining qanday baxtiyor va xushchaqchaq bo'la olishini tushunmas edi: Golenishchev esa Anna tushuna olmagan shu narsalarni tushunayotgandek edi.

Golenishchev Vronskiy ijaraga olgan o'sha palatso to'g'risida:

– Gidda¹ bor, – dedi. – U yerda juda ajoyib Tintoretto² rasmlari bor. Uning so'nggi davridan.

Vronskiy Annaga yuzlanib:

– Bilasizmi? Hozir havo juda yaxshi, o'sha yoqqa boraylik, yana bir ko'rib kelamiz, – dedi.

– Juda soz-da, hozir shlapamni kiyib chiqaman, havo issiq dedingizmi? – Anna shu savolni berdi-yu, eshik og'zida to'xtab, Vronskiyiga savol nazari bilan qarab qo'ydi. Yana yuzi qip-qizarib gul-gul yonib ketdi.

Vronskiy uning nazaridagi ma'noni tushundi: Anna uning Golenishchev bilan qanday muomalada bo'lish istagida ekanligini bilmas, o'zimni Vronskiy xohlagandek tutyapmanmiyo'qmi, degan xavotirda edi.

Vronskiy unga muloyim bir nazar bilan uzoq qarab turdi. Keyin:

¹ *Gid* – tomoshabop yerlarni tasvir etuvchi kitob.

² Mashhur italyan rassomi.

– Yo‘q, uncha issiq emas, – dedi.

Anna endi hamma gapga tushungandek, ayniqsa, Vronskiyning o‘zidan rozi ekanligini fahmlagandek bo‘ldi; keyin Vronskiyga bir jilmayib qo‘yib, tez odimlar bilan eshikdan chiqib ketdi.

Og‘aynilar bir-birlari bilan ko‘z urishtirib olishdi, shu payt ikkovining yuzida sarosima paydo bo‘ldi: Annaga havasi kelgan Golenishchev uning to‘g‘risida bir nima demoqqa chog‘lanardi-yu, lekin deydigan narsasini topolmayotgandek ko‘rinardi, Vronskiy esa uning bir nima deyishini ham xohlar, ham qo‘rqr edi.

Vronskiy qanday bo‘lsa ham biron gapni boshlash uchun:

– Shunaqa degin, – deb gap boshladi. – Shu yerga ko‘chib ke libsan-da! – Keyin Golenishchev bir nima yozayotgan emish, degan mish-mishni eslab so‘zini davom qildi: – Hali ham o‘sha ishing bilan bandmisan?..

– Ha, «Ikki mansha’»ning ikkinchi qismini yozyapman, – dedi Golenishchev bu savoldan mamnun bo‘lib, – ya’ni, aniqroq qilib aytSAM, hali yozayotganim yo‘q, tayyorlayapman, materiallar yig‘yapman. Bu qism ancha keng bo‘ladi, qariyb hamma masalalarni ichiga oladi. Bizda, Rossiyada biz Vizantianing merosxo‘rlari ekanligimizni hech kim anglagisi kelmaydi, – deb uzun, qizg‘in izoh boshladi.

Avtor «Ikki mansha’»ning birinchi maqolasini hammaga ma‘lum narsadek talqin etdi; Vronskiy undan bexabar bo‘lgani uchun oldin ancha xijolat tortdi. Keyin esa Golenishchev o‘z fikrlarini bayon qila boshlaganda, Vronskiy uning fikrlariga diqqat bilan qulq solib o‘tirib, «Ikki mansha’»ni o‘qimagan bo‘lsa ham suhbattoshining gaplarini maroq bilan eshitdi, chunki Golenishchev juda chiroyli gapirar edi. Lekin Golenishchevning o‘zini qiziqtirgan masala to‘g‘risida bo‘g‘ilib, hayajonlanib gapirishi Vronskiyni bir yoqdan hayron qilsa, bir yoqdan xafa qildi. Gapirgan sari ko‘zlaridan o‘t chaqnar, xayoliy dushmanga e’tirozi ham tezlashib, yuzining tusi haqoratlangan kishining yuzi singari hayajonlanib borardi. Vronskiy Golenishchev bilan birga o‘qib yurganda, uning ozg‘in, tetik, mehribon, olijanob bola ekanligini, korpus o‘quvchilari orasida hamisha peshqadam ekanligini eslab, bu tajanglikning sababini hech anglamas, ma’qul ko‘rmas edi. Yuksak doiraga mansub bo‘lgan Golenishchevning jig‘iga

tegayotgan allaqanday pastkash yozuvchilar bilan o'zini teng qilib o'tirishi, ularga jahl qilishi Vronskiyga, ayniqsa, manzur bo'lmadi. Golenishchevday odamga shu yarashadimi? Bunisi Vronskiyga manzur bo'lmadi, lekin, bunga qaramay, Golenishchevning baxtsizligini sezdi-yu, unga achina boshladi. Golenishchev Anna kirib kelganini ham sezmay, fikrlarini shoshib, qizishib aytib turgan paytda uning harakatchan, anchagina chiroyli yuzida baxtsizlik, qariyb devonalik alomatlari barq urib turardi.

Anna boshiga shlapa, egniga yengsiz kiyimni tashlab chiqib chiroyli qo'li bilan shamsiyasini o'ynay-o'ynay Vronskiyning yoniga kelib to'xtaganda, u Golenishchevning o'ziga qattiq tikilib qolgan ko'zlaridan qutulgani uchun yengil tortib, vujudi hayot quvonchi bilan to'lgan go'zal dugonasiga yangi muhabbat bilan qaradi. Golenishchev zo'rg'a hushini yig'ib oldi; u dastlab mung'ayib, qosh-qovog'ini solib o'tirdi. Lekin hammaga mehribon bo'lgan Anna (shu payt qanday edi-ya!) sodda va dilbar muomalasi bilan uni jontantirib yubordi. Har turli masalalar ustida gap ochib ko'rgandan so'ng Anna suhbatni rasm san'ati ustidagi mavzuga ko'chirdi, chunki Golenishchev bu haqda juda chiroyli gapirgan edi. Anna unga diqqat bilan qulq soldi. Ular ijara olgan uylariga piyoda kelishib, uyni ko'rib chiqishdi.

Qaytib kelishayotganda Anna Golenishchevga:

– Men bir narsaga xursandman, – dedi. – Aleksey yaxshigina adtelierga¹ ega bo'ladigan bo'ldi. Sen o'sha xonani, albatta, ol, – dedi ruschalab Anna Vronskiyga. Anna Golenishchevning yangi xilvatxonalarida o'z odami bo'lib turishiga va undan yashirinishning hojati qolmaganiga aqli yetib, Vronskiyni sensirab gapirdi.

Golenishchev yalt etib Vronskiyga o'girildi-yu:

– Iya, sen rasm solasanmi? – deb so'radi.
– Ha, ancha vaqt bo'lib qoldi, endi yana biroz mashq qilyapman, – dedi Vronskiy, qizarib.

Anna shodiyona bir tabassum bilan jilmayib:

– O, buning talanti zo'r, – dedi. – Men hakam emasman, albatta! Lekin biladigan hakamlar ham shunday deyishadi.

¹ Ishxona (*frans.*).

VIII

Anna hur-erkin yura boshlagan va tez tuzalib borayotgan shu dastlabki davrida o‘zini kechirib bo‘lmaydigan darajada baxtli his etar, hayoti quvonch bilan to‘lib-toshar edi. Erining baxtsizligini har qancha eslasa ham, baribir, bu uning baxtiga raxna sololmas edi. Bu eslash, bir tomondan, shu qadar dahshatli ediki, bu to‘g‘risida o‘ylab bo‘lmas edi. Boshqa tomondan, erining baxtsizligi unga shu qadar katta baxt bergen ediki, u pushaymon yeyishga arzimasdi. Kasalligidan keyin bo‘lib o‘tgan hodisalarни: eri bilan yarashganini, ajrashganini, Vronskiyning yarador bo‘lgani haqidagi xabarni, uning kelishini, ajralish harakatini, erining uyidan ketganligini, o‘g‘li bilan xayrlashganini eslash – bularning hammasi unga tush kabi tuyular, chet elda Vronskiy bilan yurganda bir o‘zi uyg‘onganday his etar edi. Eriga yetkazgan jabrini eslash esa unda jirkanish hissini uyg‘otardi, cho‘kib borayotgan kishi o‘ziga yopishib olgan odamdan o‘zini ajratib olganda shunday narsani his etadi. U odam cho‘kib ketdi. Albatta, bu yomon bo‘ldi, lekin birdan-bir najot chorasi shu edi, shuning uchun bu dahshatli tafsilotni eslamagan yaxshiroq.

Eri bilan orasini uzgan birinchi damda o‘z qilmishidan ko‘nglini tinchitadigan bir mulohaza miyasiga kelgan edi. Bo‘lib o‘tgan narsalarning hammasini hozir yana eslaganda, o‘sha bitta mulohazani ham esga oldi: «Bu odamni muqarrar baxtsiz qildim, – deb o‘ylagan edi, – lekin uning baxtsizligidan manfaat ko‘rmoqchi emasman: men ham iztirob chekyapman, yana chekaman: mening uchun dunyoda eng qimmatli bo‘lgan narsalardan mahrum bo‘lyapman – pok nomimdan, suykli o‘g‘limdan ajrayapman. Men yomon ish qildim, shuning uchun baxtiyor bo‘lishni xohlamayman, taloq olishni xohlamayman, badnomlik iztirobini tortaveraman, farzand dog‘ida qolaveraman». Lekin Anna naqadar sofdillik bilan iztirob tortishni xohlagan bo‘lsa-da, iztirob tortmas edi. Hech qanday badnomlik ham yo‘q edi. Ular chet elda odob saqlab, rus xonimlardan o‘zlarini tortib yurar, qaltis ahvolga tushmas edilar. Hamma yerda shunday odamlar bilan uchrashardilarki, bu odamlar o‘zlarini bularning ahvolini ikkovlаридан ham yaxshiroq tushunadigandek qilib ko‘rsatardilar. Jondan ortiq sevgan o‘g‘lidan judo bo‘lgani ham dastlabki kunlarda unga iztirob bermadi. Vronskiydan orttirgan

qizchasi shunday shirin ediki, Anna birgina shu qiz bilan qolgandan so'ng qiz uni o'ziga butunlay mahliyo qilib qo'ydi, ana shundan keyin Anna o'g'lini kamdan-kam eslaydigan bo'lib qoldi.

Yashash ehtiyoji sog'ayish natijasida shu qadar kuchaydi, yashash sharoiti shu qadar yangi va huzurbaxsh ediki, Anna o'zini kechirib bo'lmaydigan darajada baxtiyor sezardi. Vronskiyning qanaqaligini bilgan sari unga muhabbat ortardi. Anna uni Vronskiy bo'lgani va o'zini yaxshi ko'rgani uchun yaxshi ko'rardi. Vronskiyga to'la-to'kis ega bo'lishdan hamma vaqt shod edi. Uning vaslidan huzur qilardi. Anna uning fe'li atvorini birin-ketin bilgan sayin bular Annaga dilrabo bo'lib ko'rinar edi. Grajdancha kiyim qiyofasini o'zgartirib yuborgan Vronskiyning chehrasiga endi ko'ngil bergen yosh qizday maftun edi. U nimaiki demasin, o'yamasin, qilmasin – bularning hammasida o'ziga xos olajanoblik, kiborlik nishonalarini ko'rardi. Unga shunchalik berilib ketgani ko'pincha o'zini ham qo'rqtirdi: Anna unda biron xunuk narsa bormikan deb qarar, lekin topolmasdi. U Vronskiyning oldida o'zini yerga urishdan qo'rqrar edi. Buni bilib qolsa, ko'ngli sovib ketadigandek tuyulardi; Anna hech qanday sabab bo'lmasa ham, uning muhabbatidan mahrum bo'lib qolmasaydim, deb shu qadar qo'rqrar ediki, boshqa hech bir narsadan bunchalik qo'rqmas edi. Lekin Vronskiyning o'ziga munosabatidan minnatdor bo'lmay iloji yo'q edi, uni qadrlaganini ham ko'rsatmay turolmasdi. Annanинг fikricha, Vronskiy davlat ishlarida muayyan iste'dodga ega edi, bu sohada kattakon rol o'ynashi muqarrar edi, lekin Annani deb bu shon-u shuhratdan voz kechdi, bu harakatidan pushaymonligini biron marta ham bildirmadi. U ilgarigidan ham ko'proq oshiq edi, hurmat shartini o'rniga qo'yar edi; Anna xijolat tortmasin, degan fikr miyasidan nari ketmas edi. U shunchalik mard kishi bo'lishiga qaramay, Annanинг irodasiga hech qachon qarshi bormas, hatto o'z irodasiga ham ega emasdi, faqat Annanинг istaklarini bajarishgagina tayyordek ko'rinar edi. Vronskiyning o'z tevaragida parvona bo'lishi, tashvish va g'amxo'rliги goho malol keltirsa ham, Anna bu narsalarning qadriga yetmay iloji yo'q edi.

Vronskiy bo'lsa ko'p vaqtlar davomida orzu qilib kelgan tilaklari batamom ushalganiga qaramay, o'zini to'la baxtiyor his qilmas edi. U ko'p o'tmay amalga oshgan tilaklari orzu qilgan baxt tog'idan faqat bir dona qumgina keltirganini his etdi. Bu narsa – orzu-havaslarining

ushalishi orqaligina baxtga erishish mumkin, deb tasavvur qilib kelgan odamlarning doimiy xatolarini yana bir marta ko'rsatdi. U Anna bilan qovushib, grajdancha kiyim kiya boshlagandan so'ng dastlabki paytlarda ilgari nimaligini bilmagan umuman erkinlikning, sevgi erkinligining gashtini surib yurdi, bundan mammun bo'ldi, lekin mammunligi uzoqqa bormadi. Hademay ko'nglida istaklar istagi, zerikish hissi paydo bo'lganini sezdi. Ixtiyorini yo'qotib qo'yib, har qanday o'tkinchi orzu, injiqlikni maqsad va istak deb bilib, unga osilib oladigan bo'ldi. Kunduzning o'n olti soatini biron narsa bilan band qilish kerak edi, chunki ular chet elda o'z mayllaricha yashardilar, Peterburgdagi jamiyat hayot sharoiti vaqtlarini band qilib kelgan bo'lsa, bu yerda unday ahvol yo'q edi. Vronskiy burunlari chet elga borib surgan bo'ydoqlik hayotining nash'u namolari haqida hozir xayol qilib ham bo'lmasdi, chunki ana shunday qilganida, tanishlar bilan qilingan kechki ovqat mahalida Anna o'ksib qolardi. Tutgan mavqelari noma'lum bo'lgani uchun mahalliy kishilar bilan ham, ruslar bilan ham aloqa bog'lab bo'lmasdi. Tomoshabop joylarni borib ko'rish (ularning hammasini ko'rib bo'lishgan edi) aqlli rus kishisi bo'lgan Vronskiyda inglizlardagi singari qiziqish tug'dirmas edi.

Och hayvon ko'zi tushgan har qanday narsaga yesa bo'larmikan, deb o'zini tashlaganidek, Vronskiy ham sira o'ylab-netib o'tirmasdan goh siyosatga, goh yangi kitoblarga, goh suratlarga yopishar edi.

Yoshlik chog'laridan rasmga iste'dodi bo'lgani hamda pullarini qayerga sarf qilishni bilmay, gravyuralar sotib olib yurgani uchun Vronskiy rassomlik san'atini tanlab, shu bilan shug'ullana boshladiyu, qondirilishini talab qilgan, hali ushalmagan niyatlarini shunga bag'ishladi.

Vronskiyda san'atni anglash va san'atga to'g'ri, did bilan taqlid qilish layoqati bor edi; u o'zida rassomga kerak bo'ladigan narsa borligini o'ylab ko'rди-da, rassomlik san'atining qaysi turini: diniy, tarixiy yoki turmush manzaralarini tasvirlovchi, realistik turini tanlasammikan, deb biroz ikkilanib turgandan keyingina rasm chizishga o'tirdi. U rassomlik san'atining hamma turlarini tushunar, unisidan ham, bunisidan ham ilhomlana olardi; lekin u rassomlik san'atining umuman qanday turlari borligini bilmasdan turib va soladigan rasmi biron ma'lum turga kiradimi-yo'qmi, buning g'amini yeb o'tirmay, ko'nglidagi narsadan ilhomlanish

mumkinligini tasavvur qila olmasdi. Vronskiy buni bilmagani va bevosita hayotdan emas, san'atda tajassum qilingan hayot orqali, bilvosita ilhomlanib kelgani uchun, juda tez, juda oson ilhomlanar va chizgan suratini ham taqlid qilmoqchi bo'lgan rasm turiga juda oson o'xshatib, juda tez solardi.

Boshqa hamma uslublardan ko'ra fransuz uslubi, salobatli va effektli uslub yoqar edi; Annaning italyan kostyumidagi portretini xuddi mana shu uslubda sola boshladи. Bu portret o'ziga ham, ko'rganlarga ham juda muvaffaqiyatlち chiqqanday tuyuldi.

IX

Baland shiftlari qubbali naqshlar bilan ishlangan, devorlariga rasmlar chizilgan, polariga gullar solingen, derazalariga sariq rangli og'ir pardalar tutilgan, devor burchaklaridagi tokchalarga va kaminlarga vazalar qo'yilgan, suratlar osilgan, eshiklari o'ymakor, zallari bahaybat bu eski, tashlandiq palatso ular ko'chib kelganlari dan so'ng o'zining tashqi qiyofasi bilan Vronskiyda, men rus pomeshchigi va mansabsiz harbiy odam emas, ko'proq san'atning munavvar havaskori va himoyatkoridirman, men esa sevgili bir ayolni deb kiborlar jamiyatidan, yoru og'aynilardan, shon-u shuhratdan voz kechgan rassomman, degan yanglish tasavvurni kuchaytirdi.

Palatsoga ko'chib kelish bilan Vronskiy tanlagan rol tamoman muvaffaqiyat bilan natijalandi, u Golenishchev vositasi bilan bir qancha maroqli shaxslar bilan tanishdi-yu, dastlab ko'ngli joyiga tushdi. U bir italyan rassomi-professori rahbarligi ostida naturadan etyudlar chizdi va o'rta asr italyan hayoti bilan shug'ullandi. O'rta asr italyan hayoti so'nggi vaqtarda Vronskiyni shu qadar qiziqtirardiki, o'zi ham shlapasini o'rta asrcha kiyib, ro'molchasini yelkasiga tashlab yuradigan bo'ldi, bu o'ziga juda yarashib tushdi.

Bir kun ertalab Golenishchev ularnikiga kelganda Vronskiy:

– Biz shu shaharda turamiz-u, hech narsadan xabarimiz yo'q, – dedi. Keyin shu bugun ertalab olgan rus gazetasini unga uzatib, bir rus rassomi to'g'risidagi maqolani ko'rsatdi: – Sen Mixaylovning suratini ko'rganmisan? – deb so'radi. Mixaylov shu shaharda turardi, u qachonlardan beri og'izdan og'izga o'tib yurgan va tugatilmasdanoq

sotib olingen suratini bitirgan edi. Maqolada ajoyib rassom har qanday mukofot va yordamdan mahrum qolgani uchun hukumat bilan Akademiyaga ta'na qilinardi.

– Ko'rganman, – dedi Golenishchev. – Albatta, iste'dodi yo'q emas, lekin tutgan yo'li butunlay xato. Isoga ham, diniy suratlarga ham o'sha-o'sha Ivanov-Shtraus-Renancha qaraydi.

– Qanaqa surat ekan? – deb so'radi Anna.

– Iso Pilat oldida. Yangi oqimdag'i realizmga amal qilib, Isoni qip-qizil yahudiy qilib qo'ygan.

Suratning mazmuni haqida berilgan savol Golenishchevga uning eng yaxshi ko'rgan mavzusiga ko'chishga yo'l ochib berdi. Golenishchev dardini ayta boshladi:

– Hayronman, qanday qilib shunchalik qo'pol xatoga yo'l qo'yishadi-ya! Isoning ulug' keksalar san'atida tajassumlangan aniq siymosi bor. Demak, ular xudoni emas, inqilobchini yoki donishmandni suratga olmoqchi bo'lishsa, Suqrotni, Franklinni, Sharlotta Kordeni olishsin, lekin Isoni emas. Ular san'atda qalamga olib bo'lmaydigan shaxslarni olishadi, so'ngra...

Vronskiy rus san'atining homiyalaridan bo'lgani uchun Mixaylovning surati yaxshimi-yomonmi, lekin bunga qaramasdan rassomga yordam qilish kerak edi, degan o'y bilan:

– Menga qara, rostdan ham Mixaylov shunchalik kambag'al-mi? – deb so'radi.

– Unchalik emasdир. O'zi ajoyib portretchi. Vasilchikovaning portretini chizgan, ko'rganmisiz? Chamamda, portret chizishni bas qilganga o'xshaydi, shuning uchun ham muhtojlik tortayotgan bo'lsa, ajab emas. Men shunday deb...

– Iltimos qilsak, Anna Arkadevnaning portretini chizib bermasmikan? – dedi Vronskiy.

– Nega endi menikini? – deb aytdi Anna. – Sening chizganing etadi, boshqasini xohlamayman. Undan ko'ra Anyanikini chizzdira qolaylik (qizalog'ini shunday deb atardi). Ana o'zi, – deb qo'shib qo'ysi derazadan qarab. Shu payt go'zal italyan enaga qizchani boqqa olib chiqqan edi; Anna shu so'zlarni aytib turib, Vronskiyga zimdan qarab qo'ysi. Vronskiy o'z kartinasini uchun ana shu go'zal enaganing boshini rasmga olayotgan edi, Annani ichiga o't solayotgan birdan-bir hasrat ham shu edi. Vronskiy rasmga olayotib, uning husnidan,

o'rta asr taqlididagi siy whole dan zavqlanar, Anna esa bu enagaga rashki kelayotganligini bo'yniga olishdan qo'rqib, o'zini ham, uning kichkina o'g'lini ham suyib erkalar edi.

Vronskiy ham derazadan qaradi, keyin Annaning ko'zlariga bir nazar tashlab, darhol Golenishchevga murojaat qildi:

– Bilasanmi sen shu Mixaylovni?

– Ko'rganman. Bir tentak, ilmi yo'q odam. Ha, o'sha, hozir har qadamda uchrab turadigan yangi sayoq, yovvoyi odamlardan bittasi-da. Bilasiz, d'emblee¹ shak keltirish, rad etish va materializm degan tushunchalar asosida tarbiya olgan o'sha erkin fikrlilardan u. Ilgarilari, bilsangiz, – deyardi Golenishchev, Annaning ham, Vronskiyning ham gapirgilari kelib turganini sezmay yo sezishni istamay, – ilgarilari, bilsangiz, erkin fikrlilar ham tappa-tuzuk odamlar bo'lardi; din, qonun, axloq tushunchalari asosida tarbiyalanardi, erkin fikrlilik darajasiga faqat o'zining kurashi va mehnati orqasidangina ko'tarilardi; hozir esa erkin fikrlarning yangi toifasi paydo bo'lib qoldi; bular axloq, din aqidalari borligini, obro'li zotlar va fikrlar borligini eshitmasdanoq, erkin fikrli bo'lib olishyapti; kimki hamma narsani rad qilish tushunchasi asosida tarbiya topibdi – u yovvoyi odam. Mixaylov ham shunaqa. Chamamda, moskvalik bir kameralakeyning o'g'li bo'lsa kerak, hech qanday ilm, ma'lumot olmagan. Akademiyaga kirib, dong chiqargandan so'ng ahmoq odam emasda, ilm olish payiga tushgan! Nazarida ilm manbayi jurnallar bo'lgan-u, o'zini jurnallarga urgan. Bilasizmi, eski zamonlarda ilm olishni xohlagan kishi, masalan, fransuz hamma klassiklarni o'rganishga o'tirardi: ilohiyotga, tragediyaga, tarixga, falsafaga doir asarlarni o'qirdi; shunday qilganda, bilasizmi, butun aqliy mehnat xazinasi ko'z oldida bo'lardi. Bu odam esa hozir tumshug'i bilan borib salbiy adabiyotga urildi, salbiy fanning butun mag'zini bir zumda hazm qilib, tayyor bo'ldi-qoldi. Bu ham oz: bundan yigirma yil avval bu adabiyotdan obro'li kimsalar, asrlar buni davom etib kelgan nazariyalarga qarshi kurash alomatlarini topgan bo'lardi, bu kurashdan boshqa xil qarashlar ham bor bo'lganligini tushunib olgan bo'lardi; lekin hozir shunday kurashga duch kelyaptiki, bu kurash eski qarashlar bilan munozara qilishni o'ziga ep ko'rmaydi,

¹ Birdan (*frans.*).

tikkasiga: hech narsa yo'q. Evolution¹, tanlash, yashash uchun kuras - vassalom, deydi. Men o'z maqolamda...

Anna Vronskiy bilan bir necha bor sekin ko'z urishtirib olgandan so'ng:

- Menga qarang, - dedi u Vronskiyni bu rassomning ma'lumoti qiziqtirmasligini, balki uni rassomga yordam qilish va portret buyurtirish fikrida ekanligini bilardi, shuning uchun Golenishchevning gapini keskin bo'lib: - Menga qarang, oldiga bora qolaylik! - dedi.

Golenishchev o'ziga kelib, joni dili bilan rozi bo'ldi. Rassom shaharning uzoq mahallalardan birida turgani uchun foytunda borishga qaror qildilar.

Anna, Golenishchev va Vronskiy foytunning oldingi qatorida o'tirib bordi; ular bir soatchadan keyin uzoq mahalladagi yangi solingan chiroyli bino oldiga yetib kelishdi. Ular oldiga chiqqan hovli xodimining xotinidan Mixaylov o'z studiyasiga odam kiritishini, lekin u hozir ikki qadamcha naryoqdagi uyida ekanligini bilishgandan so'ng, xotinga o'z kartochkalarini berishdi-da, ishlagan suratlarini ko'rishga ijozat so'rab, uni Mixaylovnikiga yuborishdi.

X

Graf Vronskiy bilan Golenishchevning kartochkalarini olib kelishganda, rassom Mixaylov odatdagicha ishlab turgan edi. Ertab bilan studiyasida katta surat bilan band bo'ldi. Uyga keldi-yu, pul talab qilgan uy bekasi bilan muomalani o'rinlatolmagan xotiniga jahli chiqdi.

- Senga yigirma martacha aytdim: beka bilan adi-badi qilishma, deb. O'zing o'lgudek nodonsan, unga italyancha gap uqtira boshladgingmi, bo'ldi, yana besh battar ahmoqsan, - dedi xotiniga uzoq gap talashgandan keyin.

- Hadeb paysalga solaverma-da, menda ayb yo'q, Qo'limda pul bo'lsa-yu...

- Bas, meni ko'p qiynayverma, azbaroyi xudo! - deb qichqirdi Mixaylov yig'lamsirab; keyin qulqlarini berkitib, to'siq orasidagi ishxonasiga kirdi-da, ichkaridan eshikni qulflab oldi. Ichida «nodon»

¹ Evolyutsiya (*frans.*)

deb to‘ng‘illadi-yu, stolga o‘tirib, papkasini ochdi-da, boshlab qo‘y-gan suratiga g‘alati bir ishtiyoy bilan darhol kirishib ketdi.

Turmushi yomonlashgan paytlarda, ayniqsa, xotini bilan jan-jallahsgan kezlarida shu qadar harorat va muvaffaqiyat bilan ishlardiki, boshqa mahallar hech qachon bunday bo‘lmasedi. U ishni qilib turib: «Oh! Qayoqqa boshimni olib ketsam ekan!» deb o‘ylardi. Mixaylov g‘azabnok bo‘lgan odam qomatini chizayotgan edi. Rasmni ilgari solib qo‘ygan bo‘lsa ham, ko‘ngli taskin topmadi – o‘ziga yoqmadi. «Yo‘q, unisi yaxshiroq edi... qayerda qoldi-ya?» U xotinining oldiga chiqdi, qosh-qovog‘ini solib, unga qaramasdanoq katta qizchasidan o‘zi ularga bergen qog‘ozning qayerda ekanligini so‘radi. Tashlangan rasmli qog‘oz topildi, lekin bulg‘angan, mum tomgan edi. Shunday bo‘lsa ham rasmni olib, stolga keltirib qo‘ydi-da, nariroqdan ko‘zlarini qisib turib qaradi. Birdan jilmaydi, suyunganidan qo‘llarini silkita boshladi.

– Ha, shunday, – dedi-yu, darhol qalamni olib, shosha-pisha chiza ketdi. Mum dog‘i suratdagi odamga yangi qiyofa berib turardi.

U ana shu yangi qiyofani qog‘ozga chizayotganda, bir kun o‘zi sigara sotib olgan savdogarning iyaklari oldinga turtib chiqqan, serg‘ayrat chehrasi birdan esiga tushib ketdi. U solayotgan rasmidagi odam chehrasini va iyagini shu taxlitda chizdi. Mixaylov shodligidan kulib yubordi. Rasmdagi soxta, o‘lik odamga birdan jon kirdi, endi u hech o‘zgartirib bo‘lmaydigan qiyofa oldi. Bu rasm tirik edi, uning aniqligi ravshan va shubhasiz edi. Shu qomatga qarab rasmni tuzatsa bo‘ldi, oyoqlarini boshqa taxlitda, chap qo‘lini butunlay boshqa holatda chizish, sochlarni orqaga qaratib qo‘yish mumkin, kerak ham edi. Bu tuzatishlarni kiritdi-yu, lekin shaklini o‘zgartirmadi, faqat qaddi-qomatini to‘sib turgan narsalarnigina chiqarib tashladi. Rassom suratni ko‘rsatmay, to‘sib turgan pardalarnigina olib tashlaganday bo‘ldi: har bir yangi chiziq kishi qomatini g‘ayratliroq, kuchliroq va shamdan tushgan dog‘dan keyin uning ko‘ziga birdan ko‘rinib ketgan shamoyilini yorqinroq qilib ko‘rsatardi. Kartochkalarni olib kirishganda, Mixaylov bu rasmni ehtiyyotlik bilan tugallayotgan edi.

– Hozir, hozir!

Mixaylov xotinining oldiga chiqdi.

– Bas endi, Sasha, jahling chiqmasin! – dedi u yuraksizlik bilan muloyimgina jilmayib. – Sendan ham o'tdi, mendan ham. O'zim to'g'rileyman.

Mixaylov xotini bilan yarashgandan so'ng baxmal yoqali jigar rang paltosi bilan shlapasini kiyib, studiyaga ketdi. Muvaffaqiyatli chiqqan rasm allaqachon xayolidan ko'tarilgan edi. Endi uning fikri-xayoli izvoshda kelgan mo'tabar rus kishilarida edi; ularning studiyaga kelganlaridan Mixaylov quvonar, hayajonlanardi.

Hozir molbertda turgan surati to'g'risida ko'nglining chuqur bir yerida: bunga o'xshagan rasmni hali hech kim solgan emas, degan fikr bor edi. O'z rasmini Rafaelning hamma rasmidan yaxshiroq deb o'ylamasa hamki, shu rasmda ko'rsatmoqchi bo'lgan va ko'rsatgan narsasini hech kim hech qachon ko'rsatmaganligini bilardi, Mixaylov buni juda yaxshi biladi, rasmni sola boshlagan o'sha uzoq paytlardan beri bilardi; lekin odamlarning fikrlari, ular qanday bo'lischenidan qat'iy nazar, Mixaylov uchun juda katta ahamiyatga ega, uni qattiq hayajonlantirardi. Har qanday mulohaza, masalan, o'zi shu kartinasida ko'rib turgan narsalarning zarrasini hakamlar ham ko'ra olganini bildiruvchi kichkina mulohaza ham uni hayajonga solardi. U o'z hakamlariga o'zidan ortiq tushunadigan kishilar, deb baho berar, ulardan suratda o'zi ko'rmagan narsalarni ko'rsatib berishadi, deb kutar edi. Tomoshabinlarning mulohazalaridan ko'pincha ana shunday fikrlarni topayotgandek bo'lardi ham.

Mixaylov shaxdam odimlar bilan studiyasining eshigi oldiga keldi-da, hayajonlanganiga qaramay, eshikdan tushgan ko'lankada turib, Golenishchevning qizg'in gaplariga quloq solayotgan, ayni zamonda yaqinlashib kelayotgan rassomga qarayotgan Annaning chiroyli qomatini ko'rib hayratda qoldi. Mixaylov mehmonlar oldiga kelar-kelmas bu taassurotning ham, sigara sotuvchi savdogarning iyagi singari, ko'ngliga jo bo'lib olganini o'zi ham sezmay qoldi; keyin bu taassurotni kerak bo'lgandagina olish uchun ko'nglining chuqur bir yeriga yashirib qo'ydi. Golenishchevning rassom to'g'risida avval aytgan gapi bilan hafsalalari pir bo'lgan mehmonlar uning basharasini ko'rib, besh battar sovib ketishdi. Mixaylov o'rta bo'y, g'o'labir, mayda qadam odam edi; jigar rang shlapasi, qahva rang paltosi, allaqachon keng shim kiyish rasm bo'lganiga qaramay, hali ham tashlamagan tor shimi, ayniqsa, yapaloq yuzining odmiligi va

yuraksizligi chehrasidan sezilib tursa ham, salobatini yo'qotmaslikka tirishgani yomon taassurot qoldirdi.

Mixaylov o'zini parvosiz qilib ko'rsatishga tirishib:

– Ichkariga marhamat, – dedi-da, dahlizga kirgandan so'ng cho'ntagidan kalitni olib, eshikni ochdi.

XI

Studiyaga kirgandan so'ng Mixaylov mehmonlarga yana bir marta razm solib chiqqach, Vronskiyning yuzidagi ifodasini, ayniqsa, yonoqlarini xayoliga jo qilib qo'ydi. Rassomning his-tuyg'ulari faoliyatini to'xtatmay material yig'ib tursa ham, suratlari ustida muhokama boshlanadigan payt dam sayin yaqinlashib kelayotgani uchun hayajoni hamon ortib borsa ham, ko'zga chalinmaydigan nishonalardan bu uch kishi haqida bir xulosaga kelib qo'ydi. Unisi (Golenishchev) shu yerlik ruslardan Mixaylov uning familiyasini ham, qayerda ko'rganligini, nima to'g'risida gaplashganligini ham eslayolmaydi. U qachon bo'lsa ham ko'rgan odamlarining yuzini xotirida qanday saqlab qolgan bo'lsa, Golenishchevning yuzini ham esida shunday saqlab qolgan edi, lekin bu yuzning ifodasi soxta, bema'ni, siyqa ekanini xayolidan o'tkazib qo'ygani esida edi. Uzun sochlari, juda ham keng manglayi yuziga ma'noli tus berib tursada, ingichkagina qanshari ustida bolalarnikiga o'xshagan arzimas besaranjomlik ifodasi bor edi. Vronskiy bilan Karenina Mixayloving fikricha, hamma boy ruslar singari san'atda hech nimani tushunmasa ham, o'zlarini san'atning qadriga yetadigan mirishkorlar deb ko'rsatadigan dongdor, sarvatdor ruslardan bo'lishi kerak edi. «Rost, qadimiy san'at namunalarini ko'rib bo'lishib, endi yangi studiyalarini firibgar nemis-u Rafaelparast ahmoq inglizning studiyasini tomosha qilib yurishibdi, mening oldimga esa shu ham qatorda qolmasin, ko'rib kelaylik, deb kelishgan», deb o'yladi. Diletantlarning (ular qancha aqli bo'lishsa, shuncha yomon) hozirgi zamon rassomlari studiyalarini qanday maqsadda ko'rishlarini Mixaylov juda yaxshi bilardi; ular san'at tuban tushib ketdi, yangi rasmlarni ko'rgan saring qadimiy ulug' ustozlar taqlid qilib bo'lmaydigan darajada mustahkam ekanliklariga ishonib borasan, deyish maqsadidagina studiyalarini borib ko'rishadi. Mixaylov shu narsalarni kutar, o'zaro suhbatlarida mensimasdan parvosizlik bilan aytayotgan gaplaridan, manekenlar

va byustlarga qarashlaridan, suratni qachon ochib ko'rsatar ekan, deb bamaylixotir aylanib yurishlaridan shu tilakda ekanliklarini ko'rib turardi. Lekin bu taxminiga qaramasdan etyudlarini ochib ko'rsatganda, pardani ko'tarib, choyshabni olib tashlaganida, yuragida kuchli hayajon turganini payqadi; Mixaylov hamma dongdor va sarvatdor ruslar hayvon va ahmoq odamlar degan tushunchada bo'lsa ham, lekin Vronskiy bilan Anna unga yoqib qoldi, shu vajdan uning hayajoni yana kuchaydi.

U bedana yurish qilib, o'zini chetga oldi-da, kartinaga ishora qilib:

– Qani, buni ko'ringlar-chi? Pilat nasihatni. XXVII Matfey bobini, – dedi hayajonidan lablarining qaltiray boshlaganini sezib. Shundan keyin mehmonlarning orqasiga o'tib turdi.

Mehmonlar suratga jimgina qarab turishgan shu bir necha soniya mobaynida Mixaylov ham unga loqaydlik bilan, begona ko'z bilan qaradi. Unda mana shu bir necha soniya mobaynida oliv, haqqoniy hukmni shular, shu mehmonlar chiqaradi, degan ishonch tug'ildi, vaholanki, bir daqiqacha oldin ularga o'zi nafrat ko'zi bilan qaragan edi. U ilgari suratni chizish bilan mashg'ul bo'lgan butun uch yil davomida o'z kartinasiga haqida o'ylagan hamma narsalarni esidan chiqardi; suratning o'zi shubhasiz deb bilgan barcha fazilatlarini ham esidan chiqardi. Endi kartinasiga ularning yot, loqayd, birinchi marta ko'rayotgan ko'zlar bilan qarar, unda biron fazilat topolmas edi. Suratning oldindi planida Pilatning alamli, Isoning esa osoyishta yuzini, orqadagi planda Pilat mulozimlarining qorasini va nima bo'lyapti, deb mo'ralab turgan Yuhannoning yuzini ko'rdi. Shunday xatolar va tuzatishlar orqasida o'ziga xos xarakter olgan har bir chehra, rassomni shuncha qiyanagan va shodlantirgan har bir yuz, umumiy manzaraga, bo'yoqlarning ham tur va ranglariga rioya qilaman, deb shuncha qiyinchiliklar bilan bir necha bor o'rinnari almashtirilgan bu barcha yuz – bularning hammasi, hozir mehmonlar ko'zi bilan qaraganda, unga ming martalab qaytarilgan siyqa siymolarga o'xshab ko'riva boshladi. Uning uchun eng aziz bo'lgan siymo – Iso siyimosi, suratning gavhari edi, uni kashf etganda quvonchi ichiga sig'may ketgan edi, endi suratga bularning ko'zlar bilan qaraganda, hammasi, hamma narsa yo'q bo'ldi. Mixaylov, Titsian, Rafael, Rubens qalami bilan juda chiroyli qilib (ular ham talay-talay xatolar topdi) chizilgan Isolarning, yana o'sha-o'sha askarlar va pilatlarning suratlarini ko'rdi.

Bular hammasi bemaza, rangsiz, eski, hatto yomon solingan – ola-bula, zaif suratlar. Mehmonlar rassom huzurida soxta hurmat bilan hayratlanganlarini aytarlar, yolg‘iz qolganlarida esa rassomga aehinishar, undan kulishar, shunday qilishga haqli edilar.

Mixaylovga mehmonlarning sukut saqlagani (garchi bir daqiqadan ortmagan bo‘lsa ham) juda og‘ir botdi. Sukutni buzish va o‘zining hayajonda emasligini ko‘rsatish uchun o‘zini zo‘rlab Golenishchevga murojaat qildi. U Anna bilan Vronskiyning yuz ifodasidagi biron nishonani ko‘zdan qochirmaslik uchun goh Annaga, goh Vronskiyga bezovtalik bilan qarab turib:

– Siz bilan ko‘rishi sharafiga noil bo‘lgan edik, shekilli, – dedi.

Golenishchev zarracha ham yuragi achishmay rasmdan ko‘zlarini uzdi-da, rassomga qarab bemałol javob qildi:

– Bo‘lmasa-chi! Biz Rossinikida ko‘rishganmiz, esingizdam, italyan qiz – yangi Reshel deklamatsiya o‘qigan kechada uchrashuvdik.

Keyin Mixaylov kartina to‘g‘risida fikr aytishni kutib turganini sezib, shunday dedi:

– Kartinangiz men ko‘rganimdan beri juda ham mukammallahibdi. Pilatning surati o‘shanda ham meni g‘oyat hayratda qoldirgan edi, hozir ham shunday. Bunga qaragan odam mehribon, dilkash, lekin qilayotgan ishini bilmagan, o‘taketgan amaldorni ko‘rayotganday bo‘ladi. Lekin mening nazarimda...

Mixaylovnning yuzi birdan yorishib, ko‘zları charaqlab ketdi. Bir nima demoqchi bo‘ldi-yu, lekin hayajonining zo‘ridan hech nima deya olmadı, o‘zini yo‘tal tutganga soldi. Mixaylov Golenishchevning san‘atni anglash qobiliyati nechog‘lik past deb bilmisin, amaldor sifatidagi Pilatning yuz ifodasi to‘g‘ri ekanligi haqidagi haqqoniy fikri naqadar ahamiyatsiz fikr bo‘lmasin, muhim tomonlar to‘g‘risida og‘iz ochmay turib, bu kichkina masala haqida odil fikr aytgani nechog‘lik dilozor bo‘lib ko‘rinmasin, bu fikrdan Mixaylovnning boshi osmonga yetguday bo‘ldi. Uning o‘zi ham Pilat surati to‘g‘risida Golenishchev aytgan fikrda edi. Bu fikr Mixaylovga ma‘lum bo‘lgan to‘g‘ri fikr bo‘lsa-da, boshqa millionlarcha fikrlarning bittasi bo‘lsa-da, Mixaylovnning ko‘zida Golenishchev fikrining qimmatini aslo tushirmadi. U Golenishchevni shu fikri uchun yaxshi ko‘rib qoldi. Natijada, boyagi g‘amginlik holatidan chiqib, birdaniga xushchaqchaq bo‘lib qoldi. Ayni zamonda kartinasi murakkab tirik

hayot kabi ko'z oldida jonlanib ketdi. Mixaylov Pilatni shunday tushunganligini yana aytishga chog'landi; lekin lablari itoatdan chiqib titray boshladi, u yana fikrini aytolmadidi. Vronskiy bilan Anna ham past ovoz bilan nima haqidadir gaplashib turishardi; odatda, kartinalar ko'rgazmasida qisman rassomni xafa qilmaslik, qisman san'at to'g'risida gapira turib og'izdan chiqib ketadigan bema'ni gaplarni ovoz chiqarib gapirmslik uchun mana shu taxlitda gapishtadi. Mixaylovga surati ularda ham taassurot qoldirganday ko'rindi. U Anna bilan Vronskiy yoniga bordi.

– Isoning siymosi juda ham ajoyib! – dedi Anna. U ko'rgan narsalar ichida shu siymo ko'proq manzur bo'lgan edi; shu sababli bu siyemoni kartinaning markazi ekanligini, uning maqtalishi esa rassomni xursand qilishini payqadi. – Pilatga achingani ko'rini turibdi.

Bu ham rassomning suratida va Isoning siy whole side of the page has been cut off from the original document. It appears to be a continuation of the previous text, likely describing the reaction of the characters to the news of Anna's pregnancy or some other significant event. The text continues as follows:

– O, mana bu siymo qanday yaxshi chizilgan-a, qancha havo bor, aylanib o'tsa bo'ladi, – dedi Golenishchev shu mulohazasi bilan siy whole side of the page has been cut off from the original document. It appears to be a continuation of the previous text, likely describing the reaction of the characters to the news of Anna's pregnancy or some other significant event. The text continues as follows:

– Ha, juda katta ustalik bilan chizilgan! – dedi Vronskiy. – Orqadagi odamlar qorasini qarang, yaqqol ko'rini turibdi-ya! Ana texnika, – dedi keyin Golenishchevga qarab; shu bilan ikkovi o'rtasida o'tgan gapda o'zi shu texnikani egallahga jur'at etganiga shama qilganday bo'ldi.

Golenishchev bilan Anna ham tasdiqlashdi:

– Ha, ha, juda ajoyib!

Mixaylov hayajon ichida edi; shunga qaramay, texnika to'g'risidagi gap yuragini tirnab ketdi. U Vronskiyga jahl bilan bir qaragandan so'ng, birdan qosh-qovog'ini solib oldi. Texnika so'zini ko'p eshitgan bo'lsa ham, buning ostidagi ma'noni aslo tushunmas

edi. Bu so‘z tagidagi ma’noni mazmunga sira ham qaramasdan mexanik ravishda rasm solish, chizish qobiliyati deb bilardi. Go‘yo yomon narsani yaxshi qilib chizish mumkindek, texnikani ichki iste’dodga qarshi qo‘yanlarini ko‘p eshitgan edi. Hozir ham shuni payqadi. U asar ustiga o‘tirgan gardni olib tashlashda asarning o‘ziga zarar yetkazmaslik uchun ham, gardni olib tashlash uchun ham juda ko‘p diqqat va ehtiyyotlik talab qilinishini bilardi; bu yerda hech qanday texnika yo‘q, rasm chizish san’ati yo‘q. Agar kichkina bolaga yoki o‘zining ayol oshpaziga u ko‘rgan narsalar ayon bo‘lganda edi, ayol oshpaz ham o‘zi ko‘rgan narsasini tozalab ko‘rsatgan bo‘lardi. Holbuki eng tajribali, eng usta san’atkor texnik ham, chizadigan narsasining mazmuni va uning chegarasi oldindan ayon bo‘lmasa, yolg‘iz mexanik qobiliyat bilan hech bir narsani chizolmas edi. Bundan tashqari, texnika to‘g‘risida gapiriladigan bo‘lsa (buni Mixaylovning o‘zi ko‘rib turibdi), uning texnikasini maqtab bo‘lmas edi. Chizayotgan yo chizib bo‘lgan suratlarining hammasida ko‘zga tikanakdek botadigan xatolar borligini ko‘rdi; bu xatolar asar ustidagi gard-girdlarni ehtiyyotsizlik bilin olish natijasida yuzaga keldi; bu xatolarni endi butun asarni buzmasdan tuzatolmaydi. Qariyb hamma siymo va yuzlarda suratga putur yetkazib turgan gard qoldiqlarini ko‘rib turibdi.

— Agar ijozat bersangiz, — deb so‘z boshladi Golenishchev, — bitta mulohaza bor edi...

— O, juda xursand qilasiz, marhamat, — dedi Mixaylov mug‘ambirlik bilan kulimsirab.

— Mulohaza shundan iboratki, sizning suratingizda Iso xudo qiyofasidagi odam emas, odam qiyofasidagi xudo bo‘lib qolibdi. Lekin, bilaman, o‘zingiz ataylab shunday qilgansiz.

— Men yuragimda bo‘lman Isoni qalamga ololmasdim, — dedi Mixaylov tumtayib.

— Ha, unday bo‘lsa, agar fikrimni bayon qilishga ijozat bersangiz... kartinangiz shu qadar yaxshiki, mening mulohazam hech qanday putur yetkazmaydi, chunki bu mening shaxsiy mulohazalarim. Sizda boshqacha. Asosning o‘zi boshqacha. Lekin Ivanovni olib ko‘raylik. Meningcha, agar Iso tarixiy bir shaxs darajasiga keltirib qo‘ylgan ekan, u holda Ivanov boshqa tarixiy mavzuni, yangisini, qo‘l urilmaganini tanlasa, yaxshiroq bo‘lardi.

– Bordi-yu, san’at ilhomlantirayotgan mana shu ulug‘vor mavzuni olsa-chi?

– Axtarsa, boshqalari ham topiladi. Lekin gap shundaki, san’at munozara va mulohazani yoqtirmaydi. Ivanovning kartinasini ko‘rganimizda esa dindorlarda ham, dinsizlarda ham: «Bu xudomi yo xudo emasmi?» degan savol tug‘iladi, shu bilan taassurot birligini barbos qiladi.

– Nega? Meningcha, ilmli kishilar uchun munozaraga o‘rin qolmaydi, – dedi Mixaylov.

Golenishchev bu fikrga qo‘silmadi, san’at uchun kerak bo‘lgan taassurot birligi to‘g‘risidagi oldingi fikrini dastak qilib olib, Mixaylovni yengib qo‘ydi.

Mixaylov hayajonlanardi-yu, lekin o‘z fikrini himoya qilish uchun so‘z topib berolmasdi.

XII

Anna bilan Vronskiy o‘z hamrohlarining mahmadonaligidan afsuslanib, qachondan beri bir-birlariga qarab-qarab qo‘yar edilar. Axiyri Vronskiy studiya egasini ham kutmay, boshqa bir kichikroq kartina tomonga o‘tib ketdi.

Ikkovlari bir og‘izdan:

– Voy, qanday yaxshi, qanday ajoyib rasm! – deb yuborishdi.

Mixaylov: «Nima yoqib qoldi ekan-a ularga?» deb o‘yladi. Bundan uch yil oldin chizgan bu rasmi esida yo‘q edi. Bu rasm bir necha oy davomida kecha-yu kunduz uni mashg‘ul qilib kelgan edi; Mixaylov tugatgan hamma suratlarini esidan chiqqanidek, bu rasm tufayli tortgan azob-u uqubatlarini ham, ko‘rgan shod-u xurramliklarini ham esidan chiqqan edi. Bu rasmga hatto qaragisi ham kelmasdi, uni sotib olmoqchi bo‘lgan inglizni kutib turgani uchungina osib qo‘ygan edi.

– Bu shunchaki bir eski etyudlardan, – dedi Mixaylov.

Golenishchev ham kartinaning latofatiga maftun bo‘lib qolgan bo‘lsa kerak, u ham astoydil:

– Qanday yaxshi-ya! –deb yubordi.

Ikkita o‘g‘il bola sambittol soyasida qarmoq bilan baliq ovlardi. Biri, kattarog‘i, qarmoqni endi tashlagan bo‘lsa kerak, butun fikr-u

zikri bilan chantal orqasidan qarmoq po'kagini chiqarishga urinib yotibdi; ikkinchisi, yoshrog'i, ko'kat ustida oqish sochlari paxmayib ketgan boshiga qo'llarini tirab, o'ychan moviy ko'zlarini suvg'a tikib yotibdi. Nimani o'layotgan ekan?

Bu suratidan mehmonlarning zavqlangani Mixaylovning yuragidagi eski hayajonini harakatga keltirib yubordi, lekin u o'tmishga doir bo'lgan bu xil behuda hislardan qo'rqrar, ularni yomon ko'rар edi, shuning uchun, garchi bu maqtovlar uni suyuntirsa ham, mehmonlar e'tiborini uchinchi suratga tortmoqchi bo'ldi.

Lekin Vronskiy: «Kartina sotilmaydimi?» deb so'rab qoldi. Mixaylovni mehmonlar hayajonga solib qo'yan bir paytda puldan og'iz ochilishi, uning ta'bini xira qildi. Shuning uchun qosh-qovog'ini solib turib:

– Sotgani qo'yilgan, – dedi.

Mehmonlar ketgandan so'ng Mixaylov Pilat bilan Iso surati ro'parasiga o'tirdi-da, kartina to'g'risida aytilgan, garchi aytilmagan bo'lsa ham, mehmonlarning ko'ngillariga kelgan gaplarni xayolida takrorladi. Qizig'l shuki, ular shu yerda ekanlarida va Mixaylov fikran ularning nuqtayi nazarlari bilan qaraganda o'zi uchun shu qadar katta ahamiyat kasb etgan narsa hozir birdan butun ma'nosini yo'qotib qo'ydi. Suratga o'zining butun san'atkorlik didi va nazari bilan qaray boshladи, endi kartinasining mukammalligiga, demak, qimmati balandligiga imoni komil bo'ldi; kartinasining mukammalligiga qanoat hosil qilishi nihoyatda zarur edi, chunki ana shundagina hamma manfaatlarini chetga surib qo'yib, bamaylixotir ishlashi mumkin edi.

Isoning rakursdag'i¹ oyoqlari har holda yaxshi chiqmagan. Mixaylov palitrani qo'liga olib, ishga tushib ketdi. Isoning oyog'ini tuzata turib, orqadagi Ioanning suratiga qarab-qarab qo'yardi; mehmonlar shunga e'tibor qilishmagan bo'lsa ham, Mixaylov uning har qanday kamolotdan ustun ekanligini bilardi. Isoning oyog'ini to'g'rila'b bo'lgandan so'ng Ioanning surati bilan mashg'ul bo'lmoqchi bo'ldi-yu, lekin haddan ortiq hovliqib turgani uchun bu ishga yaramaganini sezdi. Mixaylovsov uzoqdan ko'ringan narsaning tegishli kattalikda berilishi.

¹ Rasmida uzoqdan ko'ringan narsaning tegishli kattalikda berilishi.

bor ediki, shundagina ishslash mumkin edi. Hozir esa hayajoni baland. Kartinasini yopib qo'ymoqchi bo'ldi-yu, lekin choyshabni ushlagancha to'xtab qoldi: Ioanning suratiga shukuh bilan jilmayib, uzoq qarab turdi. Keyin achingandek ko'zini oldida, choyshabni tushirdi, horg'in, lekin baxtli bir holda uyiga chiqib ketdi.

Vronskiy, Anna, Golenishchev uylariga juda vaqlari chog' bo'lib, yo'l bo'yi gaplashib qaytishdi. Gap Mixaylovning o'zi va kartinalari to'g'risida bordi. Aql va ko'ngildan tamomila mustaqil bo'lgan, tug'ma va qariyb jismoniy qobiliyat deb tushunishgan talant so'zi ularning og'zidan tushmas edi, san'atkorni to'lg'oqqa solgan narsalarning hammasini shu so'z bilan ifoda etishni istardilar, chunki o'zlar hech qanday tushunchaga ega bo'lмаган, lekin gapirgilari kelgan narsani shu so'z bilan atash ehtiyojini sezар edilar. Mixaylovning talanti yo'q, deb aytib bo'lmaydi, lekin talanti ilmining kamligi orqasida ravnaq topa olmaydi, chunki ilmsizlik bizning rus rassomlarimizga xos umumiy baxtsizlikdir, deyishardi. Shunday bo'lsa ham o'g'il bolalar surati es-hushlarini olib qo'ygan edi, shuning uchun ikki gapning birida:

— Qanday ajoyib surat-a! Qanday qilib bunga tuyassar bo'l-diykin, yana biram sodda! Suratning nechog'lik yaxshilagini o'zi ham bilmaydi. Ha, qo'ldan chiqarib yubormaslik kerak, sotib olish kerak, — derdi Vronskiy.

XIII

Mixaylov kichkina suratni Vronskiyga sotib, Annaning portretini ham chizib berishga rozi bo'ldi. Tayinlangan kunda kelib, ishni boshlab yubordi.

Besh kundan keyin portret Annaga juda o'xshab qolganligi uchungina emas, balki nihoyatda chiroyli chiqqani uchun hammani, ayniqla, Vronskiyni hayron qoldirdi. Mixaylov Annaning o'zigagina xos go'zalligini qanday payqadi ekan? Mana shunisi qiziq edi. Vronskiy Annaning ko'nglini oynadagiday ko'rsatib turgan ana shu dilbar tasviriy iborani garchi shu portretdan bilib olgan bo'lsa ham, «ko'nglini aks ettirib turgan bu dilbar tasviriy iborani payqash uchun Annani menchalik bilish, menchalik sevish kerak edi», deb o'yldi. Lekin bu tasviriy ibora shu qadar haqiqiy, to'g'ri ediki,

Vronskiyning o'ziga ham, boshqalarga ham u qachonlardan beri ma'lumdek ko'rindi.

– Men qancha vaqtlardan beri unnyayman-u, hech evini qilolmayman, – dedi Vronskiy o'zi chizgan portret to'g'risida, – u kishi esa bir ko'rdi-yu, chizib tashladi. Mana shu-da texnikaning fazilati.

Golenishchev:

– Sen ham erishasan, – deb tasalli berdi; Golenishchevning fikricha, Vronskiyda talant ham bor edi, san'atning qadriga yetish uchun imkon beradigan ilm-ma'rifikat ham bor edi. Vronskiyning talanti borligiga Golenishchevni ishontirgan yana bitta vajh ham bor edi: u o'z maqolalari va fikrlarining Vronskiy tomonidan maqtalishiga, xayrixohlik bildirishiga muhtoj edi, chunki u maqtovlar ham, qo'llab-quvvatlashlar ham ikki tomonidan bo'lishi kerak deb bilardi.

Mixaylov birovning uyida, ayniqsa, Vronskiyning palatsosida o'zini studiyasidagidan butunlay boshqacha tutar edi. U o'zi hurmat qilmagan kishilar bilan qalinlashishdan qo'rqa yurardi. U Vronskiyga graf janoblari deb murojaat qilardi; Anna bilan Vronskiyning necha marta taklif etganiga qaramay, ovqat qilgani qolmas va portret chizishdan boshqa maqsadda kelmas edi. Anna unga hammadan ham ko'proq mehribonlik ko'rsatdi, u portreti uchun minnatdor edi. Vronskiy o'zi solgan surat to'g'risida rassomning fikrini eshitishga qiziqib yurgan bo'lsa kerak, Mixaylovga haddan ziyod hurmat va ehtirom ko'rsatardi. Golenishchev esa Mixaylovga san'at to'g'risidagi chinakam tushunchalarini talqin qilish paytini qo'ldan bermas edi. Lekin Mixaylov hammasiga beparvo edi. Anna uning ko'zlarida o'ziga qarab to'yaganligini sezib tursa hamki, Mixaylov u bilan gaplashishdan o'zini tortardi. Vronskiy uning rassomlik san'ati to'g'risida gap ochganda ham Mixaylov churq etmadi, shuningdek, Vronskiyning suratini ko'rsatishganda ham churq etmadi. Golenishchevning gaplari og'ir botayotganligi ko'riniq qilmasdi.

Ular Mixaylovni yaqinroq bilishgandan keyin, u o'zining tortinishi, dushmanlikka o'xshagan yoqimsiz muomalasi bilan umuman yoqmay qoldi. Ish tamom bo'lib, qo'llarida ajoyib portret qolgandan so'ng uning oyog'i kesilganiga Vronskiylar nihoyatda xursand bo'lishdi.

Golenishchev, Mixaylov Vronskiyga hasadlanardi, deb hammaning ko'nglida bor gapni aytdi.

– Hasadlanmaydi deb faraz etaylik, chunki uning talanti bor: lekin saroy ahllariga mansub bo'lgan badavlat bir kishi, buning ustiga yana graf ham (axir ular bunaqa odamlardan nafratlanishadi), u butun umrini tikib qilgan narsasidan yaxshiroq narsani unga zahmat chekmay qilganiga jahli chiqadi. Hammasidan ham ilm-u ma'rifati alam qiladi, chunki shunday narsalar yo'q o'zida.

Vronskiy Mixaylovni himoya qilsa ham, lekin qalbining chuqur bir yerida bunga ishonardi, nimagaki, uning tushunchasicha, boshqa dunyo kishisi, past tabaqa kishisi hisoblanishi kerak.

Mixaylov ham, Vronskiy ham bir naturadan chizgan rasm – Annaning portreti Vronskiyga o'zi bilan Mixaylov o'rtasidagi farqni ko'rsatishi kerak edi; lekin Vronskiy bu farqni ko'rmadi. U faqat Mixaylovdan keyin Annaning portretini, endi keraksiz, deb chizmay qo'ydi. O'rta asr mavzusidagi suratini esa davom ettirdi. O'zi ham, Golenishchev ham, ayniqsa, Anna ham bu suratni juda yaxshi solinyapti deb hisoblashardi, chunki u mashhur kartinalarga Mixaylov chizgan suratlardan ko'proq o'xshardi.

Mixaylov bo'lsa Annaning portreti o'zini ham mahliyo qilib qo'yaniga qaramay, ish tamom bo'lganda ulardan ham ko'proq quvondi, chunki endi Golenishchevning san'at to'g'risidagi safsatalarini ortiq eshitmaydi, Vronskiyning rassomligini ham esdan chiqarish mumkin bo'ladi. U Vronskiyning rassomlik san'ati bilan o'ynashishini taqiq qilib bo'lmasligini bilardi; Vronskiyning ham, hamma diletantlarning ham xohlagan rasmlarini solishlari mumkinligini bilar, lekin bu narsa ta'bini xira qilardi. Birovning o'ziga mumdan kattakon qo'g'irchoq qilib olishini, keyin uni o'pishini taqiqlab bo'lmaydi. Agar shu qo'g'irchog'i bilan oshiq-ma'shuq oldiga kelsa-yu, oshiq o'z ma'shuqasini erkalagani singari, u ham qo'g'irchog'ini erkalay boshlasa, oshiqning, albatta, ta'bi xira bo'ladi. Vronskiyning rasmlarini ko'rganda, Mixaylovdan ham ana shunday ta'bni xira qiladigan his paydo bo'ldi; unga bu ham kulgili, ham alamli, ham achinarli, ham haqoratli ko'rindi.

Vronskiyning rassomlik san'atiga va o'rta asr hayotiga maroqi uzoqqa bormadi. Rassomlik didi shu qadar ediki, sola boshlagan

suratini oxiriga ham yetkazmadi. Surat o'lda-jo'lda qolib ketdi. Vronskiy agar surat ustidagi ishni davom ettirsa, dastlabki paytlarda uncha sezilmagan kamchiliklarning yaqqol ko'zga tashlanishini salpal sezsa boshladi. U ham Golenishchevning ahvoliga tushib qoldi. Golenishchev: «Hali fikrim yetilganicha yo'q, hozircha o'ylab, material to'plab yuribman, shuning uchun aytadigan gapim yo'q», deb o'zini har doim aldab kelardi. Lekin bu narsa Golenishchevni g'azabga keltirar, qiyndardi. Vronskiy bo'lsa o'zini aldamas edi ham, qiynamas edi ham, ayniqsa, o'ziga g'azablanmasdi. Xarakteridagi o'ziga xos qat'iyat bilan bu masalani izohlab ham o'tirmadi, o'zini oqlamadi ham, rasmkashlikni bas qildi-qo'ydi.

Lekin o'zining ham, rasmkashlikdan hafsalasi pir bo'lgani uchun ajablangan Annaning ham italyan shahridagi hayoti bu mashg'ulotsiz shu qadar diqqinafa, palatso ham birdaniga shu qadar eski va iflos; deraza va eshik pardalaridagi dog'lar, pollardagi yoriqlar, shuvog'i ko'chgan piramonlar ham shu qadar xunuk ko'rinish ketdiki, Golenishchevni, italyan professorini, sayohatchi nemisni hadeb ko'raverishdan yuraklari shu qadar qon bo'lib ketdiki, turmushni o'zgartirmasdan iloji bo'lmay qoldi. Ular Rossiyaga, qishloqqa qaytishga jazm qildilar. Vronskiy Peterburgda akasi bilan o'rtadagi merosni bo'lib olish, Anna esa o'g'lini ko'rish niyatida edi. Yozni esa Vronskiyning otasidan qolgan kattakon mulkida o'tkazishga qaror qildilar.

XIV

Levinnинг uylanganiga uch oy bo'lib qoldi. U o'zini baxtiyor sezsa ham, lekin kutganicha emas edi. Har qadamida eski orzularining puchga chiqqanini va yangi, kutilmagan baxtga duch kelganini ko'rardi. Levin baxtli edi, lekin uylangandan keyin bu oila hayotining ilgari xayol qilgan narsalardan butunlay boshqacha ekanligini har qadamda ko'ra boshladi. Qayiqchaning ko'lda silliq, osoyishta suzib borishini ko'rganda havasi kelgan kishi o'zi shu qayiqchaga tushganda nimalarni his qilsa, Levin ham har qadamda o'zini shunday his qilardi. Qayiqdag'i odam qayiqni lapanglatmay to'g'ri o'tirishi, shu bilan birga, qayoqqa qarab suzish kerakligini, ostida suv borligini bir nafas ham unutmasdan aqlini ishlatishi, eshkak otishi kerakligini,

o'rganmagan qo'l eshkak otsa og'rishini, qayiqni faqat tomosha qilish oson-u, unga tushib yurish har qancha bahrni ochsa ham, lekin qiyinligini bilishi kerak.

Bo'ydoqlik mahalda boshqa er-u xotinlarning turish-turmushlari-ni, arzimagan tashvishlarini, janjallarini, rashklarini ko'rganda, ishda nafratlanib kulib qo'yardi. Uning qanoaticha kelajak oilaviy hayotida bunday narsalar bo'lmasligi va shu bilan birga sirtdan qaraganda ham, uning fikricha, boshqalarning hayotiga butunlay o'xshamasligi kerak edi. Endi qarasa, o'zi bilan xotinining hayoti sira ham boshqa tarzda emas, aksincha, ilgari o'zi nafratlanib kelgan, hozir esa uning mayliga ham qaramay, rad qilib bo'lmaydigan g'ayrioddiy bir ahamiyat ola boshlagan mayda, bachkana tashvishlardan iborat bo'lib qolibdi. Endi Levin bu ikir-chikir tashvishlarni bartaraf qilish, ilgari o'ziga tuyulgandek uncha oson narsa emasligini ham ko'rib turardi. Levin oilaviy hayot masalasida o'zini to'la tushunchaga ega odam deb yurardi, lekin bu tushunchasiga qaramay, u ham hamma erkaklar singari, oilaviy hayotga ishq gashtini surish manbayi debgina qarar, ishqqa esa hech nima g'ov bo'lmasligi, mayda-chuyda tashvishlar xalal bermasligi kerak, deb bilardi. Levinning fahmicha, u o'z ishini qilishi va bu ishdan keyin dam olish uchun ishq gashtini surishi kerak edi. Xotini esa faqat yori, sevgilisigina bo'lib qolishi kerak. Ammo Levin ham hamma erkaklar singari, xotinining ham ishlashi kerakligini esdan chiqargan edi. Shuning uchun bu shoirona xilqat, go'zal Kiti oilaviy hayotning birinchi haftasida emas, birinchi kunlaridayoq dasturxonlar, mebellar, mehmonlarga solinadigan ko'rpa-to'shaklar, patnislar; oshpaz, ovqat va hokazolarni esdan chiqarmay, ular to'g'risida g'amxo'rlik qilib, bular ustida bosh qotira boshlaganiga Levin hayron bo'lardi. Unashib qo'ygan paytidayoq Kiti chet el sayohatini uzil-kesil rad etganiga va zarur narsa borligini bilgandek, qishloqqa ketishga qaror qilinganiga, ishq-muhabbatidan tashqari narsalarni ham o'ylashga qodir ekanligiga Levin hayron qolgan edi. Bu narsa o'shanda Levinga haqorat bo'lib ko'ringan edi, keyingi paytlarda ham Kitining ba'zi ikir-chikirlar to'g'risida bir necha bor tashvishlanib yurganini ko'rdi – bu ham uni xafa qildi. Ammo bu narsalar Kiti uchun zarurligini bilardi. Levin bu tashvishlarning nimaga keragini bilmasa ham, garchi bulardan kulsa ham, Kitini yaxshi ko'rga-

ni uchun ularga havas bilan qarardi. Levin Moskvadan olib kelingan mebellarni joylaganiga, o‘zining va erining xonalarini yangicha bezatganiga, deraza va eshik pardalarini osganiga, mehmonlar uchun, Dolli uchun xonalar ajratganiga, yangi xizmatkor qiziga uy to‘g‘rilab bergeniga, qari oshpazga ovqat buyurganiga, Agafya Mixaylovnani oziq-ovqat masalalaridan chetlatib, u bilan gap talashganiga kular edi. U Kitining qaqaqjonlik bilan bergen o‘rinsiz buyruqlariga qari oshpazning zavqi kelib jilmayganini ham ko‘rar; Agafya Mixaylovna yosh begoyimning qaznoqdagi yangi topshiriqlariga kulib, o‘ychanlik bilan bosh chayqaganini ko‘rar; Kiti uning oldiga kirib, xizmatkor Masha haligacha uni oyimqiz deb hisoblaganini, natijada, hech kim gapiga quloq solmaganini goh kulib, goh yig‘lab turib arz qilganda, Kiti yana ham shirin ko‘rinardi. Bu qiliqlari Levinga shirin ko‘rinsa ham, lekin g‘alati taassurot qoldirardi, shu sababli, bunday qilmagani ma’qul edi, deb o‘ylardi.

Kiti uyda ekanligida ba’zan karam bilan kvasni yoki konfetni xohlab qolardi, lekin bu narsalarni topishning iloji bo‘lmasdi, endi esa xohlaganini buyura oladi. Tog‘-tog‘ konfet sotib ola biladi, xohlaganicha pul tutib, xohlagan pirojnoyeni buyurtira oladi; Levin bu o‘zgarishning ta’sirini bilmas edi.

Kiti Dollining bolalari bilan kelishini orzu qilib, quvonganidan terisiga sig‘mas edi, shuning uchunki, jiyanlarining har biriga o‘zlarini xohlagan pirojnoye buyurtirar, Dolli esa singlisining yangi hayotiga tan berardi. Kitini ro‘zg‘or ishlari kun sayin o‘ziga tortib, qiziqtitrib borar, o‘zi esa buning sababini bilmas edi. U bahorning yaqinlashib kelayotganini savqi tabiiy bir his bilan sezgani va yog‘ingarchilik bo‘lishini bilgani uchun o‘z bilgancha inini qurar, ayni zamonda, in qurishga o‘rganish uchun shoshilar edi.

Kitining mayda-chuyda narsalar to‘g‘risida bunday tashvishlanib yurishi Levining dastlabki baxtli kunlaridagi yuksak idealiga tamoman teskari edi, uni pushaymon qilgan narsalardan biri shu bo‘ldi; Levin bu tashvishlar ma’nosini tushunmas, lekin bular zavqini keltirardi, shuning uchun ham uni maftun qilgan yangi narsalardan biri shu bo‘ldi.

Uni ham pushaymon, ham maftun qilgan ikkinchi narsa – janjal edi. Levin o‘zi bilan xotini o‘rtasida hurmat, mehr va muhabbatdan bo‘lak munosabatlар bo‘lishini hech mahal ko‘z oldiga keltirmagan

edi, lekin dastlabki kunlaridayoq birdan janjallahib qolishdi; shunda Kiti: «Faqat o'zingni yaxshi ko'rasan, meni yaxshi ko'rmaysan!» dedi-yu, qo'llarini siltab, yig'lab yubordi.

Birinchi janjalga sabab shu bo'lди, Levin yangi xutorga borib, yarim soatcha ko'proq turib qoldi, nimagaki yaqin yo'l bilan kelaman deb adashib qoldi. Levin uyg'a faqat Kitini, uning sevgisini, o'zining baxtini o'ylab kelar, yaqinlashgan sayin Kitiga bo'lган mehr-muhabbati oshib borardi. Levin Kitining o'ziga tegishini so'rash uchun Shcherbatskiylarnikiga qanday his bilan kelgan bo'lsa, xutordan kela solib uyg'a shunday, balki undan ham kuchliroq bir his bilan otilib kirdi. Kiti uni yuzida hech mahal ko'rilmagan bir tumtayish bilan kutib oldi. Levin o'pmoqchi bo'lган edi, Kiti itarib yubordi.

— Nima bo'lди?

— Vaqtningni xush qilib yuribsan... — deb so'z boshladи Kiti o'zini zardasi qaynagan, bosiq odam qilib ko'rsatishga tirishib.

Kiti deraza tokchasida qimir etmay o'tirgan shu yarim soat mobaynida bema'ni rashk o'tida kuyib-yongan edi; u og'zini ochar-ochmas achchiq-achchiq so'zlar birin-ketin og'zidan otilib chiga boshladи. Levin cherkovda nikoh o'qilgandan so'ng uni boshlab chiqqanda tushunmagan narsalarini ana shundagina ravshan tushundi. Levin uning o'ziga yaqinligini tushunib oldi, ayni zamonda Kiti bilan o'zining bir jon-u bir tan bo'lib, ularni bir-biridan ajratish mumkin emasligini payqadi, u bu narsani shu dam his qilib turgan va o'zini azoblayotgan ikkilanish tuyg'usi orqaligina tushundi. Oldin nafsi og'ridi, lekin Kiti bilan o'zining bir jon, bir tan ekanligini o'ylagandan keyin nafsi og'rishi mumkin emasligini o'sha damdayoq tushundi. Orqa tomonidan ittifoqo qattiq zarba yegan kishi aybdorni topish va undan qasos olish uchun g'azab bilan ketiga o'girilib qaraydi; u o'zini o'zi bexosdan urib olganini, birovga jahl qilishning o'mi yo'qligini payqaydi: endi og'riqqa bardosh berish kerakligini bilganda, kishining ko'nglida qanday his uyg'onsa, Levinda ham dastlab shunday his uyg'ondi.

Levin bu narsani keyinchalik hech mahal shu qadar kuchli his qilmagan bo'lsa ham, bu birinchi zarbadan keyin o'zini uzoq vaqtgacha o'nglay olmay yurdi. Tabiiy his undan oqlanishni, xotinining nohaq ekanini isbot qilishni talab etardi; lekin nohaqligini isbot qilish — uning yana ham jig'iga tegish va bu dard-u alamlarning sababchisi

bo‘lgan janjalni yana ham kuchaytirish degan so‘z bo‘lardi. Odat bo‘lib qolgan bir his: aybni o‘z bo‘yningdan soqit qilib, unga yukla deyardi: ikkinchi, ya’ni unisidan kuchliroq his: oraning buzilishiga yo‘l qo‘yma, bu g‘idi-bidini tezroq, iloji boricha tezroq bartaraf qil, derdi. Bunday nohaq ayb bilan qora bo‘lib qolish ham odamni qiyarnadi, lekin o‘zini oqlayman deb birovning ko‘nglini og‘ritish yana besh battar yomon edi. Uyquda bir yeri og‘riyotgan kishi singari Levin og‘rib, azob berib turgan joyini uzib, kesib tashlamoqchi bo‘ldi, lekin hushiga keldi-yu, og‘rib, azob berib turgan narsa o‘z tani ekanligini ko‘rdi. Endi og‘rib, azob berib turgan joyiga malham bosish kerak, xolos; u ham shunday qilishga tirisha boshladи.

Levin xotini bilan yarashib oldi. Kiti o‘zining aybiga iqrор bo‘lsa ham, lekin aytmadи, eriga mehri yana ortdi. Endi ular sevgining yangi, yana ham kuchli gashtini sura boshladilar. Lekin bu narsa kutilmagan va arzimagan sabablar bilan ora-sira janjal chiqib turishiga xalaqit bermas edi. Bir-biri uchun nimaning muhimligini hali-beri bilmaganliklari va dastlabki paytlarda ikkovlarining ham kayflari joyida bo‘lмагани sabab oralarida tez-tez janjal chiqib turardi. Birining kayfi yaxshi, ikkinchisining kayfi yomon bo‘lganda hech qanaqa janjal chiqmasdi, lekin ikkovlarining ham kayfi buzilib turganda hech aqlga sig‘maydigan shunday arzimas sabablar tufayli janjallahib qolishardiki, keyin nima to‘g‘risida janjallahganlarini eslab topa olmas edilar. To‘g‘ri, ikkovlarining ham kayflari chog‘ligida hayot juda lazzatli edi. Shunday bo‘lsa ham bu dastlabki davrlar ikkovi uchun ham og‘ir, qiyin davr bo‘ldi.

Mana shu dastlabki kunlarda ularni bir-biriga bog‘lab turgan zanjirni goh unisi, goh bunisi siltab tortqilayotgandek oralari buzilib turardi. Umuman, Levin odamlarning gapiga ishonib maza oyidan, ya’ni to‘ydan keyingi birinchi oydan ko‘p narsa kutgan edi, lekin u ikkovining ham xotirasida hayotlarining eng og‘ir, eng haqir davri bo‘lib qoldi. Kayflari buzilmaydigan, o‘zlarini tuta bilgan vaqtлari kamdan-kam bo‘lgan o‘sha xunuk davrning yaramas, uyatli izlarini ikkovi ham hayotlarining so‘nggi davrlarida xotiralaridan sitib chiqarishga harakat qilishdi.

To‘ylaridan uch oy o‘tgandan va Moskvada bir oy turishib qayt-gandan keyingina hayotlari bir me’yorga tushib ketdi.

Ular Moskvadan hozirgina qaytib kelishdi-yu, o‘zлari xoli qolganliklari uchun quvonishdi. Levin kabinetidagi yozuv stolida o‘tirib yozardi. Kiti esa Levinning bobosi va otasining kabinetida hamma vaqt saqlanib kelgan qadimiy charm divanda o‘tirib, droqrie angdaise¹ tikardi; Kitining egnida erga tekkan kunlarida kiygan, Levin uchun aziz va yodgor bo‘lgan to‘q zangori ko‘ylak bor edi. Levin Kitining shu yerdaligini yuragida bir quvonch bilan sezib, o‘ylanib yozardi. Yangi xo‘jalik asoslari bayon qilinishi kerak bo‘lgan kitobi bilan xo‘jalik sohasidagi mashg‘ulotini tashlab qo‘ymagan edi; lekin ilgarilari bu mashg‘uloti va fikrlari hayotini qoplab olgan zulmatga nisbatan qanchalik mayda, arzimagan narsa bo‘lib ko‘ringanidek, hozir yorqin yog‘duga cho‘mgan kelajak hayot baxtiga nisbatan ham o‘shanday mayda arzimas ish bo‘lib ko‘rinardi. U mashg‘ulotni davom ettirayotgan bo‘lsa hamki, hozir diqqatining markazi boshqa tomonga o‘tganligini, natijada ishga butunlay boshqacha, ravshan qaray boshlaganini sezib turardi. Burunlari bu ish uning uchun hayotdan qutulish vasilasi edi. Ilgarilari bu ishsiz hayoti zimistonga aylanishini sezib yurardi. Hozir esa bu mashg‘ulot unga ravnaq hayoti bir tarzda bo‘lmasligi uchun zarur edi. Levin qog‘ozlarini qo‘liga olib, yozgan narsalarini o‘qib chiqqandan so‘ng ishni davom ettirilsa arziydi, degan qanoatga keldi. Bu – yangi, foydali ish edi. Ilgarigi fikrlarining anchasi ortiqcha va qaltis ko‘rindi, shu bilan birga, aniqlanmagan ko‘pgina joylari bu ishni xayolidan yana bir bor o‘tkazib chiqqandan keyin ravshan bo‘lib qoldi. Hozir Rossiyadagi ziroatchilikda ko‘rilayotgan zararlarning sabablari haqida yangi bob yozayotgan edi. Levin Rossiyadagi qashshoqlik yer-mulkning noto‘g‘ri taqsimlanishi va utilgan yo‘ning xatoligi orqasidagina kelib chiqayotgani yo‘q, bunga keyingi vaqtarda Rossiyaga g‘ayritabiyy ravishda kiritilayotgan tashqi madaniyat, ayniqla, aloqa yo‘llari, temir yo‘llar ham sabab bo‘lyapti, deb isbotlardi! Levinning da‘vosicha, aloqa yo‘llari, ya’ni temir yo‘llar shaharlarda markazlanish, zeb-u ziynatga berilish hollarini tug‘dirar, natijada, ziroatchilikka putur yetkazib, fabrika sanoatini, kredit va uning hamrohi bo‘lmish birja nayranglarini rivojlantirardi. Uning fikricha, davlat boyligi normal holatda taraqqiy etganda,

¹ Ingliz kashtasi (*frans.*).

ziroatga ko'proq kuch to'kilganda, ziroatchilik to'g'ri yo'lga, loaqal muayyan sharoitga tushgandagina bu hollar sodir bo'lardi: Levinning fikricha, mamlakat boyligi bir me'yorda o'sishi, ayniqsa, boylikning boshqa tarmoqlari ziroatchilikdan o'tib ketmasligi, aloqa yo'llari ham ziroatchilikning ma'lum bosqichiga muvofiq bo'lishi kerak; biz hozir yerdan noto'g'ri foydalanib turgan bir paytimizda, – deb yozardi Levin, – iqtisodiy zarurat orqasida emas, siyosiy zarurat orqasida qurilgan temir yo'llar vaqtida ilgari o'tkazilgan bo'lib chiqdi, chunki ular ziroatga kutilgan yordamni ko'rsatmadilar, sanoat bilan kreditni rivojlantirdilar va dehqonchilikning o'sishini to'xtatib qo'ydilar; shunday bo'ldiki, jonivorning bir a'zosi bir tomonlama va bemavrid o'sib ketib, uning umumiylaraqqiyotiga zarar yetkazganidek, Yevropa uchun zamonusi kelgan va zarur bo'lgan aloqa yo'llarining, fabrika faoliyatining kuchaytirilishi ham Rossiyadagi umumiylaraqqiyotga zarar yetkazdi; bular ziroatchilikni yo'lga solib yuborish bobida navbatda turgan eng muhim masalalarini bir chetga surib qo'yib, bizga faqat zarargina yetkazdi. Levin o'z fikrlarini yozish bilan band bo'lganida, Kiti Moskvadan jo'nash arafasida o'ziga juda nojo'ya modabozlik qilgan yosh knyaz Charskiyga erining boshqacha qaraganini o'ylab o'tirar edi. «Rashk qiladi, – deb o'ylardi Kiti. – Tavba, o'zi biram dilbar-u, lekin esi yo'q. Meni rashk qiladi! Koshki edi unaqalarning men uchun oshpaz Petrdan ortiq yeri yo'qligini bilsa, – deb o'ylardi Kiti erining gardaniga va qizil bo'yniga xuddi o'z mulkidek g'alati bir his bilan qarab. – Ishdan qoldirishga yuragim achisa ham, mayli (ulguradi!), yuzini bir ko'rmasam bo'lmaydi: orqasidan qarab turganimni sezarmikan? Qayrilib qarasin... qarasin, ha!» – Shundan keyin ko'zlarining ta'sirini kuchaytirish uchun ko'zlarini katta ochib turdi.

Levin qalamni qo'ydi-da:

– Ha, ular mehnatning bor-yo'q suvini siqib ichishib, tuppinigina berishadi, – deb to'ng'illadi-yu, Kitining kulimsirab qarab turganimni sezib, orqasiga o'girildi. Keyin o'rnidan turayotib:

– Nima gap? – deb jilmayib so'radi.

«Qaradi», deb o'yladi Kiti.

Kiti ishdan qo'ygani uchun xafa bo'lganmi-yo'qligini bilaman deb uning yuziga tikilib turib:

– Hech seni qararmikansan devdim, – dedi.

Levin uning yoniga keldi-yu, quvonchini ichiga sig‘dirolmay kulib:

– Ikkovimizning xoli turganimiz qanday yaxshi-ya! Ya’ni mening, – dedi.

– Menga ham shunday! Hech yoqqa bormayman, ayniqsa, Moskvaga.

– Nimalarni o‘ylading?

– Menmi? Men, haligi... yo‘q, yo‘q, bor, yozuvingni yoz, ko‘ngling bo‘linmasin, – dedi Kiti lablarini jiyirib, – men ham manavini qirqib, ilma-teshikchalar qilishim kerak, ko‘ryapsanmi?

Kiti qaychini olib, qirqa boshladi.

Levin uning yoniga o‘tirdi-da, kichkina qaychining doira shaklidagi harakatiga qarab turib:

– Yo‘q, nimani o‘ylading? Ayt, – dedi.

– Obbo, nimani o‘ylardim? Moskvani o‘yladim, gardaningni o‘yladim.

Levin Kitining qo‘lini o‘pib:

– Menga bu baxt qayerdan keldi-ya! O‘zim ham hayronman, biram yaxshi, biram yaxshiki, – dedi.

– Menga, aksincha, qancha yaxshi bo‘lsayam, men hayron bo‘lmayman.

Levin uning boshchasini avaylab aylantirdi-da:

– Kokiling bor ekan-ku, – dedi, – ha, kokiling. Ko‘rdingmi, mana bu yerda. Yo‘q, yo‘q, ish qilyapmiz.

Mashg‘ulot to‘xtagan edi; Kuzma choy tayyor bo‘lganini aytgani kirganda, ular xuddi aybdorlardek sapchib tushib, o‘zlarini har yoqqa urishdi.

– Shahardagilar kelishdimi? – deb so‘radi Levin Kuzmadan.

– Hozirgina kelishdi, ajratishyapti.

Kiti kabinetdan chiqib ketayotib:

– Tezroq chiq, – dedi Levinga, – bo‘lmasa xatlarni sensiz o‘qib qo‘yaman. Yur, ikkovimiz birga o‘tirib royal chalishamiz.

Levin yolg‘iz qolgandan keyin daftarlarini Kiti sotib olgan yangi portfelga soldi-da, qo‘lini Kiti kelgandan keyin paydo bo‘lgan yangi, ajoyib chinnichanoqda yuvdi. Levin miyasiga kelgan fikrlardan kular, ularni yoqtirmaganday bosh chayqar edi; uni pushaymonga o‘xshagan bir his qiynar edi. Hozirgi hayotida o‘zini xijolat qiladigan,

bo'shashtiradigan, Levinning o'z ta'biricha, odamgarchilikdan chiqaradigan bir narsa bor edi. «Bunday yashab bo'lmaydi, – deb o'yldi u. – Uylanganimga hademay uch oy to'ladi, men bo'lsam hech nima qilganim yo'q. Bugun ishtaha bilan ishga o'tirgan edim, nima bo'lidi? Boshladim-u tashladim. Hatto odatdag'i ishlarimni ham tashlab qo'ydim. Xo'jalik ishlarini ham o'ylamayman, dala-dashtga chiqmayman. Hayronman, uni tashlab ketishga ko'zim qiymaydimi yo zerikib qoladi deb o'ylaymanmi? Men bo'lsam, uylanmasdan oldin o'tadigan turmush shunchaki gap, o'z yo'lida o'tib ketaveradi, haqiqiy turmush uylanganingdan keyin boshlanadi, deb yuribman. Umrimni befoyda, bekorchilik bilan o'tkazayotganimga hademay uch oy bo'ladi, holbuki umrimni hech bunday o'tkazmagan edim. Yo'q, bunday qilib bo'lmaydi, ish boshlash kerak. Albatta, xotnim aybdor emas. Undan o'palashga o'r'in yo'q. O'zim qattiqroq turishim, mustaqilligimni himoya qilishim kerak edi. Bu ahvolda o'zim ham shu yo'lga kirib ketishim, uni ham o'rgatib qo'yishim mumkin... albatta, xotnim aybdor emas», deyardi Levin o'ziga.

Norozi odamning boshqalarga o'pka qilmasligi qiyin, eng yaqin kishisiga ham noroziligini aytolmasdan turolmaydi. Shuning uchun ham Levinning miyasiga Kitining o'zi aybdor emas (u hech masalada aybdor bo'lishi mumkin emas edi), hamma balo haddan tashqari yuzaki, erkin tarbiya olganida («Qilg'ilinqi o'sha ahmoq Charskiy qildi, bilaman, Kiti uni to'xtatmoqchi bo'lди-yu, lekin evini qilolmadi»), degan o'y keldi. «Ha, unga ko'ngil qo'yishdan (Kiti shunaqa ekan), zeb-pardozni o'ylashdan, broderie angbaisedan boshqa qiziqadigan jiddiyroq narsasi yo'q. Na mening ishimga qiziqadi, na xo'jalikka, na mujiklarga, na o'zi yaxshi bilgan musiqaga va na kitob o'qishga. Hech nima qilmaydi, ko'ngli to'q bo'lib yuraveradi». Levin Kitini ko'nglida shunday deb qoralasa ham, lekin uning yaqin orada keladigan ishlar davriga, ya'ni ayni bir vaqtida erining xotini, uyning bekasi bo'lish, bolalarini ko'tarish, boqish va tarbiya qilish davriga tayyorlanayotganligini hali anglamas edi. Levin o'ylamasdiki, Kiti bu narsalarni tabiiy sezgisi bilan qilar, bu og'ir mehnatga tayyorlanib yurib, damlarini beg'amlikda va sevgi-saodati ichida o'tkazayotganligi uchun o'zidan xafa bo'limas, aksincha, shu beg'am daqiqalardan foydalaniib, sevinch-quvonch bilan o'ziga uya qurar edi.

XVI

Levin yuqoriga chiqqanda, xotini yangi choy idishlari yonidagi yangi kumush samovar qoshida o'tirib, tez-tez xat-xabarlashib turadigan Dollining maktubini o'qiyotgan edi; Kiti qari Agafya Mixaylovnani kichkina stolcha yoniga o'tqazib, oldiga bir chashka choy keltirib qo'ygan edi.

Agafya Mixaylovna Kitiga mehr bilan kulimsirab qo'yib:

– Ko'rdingizmi, oyimингиз мени қayerга о'tqazib qo'ydilar, – dedi. – Birga o'tiring, dedilar.

Levin Agafya Mixaylovnaning bu gapidan keyingi kunlarda Agafya Mixaylovna bilan Kiti orasida chiqqan mojaroning tugaganini uqdi. Yangi beka Agafya Mixaylovnadan bekalik huquqini olib qo'ygan, shu bilan uning dilini og'ritgan edi; Levin bunga qaramasdan, Kitining har holda kampirni yengganini va unga yaxshi ko'rina olganini payqadi.

Kiti savodsizlik bilan yozilgan bir xatni uzatib:

– Mana, sening xatingni ham o'qidim, – dedi. – O'sha xotindan kelibdi, akangdan o'qiganim yo'q, shekilli. Mana bulari biznikidan, Dollidan. Qara! Dolli Grisha bilan Tanyani Sarmatskiylarnikida bo'lgan bolalar baliga olib boribdi: Tanya markiza kiyimida boribdi.

Ammo Levin uning so'zlariga qulq solmay, Nikolay akasining ilgarigi o'ynashi Marya Nikolayevnadan kelgan xatni qizarib oldi-yu, o'qiy boshladи. Bu Marya Nikolayevnaning ikkinchi xati edi. Birinchi xatida Marya Nikolayevna: «Akangiz meni bekordan-bekorga haydab chiqardilar», deb yozib, kishining yuragini ezadigan bir soddadillik bilan o'zining yana muhtojlikda ekanini, shunday bo'lsa ham hech narsa so'ramasligini, xohlamasligini, lekin Nikolay Dmitriyevichning sog'lig'i yomon bo'lGANI uchun o'zining yordamisiz bir nima bo'lib qolarmikan, deb qo'rqayotganligini ilova qilgandan so'ng Levindan xabardor bo'lib turishni iltimos qilgan edi. Hozirgi xatida boshqa narsalarni yozgan. Nikolay Dmitriyevichni Moskvada uchratib, u bilan topishibdi, bir guberniya shahariga ketishibdi. Nikolay Dmitriyevich o'sha yerda xizmatga kirgan ekan, lekin boshlig'i bilan urishib qolib, Moskvaga qaytibdi; yo'lda qattiq betob bo'lib qolibdi, endi o'ziga keladimi-yo'qmi, hayronman, deb yozibdi. «Siz og'izlaridan tushganingiz yo'q, innaykeyin, pul ham tamom bo'ldi».

– O‘qib ko‘r, Dolli sen to‘g‘ringda yozibdi, – deb Kiti kulimsirab so‘z boshlagan edi, erining chehrasi o‘zgarib ketganligini ko‘rib, birdan to‘xtab qoldi.

– Nima bo‘ldi? Nima gap?

– Akam o‘lim to‘sagida yotgan emish. Bormasam bo‘lmaydi.

Kitining yuzi birdan o‘zgarib ketdi. Markiza Tanya, Dolli haqidagi fikrlari bir zumda yo‘q bo‘ldi.

– Qachon borasan? – deb so‘radi Kiti.

– Ertaga.

– Men ham birga borsam maylimi?

– Kiti! Bu nimasi? – dedi Levin o‘pka qilib.

Kiti taklifining eriga malol kelganidan, jahli chiqqanidan nafsi og‘rib:

– Nima bo‘pti? – dedi. – Borsam, bir nima bo‘lib qoladimi? Senga xalal bermayman. Men...

– Men akam o‘layotgani uchun boraman, – dedi Levin, – senga nima bor?..

– Menga nima bor? Sen nima ish bilan ketayotgan bo‘lsang, men ham o‘sha ish bilan boraman.

«Mening uchun muhim bo‘lgan bir paytda, yolg‘iz zerikib qolishnigina o‘ylaydi», – degan fikr miyasidan o‘tdi-yu, bu muhim ishga qatishishi Levinning jahlini chiqardi.

– Iloji yo‘q, – dedi Levin keskin qilib.

Agafya Mixaylovna ish janjalga aylanib ketishini sezib, chashkani sekin joyiga qo‘ydi-yu, chiqib ketdi. Kiti uning chiqib ketganini sezmadni ham. Erining so‘nggi so‘zlaridagi ohang nafsimi og‘ritdi, ayniqsa, o‘zi aytgan gaplarga ishonmaganligi izzat-nafsigiga tegdi.

– Bo‘pti, sen borsang, men ham, albatta, sen bilan boraman, – dedi Kiti jahl bilan bidirlab. – Nimaga iloji bo‘lmas ekan? Nega iloji yo‘q deysan?

– Negaki, qayoqqa borishimni, qanday yo‘llar bilan borishimni, qaysi musofirxonadan topishimni Xudo biladi. Meni qiyinab qo‘yanan, – dedi Levin og‘ir bo‘lishga tirishib.

– Tirnoqcha ham. Menga hech narsa kerak emas. Sen qayerda bo‘lsang, men ham o‘sha yerda bo‘la olaman...

– Gapning qisqasi, o‘sha xotinki bor, sen u bilan yaqin bo‘lomaysan, to‘g‘ri kelmaydi.

– U yerda kim bor, nima bor, bu bilan mening ishim yo‘q, bilishni ham xohlamayman. Mening bilganim, erimning akasi jon beryapti, erim akasining oldiga ketyapti, men ham erim bilan birga boraman, nimagaki...

– Kiti! Jahling chiqmasin. O‘zing o‘ylab ko‘r axir, bu ish shunchalik nozikki, zaiflik qilib yolg‘iz qolishni istamaganing, shu ikki hisni aralashtirib qo‘yaning odamga alam qiladi. Mayli, agar yolg‘iz zerikadigan bo‘lsang, Moskvaga bor.

– Mana shunaqa, sen hamisha meni niyati yomon, ko‘ngli qora, deb o‘ylaysan, – dedi Kiti xo‘rligi va g‘azabi kelganidan yig‘lab. – Men hech nimani bilmayman, na zaiflikni, na... Men erimning boshiga kulfat tushganda yonida bo‘lishni burchim deb bilaman, sen bo‘lsang jo‘rttaga ko‘nglimni og‘ritasan, jo‘rttaga tushunmaysan...

– Yo‘q, qo‘l-oyog‘i bog‘liq bir qul bo‘lish, axir bu dahshat! – deb qichqirib yubordi Levin, keyin jaholatini bosolmay o‘rnidan turib ketdi. Lekin ayni zamonda o‘zini o‘zi urayotganini sezib qoldi.

– Bo‘lmasa nimaga uylanding? Qo‘l-oyog‘ing bo‘sh bo‘lib yurarding-ku! Bunchalik pushaymon yeyayotgan bo‘lsang, nimaga uylanding? – dedi-yu Kiti o‘rnidan sapchib turib, mehmonxonaga chopib chiqib ketdi.

Levin orqasidan yetib borsa, Kiti piq-piq yig‘layotgan ekan.

Levin uni qaroridan qaytarish emas, yupatish uchun kerakli so‘zlarni topib gapirishga harakat qildi. Lekin Kiti uning so‘zlariga qulq ham solmas, hech bir gapga ko‘nmas ham edi. Levin engashib Kitining olib qochayotgan qo‘lini ushladi. Avval qo‘lini, keyin sochlarini, so‘ngra yana qo‘lini o‘pdi – Kiti shunda ham churq etmadni. Axiyri ikki qo‘li bilan yuzini ushlab: «Kiti!» deganda u birdan hushiga kelib, yig‘lab turib yarashdi.

Ertasiga birga jo‘naydigan bo‘lishdi. Levin xotinining faqat yordam qilish maqsadidagina birga bormoqchi bo‘lganiga ishonganini aytib, Kitining Marya Nikolayevna to‘g‘risidagi fikriga, ya‘ni akasi bilan birga turishida odobga sig‘maydigan hech narsa yo‘q, degan gapiga qo‘schildi; shunday bo‘lsa ham, ko‘nglida Kitidan ham, o‘zidan ham norozi bo‘lib bordi. Kitidan norozi bo‘lganining boisi shu ediki, zarur bo‘lgan shunday bir paytda uni yolg‘iz yuborishga ko‘ngli bo‘lmadi (shunisi qiziqli, yaqindagina Kitining muhabbatiga sazovor bo‘lish baxtiga ko‘zi yetmay yurgan Levin endi uning haddan

ziyod yaxshi ko'rganidan o'zini baxtsiz his qilardi!), o'zidan norozi bo'lganining boisi esa o'z aytganida turolmagani edi. Kiti akasining yonidagi xotin bilan ishi yo'qligini aytganda, uning so'ziga ko'ngli hech ham bovar qilmash edi; shuning uchun ro'y berishi mumkin bo'lgan barcha to'qnashuvlarni o'ylab, dahshatga tushar edi. Xotini, Kitisi o'sha ko'cha qizi bilan bir xonada bo'lishi, yolg'iz shuning o'zi uni jirkantirib dahshatga solar, seskantirar edi.

XVII

Nikolay Levin yotgan gubernya shahrining musofirxonasi takomillashtirilgan yangi nusxada, toza bo'lar, shinam bo'lar, hatto chiroyli va zebo bo'lar degan eng yaxshi niyatda solingen gubernya musofirxonalaridan biri edi, lekin o'zlarini zamonabop mukammal musofirxona qilib ko'rsatishga uringan bunday musofirxonalar bu yerga kelib tushadigan odamlarning sharofatlari bilan ko'z ochib-yumguncha iflos qovoqxonalarga aylanadilar. Ular o'zlarini mukammal qilib ko'rsatishga urinishlari orqasida qadimgi zamon musofirxonalaridan, sodda qilib aytganda, eng iflos musofirxonalardan ham battar ahvolga tushib qoladilar. Bu musofirxona allaqachon shunday ahvolga tushib bo'lgan edi; eshik oldida papiros chekib, darbonlik vazifasini bajarayotgan iflos mundirli askar ham, oralari ochib qilingan bahaybat cho'yan zina ham, iflos frakli betakalluf xodim ham, stillarni yasatishga qo'yilgan, chang bosgan mum gullar ham, umumiyl zal ham, hamma tomonini bosib yotgan axlat, chang va bedavolik ham, bularga qaramay, musofirxonada hukm surgan, o'zini ko'z-ko'z qilgan yangicha, temir yo'lcha tartib ham Levinning kechirgan hayotidan so'ng juda xunuk taassurot qoldirdi, ayniqsa, musofirxona qoldirgan bu taassurot hali ularni kutib turgan narsalarga sira ham yarashmas edi.

Sizga qanday narxdagi nomer to'g'ri keladi, deb beriladigan doimiy savoldan keyin bitta ham bopta nomer yo'qligi ma'lum bo'ldi; bitta yaxshi nomerga temir yo'l revizori, ikkinchisiga moskallik advokat, uchinchisiga esa qishloqdan kelgan knyaginya Astafeva tushgan edi. Bitta iflos nomer qolgan ekan, shuni taklif qilishib, kechqurun yonidagi nomerning ham bo'shashi mumkinligini aytishdi. Levin ko'ngli sezib turgan narsaning to'g'ri bo'lib chiqqanidan, xususan,

kelgan soatiyoq akam nima bo'ldi ekan, degan fikr bilan yuragi takapuka bo'lib turgan bir paytda, yugurbanicha akasining oldiga chiqib ketish o'miga, xotinining g'amini yeyishga majbur bo'lganidan ta'bi tirriq bo'lib, xotinini nomerga olib kirdi.

Kiti aybdor kishidek eriga qarab, qo'rqa-pisa:

— Bor, bora qol! — dedi.

Levin indamay eshikdan chiqdi-yu, uning kelganini bilsa ham, ichkariga kirgani yuragi dov bermay turgan Marya Nikolayevnaga to'qnash keldi. U hamon boyagiday, Levin Moskvada ko'rganday edi: egnida yana o'sha jun ko'ylak, yana qo'llari bilan bo'yni ochiq, yana o'sha mehribon, ifodasiz, biroz to'linqiragan cho'tir yuz.

— Xo'sh, nima gap? Akam qalay? A?

— Juda yomon. Turolmaydilar. Sizga ko'zlar to'rt bo'lib yotibdilar... siz... qaylig'ingiz bilan...

Levin uni nima xijolatga solayotganini dastlab tushunmadi, shundan keyin Marya Nikolayevna darhol tushuntirdi.

— Men chiqib turaman, oshxonaga chiqib turaman, — dedi u. — Akangiz ko'rsalar xursand bo'ladilar. Akangiz eshitibdilar, ularni taniyidilar, chet elda ko'rgan edilar.

Levin gap xotini ustida ketayotganligini endi tushundi, lekin nima javob qilishni bilmadi.

— Yuring, yuring, — dedi Levin.

Levin endi jilishi bilanoq nomerning eshigi ochilib, Kiti mo'ralab qoldi. Levin uyalganidan va xotini o'zini ham, Levinni ham shunday og'ir ahvolga solib qo'rganidan ta'bi xira bo'lib, qizarib ketdi; lekin Marya Nikolayevna besh battar qizardi. U g'ujmayib oldi, qizarib bo'zardi, ko'zlariga yosh chiqay dedi, keyin ikkala qo'li bilan ro'molining uchini ushladi-da, nima deyarini, nima qilarini bilmay, qizil barmoqlari bilan o'ray boshladi.

Dastlab Levin Kitining o'zi uchun begona bo'lgan bu yaramas xotinka yeb yuborgudek bo'lib, maroq bilan qaraganini ko'rdi; lekin bu bir lahzagina davom qildi.

Kiti avval eriga, keyin Marya Nikolayevnaga qarab:

— Nima gap ekan? Nima bo'ldi, ahvol qalay? — deb so'radi.

Levin shu mahal yo'lakda oyog'ini shiliqlatib o'z ishi bilan ketayotgandek ko'ringan bir janobga olazarak bo'lib qaradi-yu, Kitiga:

- Yo'lakda gaplashib bo'ladimi axir! – dedi bo'g'ilib.
- Bo'lmasa ichkari kiringlar, – dedi Kiti o'zini ancha o'nglab olgan Marya Nikolayevnaga qarab. Keyin erining yuzidagi qo'rquv alomatini ko'rdi-yu: – Mayli bo'lmasa, bora qolinglar, bora qolinglar, menga odam yuborarsizlar, – deb o'zini nomeriga oldi. Levin akasining oldiga ketdi.

U akasini bunday ahvolda ko'rарman deb o'ylamagan edi. Levin sil kasallar o'zlarini ko'pincha aldab kelishadi, degan gapni ko'p eshitgan, akasini bultur kuzda shu holatda ko'rib, juda taajjublangan edi; hozir ham akasini o'sha ahvolda ko'rish xayolida edi. U yaqinlashib kelayotgan ajalning jismoniy alomatlarini: ozibotto'ziganligini, madordan ketganligini yana ham aniqroq ko'rish xayolida edi, lekin ahvoli har holda o'shangya yaqin ko'rindi. U o'shanda sevgili akasidan judo bo'lib qolayotgani uchun qanchalik kuygan, ajal oldida qanchalik dahshatga tushgan bo'lsa, hozir undan ortiqroq ahvolga tushaman deb o'ylardi. Shuning uchun bunga tayyor bo'lib kelgan edi; lekin ahvol butunlay boshqacha bo'lib chiqdi.

Bo'yogli devorlari tuflab tashlangan; yupqa devori orqasidan gurung eshitilib turgan kichkina, iflos nomerda, nafasni bo'g'uvchi sassiq hidlar anqib turgan qo'lansa havoda, devordan beriroq turtib qo'yilgan karavotda odeyal yopilgan gavda yotardi. Bu gavdaning bir qo'li odeyal ustida edi, uning panshaxaga o'xshagan kattakon panjasи negadir uchidan to o'rtasigacha silliq, uzun va yupqa yog'och trubkaga tortib bog'lab qo'yilgan edi. Bir betini yostiqqa qo'yib yotibdi. Levinga chakkasidagi ter bosgan siyrak sochlari, terisi tortilgan, shishadek tiniq manglayi ko'rinish turardi.

«Nahotki shu dahshatli gavda Nikolay akam bo'lsa!» – deb o'yladi Levin, lekin yaqinroq kelib yuzini ko'rgandan so'ng shuhbaga o'rin qolmadi. Yuzining bu qadar yomon o'zgarib ketganiga qaramay, bu dahshatli haqiqatni tushunish, bu o'lik gavdaning tirik akasi ekaniga ishonish uchun kiruvchiga ko'tarilib qaragan tetik ko'zlarni ko'rish, yopishib qolgan mo'ylovlar ostidagi og'izning zaifgina qimirlaganini sezish kifoya qilar edi.

Charaqlab turgan bu ko'zlar Levinga qahr va gina-kudurat bilan qaradi. Ana shundan so'ng tiriklar orasida darhol jonli aloqa bog'landi. Levin o'ziga tikilib qolgan ko'zlarda darhol ginaxonlik

alomati borligini ko'rdi-yu, o'zining saodatmandligidan pushaymon bo'lди.

Konstantin uning qo'lini ushlaganda, Nikolay jilmayib qo'ydi. Miyiqlarida ko'ringan bu jilmayish shu qadar zaif ediki, jilmayganiga qaramay, ko'zlaridagi jiddiyat o'zgarmadi.

— Meni bu ahvolda ko'raman deb o'ylamagandirsan, — dedi Nikolay zo'rg'atdan.

— Ha... yo'q, — deb javob berdi Konstantin so'zini adashtirib. — Nega ilgariroq, ya'ni mening to'yim paytida xabar qilmading? Seni so'roqlamagan joyim qolmadi.

Og'ziga talqon solgandek mung'ayib o'tirmaslik uchun gapirish kerak edi, lekin Konstantin bo'lsa nima deyishini bilmas, buning ustiga, akasi hech qanday javob qilmasdi, faqat ko'zlarini olmay qarab yotardi, aftidan har bir so'zning ma'nosini chaqayotgandek ko'rindi. Konstantin akasiga xotinining ham birga kelganligini aytdi. Nikolay mamnun bo'lganligini bildirdi, lekin o'zining ahvoli bilan uni cho'chitish mumkinligidan qo'rqqanligini aytdi. O'rtaga sukunat cho'kdi. Birdan Nikolay qimirlab qo'yib, bir nima deb gapira boshladi. Konstantin uning yuzidan biron jiddiy, muhim narsa aytar, deb o'ylagan edi, lekin Nikolay o'zining sog'ligidan og'iz ochdi. Doktorni aybladi, moskvalik mashhur doktorning yo'qligiga afsus bildirdi; Levin uning gaplaridan hali ham odam bo'lishiga umidvor ekanligini payqadi.

Konstantin o'zini qiynayotgan hislardan bir daqiqa bo'lsa ham qutulish uchun o'rtaga tushgan bir daqiqalik sukunatdan foydalaniib, o'rnidan turdi-da, xotinini boshlab kelmoqchi bo'lganini aytdi.

— Ha, juda soz, men bu yerni tozalattirib qo'yaman. Hamma yoq iflos, nazarimda, sasib ketgan ko'rindi. Masha! Bu yerni tozala, — dedi kasal zo'rg'atdan. Keyin ukasiga savol nazari bilan qarab olib, qo'shib qo'ydi: — Ha, tozalab bo'lganingdan keyin o'zing chiqib ket.

Levin indamadi. Yo'lakka chiqib to'xtadi. Xotinini boshlab kiraman degan bo'lsa ham, lekin yuragida turgan hisni salmoqlab ko'rib, endi boshqa qarorga keldi: xotinini kasal yoniga kirishdan qaytarish harakatini qiladigan bo'ldi. «Menday qiynalib nima qiladi» deb o'yladi.

— Xo'sh, qalay? Ahvoli qalay? — deb so'radi Kiti vahima bilan.

— E, juda yomon, juda yomon! Sen nimaga ham kelding? — dedi Levin.

Kiti eridan ham qo‘rqib, ham unga rahmi kelib, bir necha soniya jimgina qarab turdi, keyin yoniga kelib, ikkala qo‘li bilan erining tirsagini ushladi.

— Kostya! Meni olib kir, ikkovimizga ham oson bo‘ladi, meni olib kirib qo‘ysang bo‘ldi, yo‘q dema, meni olib kirib qo‘y-u o‘zing chiqib ketaver, — deb yalina boshladi. — Tushungin axir: seni ko‘rib tursam-u, uni ko‘rmasam, bu menga besh battar og‘ir. O‘sha yerda bo‘lsam, zora senga ham, unga ham foydam tegar, yo‘q dema, jonginam! — Kiti hayotining baxti go‘yo shu narsaga bog‘liqday, eriga yalinar edi.

Levin ko‘nishga majbur bo‘ldi; o‘zini ancha bosib olgandan so‘ng Marya Nikolayevnani butunlay xayolidan chiqardi-yu, Kiti bilan yana akasining oldiga jo‘nadi.

Kiti eridan ko‘zlarini uzmay, yengil odimlar bilan bordi-da, unga dadil va dardman yuzini bir ko‘rsatib qo‘yib, kasal nomeriga bemalol kirib bordi, shoshilmasdan orqasiga o‘girilib, eshikni g‘ichillatmay yopdi. Keyin asta-asta odimlar bilan kasal yoniga bordi-da, boshini o‘girib ovora bo‘lmasin deb, qulay tomondan yaqinlashib, Nikolayning yo‘g‘on qo‘lini darhol o‘zining yosh, tarovatl qo‘liga oldi, qisdi, so‘ngra xotin-qizlargagina xos bo‘lgan, nafsni og‘ritmaydigan, osoyishta, dardman bir dilbarlik bilan gapira boshladi.

— Biz Sodenda uchrashganmiz, lekin tanish emas edik, — dedi Kiti. — Sizga bir kun singil bo‘lishimni o‘ylamagandirsiz.

U kirib kelganda yuzi yorishib ketgan Nikolay lablarida paydo bo‘lgan jilmayish bilan:

— Meni o‘zingiz ko‘rsangiz tanimas edingiz-a! — dedi.

— Yo‘q, tanir edim. Bizga xabar qilganingiz juda yaxshi bo‘libdi-da! Uzzukun Kostya sizni eslaydi, nima bo‘ldi ekan akamga, deb xavotir qilib yuradi.

Lekin kasalning tetikligi uzoqqa bormadi.

Kiti so‘zini bitirmasданоq, o‘layotgan kishining tiriklarga qiladigan hasadi yuzidan ko‘rina boshladi.

Kiti uning tikilib turgan ko‘zlaridan yuzini o‘girdi-da, uy ichini ko‘zdan kechirib:

— Bu yerda qiynalib qolarmikansiz, deb qo‘rqaman, — dedi. Keyin eriga yuzlandi: — Musofirxona egasidan boshqa nomer so‘rash kerak, innaykeyin, bizga yaqinroq bo‘lsin.

XVIII

Konstantin akasiga qaraganda xotirjamligini yo‘qotar edi, akasining oldida o‘zini tabiiy va xotirjam tutolmasdi. Kasal yoniga kirgan kezlarida ko‘zları o‘z-o‘zidan tinib, aqli hushini yo‘qotib qo‘yardida, akasining ahvolini durustroq payqab ololmasdi, dimog‘iga yomon hidlar kirar, ko‘zlariga ivirsib yotgan iflos narsalar, kasalning azob ichida qiynalishi ko‘rinar, qulqlariga oh-u vohlar eshitilardi-yu, lekin bu narsalarni bir yoqlik qilishga o‘zini ojiz his qilardi. Hatto kasalning qay ahvoldaligini batafsил bilish fikri, bu gavdaodeyal tagida qanday yotibdi, ozib-to‘zib, cho‘p bo‘lib qolgan oyoqlari, boldirlari, yelkalari qanday bukilib turibdi, bularni yaxshiroq joylab qo‘yishning iloji yo‘qmi, yaxshiroq bo‘lmasa ham, har holda bu yomon ahvoldan qutqarishning chorasi yo‘qmi, degan fikrlar miyasiga kelmasdi. Mana shu ikir-chikirlarni o‘ylay boshlaganda, vujudini muzdek ter bosib ketardi. Akasining umrini uzaytirishning ham, tortayotgan azob-u uqubatlarini yengillashtirishning ham iloji yo‘qligiga Konstantinning imoni komil edi. Lekin shunisi yomon ediki, Konstantinning kasalga yordam berishdan foyda yo‘q, degan fikrda ekanini kasal ham payqar, jahli chiqardi. Shuning uchun ham Konstantin yomon qiynalardi. Kasal yotgan xonada bo‘lishdan qattiq qiynalalar, bo‘lmasa undan battar qiynalardi. Shu sababdan har xil bahonalar bilan nuqul tashqariga chiqib ketar, yolg‘iz qolishga qurbi yetmay yana qaytib kirardi.

Lekin Kiti butunlay boshqacha o‘ylar, boshqacha his etar, boshqacha harakat qilardi. Kasalni ko‘rib, rahmi keldi. Bu rahm-shafqat uning ayollik qalbida eridagi singari dahshat va jirkanch hissini emas, balki harakat qilish, kasal ahvolini ikir-chikirlarigacha bilish va yordam berish ehtiyojini uyg‘otdi. Kiti o‘zining yordam qilish kerakligiga zarracha shubhasi bo‘limgani uchun yordam qilish mumkinmi-yo‘qmi deb dudmallanib o‘tirmay, darhol ishga kirishib ketdi. Bu ikir-chikirlar to‘g‘risida o‘ylaganda Levin dahshatga tushsa, ular Kitining e’tiborini o‘ziga jalb qilib oldi. Doktorga odam yubordi, dorixonaga odam yubordi, o‘zi birga olib kelgan xizmatkor qiz bilan Marya Nikolayevnani uyni supurishga, changini artishga, yuvishga soldi, o‘zi ham allanimalarni yuvdi, tozaladi, odeyal tagiga allanarsalarni soldi. Uning buyrug‘i bilan kasal uyiga allanarsalar olib kirishdi, u yerdan allanarsalarni olib chiqishdi, o‘zi

ham ro'parasidan kelayotgan janoblarga parvo qilmay, nomeriga bir necha marta borib keldi, choyshablar, yostiq jildlar, sochiqlar, ko'yaklar topib keltirdi.

Umumiy zalda injenerlarga ovqat keltirib turgan malay Kitining chaqirganini eshitib, bir necha bor qovog'idan qor yog'ib keldi va uning buyruqlarini bajarmaslikka iloj topolmadi, chunki Kiti buyruqlarini qaytarib bo'lmaydigan bir nazokat bilan berar, ularni bajarmaslikning iloji yo'q edi. Bu narsalar Levinga manzur bo'lmadi, bu mashmashalardan kasalga biron foyda chiqishiga ishonmas edi. Hammasidan ham kasalning jahli chiqmasaydi, deb qo'rqardi. Bu narsalar kasalning parvoyiga kelmayotgandek ko'rinsa ham, lekin u jahl qilmas, aksincha, uyalar, Kiti o'z tevaragida nimalar qilayotganini bilishga qiziqayotgandek tuyulardi. Kiti erini doktorga yuborgan edi, u qaytib kelib, kasal yotgan uyning eshigini ochganda, Kitining buyrug'i bilan kasalning ichki kiyimlarini o'zgartirishayotganlari ustidan chiqib qoldi. Kattakon kuraklari yaxlit ko'rilib, qovurg'a va umurtqa suyaklari sanalib turgan uzun, oq yag'rini yalang'och edi; shu payt Marya Nikolayevna bilan malay ko'ylagini kiygizamiz deb yengini adashtirib qo'yishib, Nikolayning shalvirab tushgan uzun qo'lini yengiga kirgizisholmadi. Kiti ham Levin orqasidan shoshib eshikni oldi-yu, yuzini teskari o'girib oldi: lekin shu payt kasal inqillay boshladi, Kiti shoshib yoniga keldi.

— Tezroq bo'linglar, axir! — dedi Kiti.

— Iye, siz qo'ying, — dedi kasal jahli chiqib. — o'zim...

— Nima deyapsiz? — deb so'radi Marya Nikolayevna.

Lekin Kiti uning gapini eshitdi, kasal Kitining oldida yalang'och turishdan uyalayotganini, ta'bi xira bo'layotganini tushundi. Kasalning qo'lini to'g'rilib turib:

— Yo'q, yo'q, qarayotganim yo'q, qarayotganim yo'q! — dedi. Keyin Marya Nikolayevnaga gapirdi: — Marya Nikolayevna, siz u yoqqa o'ting, yengini tuzating.

— Mening xaltachamda kichkina shisha bor, shuni olib kelgin, — dedi Kiti eriga, — bilasanmi qayerda? Yon cho'ntagimda, chop a qol, baraka topkur. Ungacha bu yerni tozalashib qo'yadi.

Levin shishani olib kirganda, kasal allaqachon joyiga yotqi-zilgan va tevarakdag'i hamma narsalar o'zgartirilgan edi. Sassiq hid o'rnida atir aralashtirilgan sirka bo'yi burqsir, Kiti lablarini

cho'zib va naqsh yuzlarini shishirib turib, uyga atir purkardi. Hech qayerda chang ko'rinmaydi, karavot ostiga gilam to'shalgan. Stolda tartib bilan tizib qo'yilgan atir va dori shishalari, grafin, kerakli ko'ylak-lozim va Kitining broderie anglaisesi turibdi. Kasal karavotining yonidagi ikkinchi stolga suv, sham va poroshoklar qo'yilibdi. Hamma yog'i yuvilib, sochlari taralgan kasal esa yangi to'shalgan choyshablar orasida, boshi baland qo'yilgan yostiqlarda, g'ayritabiyy ingichka bo'ynini o'rabi olgan oq yoqali toza ko'ylakda Kitidan ko'zlarini uzmay yotar, ko'zlarida yangi umid uchqunlari ko'rindi.

Levin klubdan topib keltirgan doktor Nikolay Levinni shifolagan va kasal norozi bo'lib yurgan doktor emas edi. Yangi doktor trubkasini oldi, kasalga qo'yib quloq soldi, kallasini chayqatdi, o'tirib dori yozgandan so'ng oldin dorini qanday berish kerakligini, keyin qanday parhez saqlash zarurligini batafsil tushuntirdi. Xom yoki iltilgan tuxum, ma'lum haroratdagi yangi sog'ilgan sutga seltir suvi aralashtirib berishni maslahat berdi. Doktor ketgandan so'ng kasal ukasiga bir nima dedi; lekin Konstantin faqat oxirgi so'zlarnigina eshitdi: «Sening Katyang». Levin kasalning Kitiga qaraganda ko'zlaridan uni maqtayotganligini angladi. U Katyani ham yoniga chaqirdi. (Kitini u Katya deb chaqirar edi.)

– Ahvolim ancha tuzuk bo'ldi, – dedi Nikolay Levin. – Siz yonimda bo'lsangiz, qachonlari tuzalib ketardim. Qanday yaxshi-ya! – Nikolay uning qo'lini ushlab, lablari tomon tortdi, lekin ta'bini xira qilarmikan deb qo'rqayotgandek, fikridan qaytdi, qo'lini qo'yib yuborib, faqat silab qo'ydi. Kiti uning shu qo'lini ikki qo'li orasida olib qisib qo'ydi.

– Endi meni chap tomonimga ag'darib qo'yinglar-u, chiqib uxbayveringlar, – dedi.

Uning nima deganini hech kim eshitolmadi, birgina Kiti payqadi. Kiti shuning uchun payqadiki, u kasalga nima kerak bo'lib qolar ekan, deb fikr-u xayoli unda edi.

– Narigi tomonga ag'darib qo'y, – dedi u eriga, – hamma vaqt o'sha tomonlarini bosib uxbaydilar. O'zing ag'darib qo'ya qol, xizmatkorlarni chaqirib o'tirish yaxshi emas. Men ag'darolmayman. Siz-chi? – deb Marya Nikolayevnadan so'ragan edi, u:

– Men qo'rqaman, – deb javob berdi.

Bu dahshatli gavdani qo'llari bilan quchoqlash, qay ahvoldaligini bilgisi kelmagan xastaning odehyal ostida yotgan joylarini ushslash Levin uchun nechog'lik qo'rqinchli bo'lsa hamki, xotinining ta'siriga berilib, yuzidagi xotiniga ma'lum bo'lgan bir jiddiyat bilan qo'llarini kasal tagiga suqdi-da, uni ag'darib qo'ymoqchi bo'ldi, lekin o'zining nechog'lik kuchli bo'lganiga qaramay, madordan ketgan kasal a'zolarining bu qadar og'irligiga hayron bo'ldi. O'zining bo'ynini cho'p bo'lib qolgan uzun qo'l quchoqlab olganini sezib turib uni ag'darayotganda, Kiti shoshib yostiqni ag'dardi-da, urib shishirdi, so'ngra kasalning boshini va tag'in chakkalariga yopishib qolgan siyrak sochlarni tuzatib qo'ydi.

Aka ukasining qo'lini ushlab qoldi. Levin qo'lini u bir nima qilmoqchi bo'layotganini, allaqayerga tortayotganini sezdi, butun vujudi muzlab ter quyib berdi.

Ha, Nikolay ukasining qo'lini og'ziga tortib borib o'pdi. Konsstantin qalt-qalt qilib, piqillab yig'lab yubordi-da, bir nima deyishga curbi yetmay, uydan chiqib ketdi.

XIX

Levin shu kuni kechqurun xotini bilan gaplashib o'tirib: «Donishmandlardan pinhon tutib, bolalarga va nodonlarga ayon qildi», derdi.

Levin injildagi shu oyatni o'zini donishmand deb o'ylagani uchungina eslamagan edi. U o'zini donishmand hisoblamasa ham, lekin xotinidan ham, Agafya Mixaylovnadan ham aqlliroyekanini bilardi, shuningdek, o'limni o'ylagan kezlarida, qalbining butun kuchi bilan o'ylaganini ham bilmasligi mumkin emasdi. Levin zo'r aql egasi bo'lgan ko'pgina erkaklarning fikrlarini o'qigan, ular ham o'lim haqida o'ylaganlar, ammo ular bu haqda o'zining xotini bilan Agafya Mixaylovna bilgan narsalarning yuzdan birini bilmaganliklarini ham Levin yaxshi bilardi. Bu ikki ayol, ya'ni Agafya Mixaylovna bilan Katya (Nikolay akasi Kitini shunday atar, shunday deb atash Levinga ham hozir juda yoqardi), bir-biridan qancha farq qilmasin, ular bu masalada bir-birlariga juda ham o'xshashardilar. Ikkovlari ham hayotning nimaligini, o'limning ham nimaligini shubhasiz bilardilar, ular Levin tasavvurida tug'ilgan

savollarga garchi javob berisha olmasalar ham, ularni tushuna olishmasa ham, bu hodisaning muhimligiga shak keltirmay, unga tamoman bir xil qarashardi, bunda bir-birlarininggina emas, balki millionlarcha odamlarning qarashlariga sherik bo'lishardi. O'limning nima ekanligi to'g'risida qat'iy tasavvurga ega bo'lganlarining isboti shundan iborat ediki, ular jon berayotgan odamga qanday qarash kerakligini zarracha ham shubhalanmay bilishar va ulardan qo'rqlmay harakat qilishardi. Levin ham, boshqalar ham garchi o'lim haqida juda ko'p narsalar gapirib berishi mumkin bo'lsa-da, o'limning nimaligini bilishmasa kerak, chunki ular o'limdan qo'rqlishar, jon berayotgan odam oldida nima qilish kerakligini tirnoqcha bilishmasdi. Agar Levin hozir Nikolay akasining yonida yolg'iz bo'lganda, unga qo'rqa-pisa javdirab qaragan, yana ham battarroq dahshat bilan kutgan, bundan boshqa hech nima qilolmay boshi qotgan bo'lar edi.

Bunisi ham mayli-ya, u tag'in qanday gapirishni, qanday qarashni, qanday yurishni ham bilmaydi. Akasiga aloqasi yo'q narsalarni gapiray desa, uning nafsi og'riydi, bo'lmaydi, deydi; o'limdan, ta'bini qorong'i qiladigan narsalardan ham gapirib bo'lmaydi. Og'ziga talqon solib o'tirish ham to'g'ri kelmaydi. «Qarasam, menga razm solyapti deb o'ylaydi, qo'rqaman; qaramasam, meni xayoli boshqa narsada deb o'ylaydi. Oyoqlarimning uchida yursam, g'ashi keladi, shaxdam yursam, uyat bo'ladi». Kiti bo'lsa, aftidan, o'zi to'g'risida o'ylamasa va o'ylashga vaqt ham bo'lmasa kerak: u faqat Nikolay Levinni o'ylar, chunki bir nimani bilar, hamma ishi silliq chiqardi. U Nikolay Levinga o'zi to'g'risida va o'zining to'yi to'g'risida gapirib berdi, jilmayib, rahmi kelib o'tirdi, tasalli berib, tuzalib ketgan kishilarni misol keltirdi, hamma narsa silliq borardi; demak, Kiti nima qilishini bilardi. Kiti bilan Agafya Mixaylovnaning harakati savqi tabiiy, hayvoniy, ko'r-ko'rona emasligiga isbot shu ediki, Kiti ham, Agafya Mixaylovna ham kasalga uning og'rig'ini, tortayotgan azobini yengillashtiradigan jismoniy ta'sirdan tashqari, jon berayotgan odamga jismoniy ta'sirdan muhimroq narsa, jismoniy tomonga hech qanday aloqasi bo'limgan allaqanday narsa tatbiq qilinishini ham talab etardilar. Agafya Mixaylovna vafot etgan chol to'g'risida: «Yana nima kerak, xudoga shukur, tabarruk vino¹

¹ Nasroniyarda o'lim to'shagida yotganlarni poklash uchun ichiga bir parcha non solingen tabarruk vino ichirish odati bor (*tarj.*).

ichirishib, ustida duoyi takbir o‘qildi, obro‘yi bilan ko‘mildi», degan edi. Katya ham xuddi shunday qildi: ichki kiyimlar, choyshab-jillardar va ichirish uchun suv g‘amini yeyish bilan birga, tabarruk vino ichish, duoyi takbir o‘qittirish zarurligiga birinchi kundayoq kasalni ko‘ndirib qo‘ydi.

Levin kasal yonidan kechasi yotgani o‘zining ikkita nomeriga qaytib kelib nima qilarini bilmay, boshini solintirib o‘tirar edi. Kechki ovqatni qilish, yotish taraddudiga tushish, nima qilishini o‘ylash u yoqda tursin, xotini bilan gaplashishga ham majoli yo‘q edi: vijdoni azoblanardi. Kiti bo‘lsa, aksincha, odatdagidan tashqari g‘ayratga to‘lib ketdi. Ovqat keltirishni buyurdi, ul-bullarni o‘zi joyladi, joyni solishga qarashdi, o‘rinlarga burga dori sepishni ham esidan chiqarmadi. Kitida jang, kurash oldida, hayotning xavfli va nozik daqiqasida erkaklarda paydo bo‘ladigan hayajon va zehn tezobligi bor edi; o‘shanday daqiqalarda erkaklar o‘z qadr-u qimmatlarini birato‘la ko‘rsatadilar, butun o‘tgan umrlari bekorga ketmaganligini, balki shunday daqiqa uchun tayyorlanishga sarf qilinganini isbot qiladilar.

Kitining ishi yurishib ketdi, soat o‘n ikki bo‘ldi, ul-bullarini shunday sarishta-saranjom qildiki, nomer uyiga, o‘zining xonasiga o‘xshab qoldi: o‘rinlar solindi, cho‘tkalar, taroqlar, oynacha chiqarib qo‘yildi, qo‘l sochiqlar yoyildi.

Levin shunday bir vaqtida ovqat yeyishni, uxlashni, gaplashishni ayb deb bilar, har bir harakati o‘ziga nojo‘ya tuyulardi. Kiti cho‘tkachalarni olib joyiga qo‘yarkan, bu ishni shunday qilardiki, erining nafsi og‘rishiha hech qanday o‘rin qolmas edi.

Shunday bo‘lsa ham tomoqlaridan ovqat o‘tmadi, uzoq vaqtgacha mijja qoqishmadi, hatto allamahalgacha yotishmadi.

Kiti buklama oynasi qarshisida bir koftochkada, mayda taroq bilan mayin, xushbo‘y sochlarni tarab o‘tirib:

– Uni ertaga ustida duoyi takbir o‘qittirishga ko‘ndirganim uchun juda xursandman, – dedi. – Men bunaqa rasmni hech ko‘rgan emasman, lekin bilaman, oyimlar aytganlar, shifo so‘rab munojot qilinar ekan.

Levin Kitining oldinga qarab har taroq tortganda, yumaloq boshining gardanidagi tor chuqurchasi hadeb yopilib qolaverGANiga qarab turib:

– Nahotki tuzalib ketadi deb o‘ylasang? – dedi.
– Doktordan so‘radim: uch kundan ortiq qolmaydi, dedi. Nima, doktorlar bilarmishmi? Har nima bo‘lganda ham ko‘ndirganimga juda xursandman, – dedi Kiti sochlari orasidan eriga qiyo boqib. Keyin din to‘g‘risida gapirganda, har mahal yuzida paydo bo‘ladigan g‘alati bir quvlik alomati bilan gapiga qo‘sib qo‘ydi: – Xudo biladi.

Ular unashib qo‘yilgan kezlarida din to‘g‘risida bir qur gaplashgan edi, ana o‘sandan beri Levin ham, Kiti ham bu haqda sira og‘iz ochmay kelardi; shunday bo‘lsa ham, Kiti cherkovga borish, ibodat marosimlarini bajo keltirish kerak deb o‘ylar va xotirjamlik bilan har doim bajarib kelardi. Eri bu narsalarning aksini iddao qilsa ham Levinni o‘zi singari, balki o‘zidan ortiq nasroniy deb qattiq ishonar, bu haqda aytgan gaplarini esa erkaklarga xos qiziqchilik deb o‘ylardi; bir mahal Levin Kitining broderie angleisesi to‘g‘risida: yaxshi odamlar yirtiqni yamashadi, bu kishi esa jo‘rttaga yirtadi, deb aytgan edi.

– Hamma ayb mana shu xotinida, Marya Nikolayevnada, bu ishlarni sarishta qilolmabdi, – dedi Levin. – Innaykeyin... tan berishim kerak, sening kelganingga juda, juda ham xursand bo‘ldim. Sen shunday poksanki... – Levin xotinining qo‘lini ushladi-yu, lekin o‘pmadi (o‘lim yaqin turgan bir joyda qo‘l o‘pishni o‘ziga ep ko‘rmadi), uning charaqlab turgan ko‘zlariga aybdor kishidek qarab, qo‘llarini qisib qo‘ydi.

– O‘zing yolg‘iz qiynalarding, – dedi-da Kiti qo‘llarini baland ko‘tarib (shu bilan xursandligidan qizarib ketgan betlarini to‘sib), sochlarni orqasiga turmaklagandan so‘ng shpilka qadab qo‘ydi. Keyin yana so‘zini davom qildirdi: – Yo‘q, Marya Nikalayevna kasal boqishni bilmaydi... men, baxtimga, bu narsalarni Sodenda o‘rganib olgan edim.

– Nahotki, o‘sha yerda ham shunaqa kasallar bor edi?

– Battarlari bor edi.

– Meni kuydirgan narsa shuki, akamning yoshlik chog‘lari hech ko‘z oldimdan ketmaydi... qanday ajoyib yigit bo‘lganini aystsam, ishonmaysan, lekin men u vaqtlar qadriga yetmaganman.

– Juda, juda ham ishonaman. Ko‘nglim sezib turibdi: u bilan birga bo‘lsak, juda ahil turardik, – dedi-yu Kiti og‘zidan chiqib ketgan gapdan cho‘chib eriga qaradi, ko‘zlariga yosh yugurdi.

– Ha, birga bo‘lsak, – dedi Levin qayg‘urib, – u shunday odam ediki, undaylarni bu dunyo uchun tug‘ilmagan, deyishadi.

Kiti kichkina soatchasiga qarab:

– Lekin biz hali ko‘p kun ko‘ramiz, endi yotish kerak, – dedi.

XX

O‘LIM

Ertasiga kasalga tabarruk may ichirishib, ustida duoyi-takbir o‘qishdi, Nikolay Levin astoydil munojot qildi. Guldor qo‘l sochiq bilan yopilgan stol ustidagi Iso suratiga tikilib qolgan ola ko‘zlarida shu qadar ehtirosli bir yolvorish, otashin umid bor ediki, Levinning qarashga yuragi betlamadi. Levin bu ehtirosli yolvorish, otashin umid, jondan sevgan hayotdan ayrilayotgani uchun yuragini ezayotgan dog‘-u hasratni yana ham kuchaytirishini bilardi. Levin akasini va uning maslagini bilardi. Akasidagi dahriylik dinsiz yashash osonroq bo‘ladi, degan ishonch natijasi emasligini, balki dunyo xossalariiga zamонавиylари nuqtayi nazardan qarash e’tiqod va dinni surib chiqarayotganini bilardi, shuning uchun hozirgi xudojo‘yligi qonuniy ravishda, uning fikrlari natijasida yuz bermayotganligini, faqat tamagirlik orqasida, devonalarcha najot topish umidida qilinayotgan vaqtincha xudojo‘ylik ekanini ham bilardi. Kiti shifo topgan odamlar to‘g‘risidagi hikoyalari bilan bu umidga umid qo‘sghanligini ham Levin bilar, bu narsalarning hammasidan xabardor edi, shuning uchun bu yolvoruvchi, umid to‘la ko‘zlarga, terisi tortilib, taranglashib ketgan manglayiga xoch tortayotgan bu ozg‘in, qoqshol qo‘lga, turtib chiqqan kiftlariga, omon qolishini tilayotgan, jonini sig‘dirishga ortiq qurbi yetmay xirillab turgan bo‘s sh ko‘krakka qarashdan yuragi ezilar, azoblanar edi. Ibodat mahalida Levin ham munojot qildi, Xudoga ishonmagan holda ming martalab qilgan narsalarini qildi. Xudoga nola qilib: «Yo Xudo, haq bo‘lsang, bu odamga najot ber, (axir bu narsa juda ko‘p marta takrorlangan-ku), unda buni ham, meni ham qutqazgan bo‘lasan», derdi.

Kasalning peshonasiga tabarruk moy surtilgandan so‘ng birdan ahvoli ancha tuzuk bo‘lib qoldi. Bir soat davomida aqalli birorta ham yo‘talmadi, jilmayib, Kitining qo‘lini o‘pdi, ko‘zlariga yosh olib unga minnatdorchilik bildirdi, ahvolining yaxshiligini, hech

yeri og'rimayotganligini, ishtahasi ochilib, madori kirib qolganligini aytdi. Sho'rva olib kelishganda esa hatto boshini ko'tarib, yana kotlet ham so'radi. Mundoq qaraganda tuzalmaydigan ko'rinsa ham, yashashga ortiq umid qolmagan bo'lsa ham, Levin bilan Kiti shu bir soat mobaynida o'zlarini bir xil baxtiyor his qilib, yanglismayotgan bo'lsaydik, deb cho'chib o'tirishdi.

Ular shivirlashib, bir-birlariga jilmayishar:

– Ahvoli yaxshimi? – Ha, ancha yaxshi. – Hayronman. – Hayron bo'ladigan joyi yo'q. – Har holda, tuzuk, – deyishardi.

Xursandchilik uzoqqa bormadi. Kasal jim uxlab qoldi-yu, lekin yo'tal yana uyg'otib yubordi. Ana shunda tevaragidagilarning ham, o'zining ham birdan umidi uzildi. Tuyqusdan bosib kelgan qiyinoq avvalgi umiddan xotira ham, zarracha shubha ham qoldirmay, Levin bilan Kitidagi, hatto kasalning ham o'zidagi umidni xazon qildi.

Kasal yarim soatgina oldin nimaga ishonganini ham xotiriga keltirmay, go'yo buni eslashga uyalayotgandek, og'ziga teshikteshik qog'oz yopilgan va hidlash uchun ichiga yod solingan shishani so'radi; Levin shoshib shishani berdi; shunda boyta tabarruk vino ichirilgan paytda ehtirosli umidlar to'lib turgan ko'zлari ukasiga tikildi; bu ko'zlar doktorning: yod bilan nafas olish mo'jizali natijalar beradi, degan so'zlarini tasdiqlashni ukasidan talab qilardi.

Levin doktorning so'zlarini zo'rg'a tasdiqladi. Nikolay tevaragiga jalanglab qarab:

– Nima, Kiti yo'qmi? – deb xirilladi. – Yo'q bo'lsa, aytish mumkin... men bu nayrangbozlikni Kitining ko'ngli uchun qildim. Juda dilbar juvon ekan; lekin biz o'zimizni aldayolmaymiz, to'g'ri kelmaydi. Men mana shunga ishonaman, – dedi-da qoqshol qo'li bilan shishani ushlab, ustida nafas ola boshladi.

Soat yettidan oshganda Levin xotini bilan o'z nomerida choy ichib o'tirgan edi, birdan Marya Nikolayevna chopib, hansirib kirib keldi. Rangida rang qolmagan edi, lablari titrardi.

– Jon beryaptilar! – deb shivirladi. – Qo'rqaman, hozir o'lib qoladilar.

Ikkovi akasining nomeriga qarab yugurdi. Nikolay turib, tirsagini karavotga suyagan, uzun gavdasini bukib, boshini past solintirib o'tirgan edi.

Levin biroz jim qarab turgandan so'ng:

— Nima bo‘ldi, nima gap? — deb shivirladi.

Nikolay har bir so‘zini ichidan siqib chiqarayotgandek qiyinalib, lekin ravshan qilib gapira boshladi:

— Nima bo‘lardi, ketayotibman, — dedi. Boshini ko‘tarmadi, lekin ko‘zlarini ko‘tarsa ham ukasining yuziga yetkazolmadi. Keyin: — Katya, chiqib ket! — dedi.

Levin o‘rnidan sapchib turdi-da, amirona bir shipshish bilan Kitini chiqarib yubordi.

— Ketayotibman, — dedi yana akasi.

Levin azbaroyi bir nima deyish uchun:

— Nega bunday deb o‘ylaysan? — deb so‘radi.

— Negaki, ketayotibman, — Nikolay, bu iborani xuddi yaxshi ko‘rib qolgandek yana takrorladi. — Tamom.

Marya Nikolayevna yoniga keldi.

— Keling, yoting, ancha yengil tortasiz, — dedi u.

— Yaqinda butunlay tinch yotaman. — Keyin istehzo bilan, zarda bilan qo‘sib qo‘ydi. — O‘laman. Mayli, yotqizgilaring kelayotgan bo‘lsa, yotqiza qollaring.

Levin akasini chalqancha tushirib yotqizdi, o‘zi uning yonida nafas olmay, yuziga qarab o‘tirdi. Kasal ko‘zlarini yumib jimgina yotar, lekin manglayining muskullari, chuqur va qattiq o‘layotgan kishining manglayi singari ora-sira qimirlab qo‘yar edi. Hozir kasalning ichida sodir bo‘layotgan narsani kasalning o‘zi ham, Levin ham beixtiyor o‘ylar, ammo o‘ylashda akasidan orqada qolmaslikka har qancha tirishsa ham, akasining xotirjam, vazmin yuz ifodasida va qoshlari ustidagi muskulning o‘ynashida o‘zi uchun hamon qorong‘i bo‘lib qolgan narsalarning o‘luvchi uchungina ravshanlanib borayotganini payqardi.

— Ha, shunday, shunday, — dedi akasi so‘zlarni shoshmay, dona-dona aytib. — To‘xtanglar. — U yana jim bo‘ldi. — Barakalla! — dedi keyin, hamma narsa o‘ziga ravshan bo‘lgandek birdan ko‘ngli joyiga tushib. — Yo Rabbim! — dedi oxiri og‘ir nafas olib.

Marya Nikolayevna uning oyog‘ini ushlab ko‘rdi.

— Soviyapti, — deb shivirladi u.

Kasal Levinga juda uzoq, juda uzoq qimirlamay yotgandek ko‘rindi. Lekin hali uzilmagan edi, ora-sira bo‘lsa ham nafas olib qo‘yardi. Levin qattiq o‘ylaganidan charchab ketdi. Miyasi nechog‘liq

zo'r berib ishlasa ham, lekin «shunday» so'zining nimaligini, baribir, tushunolmasligini sezib turardi. U o'zining allaqachon jon taslim qiluvchidan keyinda qotib ketganligini sezardi. O'lim to'g'risida o'ylashga ortiq majoli qolmagan edi, hozir shu tobda qilish kerak bo'lган narsalar: ko'zlarini yopish, kiyintirish, tobut buyurtirish to'g'risidagi fikrlar miyasiga beixtiyor kelaverardi. Qiziqliki, u hozir o'zini butunlay loqayd his qilardi: qayg'urmasdi, judolikni sezmasdi, hatto akasiga rahmi ham kelmasdi. Hozir agar akasiga nisbatan yuragida bir his uyg'ongan bo'lsa, u ham uzilayotgan kishi bilib olgan, lekin o'zi hech qachon bilolmaydigan narsalar tug'dirgan rashk edi.

Levin akasining uzilishini kutib boshida uzoq turdi. Lekin akasi uzilavermadı. Eshik ochilib, ostonada Kiti ko'rindi. Levin o'rnidan turib, uni to'xtatmoqchi bo'ldi. Lekin o'rnidan turayotganda jasadning qimirlaganini sezdi.

Nikolay qo'lini cho'zib:

– Ketma, – dedi.

Levin akasiga qo'lini berdi-yu, «Chiqib ket!» degandek jahl bilan xotiniga qo'l siltadi.

Konstantin jasad qo'lini yarim soat, bir soat, yana bir soat ushlab o'tirdi. Endi o'lim xayoliga sira kelmas edi. U hozir Kitining nima qilayotganligini, yondagi nomerda kim turganligini, doktoring uyi o'zinikimiyo'qligini o'ylab o'tirardi. Ovqat yegisi, uxlagini kelib ketdi. Qo'lini sekin bo'shatib, akasining oyoqlarini ushlab ko'rди. Oyoqlari muzlab qolgan bo'lsa ham, kasal nafas olib yetardi. Levin yana oyoq uchida sharpa qilmay chiqib ketmoqchi edi, kasal qimirlab, yana:

– Ketma, – dedi.

Tong yorishdi; kasalning ahvoli boyagidek edi. Levin sekin qo'lini bo'shatdi-yu, kasalga qaramasdanoq, nomeriga chiqib ketib, uxbab qoldi. Uyg'onganda akasining uzilmaganini eshitdi (o'zi, o'ladi, deb kutgan edi), unga kasalning eski ahvoliga qaytganligini xabar qildilar. Kasal yana o'tiradigan, yana yo'taladigan, yana ovqat yeydigan, yana gapiradigan, yana o'limni og'izga olmaydigan, sog'ayib ketishga yana ko'z tutadigan, ilgarigidan ko'ra yana ham tajangroq, badfe'lroq bo'lib qolgan edi. Nikolayni ukasi ham, Kiti ham, hech kim tinchitolmasdi: hammaga zahrini sochib, hammaning ko'nglini og'rita boshladi, tortayotgan azoblari uchun hammani

aybladi, Moskvadan eng mashhur doktorni chaqirib kelinglar, deb turib oldi. Hol so'raganlarning hammasiga bir xil jahl, bir xil o'pka bilan javob qilardi:

– O'lqiday qiyalyapman, chidab bo'lmaydi!

Kasalning azobi dam sayin ortib borardi, ayniqsa, uzoq yotib qolganidan terisi jonsizlanib qattiq og'rirdi, buni tuzatishning ortiq iloji qolmagan edi, u tevarakdagilarga hadeb zahrini sochib, hamma narsa to'g'risida, ayniqsa, Moskvadan doktor olib kelishmaganiga o'pka qilardi. Kiti parvona bo'lib, yordam qilishga, yupatishga urinsa ham, harakatlari, baribir, foydasiz ketardi; Levin Kitining, garchi o'zi bunga iqror bo'lmasa-da, ham jismoniy, ham ma'nnaviy jihatdan qiynalib ketganligini ko'rib turardi. Nikolay ukasini chaqirib, vidolashgan kechasi Levinda qolgan taassurot endi barbod bo'lgan edi. Nikolayning tez orada muqarrar uzilishini, allaqachon chala o'lik bo'lib qolganligini hamma bilardi. Hamma ham faqat bir narsani – uning tezroq o'lishini xohlar, shunday bo'lsa ham, buni yashirib, shishalardagi dorilarni ichirishar, dori-darmon qidirishar, uni ham, o'zlarini ham, bir-birlarini ham aldashar edilar. Bu narsalarning hammasi yolg'on, odamni yerga uradigan, tahqirlaydigan pastkash bir yolg'onchilik edi. Levin o'z xarakterining xususiyati va uzilayotgan kishiga bo'lgan muhabbati orqasida yolg'onchilik qilayotganlarini yana ham ravshanroq ko'rib turar, joni kuyar edi.

Levin qachonlardan beri ikkala akasini Nikolay o'lmasdan turib yarashtirib qo'yish fikrida yurardi; u katta akasi Sergey Ivanovichga yozgan xatining javobini kasalga o'qib berdi. Sergey Ivanovich kelolmasligini yozib, kuchli ta'sir qoldiradigan iboralar bilan ukasidan uzr so'ragan edi.

Kasal hech nima demadi.

– Javob yozsam maylimi? – deb so'radi Levin. – Endi achchig'ing tarqalgandir, deyman?

– Yo'q, qilcha ham. – Yurakda bir alam bilan javob berdi Nikolay. – Xat yoz, menga doktor yuborsin.

Oradan yana uch mashaqqatli kun o'tdi; kasalning ahvoli boyagidek edi. Uni ko'rgan kishilarning hammasi: musofirxonha xizmatkori ham, uning egasi ham, musofirlar ham, doktor ham, Marya Nikolayevna ham, Levin ham, Kiti ham tezroq o'lsaydi, deb tilay boshladilar. Yolg'iz kasalning o'zigina bu tilakda emas edi,

aksincha, doktor keltirmaganlari uchun jahli chiqar, uzzukun dari ichib, yashash to‘g‘risida gapirardi. Goh-goh qoradori tortayotgan azoblarini unuttirgan damlarda, mudrab yotib, boshqalarnikidan ko‘ra o‘zining qalbida ko‘proq tomir yoygan istagini gapirar: «Oh, tezroq bir yoqlik bo‘lsaydi!» yoki: «Qachon tinchir ekanman!» deyardi.

Azob borgan sari zo‘rayib, o‘z ishini qilar, uni o‘lim tomon sudrar edi. Hech qanday holat yo‘q ediki, unga azob bermasa, hech bir daqiqa yo‘q ediki, u orom topsa, tanasida hech qanday yer, a’zo yo‘q ediki, og‘rimasa, qiynamasa; bu tanadagi xotiralar ham, taassurotlar ham, o‘ylar ham tananing o‘zi singari endi unda nafrat uyg‘otardi. Boshqa odamlarning ko‘rinishlari, ularning so‘zлari, o‘zining xotiralari – bularning hammasi unga azob berardi. Atrofidagi odamlar buni sezishardi, shuning uchun ham uning oldida qimir etmaslikka, gapirmaslikka, o‘z istaklarini bayon qilmaslikka tirishardilar. Uning butun hayoti azob-u uqubatdan va bu azob-u uqubatdan tezroq qutulish istagidan iborat bo‘lib qoldi.

Kasalda uni o‘limga o‘z orzularining ushalishi, baxtining ochilishi deb qarashga majbur qiladigan o‘zgarish yuz berayotgan bo‘lsa kerak. Ilgarilari ochlik, horg‘inlik, chanqoqlik kabi hollar yoki azoblar orqasida tug‘ilgan har bir tilak unga bo‘lgan chtiyojlarning qondirilishi bilan jonga huzur bag‘ishlardi; hozir esa bunday tilak va ehtiyojlar qondirilmas, balki qondirish uchun qilingan har bir harakat jonga yangi azob berardi. Shu sababli bu tilaklarning hammasi jam bo‘lib, bir tilakka – butun azoblardan va uning manbayi bo‘lgan tandan qutulish tilagiga aylandi. Lekin tandan, jondan qutulish tilagini ifoda qiladigan so‘z yo‘q edi, shuning uchun ham bu haqda gapirmasdi, balki, odatini qilib, endi bajarib bo‘lmaydigan tilaklarning qondirilishini talab etardi. «Narigi tomonimga ag‘darib qo‘yinglar» – derdi-yu, bir zum o‘tmay, yana boyagidek yotqizib qo‘yishlarini talab etardi. «Bulon beringlar. Bulonni olinglar. Biron narsa aytinlar, nimaga jim turibsizlar», derdi. Endi gapira boshlasalar, ko‘zlarini yumib olar, shu bilan charchaganini, qiziqmaganini, g‘ashi kelganini bildirardi.

Kiti bu shaharga kelgandan keyin o‘n kun o‘tgach, betob bo‘lib qoldi. Boshi og‘rirdi, ko‘ngli aynib qayt qiladigan, erta bilan o‘rnidan turolmaydigan bo‘lib qoldi.

Doktor kasalning sababini charchaganlik, bezovtalik deb tu-shuntirgandan so'ng g'ala-g'ovurdan, tashvishlardan xoli tursin, ko'ngli tinch bo'lzin deb tayinladi.

Lekin Kiti tushlik ovqatdan so'ng o'rnidan turib ketdi, odatdagicha ishini olib, kasalning oldiga kirdi. Kasal unga qoshlarini jiyirib qaradi, Kiti, tobi qochganligini aytganda esa, nafratomuz iljaydi. Shu kuni Nikolay nuqlu burnini qoqar, zorlanib inqillar edi.

- Ahvolingiz qalay? – deb so'radi Kiti.
- Yomon, – dedi Nikolay zo'rg'atdan. – Og'riq zo'r!
- Qayeringiz og'riydi?
- Hamma yerim.

Bugun uziladi, ko'rasiz, – dedi Marya Nikolayevna; u pichirlab gapirgan bo'lsa ham kasal eshitadigan qilib gapirdi; chunki kasal juda ham ziyrak edi. Buni Levin ham payqagan edi. Levin «Jim», deb darhol kasalga qaradi. Nikolay eshitgan edi; lekin bu so'zlar unga zarracha ham ta'sir qilmadi. Boyagidek ginaxonlik bilan jiddiy qarab turar edi.

Marya Nikolayevna Levinga ergashib yo'lakka chiqqanda, Levin:

- Qayerdan bilasiz? – deb so'radi.
- O'zini yulyapti, – deb javob berdi Marya Nikolayevna.
- Yulyapti deganingiz nimasi?
- Mana bunaqa qilyapti, – dedi Marya Nikolayevna jun ko'ylagining burmalarini yilib. Haqiqatan, Levin kasalning shu bugun bir narsani uzib olmoqchidek badaniga nuqlu chang solganini payqagan edi.

Marya Nikolayevnaning aytgani to'g'ri chiqqdi. Kasal tunga borib qo'llarini qimirlatolmay qoldi. Diqqat bilan qaragan ko'zlarini ro'parasiga tikib yotdi. Ukasi yo Kiti bizni osonroq ko'rsin deb ustiga engashganlarida ham, o'sha taxlitda qarab yotaverdi. Kiti kalima o'girish uchun popga odam yubordi.

Pop kalima o'girib turgan paytda ham kasal hech qanday hayot nishonasini ko'rsatmadni; ko'zlarini yumuq edi. Levin, Kiti, Marya Nikolayevna boshida turishdi. Pop kalimani o'girib bo'lmasdanoq, kasal oyoqlarini cho'zib, nafas oldi-da, ko'zlarini ochdi. Pop duoyi fotihasini qilib bo'lib, kasalning sovuq manglayiga xoch qo'ydi-yu, keyin uni bo'yniga osgan uzun ro'molga o'rab qo'yib, bir-ikki daqiqa jim turgandan so'ng, muzlab, qoni qochib ketgan kattakon qo'lini ushlab ko'rди.

Pop:

– Uzildi, – dedi-yu, ketmoqchi bo‘ldi: lekin birdan jasadning lablariga yopishib qolgan mo‘ylovleri qimirlab ketdi, keyin o‘rtadagi sukunatda aniq eshitilgan shu so‘zlar ko‘kragidan xirillab chiqdi:

– Yana biroz bor... bir zum.

Bir daqiqadan keyin yuzi yorishdi, miyig‘ida kulgi paydo bo‘ldi, ana shundan keyin ayollar jasadni bezash harakatiga tushib qoldilar.

Kuzda Nikolay akasi o‘zlarinikiga kelganda, Levin siri bilinmagan o‘limning muqarrarligini, uning yaqinlashib qolganligini ko‘rib dahshatga tushgan edi. Hozir Levinning qalbida yana o‘sha dahshati uyg‘ondi. Lekin hozirgi dahshat hissi burungidan ancha kuchli edi, o‘limning ma‘nosini tushunishga o‘zini ilgari qancha ojiz his etsa, uning muqarrarligi shuncha dahshatiroq ko‘z oldiga kelardi: ammo hozir xotini yonida bo‘lgani uchun bu his uni umidsizlikka tushirmadi, akasining vafotiga qaramay, yuragida yashash va sevish ishtiyoqi borligini his etdi. U o‘zini dilxastalikdan sevgi qutqazganini, bu sevgi noumidlikka tushish xavfi ostida yana ham kuchliroq, yana ham pokroq bo‘lib qolganini his etardi.

Levin bilolmay dog‘da qolgan o‘limning bir siri ko‘z oldida bir yoqlik bo‘lishiga ulgurmey, yana shunday bilib bo‘lmaydigan, hayotga va muhabbatga chorlaydigan boshqa bir sir paydo bo‘ldi.

Doktor Kiti to‘g‘risidagi taxminini tasdiqladi. Kiti homiladorlik orqasida betob bo‘lgan edi.

XXI

Aleksey Aleksandrovich Betsi va Stepan Arkadevich bilan gaplashganda, ularning gaplaridan faqat xotinini tinch qo‘yish, ko‘ziga ko‘rinaverib qiynamaslik kerakligini, xotinining o‘zi shuni xohlaganini tushungan edi; ana o‘sha paytdan beri Aleksey Aleksandrovich shu qadar gangib qoldiki, o‘zicha bir narsani hal qilolmas, o‘zi endi nima xohlaganini bilmas va uning ishlari bilan mammnuniyat-la shug‘ullanayotgan kishilar ixtiyoriga o‘zini topshirib qo‘yib, nima desalar, shunga ko‘nib kelardi. Anna uyidan ketgandan so‘ng ingliz xotin odam kiritib, siz bilan birga ovqat qilishim kerakmi yo yolg‘iz, deb so‘ratganda, Aleksey Aleksandrovich

qanday ahvolga tushganini birinchi marta ravshan angladi-yu, qo'rqib ketdi.

Bu ahvolning eng og'ir tomoni shu ediki, u o'tmishi bilan hozirini hech bir qovushtirolmas, hech bir taqqos qilolmasdi. Uni xotini bilan baxtli umr kechirgan davri xijil qilayotgani yo'q edi. Xotinining vafosizligini bilgandan keyingi davrda chekkan azob-uqubatlari endi o'tib ketgan edi; u vaqtdagi ahvoli og'ir edi, lekin bunga tushunar edi. Agar o'shanda xotini o'zining vafosizligini yuziga aytib, ketib qolsa kuyardi, baxtsiz bo'lardi, lekin hozirgidek o'zi ham tushunmaydigan, boshi berk ko'chaga kirib qolmagan bo'lardi. U yaqindagina xotinini kechirgan, kasal xotiniga va birovning bolasiga rahm-shafqat qilgan bo'lsa-yu, kelib-kelib endi hozirgi ahvolga tushsa, ya'ni shuncha mehr-u muhabbatga, xizmatlariga tuhmat ko'rsa, hammaga kulgi va sharmanda bo'lsa, hech kimga kerak bo'lmay, hammaning nafratiga qolsa, buni u hech aqliga sig'dirolmasdi.

Xotini ketib qolgandan so'ng dastlabki ikki kun davomida Aleksey Aleksandrovich arz bilan kelgan odamlarni, ishlar mudirini qabul qildi, komitetga bordi, odatdagicha oshxonaga kirib ovqat qilib yurdi. U nega bunday qilayotgani to'g'risida o'ylab ham o'tirmasdi, shu ikki kun davomida o'zini vazmin, hatto parvosiz ko'rsatishga harakat qildi, qalbning butun kuchini shunga sarf qildi. Anna Arkadevnaning ul-bullarini va xonalarini nima qilish kerakligi to'g'risida berilgan savollarga javob qilarkan, qiynalib-ezilib bo'lsa ham, o'zini yuz bergan voqeaga kutilmagan voqeа emas, bu kunda bo'ladigan voqealardan hech qanday farq qilmaydi, deb qaraydigan odamga o'xshatib ko'rsatar, shu tariqa maqsadiga erishardi: ichida alami qaynab-toshayotganini sezgan bitta ham odam bo'lindi. Lekin Anna ketgan kunning ertasiga Korney moda do'konining hisobini olib kirib (Anna to'lab qo'yishni unutgan ekan), magazin gumashtasining o'zi ham shu yerda ekanligini aytganda, Aleksey Aleksandrovich gumashtani chaqirtirdi.

— Janobi oliylari, kechirsinlar, bezovta qildim. Agar janoblari xonimning o'zlariga murojaat qilishni amr etsalar, manzillarini aytib berish zahmatini uddalariga olmasmikanlar.

Aleksey Aleksandrovich gumashta nazarida o'ylanib qolganday ko'rindi; u birdan o'girilib, stolga kelib o'tirdi. Boshini qo'llari-

ga qo'yib, shu alpozda uzoq o'tirdi, bir necha bor gaplashishga chog'lanib ko'rsa ham, yana to'xtab qoldi.

Korney xo'jayinining ahvolini fahmlab, gumashtadan keyin kelishni iltimos qildi. Aleksey Aleksandrovich yolg'iz qolgandan so'ng tetik, xotirjam odam rolini o'ynashga ortiq qodir emasligini angladi. Kutib turgan karetani qaytarishni, hech kimni qabul qilmaslikni buyurdi, o'zi ovqatga chiqmadi.

Aleksey Aleksandrovich bu gumashtaning ham, Korneyning ham shu ikki kun mobaynida uchrashgan hamma kishilarning ham yuzida ravshan ko'rgan umumiy nafrat va g'azabning shiddatiga toqat qilolmasligini sezib qoldi. U odamlarning o'zidan nafratlanishlariga mone bo'lolmasligini sezardi, chunki yomon bo'lgani uchun emas (bunday bo'lsa, o'zini yaxshiroq tutishga harakat qilardi), balki sharmandalarcha, rasvolarcha baxtsiz bo'lgani uchun nafratlanganlarini sezardi. Yuragining ezilib, pora-pora bo'lgani uchun ham u odamlarning o'ziga shafqatsiz bo'lishlarini bilardi. Itlar og'rig'iga chidolmay vangillayotgan, dabdala qilingan itni bo'g'ib o'ldirishganidek, o'zining ham odamlar tomonidan o'ldirilishini sezardi. Odamlardan qutulishning birdan-bir yo'li – ulardan yarasini yashirish ekanligini bilardi, shuning uchun ham o'ylab-netib o'tirmay, ikki kun shunday qildi, endi esa bu asablar kurashini davom ettirishga majoli qolmaganini sezsa boshladi.

Shuncha qayg'u-alamlar boshiga tushgan bir paytda yolg'iz ekanligi yana dardiga dard qo'shar edi. Nainki Peterburgda, hech qayerda shunday odami yo'q ediki, yuragidagi qayg'u-alamlarini ochib aytganda, u odam bunga olimaqom amaldor bo'lgani, kiborlar jamiyatining a'zosi bo'lgani uchun emas, shunchaki dog'-u hasratda qolgan kishi bo'lgani uchun achinsa.

Aleksey Aleksandrovich yetimlikda o'sdi. Uning yana bitta jigari ham bor edi. Otalarini eslashmaydi, onalari bo'lsa Aleksey Aleksandrovich o'n yoshga qadam qo'yganda o'lib ketdi. Mulklari kichkina edi. Ularni bir mahallar marhum imperatorning yaqin kishilaridan hisoblangan va ulug' martabaga ega bo'lgan amakisi Karenin tarbiya qildi.

Aleksey Aleksandrovich gimnaziyasi va universitetni medallar bilan tamomladi-yu, amakisining yordami bilan darhol katta bir idoraga

xizmatga kirib, o'shandan beri mansabini oshirish ko'yiga tushdi. Na gimnaziyada, na universitetda va na keyincha xizmatda Aleksey Aleksandrovich hech kim bilan yaqin do'st bo'lmadı. Akasi ko'ngliga yoqadigan eng yaqin kishisi edi, lekin u tashqi ishlar ministrligida ishlagani uchun chet elda yashardi; Aleksey Aleksandrovich uylangandan keyin akasi tez orada o'lib ketdi.

Aleksey Aleksandrovich gubernator bo'lib turgan kezlarda Annaning xolasi, ya'ni gubernyaning badavlat xonimi yoshi qaytib qolgan bo'lsa ham, lekin yosh gubernator bo'lgan bu kishini o'zining jiyani bilan tanishtirib, uni shunday ahvolga tushirib qo'ydiki, Aleksey Aleksandrovich yo muddaosini aytishga yoki shahardan ketishga majbur bo'lib qoldi. Aleksey Aleksandrovich uzoq ikkilanib yurdi. O'sha kezlar uylanish foydasiga qancha dalil bo'lsa, qarshisiga ham shuncha dalil bor edi; buning ustiga, odatdagি qoidasini, ya'ni shubha bor joyda sabr bor, degan aqidasini buzadigan bitta ham dalil yo'q edi; lekin Annaning xolasi bir tanishini o'rtaga qo'yib, Aleksey Aleksandrovich qizni badnom qilib qo'ydi, endi vijdon ovoziga qulqoq osib, qizga og'iz solishi kerak, deb aytirdi. Ana shundan keyin Aleksey Aleksandrovich qizga og'iz soldi-yu, qaylig'iga salohiyati boricha mehr-u muhabbatini qo'ydi.

U Annaga shu qadar berilib, shu qadar mahliyo bo'lib ketdiki, unda odamlar bilan dilkashlik qilishga ehtiyoj qolmadı. Mana endi bir vaqtlardagi tanishlaridan bironta yaqin odami qolmadı. Odamlar bilan bordi-keldisi bo'lsa-da, lekin do'stlik aloqasi yo'q edi. Aleksey Aleksandrovichni o'zinikiga mehmonga taklif qilishi mumkin bo'lgan, o'zini qiziqtirgan ishda dardiga sherik bo'lishini, boshiga ish tushgan bironta kishiga homiylik qilishini iltimos eta oladigan va boshqa shaxslar hamda oliv hukumat haqida bermalol gaplasha oladigan odamlar ko'p edi; lekin bu odamlarga munosabati urf-odat qattiq chegaralab qo'ygan va bu chegaradan aslo chiqib bo'lmaydigan bir sohagagina oid edi. Universitetda birga o'qigan, keyincha juda qalinlashib ketgan bir o'rtog'i bor edi, o'sha bilan hasratlashsa bo'lardi, lekin bu o'rtog'i uzoq bir yerdagi ta'lim okrugida mutasaddi bo'lib ishlardi. Peterburgdagи odamlardan eng yaqinrog'i va dardlashsa bo'ladigani mahkamasidagi ishlar mudiri bilan doktor edi.

Ishlar mudiri Mixail Vasilevich Slyudin sodda, aqlli, xushmuomala va boodob odam edi, innaykeyin, Aleksey Aleksandrovich uning

o'ziga xayrixohligini ham sezib yurardi; lekin besh yillik xizmat faoliyatlari o'rtalariga dilkashlik qilishga yo'l qo'ymaydigan g'ov solib qo'ygan edi.

Aleksey Aleksandrovich qog'ozlarga qo'l qo'ygandan keyin Mixail Vasilevichga anchagacha jim qarab turdi, gapirishga bir necha bor chog'landi-yu, lekin gapirolmadi. Hatto aytadigan gapini tayyorlab ham qo'ygan edi: «Mening boshimga tushgan sho'rdan xabarining bormi?» Lekin gapni har vaqtagi iboralari bilan tugatdi: «Shunday qiling, bularni menga tayyorlab bering», – dedi-yu, chiqarib yubordi.

Yaqin ko'rgan ikkinchi kishisi doktor edi; u ham Aleksey Aleksandrevichga xayrixoh edi; lekin ular allaqachon so'z bilan emas, so'zsiz, ikkovimizning ishlarimiz boshimizdan oshib-toshib yotibdi, shuning uchun shoshilish kerak, deb kelishib olgan edilar.

Aleksey Aleksandrovich ayollar orasidagi do'stlari, ular ichida eng birinchisi hisoblangan grafinya Lidiya Ivanovna to'g'risida o'ylamasdi ham. Hamma ayollar ayol bo'lganliklari uchun ham, Aleksey Aleksandrovichni qo'rqitar, ko'nglini ozdirardi.

XXII

Aleksey Aleksandrovich Lidiya Ivanovnani esidan chiqarib yuborgan bo'lsa ham, Lidiya Ivanovna uni esidan chiqarmagan edi. Aleksey Aleksandrovich o'z yog'iga o'zi qovurilgan shu og'ir paytda Lidiya Ivanovna yo'qlab kelib, xabar qildirmasданоq to'g'ri kabinetga kirdi. U Aleksey Aleksandrovichni boshini qo'llariga tirab o'tirgan holatda ko'rdi.

Lidiya Ivanovna hayajonidan va tez yurganidan hansirab, tez-tez yurib kirdi-yu:

– Jai fore consigne¹, – dedi. – Hamma gapni eshitdim! Aleksey Aleksandrovich! Do'stim! – deb davom qildi ikki qo'li bilan uning qo'lini mahkam qisib va ko'zlariga o'zining chiroyli, o'ychan ko'zlar bilan tikilib turib.

Aleksey Aleksandrovich qovog'ini solib o'rnidan sal turdi-da, qo'lini bo'shatib, unga stulni surib qo'ydi.

– Balki o'tirarsiz, grafinya? Men hech kimni qabul qilmayapman, chunki kasalman, grafinya, – dedi-yu lablari titrab ketdi.

¹ Taqiqingizni buzib qo'ydim (*frans.*).

Grafinya Lidiya Ivanovna ko‘zlarini undan uzmay:

– Do‘stim! – deb yana takrorladi, shunda qoshlarining tutashgan yeri birdan ko‘tarilib peshonasida uchburghak hosil bo‘ldi; xunuk sariq yuzi yana besh battar xunuklashdi; lekin Aleksey Aleksandrovich uning o‘ziga rahmi kelayotganini, yig‘lab yuboray-yig‘lab yuboray deb turganini payqdadi. O‘zining ham ko‘ngli buzilib ketdi: grafinyaning shishmon qo‘lini ushlab, o‘pa boshladи.

– Do‘stim! – dedi grafinya Lidiya Ivanovna hayajonlanib qaltiragan ovoz bilan. – Ko‘p g‘am yeyavermang. Qayg‘ungiz zo‘r, lekin tasallи yo‘lini toping.

Aleksey Aleksandrovich uning qo‘lini qo‘yib yubordi, lekin grafinyaning jiqla yosh ko‘zlariga hamon tikilib:

– Men xarob bo‘ldim, endi nima degan odam bo‘ldim-a! – dedi. – Ahvolimni yana besh battar yomonlashtirgan narsa shuki, mening hech qayerda suyanchig‘im yo‘q, hatto o‘zimda ham.

– Suyanadigan kuch topasiz, garchi men do‘stligimga ishonishingizni iltimos qilsam ham, lekin mendant madad kutmang, – dedi grafinya Lidiya Ivanovna xo‘rsinib.

– Suyanchig‘imiz – muhabbatimiz, parvardigor bizga ato qilgan muhabbatdir. Allohning bizga yuklagan vazifasi yengil, – dedi keyin Aleksey Aleksandrovichga juda ham tanish bo‘lgan shavq bilan. – Parvardigorning o‘zi sizni qo‘llaydi, ko‘mak beradi.

Grafinya o‘zining chuqur hislaridan iyib ketgani uning bu so‘zlaridan bilinib tursa ham yaqinda Peterburgda rasm bo‘lgan serzavq mistisizm Aleksey Aleksandrovichga ortiqcha tuyulsa ham, bu so‘zlarni eshitib huzur qildi.

– Men zaif bir odamman. Meni yerga kirgizib yubordilar. Ilgari bunday bo‘lishiga ko‘zim yetmagan edi, hozir ham hech narsaga aqlim yetmaydi.

– Do‘stim! – deb yana takrorladi Lidiya Ivanovna.

– Gap hozir qo‘ldan ketgan narsa ustida emas, yo‘q, unda emas, – dedi Aleksey Aleksandrovich so‘zini davom qildirib. – Bu narsaga achinmayman. Lekin boshimga tushgan ahvolimdan odamlar oldida xijolat tortmay turolmayman. Bu yomon narsa, lekin uyalmasdan turolmayman, yerdan bosh ko‘tarolmayman.

Grafinya Lidiya Ivanovna zavq bilan ko‘zlarini yuqori ko‘tarib:

– Meni maftun qilgan bu ulug' ish – kechirim sizdan emas, yo'q, bu va boshqa narsalar qalbimizdan joy olgan egamning o'zidan sodir bo'lgan, – dedi, – shu sababli o'z qilmishingizdan xijolat torta olmaysiz.

Aleksey Aleksandrovich qovog'ini soldi-yu, panjalarini bukib, barmoqlarini qisirlata boshladi.

– Butun ikir-chikirlarigacha bilish kerak, – dedi Aleksey Aleksandrovich ingichka tovush bilan. – Insonning madori mahdud, grafinya, madorim quridi. Butun kunim topshiriqlar berish bilan o'tdi; ro'zg'or tashvishi endi yolg'iz boshimga tushdi, men ana shu yangi vazifani zimmamga yuklagan (zimmamga yuklagan so'zlariga urg'u berib aytdi) uy ishlari bilan mashg'ul bo'ldim. Xizmatkorlar, murabbiya, schyotlar... bu arzimas g'am otashi bag'rimni kuydirib yubordi, axir chidayolmadim. Ovqat mahalida... kecha sal bo'lmasa ovqatni tashlab ketib qolardim. O'g'limning menga qanday ko'zlar bilan qaraganiga toqat qilolmadim. U yuz bergen ahvolning ma'nosini mendan so'ramadi, so'ramoqchi bo'ldi-yu, lekin men uning boqishlariga chidash berolmadim. Menga qarashdan qo'rqr edi. Lekin boshimdag'i sho'rning hammasi shugina emas...

Aleksey Aleksandrovich o'ziga olib kelgan schyotni ham tilga olib o'tmoqchi bo'ldi-yu, lekin ovozi titrab ketib, to'xtab qoldi. Shlapa, lentalar to'g'risidagi bu ko'k qog'ozga yozilgan schyotni eslaganda, o'ziga rahmi kelib ketardi.

– Tushunaman, do'stim, – dedi grafinya Lidiya Ivanovna. – Hamma gapga aqlim yetadi. Yordam ham, tasalli berish ham mening qo'limdan kelmaydi; shunday bo'lsa ham, qo'limdan kelsa ko'maklasharman deb keldim. Agar sizni tahqirlaydigan ana o'sha mayda tashvishlardan xalos qilolsam... bilaman, bu ishlarda xotin kishining so'zi, xotin kishining buyruqlari lozim. Bu ishlarni menga topshirasizmi?

Aleksey Aleksandrovich uning qo'lini sukut bilan, minnatdorlik bilan qisdi.

– Seryojkaga ikkovimiz qaraymiz. Ro'zg'or ishlarida uncha uquvim yo'q, shunday bo'lsa ham bu tomonini o'z zimmamga olaman, sizning ekonomkangiz bo'laman. Minnatdorlik bildirmang. Buni o'zim qilayotganim yo'q...

– Minnatdor bo'lmaslikning iloji yo'q, axir.

– Lekin, do'stim, boyo o'zingiz aytgan umidsizlikka berilmang; nasroniylikning: kimki o'zini xor qilsa, martabasi baland bo'ladi, degan eng oliv qoidasi shu, bundan uyalish yaramaydi. Menga ham minnatdorchilik bildirolmaysiz. O'ziga minnatdorchilik bildirishingiz, O'zidan ko'mak so'rashingiz kerak. Yolg'iz O'zidangina rohat, tasalli, najot va muhabbat topishimiz mumkin, – dedi grafinya Lidiya Ivanovna; keyin ko'zlarini ko'kka ko'tarib, ibodat qila boshladi; Aleksey Aleksandrovich uning jim bo'lib qolganidan ibodat qilayotganini anglagan edi.

Aleksey Aleksandrovich grafinyaning so'zlariga indamay quloq berib turdi, chunki ilgarilari o'ziga yoqimsiz tuyulgan, ortiqcha bo'lib ko'ringan so'zlar endi tabiiy so'zlar, tasalli beradigan so'zlar bo'lib tuyuldi. Aleksey Aleksandrovich bu yangi balandparvoz ruhni yomon ko'rardi. U dinga faqat siyosiy nuqtayi nazardan qiziqadigan taqvodor odam edi: yangi ta'limot esa ba'zi yangi izohotlarga yo'l qo'ygani, ayniqsa, munozara va tahlilga maydon ochib bergani uchun prinsip jihatidan Aleksey Aleksandrovichga yoqmas edi. Ilgarilari bu yangi ta'limotga sovuq, hatto dushmanlik ko'zi bilan qarardi: bu ta'limotga berilib yurgan grafinya Lidiya Ivanovna bilan hech mahal munozaraga kirishmasdan, uning da'vatlarini sukut bilan qarshi olishga tirishib kelardi. Mana endi uning so'zlarini birinchi marta mammuniyat bilan eshitib, ko'nglida bu gaplarga e'tiroz etmadи.

Grafinya Lidiya Ivanovna ibodatini qilib bo'lgandan so'ng Aleksey Aleksandrovich:

– G'amxo'rлиgingiz uchun, bergen tasallilaringiz uchun ham sizdan juda, juda minnatdorman, – dedi.

Grafinya Lidiya Ivanovna do'stining qo'lini bir marta qisdi. Biroz jim turgandan keyin yuzida qolgan yoshlарини arta turib:

– Endi ishga kirishaman, – dedi kulimsirab. – Seryojaning oldiga boraman. Juda zarur bo'lgandagina sizga murojaat qilaman, – dedi-yu, o'rnidan turib chiqib ketdi.

Grafinya Lidiya Ivanovna Seryoja turadigan uyga kirdi-da, yuragi chiqib ketgan bolaning betlariga ko'z yoshlарини oqizib, otasining avliyo ekanligini, onasining esa o'lganligini aytди.

Grafinya Lidiya Ivanovna va'dasida turdi. Chindan ham Aleksey Aleksandrovichning ro'zg'or tashvishlarini o'z ustiga oldi. Lekin ro'zg'or ishlarida uquvi uncha emasligini aytganda mahovat qilmagan

edi. Hamma topshiriqlarini o'zgartirish kerak edi, chunki ularni bajarib bo'lmasdi; Aleksey Aleksandrovichning mulozimi, Korney bu topshiriqlarni o'zgartirib turar edi; Korney Kareninning uyini hech kimga sezdirmasdan endi bir o'zi tebratib kelar, xo'jayinini kiyintirish paytlarida nima kerakligini sekin esiga solib qo'yay edi. Shunday bo'lsa ham, grafinya Lidiya Ivanovnaning yordami juda sezilib turardi: bu narsa Aleksey Aleksandrovichga bo'lgan hurmati va muhabbat tufayli unga ma'naviy tayanch bo'ldi; endi u Aleksey Aleksandrovichni chinakam nasroniylik yo'liga solgani, ya'ni parvosizlik va erinchoqlik bilan taqvo qilib kelgan bu odamni keyingi vaqtarda Peterburgda tomir yoygan nasroniy ta'llimotining yangi talqiniga mustahkam va otashin tarafdar qilib qo'yanini o'ylab, o'zidan mamnun bo'lib yurardi. Aleksey Aleksandrovichni bu yo'lda solish oson bo'ldi. Lidiya Ivanovna va bu ta'llimot tarafdarlarining qarashlariga sherik bo'lgan boshqa odamlar singari Aleksey Aleksandrovich ham chuqr tasavvur va ruyhiy qobiliyatdan mahrum edi; bu ruhiy qobiliyat orqasida tasavvur maydonga keltiradigan tushuncha shu qadar haqiqatga aylanib ketardiki, bular boshqa tasavvurlar va voqelik bilan yonmaydon turishni talab qilardilar. U dinsizlar nazarida mavjud bo'lgan o'limning o'zi uchun mavjud emasligi to'g'risidagi tasavvurida biron erish va noqobil narsa borligini ko'rmas edi, modomiki imoni komil ekan va uning hakami ham o'zi ekan, ko'nglida hech qanday gunoh yo'qligini biladi, shuning uchun ham najot shu yerda ekanligini sezib turadi.

Ori rost, o'z imoni to'g'risidagi tasavvurining yengil-yelpiliginini, noto'g'riliгини Aleksey Aleksandrovich sal-pal sezib turar, shuning uchun xotinining gunohlarini oliy kuch ta'siri bilan kechirganini o'ylab o'tirmasdan to'g'ridan-to'g'ri shu hisga berilganda, qalbimda Iso yashaydi, qog'ozlarga ham uning irodasi bilan qo'l qo'yaman, deb har daqqa o'ylab turgan hozirgi paytidan ko'ra, avvallari o'zini ko'proq baxtli his etganini bilardi; lekin Aleksey Aleksandrovichga mana shunday o'y zarur edi; shunday xor-u zor bo'lib yurgan bir paytida, hammaning nafratiga duchor bo'lgan bu odamga uydirma bo'lsa ham shunday bir yuksaklik zarur ediki, uning o'zi ham shu yuksakdan turib boshqalarga nafrat ko'zi bilan qaray olsin, darhaqiqat, u o'z najoti, xayoliy najoti uchun shu yuksaklikda mahkam tura bildi.

XXIII

Grafinya Lidiya Ivanovna juda xushchaqchaq qiz bo‘lib, yoshligida badavlat, shuhrati zo‘r, hotamtoy va o‘lguday buzuq bir maishatparast odamga turmushga chiqqan edi. Eri bir oydan ortiqroq turgandan so‘ng grafinyani tashlab ketdi-yu, Lidiya Ivanovna mehri-muhabbatini izhor qilganda, unga faqat istehzo, hatto dushmanchilik bilan javob qildi; grafning hotamtoyligini bilgan va serzavq Lidiyada hech qanday nuqson ko‘rmagan odamlar bu narsaga hech tushunolmay qoldilar. O‘sandan beri garchi taloq yo‘li bilan ajrashmagan bo‘lsalar ham, boshqa-boshqa turishar, eri xotinini ko‘rganda hamisha zaharli bir istehzo bilan muomala qilar, sababini esa yana hech kim bilolmay hayron bo‘lardi.

Grafinya Lidiya Ivanovnaning eriga bo‘lgan ishqisi allaqachon sovib ketgan bo‘lsa ham, o‘sandan beri o‘zi boshqalarga oshiq bo‘lishdan charchamay kelardi. U birdaniga bir necha odamni: erkaklarni ham, xotinlarni ham yaxshi ko‘rib qolardi; biron masalada nomi chiqqan odamlarning qariyb hammasiga birma-bir ko‘ngil bergen. Podsho xonadoniga qarindosh bo‘lib kirgan hamma yangi malika va shahzodalarni yaxshi ko‘rgan; bir mitropolitga, bir vikar ulamosiga, yana bitta popga ham oshiq bo‘lgan. Bir jurnalistga, uchta slavyanga va Komissarovga ishqisi tushgan; bir ministrga, bir doktorga, bir ingliz missioneriga va Karenining ko‘ngil bergen. Bu sevgilar goh susayib, goh kuchayib tursa ham saroy ichida va kiborlar jamiyatida juda keng tomir olgan aloqalarini davom ettirishiga xalaqit bermas edi. Lekin Kareninning boshiga sho‘r tushgandan keyin uni o‘zining himoyatiga olgan damdan, ya’ni Karenin uyida uning rohatini ko‘zlab zahmat cheka boshlagan kundan beri boshqa hamma sevgilari chin emasligini, endi yolg‘iz Kareningagina oshiq ekanligini his qila boshladi. Aleksey Aleksandrovichga nisbatan yuragida uyg‘ongan his burungi hislaridan juda-juda kuchli tuyulardi. U hozirgi hisni tahlil va o‘tgan hissiga taqqos qilib ko‘rib, shunday xulosaga keldiki, agar Komissarov podshohning jonini saqlab qolmaganda, unga ko‘ngil bermagan bo‘lardi. Agar slavyan masalasi bo‘limganda, Ristik – Kudjitskiyga ishqisi tushmagan bo‘lardi, lekin Kareninni esa uning Karenin bo‘lgani uchun, odam tushunib bo‘lmaydigan ajoyib qalbi uchun, yuragini ilituvchi, ingichka, cho‘ziq ovozi uchun, horg‘in-tolg‘in boqishlari uchun,

xarakteri uchun, tomirlari o'ynab chiqqan yumshoq, oppoq qo'llari uchun yaxshi ko'rardi. Grafinya Lidiya Ivanovna uni ko'rgani uchungina xursand bo'lmasdi, balki uning yuzidan o'zi qoldirgan taassurot izlarini qidirar edi. U Aleksey Aleksandrovichga faqat so'zları bilangina emas, butun qaddi-qomati, ruxsori bilan ham yoqishni istardi. Grafinya Lidiya Ivanovna faqat uni deb o'ziga oro berardi. Burunlari hech qachon o'ziga bu xilda oro bergan emas edi. Goho yuragida: koshki ikkovimizning boshimiz ochiq bo'lsaydi, degan orzu tug'ilganini payqab qolardi. Karenin uning xonasiga kirib kelganda Lidiya Ivanovna hayajonidan qizarib ketardi, o'ziga shirin gaplar aytganda, suyunganidan iljaymay turolmasdi.

Grafinya Lidiya Ivanovna mana bir necha kundan beri hayajon ichida yashab kelardi. Annaning Vronskiy bilan hozir Peterburgda ekanligini eshitgan edi. Aleksey Aleksandrovichni Anna bilan ko'rishishdan saqlash, ana shu rasvo xotin bilan bir shaharda turganligini va har daqiqada ko'rishib qolish ehtimoli borligini bilish azobidan saqlash kerak edi.

Lidiya Ivanovna bu jirkanch odamlarning, ya'ni u shunday deb atagan Anna bilan Vronskiyning nima qilmoqchi ekanliklarini tanishbilishlari orqali surishtirib bildi-da, ular bilan uchrashib qolmasin deb, shu kunlarda do'stining barcha xatti-harakatiga o'zi ko'z-quloq bo'lib turdi. Grafinya Lidiya Ivanovna bu xabarlarning hammasini Vronskiyning oshnasi bo'lmish yosh ad'yutantdan olib turardi. Lidiya Ivanovna yordami bilan konsessiya olish umidida bo'lgan bu yosh ad'yutant, Vronskiy bilan Anna ishlarini bitirganliklarini, endi ertaga jo'nab ketishlarini aytdi. Lidiya Ivanovnaning ko'ngli endi joyiga tusha boshlagan ham ediki, ertasi kuni ertalab unga bir maktubcha keltirib berishdi; xatni tanib, yurak-puragi chiqib ketdi. Bu Anna Kareninaning xati edi. Konvert qalin qog'ozdan qilingan edi; uzunchoq sariq qog'oz ustida ism va familiyasining bosh harflari katta qilib yozilgan, xatdan atir hidi kelib turardi.

- Kim olib keldi?
- Musofirxona komissioneri.

Grafinya Lidiya Ivanovna xatni ancha vaqtgacha o'qiyolmadı. Yuragi hovriqqanidan nafasi qisib qoldi. (Uning shu dardi bor edi.) Hushiga kelgandan keyin fransuzcha yozilgan mana shu xatni o'qidi.

«Madame La Comtesse', — xatni bevosita o'zingizga yozishda menga dalda bergen narsa — qalbingizda to'lib yotgan nasroniylik hislari ekanligini sezib turibman. Men o'g'limdan ajrab, baxti qora bo'lgan xotinman. Jo 'nashimdan oldin uni loaqal bir marta ko'rishimga ijozat berishingizni yalinib-yolvorib so'rayman. O'zimni yodingizga solganim uchun meni kechiring. Men sizga murojaat qilyapman, lekin Aleksey Aleksandrovichga emas, chunki o'zimni eslariga solish bilan bu oljanob kishiga azob bergim kelmaydi. Unga do'stligingizni bilganim uchun mening dardimga tushunasiz, deb o'ylayman. Seryojani mening oldimga yuborasizmi yo o'zingiz belgilagan ma'lum soatda o'zim uyga boraymi yoki uydan tashqarida qachon va qayerda ko'rishim mumkinligini menga xabar qilasizmi? Bolamni ko'rsatish ixtiyorida bo'lgan kishining oljanobligini bilganim uchun rad javob olishga ko'zim yetmaydi. O'g'limni ko'rishga zorintizor bo'lganimni ko'z oldingizga keltirolmaysiz, shuning uchun sizning yordamingiz qalbimda uyg'otadigan minnatdorlik hissini ham tasavvur etolmaysiz.

Anna.»

Bu xatdagi narsalarning hammasi: mazmuni ham, oljanoblik to'g'risidagi ishoralari ham, ayniqsa, Lidiya Ivanovnaga bachkana ko'ringan ohangi ham uning g'ashini keltirdi.

Grafinya Lidiya Ivanovna:

— Chiqib ayt, javob bo'lmaydi, — dedi-yu darhol papkasini oolib, Aleksey Aleksandrovichga uni soat o'n ikkidan oshgandan keyin saroydagi tabriklash marosimi vaqtida ko'rish niyatida ekanligini yoza boshladи.

«Muhim va qayg'uli bir masala to'g'risida siz bilan gaplashib olishim kerak. Qayerda gaplashishimizni o'sha yerda kelishib olamiz. Menikida gaplashsak, yaxshiroq bo'lardi, choyingizni tayyorlatib qo'yaman, juda zarur. Sho'r bergen ham o'zi, kuch bergen ham o'zi», deb qo'shib qo'ydi, uni biroz bo'lsa ham suhbatga hozirlash uchun.

Grafinya Lidiya Ivanovna har kuni Aleksey Aleksandrovichga ikkitadan-uchtadan xat yozib turardi. Aleksey Aleksandrovich bilan shu xilda aloqa qilib turishni yaxshi ko'rardi, chunki bu narsa ularning shaxsiy muomalalarida yetishmagan nazokat va zebolik bag'ishlar edi.

¹ Grafinya (frans.).

XXIV

Tabriklash marosimi tugadi. Jo'nayotganlar bir-birlari bilan uchrashib, so'nggi yangiliklardan, yangi olingen mukofotlardan, katta amaldorlarning yangi o'rirlarga belgilanganliklaridan gaphirishayotgan edilar.

Baland bo'yli go'zal bir freylina¹ zarbof mundirli bir mo'ysafid choldan kim qanday o'ringa ko'chirilganini so'ragan edi, u:

— Grafinya Marya Borisovnaga — harbiy ministrlikni, shtab boshlig'i lavozimini esa knyaginya Vatkovskayaga berib qo'yishmasaydi, — dedi.

Freylina kulimsirab:

— Meni bo'lsa ad'yutantlikka, — dedi.
— Sizning o'rningiz tayyor. Sizni diniy nazoratga yuborishadi. Sizga yordamchi qilib Kareninni.

Chol oldiga kelgan bir kishining qo'lini qisib:

— Salom, knyaz, — dedi.
— Karenin to'g'risida bir nima deyatuvdinglarmi? — deb so'radi knyaz.

— U bilan Putyatov Aleksandr Nevskiy ordenini olishdi.
— Uniki bordir deb yuruvdim.
— Yo'q, ana, o'ziga bir qarang, — dedi chol gul solingen shlapasi bilan Karinga ishorat qilib; Karenin shu payt davlat kengashmasining nufuzli a'zolaridan biri bilan zal eshigida to'xtab turgan edi; Kareninning egnida saroy ahllari kiyadigan mundir, yelkasidan o'tkazib taqilgan yangi qizil lenta bor edi. — Baxtli, mamnun, baayni mis chaqadek, — deb qo'ydi keyin chol; pahlavon qomatli navqiron kamergerning qo'lini qisgani to'xtab.

— Yo'q, qarib qolibdi, — dedi kamerger.
— Tashvish ko'p-da. Hozir loyiha yozishdan bosh ko'tarmaydi. Moddama-modda hammasini aytib bermaguncha, endi u boyaqishni qo'yib yubormaydi.
— Nega qarib qoldi, deysiz? Il faut des pessions². Chog'imda, grafinya Lidiya Ivanovna hozir uni xotinidan ham kunlab yuradi.
— Yo'g'-e! Grafinya Lidiya Ivanovna to'g'risida nojo'ya gaplar qilmang, baraka topkur.

¹Oyim qiz (*nems.*).

²Yutuqlari zo'r (*frans.*).

– Iya, Kareninni yaxshi ko‘rib qolganini aytish ham nojo‘ya bo‘ladimi?

– Rostdan ham Karenina shu yerda emishmi?

– Ya’ni bu yerda, saroyda emas, Peterburgda. Kecha ko‘rdim, Dengiz ko‘chasida Aleksey Vronskiy bilan bras dessus, bras bessous¹ yurgan ekan.

– S’est un homme qui n’a pas...², – deb kamerger gap boshlagan edi, darrov to‘xtab, yonidan o‘tib ketayotgan podsho xonadoniga mansub odamga ta’zim bilan yo‘l berdi.

Odamlar nuqul Aleksey Aleksandrovichdan kulib, uni shu taxlitda qoralab gapireshardi; Aleksey Aleksandrovich bo‘lsa, bu orada davlat kengashmasi a’zosining yo‘lini to‘sib olib, o‘zi tuzgan moliya loyihasining moddalarini jag‘i-jag‘iga tegmay tushuntirar, u odamni qo‘ldan chiqarib yubormaslikka urinardi.

Xotini tashlab ketgandan keyin ayni bir vaqtida Aleksey Aleksandrovichning boshiga yana bir qayg‘u tushdi; xizmat kishisini yomon qayg‘uga soladigan bu hodisa – martaba pog‘onasida ko‘tarilmay turib qolishdan iborat edi. Yuqoriga ko‘tarilmay turib qolganini hamma ko‘rib tursa hamki, hali u nufuzining tugaganini sira tan olmasdi. Stremov bilan to‘qnashgani sabab bo‘ldimi, yo xotini tufayli boshiga tushgan sho‘rimi yoinki soddacha Aleksey Aleksandrovich o‘ziga nasib buyurgan martabaga erishib bo‘ldimi, har holda, shu bu yil uning xizmat martabasi tugagani hammaga oyday ravshan bo‘lib qoldi. U hali e’tiborli o‘rinda edi, ko‘p komissiyalar va komitetlarda a‘zo edi; lekin u sob bo‘lgan edi, bunday odamdan ortiq hech nimani umid qilib bo‘lmash edi; nimaiki demasin, nimaiki taklif qilmasin, uning gaplariga go‘yo siz taklif qilayotgan narsalar allaqachon hammaga ma’lum bo‘lgan keraksiz narsalar, degandek quloq solishardi.

Aleksey Aleksandrovich bu ahvolini sezmasdi, aksincha, davlat faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnashish imkoniyatidan chetlashtirib qo‘yilganiga qaramay, boshqalarning faoliyatidagi kamchilik va xatolarini endi burungidan ham ravshanroq ko‘rar va bularni tuzatish davosini ko‘rsatishni o‘zining burchi deb bilardi. Xotinidan judo bo‘lganidan so‘ng oradan ko‘p o‘tmay, yangi sud haqidagi birinchi

¹ Qo‘l ushlashib (*frans*).

² Bu shunday odamki, unda yo‘q... (*frans*.)

mulo hazalarini qalamga ola boshladi; uning bu yozuvi ham davlat boshqarmasining barcha tarmoqlari haqidagi hech kimga kerak bo‘Imagan had-u hisobsiz loyihalardan biri ediki, bularni yozish Aleksey Aleksandrovichga nasib qilgan ekan.

Aleksey Aleksandrovich xizmat sohasidagi mushkul ahvolini sezish, bundan xafa bo‘lish u yoqda tursin, hatto hozirgi faoliyatidan har qachongisidan ham mamnun edi.

Sahobalardan Pavel: «Xotini bor odam dunyo tashvishini, xotiniga manzur bo‘lish tashvishini qiladi; xotini yo‘q odam xudoni o‘ylaydi, xudoga manzur bo‘lish g‘amini yeydi», degan edi; hamma ishlarida hadislarni o‘ziga rahnamo qilib olgan Aleksey Aleksandrovich ham bu so‘zlarni tez-tez esiga olib qo‘yardi. U o‘zini xotinidan ajrab qolgandan keyin mana shu loyihalari bilan xudo oldida burungidan ko‘proq xizmat qilayotgandek tuyardi.

Davlat kengashmasi a’zosining sabri tugagani, tezroq ketish harakatiga tushib qolgani ravshan ko‘rinib tursa ham, Aleksey Aleksandrovich bunga parvo qilmasdi; a’zo podsho oilasiga mansub shaxsning o‘tib ketayotganidan foydalanib juftak urib qolgandan keyingina Aleksey Aleksandrovich gapdan to‘xtadi.

Aleksey Aleksandrovich o‘zi yolg‘iz qolgandan so‘ng fikrini yig‘ishtirib olish uchun boshini biroz solintirib turdi-da, tevaragiga parishonxotirlik bilan bir nazar tashlab olgach, grafinya Lidiya Ivanovnani uchratish umidida eshik tomon yurdi.

Aleksey Aleksandrovich bakenbardini tarab, atir sepib qo‘yilgan zabardast kamerger va mundiri tor kelib qolgan bo‘yni qip-qizil knyaz yonidan o‘tishi kerak edi: «Muncha ham bular kuchli, tan-jonlari sog‘ odamlar-a! – deb o‘yladi. Keyin kamergerning boldirlariga ko‘z qirini tashlab, – mana: dunyodagi hamma narsa yovuzlikdan iborat, deb to‘g‘ri aytilgan», – deb o‘yladi.

Aleksey Aleksandrovich shoshilmasdan oyoqlarini sudrab borib, o‘zi haqida gapirishib turgan bu janoblarga odatdagidek horg‘in qiyofa va salobat bilan ta’zim qilgandan so‘ng eshikka qarab ko‘zlarini bilan grafinya Lidiya Ivanovnani qidira boshladi.

Karenin chol turgan yerga yetib, sovuqqina qilib bosh egganda u ko‘zlarini zindalik bilan chaqnatib:

– A! Aleksey Aleksandrovich! – dedi-da, Kareninning yangi olgan lentasiga ishora qilib, qo‘shib qo‘ydi: – Sizni hali tabriklaganim ham yo‘q.

— Qulluq, — deb javob qildi Aleksey Aleksandrovich. Keyin odati bo'yicha «ajoyib» so'ziga urg'u berib ilova qildi: — bugun qanday ajoyib kun-a!

Ularning o'zidan kulganlarini Aleksey Aleksandrovich bilardi, shu bilan birga, ulardan dushmanlikdan boshqa hech nima kutmasdi; u bunday narsalarga o'rganib qolgan edi.

Aleksey Aleksandrovich eshikdan kirib kelayotgan grafinya Lidiya Ivanovnaning korsetdan chiqib turgan sariq yelkalarini va ajoyib, o'ychan ko'zlarining imosini ko'rди-yu, zaxa yemagan oq tishlarini ko'rsatib kulimsiradi, keyin uning oldiga bordi.

Grafinya Lidiya Ivanovnaning pardoz-andozi shu keyingi vaqtarda rasm bo'lган odatga ko'ra ko'p vaqt olardi. Bundan o'ttiz yil muqaddam boshqa maqsadda o'ziga oro bersa, hozir butunlay boshqa narsani nazarda tutib oro berardi. U vaqtlar o'zini nima bilan bo'lsa ham bezashni xohlar, qancha ko'p bezasa, shuncha yaxshi deb bilardi. Endi esa, aksincha, yoshiga va qadriga hech munosib kelmaydigan darajada o'zini shunday bezagan ediki, u bu bezaklar bilan o'z qiyofasi o'rtasidagi nosozlik ortiqcha bayaybat bo'lib ko'rinnasligi g'amini yerdi. Shuning uchun Aleksey Aleksandrovichga nisbatan murodiga yetgan va unga jozibali ko'rina boshlagan edi. Grafinya Lidiya Ivanovna uning uchun birdan-bir husni tavajjuh oroli bo'lib, shu bilan birga, tevaragidagi dushmanlik va istehzo dengizi o'rtasidagi sevgi-muhabbat oroli ham edi.

Istehzoli ko'zlar oldidan o'tarkan, o'simlik nurga intilganidek, u ham grafinya Lidiya Ivanovnaning oshiq ko'zlariga, tabiiy, intilar edi.

Grafinya Lidiya Ivanovna ko'zlar bilan lentaga ishora qilib:

— Muborak bo'lsin, — dedi.

U mammunlik tabassumini yashirdi-yu, bu narsalar o'zini xursand qilmasligini aytayotgandek, ko'zlarini yumib turib, yelkalarini qisib qo'ydi. Garchi Aleksey Aleksandrovich buni hech vaqt bo'yniga olmasa ham, lekin bu narsa uning boshini osmonga yetkazgan eng katta quvonchlaridan biri ekanligini grafinya Lidiya Ivanovna yaxshi bilardi.

Grafinya Lidiya Ivanovna Seryojani nazarda tutib:

— Farishtamiz qalay? — deb so'radi.

Aleksey Aleksandrovich qoshlarini jiyirib, ko'zlarini ko'tardi-da:

– Undan to‘la mammunman deb aytolmayman, – dedi. – Sitnikov ham norozi. (Sitnikov Seryojaga dunyoviy ilmlarni o‘qitish vazifasi yuklangan pedagog edi.) Men sizga aytib edim: unda har bir odamning va har bir bolaning qalbini qamrab olishi kerak bo‘lgan muhim masalalarga allaqanday sovuq munosabat bor. – Aleksey Aleksandrovich xizmat vazifasidan boshqa birdan-bir qiziqqan masalasi, ya’ni bolasining tarbiyasi to‘g‘risida shu taxlit fikr bayon qila ketdi.

Aleksey Aleksandrovich Lidiya Ivanovnaning yordami bilan yana hayot va faoliyatga qaytgandan so‘ng qo‘lida qolgan o‘g‘lining tarbiyasi bilan shug‘ullanishni o‘zining burchi deb sezal boshladi. U ilgari hech vaqt tarbiya masalalari bilan shug‘ullanmagan edi; shuning uchun Aleksey Aleksandrovich bir necha vaqtini ta’lim-tarbiyaning nazariy masalalarini o‘rganishga bag‘ishladi. Antropologiya, pedagogika va didaktikaga oid bir necha kitobni o‘qib chiqqandan so‘ng Aleksey Aleksandrovich o‘ziga tarbiya rejasini tuzib oldi-da, Peterburgdagi eng yaxshi pedagogi rahbarlikka taklif qilib, o‘zi ishga kirishib ketdi. Bu ish uni hamma vaqt maroqlantirar edi.

– Shunaqa-yu, lekin qalbi-chi? Men unda otasining qalbi borligini ko‘rib turibman, bunday qalbga ega bo‘lgan bola yomon bo‘lolmaydi, – dedi grafinya Lidiya Ivanovna shodlanib.

– Ha, ehtimol... men o‘z burchimni bajaryapman, xolos. Qo‘limdan kelgani faqat shu.

Grafinya Lidiya Ivanovna biroz jim qolgandan so‘ng:

– Menikiga keling, – dedi, – siz uchun qayg‘uli bo‘lgan bir masala to‘g‘risida gaplashib olishimiz kerak. Sizni ba’zi xotiralardan qutqazish uchun jonimni ham berardim-u, lekin boshqalar bunday o‘ylashmaydi-da. Undan xat oldim. U shu yerda, Peterburgda.

Grafinya Lidiya Ivanovna xotinini eslatganda, u birdan seskanib tushdi, lekin murdanikidek qotib qolgan yuzi uning bu masalada tamoman ojiz ekanligini ifoda etardi.

– Shunday bo‘lishini bilardim, – dedi Aleksey Aleksandrovich.

Grafinya Lidiya Ivanovna unga shavq-zavq bilan qaradi-da, qalbining ulug‘vorligidan hayratga tushib, ko‘zlariga yosh oldi.

XXV

Aleksey Aleksandrovich grafinya Lidiya Ivanovnaning chinni idishlar qo'yilgan, portretlar osilgan kichkina, shinamgina kabinetiga kirganda, uy egasining o'zi yo'q edi. U kiyimlarini o'zgartirayotgan edi.

Yumaloq stolga dasturxon solinib, xitoyi idishlar va kumush choynak keltirib qo'yilgan edi. Aleksey Aleksandrovich kabinetni bezab turgan haddi hisobsiz tanish portretlarga parishonxotir ko'z tashlagandan keyin stol yoniga o'tirib, ustida yotgan Injilni ochdi. Grafinyaning egnidagi shoyi ko'yak shitiri e'tiborini tortdi.

Grafinya Lidiya Ivanovnaning yuzida hayajonli tabassum bor edi, u stol bilan divan o'rtasidan shoshib o'tib borayotib:

– Mana endi bamaylixotir o'tiramiz, – dedi, – choy ichib o'tirib bir hasratlashamiz.

Grafinya Lidiya Ivanovna bir necha so'z bilan Aleksey Aleksandrovichning patiga suv purkagandan keyin bugun olgan xatini hansirab, qizarib turib unga uzatdi.

Aleksey Aleksandrovich xatni o'qib chiqib, uzoq jim qoldi. Keyin ko'zlarini baland ko'tardi-yu, yuraksiz bir tovush bilan:

– Rad qilishga haqim yo'q bo'lса kerak, deb o'ylayman, – dedi.
– Do'stim! Siz hammani ezgu deb o'ylaysiz!
– Aksincha, men buni faqat yomonlik deb bilaman. Lekin rad qilishim insofga kiradimi?..

Aleksey Aleksandrovichning yuzidan qarorsizligi, o'zi anglamagan bu ishda kengash, ko'mak va rahnamolik izlayotganligi ko'rinish turardi.

– Yo'q, – dedi grafinya Lidiya Ivanovna uning so'zini bo'lib, – hamma narsaning ham chegarasi bo'ladi. Axloqsizlikning nimaligini bilaman, – dedi yana; u bu so'zлarni chin yuragidan aytmadи, chunki ayollarni axloqsizlik qilishga olib keladigan sabablarga u hech qachon tushuna olmas edi, – lekin bag'ritoshlikka hech aqlim yetmaydi; tag'in kimga deng? Sizga-ya! Siz turgan shaharda qanday qilib turadi? Yo'q, dunyo turguncha tur-u, dunyo turguncha o'rgan! Mana men ham sizning yuksakligingiz-u, uning tubanligini anglashni o'rganyapman.

Aleksey Aleksandrovich o'z rolidan mammun edi shekilli:

– Bo‘lmasa, birinchi bo‘lib kim tosh otadi? – dedi. – Men hamma gunohini kechirganman, shuning uchun, unda o‘g‘lini sevish ehtiyoji bor ekan, men uni bundan mahrum qilolmayman.

– Lekin shuni sevgi deb bo‘ladimi, do‘stim? Samimiy sevgimi-a? Faraz etaylik, siz kechirdingiz, kechirasiz... lekin bu farishtaning ko‘ngliga nuqsimizni tegdirishga haqimiz bormi? Seryoja uni o‘lgan deb yuradi. Uning to‘g‘risida munojot qiladi, xudodan gunohlarini so‘raydi... shunday bo‘lgani ma’qul. Bilsa, endi nima deb o‘ylaydi?

Aleksey Aleksandrovich uning gaplariga qo‘schildi shekilli:

– Men bu yog‘ini o‘ylamabman, – dedi.

Grafinya Lidiya Ivanovna yuzini qo‘llari bilan to‘sib, jim bo‘lib qoldi. U munojot qilardi.

Munojot qilib bo‘lgandan keyin yuzini ochib:

– Agar mendan maslahat so‘rasangiz, – dedi, – bunday qilishga maslahat bermayman. Nima, yana qiyntala boshlaganiningizni, bu narsa yana yarangizni ochganligini ko‘rmayapmanmi? Xayr, siz har mahalgidek o‘zingizni o‘ylamaysiz, deb faraz ham qilaylik, lekin bu harakatingizning oqibati nima bo‘ladi? O‘zingizni yana battar qiyntsiz, bolani ham azobda qoldirasiz, shundaymi? Agar unda odamiyatdan zarracha qolgan bo‘lsa, uning o‘zi shuni ixtiyor qilmasligi kerak. Yo‘q, qilcha ham ikkilanmay sizga shu maslahatimni beraman, agar menga ijozat qilsangiz, unga o‘zim javob yozaman.

Shunday qilib, Aleksey Aleksandrovich rozi bo‘ldi, grafinya Lidiya Ivanovna quyidagi fransuzcha maktubni yozdi.

«MARHAMATLI XONIM AFANDI.

Sizning xotirangiz o‘g‘lingizda shunday savollar tug‘dirishi mumkinki, bu savollarga javob berish bolaning qalbida uning o‘zi muqaddas deb bilgan narsani qoralash ruhiy holatini tug‘diradi, shuning uchun eringizning rad javob berishini nasroniylik sevgisi ruhida tushunishingizni iltimos qilaman. Egamdan sizga lutfu karam tilayman.

Grafinya Lidiya».

Bu xat grafinya Lidiya Ivanovna o‘zidan yashirib kelgan mo‘ljalga urdi. U Annani qattiq haqorat qildi.

Aleksey Aleksandrovich ham grafinya Lidiya Ivanovnanikidan qaytib kelgandan so'ng, shu bugun o'zining odatdag'i ishlari bilan shug'ullana olmadi, shuningdek, najot topgan ilgarigi xudojo'y kishining ruhiy oromini ham topolmadi, holbuki u o'zini ilgarilari shunday odamman deb bilardi.

Xotinining xotirasi Aleksey Aleksandrovichning ko'nglini xijil qilmasligi kerak edi, chunki uning oldida xotinining gunohi ko'p edi, o'zi esa grafinya Lidiya Ivanovna aytgandek, xotinining oldida pok avliyo bir odam edi; shunday bo'lsa ham ko'ngli tinch emasdi: o'qigan kitoblariga tushunmasdi, xotiniga bo'lgan munosabatlarini va unga nisbatan yo'l qo'ygan, endi o'ziga ham ayon bo'la boshlagan xatolarini eslab qiyinalar, lekin bu o'ylarni ham miyasidan chiqarolmasdi. Poygadan qaytishar ekan xotini vafosizligini bo'yniga olganda, buni bir pushaymonlik deb qabul qilganini (ayniqsa, sirtdan odobli ko'rinishinigina talab qilib, duelga chaqirmaganini) eslab ich-ichidan ezilardi. Xotiniga yozgan xatini eslashi ham yuragini qon qilardi; ayniqsa, hech kimga kerak bo'lмаган afvi, birovning bolasi to'g'risidagi g'amxo'rлиgi qalbini nomus va alam o'tida kuydirib-yondirardi.

Anna bilan o'tgan umrini ko'zdan bir-bir kechirdi, uzoq ikkilanib yurgandan so'ng unga og'iz solganda aytgan noshud so'zlarini eslardi-yu, o'shanday uyalib pushaymon bo'lardi.

«Iya, menda nima ayb?» – deyardi o'ziga u. Lekin bu savol unda hamisha boshqa bir savolni uyg'otar edi. Boshqalar, bu Vronskiyalar, Oblonskiyalar... bu yo'g'on boldirli kamergerlar boshqacha his qili-sharmikin, boshqacha sevisharmikin, boshqacha uylanisharmikin, degan savolni uyg'otardi. Shunda har mahal va hamma yerda uning havasini keltirgan bu sog'lom, kuchli, hech narsadan gumonsiramaydigan odamlar ko'z oldidan saf tortib o'ta boshlardi. Aleksey Aleksandrovich bu fikrlarini miyasidan quvib, bu yerdagi foniylar dunyo uchun emas, abadiy dunyo uchun yashayotganiga, qalbida osoyishtalik va sevgi borligiga o'zini ishontirishga urinardi. Lekin bu foniylar, bachkana dunyoda, nazarida ba'zi bachkana xatolar qilib qo'ygani uni qiy nab kelar, o'zi ishonib kelgan abadiy najot go'yo yo'qdek ko'rindiki. Ammo bular uzoqqa bormasdi, Aleksey Aleksandrovichning qalbida yana shunday bir osoyishta va yuksak hislar tug'ilardiki, bularning sharofatida u eslagisi kelmagan narsalarni yana eslamaydigan bo'lardi.

XXVI

Seryoja tug'ilgan kunining arafasida sayrdan yuzlari qizarib, ko'ngli chog' bo'lib qaytdi-da, burma kamzulini qari, novcha shveysarga uzatib:

– Xo'sh, nima gap, Kapitonich? – dedi. Bu uzun bo'yli kishi Seryojaga yuqoridan kulimsirab qarab turardi. – Nima, tomog'ini bog'lab olgan to'ra bugun keldimi? Dadam qabul qildilarmi?

– Qabul qildilar. Ishlar mudiri chiqib ketishlari bilanoq kirib xabar qildim, – dedi shveysar xushchaqchaqlik bilan bir ko'zini qisib qo'yib. – Marhamat, men yechib qo'yay.

Slavyan murabbiysi ichki xonalarga kiriladigan eshik og'zida to'xtab:

– Seryoja! – deb chaqirdi. – O'zingiz yeching.

Seryoja murabbiyning zaif ovozini eshitgan bo'lsa ham, lekin e'tibor qilmadi. U shveysarning kamarini ushlab, yuziga tikilib turaverdi.

– Xabaringiz bo'ldimi, dadam unga yordam qildilarmi?

Shveysar bosh irg'ab tasdiqladi.

Bo'ynini bog'lab yurgan bu to'ra Aleksey Aleksandrovichning yoniga bir nima so'rab yetti marta kelgan edi; uning kelaverishi Seryoja bilan shveysarni qiziqtirib qoldi. Bir kun Seryoja uning dahlizda shveysarga yalinib: «Kirib ayt, axir, bolalarim bilan o'lib ketaveraymi!» – deb turganligini eshitib qolgan edi.

Ana o'shandan keyin Seryoja bu to'rani yana dahlizda ko'rib, nima gapligiga qiziqib qoldi.

– Qalay, juda xursand bo'ldimi? – deb so'radi Seryoja.

– Xursand bo'lish ham gapmi? Suyunganidan irg'ishlab ketdi.

Seryoja biroz jim turgandan so'ng:

– Biron narsa olib kelishdimi? – deb so'radi yana.

Shveysar kallasini tebratib, shivirladi:

– Bo'lmasam-chi, janob! Grafinyadan keldi.

Seryoja shveysar aytgan narsaning tug'ilgan kuniga grafinya Lidiya Ivanovnadan kelgan sovg'a ekanligini payqadi.

– Rostdanmi? Qani?

– Korney dadangizning oldilariga olib kirib qo'ydi. Ammo yaxshi narsa bo'lsa kerak!

- Qanaqa, kattami? Shuncha keladimi?
- Kichikrog‘-u, lekin juda yaxshi-da.
- Kitobmi?
- Yo‘q, bir narsa, boring, boring, Vasiliy Lukich chaqiryaptilar, – dedi shveytsar murabbiyning yaqinlashib kelayotgan oyoq dupurini eshitib; keyin o‘zining kamarini ushlab turgan va qo‘lqopi yarmigacha chiqarilgan Seryojaning qo‘lini bo‘shatdi-da, bir ko‘zini qisib qo‘yib, kallasi bilan Lukichga ishora qildi.

Seryoja o‘z vazifasini yaxshi bajaradigan Vasiliy Lukichni hamma vaqt eritib yuboradigan yoqimli tabassumi bilan jilmaydi-da, yana boyagiday vaqtichog‘ bo‘lib turib:

- Vasiliy Lukich, hozir boraman, – dedi.

Seryojaning vaqt shu qadar chog‘, baxti shu qadar ochilib ketgan ediki, oila quvonchini shveytsar do‘stiga aytolmay turolmadi; u bu xabarni yozgi bog‘da o‘ynab yurganida grafinya Lidiya Ivanovnaning qiz jiyanidan eshitgan edi. Bu xabar to‘raning quvonchini va o‘zini quvontirgan o‘yinchoqni olib kelgan kunlariga to‘g‘ri kelganligi uchun ham o‘z nazarida juda muhim edi. Seryojaga shu bugun hamma shodlanishi, vaqtichog‘ bo‘lishi kerakdek tuyulardi.

- Dadamlar Aleksandr Nevskiy ordenini olibdilar, eshitdingmi?
 - Eshitmay bo‘ladimi? Allaqachon muborakbod qilib ketishdi-ku.
 - Qalay, xursandmilar?
 - Iya, podshoning marhamatiga ham xursand bo‘lmay bo‘ladimi!
- Demak, xizmat ko‘rsatgan, – dedi shveytsar salobat bilan jiddiy qilib.

Seryoja shveytsarning o‘zi ipidan-ignasigacha o‘rganib olgan yuziga va hamisha faqat pastdan turibgina qaraganligi uchun Seryojadan boshqa hech kim ko‘rmagan mo‘ysafid bakenbardlari orasida osilib turgan baqbaqasiga tikilib, o‘ylanib qoldi.

- Aytmoqchi, qizing kelmaganiga ham ancha bo‘lib qoldi, a?
- Shveytsarning qizi balet raqqosasi edi.
- Ish kunlari kelishga vaqt bo‘larmidi? Ular ham o‘qishadi. Siz ham o‘qisiz, boring endi, to‘ram.

Seryoja xonasiga kelgandan so‘ng dars o‘qish o‘rniga, olib kelgingan narsalarining, albatta, mashina bo‘lishi kerakligi to‘g‘risidagi taxminini muallimga ayta boshladi.

- Siz nima deb o‘ylaysiz? – deb so‘radi Seryoja.

Lekin Vasiliy Lukich soat ikkida keladigan muallimning grammatikadan bergen darsini o'rgatishdan boshqa narsani o'yamas edi.

Seryoja ish stolida kitobini qo'liga olib o'tirib, birdan so'rab qoldi:

– Yo'q, Vasiliy Lukich, menga shuni ayting. Aleksandr Nevskiy ordenidan ham kattarog'i bormi? Eshitdingizmi, dadam Aleksandr Nevskiy ordenini olibdilar?

Vasiliy Lukich Aleksandr Nevskiydan kattarog'i Vladimir ordeni ekanligini aytdi.

– Undan kattasi-chi?

– Hammasidan kattasi – Andrey Pervozvanniy.

– Andreydan ham kattarog'i-chi?

– Bilmayman.

– Nega bilmaysiz? – dedi-yu Seryoja qo'liga suyanib olib, xayol surib ketdi.

Uning miyasiga kelgan o'ylar xilma-xil, eng murakkab o'ylar edi. U otam birdan ham Vladimir, ham Andrey ordenlarini olgan bo'lsa, shuning uchun bugun darsda o'zini yumshoqroq tutsa, o'zim katta bo'lganimda hamma ordenlarni olsam, keyin Andrey ordenidan ham kattarog'ini o'lab chiqarsam, deb o'ylardi. Shunday ordenni o'lab chiqarishdi deguncha, xizmat singdirib bu ordenni oladi, ular bunisidan ham kattarog'ini o'lab chiqarishadi, buni ham Seryoja darrov xizmat ko'rsatib olib qo'yadi.

Vaqti ana shunday o'ylar bilan o'tib ketdi. Grammatika muallimi kelganda esa fe'lning zamon va o'rinni hollari tayyor bo'lmagan edi, natijada, muallim ko'ngli og'rib, juda xafa bo'ldi. Muallimning xafa bo'lgani Seryojaga ta'sir qildi. Darsni tayyorlamagani uchun o'zini aybdor deb bilmas edi; lekin har qancha urinsa ham, hech bir evini qilolmasdi: muallim uqtirib turganda, bilganiga ishonar, tushungandek bo'lardi-yu, yolg'iz qoldi deguncha, shunday qisqa va ravshan «birdan» so'zining harakatni bildiruvchi vaziyat ekaniga mutlaqo tushunmas, uni esiga ham keltirolmasdi, shunday bo'lsa ham, muallimni xafa qilib qo'yganiga yuragi achishar, unga tasalli bergisi kelardi.

Muallimi indamasdan kitobga qaray boshlagan paytni poylab turib:

– Mixail Ivanovich, sizning tug'ilgan kuningiz qachon bo'la-di? – deb so'radi.

– Siz o'z ishingizni o'ylasangiz yaxshiroq bo'lardi, tug'ilgan kunning aqlli odam uchun hech qanday ahamiyati yo'q. Tug'ilgan kunda ham boshqa kurnlardagi singari ishslash kerak.

Seryoja mualimiga, uning siyrak soqoliga, burnidagi izidan pastroq tushib qolgan ko'zoynaklariga diqqat bilan qarab shunday o'yga cho'mib ketdiki, muallimning izohlari ortiq qulqlariga kirmay qoldi. Seryoja muallimning o'z so'zlarini o'ylamasdan aytayotganligini bilar, buni ohangidan sezib turardi. «Nega ular til biriktirib olib bir xilda gap qilishar ekan? Nuqlu odamni zeriktiradigan, keraksiz narsalarni aytishadi, nega meni o'zidan bezdiradi, nima uchun meni yomon ko'radi?» – deb Seryoja qayg'u bilan o'zidan so'rardi-yu, lekin javob topolmasdi.

XXVII

Muallimdan so'ng otasi dars berishi kerak edi. Otasi kirguncha Seryoja stol yoniga keldi-da, pichoq o'ynab o'tirib, xayolga cho'mib ketdi. Seryojaning yaxshi ko'rgan mashg'ulotlaridan biri o'ynab yurgan kezlarida onasini izlash edi. O'lim degan narsaga, Lidiya Ivanovnaning so'ziga va otasining tasdiqlaganiga qaramay, onasining o'lganiga sira ham ishonmasdi, ishonmasligining yana bir sababi shu ediki, onasini o'lida chiqarishgandan keyin o'ynab yurib uni topib olgan edi. Har qanday bo'liq, qaddi raso, qoramtil sochli har bir ayol uning uchun ona edi. U shunday ayolni ko'rganda, yuragi shunaqayam iyib ketardiki, nafasi bo'g'ziga tiqilib, ko'zlariga yosh chiqardi. Unga bu ayol halizamon yoniga kelib, yuzidan pardasini ochib yuboradigandek tuyulardi. Ana shunda onasining jamoli ko'rindi, jilmayadi, o'zini quchoqlaydi, hidi dimoqqa kiradi, qo'llarining yumshoqligini sezadi, suyunganidan yig'lab yuboradi. Bir mahal kechasi onasining oyog'iga kirib yotganda, onasi uni qitiqlagan, o'zi xaxolab kulgan, barmoqlariga uzuk taqqan oppoq qo'lni tishlagan edi. Onasining o'lmanagini, onasi yomon xotin bo'lgani (bunga Seryoja hech ishonmasdi, chunki onasini yaxshi ko'rardi) uchun Lidiya Ivanovna bilan otasi unga shunday deb aytishganini ittifoqo enagasidan eshitib olgandan keyin ham yana avvalgidek

onasini qidirib, uni ko'rishga mushtoq bo'lib yurdi. Bugun ham yozgi bog'da safsar pardali bir xonimni ko'rdi, u yo'lkadan o'zlar tomon kelayotganda, shu onam emasmikan, deb yuragi dukurlab ketdi. U xotin bular yoniga yetib kelmasdanoq qayoqqadir g'oyib bo'ldi. Seryoja onasiga bo'lgan mehr-muhabbatining har vaqtdagidan ham bugun ko'proq qaynab-toshganligini sezardi, shuning uchun ham hozir otasini kutib o'tirib xayoli onasiga ketib qoldi-yu, qalamtarosh bilan butun stol chekkasini keskilab tashladi.

– Dadangiz kelyaptilar, – dedi Vasiliy Lukich uning xayolini bo'lib.

Seryoja o'midan sapchib turib borib otasining qo'lini o'pdi-da, Aleksandr Nevskiy ordenini olgani uchun suyunyaptimikan, deb yuziga tikilib qaradi.

Aleksey Aleksandrovich o'zining kursisiga kelib o'tirdi-da, eski vasiyatlar¹ kitobini oldiga surib qo'ygandan keyin uni ocha turib:

– Qalay, yaxshi o'ynadingmi? – deb so'radi. Aleksey Aleksandrovich har bir nasroniy muqaddas tarixni pishiq bilishi kerak, deb Seryojaga bir necha bor aytgan bo'lsa ham, yana o'zi eski vasiyatlar kitobiga tez-tez qarab turar, buni Seryoja ham sezardi.

Seryoja stulga o'tirdi, otasi taqiqlaganiga qaramay stulni qimirlatib turib:

– Ha, juda yaxshi o'ynadim, dadajon, – dedi. – Nadenkani (Nadenka Lidiya Ivanovnanikida tarbiya olib turgan jiyani edi) ko'rdim. Sizga yangi yulduz berishdi, dedi. Suyundingizmi, dadajon?

– Avvalo, stulni qimirlatma, baraka topkur, – dedi Aleksey Aleksandrovich. – Qolaversa, gap mukofotda emas, mehnatda. Men shu narsani tushunishingni xohlardim. Bordi-yu, mukofot olaman deb mehnat qilsang, shu niyatda o'qisang, mehnat og'ir bo'ladi; yo'q, agar, – derdi Aleksey Aleksandrovich, bir yuz o'n sakkiz qog'ozga qo'l qo'yishdan iborat bo'lgan shu bugungi dilxun mehnatni o'z burchini bajarayotganligining bir timsoli hisoblab, – mehnatni havas bilan qilsang, undan o'zingga yarasha mukofot topasan.

Otasining nazari ostida Seryojaning suyunch to'la ko'zlaridagi o't o'chdi, yerga qarab qoldi. Otasi hamma vaqt u bilan o'ziga tanish bo'lgan shu ohangda gaplashardi. Seryoja ham allaqachonlari bu

¹ Eski vasiyatlar – Tavrot, yangi vasiyatlar – Injil (tarj.).

ohangga ko‘nikib ketgan edi. Seryojaning sezishicha, otasi u bilan har vaqt gaplashganda, xuddi o‘zi xayol qilgan bir bolaga, ya’ni kitoblarda bo‘ladigan, lekin Seryojaga sira ham o‘xshamagan bolalarning biriga qarab gapi rayotgandek gapirardi. Seryoja ham otasining oldida o‘zini hamisha kitobdag'i bolaga o‘xshatib ko‘rsatishga tirishardi.

– Gapimga tushungandirsan, deb o‘ylayman? – dedi otasi.

Seryoja o‘zini otasining xayolidagi bolaga o‘xshatib:

– Ha, dadajon, – dedi.

Bugungi dars injildan bir necha oyatni yodlash va eski vasiyatlarning bosh qismini takrorlashdan iborat edi. Seryoja injil oyatlaridan ozmuncha bilmas edi, lekin yoddan o‘qib turganda, otasining chakkasi tik tushgan do‘ng peshonasiga qarab anqayib qolib, adashib ketdi-yu, bir xil so‘zlar bilan tugaydigan bir oyatning oxirgi so‘zlarini boshqa oyatning oldiga qo‘yib yubordi. Aleksey Aleksandrovichga o‘zining aytgan gaplari o‘g‘lining qulog‘iga kirmaganligi ayon bo‘ldi, shu sababdan jahli chiqib ketdi.

Aleksey Aleksandrovich qovog‘ini solib olib, Seryoja juda ko‘p marta eshitgan va hech vaqt esda olib qololmaydigan narsalarni tushuntira ketdi; chunki Seryoja uchun bular ham, «birdan» so‘zining harakatni bildiruvchi vaziyat ekani singari ravshan bo‘lsa ham, lekin esida olib qololmasdi. Seryoja qo‘rquv to‘la ko‘zları bilan otasiga tikilib, faqat bir narsanigina: otam aytgan narsalarini takrorlattirarmikan yo yo‘qmikan, debgina o‘ylardi, chunki otasi ba‘zi mahallar shunday qilardi. Bu o‘y Seryojani shunchalik qo‘rqiitib yubordiki, ortiq hech nima tushunmay qoldi, lekin otasi takrorlatmadidi. Eski vaziyatlar darsiga o‘tdi. Seryoja voqealarni yaxshi aytib bergen bo‘lsa ham, lekin ba‘zi voqealar oqibati nima bo‘ldi, degan savolga javob berolmadi, chunki shu dars tufayli bir qur jazolanganiga qaramay, hamon hech narsa bilmasdi. To‘fondan ilgarigi anbiyolar haqida gapi rishi kerak bo‘lgan mahalda, og‘iz ocholmay, yamlanib stolni keskilab, stulni qimirlata boshladи. Ulardan osmonga tirik olib chiqib ketilgan Idrisdan boshqa hech kimni bilmasdi. Ilgarilari ularning otalarini bilardi, lekin endi hammasi esdan chiqib ketgan, chunki Idris qadimgi anbiyolar ichida eng yaxshi ko‘rgani edi: innaykeyin, Idrisning tiriklayin osmonga olib chiqib ketilgani to‘g‘risida miyasida bir qator fikrlar paydo

bo‘lgan edi. U hozir otasining soatidagi zanjirga hamda yarmigacha qadalgan jiletkasining tugmalariga tinib qolgan ko‘zlarini tikib, o‘sha fikrlarga berilib o‘tirgan edi. Hadeb qulog‘iga quya bersalar-da, Seryoja o‘limga mutlaqo ishonmasdi. U o‘zi sevgan odamlarning o‘lishiga, ayniqsa, bir kun o‘zining ham o‘lishiga ishonmasdi. Nazarida, bu hech bo‘ladigan va aqlga sig‘adigan narsa emas edi. Shunday bo‘lsa ham, unga hamma o‘ladi deyishardi; bu narsani o‘zi ishonadigan odamlardan ham so‘rab ko‘rdi, hammasi tasdiqladi; ancha malol kelib bo‘lsa-da, enagasi ham shunday dedi. Lekin Idris o‘lgan emas, demak, hamma ham o‘lmaydi. Seryoja: «Nima uchun hamma ham Idrisga o‘xshash xudo oldida xizmati singib, tiriklayin osmonga olib chiqib ketilmas ekan?» – deb o‘ylardi. Yomonlar, ya‘ni Seryoja yaxshi ko‘rmaydiganlar, mayli o‘lavversin, lekin yaxshilarning hammasi Idris singari tirik qolsin.

– Xo‘sh, qanaqa anbiyolarni bilasan?

– Idris, Yunus...

– Iye, buni boy aytding-ku! Yomon, Seryoja, juda yomon. Agar nasroniy uchun hamma narsadan ham zarur bo‘lgan narsalarni bilib olishga tirishmasang, – dedi otasi o‘rnidan qo‘zg‘alib, – u holda seni nima qiziqtirishi mumkin? Sendan rozi emasman, Pyotr Ignatich ham (bosh pedagog shu kishi edi) rozi emas... seni jazolashga majburman.

Otasi bilan muallimi Seryojadan norozi edi, chunki chindan ham u yomon o‘qirdi. Lekin uni aslo qobiliyatsiz deb bo‘lmassdi. Aksinchal, muallimi Seryojaga ibrat qilib ko‘rsatgan bolalardan u ancha qobiliyatli edi. Otasining nazarida esa o‘qitilayotgan narsalarni o‘qigisi kelmasdi. Haqiqatan ham, bu narsalarni o‘qiy olmasdi. Shuning uchun o‘qiy olmasdiki, qalbida otasi bilan muallimi pesh qilayotgan narsalardan muhimroq talablar bor edi. Bu talablar o‘rgatilayotgan narsalarga xilof bo‘lgani uchun tarbiyachilar bilan ochiq-oshkor kurashib kelardi.

Seryoja to‘qqizga kirgan yosh bola edi; shunday bo‘lsa ham o‘z qalbini bilar, qadriga yetar, qovoqlar ko‘zni saqlagandek, u ham qalbini saqlar va sevgi kalitisiz kelganlarni qalbiga qo‘ymas edi. Tarbiyachilar uni o‘qigisi kelmaydi deb zorlanishardi-yu, lekin qalbi ilmga chanqoq edi. U esa bu ilmni Kapitonichdan, enagasidan, Nadenkadan, Vasiliy Lukichdan o‘rganar, lekin muallimlaridan emas.

Otasi bilan muallimi o'z tegirmonlari charxiga oqib kelishini kutgan suv allaqachon sizib o'tib, boshqa yerda ish olib borardi.

Otasi Seryojani Lidiya Ivanovnaning jiyani Nadenkaning oldiga yubormadi – unga berilgan jazo shu bo'ldi; lekin bu jazo Seryojaga qo'l keldi. Vasiliy Lukich xushvaqt ekan, shamol tegirmoni qilishni o'rgatdi. Butun oqshom ish bilan o'tdi, qanotlariga qo'lim bilan osilib olib, yo o'zimni bog'lab qo'yib bemalol aylanadigan shunaqa tegirmonni qanday qilsam bo'lar ekan, degan orzu xayolini band qildi... Onasi kechqurun Seryojaning esiga tushmadi, lekin o'mniga kirib yotar-yotmas yana onasini eslab, o'z so'zlari bilan munojot qila boshladi. Onam ertaga, tug'ilgan kunimga o'zini yashirmay kelsin, deb munojot qildi.

– Vasiliy Lukich, bilasizmi, men hisobdan tashqari nima to'g'risida munojot qildim?

– Yaxshiroq o'qish to'g'risida.

– Yo'q.

– O'yinchoq to'g'risida.

– Yo'q, topolmadingiz. Juda alomat, lekin sir? O'ylaganim kelsin, keyin aytaman. Topolmadingiz-a?

– Yo'q, topolmadim. O'zingiz aytинг, – dedi Vasiliy Lukich jilmayib. U kamdan-kam kulardi. – Bo'ldi endi, yoting. Shamni o'chiraman.

– Har vaqt ko'rib, tilab yurgan narsamni shamsiz aniqroq ko'raman. Sirimni ochib qo'yishimga sal qoldi-ya! – dedi Seryoja sharaqlab kulib.

Shamni olib chiqib ketishganda, Seryoja onasining kelganini, sharpasini sezdi. U boshida turib, Seryojani mehr bilan erkalardi. Keyin tegirmon, pichoq paydo bo'ldi-yu, hammasi aralashib ketib, o'zi uxbab qoldi.

XXVIII

Vronskiy bilan Anna Peterburgga kelib, eng yaxshi musofirxonalaridan biriga qo'nishdi. Vronskiy pastki qavatda – alohida nomerga, Anna esa ustki qavatda – to'rt xonali kattakon nomerga bolasi, enagasi va xizmatkor qizi bilan tushdi.

Kelgan kunlari Vronskiy akasining oldiga bordi.

U yerda onasini ham ko‘rdi; onasi bir ish bilan Moskvadan kelgan edi. Onasi bilan kelinoyisi uni odatdagicha kutib olishdi; chet eldag'i sayohatlaridan so‘rashdi, umumiy tanishlar to‘g‘risida gaplashishdi, lekin Anna bilan bo‘lgan aloqasi to‘g‘risida og‘iz ochishmadi. Akasi esa ertasiga ertalab Vronskiyning oldiga kelib, Annadan gap ochdi; Aleksey Vronskiy, Annaga o‘z ahdi nikohimdag'i xotinday qarayman, deb gapning ochig‘ini aytdi; Annaning taloq olishiga umidvorligini, ana shundan keyin unga uylanishini, ungacha Annani ham har qanday boshqa xotin singari o‘z xotini deb hisoblaganini so‘zlab, onasiga ham, kelinoyisiga ham shunday deb aytib qo‘yishini iltimos qildi.

— Kiborlar jamiyatiga manzur bo‘lmasa bo‘lmas, menga baribir, — dedi Vronskiy, — lekin jigarlarim men bilan qarindoshlik aloqasida bo‘lishni xohlashsa, ular ham xotinim bilan shunday aloqada bo‘lishlari kerak.

Ukasining mulohazalariga hamma vaqt hurmat bilan qarab kelgan akasi, bu masalani jamiyat hal qilmaguncha uning haqmi, nohaqmi ekanligini yaxshiroq bila olmas edi; o‘zi esa bunga qarshi emasdi, shuning uchun Annaning yoniga Aleksey bilan birga kirdi.

Vronskiy akasining oldida ham, hammaning oldidagi singari Annani sizlab, unga eng yaqin tanishday muomala qilardi, lekin ularning aloqasidan akasining voqifligi nazarda tutilardi; gap Annaning Vronskiy mulkiga borishi haqida ketdi.

Vronskiy kiborlar jamiyatidagi boy tajribasiga qaramay, hozirgi yangi ahvoliga tushib, chalg‘ib qolgan edi. Kiborlarning eshigi o‘zi bilan Anna uchun yopilib qolganligini tushunish kerak edi; lekin hozir miyasida bunday narsalar faqat eski zamonlarda bo‘lardi, hozirda, ya’ni taraqqiyot juda tez ravnaq topib ketayotgan bir paytda (har qanday taraqqiyotga tarafdar bo‘la boshlaganini hozir o‘zi ham sezmasdi), jamiyatning qarashi ham o‘zgargan, shuning uchun ularning jamiyatga qo‘yilish-qo‘yilmaslik masalasi hali hal bo‘lмаган, degan allaqanday dudmal mulohazalar paydo bo‘la boshladi. «Albatta, saroy ahllari Annani yaqinlariga yo‘latishmaydi, — deb o‘ylardi Vronskiy, — lekin yaqin odamlar bu narsani loyig‘icha tushunadilar va tushunishlari kerak ham».

Vaziyatingni o‘zgartirishingga hech nima xalaqit bermasligini bilsang, oyoqlaringni yig‘ishtirib bir necha soat o‘tirishing mumkin; lekin birov oyoqlarini shunday yig‘ishtirib o‘tirishga majburligini

bilsa, darrov oyoqlari uvishadi, tomirlari tortishadi, keyin u bop joyini qidirib oyoq uzatishga tirishadi. Jamiyatga nisbatan ham Vronskiy o‘zini shu ahvolda sezardi. Kiborlar eshigi o‘zlari uchun yopilib qolganini bilsa ham, ular endi o‘zgarmasmikan, o‘zlarini oralariga qo‘sarmikan, deb bilgisi kelardi. Lekin u tez orada kiborlar eshigining faqat o‘zi uchun ochiqligini, ammo Anna uchun yopiqligini payqab goldi. Mushuk-sichqon o‘yinidagi singari uning uchun ko‘tarilgan qo‘llar Anna keldi deguncha darrov pastga tushib qolardi.

Peterburg kiborlar jamiyatida Vronskiy ko‘rgan xonimlardan biri – amakisining qizi Betsi bo‘ldi.

– Nihoyat! – deb qichqirdi Betsi uni ko‘rgan soati quvonib.
– Anna qani? Juda shod bo‘ldim. Qayerga tushdinglar? Ajoyib sayohatlariningizdan keyin bizning Peterburg ko‘zlariningizga qanday xunuk ko‘rinayotganligini tasavvur qilaman: Rimda rohat ichida o‘tkazgan oyingizni ko‘z oldimga juda yaxshi keltiraman. Taloq masalasi nima bo‘ldi? Bu narsalarni to‘g‘riladinglarmi?

Vronskiy taloq masalasining hali ham hal bo‘limganini bilgandan keyin Betsining hafsalasi pir bo‘lib qolganligini sezdi.

– Meni toshbo‘ron qilishadi, bilaman, – dedi Betsi, – lekin shunday bo‘lsa ham Annani ko‘rgani boraman; ha, albatta, boraman. Yaqin-o‘rtada ketib qolmaysizlarmi?

Betsi shu kuni Annani ko‘rgani keldi; lekin gaplarining ohangi burungidan butunlay boshqacha edi. Aftidan, Betsi o‘z jur‘atidan faxrlanayotgandek, Annaga, bu do‘stligimning qadriga yet, deyayotganday edi. Betsi o‘n daqiqadan ortiq turmadi, kiborlar orasidagi yangiliklardan gaplashib o‘tirdi, keyin ketayotganda:

– Qachon taloq olishingizni menga aytмаган edingiz, – dedi. – Men-ku, faraz etaylik, bunga parvo qilmasman, lekin uylanmagunlariningizcha boshqalar qo‘llarini bigiz qilib ko‘rsatishadi sizlarni. Hozir ham ahvol shunaqa. Sa se fait¹. Shunday qilib, juma kuni jo‘naymiz, denglar? Attang, endi ko‘risholmas ekanmiz-da.

Betsining gap ohangidan Vronskiy kiborlarning o‘ziga qanday qarashini payqab olsa bo‘lardi; lekin bu to‘g‘rida oilasini ham sinab ko‘rmoqchi bo‘ldi. Onasidan umidi yo‘q edi. Onasi Anna bilan birinchi marta tanishganda, unga juda mehri tushib qolgan edi; endi

¹ Odatda shunaqa bo‘ladi (*frans.*).

esa o‘g‘limning martabasini tushirib yubordi, deb uni ko‘rishga ko‘zi yo‘qligini Vronskiy bilardi. Ammo butun umidi Varyada, kelinoyisida edi. Vronskiy Varya la’nat toshini otmaydi, soddacha borib, Anna bilan ko‘rishadi, uni o‘z uyida qabul qiladi, deb o‘ylardi.

Vronskiy kelgan kunlarining ertasiga akasinikiga bordi-yu, kelinoyisini yolg‘iz topib, tilagini ochiq aytdi.

Kelinoyisi uning gaplarini eshitgandan keyin:

– Seni qanday yaxshi ko‘rganligimni, sen uchun jonimni berishga ham tayyorligimni o‘zing bilasan, Aleksey, – dedi. – Lekin senga ham, Anna Arkadevnaga ham hech qanday naf yetkazolmasligimni bilganim uchun nafasim ichimda yuribdi, – dedi yana, «Anna Arkadevna» so‘zlarini, ayniqsa, bo‘rttirib aytishga tirishib. – Zinhor meni qoralayapti deb o‘ylama, hech qachon qoramayman; Annaning o‘rnida men bo‘lsam, ehtimol, shunday qilar edim. Men bu narsalarning ma’nisiga bormayman, bu narsa qo‘limdan kelmaydi ham, – dedi Vronskiyning qosh-qovoqlari tushib ketgan yuziga qo‘rqa-pisa qarab turib. – Lekin har qanday narsani o‘z ismi bilan atash kerak. Sen Anna Arkadevnaning oldiga borishimni, uni qabul qilishimni va shu bilan uni jamiyat ko‘zida oqqa chiqarishimni xohlaysan, lekin tushunishing kerak, bu narsa qo‘limdan kelmaydi. Qizlarimning bo‘yi yetib qolayozdi, innaykeyin, erim uchun ham kiborlar orasida bo‘lishim kerak. Xayr, Anna Arkadevnuning oldiga bordim ham, baribir, men uni o‘zimnikiga chaqirolmastigimni yoki bu masalaga boshqa ko‘z bilan qaraydiganlar bilan uni uchratmaslikka harakat qilishim kerakligini o‘zi tushunadi; bu harakat, albatta, nafsi og‘ritadi. Men uni turg‘izib qo‘yolmayman...

– Ha, men uni siz uyingizda qabul qilayotgan yuzlarcha xotinlardan ham tubanlashib ketgan deb hisoblayman! – deb Vronskiy yana ham qovoqlarini osiltirib, uning so‘zini bo‘ldi-da, kelinoyisining qarori qat‘iy ekanligini payqab, indamasdan o‘rnidan turdi.

– Aleksey! Menden jahling chiqmasin. Tushungin, aylanay, menda ayb yo‘q, – dedi Varya yuraksizlik bilan uning yuziga jilmayib qarab.

Vronskiy hamon qovoqlarini osiltirib:

– Sendan jahlim chiqayotgani yo‘q, – dedi. – Menga ikki narsa alam qiladi, xolos. Menga alam qilayotgan bir narsa shuki, do‘stligimiz buzilyapti. Do‘stligimiz buzilmaydi deb faraz qilaylik, lekin oraga

sovuslik tushadi. Bu narsaga men boshqacha qaray olmasligimga o'zing ham tushunasan.

Vronskiy shu so'zlardan keyin chiqib ketdi.

U bundan keyingi harakatlari behuda ketishini va o'zini juda yomon qiynaydigan dilozorliklarga, haqoratlarga uchramaslik uchun shu bir necha kunini Peterburgda, xuddi begona shaharda turgandek o'tkazishga va eski tanish-bilishlaridan o'zlarini olib qochishga majbur ekanligini anglatdi. Peterburgda ularni noqulay ahvolga tushirib qo'ygan eng katta sabablardan biri shu ediki, Aleksey Aleksandrovich va uning nomi og'izdan tushmas edi. Biron gap yo'q ediki, u oxirida Aleksey Aleksandrovichga borib taqalmasin, bemalol boriladigan biron joy yo'q ediki, u yerda Aleksey Aleksandrovichga duch kelinmasin. Barmog'i og'rib turgan odamga shu kasal barmog'ini hadeb bir narsaga urib olayotgandek tuyulgani singari Vronskiyiga ham har holda shunday tuyulardi.

Shu kunlarda Annanining allaqanday yangi, o'zi tushunmaydigan bir kayfiyatda yurganligini ko'rgani uchun Peterburgdagi kunlari Vronskiyga yana ham og'irroq botardi. Anna goh unga oshiq ko'rinar, goh sovib, tajanglashib, tumtayib olardi. Anna nimadandir ezilar, Vronskiydan nimalarnidir yashirar, Vronskiyning hayotini zaharlayotgan va nozik idrok egasi bo'la turib, o'zi uchun ham azobli bo'lgan haqoratlarni payqamayotgandek ko'rinaldi.

XXIX

Annaning Rossiyaga qaytishdagi maqsadlaridan biri – o'g'lini ko'rish edi. Italiyadan jo'nab ketgan kunidan beri bolasini ko'rish fikri uni hayajonlantirib kelardi. Peterburgga yaqinlashgan sari o'g'lining diyordini ko'rib quvonishi ko'z oldiga kelar, buning ahamiyatini tushunardi. U o'ziga bolam bilan qanday qilib ko'rishar ekanman degan savolni bermas edi ham. Bolasi bilan bir shaharda bo'lгanda, uni ko'rish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydigan oddiy narsa bo'lib tuyulardi, lekin Peterburgga kelgandan keyin jamiyat orasidagi hozirgi ahvoli birdan ko'z oldida ravshan bo'ldi-yu, bolasini ko'rish oson emasligini anglatdi.

Anna Peterburgda ikki kundan beri turardi. O'g'li bir zum ham xayolidan ketmagan bo'lsa-da, lekin uni hali ko'rmagan edi. To'g'ridan to'g'ri uyga borsa, Aleksey Aleksandrovich bilan uchrashib qolishi

mumkin edi, lekin Anna bunday qilishga o‘zini haqsiz deb hisoblardi. Uni uyga kirkizmasliklari, tahqir etishlari mumkin edi. Eriga xat yozishni, u bilan aloqa bog‘lashni o‘ylashning o‘zi unga azob berar: erini o‘ylamagan kezlardagina u tinch bo‘la olardi. O‘g‘lining qachon va qayerga o‘ynagani chiqishini poylab ko‘rib olay desa, bu unga ozlik qilardi. U bolasini ko‘rishga shunchalar mushtoq bo‘lgan, unga aytadigan gaplari shunchalik yig‘ilgan, uni quchoqlash, o‘pish tashnaligi yuragini shunchalar to‘ldirgan ediki, yuragining yarasiga faqat Seryojaning qari enagasigina malham bo‘lishi, unga yo‘l ko‘rsatishi mumkin edi. Ammo u hozir Aleksey Aleksandrovichning uyida emasdi. Mana shu ikkilanishlar va enagani izlashlar bilan ikki kun o‘tib ketdi.

Anna Aleksey Aleksandrovichning grafinya Lidiya Ivanovna bilan qalin ekanligini bilib, uchinchi kuni o‘zini zo‘rlab bo‘lsa ham xat yozishga qaror qildi va xatida o‘g‘lini ko‘rish ijozati erining oljanobligiga bog‘liq ekanligini jo‘rttaga qayd qilib o‘tdi. Xatni ko‘rsatishsa, eri yana oljanobligini ko‘rsatib, iltimosini rad qilmasligini bilardi.

Xatni olib borgan kishi Anna sira ham kutmagan shafqatsiz javob bilan keldi: javob bo‘lmaydi, dedi. Anna xatni olib borgan kishini chaqirib, undan tashqarida sarg‘ayib kutganligini, oxir: «hech qanday javob bo‘lmaydi», deb aytishganini eshitganda, o‘zini shu qadar haqir his qildiki, hech mahal bunday holga tushmagan edi. Anna o‘zining xo‘rlanganligini, haqirlanganligini sezib tursa-da, lekin grafinya Lidiya Ivanovnaning ham o‘z nuqtai nazaricha haqli ekanini ham tan olardi. O‘zining yolg‘izligi hasratiga hasrat, qayg‘usiga qayg‘u qo‘shardi. U yuragidagi hasratlarini Vronskiyga aytolmas, aytishni istamasdi. O‘g‘lini ko‘rish masalasi unga o‘z baxti qoraligining bosh sababchisi bo‘lgan Vronskiyga eng ahamiyatsiz narsa bo‘lib ko‘rinishini Anna bilardi. Yuragidagi dog‘-u hasratni tushunishga uning hech mahal qodir emasligini bilardi. Bu haqda so‘z ochilganda Vronskiyning sovuq gap qilishi oraga sovuqlik tushirishini bilardi. Anna dunyodagi hamma narsalardan ko‘ra bu narsadan ko‘proq qo‘rqrar, o‘g‘liga taalluqli narsalarni shu sababli undan yashirib kelardi.

U ertadan kechgacha uyda o‘tirib, o‘g‘lini ko‘rish choralarini qidirdi, oxir eriga xat yozishga qaror qildi. Lidiya Ivanovnaning javobini olib kelishganda, Anna eriga yozadigan xatni o‘ylab qo‘ygan edi. Grafinyaning sukuti uni insofga keltirgan, o‘zicha rom qilgan

bo'lsa ham, lekin xat satrlari zamiridagi ma'no uni shu qadar larzaga keltirdi, grafinya xatidagi kin-u adovat o'zining o'g'liga bo'lgan ehtirosli, qonuniy mehr-u muhabbatga nisbatan shu qadar pastkash ko'rindiki, boshqalarga g'azabi qaynab, o'zini ayblamay qo'ydi.

«Bu sovuq muomala riyokorlik, – derdi o'zicha Anna. – Ular meni haqorat qilishsa-yu, bolamni azoblashsa-yu, men bunga qarab turamanmi? Hech-da! Grafinyaning o'zi mendan battar. Loaqal men yolg'on gapirmayman-ku!» Shundan keyin Anna ertagayoq, Seryojaning tug'ilgan kunidayoq to'g'ri erining uyiga borishga, odamlarni sotib olishga, aldashga, har nima bo'lsa ham o'g'lini ko'rishga va bechora bolaning miyasiga quyib kelinayotgan xunuk yolg'onlarni barbod etishga ahd qildi.

Anna o'yinchoq do'koniga bordi. O'yinchoqlar sotib oldi, keyin xatti-harakat rejasini o'yladi. U ertalab soat sakkizlarda, hali Aleksey Aleksandrovich turmagan paytda, barvaqt boradi. Qo'lida pul bo'ladi, bu pullarni shveytsar bilan lakeyga beradi, ular buni uyga kirgizishadi, yuzidan pardasini ochmay, meni Seryojani cho'qintirgan otasi tabriklashga yubordi, o'yinchoqlarni ham bola karavoti yoniga qo'yishni topshirdi, deb aytadi. U faqat o'g'liga aytadigan so'zlarnigina o'ylab qo'ymadidi. Bu haqda har qancha o'ylagan bo'lsa ham, hech bir qarorga kelmagan edi.

Ertasiga ertalab soat sakkizda Anna izvoshdan bir o'zi tushdi-da, ilgarigi uyining katta zinasi oldidan eshik qo'ng'irog'ini chaldi.

Hali lavozimat kiyimlarini kiyib ulgurmagan Kapitonich egnida palto, oyoqlarida kalosh bilan kelib derazadan qaradi-da, eshik oldida yuzida parda tutib turgan xonimni ko'rib:

– Bitta xonim turibdi, chiqib so'ra-chi, nima kerak ekan, – dedi.

Shveytsarning yordamchisini Anna tanimas edi; bu yosh yigit eshikni ochar-ochmas, Anna lip etib ichkari kirdi-yu, muftasidan uch so'mlik qog'oz pulni chiqarib, darrov qo'liga tutqazib qo'ydi.

– Seryoja... Sergey Alekseyevich, – deb Anna ichkariga o'zini urgan edi, shveytsar yordamchisi pulga qarab, uni ikkinchi oynaband eshik yonida to'xtatdi.

– Kim kerak edi? – deb so'radi.

Anna uning so'zlarini eshitmadidi, javob ham bermadi.

Noma'lum xonimning sarosimaga tushib qolganligini ko'rib, Kapitonovichning o'zi bordi-da, Annani eshikdan kirgizib, nima kerakligini so'radi..

– Meni Sergey Alekseyevich oldiga knyaz Skorodumov yubordi, – dedi Anna.

Shveytsar Annaga diqqat bilan razm solib:

– Hali turganlari yo‘q, – dedi.

Anna o‘zi to‘qqiz yil turgan uyning dahlizidagi sira ham o‘zgarmagan anjomlarning o‘ziga shu qadar kuchli ta’sir qilishini o‘ylamagan edi, quvonchli va qayg‘uli xotiralar yuragida birin-ketin uyg‘ona boshladi, shunda Anna nega o‘zining bu yerda ekanligini bir lahzagina unutib qo‘ydi.

Kapitonich Annaning egnidan po‘stinchasini yechira turib:

– Kutadilarmi? – deb so‘radi.

Kapitonich po‘stinchani yechirib olgandan so‘ng Annaning yuziga bir qaradi-yu, tanib, jimgina ta‘zim qildi.

– Marhamat qilsinlar, xonim afandi, – dedi Kapitonich unga.

Anna bir nima demoqqa chog‘landi-yu, lekin tovush chiqarishga qurbi kelmadidi; cholga yolvorib turgan aybdor ko‘zlar bilan bir qarab qo‘yib, tez, yengil odimlar bilan zina tomon yurib ketdi. Kapitonich ikki bukilib olib, kaloshlarini zina pog‘onalariga ilashtira-ilashtira undan o‘zib ketmoqchi bo‘lib orqasidan g‘izillab borardi.

– Muallimi o‘sha yerda, kiyinmagan chiqar. Aytib qo‘yay.

Anna cholning nima to‘g‘risida gapirayotganini tushunmay, tanish zinadan chiqib borardi.

– Bu yoqqa, chap tomonga buyursinlar. Kechiradilar, bu yoq uncha toza emas. Ular hozir ilgarigi divanli xonada turadilar, – dedi shveytsar hansirab. – Biroz sabr qilsinlar, xonim afandi, men qarab chiqsam, – dedi-yu, Annadan o‘tib ketdi, baland eshikni yopib, ichkarida g‘oyib bo‘ldi. Anna tashqarida kutib turdi. Shveytsar chiqib: – Hozirgina uyg‘ondilar, – dedi.

Shveytsar shu so‘zlarni aytib turganda, Anna bolaning esnaganini eshitdi. Bu esnash ovozining o‘zidayoq o‘g‘lini tanidi va uni ko‘z o‘ngida ko‘rganday bo‘ldi.

– Qo‘yvor, qo‘yvor, qoch! – dedi-yu, Anna baland eshikdan ichkariga o‘zini urdi. Eshikning o‘ng tomonida karavot bor edi, bu karavotda tugmalari yechib tashlangan bir ko‘ylakchan bola o‘rnidan turib o‘tirar, kichkina gavdasini bukib, kerishib esnar edi. Kerishib bo‘lib, lablari bir-biriga qovushganda, bu lablarda shirin

uyqu tabassumi paydo bo'ldi, keyin shu tabassum bilan o'rniga yotib, yana rohat bilan qo'l-oyog'ini cho'zdi.

Anna o'g'lining oldiga sharpa chiqarmay keldi-da, pichirlab:
– Seryoja! – dedi.

Anna o'g'lidan ayrilgan kunlarida va qalbi mehr-u muhabbat bilan to'lib-toshgan shu so'nggi paytlarda Seryojaning to'rt yasharlik vaqtinigina ko'z oldiga keltirar, chunki o'sha yoshda Seryojani juda yaxshi ko'rardи. Hozir u hatto o'zi tashlab ketgan vaqtdagi Seryojaga ham o'xshamasdi; to'rt yoshli davridagidan yana ilgari ketgan, o'sgan, ozgan edi. Bu nimasi! Muncha yuzi oriqlab ketibdi, muncha sochlari kalta! Muncha qo'llari uzun! Muncha o'zgarib ketibdi tashlab ketgandan beri! Lekin bu o'sha o'g'li edi, yumaloq boshi ham, lablari ham, yumshoq bo'yni va keng yelkalari ham o'shaniki edi!

Endi bolaning qulog'i ostiga kelib takrorladi:
– Seryoja!

U yana tirsaklanib turdi, sochlari to'zg'igan boshini xuddi bir nima izlayotgandek, u yoq bu yog'iga o'girdi, keyin ko'zlarini ochdi. Oldida qimir etmay turgan onasiga savol nazari bilan bir necha soniya jum qarab turdi, keyin birdan shukuh qilib kulimsiradi-da, yumilib borayotgan ko'zlarini tag'in berkitib, o'zini tashladi, ammo orqasiga emas, onasiga, uning quchog'iga tashladi.

Anna o'g'lining bo'liqqina gavdasini quchoqlab, hansirab turib:
– Seryoja! Aylanay bolam! – deb yubordi.

Seryoja ham badanining hamma yerini onasining qo'llariga surtish uchun quchog'ida talpinib:

– Oyijon! – dedi.

Uyqu arimagan yuzida bir tabassum bilan hamon yumuq ko'zlar bilan karavot suyanchig'idan momiq qo'lchalarini olib onasining yelkalariga yopishdi, keyin faqat bolalardagina bo'ladigan yoqimli, iliqqina uyqu bo'yini anqitib, og'ushiga kirdi-da, yuzini onasining bo'yniga, yelkalariga surta boshladi.

– Bilardim, – dedi Seryoja ko'zlarini ohib. – Bugun tug'ilgan kunim. Kelishingizni bilardim. Hozir turaman.

Seryoja shu so'zlarni aytib turib, yana uxbab ketdi.

Anna tashnalik bilan o'g'liga tikilib qoldi; o'zi yo'qligida Seryojaning o'sib, o'zgarib ketganligini ko'rди. Endi juda ham

cho'zilib, adeyal tagidan chiqib turgan yalang oyoqlarini tanirdi ham, tanimasdi ham, ozibroq qolgan bu betlarni, gardanidagi kalta qilib qirqilgan va o'zi tez-tez o'pib qo'yadigan qo'ng'iroq sochlarni tanir edi. Anna uning sochlarni silar, lekin bir nima deyolmasdi: ko'z yoshlar bo'g'ib qo'ygan edi.

Seryoja tamoman uyg'ongandan so'ng:

– Nimaga yig'layapsiz, oyijon? – deb so'radi. Keyin yig'lamsirab qichqirdi: – Nimaga yig'layapsiz, oyi!

– Menmi? Yo'q, yig'lamayman... suyunganimdan yig'layapman. Qachonlardan beri ko'rghanim yo'g'-a seni! Xo'p-xo'p, yig'lamayman, yig'lamayman, – dedi Anna yoshlarini ichiga yutib va yuzini teskari o'girib turib. So'ngra, o'pkasini bosib olgandan keyin: – tur, bolam, kiyinadigan vaqting bo'ldi, – deb ilova qildi-yu, biroz jim qolgandan so'ng o'g'lining qo'llarini qo'yib yubormasdan, o'zi karavot yonidagi stulga o'tirdi; stulda Seryojaning kiyimlari taxlab qo'yilgan edi.

– Mensiz qanday qilib kiyinyapsan! Qanday... – Anna vaqtichog'lik bilan soddagina gap boshlamoqchi bo'ldi-yu, lekin gapirolmay, yana yuzini teskari o'girib oldi.

– Sovuq suvda yuvinmayman, dadam qo'ymaydilar. Aytmoqchi, Vasiliy Lukichni hali ko'rghaningiz yo'g'-a? Keladi. Voy kiyimlarim ustiga o'tirib olibsiz! – deb Seryoja xaxolab kulib yubordi.

Anna o'g'liga qarab, jilmayib qo'ydi.

Seryoja o'zini yana onasining quchog'iga otdi, uni yana achomlab:

– Oyijon, jonginam, mehribonim! – deya qichqira boshladi. U onasining jilmayganini ko'rgandan keyingina o'zining uyg'oqligiga ishongandek bo'ldi. – Bu kerak emas, – dedi keyin onasining shlapasini boshidan olib. Shlapasi olib qo'yilganda, onasini xuddi yangidan ko'rayotgandek, yana osilib o'pa boshladi.

– Qani, mening to'g'rimda nimalar o'ylading? Meni o'lgan deb o'yladingmi?

– Bu gapga hech vaqt ishonmaganman.

– Ishonmaganmisan, do'stim?

Seryoja o'zining yaxshi ko'rghan:

– Bilar edim, bilar edim, – degan so'zlarini takrorladi-yu, sochlarni silab turgan onasining qo'lini ushladi-da, uning kaftini og'ziga bosib o'pa ketdi.

XXX

Bu orada Vasiliy Lukich uydagi xonimning kimligini avval bilmagan bo'lsa ham, keyin o'rtadagi gap-so'zlardan Seryojani tashlab ketgan ona shu ekanligini (Anna ketib qolgandan keyin xizmatga kirgani uchun uni tanimasdi) bilib, kiraversammi-yo'qmi yoki Aleksey Aleksandrovichga xabar qilsammi, deb ikkilanib turardi. Vazifasi Seryojani ma'lum vaqtida turg'izishdan iborat ekanligini axiyri tushundi; u yerda o'tirgan xotin onasimi yo boshqami, bu bilan nima ishim bor, shuning uchun vazifamni bajarishim kerak, degan o'y bilan kiyinib eshikni ochdi. Lekin ona bilan o'g'il o'rtasidagi mehribonlik, ovozlaridagi dilkashlik va gapiroayotgan narsalari – bularning hammasi uni niyatidan qaytardi. Boshini tebratdi-yu, bir xo'rsinib qo'yib, eshikni yopdi. Tomog'ini qirib yoshlarini artdi, keyin: «Yana o'n daqiqacha sabr qilay», deb o'yladi.

Bu orada uy xizmatkorlari ham hayajonda edi. Hamma uy bekasining kelganini, Kapitonich kirgizganini, hozir Seryojaning oldida ekanligini bildi; xo'jayin bo'lsa soat sakkizdan oshganda har vaqt o'g'lining oldiga kiradi, er-u xotinning u yerda uchrashishi to'g'ri kelmaydi, shuning uchun uchrashirmslik chorasini ko'rish kerak, deb vahimaga tushib qoldi. Kamerdiner Korney shveytsarning hujrasiga kirib, begoyimning kim va qanday kirgizganini surishtirdi, Kapitonich boshlab kirganini bilib, cholning ta'zirini bera boshladи. Shveytsar oldin g'iq etmadi, Korney bu gunohi uchun uni haydash kerakligini aytganda esa Kapitonich sakrab uning oldiga keldi-yu, qo'lini Korneyning yuzi oldida paxsa qilib:

– Ko'rardik, sen bo'lsang qanaqasiga kirgizmas eding ekan! – deb vaysab ketdi. – O'n yil xizmatini qilding, yaxshiligidan boshqa narsasini ko'rganing yo'q. Bor, beting bo'lsa: «Qani, xonim afandi, jo'nab qoling!» deb ko'r-chi! Oliftagarchilikni yaxshi bilasan! Ha! Sen o'zingni ko'p oqqa chiqaraverma, xo'jayinni shilib, qunduz po'stinni o'g'irlaganing esingdan chiqa qoldimi?

Korney nafrat bilan:

– Soldat! – dedi-yu, kirib kelayotgan enagaga yuzlandi. – O'zingiz ayting, Marya Efimovna: begoyimni hech kimga aytmay kirgizib yuboribdi. Hozir Aleksey Aleksandrovich chiqib, to'g'ri o'g'illarining oldiga kirib borsalar, nima bo'ladi?

– Bay-bay-bay! – dedi enaga. – Menga qarang, Korney Vasil'yevich, bir nima qilsangiz-u, borib xo'jayinni gapga solib tursangiz, ungacha men chopib kirib, begoyimni olib chiqib ketardim. Bay-bay-bay!

Enaga bolalar bo'lmasiga kirganda, Seryoja tepadan sirg'anib tushayotib Nadya ikkovi yiqilganini, uch marta umbaloq oshib ketishganini onasiga aytib o'tirgan edi. Onasi uning ovozini eshitsa ham, yuzini va imo-ishoralarini ko'rib tursa ham, qo'llarini ushlab-ushlab qo'ysa ham, lekin o'g'li aytayotgan so'zlar hech miyasiga kirmasdi. Endi jo'nash, endi uni tashlab ketishi kerag-u, faqat shu narsani o'ylab, faqat shu narsanigina his qilar edi. Anna eshikka yaqin kelgan Vasiliy Lukichning oyoq dupurini ham, yo'talini ham, yaqinlashib kelayotgan enaganing oyoq sharpasini ham eshitib o'tirardi; lekin gapirishga ham, turishga ham majoli yetmay, toshday qotib qolgan edi.

Enaga Annaning yoniga keldi-da, qo'llarini, yelkalarini o'pib turib:

– Aylanay begoyim, chirog'im! – dedi. – Bugun tug'ilgan bolamizga Xudoyi taolo baxt ato qildi. Hech o'zgarmabsiz, aylanay.

– Voy, enagajon, jonimni qoqay, sizning uydaligingizni bilmabman, – dedi Anna bir zumgina hushiga kelib.

– Men bu yerda turmayman, qizim bilan turaman, tabriklagani keldim, aylanay Anna Arkadevna!

Enaga birdan yig'lab yuborib, Annaning qo'lini o'pa boshladи.

Tabassumlaridan yuzi va ko'zları charaqlab ketgan Seryoja bir qo'li bilan onasini, ikkinchi qo'li bilan enagasini ushlab olib, semiz, yalang oyoqlari bilan gilam ustida depsinib turardi. Sevgili enagasining onasiga ko'rsatayotgan mehr-u muhabbatı uning ichiga chiroq yoqqan edi.

– Oyi! Enagam mening oldimga tez-tez kelib turadi, har kelganda... – deb Seryoja gap boshlagan edi, enagasi onasiga pichirlab bir nima deganini, onasining yuzida qo'rquvga va uyatga o'xshagan allaqanday alomat paydo bo'lganini, bu narsa onasiga hech ham yarashmaganligini sezib, to'xtab qoldi.

Onasi Seryojaga yaqin keldi.

– Jon bolam! – dedi onasi.

U xayr deyolmadi, lekin shu so‘zni yuzi gapirib turardi, Seryoja tushundi. Onasi Seryojani chaqaloqligida qo‘yan nomi bilan atab:

– Aylanay bolam, jon Kutigim! Meni esingdan chiqarmaysan-a? Sen... – deya gap boshladi-yu, ortiq hech narsa deyolmadi.

U bolasiga aytishi mumkin bo‘lgan qanchadan-qancha so‘zlarni keyin o‘ylab topdi! Hozir esa nima deyishini bilmas, bir nima deyishga qurbi yetmas edi. Lekin Seryoja u aytmoqchi bo‘lgan hamma so‘zlarni payqadi. U onasining baxti qoraligini, o‘zini yaxshi ko‘rishligini payqadi. Hatto enagasi shivirlab aytgan narsalarni ham payqadi. U «hamma vaqt soat sakkizdan o‘tganda» degan so‘zlarni eshitgan edi, shuning uchun gap otasi ustida ketayotganligini, onasi otasi bilan uchrashmasligi kerakligini payqadi. Seryoja buni tushunsa ham lekin bir narsani hech anglay olmadi: nima uchun onasining yuzida qo‘rquv va uyat alomatlari paydo bo‘ldi?.. Onasi-ku aybdor emas, shunday bo‘lsa ham otasidan qo‘rqadi, nimadandir uyaladi. O‘zini bu gumondan qutqazadigan bitta savol bermoqchi bo‘ldi-yu, lekin yuragi dov bermadi: onasining azoblanayotganligini ko‘rib, rahmi kelib ketdi. Indamasdan onasiga yopishdi-yu, shivirlab:

– Ketmay tur, hali kelmaydi, – dedi.

Onasi u aytgan gaplarni bilib turib aytganmi yoki bilmaymi, shuni anglash uchun Seryojani o‘zidan biroz nari qilib yuziga qaradi; uning vahima bosgan yuzidan otasi to‘g‘risida gapirganini va ayni zamonda otasi to‘g‘risida o‘zining qanday o‘ylashi kerakligini ham so‘rayotganini o‘qidi.

– Seryoja, jonginam, – dedi onasi, – otangni sev, u mendan yaxshiroq, mehribonroq, men uning oldida aybdorman. Katta bo‘lganingda o‘zing bilib olasan.

Seryoja ko‘z yoshlari orasidan chinqirib:

– Sizdan yaxshisi yo‘q! – dedi-da, yelkalaridan ushlab, ku-changanidan titrab turgan qo‘llari bilan uni bag‘riga bor kuchi bilan bosa boshladi.

– Jonginam, aylanay bolam! – deb Anna ham Seryoja singari bolalarcha piq-piq yig‘lab yubordi.

Shu payt eshik ochilib, Vasiliy Lukich kirib keldi. Narigi eshikdan ham oyoq dupuri eshitila boshladi, shunda enaga vahimali bir shipshish bilan:

– Kelyaptilar, – deb Annaga shlapasini tutqazdi.

Seryoja o'zini karavotga tashladi, yuzini qo'llari bilan to'sib ho'ngrab yig'lab yubordi. Anna qo'llarini ayirib, xun bo'lgan yuzidan yana bir marta o'pdi, keyin shoshqin odimlar bilan eshikdan chiqib ketdi. Aleksey Aleksandrovich ro'parasidan kelayotgan edi. Uni ko'rди-ю, to'xtab, boshini egdi.

Anna hozirgina uni o'zidan yaxshiroq va mehribonroq deb aytgan bo'lsa ham, bir nazar tashlashdayoq butun qomatini boshidan oyog'igacha ko'rди-ю, qalbida eriga nisbatan bir nafrat va g'azab, o'g'li tufayli hasad hissi qo'zg'aldi. U shoshqin bir harakat bilan yuziga pardasini tushirdi-da, qadamini tezlatib, uydan qariyb yugurib chiqib ketdi.

U kecha do'kondan zo'r muhabbat va chuqur hasrat bilan tanlab olgan o'yinchoqlarni qoldirishga ham ulgurmay, yana uyiga qaytarib olib keldi.

XXXI

Anna o'g'lini ko'rishga qancha intizorlik chekkan bo'lmasin, bu to'g'rida o'ylab, bunga qanchalik uzoq vaqtlardan beri tayyorlanib kelgan bo'lmasin, o'g'lining diydorini ko'rish o'ziga shu qadar kuchli ta'sir qilishi mumkinligini aslo-aslo kutmagan edi. Musofirxonadagi g'amxonasiga qaytib kelib, nima uchun bu yerda ekanligini uzoq vaqtgacha tushunolmay o'tirdi. «Ha, baxt damlari tamom bo'ldi, men yana yolg'izman» dedi-yu, shlapasini ham olmay, kamin yonida turgan kursiga kelib o'tirdi. Ikki deraza o'rtasidagi stolda turgan soatga horg'in ko'zlarini tikib olib, xayol surib ketdi.

O'zları chet eldan olib kelishgan fransuz xizmatkor qiz kiyintirish taklifi bilan kirdi. Anna unga ajablanib qaradi-yu:

— Keyin, — dedi.

Lakey qahva taklif qildi.

— Keyin, — dedi Anna yana.

Italian enaga qizaloqni yasantirib, Annaga olib kirdi. Yaxshi boqilgan do'mboq qiz onasini ko'rib, ip ilashib qolgan yalang'och qo'Ichalarini har vaqtdagiday kaftlarini pastga qilib cho'zdi-da, tishsiz og'izchasini jilmaytirib, qushdek qanot qoqib, kashta solingan kichkina yubkasining ohorlangan burmalarini qo'Ichalari bilan shitirlatib talpina boshladи. Qizaloqning bu qiliq'iga jilmaymasdan, uni o'pmasdan

bo‘lmasdi, chinqirib va butun gavdasi bilan talpinib turib, qo‘lingizni ushlab olishga tirishgan qizchaga barmog‘ingizni tutqazmasdan ilojo‘q edi; o‘paman deb og‘izchasiga tortib oladigan labiga yuzingizni tutib bermasdan bo‘lmasdi. Anna shunday qildi, qizini qo‘liga oldi, irg‘ishlatdi, tarovatli betidan, yalang‘och tirsagidan o‘pdi; lekin bu chaqalojni ko‘rganda, u qizchasiga bo‘lgan mehri Seryojaga bo‘lgan mehri oldida hech nima emasligini yana ham ravshanroq his etdi. Qizchaning o‘zi ham, hamma qiliqlari ham shirin edi, lekin nima uchundir Annanинг qalbini ilitolmasdi. Yaxshi ko‘rmagan bir odamdan topgan bo‘lsa ham, birinchi bolasiga mehr-u muhabbatining hali-beri qondirilmagan butun kuch-quvvati sarf etilgan edi, qizalog‘i juda yomon vaqtda tug‘ildi, shuning uchun unga birinchi bolaga sarf qilingan mehnatning yuzdan biri ham sarf qilinmagan edi. Bulardan tashqari, qizchasi odam bo‘lishi uchun ko‘p kutish kerak edi, Seryoja bo‘lsa tappa-tuzuk odam bo‘lib qolgan, odam bo‘lganda ham sevgili odam; unda fikrlar, hislar kurashi paydo bo‘lgan; Anna Seryojaning so‘zlarini, qarashlarini eslab: mening ahvolimga tushunadi, meni yaxshi ko‘radi, harakatlarimni qoralaydi, deb o‘ylardi. Shunga ko‘ra, Anna undan faqat jismoniy emas, ruhiy juhatdan ham ajrab qolgan, bu ahvolni endi hech tuzatib bo‘lmaydi.

Anna qizalog‘ini enagasiga berib, ularni chiqarib yuborgandan so‘ng Seryojaning qariyb shu qizcha yoshida tushgan surati solingen medalonini ochdi. Keyin o‘rnidan turdi-yu, boshidan shlapasini chiqarib, stolchada yotgan albomni oldi; unda Seryojaning har xil yoshda tushgan suratlari bor edi. U suratlarni bir-biriga solishtirmoqchi bo‘lib, hammasini albomdan chiqarib oldi. Suratlarning faqat so‘nggisi, eng yaxshisi qoldi. Seryoja unda stulga ko‘ylakchan minibolgan, ko‘zlar xo‘mraysgan bo‘lsa ham, og‘zi kulimsirab turgan holda tushgan edi. Seryoja o‘ziga juda ham yarashib tushgan eng chiroqli qiyofada edi; Anna oq, nozik barmoqlari hozir juda ham chaqqon qimirlayotgan kichkina, epchil qo‘llari bilan suratni burchagidan ushlab, albomdan chiqarishga bir necha bor harakat qilgan bo‘lsa ham, hech chiqarolmadi, kartochka hadeb qo‘lidan chiqib ketaverdi. Stolda kitob varaqalarini qirqadigan pichoq yo‘q edi, shuning uchun yonidagi suratni (bu uzun soch qo‘ygan yumaloq shlapadagi Vronskiyning Rimda tushgan surati edi) olib, shu bilan o‘g‘lining suratini surib chiqardi. Anna Vronskiyning suratiga tikilib: «Ha, mana shu!» dedi-

yu, hozirgi dog‘-u hasratining sababchisi kim ekanligini birdan esiga oldi. Shu bugun ertalabdan beri u bir marta ham esiga kelmagan edi. Lekin uning mardona, olijanob, o‘ziga tanish, dilbar yuzini ko‘rdi-yu, birdan qalbini kutilmagan bir muhabbat to‘lqini bosdi.

Anna o‘g‘liga taalluqli sirlarni hammasini undan yashirib kelganligini esdan chiqarib, o‘pkalanib: «Qani u? Shunday dog‘-u hasratda qolgan paytimda nahotki yolg‘iz tashlab qo‘ysa?» deb o‘ylandi. Shu on odam yuborib, darhol yetib kelishini iltimos qildi; Anna unga aytadigan so‘zlarini o‘ylab, yuragini changallab o‘tirdi; Anna hozir uning o‘zini ham, mehr-muhabbat bilan tasalli berishini ham intizorlik bilan kutardi. Yuborgan odami unikida mehmon borligini, hozir kelishini, Peterburgga kelgan knyaz Yashvin bilan kirsa bo‘ladimi, so‘ragin, degan javob olib keldi. «Yolg‘iz kelmas emish, holbuki, kecha birga ovqat qilgan vaqtimizdan beri meni ko‘rgani yo‘q, – deb o‘yladi Anna, – u yolg‘iz emas, Yashvin bilan kelarmish, men hamma gaplarimni aytolmayman». Shu on birdan miyasiga: «Bordiyu meni yomon ko‘rib qolgan bo‘lsa-ya?» degan g‘alati bir o‘y keldi.

Shundan keyin so‘nggi kunlardagi voqealarни xayolidan bir-bir o‘tkazdi, bu voqealar hozir miyasiga kelgan g‘alati fikrni tasdiqlaganday bo‘ldi: kecha tushlik ovqatni uyda yemagani, Peterburgda boshqa-boshqa turishni talab qilgani, hatto hozir ham xoli uchrashishdan qochib, yolg‘iz kelmayotgani bunga dalil edi.

Anna uning e’tiboridan qolganiga imoni komil bo‘lganida tu-shadigan ahvolini tasavvur qilishga madori yetmay: «Lekin menga ochiq aytishi kerak. Men bilishim zarur. Bilganimdan keyin, nima qilishimni o‘zim bilaman», derdi o‘zicha. U Vronskiyning mendan ko‘ngli qoldi, deb o‘ylab, boshini urib yorish darajasiga yaqin qolganini, oqibat o‘zining hayajoni benihoya ortib borganini his qilardi. Anna xizmatkor qizni qo‘ng‘iroq chalib chaqirgandan so‘ng pardozxonasiga qarab yo‘l oldi. Kiyinib turib, o‘z pardoziiga shu kunlardagidan ko‘ra ko‘proq e’tibor qildi, ko‘ngli qolgan bo‘lsa, endi Annani juda ham ochib yuboradigan ko‘ylagini va sochlarining ajoyib turmaklanganini ko‘rib, Vronskiy go‘yo yana yaxshi ko‘rib qoladigandek, o‘ziga zeb bera boshladi.

Anna tayyor bo‘lmasdan turib qo‘ng‘iroq jiringlaganini eshitdi.

Anna mehmonxonaga chiqqanda, uni Vronskiy emas, Yashvin ko‘zlarini ko‘tarib qarshi oldi. Vronskiy bo‘lsa, Anna stolda esidan

chiqarib qoldirgan o‘g‘lining suratini tomosha qilish bilan ovora bo‘lib, unga qarashga shoshilmadi ham.

Anna kichkina qo‘lchasini iymanib turgan Yashvinning (novcha bo‘yli, dag‘al yuzli bu odamning iymanishi g‘alati ko‘rinardi) yo‘g‘on qo‘liga qo‘yib turib:

– Tanishmiz, o‘tgan yili poygada tanishganmiz, – dedi, keyin Vronskiy tomosha qilayotgan o‘g‘lining suratlарini qo‘lidan tez tortib olib: – Bering, – dedi-yu, porlab turgan ma’nodor ko‘zlari bilan unga bir qarab qo‘ydi. – Bu yil poyga yaxshi o‘tdimi? Bular o‘rniga Rimdag‘i Korsoda bo‘lgan poygani ko‘rdim. Aytmoqchi, siz chet el hayotini yoqtirmaysiz-a? – dedi Anna mehribonlik bilan kulimsirab. – Siz bilan kam ko‘rishganman-u, lekin o‘zingizni ham, didingizni ham bilaman.

Yashvin chap mo‘ylovini tishlab turib:

– Bu yog‘i yomon bo‘pti, nimaga desangiz, didim ko‘p bema’ni, – dedi.

Yashvin biroz u yoq bu yoqdan gaplashib o‘tirdi. Keyin Vronskiyning soatiga qarab qo‘yganini sezib, Annadan: «Hali Peterburgda ko‘p turasizmi?» deb so‘radi-da, yo‘g‘on gavdasini bukib, kepkasini oldi.

Anna Vronskiyga bir qarab oldi-da:

– Ko‘p turmasak kerak, – dedi shoshib.

Yashvin o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

– Bo‘lmasa endi ko‘rishmas ekanmiz-da! – dedi u; keyin Vronskiyga yuzlandi: – Sen qayerda ovqatlanasan?

– Menikida ovqatlana qoling, – dedi Anna qat’iy qilib, tortinchoqligi uchun o‘zidan jahli chiqayotgandek. Lekin har bir yangi odam oldida o‘z ahvoldidan hamisha qizaradigan bo‘lib qolgani uchun yana qizarib ketdi. – Bu arning ovqati yaxshi emas, lekin har holda bular bilan birga bo‘lasiz-ku. Aleksey polkidagi o‘rtoqlarining hech birini sizchalik yaxshi ko‘rmaydi.

– Juda xursandman, – dedi Yashvin jilmayib; Vronskiy uning jilmayganidan Annani yoqtirganini payqadi.

Yashvin ta’zim qilib, chiqib ketdi. Vronskiy orqada qoldi.

– Sen ham ketyapsanmi? – deb so‘radi Anna.

– Yo‘q, men endi kechikdim, – dedi Vronskiy. Keyin Yashvin orqasidan qichqirdi: – Boraver! Hozir yetib olaman.

Anna uni qo'lidan ushladi-da, ko'zlarini uzmay tikilib qoldi; qanday qilib uni olib qolsam ekan, deb o'ylar, aytadigan gapini izlar edi.

– Shoshma, gapim bor, – dedi-yu Anna uning kalta qo'lini ushlab, o'zining bo'yniga bosdi. – Uni ovqatga chaqirganim chakki bo'lmadimi?

Vronskiy jips tishlarini ko'rsatib, xotirjamgina kulimsiradi-da, uning qo'lini o'pib turib:

– Juda yaxshi qilding, – dedi.

– Aleksey, menden soviganing yo'qmi? – dedi Anna ikkala qo'li bilan uning qo'lini qisib. – Aleksey, bu yerda qiynalib ketdim. Qachon ketamiz?

– Shu bir-ikki kun ichida. Aytsam, gapimga ishonmaysan: menga ham bu yerda turishimiz og'ir bo'lib qoldi, – dedi u qo'lini tortib.

Annaning dili og'rib:

– Bor, bora qol! – dedi-yu, tez-tez yurib chiqib ketdi.

XXXII

Vronskiy qaytib kelganda, Anna nomerida yo'q edi. O'zi chiqib ketgandan keyin Annaning oldiga bitta xonim kelganini, o'sha xonim bilan ketganini aytishdi. Qayoqqa ketganini aytmay ketgani, haligacha qaytib kelmagani, ertalab ham allaqayoqqa aytmasdan ketgani – bularning hammasi, bugun ertalab yuzida ko'rtingan g'alati hayajoni va o'g'lining suratlarini Yashvin oldida xuddi dushmanlarcha qo'lidan yulib olgani Vronskiyni o'ylatib qo'ydi. Vronskiy u bilan ochiqchasiga gaplashishga jazm qildi. Shuning uchun Annani mehmonxonasida kutib o'tirdi. Lekin Anna yolg'iz qaytmadi, balki ammasi – qari qiz knyajna Oblonskayani birga olib keldi. Erta bilan kelgan xonim shu edi, Anna ham u bilan bozor qilgani ketgan edi. Anna Vronskiyning yuzidagi tashvishni, ko'zlaridagi savol alomatini sezmayotgandek ko'rinar, ertalab olgan narsalarini sharaqlab hikoya qilardi. Vronskiy unda g'alati bir o'zgarish borligini sezardi: shoshib qaragan, parpiragan ko'zlarida chuqur diqqat, so'zları va harakatlarda asabiy tezlik va zebolik bor edi; bu asabiy tezlik bilan zebolik ular qalinlasha boshlagan dastlabki davrlarda Vronskiyni maftun qilib kelgan bo'lsa, endi yuragiga g'ulg'ula, qo'rquv solardi.

Dasturxon to'rt kishiga mo'ljallab solindi. Hamma yig'ilib, endi kichkina ovqatxonaga chiqmoqchi bo'lib turganda, Tushkevich knyaginya Betsidan Annaga xabar keltirib qoldi. Knyaginya Betsi xayrashgani kelolmagani uchun uzr so'rab, Annadan o'zinikiga soat olti yarim bilan to'qqizlar o'rtasida kelishini iltimos qilgan edi. Tayinlangan vaqt Vronskiyga g'alati tuyuldi, Anna hech kimga duch kelib qolmasligi uchun chora ko'rib qo'yilgan bo'lsa kerak, degan o'y bilan Annaga bir qarab qo'ydi; lekin Anna buni sezmagandek ko'rinardi.

– Ko'p afsuski, men xuddi shu olti yarim bilan to'qqiz o'rtasida borolmayman, – dedi Anna miyig'ida kulimsirab.

Knyaginya juda afsus yeb qoladilar-da.

– Men ham.

– Chamamda, Pattining ashulalarini eshitgani borarsiz? – deb so'radi Tushkevich.

– Pattining? Yaxshi esimga soldingiz. Lojadan joy olishning iloji bo'lsa, jon-jon deb borardim.

– Topib beraman, – dedi Tushkevich himmat qilib.

– Sizdan juda-juda minnatdor bo'lardim, – dedi Anna. – Biz bilan o'tirib ovqatlanmaysizmi?

Vronskiy yelkalarini xiyol qisib qo'ydi. Annaning qilig'iga sira ham tushunolmasdi. Nimaga bu qari knyajnani olib keldi, nimaga Tushkevichni ovqatga olib qoldi, hammasidan qizig'i shuki, nimaga uni lojaga bilet olishga yuboradi? Shu ahvolda Patti ashulasini eshitishga borishni o'ylab bo'ladimi? Axir u yerga hamma tanishlari, kiborlar keladi-ku! Vronskiy jiddiy bir nazar bilan Annaga qaradi, lekin u ham o'chakishib qarab qo'ydi: bu qarashda sho'xlik bormidi yo noumidlik – buning ma'nosini Vronskiy anglayolmadidi. Ovqat ustida Anna o'zini juda xushvaqt tutdi: Tushkevichga ham, Yashvinga ham noz qilayotgandek ko'rinardi. Dasturxonidan turishgandan so'ng Tushkevich lojaga bilet olgani, Yashvin esa papiros chekkani chiqib ketganda, Vronskiy u bilan o'zining nomeriga tushdi. Bir necha daqiqa o'tirishgandan keyin, Vronskiy yuqoriga chopib chiqib ketdi. Anna Parijda baxmal qo'ydirib tiktingan ko'kragi ochiq oq shoyi ko'ylagini allaqachon kiyib, boshiga qimmatbaho oq to'r tashlab olgan edi; bu to'r yuzining atrofini o'rab, husniga husn qo'shardi.

Vronskiy uning yuziga qaramaslikka tirishib:

- Teatrga aniq bormoqchimisiz? – deb so‘radi.
- Vronskiyning yana o‘ziga qaramaganidan nafsi og‘rib:
- Nega bunchalik qo‘rqib so‘raysiz? – dedi Anna. – Borsam nima bo‘pti?

Anna Vronskiy aytgan so‘zlarning ma’nosiga tushunmagandek edi.

- Albatta, borsangiz boraverasiz, – dedi Vronskiy qovog‘ini solib.
- Anna uning gapidagi ohangni jo‘rttaga tushunmagan bo‘lib:
- Men ham shuni aytyapman-da, – dedi atir hidi kelib turgan uzun qo‘lqopini bemalol qaytarib qo‘yib.
- Anna, Xudo haqi! Sizga nima bo‘ldi? – dedi Vronskiy; bir mahallar eri uni hushiga keltirish uchun shu gapni aytardi.
- Nima demoqchililingizni tushunmayapman.
- Bilasiz-ku, teatrga borib bo‘lmaydi.
- Nimaga? Yolg‘iz bormayman. Knyajna Varvara kiyengani ketdi, birga boradi.

Vronskiy hayratlanib, yelkalarini qisdi; u xunob edi.

- Nahotki bilmasangiz... – deb gap boshlagan edi, Anna o‘shqirib berdi:

– Ey qo‘ying, bilishni xohlamayman! Xohlamayman! Nima, qilmishidan pushaymon deysizmi? Yo‘q, yo‘q, yana yo‘q. Agar yana o‘shanday, avvalgiday bo‘lsa yana shunday bo‘lardi. Biz uchun, men uchun, siz uchun muhimi bitta narsa xolos: biz bir-birimizni sevamizmi, vassalom. Boshqa andishaga o‘rin yo‘q. Nima uchun bu yerda boshqa-boshqa turamiz, bir-birimizni ko‘rmaymiz? Nima uchun borolmayman? Seni yaxshi ko‘ramanmi – bo‘ldi, agar sen o‘zgarmagan bo‘lsang, boshqasi bilan ishim yo‘q, – dedi ruschalab va unga ko‘zlarini g‘alati chaqnatib qarab. – Nima uchun menga qaramaysan?

Vronskiy qaradi. U jamolining go‘zalligini, kiyim-boshlarining yarashib turganligini ko‘rdi. Lekin hozir jonini chiqarib turgan narsa – xuddi shu go‘zallik, xuddi shu zebolik edi.

Vronskiy ovozida muloyim bir yolvorish, ko‘zlarida esa sovuq bir qarash bilan:

- Hislarim o‘zgarmaydi, bilasiz, lekin yalinib, iltimos qilaman, bormang, – dedi fransuzchalab.

Anna uning so‘zlarini eshitmadi-yu, lekin ko‘zlaridagi sovuq ifodani ko‘rib, joni chiqib ketdi.

– Sizdan shuni iltimos qilaman, ayting: nima uchun bormasligim kerak?

– Shuning uchunki, borishning oqibati... – deb Vronskiy yamlanib qoldi.

– Tushunsam o‘lay. Yashvin nest pas comprom – tant¹, knyajna Varvaraning esa boshqalardan hech yomon joyi yo‘q. Ana, o‘zi ham kelib qoldi.

XXXIII

Annaning o‘z ahvolini jo‘rttaga tushungisi kelmayotgani uchun Vronskiy yuragida birinchi marta unga qarshi alam, hatto g‘azab uyg‘onganligini his qila boshladi. Alamining sababini unga aytib berolmagani uchun yuragidagi bu his yana kuchayib borardi. Agar o‘ylagan narsalarini ro‘y-rost aytib berishi mumkin bo‘lganda, u: «Shu libosda, otning qashqasidek hammaga ma’lum bo‘lib qolgan knyajna bilan birgalikda teatrga borish – o‘zingizning halok bo‘lgan xotin ahvoliga tushib qolganiningizga tan bergenningizniga emas, balki kiborlar bilan dovplashmoqchi bo‘layotganiningizni, ya’ni u muhitdan abadiy voz kechganiningizni ham bildiradi», deb aytardi.

Vronskiy unga bunday deyolmasdi. «Nega tushunmaydi-ya bu narsaga, ko‘nglidan nimalar o‘tyapti?» derdi o‘zicha. Annaga hurmati kamaygan sari nazarida husni ham ortib borayotganday ko‘rinardi.

Vronskiy qovoqlaridan qor yog‘ib, nomeriga qaytib keldi-da, uzun oyoqlarini stulga cho‘zib, selter suvi bilan konyak ichayotgan Yashvinni yoniga o‘tirdi-yu, o‘ziga ham selter suvi bilan konyak buyurdi.

– Sen Lankovskiyning qudratlisisini gapirding. U yaxshi ot, maslahatimga yursang, ol, – dedi Yashvin o‘rtog‘ining qovoqlari osilib qolgan yuziga qarab. – Sag‘ri picha past-u, oyoqlari bilan boshi – olamda yo‘q.

– Chamamda, olsam kerak, – deb javob qildi Vronskiy.

Ot to‘g‘risidagi gap Vronskiyni qiziqtirsa ham, lekin Anna xayolidan sira nari ketmas edi; yo‘lakdan kelgan oyoq tovushlariga

¹ Obro‘yimga dog“ tushirmaydi (*frans.*).

beixtiyor qulq solib, kamin ustidagi soatga tez-tez qarab qo'-yardi.

– Anna Arkadevna teatrga ketganlarini aytib qo'yishni buyurdilar.

Yashvin yana bir qadah konyakni vishillab turgan suvgaga ag'darib ichdi-yu, tugmalarini qadab o'rnidan turdi.

– Xo'sh, ketdikmi? – dedi Yashvin miyig'ida kulimsirab; u shu kulimsirash bilan nima uchun Vronskiyning qovoqlaridan qor yog'ib turganligini payqaganini, lekin bunga ahamiyat bermaganini bildirdi.

– Men bormayman, – dedi Vronskiy tumtayib.

– Men borishim kerak, va'da qilganman. Xayr bo'lmasa. Hushing kelsa boraver. Krasinskiyning o'rnini ol, – dedi Yashvin chiqib ketayotib.

– Yo'q, ishim bor.

Yashvin musofirxonadan chiqqanda: «O'z xotining bo'lsa bir balo, o'zingniki bo'lmasa o'n balo», deb o'yladi.

Vronskiy yolg'iz qolgandan keyin stuldan turib, u yoq bu yoqqa yura boshladi.

«Ha, bugun nima? To'rtinchchi abonement... Egor xotini bilan o'sha yerda, oyim ham, ehtimol, o'sha yerdadir. Demak, butun Peterburg o'sha yerda degan so'z. Hozir kirdi, po'stinchasini yechdi, zalga kirdi. Tushkevich, Yashvin, knyajna Varvara... – deb ularni tasavvur qildi Vronskiy. – Men nima qilib o'tiribman bu yerda? Yo qo'rqamanmi yo bo'lmasa uni himoya qiling, deb Tushkevichga topshirib qo'yamanmi? Qanday qarasang ham – bu bir nodonlik, nodonlik... nega meni shunday ahvolga soladi-ya», – dedi o'zicha qo'l siltab.

Shu harakati bilan qo'li stolchaga tegib, ustidagi selter suvi bilan bir grafin konyakni tushirib yuborishga oz qoldi. Ushlab qolmoqchi bo'lgan edi, bo'ljadi, tushib ketdi. Jahli chiqib stolni bir tepdi-yu, qo'ng'iroq chaldi.

– Agar menga xizmat qilging kelsa, – dedi Vronskiy qo'ng'iroqni eshitib kirgan kamerdineriga, – o'z ishingni esingdan chiqarma, ikkilamchi bunaqa bo'lmasin. Yig'ishtir.

Kamerdiner o'zida ayb yo'qligini bilgani uchun oqlanmoqchi bo'ldi-yu, lekin xo'jayinining basharasini ko'rib, churq etmaslik kerakligini anglatdi, cho'nqayib olib, butun va singan qadahlar bilan shishalarni darhol bir-biridan ajratishga tutindi.

– Sening ishing emas bu, lakeyni yubor, o‘zing borib frakimni tayyorla.

Vronskiy teatrga soat sakkiz yarimda kirib keldi. Spektaklning qizib turgan payti edi. Kiyim-boshlarni olib turadigan chol Vronskiyning egnidan po‘stinni yechib oldi-da, tanib, «graf janoblari» deb atagandan so‘ng po‘stinga nomer olish kerakmasligini, Fyodor deb chaqirsa kifoya qilishini aytdi. Yop-yorug‘ yo‘lakda kapeldiner va qo‘llarida po‘stin bilan eshik og‘zida quloq solib turgan ikkita lakeydan boshqa hech kim yo‘q edi. Yopiq eshik orqasidan orkestrning ehtiyyotkorlik bilan jo‘r bo‘layotgani va musiqa iboralarini ravshan o‘qiyotgan bir ayol tovushi eshitilib turardi. Eshik ochildi-yu, kapeldiner shilt etib kirib ketdi; shunda oxiriga yaqinlashib kelgan musiqa iborasi Vronskiyning qulqlarida ravshan yangradi, ammo eshik yana darhol yopildi-yu, Vronskiy iboraning oxiri bilan savtini eshitolmay qoldi. Savtning tugaganini eshik orqasida ko‘tarilgan gulduros qarsaklardan fahmladi. Shiftdagি qandillar va devorlardagi tunch gaz chiroqlar yoritib yalang‘och yelkalari va gavharlari bilan yarqirab turgan ashulachi xonim rampa ustidan har yoqqa otilib tushayotgan guldastalarni bir qo‘lini ushlab olgan tenor yordami bilan goh egilib, goh kulimsirab terayotgan edi; keyin yog‘ upa surtilgan yaltiroq sochlarining farqi ochilgan va uzun qo‘lini rampadan cho‘zib bir nima uzatayotgan janobga yaqinlashdi, shunda lojalarda o‘tirganlar ham, parterlardagi tomoshabinlar ham shov-shuv ko‘tarib yubordi. Hamma oldinga intilar, qichqirar, chapak chalardi. Kapelmeyster o‘zining baland joyida turib o‘sha janobning qo‘lidagi narsani olib berishga yordam qilar, ora-sira galstugini tuzatib qo‘yar edi. Vronskiy parterning o‘rtasida to‘xtab, tevaragiga ko‘z yogurtira boshladi. U ko‘ra-ko‘ra o‘rganib qolgan bu tanish jihozlarga, sahnaga, bu shov-shuvlarga, teatrga tiqilib ketgan bu tanish, to‘pori ola-quroq tomoshabinlar podasiga bugun har vaqtqidagidan ham kamroq e’tibor qildi.

Lojalarda har vaqtidagiday allaqanday xonimlar, loja orqalarida allaqanday ofitserlar o‘tirardi; hamon o‘sha rang-barang kiyingan xotinlar, mundirlar, syurtuklar; galyorkada hamon o‘sha isqirt tomoshabin; bu tomoshabinlar orasidan lojalarda birinchi qatorlarda qirq kishicha keladigan asl erkak va ayollar topilardi. Vronskiy shu vohaga e’tiborini jalb etib, ular bilan darhol aloqa tutdi.

Vronskiy kirganda, parda tushgan edi. Shuning uchun akasining lojasiga kirmay, birinchi qatorga borib, rampa yonida turgan Serpuxovskoy oldida to'xtadi; Serpuxovskoy tizzasini bukib va poshnasi bilan rampani to'qillatib turgan edi: Vronskiy uzoqdan ko'rib, yoniga chaqirdi.

Vronskiy Annani hali ko'rgani yo'q, chunki u tomonga jo'rttaga qaramasdi. Lekin ko'zlarning tikilishidan uning qayerdaligini bilardi. Vronskiy zimdan qarab-qarab qo'ysa ham, lekin qidirmas edi; u o'zi uchun yomonrog'ini kutar – Aleksey Aleksandrovichni ko'zlar bilan qidirardi. Baxtiga Aleksey Aleksandrovich bugun teatrda yo'q edi.

– Harbiy qiyofangdan qariyb asar qolmabdi, – dedi Serpuxovskoy. – Diplomatga, artistga, shu taxlit odamga o'xshabroq qolibсан.

Vronskiy durbinning g'ilofidan sekin chiqarib turib:

– Ha, uyga qaytdim-u, darrov frak kiyib oldim, – dedi kulimsirab.

– Tan berishim kerak, senga shu to'g'risida ko'zim kuyadi. Chet eldan qaytib kelib ustimga mana shularni ilganimda, – dedi yelkasiga osilgan zarhal popukli shnurlarni turtib ko'rsatib, – erkin yurgan kunlarimga yuragim achishadi.

Serpuxovskoy Vronskiyning xizmat faoliyatiga allaqachon qo'l siltab qo'ygan bo'lsa ham, uni azalgidek yaxshi ko'rар, hozir ham dili sevib muomala qilardi.

– Attang, birinchi pardasidan kech qolding-da.

Vronskiy bir qulog'i bilan uning gapini eshitib turib, durbinni benuardan beletajga burdi-yu, lojalarni ko'zdan kechira boshladи. Durbin yaqin keltirib ko'rsatgan, jahl bilan ko'zlarini pilpillatayotgan taqirbosh chol bilan muftali xonim yonida birdan Annani ko'rib qoldi, uning to'r orasida kulimsirab turgan nihoyatda chiroyli, mag'rur jamoli ko'zga tashlandi. Anna Vronskiydan yigirma qadamcha naridagi beshinchи benuarda edi. U oldinda o'tirgan joyidan xiyol burilib, Yashvinga bir nimalar der edi. Chiroyli, keng elkalari ustidagi bejirim boshi, chaqnagan ko'zlarining mayin nur sochib turishi, butun siymosi, Vronskiy uni Moskvada, balda qanday ko'rgan bo'lsa, hozir ham shunday edi, xuddi o'shandagidek bejirim, bekam-u ko'st, latofatli edi. Vronskiy endi bu go'zallikni boshqacha his etardi. Endi Annaga bo'lgan hislarida hech qanday sir qolmagan edi, shuning uchun Annaning husni-jamoli, garchi uni burungidan kuchliroq maf-tun qilayotgan bo'lsa-da, ayni zamonda, nafsini ham og'ritardi. Anna

Vronskiy tomonga qaramasdi, ammo Vronskiy o'zini u allaqachon ko'rganligini sezib turardi.

Vronskiy durbinini yana o'sha tomonga to'g'rilaganda, knyajna Varvaraning juda qizarib ketganligini, g'ayritabiyl alpozda kulib, nuqlu qo'shni lojaga qarab-qarab qo'yayotganligini ko'rdi; Anna bo'lqa yig'ishtirilgan yelpig'ichini qizil baxmalga uring turib, allaqayoqlarga qarar, lekin qo'shni lojada bo'layotgan narsalarni ko'rmas, aftidan, ko'rgisi ham kelmas edi. Yashvining yuzida esa qartaga boy bergen kezlarida ko'rinadigan alomatlar bor edi. Qosh-qovog'i solingan, chap mo'ylovini og'ziga tobora ko'proq suqqan holda, u ham o'sha qo'shni lojaga olayib qarar edi.

Chap yoqdagi bu lojada Kartasovlar o'tirishgan edi. Vronskiy ularni tanir, Annaning ham ular bilan tanishligini bilar edi. Jussasi kichkina, ozg'in Kartasova o'z lojasida Annaga orqasini qilib turib, eri tutgan nakidkasini kiyayotgan edi. Yuzi oqarib, zahar tombib turar, o'zi hayajon bilan bir nimalar derdi. Semiz, taqirbosh Kartasov bo'lqa, dam-badam Annaga qarab qo'yib, xotinini tinchitishga tirishardi. Xotini chiqib ketgandan so'ng eri Annaga ta'zim qilish payida edi, shekilli, uning qarashini kutib, imillab turdi. Lekin Anna o'zini Kartasovni sezmaganga solib orqasiga o'girildi-da, sochi kalta qilib olingen Yashvinga bir nimalar deya boshladi, u esa boshini egib, quloq solayotgan edi. Kartasov ta'zim qilolmay chiqib ketdi, loja esa bo'sh qoldi.

Vronskiy Anna bilan Kartasov o'rtasida nima voqeal yuz bergenini payqamadi, lekin Annaning xo'rligini keltirgan bir narsa sodir bo'lganini payqadi. Shuning uchun payqadiki, Anna o'z zimmasiga olgan rolini bajarish uchun butun kuchini sarf qilayotganini bilar, yuzidan ko'rib turardi. Anna esa sirtdan qaraganda o'zini vazmin tutar, bu rolini muvaffaqiyat bilan bajarardi. Annani va uning ulfatlarini bilmaganlar, hayratlangan xotinlarning ta'nalari va nafratlarini eshitmaganlar (Anna kibor jamiyatda paydo bo'lgani uchun, to'r bezaklari orasida charaqlab turgan husni jamolini ko'z-ko'z qilgani uchun ayollar uni ta'na va nadomat qilar edilar) bu ayolning husniga va o'zini og'ir tutishiga havaslari kelardi. Anna o'zini qarg'ish ostida qolgan odamdek sezib o'tirganini payqamas edi.

Vronskiy bir nima sezib tursa-da, lekin nima bo'lganini bilmagan uchun qattiq tashvish tortardi, axiyri biron narsa bilarmikanman

degan umid bilan akasining lojasiga qarab yurdi. Qasddan Anna o'tirgan lojaning ro'parasidagi parter qatorlari orasidan borib sobiq polk komandiriga duch kelib qoldi. Polk komandiri o'zining ikki tanishi bilan gaplashib turgan edi. Vronskiy Kareninlarning nomlari tilga olinganini eshitdi, shunda polk komandiri shoshib-pishib Vronskiyning ismini baland ovoz bilan aytib, tanishlarining yuziga takror qarab qo'yganligini sezdi.

– A, Vronskiy! Polkka qachon kelasan? Ziyofatingni yemay javob bermaymiz. Sochingning tukigacha biznikisan, – dedi polk komandiri.

– Juda afsus, vaqtim yo'q, boshqa safar, – dedi-yu Vronskiy zinadan akasining lojasiga qarab yugurib chiqib ketdi.

Vronskiyning onasi – qari, po'lat gajakli grafinya akasining lojasida o'tirgan edi. Varya bilan knyajna Sorokina unga beletaj yo'lagida to'qnash kelishdi.

Varya knyajna Sorokinani onasining oldiga olib borib qo'yib, qo'lini qaynisiga uzatdi-yu, darhol Vronskiyni qiziqtirgan narsa to'g'risida gapira ketdi. Vronskiy uni bunday hayajonlangan holda kamdan-kam ko'rар edi.

– Meningcha, bu pastkashlik, razolat, bunday qilishga madame Kartasovaning hech haqi yo'q edi. Madame Karenina... – deb gap boshlagan edi, Vronskiy bo'lib qo'ydi:

- Nima gap o'tdi? Xabarim yo'q.
- Voy, eshitganing yo'qmi?
- Bilasan-ku, men bunday narsalarni eng keyin eshitaman.
- Dunyoda Kartasovadan ham zaharroq xotin bormikan?
- Nima qildi?

– Menga ham erim aytdi... Kareninani haqorat qilibdi. Eri lojadan turib Anna bilan gaplashgan ekan, Kartasova janjal qipti. Annaning nafsi og'ritadigan bir so'zni baqirib aytib, chiqib ketgan emish.

Knyajna Sorokina loja eshididan mo'ralab:

- Graf, sizni oyningiz chaqiryaptilar, – dedi.
- Senga ko'zlarim to'rt bo'lди, – dedi onasi istehzo aralash kulimsirab. – Kamnamo bo'lib ketding.

O'g'li onasining suyunganidan kulib yuborishiga sal qolganini ko'rди.

– Salom, maman. Oldingizga kelayotuvdim, – dedi Vronskiy sovuqqina qilib.

– Nega faire la cour a maname Karenine¹ bormaysan? – deb ilova qildi, knyajna Sorokina nari ketgandan so‘ng. – Elle fait sensafion. On oublie la Patti pour elle².

– Maman, sizdan bu haqda gapirmang deb iltimos qilgan edim, – dedi Vronskiy qovog‘ini solib.

– Men hamma aytayotgan gapni aytdim xolos.

Vronskiy hech qanday javob qilmadi-da, knyajna Sorokinaga bir necha og‘iz so‘z aytgandan so‘ng chiqib ketdi. Eshikda akasiga duch keldi.

– A, Aleksey! – dedi akasi. – Qanday rasvogarchilik-a! Ahmoq, boshqa narsa emas... hozir oldiga bormoqchi bo‘lib turuvdim. Yur, birga boramiz.

Vronskiy akasining so‘zlarini eshitmadidi. Shaxdam odimlar bilan pastga tushib ketdi: bir nima qilish kerakligini sezib tursa ham, lekin nima qilish kerakligini bilmas edi. Anna o‘zini ham, Vronskiyini ham shunday soxta ahvolga solib qo‘ygani alam qilar, lekin shu bilan birga, Anna azob chekayotgani uchun rahmi kelar, uni o‘tdan olib, o‘tga solar edi. Vronskiy pastga, parterga tusha solib to‘g‘ri Annanинг benuariga qarab yo‘l oldi. Benuar oldida Stremov u bilan gaplashib turgan edi.

– Tenorlar yo‘q endi. Le moule en est bris.³

Vronskiy Annaga ta’zim qilgandan so‘ng to‘xtab, Stremov bilan ko‘rishdi.

– Siz kechroq keldingiz, shekilli, eng yaxshi ariyani eshitmay qoldingiz, – dedi Anna Vronskiyning yuziga qarab: bu qarashi Vronskiyga istehzoli tuyuldi.

– Men ashulaning qadriga yetmaydigan odamman, – dedi Vronskiy ham Annaga ters qarab.

Anna kulimsirab turib:

– Knyaz Yashvindaqa deng; u kishiga Patti juda baqirib aytganday tuyulibdi, – dedi.

Anna Vronskiy yerdan olib bergen afishasini uzun qo‘lqopli mitti qo‘liga olib turib:

¹ Kareninaning ko‘nglini olgani (*frans.*).

² Hozir hammaning og‘zida o‘sha. Dovrug‘i Pattini bosib ketdi! (*frans.*).

³ Urug‘i quiridi (*frans.*).

– Rahmat, – dedi; shunda chiroyli yuziga birdan titroq yugurdi. O’rnidan turib, lojaning to’riga o’tib ketdi.

Vronskiy ikkinchi parda tanaffusida Annaning lojasи bo’sh qolganini sezib, musiqa sadolari tinchiganda teatrda gilarning masxaraomuz shipshishlari ostida parterdan chiqdi-yu, uyga qarab jo’nadi.

Anna nomerida edi. Vronskiy nomeraga kirganda, Anna hamon teatrga borgan libosida edi. Devor yonidagi birinchi kresloda ro’parasiga tikilib o’tirardi. Vronskiyga bir ko’z tashlab, yana darhol avvalgi ahvoliga qaytdi.

– Anna, – dedi Vronskiy.

Anna o’rnidan turar ekan, yig’lamoqdan beri bo’lib, alam va g’azab bilan qichqirdi:

– Sen, sen aybdorsan hammasiga!

– Bormagin deb qancha yalindim-yolvordim. Ko’nglingga ozor yetishini bilardim...

– Ozor! – deb Anna yana qichqirdi. – Dahshatli ozor! To o’la-o’lguncha esimdan chiqarmayman buni. Kartasova men bilan yonmayon o’tirishni sharmandalik deb atadi.

– Nodon xotinning gapi, – dedi Vronskiy, – lekin shunday narsalarni bila turib...

– Sening sovuqqonliging nafratimni qo’zg’atadi. Meni shu darajaga yetkazmasliging kerak edi. Meni yaxshi ko’rganingda...

– Anna! Mening muhabbatim bu yerda nima qilib yuribdi...

– To’g’ri-da, sen ham menchalik yaxshi ko’rganingda, sen ham menchalik azob chekkaningda... – dedi-yu, yuragi po’killab Vronskiyga qaradi.

Vronskiyning har holda unga rahmi kelsa ham, yana alami kuchli edi. U sevgisi mustahkamligini ishontirishga harakat qilardi. Chunki uni hozir faqat shu narsagina yupata olishini bilar, shu sababli so’z bilan ginaxonlik qilmas, faqat ichidagina undan o’pkalanar edi.

Sevgisi haqidagi gaplari Vronskiyning o’ziga razolatdek ko’rinsa ham, so’zlarni aytishga vijdoni qiyalsa ham, lekin Anna bu so’zlarni eshitib huzur qilar, sekin-asta yupanib borardi. Shu voqeanning ertasiga apoq-chapoq bo’lishib, qishloqqa jo’nab ketishdi.



OLTINCHI QISM

I

Darya Aleksandrovna yoz kunlarini bolalari bilan singlisi Kiti Levinaning uyida, Pokrovskoe qishlog‘ida o‘tkazardi. O‘z mulkidagi uyi vayron bo‘lgan edi, shu vajdan Levin bilan xotini yoz kunlarini biznikida o‘tkazing, deb iltimos qilaverib hech qo‘ymadilar. Stepan Arkadich bu tadbirni juda ma’qulladi. U yoz kunlarini bola-chaqasi bilan qishloqda o‘tkazishga xizmati xalaqit bergani uchun ko‘p afsus yeganini, bola-chaqasi bilan birga bo‘lish o‘zi uchun eng katta baxt ekanini aytar, garchi o‘zi Moskvada qolgan bo‘lsa ham onda-sonda kelib, bir-ikki kun turib ketardi. Oblonskiylar, bolalari va murabbiyyasidan tashqari shu yoz bo‘yi qari knyaginya ham Levinlarnikida mehmon bo‘lib turdi. Shunday ahvolga tushib qolgan tajribasiz qiziga ko‘z-quloi bo‘lib turishni grafinya o‘z burchi deb bilardi. Bulardan tashqari, Kitining chet elda ortirgan dugonasi Varenka ham, erga tekkaningizda kelaman, degan va’dasining ustidan chiqib, do‘stnikiga mehmon bo‘lib kelgan edi. Hammasi Levin xotinining qarindosh-urug‘lari va do‘silari edi. Levin bularning hammasini yaxshi ko‘rsa hamki, har holda, o‘zining levincha osoyishtaligi va tartibi, uning iborasi bilan aytilganda, «Shcherbatskiy unsuri» tomonidan oyoq osti bo‘lganiga yuragi bir oz achishib turardi. O‘zining qarindoshlaridan shu yil faqat Sergey Ivanovichgina mehmon bo‘lib turardi; lekin bu ham Levinlar urug‘idan emas, Koznishevlar urug‘idan; shunday qilib, Levinlarga xos xususiyat butunlay yo‘q etilib borardi.

Ko‘p vaqtlardan beri bo‘sh turgan Levinlar uyida hozir odam shu qadar ko‘p ediki, xonalarning qariyb hammasi band edi, buning ustiga, qari knyaginya stolga kelib o‘tirganda, odamlarni qariyb har kun boshqatdan sanab chiqishga va o‘n uchinchi nevarasini

maxsus stolchaga o‘tqazishga majbur bo‘lardi. Ro‘zg‘or ishlarida jonbozlik ko‘rsatayotgan Kitining ham tovuq, kurka va o‘rdak sotib olish tashvishlaridan boshi chiqmas, mehmonlar bilan bolalarning ishtahalari yozda ochilib ketgani uchun bu parrandalar ko‘plab so‘yilar edi.

Butun oila dasturxon atrofiga yig‘ilgan edi. Dollining bolalari esa murabbiyalari hamda Varenka bilan bugun qayoqqa borib qo‘ziqorin terish rejasini tuzish bilan band edi. Mehmonlar orasida o‘z aqli va ilmi tufayli hammaning chuqur hurmatiga sazovor bo‘lgan Sergey Ivanovich qo‘ziqorin ustida ketayotgan gapga aralashib hammani hayron qildi.

– Meni ham birga olib boringlar. Qo‘ziqorin qidirishni juda yaxshi ko‘raman, – dedi Sergey Ivanovich Varenkaga qarab. – Meningcha, bu juda yaxshi mashg‘ulot.

Varenka qizarib:

– Koshkiydi, biz ham xursand bo‘lamiz, – deb javob qildi. Kiti ma’nodor qilib Dolli bilan ko‘z urshtirib oldi. Ilmli va aqlli Sergey Ivanovichning Varenka bilan qo‘ziqorin tergani borish to‘g‘risidagi taklifi Kitining so‘nggi vaqtarda o‘zini juda o‘ylatib qo‘ygan ba’zi taxminlarini tasdiqlar edi. U ko‘zlaridagi ifodani hech kimga sezdirmaslikka tirishib, shoshib onasi bilan gaplasha boshladи. Ovqatdan so‘ng Sergey Ivanovich mehmonxona derazasi yonida qahvasini ichib o‘tirib, ukasi bilan boshlagan suhabatini davom ettirdi; u qo‘ziqorin tergani boradigan bolalar hozir chiqadigan eshikka qarab-qarab qo‘yar edi. Levin akasining yoniga kelib, derazaga o‘tirdi.

Kiti, aftidan, o‘zini qiziqtirmayotgan bu suhabatning tugashini kutib, erining yonida turar, unga bir nima demoqchi bo‘lardi.

Sergey Ivanovich o‘zi boshlagan suhabatga uncha qiziqmayotgan bo‘lsa kerak, Kitiga bir kulimsirab qo‘yib:

– Uylanganingdan beri juda o‘zgarib ketding, o‘zgarganiningda ham, yaxshilik tomonga, – dedi ukasiga, – din eng mavhum fikrlarni himoya qilishdagi ehtirosingga hali ham sodiqsan.

Levin xotiniga stul surib qo‘yib:

– Katya, tikka turishing to‘g‘ri kelmas, – dedi-yu, ko‘ziga ma’nodor qilib qarab qo‘ydi.

– Albatta, lekin hozir vaqtি emas, – deb gapiga qo‘shib qo‘ydi Sergey Ivanovich bolalarning yugurishib chiqqanlarini ko‘rib.

Tanya qo'llaridagi savatchasi bilan Sergey Ivanovichning shlapasini silkita-silkita, unga qarab chopib kelardi. U paypoqlarini tortib kiyib olgan edi.

Tanya Sergey Ivanovichning oldiga dadil chopib keldi-da, ota-sining chiroyligi ko'zlariga juda ham o'xshab tushgan ko'zlarini charaqlatib, Sergey Ivanovichning shlapasini bergandan so'ng uni o'zi kiydirib qo'yishga harakat qildi va takallufsizligini latif bir tabassum bilan yumshatishga tirishdi.

Tanya Sergey Ivanovichning jilmayganidan kiydirish mumkinligini angladi-yu, shlapani ehtiyotkorlik bilan kiydirayotib.

– Varenka kutib turibdi, – dedi.

Varenka egniga sariq chit ko'ylik kiygan va boshiga oq durra o'ragan holda eshik og'zida kutib turardi.

Sergey Ivanovich qahvasini ho'plab tamomladi-da, cho'ntaklariga do'stro'mollari bilan sigara qutisini sola turib:

– Hozir, hozir, Varvara Andreyevna, – dedi.

– Mening do'stim Varenka qanday ajoyib-a? – dedi Kiti eriga Sergey Ivanovich o'rnidan turishi bilan. Bu so'zlarni Sergey Ivanovichga eshitiladigan qilib aytди, aftidan, shunday istagi bo'lsa kerak edi. – Yana buning chiroyliligi-chi! Asl go'zallik! Varenka, – deb qichqirdi Kiti, – tegirmon bor o'rmonga borasizlarmi? Biz ham boramiz.

– Ahvolingni hech o'ylamaysan-a, qizim, – dedi qari knyaginya shosha-pisha eshikdan chiqib. – Bunaqa qichqirma, zarar qiladi.

Varenka Kitining ovozini, keyin onasining tanbehini eshitib, yengil odimlar bilan dugonasi yoniga yetib keldi. Harakatlarining tezligi, qizishib ketgan yuzining rangi – bularning hammasi unda g'ayrioddiy bir narsa ro'y berayotganligidan dalolat berardi. Kiti bu g'ayrioddiy holatni bilar, shuning uchun dugonasini diqqat bilan kuzatib borardi. Kitining fikricha, bugun ovqatdan so'ng o'rmonda muhim hodisa sodir bo'lishi kerak edi. Shuning uchun uni ko'nglida fotiha bergani chaqirgan edi.

Kiti dugonasini o'pib turib:

– Varenka, agar bir narsa sodir bo'lsa, men juda baxtli bo'lardim, – dedi shivirlab.

Varenka o'ziga aytilgan so'zlarni eshitmaganga solsa ham, lekin uyalib turib:

– Siz ham biz bilan borasizmi? – dedi Levinga.

- Men ham boraman, lekin xirmongacha, o'sha yerda qolaman.
 - E, xirmonda nima bor-a! – dedi Kiti.
 - Yangi aravalarni ko'rish, hisobga olish kerak, – dedi Levin. –
- O'zing qayerda bo'lasan?
- Ayvonda.

II

Ayvonga hamma xotinlar yig'ilgan edi. Ular umuman ovqatdan keyin o'sha yerga chiqib o'tirishni yoqtirishsa ham, lekin bugun u yerda ish ham bor edi. Chaqaloq ko'yakchalarini tikish va o'rama to'qish bilan hamma band bo'lsa-da, bu ishlardan tashqari, u yerda Agafya Mixaylovna yangi usul bilan suv qo'shmay murabbo pishirayotgan edi. Kiti uylarida qo'llanib kelingan bu yangi usulni hozir joriy qilayotgan edi. Bu ish avval Agafya Mixaylovnaga yuklab qo'yilgan edi. Levinning uyida pishirib kelgan murabbolar yomon chiqmagan bo'lsa kerak, degan andisha bilan Agafya Mixaylovna suv qo'shmasdan bo'ladimi deb, qulupnay va yer tutidan pishirgan murabbolariga suv aralashtirdi; axir bir kun qo'lga tushib qoldi, mana endi malina murabbosi hammaning ko'zi o'ngida pishiril-yapti, shu bilan Agafya Mixaylovnani suvsiz ham murabbo chiqishiga ishontirishmoqchi edi.

Agafya Mixaylovna nafsi og'riganidan yuzlari qizargan, sochlari to'zigan holda yenglarini tirsaklarigacha shimarib olib, tog'orani o'choq ustida aylantirib turar, tog'oradagi malinaga xo'mrayib qrarar, ko'nglida malinaning pishmay tagiga olib ketishini tilardi. Knyaginya bo'lsa, malinadan murabbo pishirishda Agafya Mixaylovnaning nazarida men maslahatboshi bo'lib ko'rinaman, shuning uchun butun zahrini menga sochadi, deb o'ylab, o'zini malinaga qiziqmagan, boshqa ish bilan band bo'lgan kishiga o'xshatib ko'rsatsa ham, boshqa to'g'rilarda gaplashib o'tirsa ham, yana ko'z qiri bilan o'choqqa qarab-qarab qo'yardi.

- Men xizmatkor qizlarimga ko'yaklik tiktirish uchun hamisha o'zim arzon mollardan sotib olaman, – derdi knyaginya boshlagan gapini davom ettirib... – Endi ko'pigini olsangiz qalay bo'larkin, aylanay, – dedi Agafya Mixaylovnaga qarab. Keyin: – Sen urinmasang ham bo'ladi, issiq, – deb Kitini qaytardi.

- Men olaman, – dedi-yu Dolli o'rnidan turib borib, qoshiqni ko'pik chiqarayotgan qand shirasi ustida sekin-sekin yurgiza bosh-

ladi; qoshiqni likobchaga urib, yopishgan ko'piklarni ora-sira tushi-rib turdi, likobcha rang-barang, sariq-pushti ko'piklar bilan to'lib, tagida qon rangli shira to'planardi. Dolli yosh bolalik chog'larida murabboning bu eng yaxshi joyini, ko'pigini kattalar nima uchun emas ekan, deb hayron bo'lardi; o'sha vaqtlar hayron bo'lgani hozir esiga tushdi-yu: «Buni choy mahalda qanday yaxshi ko'rib yalashar ekan-a?» deb bolalari to'g'risida o'yaldi.

Boya xizmatkorlarga qanday narsalarni sovg'a qilish kerak, degan mavzuda maroqli suhbat boshlangan edi; Dolli bu orada shu suhbatni davom ettirib:

— Stiva: «pulning o'zini beravergan yaxshi», deydi, — dedi. — Lekin...

— Qanday qilib pulning o'zini berib bo'ladi! — deb yuborishdi bir ovozdan knyaginya bilan Kiti. — Pulning qadri bo'larmishmi?

— Masalan, bultur men o'zimning Matryona Semyonovnamizga poplin emas, shunga o'xshagan bir narsani sovg'a qildim, — dedi knyaginya.

— Esimda, tug'ilgan kuningizda o'sha ko'yakda edi.

— Guli olamda yo'q: odmi-yu, ko'zni oladi. Uning ustida bo'l-maganda, o'zimga o'shanaqasini tikib olardim. Varenkanikiga o'xshab ketadi. Biram chiroyli, biram arzon.

Dolli murabbo shirasini qoshiqdan tomizib:

— Tayyor bo'ldi, shekilli? — dedi.

— Tirnoqqa tushib qotganda tayyor bo'ladi. Yana qaynating, Agafya Mixaylovna.

— Voy, bu pashshalar-ey! — dedi jahli chiqib Agafya Mixaylovna. — Qancha qaynasa ham bo'lgani shu, — deb qo'ydi keyin.

— Voy, muncha shirin, hurkitmanglar! — dedi birdan Kiti panjaraga kelib qo'ngan chumchuqqa qarab; chumchuq malina shingilini ag'-darib, cho'qiy boshlagan edi.

— Hay, bolam, o'tdan nariroq turgin-a, — dedi onasi.

Agafya Mixaylovna tushunmasin deb, ular hamisha fransuzcha gapirishar edi, Kiti ham hozir fransuzchalab:

— A propos de' Varenka, — dedi. — Bilasizmi, maman, bugun nima uchundir hal bo'ladigandek ko'rinyapti menga. Qanday hal bo'lishini bilasizmi? Juda yaxshi bo'lardi-da!

¹Aytmoqchi, Varenka to'g'risida.

- Maman, siz nima deb o‘ylaysiz?
 - Nima deb o‘ylardim? U (u – Sergey Ivanovich edi) Rossiyaning eng poshshoxon qiziga og‘iz solsa arzir edi! Hozir uncha yosh emas, shunday bo‘lsa ham, bilaman, u olaman desa, juda ko‘plar jon-jon deb tegadi... Varenka juda dilbar qiz, lekin u...
 - Yo‘q, tushunsangiz-chi, oyi, unisi ham, bunisi ham bir-biriga munosib, bundan yaxshini topib bo‘lmaydi. Avvalo, Varenka juda-juda jonon qiz! – dedi Kiti bir barmog‘ini bukib.
 - Varenka unga juda yoqib qoldi, bunisi to‘g‘ri, – dedi Dolli ham tasdiqlab.
 - Innaykeyin, Sergey Ivanovich jamiyatda shunday bir mavqega egaki, xotinining jamiyatda tutgan o‘rniga ham, davlatiga ham muhtoj emas. Unga yolg‘iz bir narsa yaxshi, dilbar, vazmin xotin kerak.
 - To‘g‘ri, bu qiz bilan tinib-tinchib keta oladi, – dedi Dolli yana tasdiqlab.
 - Uchinchidan, xotini yaxshi ko‘rishi kerak. Bu tomoni ham bor.... ya’ni shunday bo‘lsa soz bo‘lardi-da!.. Mana hozir o‘rmondan kelishadi-yu, hamma narsa hal bo‘ladi, deb ko‘zlarim to‘rt bo‘lyapti. Ko‘zlaridan bilib turibman. O‘ylaganim bo‘lsa boshim osmonga yetardi. Sen nima deysan, Dolli?
 - Ko‘p hovliqaverma, hovliqish senga zarar, – dedi onasi.
 - Hovliqqanim yo‘q, oyijon. Chamamda, bugun og‘iz soladi-da.
 - Eh, erkaklarning qachon, qanday og‘iz solishini kutish xo‘p g‘alati narsa-da... o‘rtada bir g‘ov turadi-yu, keyin u barbod bo‘ladi, – dedi Dolli o‘ychan kulimsirab. Hozir uning esiga Stepan Arkadich bilan topishgan vaqtлari tushib ketdi.
 - Oyi, dadamlar sizga qanday og‘iz solganlar? – deb so‘rab qoldi Kiti birdan.
 - El qatori, boshqacha bo‘larmidi, voy! – deb javob qildi knyaginya; lekin eri birga turmush qurish to‘g‘risida taklif qilgan paytni eslab yuzi charaqlab ketdi,
 - Yo‘q, ayting! Sizga ijozat bergenlaridan oldin, har holda yaxshi ko‘rarmidингиз?
- Kiti xotin-qizlar hayotining eng asosiy masalasi to‘g‘risida onasi bilan endi teng huquqda gaplasha olayotganidan huzur qilardi.
- Albatta, yaxshi ko‘rardim-da; bizning qishlog‘имизга kelib turardi.

- Qani, qanday bo‘ldi? Oyi, aytin?
 - Nima, o‘zlarizingizni yangi narsa topganmiz, deb o‘ylaysanmi?
- Hammasi eski gap: ko‘z bilan, tabassum bilan bo‘lgan-da...
- Juda o‘xshatib gapirdingiz-da, oyi! Xuddi siz aytganday ko‘z-u, tabassum bilan, – dedi Dolli tasdiqlab.
 - Yo‘q, qanaqa so‘zlar aytgan?
 - Kostya senga qanaqa so‘zlar aytgan?
 - Bo‘r bilan yozgan. Juda qiziq qilgan-da... nazarimda, allaqachon bo‘lganga o‘xshaydi! – dedi Kiti.

Ana shundan keyin uchala xotin bir xil narsani o‘ylab ketdi. Sunkunatni oldin Kiti buzdi. Erga tegishidan oldindi qish va Vronskiyga havasmand bo‘lib yurgan kezlari esiga tushdi.

– Bir tomoni bor... bu Varenkaning o‘tmishdagi aloqasi, – dedi Kiti; uning o‘ylari tabiiy ravishda boshqa fikrlarni tug‘dirdi. – Men o‘rnii bilan Sergey Ivanovichga aytmoqchi edim, keyincha xunob bo‘lib yurmasin, deb. Erkak zoti, – deb ilova qildi, – bizning o‘tmishimizga juda yomon rashk qiladi.

– Hammasi ham emas, – dedi Dolli. – Sen o‘zingning eringga qarab shunaqa deyapsan. Vronskiyini eslab hali ham ezilib yuradi. Shundaymi? To‘g‘ri-ku!

Kiti ko‘zlar bilan o‘ychan kulimsirab:

- To‘g‘ri, – deb javob qildi.
- Lekin sening qanaqa o‘tmishing uni bezovta qilishini men bilmayman, – dedi knyaginya onalik hissi bilan qizining tarafini olib.
- Nima, Vronskiy orqangdan yurganmi? Bunaqa gaplar har qanaqa qizning ham boshidan o‘tadi.
- E, buni gapirayotganimiz yo‘q, – dedi Kiti qizarib.
- Yo‘q, shoshma, – dedi onasi so‘zini davom qildirib, – innaykeyin, Vronskiy bilan gaplashaman desam, o‘zing qo‘ymagansan. Esingdami?
- Qo‘ysangiz-chi, oyi! – dedi Kiti iztirob chekib.
- Endi sizlarni ushlab bo‘lmaydi... Sening aloqang odob doirasidan nariga chiqqan emas; bo‘lmasa, uni o‘zim chaqirib ta‘zirini berardim. Ha, qo‘y, jon bolam, xafa bo‘lish hozir senga zararli. Gap shunaqa, aylanay, ko‘nglingni to‘q tut, gaplarim esingda bo‘lsin.
- Ko‘nglim to‘q, maman.
- Kitining baxtiga Anna kelib qolarmi, – dedi Dolli, – lekin o‘zi baxti qora bo‘ldi. Qarang, butunlay teskari bo‘lib chiqdi-ya, –

dedi yana o‘z fikridan ajablanib, – o‘shanda Anna juda baxtli edi. Kiti bo‘lsa o‘zini baxti qora bo‘ldim, deb yurardi. Butunlay teskarisi bo‘ldi! Anna tez-tez esimga tushib turadi.

– O‘ylagan odamingni qara-yu! Past, jirkanch, bebag‘ir xotin, – dedi onasi; U Kitining Vronskiyga tegmay, Levinga tekkanini hali ham esidan chiqara olmay yurardi.

– Buni gapirish kimga zarur kepti-ya! – dedi Kiti bo‘g‘ilib. – Men buni o‘ylamayman ham, o‘ylashni xohlamayman ham... – keyin ayvon zinasidan chiqib kelayotgan erining tanish dupuriga quloq solib, turib yana takrorladi: – O‘ylashni xohlamayman ham.

Levin ayvonga chiqib:

– O‘ylashni xohlamayman ham, deb nima to‘g‘risida aytyapsan? – deb so‘radi.

Levinga hech kim javob bermadi, u ham qaytarib so‘ramadi.

Levin norozi bo‘lib hammaga bir qarab qo‘ydi-yu, o‘zining oldida gapirilmaydigan narsa to‘g‘risida gapirishayotganini payqab:

– Siz ayollarning gaplaringizga xalaqit bergenim uchun afsus yeb qoldim, – dedi.

Levin malinani suvsiz qaynatishayotganlari va umuman Shcherbatskiylarning yot ta’sirlari uchun Agafya Mixaylovnaning norozi bo‘lib yurganini bilardi. Hozir o‘zining ko‘nglida ham ana shunday his bir uyg‘onib o‘tganini sezdi. Shunday bo‘lsa ham, Kitining yoniga kulimsirab keldi.

– Ishlar qalay? – deb so‘radi Levin Kitiga g‘amxo‘r ko‘z bilan qarab; keyingi vaqtarda hamma unga shu ko‘z bilan qaraydigan bo‘lib qolgan edi.

– Yomon emas, juda soz, – dedi Kiti kulimsirab, – o‘zingniki-chi?

– Moyday. Nima qilamiz, bolalar orqasidan boramizmi? Aravani qo‘shtiryapman.

– Nima balo, Kitini aravaga tushirib bormoqchimisan? – dedi onasi ta’na bilan.

– Otlarni sekin haydar boramiz-da, knyaginya.

Levin boshqa kuyovlarga o‘xshab knyaginyani hech vaqt maman deb aytmas, bu esa knyaginyaning ensasini qotirar edi. Ammo u knyaginyani juda yaxshi ko‘rsa, hurmat qilsa ham, marhuma onasining xotirasini poymol qilib, knyaginyani maman deb atolmasdi.

– Yuring biz bilan, maman, – dedi Kiti.

— Senlarning ehtiyyotsizliklaringizni tomosha qilishga toqatim bormi?

— Bo'pti, piyoda boraman. Menga foydasi bor-ku, — dedi Kiti va o'midan turib kelib, erini qo'ltiqladi.

— Foydasi-ku bor-a, lekin evi bilan, — deb qo'ydi knyaginya.

Levin Agafya Mixaylovnaning ko'nglini olish maqsadi-da:

— Qalay, murabbo tayyormi, Agafya Mixaylovna? — dedi kulimsirab. — Yangi usul tuzukmi?

— Yaxshi bo'lsa kerak. Biz bunchalik o'tkazib yubormaymiz.

— Yaxshi-da, Agafya Mixaylovna, achimaydi, muzlarimiz erib ketgan, hozir saqlaydigan joyimiz yo'q, — dedi Kiti darhol erining muddaosini payqab va o'zi ham shu taxlit muomala qilib. — Lekin siz tuzlagan narsalar shunday ajoyibki, oyimlar hech qayerda buna-qasini yemaganman, deydilar, — dedi yana kulimsirab va Agafya Mixaylovnanning durrasini tuzata turib.

Agafya Mixaylovna Kitiga zarda qilib qaradi.

— Ko'nglimni ko'tarmang, begoyim. Sizni u bilan ko'rsam bo'ldi, ko'nglim ochilib ketaveradi, — dedi Agafya Mixaylovna; lekin Agafya Mixaylovnanning ular bilan demay, u bilan degani Kitiga yomon ta'sir qildi.

— Biz bilan birga boring, qo'ziqorin bor joylarni ko'rsatasiz.

Agafya Mixaylovna kulimsirab, bosh chayqadi; bosh chayqashida: «Sizlarga-ku jon-jon deb zahrimni sochardim-a, lekin ilojim yo'q-da», degan ma'no bordek edi.

— Baraka topkur, men aytgancha qilavering, — dedi qari knyaginya, — murabbo ustidan qog'oz yopib qo'ying, qog'ozni rom bilan ho'llang, shunday qilsangiz, muz bo'lmasa ham po'panak bosmaydi.

III

Kiti eri bilan xoli qolganidan nihoyatda xursand edi, chunki eri ayvonga chiqib, nima to'g'risida gapishtayotganlarini so'raganda hech kim javob bermagandan keyin hamma narsani oynaday aks ettirib turadigan yuzida ranjish alomati ko'ringanini sezgan edi.

Ular piyoda yo'lga tushib, boshqalardan ilgarida ketishdi; uylari ancha orqada qolib, javdari boshoqlari va donlar to'kilgan chang, tekis aravada yo'lga chiqishganda, Kiti eriga suyanib, qo'lini mahkam

qisib bordi. Levin bir lahzada o'tib ketgan xafagarchilikni allaqachon unutgan edi; hozir u bilan xoli borar ekan, xotinining homiladorligi haqidagi fikrlari miyasidan bir zum ham ketmas, bu fikrlar suyukli xotinining yaqinligidan hosil bo'lgan huzur-halovat hissidan butunlay boshqa, yangi, suyunchli, pok hislar tug'dirar edi. Gapiriladigan gap yo'q edi, homiladorligi orqasida xotinining qarashlari ham, ovozi ham o'zgargan, hozir uning ovozini eshitgisi kelardi. Ovozida ham nighohlaridagi singari yumshoqlik, jiddiylik bor edi; bunday jiddiylik hamma vaqt butun fikrini sevikli ishi ustida to'plangan kishilardagina bo'ladi.

– Menga qara, charchab qolmaysanmi? Ko'proq suyan, – dedi Levin.

– Sen bilan xoli qolganimga juda xursandman; to'g'risini aytsam, bular bilan qisilib qoldim, qishda ikkalamiz ovloqda o'tkazgan kunlarimizni qo'msayman.

– U kunlar yaxshi edi, lekin hozirgisi yana ham yaxshi. Ikkalasi ham yaxshi. – dedi Levin xotinining qo'lini qisib.

– Bilasanmi, avvonga chiqqaningga nimadan gaplashib turuvdik?

– Murabbodan-da!

– Ha, murabbodan; keyin qizlarga og'iz solishdan gap chiqib ketdi.

– E! – dedi Levin; u Kitining so'zlaridan ko'ra, ko'proh ovoziga quloq solar, Kiti esa hozir o'rmonga kirgan yo'lni o'ylab, noto'g'ri oyoq bosib qo'yish mumkin bo'lgan joylardan hatlab borardi.

– Innaykeyin, Sergey Ivanovich bilan Varenkadan gap chiqdi. Hech payqadingmi?.. Qani endi shunday bo'lsa, – dedi Kiti so'zini davom qildirib. – Sen nima deysan? – Kiti erining yuziga qaradi.

– Nima deyishimni ham bilmayman, – dedi Levin kulimsirab.

– Sergey, nazarimda, bu jihatdan juda g'alati odam. Aytuvdim-ku senga...

– Ha, o'lib ketgan qizga oshiqligini...

– Men u vaqtlar yosh bola edim: rivoyatlardan bilaman. Akamning o'sha chog'lari esimda: juda ajoyib, dilbar yigit edi. Ana o'shandan beri xotinlarga muomalasini kuzatib kelaman, yaxshi muomala qiladi, ba'zilari yoqadi ham, ammo, nazarimda, xotinlar unga xotin kishi emas, shunchaki odam bo'lgani uchun yoqadi.

– Shundaydir-u, lekin hozir Varenka bilan... nazarimda, bir narsa borday...

– Bor bo'lsa bordir... lekin akamni bilish kerak... U juda ajoyib odam. Tirikchiligi ma'naviy hayot bilan, xolos. Qalbi haddan ziyod toza, olijanob odam.

– Nimaga? Uylansa, yerga urilgan bo'ladimi?

– Yo'q, u ma'naviy hayotning bir o'zi bilan yashashga shu qadar ko'nikib ketganki, amaliy hayotga tobi yo'q. Varenka bo'lsa, har holda, amaliy hayot...

Levin xotiniga aniq so'zlarni topib aytish uchun qiynalib o'tirmasdan, o'z fikrlarini dangal aytaverishga odatlanib qolgan edi; hozirgi singari ishq-muhabbat savdosi ustida gap ketayotganda, aytmoqchi bo'lgan so'zini xotini bir ishoradayoq fahmlab olishini bilar, Kiti ham anglar edi.

– Shunday deysan-u, lekin Varenkada mendagi singari amaliy hayot asari yo'q; tushunaman, Sergey Ivanovich menga hech qachon ko'ngil bermas edi. Varenkaning butun borlig'i ma'naviy...

– Yo'q, unaqa dema, akam seni juda yaxshi ko'radi, menikilar seni yaxshi ko'rganidan xursandman.

– To'g'ri, menga mehri bor, lekin...

– Albatta, marhum Nikolenka singari emas... ikkovlaring birlaringni yoqtirib qoluvdinglar, – deb Levin gapini tugatdi. – Nega tilga olmayin? – dedi keyin, – goho o'zimni: bir kun emas bir kun, baribir, esingdan chiqarib yuborasan, deb koyiyman. U qanday badjahl, lekin ajoyib odam edi-ya! – Levin biroz jum qolgandan so'ng so'radi: – Ha, aytmoqchi, nimadan gaplashayotuvdik?

Kiti gapni o'z mavzuyiga ko'chirib:

– Nima, sen uni ko'ngil berolmaydi, deb o'ylaysanmi? – dedi.

– Ko'ngil berolmaydi demoqchi emasman, – dedi kulimsirab Levin, – lekin unda shunaqa narsalarga o'chlik yo'q... men unga hamisha hasadlanib kelardim, hatto hozirgi baxtli kunlarimda ham yana hasad qilaman.

– Ko'ngil berish qobiliyati yo'q, deb hasad qilasanmi?

– Yo'q, menden yaxshiroq bo'lgani uchun hasad qilaman, – dedi Levin kulimsirab. – O'zini taqir o'ylamaydi. Butun hayoti burchiga bo'ysundirilgan. Shuning uchun ham vazmin, mamnun bo'lib yura oladi.

– Sen-chi? – deb so'radi Kiti hazil va mehr to'la bir tabassum bilan.

Kiti o‘zini jilmaytirgan fikrlar jarayonini hech bir so‘z bilan ifoda qilib berolmasdi; lekin shu xulosaga keldiki, erining akasiga havasi kelib, o‘zini yerga urishida samimiyat yo‘q edi. Kiti bu nosamimiylilikning akasiga bo‘lgan muhabbatni va o‘zini haddan ziyod baxtli his etgani natijasi, ayniqsa, doimo yaxshiroq bo‘lish istagining oqibati ekanligini bilardi, Kiti undagi bu hislarni sevar, shuning uchun jilmayar edi.

Kiti ana shu xilda jilmayib turib:

– Sen-chi? Sen nimadan norozisan? – deb so‘radi.

O‘zidan noroziligiga xotini ishonmayotgani Levinni quvontirar, ishonmaganligining sababini gapirtirishga undardi.

– Baxtliman, ammo o‘zimdan noroziman... – dedi Levin.

– Qiziq, baxtli bo‘lsang, qanday qilib o‘zingdan norozi bo‘lishing mumkin?

– Ya’ni, senga qanday uqtirsam ekan?.. Ko‘nglimda, seni qoqinib-netib ketmasayding, degan istakdan boshqa narsa yo‘q. Hay, axir bunday sakrab bo‘lmaydi-ku! – deb so‘zini bo‘ldi-yu, so‘qmoqda yotgan shoxdan sakrab o‘taman deb qadamini haddan ziyod tezlashtirib yuborgani uchun xotiniga o‘pka qildi. – Lekin o‘z to‘g‘rimda o‘ylab, o‘zimni boshqalarga, ayniqsa, akamga solishtirib qarasam, yaxshi emasday ko‘rinaman.

– Voy, nima uchun? – dedi Kiti yana o‘shanday jilmayib. – Nima, sening ham boshqalarga saxovating tegmayaptimi? Xutorlarining, xo‘jaligining, kitobining, bular-chi?..

– Yo‘q, hammasiga sen aybdorsan, men buni hozir juda ham ravshan sezib qoldim, – dedi Levin xotinining qo‘lini qisib. – Ish bunday bo‘lmaydi. Men ishlaramni naridan-beri, qo‘l uchida qilyapman. Agar shu ishlarni ham seni sevganimday, sevsam edim... holbuki, ishlaramni so‘nggi vaqtarda uyga berilgan vazifani bajargandek, bajaradigan bo‘lib qoldim.

– Xo‘sh, dadamlar to‘g‘risida nima deysan? – deb so‘radi Kiti. – Jamoat ishi uchun hech nima qilmaganlari uchun, demak, dadamlar ham yomon ekanlar-da?

– Dadangmi? Yo‘q, odam degan otang singari sodda, musaffo, mehribon bo‘lishi kerak. Xo‘sh, menda shu narsalar bormi? Men hech narsa qilmayapman, shuning uchun qiyalyapman. Hammasiga sen aybdor sening yo‘lingda, innaykeyin, mana bu yo‘qligida, – degan edi

Levin xotinining qorniga ishora qilib. Kiti darhol tushundi, – butun kuchimni ishga sarf qilardim; endi esa ishga qo'l urolmayman, bu meni xijil qiladi; men hamma narsani chindan ham uyga berilgan vazifani bajarganday bajarib yuribman, men o'zimni...

– Shoshma, sen hozir Sergey Ivanovichning o'mnida bo'lishni xohlarmiding? – dedi Kiti. – Akangga o'xshashni, jamiyat ishini qilishni, uyga berilgan darsni yaxshi ko'rishni, faqat shu narsalarnigina xohlarmiding?

– Albatta, yo'q, – dedi Levin. – Omadi gapni aytganda, shu qadar baxtlimanki, biron narsani tushunishga qodir emasman. Menga qara, bugun u Varenkaga uylanishni taklif etadi, deb o'ylaysanmi? – dedi biroz jim qolgandan keyin.

– O'ylayman ham, o'ylamayman ham. Lekin topishishlarini juda xohlardim-da. Shoshmay tur, – dedi-yu, Kiti yo'l bo'yidagi bir yovvoyi oq gulni engashib uzib oldi. – Sanab tur: og'iz soladi, og'iz solmaydi, – dedi gulni ariga bera turib.

Levin ham oq kambar gul barglarini uzib turib:

– Og'iz soladi, og'iz solmaydi, – dedi.

Kiti uning barmoqlariga hayajon bilan tikilib turgan edi, qo'lidan ushlab:

– Yo'q, yo'q, – deb to'xtatdi. – Ikkitasini uzbording.

– Xayr bo'lmasa, manavi kichkinasi hisobga kirmaydi, – dedi Levin yaxshi o'smagan kalta bargni uzib. – Ana, aravamiz yetib keldi.

– Charchadingmi, Kiti? – deb qichqirdi knyaginya.

– Qilcha ham.

– Otlar yuvosh bo'lsa, qadamlab yuradigan bo'lsa, aravaga chiqib olaqol.

Aravaga chiqishning hojati yo'q edi. Mo'ljallangan yerga kelib qolishgani uchun hamma piyoda ketdi.

IV

Qora sochlari ustiga oq durrasini tashlagan, bolalar qurshovida, ularga mehr-u shafqat bilan qarab, vaqtichog' bo'lib yurgan va yoqtirgan bir kishisi bilan izhor muhabbat qilishlari ehtimolidan yuragi dukurlab turgan Varenka juda ham ochilib ketgan edi. Sergey Ivanovich uning yonida yurar, havasi kelib qarab-qarab qo'yardi.

Varenka qaragan sari undan eshitgan barcha dilbar so'zlarni, u to'g'risida bilgan barcha yaxshi narsalarni eslar, Varenkaga nisbatan yuragida uyg'ongan hisning esa juda g'alatilagini, uzoq o'tmishda, dastlabki yoshlik davrida faqat bir martagina boshidan kechirgan hisga o'xshaganligini anglar edi. Yonida, yaqinginasida ekanligidan ko'nglida to'lib-toshgan shodlik uni shu darajaga yetkazadiki, o'zi topgan kattakon bir qo'ziqorinni savatga qo'ya turib, ko'zlariga bir qarab qo'ydi; shunda Varenkaning yuzida qo'rquv aralash shodlik alomati paydo bo'lib, hayajonidan lovillab ketganini payqadi-yu, o'zi ham uyalib, tagida juda-juda ko'p gap bo'lgan bir tabassum bilan jimgina kulimsirab qo'ydi.

«Bunday bo'ladigan bo'lsa, – dedi o'zicha, – o'ylab hal qilishim kerak, yosh bola singari o'tkinchi havasga berilishim yaramaydi».

– Endi o'z boshimga qo'ziqorin termasam bo'lmaydiganga o'xshaydi, terganlarim hech songa kirmayapti, – dedi-da, bir o'zi o'rmon ichiga kirib ketdi, ular o'rmon yoqasida siyrak, qari oq qayinlar orasidagi pastak, mayin ko'katlarda yurishgan edi. O'rmon ichida qayinlarning oq o'zaklari orasida tog'teraklarining o'zaklari bo'zarib, yong'oqlar qorayib turardi. Sergey Ivanovich qirq qadamcha borgach, pushti-qizil popuklarini osiltirib, g'arq gullab yotgan beresklet butasi orqasiga o'tdi-yu, o'zini hech kim ko'rmasligini bilib, to'xtadi. Tevaragi jimit edi. Faqat tepasidagi oq qayinlar ustida chivinlar, xuddi asalari iniday, tinmay g'uvillashib turar, ora-sira bolalarning ovozlari eshitilib qolardi. O'rmon chetidan birdan Varenkaning Grishani chaqirayotgan yoqimli ovozi eshitildi, shunda Sergey Ivanovichning yuziga shodlik tabassumi yugurdi. Sergey Ivanovich bu tabassumning ma'nosini anglab, o'z ahvolidan norozi bo'lib bosh chayqadi-da, sigara chiqarib tutata boshladi. Gugurtini oq qayin tanasiga har qancha ishqasa ham yondirolmashdi. Oq qovuzoqning mayin tuklari oltingugurtga yopishib, o'tni o'chirib qo'yaverdi. Axiyri gugurtlardan biri yondi-yu, sigaraning xushbo'y tutuni keng dasturxon singari chayqalib, oldinga va shoxlari osilib tushgan qayin butasi ustiga qarab ko'tarila boshladi. Sergey Ivanovich tutunni ko'zlaridan qochirmsadan, o'z ahvolini o'ylab, sekin-sekin yurib bordi.

«Nega rad qilay? – deb o'ylardi Sergey Ivanovich. – Agar bu bir o'tkinchi ishq yo ehtiros bo'lsa, faqat o'zimdagina sodir bo'lgan his

bo'lsaydi, ammo ikkovimizda shu mayl paydo bo'lgan, (men buni ikkovimizda qo'zg'algan havas deb ayta olaman) buni hayot tarzim uchun butunlay zid deb his qilgan bo'lsam, agar men bu havasga berilib maqsadimga, burchimga xiyonat qilayotgan bo'lsam boshqa gap edi... lekin bunday emas-da. Bunga qarshi aytadigan gapim bo'lsa, u ham shuki, Mariedan judo bo'lganimdan keyin uning xotirasiga sodiq bo'lib qolaman, deb ont ichganman. Ko'nglimda uyg'ongan hisga qarshi yolg'iz shunigina ayta olaman... bu juda muhim narsa», – desa ham Sergey Ivanovich yana bu mulohazalarining o'zi uchun hech qanday ahamiyati yo'qligini his qilar, juda bo'lsa shoirona rolimga odamlar ko'zida putur yetkazar, deb o'yldardi. «Lekin yuragimdag'i hisga qarshi chiqish uchun bulardan boshqa sabab bormikan deb har qancha qidirsam ham, baribir, topolmayman. Faqat aqlimning so'ziga kirsam, bundan yaxshirog'ini topa olmas edim».

O'zi bilgan xotinlar va qizlarni qanchalik ko'z oldiga keltirmasin, u o'zini bosib o'tirib muhokama qilganda, o'z xotinida bo'lishini hohlagan hamma sifatlarni shunchalik o'zida to'plagan qizni hech eslay olmas edi. Varenkada yoshlikning butun latofat va tarovati bo'lsa-da, lekin o'zi yosh bola emas edi, agar u Sergey Ivanovichni yaxshi ko'rib qolgan bo'lsa, ongli ravishda, xotin-qizlar sevishi kerak bo'lgan ravishda yaxshi ko'rар edi: bu bir tomoni, ikkinchi tomoni, kiborlik muhitidan uzoq bo'lish bilan birga, undan jirkanar, lekin kiborlik dunyosini va yaxshi jamoaga mansub ayollarning bilishi kerak bo'lgan narsalarni bilardi; bu sifatlardan mahrum bo'lgan qizning Sergey Ivanovichga hayot yo'ldoshi bo'la olmasligi turgan gap edi. Uchinchi tomoni, Varenka dindor qiz edi, lekin Kiti singari yosh bolaga o'xshagan ongsiz ravishda dindor emas, hayoti diniy maslak asosiga qurilgan qiz edi. Sergey Ivanovich xotinida bo'lishni xohlagan eng mayda xususiyatlarni ham undan topgan edi: Varenka yo'qsil, yesir qiz, demak, Kiti singari, gala-gala qarindoshlarini va ularning ta'sirlarini erining uyiga olib kelmasdi, balki eridan minnatdor bo'lib o'tardi: Sergey Ivanovich kelajak oilaviy hayotining xuddi shunday bo'lishini ham xohlar edi. Ana shu sifatlarning hammasini o'zida to'plagan mana shu qiz Sergey Ivanovichni yaxshi ko'rardi. Sergey Ivanovich kamtar odam bo'lsa hamki, bu narsalarni ko'rmay iloji yo'q edi. O'zi ham Varenkani yaxshi ko'rardi. Bunga qarshi bir mulohaza bo'lsa, yosh masalasi

edi. Lekin o'zi uzoq umr ko'radigan zotdan, sochiga bitta ham oq tushmagan, hech kim uni qirqdan oshgan demaydi, bundan tashqari, Varenkaning so'zlari esida edi: faqat Rossiyadagina odamlar ellikka kirishsa qarib qoldim deyishadi, Fransiyada esa ellikka kirgan kishi o'zini dans la force de l'age¹ deb, qirqqa kirgan kishi esa un jeune homm² deb hisoblaydi, degan edi. O'zini yigirma yil avvalgiday, yosh, navqiron his qilib yurgan bir kishiga necha yoshga kirganini hisoblashning nima keragi bor? Hozir narigi yoqdan yana o'rmon chetiga chiqib, egnida sariq ko'yak, qo'lida savat bilan keksa oq qayin yonidan yengil-yengil odim tashlab borayotgan Varenkaning sarvqomatini charog'on quyoshning qiya, yorqin nurlarida ko'rganida, Varenkaning ko'rinishi qoldirgan bu taassurot quyoshning qiya nurlari tushib turgan sariq sulizor va uning orqasida, uzoq-uzoqlarda, ko'mko'k ufqqa tutashib ketgan keksa o'rmon manzarasi bilan birlashib, o'zining go'zalligi bilan uni hayratga solganda ko'nglida uyg'ongan his, ajabo, yoshlik hissi emasmidi? Yuragi suyunganidan o'ynab ketdi. Butun vujudi eriyotganday bo'ldi. Muhabbatini izhor etishga qaror topganini his qildi. Qo'ziqorin uzgani o'tirgan Varenka chaqqon bir harakat bilan turib, Sergey Ivanovich tomonga qarab qo'ydi. Sergey Ivanovich sigarasini tashladi-yu, keskin odimlar bilan Varenka tomon yo'l oldi.

V

«Varvara Andreyevna, men hali juda yosh paytlarimda men shunday bir ayolni topsamki, unga ko'ngil bera olsam, xotinim deb aytish baxtiga erishsam, degan niyatni qilgan edim. Men uzoq umr ko'rdim va izlagan narsamni birinchi marta sizdan topdim. Sizni yaxshi ko'raman, shuning uchun taklifimni qabul qilishingizni so'rayman».

Sergey Ivanovich Varenkaga yetishga o'n qadamcha qolganda o'z ko'nglida shu gaplarni aytib kelardi. Shu payt Varenka tiz cho'kib va bir qo'ziqorinni qo'li bilan Grishadan to'sib turib kichkina Mashani chaqirayotgan edi.

– Bu yoqqa kelinglar, bu yoqqa kelinglar! Hay, bolalar! Bu yoqda ko'p! – deyardi Varenka ko'krakdan chiqadigan dilbar ovoz bilan.

Varenka Sergey Ivanovichning yaqinlashib kelayotganini ko'rib ham o'rnidan turmadni, holatiniyam o'zgartirmadi: lekin butun borlig'i

¹ Navqiron (*frans.*).

² Yigitcha (*frans.*).

uning yaqinlashib kelayotganligini sezib turgani va quvonganidan dalolat berardi.

Varenka sekingina jilmayib turgan oq durra ila o'rog'liq chiroyli yuzini Sergey Ivanovich tomonga o'girib:

- Xo'sh, hech nima topdingizmi? – deb so'radi.
- Bitta ham topolmadim, – dedi Sergey Ivanovich. – Siz-chi?

Varenka o'zini o'rab olgan bolalar bilan ovora bo'lib javob qilolmadi.

Pushti qalpog'ini quruq xashak ikki pallaga bo'lib tashlagan va shu ko'kat tagidan mo'ralab turgan bir kichkina qo'ziqorinni Masha qizaloqqa ko'rsatib:

– Anavi shox yonidagisini ham ol, – deyardi. Masha oq qo'ziqorinni ikki nimtaga bo'lib olgandan keyin Varenka o'midan turdi. Keyin bolalardan uzoqlashib, Sergey Ivanovich yoniga bordida: – Bu narsa bolalik chog'larmi esimga soladi, – deb qo'ydi.

Ular bir necha odimgacha indamay borishdi. Varenka uning gapirishga chog'langanini sezib turardi: nima haqida gapirishini fahmlab, qo'rquv aralash shodlik ichida yuragini hovuchlab turardi. Ular gaplarini hech kim eshitmaydigan darajada uzoqlab ketishgan bo'lishsa ham, lekin Sergey Ivanovich hamon gap boshlamadi. Jim borish Varenka uchun yaxshi edi, nimagaki, aytmoqchi bo'lgan so'zlarini qo'ziqorin to'g'risidagi gapdan ko'ra, sukul qilib borishgandan keyin aytishgani ma'qul edi. Biroq Varenka istamagani holda beixtiyor og'zidan shu gaplar chiqib ketdi:

– Shunday qilib, hech nima topolmadim, deng? Shunaqa, o'rmon o'rtasida har vaqt kam topiladi.

Sergey Ivanovich indamadi, faqat xo'rsinib qo'ydi. Varenkaning qo'ziqorindan gap ochgani alam qildi. Bir ko'ngli Varenkani yana bolalik chog'lari haqidagi gapga solib yubormoqchi ham bo'ldi; lekin bir necha daqiqa jim borgandan so'ng, xuddi o'z irodasiga qarshi gapirayotgandek, Varenkaning so'nggi so'zları to'g'risidagi fikrini aytdi.

– Oq qo'ziqorinni boshqalaridan ajrata olmasam ham, har holda, bunaqasi o'rmon chetida bo'ladi deb eshitgan edim.

Yana bir necha daqiqa borishdi, bolalardan yana ham uzoqlashib, yolg'iz o'zları qolishdi. Varenkaning yuragi shunday ura boshladiki, urganini eshitib, goh qizarib, goh bo'zarib, yana qizarib borayotganligini sezib turardi.

Shtal xonim qo'lida bo'lgan vaqtidagi ahvoldidan keyin Koznishevday odamning xotini bo'lish - Varenkaga ulug' baxt edi. Bundan tashqari, unga ishqilushib qolganiga ham imoni qariyb komil edi. Mana hozir shu masala hal bo'lishi kerak. Varenkani vahima bosardi. Sergey Ivanovich aytadigan gaplar ham, aytmaydigan gaplar ham uni qo'rquvgaga solardi.

Izhor muhabbat payti kelgan edi, sal o'tsa payt qo'ldan ketardi. Buni Sergey Ivanovich ham sezib turardi. Varenkaning butun borlig'i, qarashlari, qizargan betlari, yerga tikilib qolgan ko'zлari dardmand intizorligidan darak berardi. Sergey Ivanovich buni ko'rib turar, Varenkaga yuragi achishardi. Hozir hech nima demaslikning o'zi Varenkani tahqir etishini ham sezib turardi. Qarori foydasiga bo'lgan dalillarini shoshib miyasida takrorladi. Taklif chog'ida ishlatmoqchi bo'lgan so'zlarini ham ko'nglida takrorlab chiqdi; lekin bu so'zlarni ishlatish o'rniga, miyasiga ittifoqo kelib qolgan allaqanday mulohaza bilan:

– Oq qo'ziqorin bilan pushtisining orasida qanaqa farq bor? – deb birdan so'rab qoldi.

Javob berayotganda Varenkaning lablari hayajondan titrab ketdi.

– Qalpog'ida farq yo'q desa bo'ladi, faqat tomirida.

Bu so'zlardan keyin Sergey Ivanovich ham, Varenka ham ish bitganini, aytlishi kerak bo'lgan narsalar endi aytimasligini, hozirgina eng yuqori nuqtasiga chiqqan hayajonlari pasaya borganligini payqadi.

– Qayin qo'ziqorinning tomiri – ikki kun qirilmagan qora soqolga o'xshaydi, – dedi Sergey Ivanovich endi hovuridan tushib.

– Ha, to'g'ri aytdingiz, – deb Varenka ham kulimsirab qo'ydi; shundan keyin yo'llari beixtiyor o'zgardi. Bolalar tomonga yaqinlashib kelishdi. Varenka uyalib, dili og'rib tursa ham, lekin endi o'zini ancha yengil tortayotgandek sezaga boshladi.

Sergey Ivanovich uyg'a qaytgandan so'ng dalillarini bir-bir xayolidan o'tkazib, noto'g'ri mulohaza qilganligini aniqladi. U Marie xotirasiga xiyonat qila olmas edi.

Bolalar suyunishib, chinqirishib ro'paradan chopib kela boshlaganda, Levin xotinini ulardan saqlash uchun oldinga o'tib:

– Sekin, bolalar, sekinroq, sekinroq! – deb qichqirdi zardasi qaynab.

Bolalardan keyin o'rmondan Sergey Ivanovich bilan Varenka ham chiqib keldi. Kiti Varenkadan hol so'rashga ehtiyoj sezmadni;

ikkovlarining vazmin, birmuncha xijolatli yuzlaridan o'z rejasining ro'yobga chiqmaganligini anglatdi.

Uyga qaytib kelishayotganda, eri:

– Xo'sh, nima bo'pti? – deb so'radi.

Kiti otasinikiga o'xshagan bir qiliq bilan jilmayib turib:

– Ilinmabdi, – dedi; Levin ko'pincha Kitining otasiga o'xshab gapirishini sezib, zavqi kelardi.

– Ilinmabdi?

– Ha-da, – dedi Kiti erining qo'lini ushlab, keyin uni og'ziga keltirdi-yu, yumuq lablarini tekkizib qo'ydi. – Arxiyereyning qo'lini shunday o'pishadi.

– Kimning qarmog'i ilmabdi? – deb so'radi Levin kulib.

– Ikkoviniki ham. Lekin mana bunday...

– Mujiklar kelishyapti...

– Yo'q, ko'rishgani yo'q.

VI

Bolalarga choy ichirish paytida kattalar go'yo hech nima ro'y bermagandek balkonda bemalol o'tirishardi, holbuki hamma, ayniqsa, Sergey Ivanovich bilan Varenka salbiy ma'noda bo'lsa ham, lekin juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan narsa yuz bergenini yaxshi bilardi. Imtihondan o'tolmay yana eski sinfida qolgan yoki maktabdan butunlay o'chirilgan o'quvchi shunday paytlarda nimani his etsa, Sergey Ivanovich bilan Varenka ham xuddi shunday narsani his etar edi. Balkondagilar ham bir nima ro'y bergenini sezishib, jo'rttaga boshqa to'g'rilarda gaplashar, chaqchaqlashib o'tirishardi. Levin bilan Kiti shu oqshom o'zlarini juda ham baxtiyor, oshiq-ma'shuqdek his qilardi. Ularning o'z ishqlari bilan baxtiyor ekanliklari shunday bo'lishini xohlagan, keyin uddasidan chiqolmaganlarga dilni xira qiluvchi bir ishora bo'lib tuyular, ular bundan xijolat chekardilar.

– Meni aytdi deyarsizlar: Alexandre kelmaydi, – dedi qari knyaginiya.

Bugun kechqurungi poyezdda Stepan Arkadichning kelishini kutishayotgan edi; qari knyaz ham «borib qolsam ajab emas» deb yozgan edi.

– Nima uchun kelmasligini ham bilaman, – dedi yana knyaginya, – yosh kelin bilan kuyovni dastlabki kunlarda xoli qo'yish kerak, deydi.

– Ha, dadam shunday qildilar. Ko'rishmaganimizga qancha bo'ldiyu, – dedi Kiti. – Qiziq, biz qanaqasiga yosh kelin bilan kuyov bo'lar ekanmiz? Allaqachon qarib qolganmiz.

Knyaginya qayg'uli xo'rsinib:

– Mabodo kelmasa, men ham sizlar bilan xayr-ma'zur qilaman, bolalarim, – dedi.

– Voy, sizga nima bo'ldi, oyijon? – deb g'avg'o ko'tardi ikkala qizi birdan.

– Rost-da, hech parvoyiga kelmaydi! Axir hozir...

Qari knyaginyaning ovozi birdan qaltirab ketdi, bunday bo'lishini hech kim kutmagan edi. Qizlari jim bo'lishib, bir-birlariga qarab olishdi. Ular shu qarashlarida: «Oyimlar hamisha o'zlarini xafa qiladigan bahona topib turadilar» deyishardi. Onasining qizlari oldida turishi har qancha halovatli bo'lsa ham, bu yerda turishni onasi har qancha zarur deb bilsa ham, arzanda qizini erga berib yuborishgandan so'ng oila inlari huvillab qolgani sababli, u o'z qadri uchun ham, erining qadri uchun ham qayg'urib qiynalayotganini qizlari bilishardi.

Kiti Agafya Mixaylovnanning sirli va ma'noli bir qiyofada kelib to'xtaganini ko'rди-yu:

– Nima kerak edi, Agafya Mixaylovna? – deb birdan so'rab qoldi.

– Kechki ovqat to'g'risida keluvdim.

– Juda soz, – dedi Dolli, – sen borib ovqat masalasini hal qil, men chiqib Grishaning darsini takrorlatay. Bugun darsiga hech qaragani yo'q.

– Bu gapingiz menga saboq bo'ldi! Yo'q, Dolli, men boraman, – dedi Levin o'mnidan dast turib.

Grisha bu yil gimnaziyaga kirgani uchun o'tgan darslarini yozda qaytarishi kerak edi. Moskvada o'g'li bilan birga lotin tilini o'rgana boshlagan Darya Aleksandrovna Levinlarnikiga kelgandan keyin arifmetika va lotin tili darslarining eng qiyin joylarini loaqal har kuni bir marta takrorlab turishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan edi. Levin esa uning o'mniga o'zi shug'ullanmoqchi bo'ldi; ammo onasi Levin o'tkazgan darsni bir marta ko'rди-yu, u darslarini Moskvadagi

muallim singari takrorlamayotganligini sezib, darslarini muallim singari kitob bo'yicha o'tkazish kerakligini aytdi; u buni Levinning izzat-nafsiiga tegmaslikka tirishib, iymanib turib aytgan bo'lsa ham, lekin bu ish bilan yana o'zi shug'ullansa? durustroq bo'lishini qat'iy qilib aytdi. Levin Stepan Arkadichning beparvoligiga xafa bo'ldi, chunki Stepan Arkadich o'rniغا bu darsdan hech baloni bilmaydigan xotini shug'ullanib kelardi: Levin bolalarni shunday yomon o'qitib kelayotgan muallimlardan ham xafa bo'ldi; shunday bo'lsa ham darsni qayinegachisi xohlagandek olib borishga va'da qildi. Shunday, Grisha bilan o'z usulida emas, kitob talab qilgan usulda shug'ullanar, shu sababli mashg'uilotga uncha qiziqmay, dars soatlarini ko'pincha esidan chiqarib qo'yardi. Bugun ham shunday bo'ldi.

– Yo'q, men boraman, Dolli, sen o'tir, – dedi Levin. – Hamma darsni kitobga qarab, tartibi bilan takrorlaymiz. Faqat bir sharti bor: Stiva kelganda, ikkalamiz ovga ketamiz, ana shunda dars dam olib turadi.

Shundan keyin Levin Grishaning yoniga chiqib ketdi.

Varenka ham Kitiga shunday dedi. Varenka Levinlarning baxt kirgan uyida ham o'z o'mini topib olgan edi.

– Ovqat masalasiga qaray, siz o'tiring, – dedi Varenka Agafya Mixaylovnaning yoniga borib.

– Xo'p, xo'p; jo'ja topishholmabdi. Bo'lmasa o'zimiznikilardan... – dedi Kiti.

– Agafya Mixaylovsingari bilan evini qilarmiz, – dedi-yu Varenka, ikkovlashib chiqib ketdi.

– Qanday dilbar qiz! – dedi knyaginya.

– Dilbargina emas, maman, shunday jonon qizki, bunaqasini topib bo'lmaydi.

Sergey Ivanovich Varenka to'g'risidagi gapni davom qildirgisi kelmadidi, shekilli:

– Shunday qilib, bugun Stepan Arkadich keladi, denglar? – dedi. Keyin nozikkina jilmayib, qo'shib qo'ydi: – Bir-biriga sira ham o'xshamagan ikki bojani topish juda qiyin-da. Biri baliq suvda yashaganidek, jamoat orasida yashaydigan tetik odam; ikkinchisi bizning Kostyamiz, bu ham tetik, tez, hamma narsaga sezgir, ammo jamoat orasiga kirdi deguncha yo kesak bo'lib oladi yoki yerdagi baliq singari bekorga qilpanglay boshlaydi.

— Ha, shunaqa yengiltak juda, — dedi knyaginya Sergey Ivanovichga qarab. — Sizdan bir nimani iltimos qilmoqchi edim: Kostyaga aystsangiz, uning (Kitiga ishora qildi) bu yerda qolishi to‘g‘ri kelmaydi, albatta, Moskvaga borishi kerak. Kostya doktor chaqiramiz, deydi.

— Maman, u hammasini qiladi, hamma narsaga rozi bo‘ladi, — dedi Kiti, bu to‘g‘rida Sergey Ivanovichni hakamlik qilishga da’vat etayotgani uchun onasidan xafa bo‘lib.

Gaplarining yarmida xiyobondan otlarning pishqirgani va g‘ildiraklarning shag‘alda shig‘irlagani eshitildi.

Dolli erini kutib olgani o‘rnidan turishga ulgurmay, Grisha dars o‘qiyotgan xona derazasidan Levin o‘zini tashqariga tashlab, Grishani ham tushirdi-da:

— Stiva keldi! — deb balkon tagidan qichqirdi. — Darsni tamomladik, qo‘rqma, Dolli! — dedi-yu, keyin xuddi yosh bola singari arava kelayotgan tomonga qarab chopib ketdi.

— Is, ea, id, ejus, ejus, ejus¹, — deb Grisha ham qichqirib, xiyobon bo‘ylab irg‘ishlay ketdi.

— Yana bir kishi ham bor. Iya, dadamlar-ku! — deb qichqirdi Levin xiyobon og‘zida. — Kiti, tik zinadan tushma, orqadan tush.

Ammo Levin aravada o‘tirgan ikkinchi kishini qari knyaz deb o‘ylab xato qilgan edi. Aravaga yaqin kelib qarasa, Stepan Arkadich yonida o‘tirgan kishi qari knyaz emas, uzun lentalarini orqaga tushirib qiyib olgan shotlandcha qalpoqli xushro‘y, bo‘liq bir yigit ekan. Stepan Arkadich uni «ancha-muncha shuhratga ega bo‘lgan ishqiboz ovchi» deb tanishtirdi; bu «ishqiboz ovchi» — Peterburg, Moskvaning jonon yigitlaridan biri, Shcherbatskiy bo‘lasining o‘g‘li — Vasenka Veslovskiy edi.

Veslovskiy qari knyaz keldi deb o‘ylagan Levinning hafsalasini pir bo‘lganidan tirnoqcha ham xijolat tortmay, Levin bilan chaqchaq urib ko‘rishdi-da, eski tanishliklarini esga olib o‘tgandan so‘ng Grishani ko‘tardi-yu, Stepan Arkadich o‘zi bilan olib yuradigan tozi it ustidan oshirib, uni aravaga o‘tqazib qo‘ydi.

Levin aravaga chiqmadi; orqadan bordi. Qari knyazning kelmagani unga picha alam qildi, chunki Levin yaqinroq bilgan sari unga muhabbat ortib borardi: innaykeyin, mana bu tamoman

¹ U, u, u, uni, uni, uni (*lotin.*).

yet, ortiqcha kishining, Vasenka Veslovskiyning kelganiga ham ta'bi ancha xira bo'ldi. Levin katta-kichiklar chug' urlashib turgan eshik zinasi oldiga kelib, Kitining qo'lini Vasenka Veslovskiy navozish bilan o'pib turganini ko'rganda, u yana ham yet, yana ham ortiqcha kishi bo'lib ko'rinish ketdi.

— Biz xotiningizning cousins¹ va eski tanishlari bo'lamiz, — dedi Vasenka Veslovskiy Levinning qo'lini yana qattiq-qattiq qisib.

Stepan Arkadich hamma bilan zo'rg'a so'rashib bo'lib, apil-tapil Levindan:

— Qalay, ov bormi? — deb so'radi. — Biz bu kishi bilan belni qattiq bog'lab kelganimiz. Bo'lmasa-chi, maman, ular o'shandan beri Moskvada bo'lishgani yo'q. Qani, Tanya, mana senga! Baraka topkur, aravaning orqasida, ol, — derdi Stepan Arkadich, hamma bilan gaplashib. — Biram ranging tozaribdiki, Dolliginam, — dedi xotiniga, qo'lini yana bir marta o'pib; keyin qo'lini qo'yib yubormay, ustidan ikkinchi qo'li bilan urib-urib qo'ydi.

Bir daqiqacha ilgari kayfi nihoyatda chog' bo'lib o'tirgan Levin hammaga qovoqlarini osiltirib qarar, hamma narsa ta'bini xira qilar edi. Stepan Arkadichning xotiniga mehribonlik qilayotganiga qarab: «shu lablari bilan kecha kimni o'pgan ekan?» deb o'ylab ketdi. So'ngra Dolliga qaradi, Dolli ham unga manzur bo'lmadi.

«O'zi-ku erining sevgisiga ishonmaydi. Shunday bo'lgandan keyin, yana nimaga suyunadi-ya? Naqadar jirkanch narsa!» — deb o'ylandi Levin.

Bir daqiqagini ilgari ko'ziga shunday issiq ko'rinish turgan knyaginyaga ham qaragisi kelmasdi, uning ana shu lentali Vasenkani xuddi o'z uyiga taklif qilayotgandek qilpanglab salomlashishi yoqmadи.

Oblonskiyni akasi yomon ko'rganligini, tirnoqcha hurmat qilmaganligini Levin bilardi; lekin hozir Stepan Arkadichni zinaga chiqib qalbaki bir do'stlik bilan kutib olgani uchun hatto Sergey Ivanovich ham hozir ko'ziga juda xunuk ko'rinish ketdi.

Hozirgina qanday qilib erga tegib olsam ekan, deb o'ylab turganiga o'zining sainte nitouche² siymosiga qaramay, ana shu

¹Qarindoshlari (*frans.*).

²Avliyonusxa (*frans.*).

janob bilan tanishayotgani uchun Varenka ham ko'ziga xunuk ko'riniq ketdi.

Qishloqqa kelganiga o'zi uchun ham, boshqalar uchun ham go'yo bayram deb qarayotgan ana shu janobning vaqtichog'ligiga qo'shilib vaqtichog'lik qilayotgani uchun hammadan ko'ra ko'proq Kiti jirkanch ko'rinar, ayniqsa, o'sha janob tabassumiga bo'lakcha tabassum bilan javob qilgani uchun joni chiqardi.

Hammasi chug'urlashib uyg'a kirishdi; lekin o'tirishar-o'tirishmas Levin eshikka chiqib ketdi.

Eriga bir nima bo'lganini Kiti darhol payqadi. U payt poylab turib eri bilan ovloqda gaplashmoqchi bo'ldi-yu, lekin eri kontorada ishi borligini aytib o'zini olib qochdi. Xo'jalik ishlari ko'p vaqtlardan beri bugunchalik muhim ko'rinnagan edi. «Uyda ular bayram qilishyapti, – deb o'ylardi Levin, – bu yerda bayram yo'q, bu yerda ish bor, bu ish kutmaydi, busiz yashab bo'lmaydi».

VII

Levin o'zini kechki ovqatga chaqirgani odam yuborishganidan keyingina uyg'a qaytib keldi. Kiti bilan Agafya Mixaylovna zinada ovqat mahalida beriladigan vino to'g'risida maslahatlashib turishgan edi.

– Nimaga bunaqa fuss¹ qilasizlar? Odatda, beriladiganini beraveringlar.

– Yo'q, Stiva ichmaydi... Kostya, to'xta, nima bo'ldi senga? – deb Kiti erining orqasidan ergashdi, lekin u Kitini kutmay, rahm ham qilmay katta odimlar bilan ovqatxonaga kirdi-da, Vasenka Veslovskiy bilan Stepan Arkadich qizitib turgan umumiy suhbatga darhol qo'shilib ketdi.

– Xo'sh, ertaga ovga chiqamizmi? – deb so'radi Stepan Arkadich.

Veslovskiy boshqa stulga bir yoni bilan o'tirdi-da, semiz oyog'ini ostiga olib turib:

– Jonim bilan, chiqaveramiz, – dedi.

– Juda soz chiqamiz. Bu yil ovga hech chiqdingizmi? – dedi Levin Veslovskiyiga, uning oyog'iga razm solib; u shunday yasama

¹ G'alva (ingl.).

bir muloyimlik bilan gapirdiki, Kiti buni juda yaxshi bilar, o‘ziga ham hech qovushmay turardi. – Loxyo‘rak topiladimi-yo‘qmi, bilmayman, lekin moshaklar ko‘p. Faqat barvaqt borish kerak. Siz charchab qolmaysizmi? Sen charchaganing yo‘qmi, Stiva?

– Menmi? Hali dunyoga kelib charchash nimaligini bilgan odam emasman. Kelinglar, kechasi bilan uxlamaylik! Aylangani chiqamiz.

– To‘g‘ri, uxlamaymiz! Juda soz! – dedi Veslovskiy quvvatlab.

– U, bunga hech gumonimiz yo‘q, ha, o‘zing ham uxlamaysan, boshqalarni ham uxlatmaysan, – dedi Dolli eriga bilinar-bilinmas kinoya bilan. Dolli keyingi vaqtarda eriga hamisha shu xil kinoya bilan muomala qilardi. – Meningcha, bas endi, yotish kerak... ovqatga tobim yo‘q, chiqib ketaman.

Stepan Arkadich ovqatlanib o‘tirishgan katta stolga, Dolli tomonga o‘tayotib:

– Yo‘q, picha o‘tir, Dolliginam, – dedi, – hali senga aytip beradigan gaplarim ko‘p.

– Quruq gap.

– Bilasanmi, Veslovskiy Annalarnikiga boribdi. Yana o‘shalarnikiga ketyapti. Shu yerdan faqat yetmish kilometr narida turishadi, xolos. Men ham, albatta, borib kelaman. Veslovskiy, bu yoqqa kel!

Vasenka xonimlar tomonga o‘tib, Kitining yoniga o‘tirdi.

– Voy, siz bordingizmi? Qani, ayting-chi? – dedi Darya Aleksandrovna Vasenkaga yuzlanib.

Levin stolning narigi uchida qoldi-da, knyaginya hamda Varenka bilan gaplashib o‘tirib, Stepan Arkadich, Dolli, Kiti va Veslovskiylar o‘rtasida qizg‘in, sirli gap borayotganini ko‘rib turdi. Gap ketayotganligi-ku mayli-ya, yana allanimalarni hayajon bilan gapiroyotgan Vasenkaning chiroyli yuziga ko‘zlarini tikib mahliyo bo‘lib qolgan Kitining yuzidagi jiddiy tuyg‘u nishonalarini ham ko‘rib turdi.

– Juda yaxshi turishar ekan, – deyardi Veslovskiy Vronskiy bilan Anna to‘g‘risida. – Hakamlik vazifasini, albatta, zimmamga ololmayman-u, lekin uylariga kirgan odam o‘zini chinakam oilada his qiladi.

– Nima qilishmoqchi emish?

- Nazarimda, qishni Moskvada o‘tkazishmoqchi.
- Ularnikiga bir vaqtida borsak, alomat bo‘lardi-da! Sen qachon borasan? – deb so‘radi Stepan Arkadich Vasenkadan.
- Iyul oyini o‘shalarnikida o‘tkazaman.
- Sen ham borasanmi? – deb so‘radi Stepan Arkadich xotinidan.
- Qachonlardan beri ko‘rgim kelib yuradi, albatta, boraman, – dedi Dolli, – Annaga juda yuragim achishadi, men bilaman uni. Ajoyib xotin. Sen ketganingdan keyin o‘zim yolg‘iz boraman, hech kimga malol keltirmayman. Sensiz borsam yaxshiroq ham bo‘ladi.
- Juda soz, – dedi Stepan Arkadich. – Xo‘s, senchi, Kiti?
- Menmi? Men borib nima qilaman? – dedi Kiti qip-qizarib. Shundan keyin darhol eriga o‘girilib qaradi.
- Siz Anna Arkadevna bilan tanishmisiz? – deb so‘radi Kitidan Veslovskiy. – Juda xushjoziba bir xotin-da.

Kiti yana besh battar qizarib, Veslovskiyga:

- Ha, – deb javob berdi-yu, o‘rnidan turib erining oldiga keldi.
- Rostdan ham ertaga ovga chiqib ketasanmi? – deb so‘radi eridan. Shu bir necha daqiqa davomida, ayniqsa, Kiti Veslovskiy bilan gaplashib turganda ikki beti qip-qizarib ketganidan Levinning rashki juda ham kuchayib ketdi. Hozir Kiti aytgan so‘zlarni eshitib, ularga o‘zicha ma’no berib turardi. Keyincha bu narsalarni eslab, hayron qolgan edi. Hozir Kiti o‘zidan ovga borish-bormasligini so‘rayotganda, ovga borib Vasenka Veslovskiyni xursand qilarmikan, degan bir umid bilan so‘rayotgandek, o‘zining nazaricha, Kiti Veslovskiyga allaqachon oshiqlib qolgandek tuyular edi.

– Ha, boraman, – deb javob qildi Levin o‘ziga ham jirkanch ko‘ringan g‘ayritabiyy bir ovoz bilan.

– Yo‘q, ertaga ham sabr qilinglar, axir Dolli erini ko‘rmaganiga ancha bo‘ldi-ya! Indinga boringlar, – dedi Kiti.

Kiti aytgan so‘zlarning ma’nosini Levin bu xilda tushundi: «Meni undan judo qilma. Sen ketsang – sadqayi sar, lekin bu go‘zal yigitni qo‘y, to‘yib olay».

– Agar sen xohlasang, ertaga ham shu yerda bo‘lamiz, – dedi Levin bo‘lakcha bir xushmuomalalik bilan.

Bu orada Vasenka o‘zining shu yerdaligi bilan Levinga iztirob berayotganligiga zarracha ham gumon qilmay, Kitidan keyin o‘rnidan

qo‘zg‘aldi-da, jilmayib turgan mehr to‘la ko‘zlarini Kitidan uzmay, orqasidan ketdi.

Levin uning ko‘z tashlashini ko‘rdi. Rangidan qon qochdi, bir daqiqacha nafas ololmay qoldi. «Xotinimga shu xil qarashga qanday yo‘l qo‘ya olaman!» – dedi g‘azabi qaynab.

Veslovskiy stulga o‘tirib, oyoqlarini odaticha yana tagiga qayirib turib:

– Demak, ertaga? Juda soz, boraylik, – dedi.

Levinnинг rashki yana battar kuchaydi. U o‘zini aldangan er deb, xotini bilan o‘ynashiga faqat aysh-ishrat va rohat baxsh etishi uchungina kerak bo‘lgan er deb his qila boshladи... lekin, shunday bo‘lsa ham, mehribonlik va mehmondo‘stlik bilan Vasenkadan qilgan ovlarini, miltig‘ini, etiklarini surishtirib, ertaga ovga chiqishga rozi bo‘ldi.

Levinnинг baxtiga qari knyaginya o‘midan turdi-yu, Kitini ham kirib yotishga ko‘ndirdi va shu bilan Levinnинг qiynalishlariga xotima berdi. Lekin bu narsa ham Levin uchun azobsiz o‘tmadi. Vasenka uy bekasi bilan xayrashib turib, yana qo‘lini o‘pmoqchi bo‘lgan edi, Kiti qizardi-da (keyin shu qilig‘i uchun onasidan dakki eshitgan edi), soddacha bir qo‘pollik bilan qo‘lini tortib olib:

– Bizda bunaqa odat yo‘q, – dedi.

Kiti mana shunday munosabatga yo‘l qo‘ygani uchun Levinnинг nazarida aybdor edi, bu munosabat o‘ziga yoqmaganligini noshudlik bilan ko‘rsatgani uchun esa besh battar aybdor ko‘rinib ketdi.

Stepan Arkadich ovqat mahalida bir necha stakan vino ichganidan keyin odatdagи dilbar, shoirona kayfiyatiga kelib:

– Ey, uyquga balo bormi! – dedi. Keyin lipa daraxtlari orqasidan ko‘tarilib kelayotgan oyni Kitiga ishora qilib: – Uni qara, Kiti, qanday chiroyli! – dedi. – Veslovskiy, zap ishqiy ashula aytadigan palla keldi-da! Men senga aytsam, rost ovozi bor ekan, yo‘l bo‘yi ashula aytishib keldik. Ajoyib romanslar olib kelgan, ikkitasi yangi. Varvara Andreyevna bilan jo‘r bo‘lib aytsakmi!

Hamma tarqalgandan so‘ng Stepan Arkadich Veslovskiy bilan xiyobonda uzoq aylanib yurdi, yangi romansini jo‘r bo‘lib aytishganlari eshitilib turdi.

Levin xotinining yotog‘idagi kursida qosh-qovog‘ini solib o‘tirib bu ashulani eshitar, xotinining: «nima bo‘ldi?» degan savoliga

javob qilmay sukut saqlardi; nihoyat, Kitining o‘zi yuraksizlik bilan jilmayib: «Nima balo, Veslovskiy jiningga yoqmadi, shekilli?» deb so‘raganda, toqat qilolmadi-yu, ko‘nglidagi gaplarining hammasini bir-bir ochib soldi; aytgan gaplari o‘ziga tahqir bo‘lib eshitilar, bundan besh battar joni chiqib borardi.

Levin Kitining oldida osilib tushgan qovoqlari ostidagi ko‘zlarini vahimali chaqnatib va butun kuchi bilan o‘zini bosishga harakat qilayotgandek baquvvat qo‘llarini ko‘ksiga qo‘yib turardi. Agar yuzi ayni zamonda Kitiga ham ta‘sir qilayotgan iztirob nishonalar bilan to‘lib-toshganda, yana ham qo‘rquinchli, hatto dahshatli bo‘lib ketardi. Levinning yuzi lip-lip uchib turar, bo‘g‘ilardi.

– Tushunsang-chi, men rashk qilmayman: bu razil so‘z. Men rashk ham qilolmayman, ishona ham olmayman, sezib turgan narsalarimni aytishga tilim bormaydi, lekin bu narsalar mudhish narsalar... men rashk qilmayman, lekin senga birov shunday ko‘z bilan qarasa, shunday o‘yga kelsa, meni bu narsa tahqir qiladi, yerga uradi...

– Qanaqa ko‘z bilan axir? – dedi Kiti, bugun kechqurun aytilgan so‘zlarni, qilingan harakatlarni va ularning zamirlarini astoydil eslashga tirishib.

O‘zining orqasidan stolning narigi uchiga o‘tganda, bir nima bo‘lgandek tuyulganini ko‘nglining bir chekkasida sezib tursa ham, lekin bu narsaga hatto o‘zi ham iqror bo‘lishga jur’at etolmasdi, buni eriga aytishga, shu bilan uning iztirobini oshirishga botinolmadi.

– Ayt axir, menda qanaqa joziba bor, qanaqaman men?..

– Ax! – deb qichqirdi Levin boshini changallab. – Shu gapni aytmasayding!.. Demak, sen jozibali bo‘lganingda...

– Hay, Kostya, quloq sol, axir! – dedi Kiti dard, iztirob to‘la ko‘zlar bilan qarab. – Miyangga qanaqa o‘y kelishi mumkin? Axir mening ko‘zimga, hech kim, hech kim, hech kim ko‘rinmaydi!.. Yo odamlarga ko‘rinmaymi, shuni xohlaysanmi?

Uning rashk qilayotganini ko‘rib, Kitining dastlab xo‘rligi keldi; ko‘nglida hech qanday qora niyati bo‘lmasa, ko‘nglini ozgina bo‘lsa ham ochay desa, bunga yo‘l qo‘yilmagani alam qilardi; endi esa uni tortayotgan azobidan qutqarish, xalos qilish, ko‘nglini tinchitish uchun bu xil ko‘ngil xushliginigina emas, hamma narsani fido qilishga tayyor edi.

– Juda xunuk, juda kulgili ahvolga tushib qolganimni tushunsang-chi, axir, – u hamon joni chiqib turib shivirladi: – axir u mening uyimda betakalluflik bilan oyog‘ini tagiga tortib o‘tirishidan boshqa biron nojo‘ya ish qilgani yo‘q. U o‘zining bu qiliqlarini yaxshi qiliq deb hisoblasa kerak, shuning uchun u bilan yaxshi mulozamatda bo‘lishim lozim.

Kiti erining rashk qilishidan o‘zini juda qattiq sevishini anglatdi; shuning uchun yurak-yuragidan quvonib:

– Hay, Kostya, oshirib yuboryapsan, – dedi.

– Hammasidan yomoni shuki, sen hamma vaqt, hozir ham men uchun tabarruk bir xilqat bo‘lib qolgan bir paytingda, biz shu qadar baxtli, ayniqsa, baxtli bo‘lib yurgan bir paytimizda, birdan bu rasvo ro‘paramizdan chiqsa-ya... rasvo emas, nega haqorat qilaman uni? U bilan ishim yo‘q. Lekin mening baxtim, sening baxting nega qora bo‘lsin?..

– Menga qara, nega bunaqa bo‘lganini bilaman, – deb Kiti gap boshladi.

– Nega? Nega?

– Ovqat ustida gaplashib o‘tirganimizda xo‘mrayib qaraganingni ko‘ruvdim.

– Ha, ha! – dedi Levin cho‘chib.

Kiti o‘sanda nimadan gaplashganlarini aytib berdi. Aytib turib, hayajonidan nafasi bo‘g‘ilib-bo‘g‘ilib qolar edi. Levin biroz jim qoldi, keyin Kitining qoni qochgan, vahima bosgan yuzini ko‘rib, birdan boshini changallab qoldi.

– Katya, seni bekor qiynadim! Kechir meni, jonginam! Axir, bu jinnilik-ku! Katya, hamma ayb menda! Bo‘limg‘ur narsalarni o‘ylab shunaqa qiynalib yurish bema’nilik-ku!

– Yo‘q, senga achinaman, rahmim keladi.

– Menga? Menga? Nima? Jinni bo‘pmanmi!.. Xo‘sh, sen nega achinasan?.. Har qanday odam baxtimizga rahna soladi, deb o‘ylash – ko‘p yomon narsa.

– Albatta, shunisi xo‘rligingni keltiradi-da.

– Yo‘q, men teskarisini qilaman, jo‘rtgaga yoz ichi olib qolib, tevaragida parvona bo‘laman, – deya ketdi Levin Kitining qo‘llarini o‘pib. – Ko‘rasan. Ertaga... Ha, to‘g‘ri, ertaga ovga ketamiz.

VIII

Ertasiga, hali xonimlar uyquda ekanlarida, ov aravalarida, foytun eshik oldida taxt bo‘lib turar, ovga ketishayotganlarini kallayi sahardanoq fahmlab olgan Laska to‘yguncha g‘ingshib, irg‘ishlab bo‘lgandan so‘ng haligacha chiqavermagan ovchilarning imillashidan norozi bo‘lib kucher yonida hayajonli ko‘zлari bilan eshikka qarab o‘tirar edi. Hammadan oldin Vasenka Veslovskiy chiqdi; oyoqlarida uzun qo‘nji yo‘g‘on sonlarigacha yetib borgan yangi, kattakon etik, egnida – uzun ko‘k ko‘ylak, belida terining hidi kelib turgan yangi o‘qdon, boshida o‘zining lentali qalpog‘i, qo‘lida ipsiz-qayishsiz yangi ingliz miltig‘i bor edi. Laska sakrab uning oldiga borib irg‘ishladi, keyin: «Ular tez chiqishadimi?» deb so‘raganday bo‘ldi-yu, lekin javob olmadı; ana shundan keyin yana o‘z joyiga qaytib kelib, boshini bir yonga burdi-da, qulog‘ini ding qilib, shu ko‘yi qotib turdi. Nihoyat, eshik taraqlab ochildi-yu, irg‘ishlab, umbaloq oshib, Stepan Arkadichning ola-bula ovchi iti Krak otilib chiqdi; it ketidan qo‘lida miltiq, og‘zida sigara bilan Stepan Arkadichning o‘zi ham chiqdi. U qorniga, ko‘kragiga panjalarini qo‘yib, ov xaltasiga tarmashayotgan itiga: «Tubo, tubo, Krak!» – deb mehr bilan o‘shqira boshladi. Stepan Arkadich choriq, yirtiq chalvor va kalta palto kiyib olgan edi. Boshida allaqanday ko‘hna shlapa bor edi, lekin yangi tizimli miltig‘i qo‘g‘irchoqdek edi, o‘qdoni bilan ov xaltasi ancha tutilgan bo‘lsa-da, asl moldan qilingan edi.

Ovchilarning bunaqa oliftagarchiliklariga, ya’ni engil-boshi juldur bo‘lsa ham, ov asboblarining a‘lo sifatda bo‘lishiga oldin Vasenka Veslovskiyning fahmi yetmas edi. Keyin bu juldur ichida o‘zining zeboligi bilan, bo‘liqqina bardam qomati, sho‘x qiyofasi bilan charaqlab turgan Stepan Arkadichga qarab, buning siriga tushundi. Vasenka Veslovskiy:

- Xo‘s, xo‘jayinimiz nima bo‘ldi? – deb so‘ragan edi, Stepan Arkadich:
 - Xotinchasi yosh-da, – dedi kulimsirab.
 - Yana uning jononligini aytmaysanmi?
 - Kiyinib bo‘lgan edi. Yana xotinining yoniga chiqib ketgan, shekilli.

Stepan Arkadich to‘g‘ri topgan edi. Levin xotinining yoniga kechagi bema’niligini kechirganmi-yo‘qligini yana bir marta so‘ragani, innaykeyin, o‘ziga ehtiyotroq bo‘lib yurishini yana bir qur iltimos qilgani, ayniqsa: «xudo haqi, xususan bolalardan o‘zingni tortibroq yur, tegib ketishadi yo turtib yuborishadi», deb ogohlantirgani chopib chiqib ketgan edi. Bundan tashqari, o‘zi ikki kunga ketayotgani uchun xafa bo‘lmananini yana bir marta o‘z og‘zidan eshitishi, so‘ngra ertaga ertalab ikki enlik xat bilan orqasidan ot choptirib, o‘zining sog‘-u salomatligi to‘g‘risida xotirjam qilib qo‘yishni ham iltimos etishi kerak edi.

Har vaqtdagidek, erini ikki kun ko‘rmaslik Kiti uchun har qancha og‘ir bo‘lsa ham, ovchi etiklarda va oq uzun ko‘ylakda yana ham zabardast, baquvvat ko‘ringan tetik qomatini, ovchilarga xos bir hayajon bilan ko‘zlar oldida charaqlab turganini ko‘rib, xushvaqtlik bilan xayrashdi, erining shodligini ko‘rib, o‘z qayg‘usini esidan chiqardi.

Levin tashqariga chiqa solib:

– Kechirasizlar, janoblar! – dedi. – Ovqatni oldinglarmi? Nega jiyronni chap yoqqa qo‘shdinglar? Xayr, mayli, Laska, joyingda o‘tir!

Eshik oldida o‘zini kutib turgan molboqar, qo‘zilarni nima qilamiz, deb so‘raganida:

– Bichilgan qo‘ylar suruviga qo‘shib qo‘y, – dedi Levin. – Kechirasizlar, xudoning yana bitta balosi kelyapti.

Levin endi o‘tirib olgan aravadan sakrab tushib, qo‘lida sajen bilan eshik tomon kelayotgan duradgorga to‘g‘ri bo‘ldi.

– Buni qara, kecha kontoraga kelmading, mana endi yo‘limni to‘sib turibsan. Nima deysan?

– Xo‘p desangiz, yana bir o‘zgartish kirtsam. Atigi uchtagina pog‘ona qo‘shiladi. Shunday qilsak, joyiga tushadi, juda bopta bo‘ladi.

– Mening aytganimni qilavergin edi, – dedi Levin bo‘g‘ilib. – Senga yon tiraklarni o‘rnatib, keyin pog‘onalarni qoq devdim. Endi to‘g‘rilayolmaysan. Mening aytganimni qilaver – yog‘och chopib boshqatdan qil.

Bu mojaroning asli bunday edi: yangi solinayotgan uyning zinapoyasini duradgor buzib qo‘ygan edi: u yog‘ochlardan alohida zinapoya qilgan, zinaning balandligini hisobga olmaganda, zinani joyiga qo‘yganda pog‘onalar yotiq chiqib qolgan. Endi duradgor

yana uchta pog‘onani qo‘shib, o‘sha zinaning o‘zini qoldirmoqchi bo‘ldi.

– Ancha yaxshi bo‘ladi.

– Iya, uchta pog‘ona qo‘shganiningda, qayoqqa chiqib ketishini bilasanmi?

– Qulq solsinlar, – dedi duradgor nafrat bilan jilmayib. – Taxtaning qoq o‘ziga taqaladi. Mana bundoq, – deb duradgor qo‘l harakatlari bilan ko‘rsatdi, – pastdan ko‘tarilib borib, xuddi o‘ziga taqaladi.

– Uchta pog‘ona zinani ham uzaytiradi-ku... qanday qilib taxtaga taqaladi?

– Shunday bo‘ladi, tagidan ko‘tarilib borib, xuddi joyiga tushadi, – derdi duradgor so‘zida qattiq turib.

– Shipga borib, devorga borib taqaladi.

– Yo‘g‘-e, taqsir. Pastdan ko‘tarilib chiqadi-ku, borib-borib, xuddi joyiga taqaladi.

Levin miltig‘ining shompolini olib, zinani yerda chizib ko‘rsatdi.

– Mana, ko‘rdingmi?

Duradgor masalaga oxir tushundi, shekilli, birdan ko‘zlari chaqnab:

– Maylingiz, – dedi. – Yangisini qilmasak bo‘lmaydigan ko‘rinadi.

– Gap shu, men buyurganimcha qil, – deb qichqirdi Levin aravaga tushayotib. – Hayda! Filipp, itlarni ushlab ol.

Levin ro‘zg‘or va xo‘jalik tashvishlarining hammasidan qu‘tulib, endi hayot va umid sevinchiga shu qadar to‘lib-toshgan ediki, hatto gapirgisi ham kelmay qoldi. Bundan tashqari, ov maydoniga yaqinlashib qolgan har qanday ovchining ko‘nglida uyg‘onadigan kuchli hayajon ichida edi. Agar xayolini hozir band qilib turgan bir narsa bo‘lsa, u faqat Kolpeno botqog‘ida biron narsa topa olarmikanmiz-yo‘qmikan, Laska Krakka qaraganda qanaqa ov qilar ekan, o‘zim bu safar qanaqa otar ekanman, degan o‘ylargina edi. Yangi odam oldida o‘sal bo‘lib qolarmikanman? Oblonskiy mendan ko‘proq ov qilib qo‘yarmikan? – degan fikrlar ham miyasiga kelardi.

Oblonskiyning miyasiga ham shu xil o‘ylar kelar, u ham g‘iq etmay o‘tirardi. Faqat Vasenka Veslovskiyning bir o‘zigma og‘zi tinmay gapirib borardi. Levin hozir uning gaplarini eshitib o‘tirib, kecha unga nisbatan nohaq o‘ylar qilganini eslar, xijolat bo‘ldi. Vasenka chindan ham yaxshi, sodda, dilbar, juda xushchaqchaq yigit

edi. Agar Levin u bilan bo‘ydoqlik mahalida ko‘rishgandami, juda qalinlashib olardi. Faqat hayotga aysh-ishrat ko‘zi bilan qaragani va allaqanday bema’ni oliftagarchiliklarigina Levinga manzur bo‘lmadi. Tirnoqlari uzun, boshida shapka va shular qabilidagi narsalari bor bo‘lgani uchun o‘ziga bino qo‘yar edi; lekin bu qilig‘ini odobi va olilianobligi yuvib ketishi mumkin edi. U yaxshi tarbiyasi, ingliz va fransuz tillarida a’lo gapirishi, xususan, Levin muhitiga mansub kishi bo‘lgani tufayli unga yoqib qolgan edi.

Aravaning chap tomoniga qo‘shilgan Don zotli dasht oti Vasenkaga juda yoqib qoldi. Yo‘l bo‘yi unga havasi kelib:

– Dasht otida dalalar bo‘ylab chopish qanday yaxshi-a? Shunday emasmi? – deyardi Vasenka.

Dasht otida sayr-u safo qilishni allaqanday yovvoyi, shoirona bir narsa deb tasavvur qilishda bir ma‘ni yo‘q bo‘lsa ham, lekin soddaligi, ayniqsa, husni, dilbar jilmayishlari, zebo harakatlari bilan birga qo‘shilib, unga ajoyib joziba bag‘ishlab turardi. Tabiatি Levinga xush yoqdimi yo Levin kechagi gunohini yuvish uchun undan faqat yaxshi sifatlarnigina axtarish harakatidami edi, harqalay, Levin u bilan birga bo‘lgani uchun huzur qila boshladи.

Uch chaqirimcha yurishgandan so‘ng, Veslovskiy birdan sigaradoni bilan hamyonini qidirib qoldi; tushurib qo‘yanini ham, uyda, stolda qoldirganini ham bilmas edi. Hamyonida uch yuz yetmish so‘m bor ekan, shuning uchun stolda qoldirib ketib bo‘lmasdi.

– Menga qarang, Levin, shu Don zotli otingizda chopib borib olib kelsam. Juda soz bo‘lardi-da, a? – dedi Veslovskiy otga minish harakatiga tushib.

Levin Veslovskiyning og‘irligi olti pud kelishini chamlab:

– Yo‘g‘-e, siz borib nima qilasiz? – dedi. – Kucherni yuboraman.

Kucher dasht otini minib ketdi, aravani Levin o‘zi haydab bordi.

IX

– Qani, marshrutimiz qanaqa bo‘ladigan bo‘ldi? Yaxshilab aytchi, – dedi Stepan Arkadich.

– Rejamiz bunday: hozir Gvozdevogacha boramiz. Gvozdevo botqoqligining bu yog‘ida moshak bor, Gvozdevodan o‘tilgandan

keyin esa ajoyib loyxo'raklar botqoqligi boshlanadi, moshaklar ham bo'lib turadi. Hozir havo issiq, kechqurun yetib boramiz-u (orasi yigirma chaqirim), kechki dala ovini qilib, tunaymiz, ertaga esa katta botqoqliklar boshlanadi.

– Nima, yo'lda hech narsa yo'qmi?

– Bor, lekin kechikib qolamiz, havo issiq ham. Ikkita quling o'rgilsin joy bor-u, lekin ov bo'ladimi-yo'qmi, bilmayman-da.

O'sha quling o'rgilsin degan joylarga o'zining ham borgisi kelardi-yu, lekin uyga yaqin edi; shuning uchun har vaqt ov qilib ketsa bo'lardi, bundan tashqari, u joylar juda kichik edi, uch ovchi bemalol sig'masdi. Shu sababli, ov bo'ladimi-yo'qmi deb yolg'on aytdi. Kichkina botqoqliqqa yetishganda, Levin o'tib ketavermoqchi bo'lgan edi, lekin Stepan Arkadichning tajribali ovchi ko'zlarini bir qushni darrov sezib qoldi.

– Kirib o'tamizmi? – dedi u botqoqliqqa ishora qilib.

– Levin, kirib o'taylik! O, juda soz joy ekan! – deb Vasenka Veslovskiy ham so'rab qolgan edi, Levin ko'nmaslikning ilojini topolmadi.

Ular to'xtashlari bilan itlar bir-birini quvishib, botqoqliq tomonga chopib ketishdi.

– Krak! Laska!

Itlar qaytdi.

Levin itlardan cho'chib, botqoqlik ustida chirqaray boshlagan loyxo'rakdan boshqasini topisha olmaydi degan o'y bilan:

– Uchovimizga joy torlik qiladi. Men shu yerda kutib turaman, – dedi.

– Yo'q! Yuring, Levin, birga boramiz! – deb turib oldi Veslovskiy.

– Haqiqatan ham torlik qiladi. Laska, qayt! Laska! Sizlarga ikkinchi it kerakmasdir-ku?

Levin arava yonida qolib, ovchilarga hasad ko'zi bilan qarab o'tirdi. Ovchilar botqoqlikni aylanib chiqishdi, yovvoyi tovug'-u, loyxo'rakdan boshqa hech nima yo'q edi; Vasenka bitta loyxo'rak otib oldi.

– Mana, ko'rdinglarmi, botqoqlikni qizg'anganim yo'q edi-da, – dedi Levin, – bekor vaqt ketadi.

– Yo'q, lekin maza qildik. Ko'rdingizmi o'zingiz? – dedi Vaslovskiy bir qo'lida miltiq, ikkinchi qo'lida ov bilan aravaga

qiynalib chiqayotib. – Rosa boplab otdim-da buni! A, shundoq, a? Tezroq kelamizmi chinakam ov qiladigan joyimizga?

Birdan otlar surib ketib, Levin bittasining miltig‘iga boshini urib oldi; poqillab o‘q uzildi. O‘q-ku haqiqatda oldin uzildi-yu, lekin Levinga shunday tuyuldi. Voqeа bunday bo‘lgan edi: Vasenka Veslovskiy qo‘s hog‘iz miltig‘ining tepkilarini tushirayotib, bittasini bilmay bosib yubordi-yu, ikkinchisini ushlab qoldi. O‘q hech kimga zarar yetkazmay yerga borib urildi. Stepan Arkadich boshini tebratib, Veslovskiyga ta’na aralash kulib qo‘ydi. Ammo Levin tanbeh qilishdan tortindi. Levin bunday qilsa, avvalo, o‘tib ketgan xavf uchun va peshonasini g‘urra qilib olgani uchun ta’na qilayotgandek tuyulardi; qolaversa, Veslovskiy oldin o‘zi ham shunday xafa bo‘ldi, keyin hammalari sarosimaga tushganliklaridan shunday yayrab kuldiki, Levinning o‘zi ham kulmasdan turolmadi.

Yana bitta anchagina kattakon botqoqliqqa yaqinlashganlarida, vaqtmi ko‘p olishini bilib, Levin tushmaylik deb maslahat bergen edi, Veslovskiy yana qo‘ymadi. Botqoqlik tor bo‘lgani uchun Levin mehmondo‘stlik qilib, yana arava oldida qoldi.

Botqoqliqqa kelishar-kelishmas, Krak serdo‘ng yerga qarab chopdi, Vasenka Veslovskiy it orqasidan chopdi. Stepan Arkadich yetib kelmasdanoq, bir loyxo‘rak uchib ketdi. Veslovskiyning o‘qi tegmadi, qush borib urilmagan pichanzorga qo‘ndi. Bu qush Veslovskiyga havola qilingan edi. Krak uni yana topib, qush yaqinida to‘xtadi, Veslovskiy otib, aravalari yoniga qaytib keldi.

– Endi siz boring, men otlar yonida turaman, – dedi Veslovskiy.

Ovchilik hasadi Levinning ichini kemira boshladi. Tizglnlarni Veslovskiyga berib, o‘zi botqoqliqqa ketdi.

Egasiningadolatsizligidan zorlanib, boyadan beri g‘ingshib turgan Laska oldinda to‘g‘riga qarab chopib ketdi: u Krak kirmagan, ammo Levinga tanish bo‘lgan ishonchli serdo‘ng yerga o‘zini urdi.

– Nimaga itingni to‘xtatmaysan? – deb qichqirdi Stepan Arkadich.

Levin itidan xursand bo‘lib:

– Cho‘chitmaydi, – dedi-yu Laskaning orqasidan shoshib bordi.

Ov qidirib yurgan Laska do‘nglarga yaqinlashgan sari jiddiyati ham dam sayin ortib bordi. Bitta kichkina botqoq qushi bir zumgina

Laskaning e'tiborini jalb qildi. Laska do'nglikni bir aylanib chiqdi-da, ikkinchi marta endi aylanishga tushgan edi, birdan seskanib, qotib qoldi.

— Bor, bor, tez bor, Stiva! — deb qichqirdi Levin yuragi dukurlab urayotganini sezib, shunda quloqlarini to'sib turgan allaqanday parda olib tashlangandek, hamma tovushlar uzoq-yaqinlik tafovutini yo'qotib, tartibsiz holda quloqlarini qomatga keltira boshladi. Stepan Arkadichning oyoq sharpasini uzoqdagi otlar dupuriday eshitdi, oyog'i tagidagi do'nglikning bir burchi tomir-ildizlari bilan o'pirilib tushganini eshitib, buni loyxo'rak qushining qanot tovushi deb o'yladi. Orqasida, yaqinginasida suv shaloplayotganini ham eshitdiyu, lekin buni aniqlay olmadi.

Oyoq qo'yish uchun qulay joy topib, itga yaqinlashdi-da:

— Bos! — dedi.

It tagidan moshak emas, loyxo'rak uchib chiqdi. Levin miltig'ini to'g'rilib, endi mo'ljalga ola boshlagan paytda, suvning boyagi shalopashi kuchaydi, yaqinlashdi va shu orada Veslovskiyning juda g'alati, qattiq ovoz bilan qichqirgani eshitildi. Levin Veslovkiyning loyxo'rak orqasidan miltig'ini mo'ljalga olayotganini ko'rdi, shunday bo'lsa ham o'q uzdi.

Levin o'qi tegmaganiga imoni komil bo'lgandan so'ng orqasiga o'girilib qaragan edi, ot-aravasi yo'lda emas, botqoqlikda turganligini ko'rdi.

Veslovskiy ovni tomosha qilgisi kelib aravani botqoqqa haydagan ekan, otlar tiqilib qolibdi. Levin botqoqqa tiqilib qolgan arava tomon kelayotib:

— Bu nas bosganga bu yerda nima bor edi! — deb to'ng'illadi. Keyin, quruqqina qilib: — Bu yoqqa nimaga olib keldingiz? — dedida, kucherni chaqirib, otlarni aravadan chiqara boshladi.

Levinga o'jni bemalol ottirishmagani ham, otlari botqoqqa tiqilib qolgani ham, ayniqsa, otlarni aravadan chiqarishda o'zi bilan kucherga yordam qilishmagani ham yomon alam qildi; Stepan Arkadich ham, Vasenka Veslovskiy ham arava qo'shish va chiqarishning nimaligi to'g'risida zarracha tasavvuri yo'q edi. Vasenkaning bu yer butunlay quruq edi, degan so'zlariga bir og'iz ham javob qilmay, Levin kucher bilan jimgina otlarni aravadan chiqaraverdi. Ammo keyin

ishga qiziqib, gapga tushib ketdi-yu, Veslovskiy aravani qanotidan zo'r berib, kuchanib itarayotganini, shu qanotni hatto sindirib ham yuborganini ko'rib, Levin kechagi ta'bi xiralik ta'sirida Veslovskiyga haddan ziyod sovuq muomalada bo'lgani uchun o'zidan koyindi va bu sovuq muomalasining ta'sirini yumshatish uchun yoqimli gaplar gapira boshladi. Hamma ish o'rniga tushib, aravalor yo'lga chiqarilganda, Levin ovqatni oldirdi.

Yana kayfi chog' bo'lib ketgan Veslovskiy ikkinchi jo'jani ham pok-pokiza tushirib:

– Bon appetit – bonne conscience! Ce poulet va tomber jusqu' qn fond de mes bottes¹, – dedi fransuzcha iborani keltirib. – Shunday qilib, falokatdan qutuldik; endi ishlar baxayr ketadi. Faqat, shu qilib qo'ygan aybim uchun kucher o'rnida o'tirib borishim kerak. To'g'ri aytdimmi? A? Yo'q, yo'q, men gunohimni yuvay. Ko'rasizlar, qanday boplab olib boraman sizlarni! – dedi Veslovskiy, Levin tizginlarni kucherga berishni iltimos qilganda uni qo'lidan chiqarmay. – Yo'q, gunohimni yuvishim kerak, kucher o'rni o'zimga ham yoqib qoldi. – Shunday deb u aravani haydab ketdi.

Levin otlarni, ayniqsa, chapdag'i jiyronni qiyab qo'yadi, deb qo'rqqan edi, chunki Veslovskiy uning jilovini yaxshi ushlab turolmasdi; lekin uning xushchaqchaqligiga berilib ketdi-yu, kucher o'rnida o'tirib olib, yo'l bo'yi og'zidan tushirmagan romanslarini yoki hikoyalari va taqlidlarini, chunonchi inglizcha four in handni² qanday boshqarish to'g'risidagi gaplarini maza qilib eshitib bordi; shu taxlit nonushtadan keyin kayflari chog' bo'lib, Gvozdevo botqog'iga yetib kelishdi.

X

Vasenka otlarni shu qadar shitob bilan haydadiki, botqoqliqqa juda barvaqt yetib kelishdi, kun ham juda issiq edi.

Mo'ljal qilingan botqoqlikka yetib kelishganda, Levin Vasenkadan qanday qilib qutulsam-u, bamaylixotir ov qilsam, degan o'yga tushib qoldi. Stepan Arkadichda ham shunaqa istak bor edi, shekilli, chunki

¹ *Yaxshi ishtaҳa* – vijdon sofligi demak! Bu jo'ja qalbimning chuqur bir yeriga jo bo'lyapti (*frans.*).

² *To'rt otliq arava* (*ingl.*).

Levin uning yuzida besaranjomlik alomatlari borligini ko'rdi; bunday besaranjomlik chinakam ovchining yuzida har vaqt ov oldidan ko'rini turadi. Bundan tashqari, Stepan Arkadichning yuzida uning o'ziga xos muloyim bir quvlik ham bor edi.

– Qaysi tartibda boramiz? Botqoqliq – juda bopta, qarchig‘aylar ham bor ekan, ko‘ryapman, – dedi Stepan Arkadich sayhon ustida suzib yurgan ikkita kattakon qushga ishora qilib. – Qarchig‘ay bor joyda, ov ham bor.

Levin sal qovog‘ini solib, etiklarining qo‘njini yuqori tortdi-da, miltiq pistonlarini ko‘zdan kechirib turib:

– Mana ko‘rdinglarmi, janoblar, – dedi. – Anovi qiyooq o‘tlarni ko‘ryapsizlarmi? – Levin keng soyning o‘ng tomonidagi yarmi o‘rib olingan nihoyatda keng, ho‘l pichanzor orolchaga ishora qildi. – Botqoq mana shu yerdan, qoq ro‘paramizdan boshlanadi, ko‘kroq joyni ko‘ryapsizlarmi? Ana shu yerdan o‘ngga, otlar yurgan tomonga burilib ketadi; u yoq serdo‘ng yerlar, u yerda moshak bo‘ladi; mana shu qiyozzor atrofi, hu anavi daraxt bilan tegirmongacha botqoq. Ho anavi ko‘rfazni ko‘ryapsizlarmi? Eng ovbop joy o‘sha yer. O‘sha yerda bir marta o‘n yettita loyxo‘rak otib olganman. Ikkita it bilan ikki tomonga bo‘linib ketib, tegirmon oldida uchrashamiz.

– Xo‘p, kim chapga, kim o‘ngga? – deb so‘radi Stepan Arkadich. – O‘ng tomon kengroq ekan, ikkovlaring o‘sha yoqqa boringlar, men chapga ketdim, – dedi o‘zini beparvolikka solib.

– Juda soz! Ov qilishni unga ko‘rsatib qo‘yamiz. Qani, yuring, yuring! – dedi Vasenka ham.

Levin ko‘nmay iloji yo‘q edi, shunday qilib, ikkiga bo‘linib ketishdi.

Ular botqoqqa kirishlari bilan ikkovi it birdaniga hid sezib, chirigan ko‘katlar ichiga surib ketdi. Levin Laskaning bu ehtiyotkor harakatini bilardi; u loyxo‘raklar bo‘ladigan joyni bilar, ular galasiga duch kelishini kutardi.

Kolpeno botqoqligida Veslovskiy bexosdan o‘q chiqarib yuborgandan keyin Levin uning miltiq tutishiga beixtiyor diqqat etadigan bo‘ldi; shuning uchun orqasida suvni shaloplastib kelayotgan o‘rtog‘iga:

– Veslovskiy, yonda yuring, yonda! – dedi yuragini hovuchlab.
– Yo‘q, sizga xalal bermayman, mening tashvishimni qilmang.

Kiti erini ovga jo‘natayotganda: «Hazir bo‘linglar, bir-birlaringni otib qo‘ymanglar», degan edi; Levin shu so‘zlarni eslab, beixtiyor o‘ylanib qoldi. Itlar bir-biridan o‘tib, har qaysisi o‘z yo‘lida mo‘ljalga yaqinlashib borardi; loyxo‘raklarga ishtiyoyq shu qadar kuchli ediki, botqoqdan sug‘urayotganda poshnasi chiqargan bilq-bilq ovoz Levinga qushlar ovoziga o‘xshab eshitilar, miltig‘ini qo‘lga olib, qo‘ndog‘ini biqinida qisib borardi.

Levinnin qoq culoqlari ustida: «Poq! Poq!» degan ovozlar eshitildi. Veslovskiy botqoqlik ustida uchishib, ovchilarga juda bevaqt ko‘rinib qolgan o‘rdaklar galasiga o‘q uzgan edi. Levin qayrilib qarashga ulgurmuy, bitta, ikkita, uchta, yana sakkizta loyxo‘rak suvni shaloplatib birin-ketin uchib keta boshladи.

Loyxo‘raklardan biri ilon izi bo‘lib uchishga chog‘lanib turganda, Stepan Arkadich uni urib tushirdi; qush dumaloq bo‘lib yutar botqoqqa kelib tushdi. Oblonskiy qyioqzorga pastlab uchib ketayotgan boshqa birini shoshmay mo‘ljalga oldi; uzilgan o‘q ovozi bilan bir vaqtida yana bitta qush yerga tushdi; u sog‘ qolgan edi, tagi oppoq qanotini tipirlatib, o‘rilgan qyioq orasidan chopib chiqdi.

Levinnin omadi kelishmadi: birinchi loyxo‘rakka juda yaqindan o‘q uzgan edi: tegizolmadи; ko‘tarila boshlaganda yana mo‘ljalga olgan edi, shu vaqt oyoqlarining tagidan yana bittasi chiqib qolib, xayolini bo‘lib qo‘ydi; ikkinchi o‘qni otib edi, bunisi ham tegmadi.

Miltiqni o‘qlab bo‘lguncha, yana bitta loyxo‘rak uchib chiqqan edi, Veslovskiy apil-tapil miltig‘iga yangi o‘q bosib oldi-yu, suv bo‘ylatib yana ikkita sochma o‘q uzdi. Bu orada Stepan Arkadich o‘z ovlarini yig‘ib turib, porloq ko‘zları bilan Levinga qarab qo‘ydi.

– Endi ikki yoqqa qarab ketamiz, – dedi-da Stepan Arkadich itiga hushtak chalib qo‘ygandan keyin, miltig‘ini otishga tayyor ushlagan holda chap oyog‘i bilan oqsoqlanib, bir tomonga ketdi. Levin bilan Veslovskiy ikkinchi tomonga qarab yurdi.

Levin hamma vaqt shunaqa edi: birinchi uzgan o‘qlari zoe ketganda qizishar, bo‘g‘ilardi-da, kuni bilan yomon otardi. Bugun ham shunaqa bo‘ldi. Loyxo‘rak juda ko‘p ekan. Itlar tagidan, ovchilarning oyoqlari tagidan uchib chiqaverdi, Levin o‘zini o‘nglab olsa bo‘lardi: lekin qancha ko‘p otsa, pala-partish o‘q uzaverib, hech narsa urolmagan, buning uchun zarracha ham xijolat tortmagan Veslovskiy oldida shuncha ko‘p o‘sال bo‘lardi. Levin shoshardi, mo‘ljalga yaxshi

otmasdi, borgan sayin qizishib borardi, axir shu darajaga etdiki, otgan o‘qini baribir tegizolmayman, degan ishonch bilan otadigan bo‘ldi. Laska ham buni tushunayotgandek, erinibgina qidirar, ovchilarga ajablanib yo ta’na qilib qarayotganga o‘xshardi. Paydar-pay o‘qlar uzilib turdi. Ovchilar atrofini porox tutuni o‘rab oldi, lekin kattakon, keng ov xaltasida faqat uchta yengil, kichkina loyxo‘rakkina yotar edi. Bularning ham bittasi Veslovskiy tomonidan otilgan. Ikkinchisi esa o‘rtada otilgan. Bu orada botqoqlikning u tomonida kamdan-kam o‘q otilar, lekin, Levinning nazarida, Stepan Arkadich otayotgan bu o‘qlar xato ketmayotgandek edi; innaykeyin, har o‘qdan so‘ng: «Krak! Krak, anopm!» degan tovush eshitilardi.

Bu hol Levinni yana battar hayajonlantirardi. Loyxo‘raklar sayhon ustida uchishlarini qo‘ymasdi. Yerda suvning shapillashi, osmonda qushlarning g‘urillashi har tomondan sira tinmay eshitilib turardi; ilgari uchib chiqib, havoda aylanib yurgan qushlar ovchilar oldiga kelib qo‘nardi. Ikkita qarchig‘ay o‘rniga hozir botqoqlik ustida o‘nlab qarchig‘aylar chug‘urlashib uchib yurishardi.

Botqoqlikning yarmidan ko‘prog‘ini bosib o‘tishgandan so‘ng Levin bilan Veslovskiy qiyozzorga borib taqaladigan uzun-uzun kartalar bilan ajratilgan va qaysi yeri yo‘l bilan, qaysi yeri pichani o‘rilgan egat bilan belgilangan dehqon pichanzorlaridan chiqishdi. Bu pichanzorning yarmi o‘rib bo‘lingan edi.

O‘rilmagan pichanzorda o‘rilgan pichanzordagidek ov qilishga ko‘zları yetmasa ham, Levin Stepan Arkadich bilan uchrashamiz deb va’da qilgani uchun, o‘rilmagan va o‘rilmagan pichanzor orqali yo‘ldoshi bilan ketaverdi. Chiqarib qo‘yilgan arava yonida o‘tirgan mujiklardan biri:

— Hoy, ovchilar! Kelib biz bilan ovqat yenglar! Vino iching-lar! — deb qichqirdi.

Levin qayrilib qaradi.

Qizil yuzli xushchaqchaq bir sersoqol mujik oq tishlarini irjaytirib kuldi-da, quyoshda tovlanib turgan ko‘kimir shishani ko‘tarib: — Kelaver, hechqisi yo‘q! — deb qichqirdi.

— Qu, est ce du’ils disent?¹ — deb so‘radi Veslovskiy.

¹ Nima deyishyapti? (*frans.*).

– Aroq ichinglar deb chaqirishyapti. Pichanzorni bo‘lib olishganga o‘xshaydi. Men jon-jon deb ichardim... – dedi Levin quvlik bilan; Veslovskiy aroqqa uchib, ularning oldiga ketib qoladi, deb o‘ylagan edi.

– Nimaga mehmon qilishmoqchi?

– Nimaga bo‘lardi, vaqtichog‘likka-da. Rostdanam, boring. Xursand bo‘lasiz.

– Allons, c'est curieux.¹

– Boravering, boravering, tegirmon yo‘lini topib olasiz! – deb orqadan qichqirdi Levin; keyin orqasiga qaradi-yu, Veslovskiyning egilib-bukilib, charchagan oyoqlari bilan qoqinib, botqoqdan zo‘rg‘a chiqayotganini, bir qo‘lida miltiq bilan mujiklar tomon ketayotganini ko‘rib, xursand bo‘ldi.

– Hoy, sen ham kel! – deb qichqirdi mujik Levinga. – Qo‘rqma! Somsa yeb ketasan!

Levinnинг juda ham aroq ichgisi, bir burda bo‘lsa ham non yegisi kelib turgan edi. Madori ketgan, chalishib qolayotgan oyoqlarini botqoqdan zo‘rg‘a-zo‘rg‘a sug‘urib borayotgan edi; hatto bir lahma ikkilanib turdi. Shu payt it to‘xtadi. Birdan horg‘inligi tarqalib, botqoqdan it tomonga osongina yurib ketdi. Oyoqlari tagidan bitta loyxo‘rak uchib chiqdi; bir o‘q bilan urib tushirdi. It hamon qimir etmay turardi. «Bos?» It tagidan yana bittasi uchib chiqdi. Levin darhol o‘q uzdi. Lekin bugun omadi yurishmay turgan edi; tegizolmadi. Keyin boyta urganni qidirdi, lekin uni ham topolmadi. Butun qiyoqzorni ostin-ustin qilib chiqdi. Laska bo‘lsa urib tushirganiga ishonmasdi, shuning uchun o‘zini qidirayotganga soldi-yu, aslida, qidirmadi.

Levin o‘zining omadi kelmaganiga Veslovskiydan o‘pka qilgan edi, mana hozir usiz ham ishi yurishmadi. Loyxo‘raklar bu yerda ham ko‘p edi-yu, ammo Levin otgan o‘qlarini birin-ketin zoye ketkazardi.

Qiya tushib turgan quyosh nurlari hali ham qizg‘in edi; ko‘ylaklari terdan ivib, badaniga yopishib qoldi; chap oyog‘idagi etigiga suv to‘lib, nuqul biliqlar, og‘irlashib borardi; porox tutuni qoraytirgan yuzidan ter yog‘ilardi; og‘zi kakra, burni porox va chirindi hidi bilan to‘la edi; qulqlari qushlarning qanot tovushi bilan bitgan; miltiq

¹ Yuring, qiziq-ku (*frans.*).

og'ziga qo'l teggizib bo'lmaydi, shunchalik qizib ketgan; yuragi teztez, kalta-kalta uradi; qo'llari hayajondan titraydi. Horg'in oyoqlari o'nqir-cho'nqir yerlarda botqoqda chalishadi, qoqinadi; shunday bo'lsa ham yurishini, otishini qo'ymaydi. Nihoyat, sharmandalarcha so'nggi o'jni zoye kezkazdi-yu, miltig'i bilan shlapasini yerga otib urdi.

«Yo'q, o'zimni bosib olishim kerak», dedi o'ziga. Miltig'i bilan shlapasini yerdan oldi, Laskani oldiga chaqirdi, keyin botqoqdan chiqdi. Quruq yerga chiqib, bir do'ng yerga o'tirdi, etiklarini yechdi, bir moy etigidagi suvni to'kdi, keyin balchiqqa keldi-da, chirindi hidi kelib turgan sassiq suvdan ichdi, qizib ketgan miltiq quvurini ho'lladi, yuz-qo'lini yuvdi. Shu taxlit o'zini rostlab olgandan keyin qizishmaslikka qattiq ahd qilib, loyxo'rak borib qo'ngan joyga qarab yana yo'l oldi.

Vazmin bo'lishga tirishardi-yu, yana ahvoli boyagiday edi. Qushni mo'ljalga olmay, barmog'i tepkini bosardi. Borgan sari ahvoli yomonlashib bordi.

Stepan Arkadich bilan uchrashadigan daraxtzorga chiqqanda, ov xaltasida faqat beshtagina qush bor edi.

Levin Stepan Arkadichni ko'rmasdan oldin itini ko'rdi. Sassiq balchiqdan qorayib ketgan Krak olxa daraxtining ag'darilib yotgan tomirlari tagidan sapchib chiqdi-da, g'olibona qiyofada kelib, Laska bilan hidlasha ketdi. Krakdan keyin olxa soyasida Stepan Arkadichning ham kelishgan qomati ko'rindi. U terlagan, qizargan, yoqalarining tugmalarini yechib tashlagan holda yana boyagiday oqsoqlanib kelardi.

– Xo'sh? Sizlar ko'p urgandirsizlar! – dedi Stepan Arkadich sho'xgina kulumtsirab.

– Sen-chi? – deb so'radi Levin. Lekin so'rashning hojati yo'q edi, chunki ov xaltasining to'laligini ko'rib turgan edi.

– Yomon emas.

Stepan Arkadichning xaltasida o'n to'rt dona qush bor edi.

– Rost botqoq ekan-da! Senga Veslovskiy xalal bergandirida. Ikki ovchi bir it bilan ish ko'rishi qiyin, – dedi Stepan Arkadich tantanasini yumshatishga tirishib.

Levin o'zi hamma vaqt tushadigan mujikning kulbasiga Stepan Arkadich bilan kelganda, Veslovskiy o'sha yerda edi. U kulbaning o'rtasida ikkala qo'li bilan serbar o'rindiqqa yopishib olgan, uy bekasining ukasi bo'l mish soldat balchiq mog'ori bosgan etiklaridan ushlab hadeb tortar, Veslovskiy zavq bilan sharaqlab kulardi.

— Men hozirgina keldim. Ils ont ete charmants¹. Qaranglar, rosa boplab ichirishdi, ovqat bilan qornimni do'mbira qilishdi. Nonining mazasi odamning og'zida qoladi. Delicieux!² Arog'i-chi — bunaqasini odam bo'lib ichgan emasman. Pul bersam hech olishmaydi-da. Nuqul: «Xafa bo'lmasang bo'ldi», deyishadi.

— Nega pul olishsin? Sizni mehmon qilishgan-da. Nima, aroqlarini sotisharmidi? — dedi soldat, nihoyat, etigining bir poyini qorayib ketgan paypog'i bilan birga sug'urib olib.

Kulba ovchilarning etiklari, yalanib-tamshanib o'layotgan kir itlar olib kirgan loy bilan bulg'anganiga, balchiq va porox hidiga to'lganiga, sanchqi bilan pichoq yo'qligiga qaramay, ovchilar kechki ovqatni shu qadar ishtaha bilan tushirdilar, shu qadar miriqib choy ichdilarki, faqat ov qilgan odamdagina shunaqa ishtaha bo'lishi mumkin. Yuvinib-tozalanib bo'lishgandan keyin kucherlar supurib-sidirib, xo'jayinlariga pichanlardan joy solib qo'ygan omborxonaga ketishdi.

Qosh qorayib qolgan bo'lsa ham ovchilarning uxlagilari kelmas edi.

Suhbat otilegan o'qlar, itlar, avvalgi ovlar haqidagi xotiralar va hangomalar atrofida ancha aylangandan keyin, hammani qiziqtirgan bir mavzuga kelib taqaldi. Vasenka bu qo'shxona va pichan hidlarining ajoyibligi, singan aravaning alomatligi (oldingi tegarchigidan chiqarilgani uchun u sindi deb yurgan edi), o'ziga rosa aroq ichirishgan qo'llari ochiq mujiklar, har qaysisi o'z egasining oyog'ida yotgan itlar to'g'risidagi hasanotini hadeb takrorlayvergani munosabati bilan Stepan Arkadich o'tgan yil yozda Maltusning yerida qilgan ovining nihoyatda ajoyib o'tganligini so'zlab berdi. Maltus mashhur temiryo'lchi boylardan edi. Oblonskiy ana shu Maltus

¹ Bular juda odamshavanda (*frans.*).

² Juda ajoyib! (*frans.*)

tomonidan Tver guberniyasida qanaqa botqoqliklar sotib olinganini, qanday saqlanganini, ovchilarni qanaqa aravalari, ekipajlarda olib borganini, botqoqlik yonida nonushta qilgani, qanaqa chodir yoyilganini birma-bir hikoya qilib chiqdi.

— Qiziq-ku, — dedi Levin pichanda yotgan yeridan turib, — qanday qilib o'sha odamlarni ko'ngling ko'targaniga hayronman. Lafit¹ bilan nonushta qilish mumkin, bundan odam zavq oladi, ammo shunday hashamatga qanday tob berding-a? Bu odamlar ham burungi zamonalardagi ijaradorlar singari pulga tuzoq qo'yishadi. Shu bilan odamlarning nafratiga duchor bo'lishadi, ammo odamlarning nafratiga parvo ham qilishmaydi, keyin ana shu harom-harish topgan pullari bilan o'zlarini odamlarning nafratidan qutqarib olishadi.

— Juda to'g'ri gap qildingiz! — dedi Vasenka Veslovskiy. — Tamoman to'g'ri! Albatta, Oblonskiy bu ishni bonhomie² orqasida qilgan, boshqalar bo'lsa: «Oblonskiy hayon ko'ryapti», deydi...

— Hecham, — dedi Oblonskiy; Levin bu so'zlarni Oblonskiy jilmayib turib aytganini ko'rди, — men uni boshqa badavlat savdogarlardan va dvoryanlardan ham battar vijdonini yo'qotib qo'ygan odam deb hisoblamayman. Ular ham, bular ham aql va mehnatlari soyasida davlat ortirgan kishilar.

— Iya, bu qanaqa mehnat bo'ldi? Konsessiyaga olib, keyin ortig'iga sotish ham mehnat bo'ldimi?

— Albatta, mehnat. Shu ma'noda mehnatkni, agar o'sha odam yoki o'shangan o'xshagan odamlar bo'limganida, u yerlarga yo'l ham tushmas edi.

— Lekin bu mehnat mujiknikiga yoki olimnikiga o'xshagan mehnat emas.

— Xayr, shunday ham deyaylik, ammo bu ma'nodagi mehnatkni, uning sa'yi harakati soyasida yo'l quriladi. Sen bo'lsang, yo'ldan naf yo'q deysan.

— Yo'q, bu boshqa masala: mayli, yo'llardan naf bor, deb aytishga tayyorman. Lekin sarf qilingan mehnatga muvofiq kelmaydigan har qanday daromad — harom.

¹ Lafit — qizil uzum vinosi: bu xil vino janubiy Fransiyada, shu nomli joyda ishlanadi (tarj.).

² Soddadillik (*frans.*).

– Muvofigmi-yo‘qligini qayerdan bilasan?

Levin halol bilan harom o‘rtasiga aniq chiziq tortish qo‘lidan kelmaganini sezib:

– Harom-harish yo‘llar bilan, hiyla-nayrang bilan qo‘lga kiritilgan daromad ham, – dedi, – banka kontoralari qo‘lga kiritgan daromadlar singari gap. O‘lponlarni ijaraga berish vaqtidagi singari mehnat sarf qilmasdan juda ko‘p mol-u mulk orttirish kabi yaramas odat faqat shaklini o‘zgartirdi, xolos. Le roi est mort, vive le roi!¹ O‘lponlarni ijaraga berish bekor qilinishi bilanoq darrov temir yo‘llar, banklar paydo bo‘ldi: bu ham mehnatsiz dunyo orttirish degan so‘z.

– Ha, bu narsalar, ehtimol, to‘g‘ridir, aqlii gaplardir... yot, Krak! – deb o‘shqirdi Stepan Arkadich pichanni ag‘dar-to‘ntar qilib qashinayotgan itiga; u o‘zi ko‘targan mavzuning to‘g‘ri va haqqoniy ekanligiga amin edi, shekilli, shoshilmasdan, vazmin turib gapirdi. – Ammo halol mehnat bilan harom mehnat o‘rtasidagi tafovutni aytib bermading. Ishlar mudirim ishni mendan yaxshi bilsa ham, men undan ko‘proq maosh olaman, shu ham harommi?

– Qaydam.

– Bo‘lmasa men senga aytib beray: sen o‘z xo‘jaligingga sarf qilgan mehnating evaziga, faraz etaylik, ortiqcha besh ming so‘m olasan, bizning mezbonimiz mujik esa, har qancha mehnat qilmasin, ellik so‘mdan ortiq daromad ololmaydi. Men ishlar mudirimdan ortiq oladigan maosh ham, Maltusning yo‘l ustasidan ortiq oladigan daromadi ham, xuddi shunga o‘xshagan harom daromad. Aksincha, jamiyat bu xil odamlarga hech nimaga asoslanmagan allaqanday dushmanchilik munosabatida bo‘ladi, nazarimda, bu masalada hasad...

– Yo‘q, to‘g‘ri emas, – dedi Veslovskiy, – hasad bo‘lishi mumkin emas, bu masalada allaqanday harom-harishlik bor.

– Yo‘q, shoshma, – dedi Levin so‘zini davom ettirib. – Mening besh ming so‘m-u, mujikning ellik so‘m olishini noinsoflik deb aytding: bu gaping to‘g‘ri. Noinsoflik bu, men ham payqab yuraman, lekin...

– Haqiqatda ham shunday-da. Nima uchun biz nuqlu ovqat yeymiz, ichamiz, ov qilamiz, qo‘limizni ishga urmaymiz-u, mujik sho‘rlik o‘la-o‘lguncha boshi mehnatdan chiqmaydi? – dedi Vasenka

¹ Qirol o‘ldi, yashasin qirol! (frans.)

Veslovskiy; bu masala ustida umrida bиринчи мarta bosh qotirgan bo'lsa kerak, u juda samimiyyat bilan gapirdi.

Stepan Arkadich jo'rttaga Levinga tegizib:

– Payqaysan-u, lekin er-suvingni unga bermaysan, – dedi.

So'nggi vaqtarda har ikki boja o'rtasida pinhona bir dushmanlik munosabati tug'ilgandek edi: ikkovlari opa-singilga uylanganlaridan keyin o'rtalarida qaysi birimizning turmushimiz yaxshiroq ekan, degan raqobat bordek ko'rinaldi: mana endi ana shu dushmanchilik o'rtalaridagi shaxsiy gaplarida ham aksini ko'rsata boshladi.

– Shuning uchun bermayapmanki, mendan hech kim buni talab qilgani yo'q; mabodo xohlaganimda ham, baribir, berolmayman, beradigan odamlarim ham yo'q, – dedi Levin.

– Mana shu mujikka ber, yo'q demaydi.

– Qiziq, qanday beraman? U bilan birga borib, oldi-sotdi vasiqasiga qo'l qo'yishamizmi?

– Bunisini bilmayman; agar haqing yo'qligiga ishonsang...

– Hech ishonmayman. Aksincha, yer-suvimni berib yuborishga haqim yo'q deb bilaman. Chunki er oldida ham, oilam oldida ham burchlarim bor.

– Yo'q. Shoshma; basharti, sen bu tengsizlikni noinsoflik deb hisoblar ekansan, nega harakat qilmaysan...

– Harakat qilyapman, faqat salbiy ma'noda, ya'ni o'zim bilan mujik o'rtasida ahvol farqini oshirishga tirishmayman.

– Yo'q, kechir meni; bu havoyi gap.

– Ha, bu safsatabozlikka mos bir izoh bo'ldi, – deb Vasenka ham tasdiqladi. Keyin darvozani g'itillatib saroya kirgan mujikka qarab gapirdi: – A! Xo'jayin, hali ham uxlaganing yo'qmi?

– Yo'q, uyqu qayda deysan! Xo'jayinlar uslashgandir, deb o'ylasam, gurung qurib o'tirganlarining eshitib qoldim. Menga ilgak kerak edi. Itingiz tishlamaydimi? – dedi yana yalang oyoqlarini sekinkeskin bosib.

– Sen qayerda uxlaysan?

– Kechasi ot boqamiz.

Veslovskiy qanotlari lang ochiq darvozadan xira shafaq yorug'ida ko'rinib turgan kulba burchagiga va otlari chiqarilgan aravalarga qarab:

– Oh, qanday ajoyib kecha-ya! – dedi. – Hay, eshitinglar, xotinlar ashula aytishyapti, chakki aytishmayapti. Ashula aytayotganlar kim, xo'jayin?

– Shu yerlik qizlar, qo'shni hovlida.

– Yuringlar, o'ynab kelamiz! Baribir, uxlamaymiz. Oblonskiy, yur.

Oblonskiy kerishib:

– Nima qilsam: yotsammikan, borsammikan, – dedi. – Yotgan ma'quldir.

Veslovskiy dast o'mnidan turdi-da, apil-tapil etiklarini kiyib:

– Bo'ldi, o'zim chiqaman, – dedi. – Xayr, janoblar. Qiziq bo'lsa, sizlarni ham chaqiraman. Meni ilvasin go'shti bilan siyladinglar, sizlarni esdan chiqarmayman.

Veslovskiy chiqib ketib, orqasidan mujik darvozani yopganda, Oblonskiy:

– Rostdan ham, juda yaxshi yigit-a? – dedi.

Levin hozirgi suhbatlarning mavzusi ustida bosh qotirib:

– Ha, yaxshi – dedi. – U o'z fikr va hislarini qo'lidan kelganicha ravshan qilib aytib bergen bo'lsa ham, bu aql-hushi joyida, samimi odamlarning ikkovi bir og'izdan: «Safsatabozlik bilan o'zingni yupatib yuribsan», – dedi. Bu narsa Levinni xijolatga solib qo'ygan edi.

– Gap shunaqa, do'stim. Ikkalasidan birini tanlab olish kerak: yo jamiyatning hozirgi tuzumini adolatli deb hisobla-yu, o'z haqingni himoya qil, yoki menga o'xshash,adolatsiz imtiyozlardan foydalanayotganining bo'yningga ol-u, bu imtiyozlardan foydalanib, xursand bo'lib yuraver.

– Yo'q, agar bu imtiyozlaradolatsizlik bo'lsa, sen u vaqt bu ne'matlardan foydalanayotganing uchun xursand bo'lib yurmas eding, hech bo'limganda, men xursand bo'lomasdim. Ayb menda emasligini sezib tursam bo'ldi – menga zaruri shu.

Stepan Arkadichning, miyasi g'ovlab, charchab qoldi, shekilli:

– Menga qara, biz ham chiqmaymizmi? – dedi. – Baribir, uyqumiz kelmaydi. Yur-e!

Levin javob qilmadi. Hali faqat salbiy ma'nodagina harakat qilayotgani to'g'risida aytgan so'zlari o'zini o'ylatib qo'ygan edi.

«Nahotki faqat salbiy ma'nodagina insofli bo'lish mumkin?» deb so'rard i o'zidan.

Stepan Arkadich o'rnidan turayotib:

– Ammo-lekin yangi pichanning hidi xo'p alomat-da! – dedi. – Endi uxlab bo'pman. Vasenka bir balo qilyapti. Xaxolashib kulishayotganini, Vasenkaning ovozini eshityapsanmi? Chiqmaymizmi, a? Yur!

Levin:

– Yo'q, men chiqmayman, – degan edi, Stepan Arkadich qorong'ida furajkasini axtarib turib:

– Yana prinsipbozlikmi? – deb kulumsiradi.

– Prinsipbozlik emas bu, chiqib nima qilaman?

– Men senga aytsam, boshingga o'zing balo orttirib olasan, – dedi Stepan Arkadich furajkasini topgandan keyin o'rnidan turayotib.

– Nimaga?

– Xotining oldida o'zingni qay ahvolga solib qo'yganingni, nima, ko'rmayapmanmi? Eshiddim: ovga borasanmi, borganingda ham ikki kunga borasanmi, degan masalani olamshumul masala qilib qo'ydinglar. Shirin turmush uchun yaxshi narsa-yu, ammo butun umrga tatiydigan narsa emas. Erkak kishining qo'l-oyog'i bo'sh bo'lishi kerak. Unda o'z manfaati, erkaklik manfaati bor. Erkak kishi mard bo'lishi kerak, – dedi Oblonskiy darvozani ocha turib.

– Ya'ni, nima qilish kerak? Chiqib, qishloq qizlariga jigarso'xtalik qilish kerakmi? – deb so'radi Levin.

– Vaqtichog'lik bor joyga nima uchun ham bormaslik kerak? Can tire pas a consequence¹. Bundan xotinin jafo ko'rmaydi, men rohat ko'raman. Ishqilib, uyda odob saqlasang bas. Ha, uyda oyog'ingni bilib bos. Lekin qo'lingni bog'lab berma.

– Ehtimol, – dedi Levin quruqqina qilib; keyin u yonboshiga o'girilib oldi. – Ertaga barvaqt chiqish kerak. Hech kimni uyg'otmayman, tongda o'zim chiqib ketaveraman.

Veslovskiy qaytib keldi. Uning:

– Messieurs, venez vite², – degan ovozi eshitildi. – Charmante³. Bu mening kashfim. Borib turgan Gpemxen⁴, allaqachon tanishib

¹ Bunda ayb bo'ladigan hech nima yo'q (*frans.*).

² Janoblar, tez bo'linglar! (*frans.*)

³ Ajoyib! (*frans.*)

⁴ Jonon (*nem.*).

ham oldik. O'lay agar, odamning suqi kiradi! – U shu qadar hayrat bilan tasvirlardiki, go'yo u faqat Veslovskiy uchungina shunaqa jonon bo'lib yaratilgan-u, o'zini bu baxtga erishtirganlardan minnatdorday edi.

Levin o'zini uqlab qolganga soldi. Oblonskiy bo'lsa tuflisini kiyida, sigarasini tutatib, saroydan chiqib ketdi; ko'p o'tmay, ovozlari o'chdi.

Levin uzoq vaqtgacha uqlayolmadi. Otlari pichan kavshayotganini, keyin xo'jayinning katta o'g'li bilan yo'l taraddudini ko'rib, kechasi ot boqqani ketganini eshitib yotdi; so'ngra soldat saroyning narigi tomoniga jiyani – mezbonning kichik o'g'li bilan kelib yotganini eshitdi; keyin bola o'ziga juda ham bahaybat, zo'r ko'ringan itlar to'g'risidagi taassurotini tog'asiga ingichka ovozi bilan aytib berganini eshitdi. Keyin bola bu itlar nimani tutishini so'ragan edi, soldat uyqu bosgan xirqiroq ovoz bilan: ertaga ovchilar botqoqlikka borishini, miltiq otishini aytgandan so'ng, bolaning savollaridan qutulish uchun: «Uxla, Vaska, uxla, bo'lmasa yomon bo'ladi-ya» deganini ham eshitdi; keyin soldatning o'zi ham xurrik ota boshladi, hamma yoq jimmijt bo'lib qoldi; faqat otlarning kavshanishi va loyxo'raklarning chinqirishigina eshitilib turdi. «Nahotki faqat salbiy ma'nodagina bo'lsa-ya? – deb o'zicha takrorladi. – Xo'sh, nima bo'pti? Men aybdor emasman-ku». Shundan keyin ertangi kun to'g'risida o'yylanib ketdi.

«Ertaga barvaqt boraman, qizishmasdan otaman. Loyxo'raklar achib yotibdi. Moshaklar ham bor. Uyga qaytib kelsam, Kitidan xat kelgan bo'ladi. Ha, Stiva to'g'ri aytadi: Kiti oldida o'zimni erkak-larcha tutmayman, xotinchalish bo'lib qolganman... lekin, na chora! Bu harakatim yana salbiy ma'noda!»

Uyqusida Veslovskiy bilan Stepan Arkadichning kulishganini, sho'x-sho'x gaplashganini eshitdi. Ko'zlarini bir lahma ochib qaradi: oy chiqqan, ular lang ochib qo'yilgan darvozaxonada, oyning sutday yorug'ida gaplashib turishgan edi. Stepan Arkadich qiz tarovati to'g'risida gapirib, uni hozirgina po'sti archilgan yangi yong'oq mag'ziga o'xshatar, Veslovskiy esa odatdagidek sharaqlab kulib, aftidan, mujik o'ziga aytgan so'zlarini takrorlar: «Sen o'z tenglaringga osil!» – deyardi. Levin uyqu aralash:

– Janoblar, tongda chiqamiz! – dedi-yu, uyqusini davom ettirdi.

XII

Levin tong yorishar-yorishmas uyg‘onib, o‘rtoqlarini ham uyg‘otib ko‘rdi. Vasenka mukka tushib, paypoqli bir oyog‘ini cho‘zib yuborib shu qadar qattiq uxlardiki, undan javob olishning iloji ham yo‘q edi. Oblonskiy uyqu aralash, ovga bunday barvaqt chiqmayman, dedi. Pichan chetida yumaloqlanib yotgan Laska ham malol kelgandek turib, orqa oyoqlarining oldin birini, keyin ikkinchisini erinchoqlik bilan cho‘zib kerishdi. Levin etiklarini kiydi-da, qo‘liga miltig‘ini olib, g‘ichillab ochiladigan saroy eshigini ochib chiqib ketdi. Kucherlar aravalari yonida uxlashar, otlar mudrab turishar edi. Otlardan faqat bittasi tog‘oradagi sulini tumshug‘i bilan u yoq bu yoq sochib, erinchoqlik bilan yem yeb turgan edi. Tashqari hali g‘ira-shira yorug‘ edi.

Uy bekasi kulbasidan chiqib:

– Ha, muncha barvaqt uyg‘onib olding, qarog‘im? – dedi Levinga; u Levin bilan xuddi eski, yaxshi tanishday gaplashdi.

– Ovga chiqmoqchiman, xolajon. Shunday borsam, botqoqlikdan chiqamanmi?

– Orqa bilan; bizning xirmondan o‘tib, kanopzor bilan boraver, chirog‘im; so‘qmoqqa chiqasan.

Kampir oftobda kuygan yalang oyoqlarini ehtiyyot bilan bosib borib, xirmonga chiqadigan g‘ovni ochib berdi.

– Tikka boraversang, qoq botqoqdan chiqasan. Bolalarimiz o‘sha yoqqa kechasi ot haydab ketishgan.

Laska yolg‘izoyoq yo‘lda suyunib chopib ketdi; Levin it orqasidan tez, yengil odimlar bilan shaxdam yurib borar, tez-tez osmonga qarab qo‘yardi. Botqoqqa yetmasdan quyosh chiqib qolishini xohlamasdi. Ammo quyosh ham imillab o‘tirmadi. Boya omborxonadan chiqqanda yog‘du sochib turgan oy endi bir parcha simobday yarqirab turardi; ilgari ko‘zga dangal ko‘rinib turgan tong yulduzini endi qidirib topish kerak edi; ilgari uzoq-uzoqlarda dog‘ bo‘lib ko‘ringan narsalar endi ravshan ko‘rina boshladi; bular javdar g‘aramlari edi. Tepalari qayirib olingan baland bo‘yli, xushbo‘y kanoppoyadagi shudring Levinning oyoqlarini, ko‘ylagini belidan yuqorisigacha ivitib yubordi. Bu shudring oftob chiqmasdan oldin ko‘zga chalinmasdi. Tiniq subhidam sukunatida eng sekin ovoz ham qulqoqqa chalinardi. Bir asalari Levin qulqlari yonidan o‘qday uchib o‘tdi. Levin razm solib yana ikkitasini ko‘rdi.

Hammasi asalari uyasi chetanidan uchib chiqib, kanop ustida botqoq tomon uchib ketishdi. Yo'l to'g'ri botqoqdan olib chiqdi. Botqoqlikni bir yerda quyuqroq, bir yerda siyrakroq ko'tarilib turgan bug'dan bilib olinsa bo'lardi: qiyog o'tlar bilan oq tollar, xuddi kichik-kichik orollarga o'xshash, ana 'shu bug' ichida chayqalib turardi. Kechasi ot boqqan bolalar bilan mujiklar botqoqlik chetida, yo'l bo'ylarida tong yorishar oldidan ustlariga kaftanlarini yopib olib uxlab yotishardi. Ular yaqinida oyoqlari to'shalgan uchta ot o'tlab yurardi. Bittasining oyoqlaridagi kishan shiqirlab qo'yadi. Laska egasining yonida boradi va ilgari ketishga ijozat so'rayotgandek qarab-qarab qo'yadi. Uxlab yotgan mujiklar yonidan o'tib, birinchi kechikka yetishganda, Levin pistonlarini ko'zdan kechirib, itni qo'yib yubordi. Otlardan biri, semiz qo'ng'ir ot, itni ko'rib cho'chib ketdi-da, dumini ko'tarib, pishqirdi. Boshqa otlar ham cho'chidi, tushovlangan oyoqlarini botqoqda shaloplatib, yopishqoq balchiqdan tuyoqlarini sug'urganda chapakka o'xshagan ovoz chiqarib yurib botqoqdan sakray-sakray chiqib olishdi. Laska to'xtab otlarga kulayotgandek, Levinga: «nima qilamiz?» – deb so'rayotgandek qilib qaradi. Levin Laskani silab, boshlasang bo'ladi, degan ma'noda hushtak chalib qo'ydi.

Laska oyoqlari tagida bilqillab turgan botqoq ustida suyunib chopib ketdi.

Laska botqoqlikka chopib kirgandan so'ng tomirlar, botqoq o'lanlari, balchiqlarning o'ziga tanish va otlar tezagining o'ziga yet hidlari orasida bu tomonlarning hamma yog'iga tarqalib ketgan qushlar hidini, o'zini hammasidan ham ko'proq hayajonga solib qo'yan o'sha qushlar hidini darhol sezdi. Baxmal o'tlar va otquloqlar orasidan bu hidlar juda qattiq anqib turgan bo'lsa ham, lekin qayoqqa qarab kuchanib yo susayib borganini aniqlab bo'lmasdi. Buni aniqlash uchun shamol yurishib turgan joydan nariga ketish zarur edi. Laska oyoqlarining harakatini sezmay, zarurat chiqib qolgan paytda to'xtab olish uchun ehtiyyotkorlik bilan yugurgilab ketdi; u sharqdan esib turgan tong shabadasidan o'zini olib qochib, shamol kelib turgan tomonga burildi. Burun kataklarini kerib turib ichiga toza havo olgandan so'ng, izlarigina emas, o'zлari ham shu yerda, xuddi mana shu atrofda ekanini, bitta emas, juda ham ko'pligini darhol sezdi. Laska endi tez yugurmay qo'ydi. Qushlar shu atrofda edi, ammo qayerdaligini u aniqlayolmasdi. Laska shu joyni topish uchun doira

bo‘ylab yugurishga tushgan edi, birdan egasining ovozi yo‘lidan chalg‘itdi: «Laska! Bu yoqda!» – dedi Levin itga narigi tomonni ishora qilib. Laska, «o‘zim boshlagan ishni qilaversam qalay bo‘larkin?» deb so‘rayotgandek, biroz to‘xtab turdi. Lekin egasi hech nima topib bo‘lmaydigan, suv bosgan o‘nqir-cho‘nqir yerga ishora qilib, buyrug‘ini yana jahl bilan takrorlab qoldi. Laska buyruqqa bo‘ysundi, uni xursand qilish uchun o‘zini izlayotganga solib o‘nqir-cho‘nqir yerni kavlashtirib chiqdi-da, yana boyagi joyiga kelib, tag‘in qushlar hidini sezdi. Mana endi, egasi aralashmagandan keyin, nima qilishini bilardi: oyoqlarining ostiga qaramay doira bo‘ylab yugurib ketdi, bu doira butun sirni aniqlab berishi kerak edi; goh baland do‘nglikka urilib suvga tushib ketar, goh kuchli, epchil oyoqlarining harakati bilan suvdan chiqib olardi. Qushlarning tobora kuchayib, tobora aniq-taniq kelayotgan hidlari Laskani hayratga solib qo‘ydi; ulardan biri shu yerda, anavi do‘ng yer orqasida, o‘zidan besh qadamcha narida ekanini Laska birdan ravshan sezdi-da, darrov to‘xtab, butun vujudi bilan qotib qoldi. Laska o‘zining kalta oyoqlari ustida turib, oldida nima borligini ko‘rmasa-da, uning shu yerdaligini sezib jim bo‘ldi. Bu sezgi vujudini zavqqa to‘ldirgan edi. Yoyib yuborilgan gajak dumining faqat uchigina qil panglab turardi. Og‘zi xiyol ochilgan, qulqlari dikkaygan edi. Yugurib ketayotganda qulqlarining biri yopishib qolgan edi. U og‘ir-og‘ir, lekin ehtiyyot bilan nafas olar, egasiga kallasini o‘girmay, faqat ko‘z qirlari bilan juda ehtiyyot bo‘lib qarab qo‘yardi. Egasi Laskaga tanish bo‘lgan yuzini oldinga qaratib, hamisha dahshatli ko‘zlarini ro‘parasiga tikkan holda to‘ngaklarga qoqilib kelar, Laskaga u nihoyatda sekin kelayotgandek tuyulardi. Itga shunday tuyulsa ham, aslida, chopib kelayotgan edi.

Levin Laskaning ov qidirgandagi tanish avzoyini sezdi-da: «Omadim kelishsin-da, ayniqlsa, birinchi qushni uray-da», deb ko‘nglida xudoga iltijo qilib, iti oldiga chopib keldi; iti shu payt orqa oyoqlari bilan yer kavlayotgandek, qapishib olib og‘zini xiyol ochib yotardi. Levin moshak topganini tushundi. Levin itga qadalib keldi-da, qaddini rostlab ro‘parasiga qaradi va Laska dimog‘i bilan ko‘rib turgan narsani ko‘zlarini bilan ko‘rdi. Do‘ng yerlar orasidagi tor yo‘lkada moshakni ko‘rdi. Qush boshini o‘girib, qulqlarini qo‘polgina burib, bir burchakka urib ketdi.

– Bos, bos! – deb o'shqirdi Levin Laskani orqasidan turtib.

«Iya, men ketolmayman. Qayoqqa boraman? Ularni shu yerda sezib turibman, agar oldinga ketsam, qayerdaligini ham, qanaqa qushligini ham bilmay qolaman», – deb o'ylardi Laska. Ammo egasi tizzasi bilan itarib, hayajon bilan shivirladi: «Bos, Laskajon, bos!»

«Na chora, agar u shuni xohlasa, qilaman, ammo endi o'zimga kafil bo'lolmayman», – deb o'yladi-yu Laska, kuchining boricha do'ngliklar orasiga qarab otildi. Endi dimog'i hech narsani sezmas, har narsani ko'rар, eshitardi-yu, ammo hech narsani anglamasdi.

Itning avvalgi o'midan o'n qadamcha narida bir moshak, bo'g'zidan chug'urlagan ovoz chiqardi-da, qanotlarini o'ziga xos bir tovush bilan shitirlatib, uchib chiqdi. O'q uzilishi bilanoq oq ko'kragi bilan ho'l yerga paqillab tushdi. Ikkinchisi itning kelishimi ham kutmay, Levin orqasidan ko'tarildi.

Levin qush tomonga qayrilib qaraganda, u allaqachon uzoqlashib ketgan edi. Shunday bo'lsa ham o'q yetib bordi. Ikkinchi qush yigirma qadamcha uchib borgandan so'ng yuqoriga lo'mbozday otolib chiqdi-yu, birdan pastga tashlangan koptokday quruq yerga po'killab tushdi.

Levin issiq, semiz qushlarni ov xaltasiga joylab turib: «Mana bu antiqa bo'ldi! – deb o'yladi... – A, Laskajon, antiqa bo'ldi-a?»

Levin miltig'ini o'qlab yo'lga tushganda, quyosh bulutlar orqasida ko'rinmasa ham, lekin chiqqan edi. Oy butun yog'dusini yo'qtotib, osmonda xuddi bir parcha oq bulutday oqarib ko'rinardi: osmonda bitta ham yulduz ko'rinmasdi. Ilgari shudringda kumush singari tovlanib turgan o'lanlar sarg'ayib qoldi. Balchiq kahrabo tusiga kirdi. Ko'kish ko'ringan giyohlar sariq-yashil tusga aylandi. Botqoq qushlari ariq bo'yida shudringlarni tovlatib, uzun-uzun soyalar tashlab turgan butalar ustida uchishardi. Qarchig'ay ham uyg'ondi: g'aram ustida kallasini u yoq bu yoqqa burib, botqoqqa norozidek qarab o'tirardi. Dalalarda hakkalar uchishar, yalang oyoq bir bola kaftani tagidan turib, qashina boshlagan chol tomonga otlarni haydab ketdi. Otilgan o'qlar tutuni ko'm-ko'k o'lanlar ustida sutday oqarib ko'rinardi.

Bolalardan biri Levinning oldiga chopib keldi.

– Amaki, kecha shu yerda o'rdaklar bor edi! – deb qichqirdi-da, bola Levinning orqasidan ergashib, uzoqroqda kelaverdi.

Levin birin-ketin uchta moshakni otib tushirdi va o‘ziga zavqi kelgan bolaning ko‘zi o‘ngida otib tushirgani uchun ikki baravar xursand bo‘ldi.

XIII

Ovchilarning birinchi hayvonni yo birinchi qushni qo‘ldan chirmasang, omading kelaveradi, degan karomati to‘g‘ri chiqdi.

Levin o‘ttiz chaqirimcha yurgandan so‘ng rosa charchadi. Qorni ochdi, lekin omadi kelib, o‘n to‘qqizta ajoyib qushni ov xaltasiga tiqdi-da, xaltaga sig‘magan bir o‘rdakni beliga bog‘lab olib, ertalab soat to‘qqizdan oshganda uyiga xursand bo‘lib qaytib keldi. O‘rtoqlari allaqachon uyg‘ongan, qorinlari ochgani uchun nonushta ham qilib bo‘lgan edi.

Levin uchib chiqayotgandagi tarovatlarini yo‘qotgan, buklangan, qurishgan, qonlari qotgan, boshlari yonga bukilgan loyxo‘raklar bilan moshaklarni ikkinchi marta sanashga o‘tirib:

— Shoshmanglar, shoshmanglar, bilaman, o‘n to‘qqizta, — dedi.

Hisob to‘g‘ri chiqdi, Levin Stepan Arkadichning hasadi qo‘ziganini ko‘rib xursand bo‘ldi. Uni xursand qilgan yana bir narsa shu bo‘ldiki, uyga qaytib kelganda, Kitidan xat keltirgan chopar kutib o‘tirgan edi.

«Tamoman sog‘-u salomatman, vaqtim ham chog‘. Ilgari mendan xavotirda bo‘lsang, endi xotirjam bo‘lishing mumkin. Yangi qo‘riqchim bor, Darya Vasilyevna (bu doya xotin Levinning oilasidagi yangi, muhim shaxs edi). Mendan xabar olgani kelibdilar. Qarab, butunlay salomatligimni aytdilar, ularni sen qaytuningcha olib qoldik. Hamma xursand, salomat, sen ham, jonim, shoshilma, agar ov yaxshi o‘tayotgan bo‘lsa, mayli, yana bir kun qola qol».

Ovdagi omadi bilan xotinidan kelgan xat uni shunday xursand qilgan ediki, keyin yuz bergen ikkita kichkina dilsiyohlik Levinga ta’sir ham qilmadi. Ta‘bini xira qilgan narsaning biri shu edi: jiyyron kecha ko‘p urinib qolgan, shekilli, bugun ovqat yemay, mashqi qochib qoldi. Kucher kasal deb aytди.

— Kecha yomon urintirib qo‘ydik, Konstantin Dmitrich, — dedi kucher. — O‘n chaqirim yerga choptirish osonmi?

Kayfi chog‘ bo‘lib turganda dastlab ta’bini yana bir narsa xira qilib qo‘ydi; buni keyincha eslab, o‘zi ham kuldil; bu ko‘ngilsiz voqeal shundan iborat ediki, Kiti bergen va bir haftada ham tugatib bo‘lmaydigandek ko‘ringan mo‘l-ko‘l ozuqadan hech narsa qolmagan edi. Levin ovdan charchab, ochiqib, somsa yeyman, deb umid bilan kulbaga yaqinlashganda, xuddi Laska ilvasin hidini payqagandek, uning ham dimog‘iga somsalarning hidi kelgan, og‘zida ularning ta’mini sezgan edi. Levin darhol Filippga ovqat keltirishni buyurdi, lekin somsa u yoqda tursin, jo‘jalardan ham bitta qolmagan edi.

Stepan Arkadich Vasenka Veslovskiyga ishora qilib:

- Rosa ishtahasi karnay ekan-da! – dedi kulib. – Men ham ishtaham kamligidan zorlanmayman-u, lekin bunikiga qoyilman...
- Nima ham derdik! – dedi Levin Veslovskiyga xo‘mrayib qarab. – Filipp, bo‘lmasa mol go‘shtidan keltir.
- Mol go‘shtini ham yeb bo‘ldilar. Suyaklarini itlarga berdim, – dedi Filipp.

Levin shu qadar xafa bo‘ldiki, alamiga chidolmay:

- Menga loaqlal biron narsa qoldirishdimi-yo‘qmi? – dedi yig‘lamoqdan beri bo‘lib, keyin Veslovskiyga qaramaslikka tirishib, qaltiloq tovush bilan Filippga o‘shqirdi: – Bo‘lmasa, anavi otib kelgan qushlarimdan tozalab, achitqi bosib qo‘y! Menga hech bo‘lmasa sut so‘rab chiq.

Sutni ichib, qornini to‘yg‘izib olgandan so‘ng begona odamga achchiq qilgani uchun xijolat tortib, ochlikdan jahli chiqqaniga kula boshladi.

Kechqurun yana ovga chiqishdi, Veslovskiy ham bir necha qush urgandan so‘ng kechasi uyga qaytishdi.

U yoqqa qanday o‘ynab-kulib ketishgan bo‘lsa, bu yoqqa ham shunday o‘ynab-kulib qaytishdi. Veslovskiy goh ashula aytar, goh o‘zini aroq bilan siylagan va unga: «Ayb qilmaysan-da», deb aytgan mujiklarning mehmon qilganini zavq bilan eslardi; goh yong‘oq, qishloq qizi va mujik bilan o‘zi o‘rtasida o‘tgan tungi mojaroni esladi, mujik undan, xotining bormi, – deb so‘ragan, xotini yo‘qligini bilgandan keyin: «Bo‘lmasa birovning xotiniga olayma, ko‘zing kuyayotgan bo‘lsa, qalampir chayna», deganini aytib berdi. Mujikning bu so‘zлari Veslovskiyni juda ham kuldirardi.

– Umuman, safarimizdan juda xursandman. Siz-chi, Levin?

— Men ham juda mammunman, — dedi Levin samimiyat bilan; uyda Vasenka Veslovskiyga nisbatan his qilgan dushmanlik tuyg‘usi tarqalgani, unga nisbatan yuragida eng yaqin do‘stlik hislari uyg‘ongani uchun chindan ham xursand edi.

XIV

Ertasiga ertalab, soat o‘nda, Levin o‘z xo‘jaligini aylanib chiqqandan so‘ng kelib Vasenka yotgan hujrani taqillatdi.

— Entrez¹, — deb qichqirdi Veslovskiy, — kechirasiz, hozirgina ablutions²imni tugatdim, — dedi u kulimsirab. Veslovskiy Levin qarshisida ko‘ylakchan turardi.

— Uyalmang, bermalol, — dedi Levin oyna yoniga o‘tirib. — Yaxshi uxladingizmi?

— O‘likday. Qalay, bugungi kun ovbopmi?

— Siz choy ichasizmi yo qahva?

— Unisini ham, bunisini ham ichmayman. Ovqat qilaman. To‘g‘risini aytsam, juda xijolatdaman. Xonimlar, chamamda, turishgan bo‘lsa kerak? Bir aylanib kelsak yaxshi bo‘lardi. Otlaringizni ko‘rsatardingiz.

Levin Veslovskiy bilan bog‘da aylanib, otxonaga borishdi, ikkovlashib gimnastika ham qilgandan so‘ng mehmoni bilan uyga qaytib, birga mehmonxonasiga kirdi.

Kiti samovar yonida o‘tirgan edi; Veslovskiy Kitining oldiga kelib:

— Juda ajoyib ov qildik, orttirgan taassurotlarimizning haddi-hisobi yo‘q! — dedi. — Xonimlarning bunday lazzatdan mahrumligiga afsus yeysan kishi!

«Na chora, uy bekasi bilan qanday bo‘lsa ham gaplashishi kerakda», dedi o‘zicha Levin. Mehmonning tabassumida, Kiti bilan gaplashganida siy whole yana allaqanday bir ifoda bordek ko‘rinib ketdi.

Knyaginiya stolning u tomonida Marya Vasilevna va Stepan Arkadich bilan birga o‘tirgan edi; u Levinni yoniga chaqirib olib, Kitining Moskvaga borib ko‘z yorishi kerakligini, buning uchun uy tayyorlash zarurligini aytdi. Sodir bo‘layotgan voqeaneing

¹ Kiring (*frans.*).

² Ustdidan suv quyish (*frans.*).

ulug'vorligini o'zining tubanligi bilan tahqir etuvchi har qanday tayyorgarlik to'y mahalida Levinda qanchalik noxush iz qoldirgan bo'lsa, Kitining ko'z yorishi uchun ko'rila digan tayyorgarliklar ham unga shunchalik tahqiromuz bo'lib tuyulardi; holbuki Kitining ko'z yoradigan kuniga faqat barmoq bilan sanaladigan kurnlargina qolgan edi. Levin knyaginyaning tug'iladigan bolani yo'rgaklash usuli to'g'risidagi gaplarini hamisha eshitmaslikka tirishar, allaqanday sir bilan to'qilayotgan matolarni, Dolli juda katta ahamiyat beradigan allaqanday uchburchak gazmollarni va shunga o'xshagan narsalarni ko'rmaslik uchun yuzini teskari o'g'irib olardi. Levinga o'g'il ko'rasan deb va'da qilishsa ham, har holda bunga ishonolmasdi, unga bu narsa shu qadar g'ayri oddiy bir narsa bo'lib ko'rinaldi; o'g'lining tug'ilish hodisasi (har holda u o'g'il tug'iladi, deb ishonardi) unga, bir yoqdan, nihoyat darajada katta hodisa, erishilmaydigan baxt bo'lib, ikkinchi yoqdan, shu qadar sirli bir hodisa bo'lib ko'rinaldi, bu voqeani xayoliga keltirib, odamlar qilib kelgan allaqanday oddiy narsaga tayyorgarlik ko'rish Levinga inson g'azabini keltiradigan, inson izzat-nafsi yerga uradigan bir narsa bo'lib tuyulardi.

Lekin knyaginya uning yuragidagi hislarni payqamas, shuning uchun kuyovining bu haqda o'ylagisi, gapirgisi kelmaganini uning yengiltakligiga, parvosizligiga yo'yardi-da, oqibat, hol-joniga qo'y may qiyardi. Knyaginya kvartira topish vazifasini Stepan Arkадichga yuklab, endi Levinni yoniga chaqirdi.

— Men hech narsa bilmayman, knyaginya. Xohlaganingizni qilavering, — dedi Levin.

— Qachon ko'chib tushishlaringni hal qilish kerak.

— To'g'risini aytsam, hayron bo'lib qoldim. Lekin Moskvasiz ham, doktorlarsiz ham millionlab bolalar tug'ilayotganini bilaman... nega endi...

— Unday bo'lsa...

— Yo'q, ixtiyor Kitida.

— Bundan Kitiga og'iz ochib bo'lmaydi! Nima, aytib yuragini chiqaring, deysanmi? Shu yil bahorda Natalya Golitsina doyaning nobopligidan nobud bo'ldi.

— Ixtiyorningiz, nima desangiz men tayyorman, — dedi Levin xo'mrayib.

Knyaginya unga bir nimalar gapira boshlagan edi, Levin qulqoq solmadi. Knyaginya bilan o'zi o'rtasida o'tgan gap ta'bini xira qilgan bo'lsa ham, bu gap emas, samovar oldida ko'rib turgan narsalari qovog'ini tushirib yuborgan edi.

Levin Kiti tomonga egilib olib, o'zining chiroyli tabassumi bilan unga bir nimalar gapirayotgan Vasenkaga hamda qizarib, besaranjomlanib o'tirgan Kitiga ora-sira qarab qo'yib: «Yo'q, bu bo'ladigan gap emas!» deb o'ylardi.

Vasenkaning alpozida, ko'z qarashlarida, jilmayishlarida suqlanish bor edi. Levinga Kitining alpozi va ko'z qarashlarida ham shunday his bordek ko'rindi. Shundan keyin yorug' dunyo ko'ziga qorong'i bo'ldi. Yana xuddi kechagidek, baxt, farog'at va malohat cho'qqisidan jaholat, g'azab va haqirlik chohiga birdan qulatib yuborilganligini his etdi. Yana hamma, hamma narsa ko'ziga xunuk ko'rinish ketdi.

– Shunday bo'lsin, knyaginya, o'zingizga ma'qulini qilavering, – dedi Levin yana atrofiga jalanglab.

Stepan Arkadich, aftidan, knyaginya bilan o'rtada o'tgan gapgagina emas, balki Levinni bezovta qilayotgan va o'zi ham sezib turgan sababga shama qilib:

– Boshga tushganni ko'z ko'raveradi, – deb qo'ydi. – Bugun juda kech chiqding-da, Dolli!

Hamma Darya Aleksandrovna bilan ko'rishgani turdi. Vasenka bir zumgagina o'rnidan turdi-yu, xonimlarga nazokat ko'rsatishdan mahrum bo'lgan hozirgi yoshlarga xos bir ado bilan boshini sal egidda, nimagadir kulib yuborib, yana gapiga tushib ketdi.

– Meni Masha qiyab yubordi. Yomon uxladi, ertalab turib injiqlik qildi, – dedi Dolli.

Vasenka Kiti bilan boshlagan gap yana kechagi mavzu ustida, Anna to'g'risida, muhabbat jamiyat sharoitidan yuqori turishi mumkinmiyo'qmi, degan mavzuda ketayotgan edi. Kitiga bu gap yoqmas edi, chunki uning mundarijasi ham, so'z daromadining ohangi ham, bu gaplarning eriga qanchalik ta'sir qilishini, ayniqsa, yaxshi bilgani vajidan ham Kitini bezovta qilardi. Ammo Kiti shu qadar sodda, shu qadar ma'sum bir juvon ediki, bu gapni qanday qilib to'xtatishni ham bilmas, hatto bu yigitning e'tiborini o'ziga jalb qilgani uchun mamnun bo'lganini yashirishga ham uquvi yetmas edi. Aslida, bu gapni to'xtatgisi kelardi-yu, lekin qanday tugattirishni bilmas edi. Nimaiki

qilmasin, hammasini eri sezishini, keyin yomon tomonga yo'yishini bilardi. Haqiqatan ham, Kiti opasidan Mashaga nima bo'lganligini so'raganda, Vasenka o'zini diqqinafas qiladigan bu gapning tugashini kutib, Dolliga parvosiz bir ko'z bilan qarab turganda, Kitining bu savoli Levinga g'ayritabiyy, jirkanch bir nayrang bo'lib tuyuldi.

– Nima deysizlar, bugun qo'ziqorin tergani boramizmi? – deb Dolli so'rangan edi Kiti:

– Boramiz, juda soz, men ham boraman, – dedi-yu, qizarib ketdi. Kiti odob yuzasidan Vasenkaning borish-bormasligini so'ramoqchi bo'ldi, lekin so'ramadi. Eri o'z yonidan qadamlarini gursillatib o'tib ketayotganda aybdor bir alpozda: – Qayoqqa, Kostya? – deb so'radi. Kitining yuzida ko'ringan bu aybdorlik alomatlari Levanning barcha gumonlarini tasdiqlab tushdi.

Levin xotiniga qaramasdanoq:

– Mening yo'g'imda mashinist kelgan ekan, ko'rganim yo'q edi, – dedi.

Levin pastga tushib, kabinetidan chiqishga ulgurmay, ehtiyotsizlik bilan shoshib kelayotgan xotinining tanish odimlarini eshitib qoldi.

– Nimaga yugurasan? – dedi Levin xotiniga quruqqina qilib. – Bizning ishimiz bor axir.

Kiti mashinist-nemisga murojaat qildi:

– Kechirasiz, erimga bir-ikki og'iz gapim bor edi.

Nemis chiqib ketmoqchi bo'lgan edi, Levin to'xtatib qoldi:

– Bemalol o'tiravering.

– Poyezd soat uchda o'tadi, a? – deb so'radi nemis. – Kechikib qolmasam yaxshi bo'lardi-da.

Levin javob qilmay, xotini bilan tashqariga chiqdi.

– Xo'sh, menga qanaqa gapingiz bor edi? – dedi Levin fransuzcha qilib.

Levin xotinining yuziga qaramasdi, uning shu ahvolida butun yuzi titrab turganini, xarob bo'lgan kishiday ezilib ketganini ko'rgisi kelmasdi.

– Men... men aytmoqchi edim, bunday umr qilib bo'lmaydi... bu axir azob-ku... – dedi Kiti zo'rg'a.

– Bufetda odamlar bor, tomosha ko'rsatmang, – dedi zarda qilib Levin.

– Bo'lmasa, yur bu yoqqa!

Ular dahlizda turishgan edi. Kiti yondagi uyg'a kirmoqchi bo'ldi. Lekin u yerda ingliz xonim Tanyani o'qitayotgan edi.

– Bo'lmasa, yur boqqa.

Bog'da ham yo'lkalarni tozalab yurgan mujikka duch kelishdi. Kitining ko'z yoshlari to'kilgan, Levinning esa hayajon to'lgan yuzlarini mujik ko'rib turganini o'ylab ham o'tirmay, o'zlarining allaqanday ofatdan qochib ketayotgan odamlarga o'xshab qolganlarini o'ylab ham o'tirmay, tez-tez odimlar bilan yurib borishar, ko'n-gillaridagi gaplarini aytib, bir-birlarini hushlariga keltirish zarurligini, birga bo'lishib, shu bilan o'zlarini ezib turgan azob-u uqubatdan xalos bo'lish zarurligini yuraklarida sezib turishardi.

– Bunday yashab bo'lmaydi! Bu azob-ku! Men ham qiyalyapman, sen ham qiyalyapsan. Nima uchun bunday? – dedi Kiti, nihoyat, arg'uvon daraxtlari o'sib yotgan yo'lkaning burchagidagi xilvat o'rindiqqa yetib borishganda.

Levin anavi kecha Kiti oldida mushtlarini ko'ksiga bosib turib gapirgan edi; hozir ham shu qiyofada turib:

– Shoshma, menga faqat shuni ayt: uning muomalasida odobsizlik, haromilik, odamni yerga uradigan xunuk narsa bormidi? – dedi.

– Bor edi, – dedi Kiti ovozi qaltirab. – Shoshma, Kostya, ayb menda emasligini nahotki ko'rmayotgan bo'lsang? Ertalabdan oq muomalaman sovuq qilib olay devdim, lekin bu odamlar... nimaga keldi? O'zimiz qanday baxtiyor bo'lib yuruvdik! – dedi Kiti piq-piq yig'lab; to'lishib qolgan gavdasi yig'isidan titrardi.

Bularni orqasidan hech kim quvmaganiga, demak chopib ketishning hech qanday zarurati bo'lmaniganiga, xilvatdag'i o'rindiqda hech qanday ko'ngil shodligi topishlari mumkin bo'lmaniganiga qaramay, u yoqqa chopib ketishganini bog'bon ko'rib, hayron qoldi, keyin yonidan uylariga xotirjam bo'lishib, kulishib qaytganini ham ko'rdi.

XV

Levin xotinini yuqori xonaga kuzatib qo'yib, o'zi Dollining bo'lmasiga kirdi. Darya Aleksandrovna shu bugun juda qattiq xafa edi. U bo'lmasida u yoqdan bu yoqqa yurib, burchakda yig'lab turgan qiziga jahli chiqib gapirayotgan edi.

– Butun kuni bilan burchakda turasan, ovqatni ham yolg‘iz yeysan, bitta ham qo‘g‘irchoqni ko‘rmaysan, yangi ko‘ylak ham tikib bermayman, – deyardi onasi qanday jazo berishini bilmay.

– Yo‘q, juda yomon qiz bu! – dedi keyin Levinga yuzlanib. – Hayronman, bu yaramas qiliqlarni qayerdan o‘rganyapti ekan?

Levin o‘z ishi to‘g‘risida maslahatlashgani kirgan edi; dilsiyohlik ustidan chiqib qolgani uchun biroz ta‘bi xira bo‘lgan bo‘lsa ham, yana og‘ir turib:

– Nima qilibdi bu qiz? – deb so‘radi.

– Grisha bilan malina tergani borishgan ekan, o‘scha yerda... nima qilganini aytishga og‘zim ham bormaydi. Miss Ellotdan ming martalab qasam ichvorging keladi. Hech nimaga parvo qilmaydi, mashina... Figurez vous, que la petite¹.

Shunday qilib, Darya Aleksandrovna qizining jinoyatini aytib berdi.

– Ey, shunchaki bir sho‘xlik qilibdi-da, bu aslo yomon maylishtiyogi borligini bildirmaydi, – deb tasalli berdi Levin.

– Ha, o‘zingning mashqing pastroq? Nima ish bilan kelding? – deb so‘radi Dolli. – Ular nima qilishyapti?

Levin bu savol zamirida: aytadigan gapingni bemalol aytaver, degan ma’no borligini angladi.

– Men ular oldidan kelganim yo‘q. Kiti bilan bog‘da edik. Biz yana janjallahib qoldik, o‘scha... Stiva kelgandan beri.

Dolli unga aqlli, uquvli ko‘zлari bilan qarab turardi.

– Qo‘lingni ko‘ksingga qo‘yib turib ayt: Kitida emas... o‘scha janobdan ta‘bni xira qiladigan, ta‘bni xira qiladigan emas, odamni dahshatga soladigan, erni yerga kirgizib yuboradigan qiliq sodir bo‘ldimi?

– Ya‘ni, senga nima desam bo‘ladi... tur, burchakda tur! – dedi Mashaga qarab; Masha oyisining yuzida xiyol jilmayish paydo bo‘lganini sezib, endi o‘girilgan edi. – Uning bu qilig‘i kiborlar jamoasida: u ham o‘zini hamma yosh yigitlar singari tutyapti, il fait la cour a une jeune et jolie femme², kibor eri esa bundan faqat xursand bo‘lishi kerak, degan xulosani tug‘dirishi mumkin.

¹Qarangki, kichkina qiz... (*frans.*)

²Yosh, chiroyli juvonga jigarsosxtalik qilib yuribdi (*frans.*).

Levin xo'mrayib turib:

- Ha, ha, lekin o'zing sezdingmi? – dedi.
- Men tugul, Stiva ham sezdi. Choydan keyin to'ppa-to'g'ri: je crois due Veslovskiy fait un petit brin de cour a Kiti¹, – dedi.
- Juda soz, endi ko'nglim joyiga tushdi. Veslovskiyni haydab chiqaraman, – dedi Levin.

– Voy o'lay, jinni bo'lodingmi? – deb yubordi Dolli esxonasi chiqib. – Hay, Kostya, o'zingni bos! – dedi yana kulib. Keyin Mashaga qarab: – Bor, Fannining oldiga ketaver, – deb qo'ydi. – Yo'q, mabodo yo'q demasang, Stivaga men aytib qo'yaman. O'zi olib ketadi. Mehmonlar kelar ekan, deb qo'ysak ham bo'ladi. To'g'risini aytganda, u bizning uyimizga munosib odam emas.

– Yo'q, yo'q, o'zim aytaman.

– Uriшиб qolasan-da?

– Qilcha ham. Aytsam, shunaqa kayfim chog' bo'ladiki, – dedi Levin chindan ham xursand bo'lganidan ko'zlarini chaqnatib. – Dolli, kel endi, Mashanining gunohidan o't! Endi sho'xlik qilmaydi, – dedi kichkina jinoyatchining yonini olib; Masha Fannining oldiga ketmay, onasining qarashini yer ostidan poylab, ro'parada yuragi dov bermay turar edi.

Onasi qaradi. Qizaloq ho'ngrab yig'lab yubordi, yugurib kelib yuzchasini onasining tizzalariga surtdi, Dolli ham ozg'in, muloyim qo'lini qizining boshiga qo'ydi.

Levin: «U bilan bizning o'rtamizda qanaqa aloqa bo'lishi mumkin?» deb o'yladi-yu, Veslovskiyni qidirib ketdi.

Dahlizdan o'tib ketayotib, stansiyaga borish uchun izvoshni qo'shishga buyurgan edi, lakey:

- Kecha ressori sinib qoldi, – dedi.
- Bo'lmasa aravani qo'shinglar, lekin tezroq. Mehmon qani?
- Uylariga kirib ketdilar.

Veslovskiy jomadonidan narsalarini chiqarib, yangi romanslarini yoyib tashlagan edi; Levin kirganda u ot minish uchun to'qali qo'njni o'lchab ko'rayotgan edi.

Levining yuzida boshqacha alomat bormidi yo o'zi qilgan o'sha ce petit drin de cour² bu oilaga to'g'ri kelmaganligini sezib

¹ Nazarimda, Veslovskiy Kitiga xushtor bo'lib qolganga o'xshaydi (*frans.*).

² Andak ishqibozlik (*frans.*).

turganmidi, har holda, Levin kirganda biroz (kibor odamda bo‘ladi-gan darajada) xijolatli ko‘rindi.

– To‘qali qo‘nj kiyib ot minasizmi?

– Ha, odam ancha toza bo‘ladi, – dedi Veslovskiy semiz oyog‘ini stulga qo‘ygan holda qo‘njining pastki ilgagini qadab va og‘zi ulog‘iga yetgudek kulimsirab.

Veslovskiy, shubhasiz, yaxshi yigit edi, shuning uchun Vasenka ko‘zlarida ko‘ringan hurkaklikni sezib, Levinning unga ham rahmi keldi, uy egasi bo‘la turib shunday qilayotgani uchun o‘zi ham xijolat bo‘ldi.

Bugun ertalab ikkovlari gimnastika qilishib turib shishib ketgan to‘sinni ko‘tarishganda sindirishgan kaltakcha sinig‘i stolda yotgan edi. Levin shu kaltakchani oldi-da, gapni qanday boshlashni bilmay, shu kaltakchani titilib yotgan bir uchidan sekin-sekin sindira boshladи.

– Men bu yerga... – deb gap boshlagan edi Levin, biroq to‘xtab qoldi; ammo Kiti hamda boshqa gaplar birdan esiga tushdi-yu, Veslovskiyning ko‘zlariga tik qarab turib: – Aravani qo‘shtirib qo‘ydim, – dedi.

Veslovskiy hayron bo‘lib so‘radi:

– Yana nima gap? Bir yoqqa boramizmi?

Levin kaltak uchini yulqib turib:

– Siz temir yo‘lga borasiz, – dedi qovoqlarini solib.

– Siz bir yoqqa jo‘nayapsizmi yo biron hodisa ro‘y berdimi?

– Ro‘y berdi: men mehmon kutyapman! – dedi Levin kaltakning uchini kuchli barmoqlari bilan tobora tez yulqib turib. – Yo‘q, mehmon ham kutayotganim yo‘q, hech narsa ham ro‘y bergani yo‘q, biroq sizning ketishingizni iltimos qilaman. Hurmatsizlik ko‘rsatayotganimni qanday tushunsangiz, ixtiyor o‘zingizda.

Vasenka qaddini rostladi, keyin viqor bilan:

– Sababini bilay, sizdan iltimos qilaman... – dedi nihoyat sirga tushunib.

Levin yuzining go‘shtlari lip-lip qilib uchib turganini yashirishga tirishib, past, sekin ovoz bilan:

– Sababini aytib berolmayman, – dedi. – Innaykeyin, so‘ramaganingiz ma’qul.

Kaltakning uchi sindirib bo‘lingani uchun, Levin uni yo‘g‘on uchiga barmoqlarini bosib yordi-da, yerga tusha boshlagan tomonini darrov ushlab oldi.

Ertalab gimnastika mahalida o'zi ushlab ko'rgan o'sha paylar, kuchga to'lgan bu qo'llar, chaqnab turgan bu ko'zlar, osoyishta chiqayotgan bu ovozlar, yuzining titrab turishi Vasenkani jo'nab ketish zarurligiga har qanday so'zdan ortiqroq ishontirdi, shekilli, Veslovskiy yelkalarini qisib, nafrat bilan iljaygandan so'ng bosh egib ta'zim qildi.

– Oblonskiyni ko'rsam bo'larmikan?

Yelkalarini qisgani, iljaygani Levinning jahlini chiqarmadi. «Boshqa nima ham chorasi bor?» – deb o'yladi Levin.

– Hozir aytib yuboraman.

Stepan Arkadich o'rtog'ini haydashayotganini eshitgandan va mehmonning ketishini kutib, bog'da aylanib yurgan Levinni topgandan so'ng:

– Bu qanaqa bema'nilik! – dedi. – Mais c'est ridicule¹. Seni qanaqa pashsha chaqdi? Mais c'est du dernier ridicule!² Senga nima-ga bunday ko'rinati, agar yosh yigit...

Ammo Levinning pashsha chaqib olgan joyi hali ham og'riyotgan edi, shekilli, Stepan Arkadich buning sababini aytmoqchi bo'lib turganda, rangi yana bo'zarib, gapni darhol bo'lib qo'ydi:

– Jon birodar, qo'y, menga sababini aytma! Noilojman! Sening oldingda ham, uning oldida ham uyatliman. Ketsa, unga bir nima bo'lib qolmaydi, ammo qolsa, mening ham, xotinimning ham dilimiz siyoh bo'ladi.

– Axir nafsi og'riydi-ku! Et puis c'est ridicule!³.

– Mening ham nafsim og'riyapti, ham o'zim qiyalyapman! Mening hech qanaqa aybim yo'q, shu sababli qiyinalishimga ham hojat yo'q.

– E, sendan bu narsani kutmagan edim! On peut etre jaloux, mais a ce point, c'est du dernier ridicule!⁴

Levin shartta o'girildi-yu, undan uzoqlashib, xiyobon ichiga kirib ketdi; xiyobonda bir o'zi u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Hademay aravaning taraqa-turug'ini eshitdi va boshida shotland shapkasi bilan pichan ustida (uning sho'riga aravada o'rindiq yo'q edi) o'tirgan

¹ Bu juda kulgili-ku! (*frans.*)

² Axir, bu borib turgan darajada kulgili-ku! (*frans.*)

³ Innaykeyin, bu kulgili ham (*frans.*).

⁴ Rashk qilish mumkin, lekin bu darajasi – borib turgan darajada kulgili! (*frans.*)

Vasenkaning o‘ydim-chuqur yerlarda silkinib, xiyobondan o‘tib borayotganini daraxtlar panasidan ko‘rdi.

Lakey uydan chopib chiqib aravani to‘xtatganda, Levin: «Bu qanaqasi bo‘ldi?» deb o‘ylandi. U – Levinning tamom esidan chiqib ketgan mashinist edi. Mashinist Veslovskiyga ta’zim qilib turib bir nimalar der edi va aravaga chiqdi, ikkovlari birga jo‘nadi.

Stepan Arkadich bilan knyaginya Levinning qilig‘idan g‘azabga keldi. U ham o‘zini faqat borib turgan ridicule¹ his qilish bilan birga butunlay aybdor, sharmandai sharmisor bo‘lganini his qilardi; lekin o‘zi bilan xotinining qattiq azobda qolganini eslab: «Yana shunday hodisa yuz bersa, nima qilarding?» – deb o‘zidan so‘rar: «yana shunday qilardim», deb javob berardi.

Shunday bo‘lsa ham kechga tomon hamma, baayni jazosini olib bo‘lgan bolalardek yoki rasmiy qabuldan so‘ng o‘zlarini erkin his qilgan kattalardek nihoyatda jonlanib, xushchaqchaqlashib ketdi; Vasenkaning quvilganini kechqurun knyaginya yo‘qligida, uzoq o‘tmishda bo‘lgan hodisa singari eslab-eslab qo‘yishardi; knyaginya bo‘lsa Levinning bu qilig‘ini haligacha kechirmagani uchun umumiy vaqtichog‘likka qo‘shilmas edi. Voqealarni otasiga o‘xshatib juda qiziq qilib aytib berishga usta bo‘lgan Dolli Vasenka hodisasini uchinchi va to‘rtinchi marta, har safar yangidan-yangi kulgili qo‘shimchalar bilan hikoya qilib berib, Varenkani kulgidan ichaklarini uzayozdi: «Bir vaqt mehmonga yangi lenta taqib qo‘yay deb mehmonxonaga kirsam, qulog‘imga aravaning taqir-tuquri eshitilib qoldi-ku! Aravada kim ekan deb qarasam – Vasenkaning o‘zi-da! Boshida shotland shapkasi, qo‘llarida romanslari, oyoqlarida suvoriy etiklari, pichan ustida gasht qilib o‘tiribdi!» derdi.

– Karetaga o‘tqazib yuborsalar ham koshki edi! Ha, keyin: «Hoy, to‘xtang!» degan ovozni eshitib qoldim, Ha, rahmlari kelibdi, deb o‘yladim. Qarasam, yo‘q, aravaga semiz nemisni ham o‘tqazib, hayt deb jo‘nab qolishdi... Bechora lentalarim taqilmay qoldi!..

XVI

Darya Aleksandrovna niyat qilgan ishni bajo keltirib, Annanikiga bordi. Singlisini xafa qilib, kuyovini ranjitgani uchun o‘zi ham juda koyidi; u Levinlarning Vronskiy bilan aloqa qilishini hech

¹ Kulgili (*frans.*).

istamaganliklari to‘g‘ri ekanligini yaxshi anglardi; shunday bo‘lsa ham Annani ko‘rib kelishini o‘zining burchi deb hisoblar va uning ahvoli o‘zgargan bo‘lsa ham, lekin o‘zining Annaga bo‘lgan muhabbatni o‘zgarmaganligini ko‘rsatgisi kelar edi.

Darya Aleksandrovna Levinlarning yordamiga ko‘z tutgisi kel-madi-da, bemalolroq ketish uchun qishloqqa ot kira qilgani odam yubordi; lekin Levin bilib qolib, unga tanbeh qildi.

– U yoqqa borishing nima uchun ta’bimni xira qiladi deb o‘ylaysan? Borishing ta’bimni xira qilganda ham, mening otlarimni olmaganing ta’bimni besh battar xira qiladi, – dedi Levin. – Borishga bel bog‘laganiningni menga hali og‘zingdan ham chiqarganing yo‘q-ku. Qishloqdan ot kira qilishing, avvalo, menga ma’qul emas, xususan, ular eltib qo‘yishga ko‘nishadi-yu, lekin eltib qo‘yishmaydi. Menda har qancha kerak bo‘lsa ot bor. Meni xafa qilging kelmasa, otlarimni ol.

Darya Aleksandrovna ko‘nishga majbur bo‘ldi; shunday qilib belgilangan kunga Levin qaynegachisi uchun to‘rt otliq aravani, bularni haydab boradigan odamlarni taxt qilib qo‘ydi; ajratgan otlari ko‘p xunuk bo‘lsa ham, lekin ishga solinib va minilib kel-gan, Darya Aleksandrovnni bir kundayoq manzilga yetkazib qo‘yadigan otlar edi. Hozir uyga qaytayotgan knyaginya uchun ham, doya uchun ham otlar zarur bo‘lib turgan bir paytda, Darya Aleksandrovnaga otlarini berib yuborish Levinni qiy nab qo‘ysa ham, lekin mehmondo‘stlik burchi Darya Aleksandrovnaning Levin uyida turib ot kira qilishiyo‘l qo‘ymas edi, bundan tashqari, olib borib qo‘yish uchun Darya Aleksandrovadan so‘rashgan yigirma so‘m kira puli qaynegachisi uchun juda katta pul ekanligini ham bilardi; Darya Aleksandrovnaning pul masalasida tortayotgan qiyinchiligin esa Levinlar o‘z qiyinchiliklaridek his qilib kelardilar.

Darya Aleksandrovna Levinning maslahati bilan tong yorishmay yo‘lga chiqdi. Yo‘l yaxshi, izvosh tinch, otlar chaqqon yugurishar, haydovchi o‘rindig‘ida kucherdan tashqari bir kontora xodimi lakey o‘rnida borar edi; Levin buni yo‘lda xavfsizroq borishar, deb qo‘sib yuborgan edi. Darya Aleksandrovna mudrab qolib, karvonsaroyga yaqinlashganlaridagina uyg‘ondi; karvonsaroyda otlarini alishtirish kerak edi.

Levin Sviyajskiyiniga ketayotganda qo‘ngan badavlat mujik-nikida choy ichishib, xotin-xalajlar bilan bolalar haqida, chol bilan

esa graf Vronskiy haqida (chol Vronskiyni juda maqtadi) ancha gaplashib o'tirishgandan keyin, Darya Aleksandrovna soat o'nda yana yo'lga tushdi. Uyda bolalarining tashvishi bilan bo'lib o'ylashga vaqt topolmasdi. Mana endi shu to'rt soatli safarida, ilgari ko'nglida yig'ilib qolgan o'yłari birdan miyasiga keldi-yu, o'tgan hayotini har tomonlama bir-bir xayolidan kechirdi; ilgarilari hech bunday bo'limgan edi. Uylari o'ziga g'alati tuyulardi. Oldin bolalarini o'yladi, knyaginya, ayniqsa, Kiti (bunga ko'proq ishonardi) bolalariga qarab turishni va'da qilishgan bo'lishsa ham, baribir, yana xavotirda edi. — «Masha yana sho'xlik qilmasaydi, Grishani ot tepmasaydi, Lilining qorni og'rib-netib qolmasaydi», deb tashvish tortardi. Keyin esa kundalik masalalar o'rnini yaqin kelajak masalalari egalladi. Shu yil qishda Moskvada yangi kvartira olish, mehmonxonadagi mebellarni o'zgartirish, katta qiziga po'stin tiktirish va hokazolar haqida o'ylana boshladi. So'ngra bulardan ham uzoqroq kelajak masalalari, ya'ni bolalarini odam qilish masalalari ko'z oldiga kela boshladi. «Qizlar-ku tuzuk, bolalar qanday bo'larkin? — deb o'ylardi. — Yaxshiki hozir Grisha bilan shug'ullanyapman, lekin o'zim bo'shman, tug'mayapman, shu sababdan. Stivadan esa xomtama bo'lib o'tirishning, albatta, foydasi yo'q. Shuning uchun durust odamlar yordami bilan bolalarimni katta qilib olaman; bordi-yu, yana tug'sam... «shundan keyin xotinlar qarg'ishga uchraganlari uchun qiynalib tug'ishadi», — degan so'zning naqadar nohaq ekanligini o'ylab ketdi. — Tug'ish-ku hech gap emas, ammo ko'tarib yurish — mana shunisi yomon qiynaydi», deb o'yladi, so'nggi homiladorligini va shu so'nggi bolasining o'lib ketganligini ko'z oldiga keltirib. Shundan keyin karvonsaroydagi yosh juvon bilan gaplashgan gapi esiga tushdi. Bolasi bormi-yo'qligini so'raganda, o'sha chiroyli juvon kulib turib:

- Bitta qizim bor edi, xudo meni tashvishdan qutqazdi; ro'za haftasida joyiga qo'ydim, — dedi.
- Qalay, qizingga kuyasanmi? — deb so'radi Darya Aleksandrovna.
- Kuyib zaril keptimi? Usiz ham cholning nevaralari ko'p. Turgan-bitgani tashvish. Ish qilolmasang, hech nimaga qarayolmasang. Qo'l-oyog'ingga tushov.

Yosh juvon shuncha chiroyli, suyumli bo'lsa ham, baribir, javobi Darya Aleksandrovnaga jirkanch tuyulgan edi. Mana hozir o'sha

so‘zlarni beixtiyor xayoliga keltirdi. Bu behayo so‘zlarda, har nechuk, haqiqat zarrasi bor edi.

Darya Aleksandrovna er qo‘lida o‘tgan ana shu o‘n besh yillik umrining hammasini nazaridan o‘tkazib: «Faqat homiladorlik, ko‘ngil aynishlik, miya zaifligi, hamma narsaga beparvo qarashlik, ayniqsa, bemazagarchilikdan iborat bo‘ldi. Kiti, yoshgina, yaxshigina Kiti ham shunchalik husnini yo‘qotib qo‘ydi-ku, men homilador bo‘lganimda, bilaman, juda xunuklashib ketaman. Ko‘z yorish, azob chekish, dahshatli to‘lg‘oq, mana shu so‘nggi dam... keyin emizish, bu uyqusiz kechalar, bu dahshatli og‘riqlar...»

Darya Aleksandrovna har safar bola tuqqanda ko‘krak uchi yorilib bergen azobi, shu birgina og‘riqning o‘zini eslab, seskanib ketdi. «Keyin bolalar og‘rig‘i, bular tufayli yurakdan ketmaydigan doimiy vahima, so‘ngrat tarbiya, yaramas qiliqlar (kichkina Mashaning malinada qilgan jinoyatini esladi), o‘qish, lotin tili – bularning hammasi shu qadar dudmal, qiyin narsalarki. Bulardan ham yomoni – shu bolalarning o‘limi». Mana shundan keyin, bag‘rini hamma vaqt qon qaqqhatib kelgan so‘nggi emizik bolasining o‘limi, dafni, kichkina, pushti rang tobutchasi atrofidagi umumiy loqaydlik, zar xoch qo‘yib pushti rang qopqog‘ini yopishayotganda tobutchasi ichidan ko‘ringan chakka sochlari, qo‘ng‘iroq qonsiz manglaychasi, hayrat bilan ochilgan kichkina og‘izchasini ko‘rganda yolg‘iz ona qalbini pora-pora qiladigan dard-hasrat yana ko‘z o‘ngida gavdalandi.

«Bu narsalarning nima keragi bor ekan-a? Bu narsalardan nima chiqar ekan? Bir dam orom bilmay – goh yukli, goh emizikli bo‘lib, har doim zardam qaynab, to‘ng‘illab yuraman, o‘zim qiynalamani, boshqalarni ham qiynayman, erimga xunuk ko‘rinib, umrimni shu taxlit azob-u uqubatlar bilan o‘tkazaman, oqibatda, badbaxt, tarbiyasi buzuq, yo‘qsil bolalar yetishadi. Mana hozir ham, agar yoz kunlarimizni Levinlarnikida o‘tkazmaganimizda, bilmayman, qanday kun ko‘rar edik ekan. Albatta, Kostya bilan Kiti o‘zlarini nazokatl tutishadi, shuning uchun biz buni sezmaymiz, lekin hayotimiz bu xilda davom etolmaydi. O‘zlarini ham farzand ko‘rishadi. Keyin bizga yordam qilisholmaydi; hozir ham o‘zlarini qisilishib qolishdi. Yo o‘zlariga qariyb hech narsa qoldirmay, bor mulkini bolalariga bo‘lishib berib yuborgan dadam yordam qiladilarmi? Bu ahvolda bolalarimni bir o‘zim katta qilolmayman, bilmadim, o‘zgalar oldida o‘zimni xor qilib

yordam olsam, boshqa gap. Xayr, baxtimga bolalarim o'lmay, ularni bir amallab tarbiya qilib oldim ham deylik. Bu taqdirda, eng yaxshi odamlar bo'lib yetishganda ham har holda yaramas, pastkash odamlar bo'lmaydi. Mening hozirgi orzum faqat shugina, shuni deb qancha azob, qancha zahmat chekasan odam... Umrim xazon bo'ldi!» Yana yosh juvonning so'zlari esiga tushdi, yana bu narsalarni eslab, ko'ngli ag'darildi; shunday bo'lsa ham, bu so'zlarda qo'pol haqiqat zarrasi borligiga tan berolmay qololmadi.

Darya Aleksandrovna yuragiga vahima solayotgan o'ylarni tarqatish uchun kontora xizmatchisidan:

- Hali uzoqmi, Mixayla? – deb so'radi.
- Mana shu qishloqdan yetti chaqirim emish.

Izvosh ko'chadan o'tib, ko'prikkka tushib bordi. Ko'priksda bo'g'chalarini orqalab olgan bir to'da xushchaqchaq mujik xotinlar kulishib kelishayotgan edi. Ular ko'priksda to'xtashib, izvoshga maroqlanib qarab qolishdi. O'ziga o'girilgan yuzlarning hammasi Darya Aleksandrovnaga sog'lom, xushchaqchaq, hayot shavqi bilan to'la chehralardek ko'rindi. Darya Aleksandrovna mujik ayollar yonidan o'tib, tepalikka chiqqandan so'ng eski izvoshning yumshoq, ressorlarida yana maza qilib silkinib borarkan: «Hammasi yashnashadi, hayot lazzatini totishadi, men esa xuddi turmadan chiqqanday, tashvishg'am ostida ezilib yotgan joyimdan yorug'likka chiqarilganday bo'ldim, mana endigina ko'zlarim bir zumgina ochilganday bo'ldi, – deb o'yaldi hamon. – Hamma bu qishloqi xotinlar ham, Natalya opamlar ham, Varenka ham, hozir men uylariga ketayotgan Anna ham noppa-nozin yashab keladi, faqat men yashamayman.

Ular bo'lsa Annaga hujum qilishadi. Nima uchun? Ajabo, men undan yaxshiroqmanmi? Har holda mening erim bor, erimni yaxshi ko'raman. Ko'nglim istaganidek yaxshi ko'rmasam ham, har holda yaxshi ko'raman, Anna bo'lsa erini yomon ko'rardi. Xo'sh, uning aybi nimada? Anna yashashni istaydi. Bu istakni Xudoning o'zi qalbimizga solgan. Men ham Annaning yo'liga kirib ketsam ajab emas edi. Anna Moskvaga kelgan o'sha mudhish damlarda uning gapiga kirib yaxshi qildimmiyo'qmi, buni haligacha o'zim ham bilmayman. O'shanda erimni tashlab, hayotimni yangidan boshlashim kerak edi. Men ham chinakamiga seva olar, sevgili bo'la olar edim. Nima, hozir ahvolim yaxshimi? Unga zarracha hurmatim yo'q, – deb o'yaldi

eri to‘g‘risida. – U menga kerak, shuning uchun chidab kelyapman. Nima, shu qilganim yaxshi bo‘ldimi? U vaqtlar birovga yoqishim mumkin edi, yana husnim bor edi», – deb o‘ylar edi hamon Darya Aleksandrovna. Shu payt oynaga qaragisi kelib ketdi. Xaltasida safar oynakchasi bor edi, shuni olgisi keldi; lekin kucherga va uning yonida silkinib borayotgan kontora xizmatchisiga orqalaridan qarab, bitta-yarimtasi ko‘rib qolsa uyat bo‘lar, deb o‘yladi-yu, oynagini olmadı.

Lekin oynaga qaramasdanoq, hali ham fursat qo‘limdan ketgani yo‘q, deb o‘ylab, o‘ziga juda shirin muomalada bo‘lgan Sergey Ivanovichni, qizilcha bo‘lib qolgan bolalariga o‘zi bilan birga qarashib yurib yaxshi ko‘rib qolgan mehribon Turovtsinni, ya’ni Stivaning oshnasini esladi. Bulardan tashqari, yana bitta juda ham yosh yigit bor edi. Eri hazillashib bu yigit seni opa-singillari ichida eng chiroyligi ekan deyapti, degan edi. Ana shundan keyin Darya Aleksandrovnaning ko‘z oldiga aqlga sig‘maydigan eng ehtirosli ishq savdolari kela boshladi. «Anna ajab qildi, men uni hech qoralamayman, o‘zi ham baxtli, boshqa odamni ham baxtiyor qilib yuribdi, menga o‘xshab qon yutib yurmaydi, innaykeyin, so‘lib-sarg‘aymaydi, bashang, aqli, hamma narsaga ochiq ko‘ngil», – deb o‘ylar edi Darya Aleksandrovna; shu payt lablari jiyirilib chehrasida quv tabassum paydo bo‘ldi; chunki Annanining ishq savdosini o‘ylab turib, ayni vaqtda o‘ziga oshiq bo‘lgan xayoliy kishi bilan o‘zining o‘rtasidagi ayni shu taxlit ishq-muhabbat savdosini ko‘z oldiga keltirdi. Darya Aleksandrovna ham Anna singari xayolan eri oldida butun aybini bo‘yniga oladi. Uning e’tirofini eshitib, Stepan Arkadichning hayrat va sarosimaga tushib qolganini xayol qildi-yu, iljayib qo‘ydi.

Darya Aleksandrovna katta yo‘ldan Vozdvijenskiyga buriladigan joyga shunday shirin xayollar bilan yetib keldi.

XVII

Kucher to‘rt otli aravasini to‘xtatdi-da, o‘ngga, javdarzorga qaradi: shaldiriq aravalor yonida mujiklar o‘tirishgan edi. Kontora xizmatchisi izvoshdan sakrab tushmoqchi bo‘ldi-yu, lekin fikridan qaytib, mujikni imo-ishoralar bilan oldiga chaqirdi. Yo‘lda esib turgan shabada to‘xtaganlaridan keyin tindi; ter bosgan otlarga, zo‘r berib dumlari bilan o‘zlarini ko‘rishlariga qaramay, mayda chivinlar

yopishib oldi. Aravalor oldida chalg'i peshlab o'tirganlar ishdan to'xtab, temir jarangi tindi. Mujiklardan biri o'midan turib, izvosh tomon yurdi.

Kontora xizmatchisi arava yurmagan qatqaloq yo'lda yalang oyoqlarini asta-asta bosib kelayotgan mujikka:

— Hoy! Tirikmisan? Tezroq yursang-chi! — deb jahl bilan o'shqirdi.

Peshonasini latta bilan tang'ib olgan, bukri yag'rini terdan qorayib ketgan jingalak soqol mujik qadamini tezlatib izvosh yoniga keldi-yu, oftobda kuygan qo'li bilan arava qanotini ushlab turib:

— Vozdvijenskiyga, boy qo'rasigami? Grafnikigami? — deb qaytarib so'radi. — Faqat anavi qayrilishdan o'tsang bo'ldi. Chapga burilasan, prishpekt¹ bilan to'g'ri borsang — o'zidan chiqasan. Sizlarga kim kerak edi? O'zlarimi?

Darya Aleksandrovna mujikdan Annani qanday so'rashini bilmay, dudmal qilib:

— Bilmaysizmi, uylaridami? — deb so'radi.

Mujik yalang oyoqlarini goh unisini, goh bunisini bosib va tuproqda besh barmog'i ravshan ko'rinish turgan oyoq izlarini qoldirib turib:

— Uyda bo'lsalar kerak, — dedi. — Uyda bo'lsalar kerak, — dedi yana, aftidan, gaplashgisi kelib. — Kecha mehmonlar keluvdi. Shunaqayam ko'pki, sanagan bilan ado qilib bo'lmaydi... nima deysan? — dedi, keyin arava yonidan o'ziga bir nima deb qichqirgan yigitcha tomonga qarab. — Uni ham ol! Aytmoqchi, yanchiq mashinasini ko'rgani boyaga hammasi otta o'tib ketishuvdi. Qaytishgan bo'lsayam ajabmas. O'zlarigiz qayoqdan?

Kucher o'miga chiqayotib:

— Uzoqdan, — dedi. — Yaqin degin?

— Shu yerda deyapman-u. Bunday chiqsang — yetding-da... — dedi qo'li bilan izvosh qanotini silab.

Yosh, bardam, g'o'labir yigitcha ham ular oldiga keldi.

— Nima, o'roq ishlaridan yo'qmi?

— Qaydam, chirog'im.

Mujikning gaplashish istagi bor edi, shekilli, yo'lovchilarining ketishini ko'ngli xushlamay:

¹ Prospekt (katta ko'cha) so'zining buzilgan shakli (*tarj.*).

- Ha, chapga burilsang, qoq o'zidan chiqasan, — dedi.
 Kucher otlarni haydab, endi burilgan edi, orqalaridan mujik qichqirib qoldi:
 — To'xta! Hoy, og'ayni! To'xta! — deb birdan ikkita ovoz qichqirdi.
 Kucher izvoshini to'xtatdi.
 — O'zlari ham kelishyapti! Hov ana! — deb qichqirdi mujik yana. —
 Ko'rdingmi, ot qo'yib kelishyapti! — dedi keyin yo'lida kelayotgan
 to'rt otliqqa va aravadagi ikki kishiga ishora qilib.

Otliqlar Vronskiy, jokey¹, Veslovskiy va Anna; aravadagilar esa knyajna Varvara bilan Sviyajskiy edi. Ular sayr qilgani va yangi sotib olingen o'roq mashinasining ishini ko'rgani borishgan edi.

Kolyaska to'xtagandan so'ng suvoriylar otlarini asta yurg'izib kela boshlashdi. Oldinda Anna bilan Veslovskiy yonma-yon kelardi. Anna yoli qirqilib, dumi kalta kesilgan o'rta bo'yli, bo'liq ingliz zotli jiyronni sekin-sekin qadamlatib kelardi. Annaning baland shlapa ostidan qora sochlari chiqib turgan chiroyli boshi, bo'liq yelkalari, qora amazonkada siqilib turgan nozik beli, ot ustidagi vazmin, zebo qomati Dollini asir qildi.

Annaning ot minib yurishi dastlab unga nojo'ya ko'rindi. Darya Aleksandrovnaning nazarida, xonimlarning ot minishlari yosh qizlarning yengiltak nozi bilan baravar edi; shuning uchun Annanining ot minishini o'ziga yarashmaydigan qiliq deb o'ylardi; lekin uni yaqindan ko'rgach, fikridan butunlay qaytdi. Shunday zebo ko'ringaniga qaramay, Annanining sumbati, kiyimlari, harakatlari shunday sodda, vazmin va o'ziga munosib ediki, bundan ham tabiiyrog'ini tasavvur qilib bo'lmasdi.

Annaning yonida, qizishib ketgan bo'z suvoriy otda yo'g'on oyoqlarini oldinga cho'zib, aftidan, o'ziga bino qo'yib, Vasenka Veslovskiy shotland qalpog'ining lentalarini hilpiratib kelardi; Darya Aleksandrovna tanib, kulib yuborishdan o'zini tutib qololmadidi. Orqalarida Vronskiy kelardi. Ostidagi asl zotli qorabayir yo'rtuvda qizib ketgan bo'lsa kerak, Vronskiy tizgin tortib kelardi.

Vronskiyning orqasida poygachilar kiyimida chuvakkina bir kishi bor edi. Sviyajskiy bilan knyajna Varvara yo'g'on, to'riq ot qo'shilgan yangigina aravada otliqlar orqasidan qistab kelardi.

¹ Jokey – poygachi, chavandoz.

Eski izvoshning burchagida mung‘ayib o‘tirgan kichkina xotinning Dolli ekanini tanigan soati Anna quvonib, yuzi tabassum bilan yorishib ketdi. Egar ustida bir silkinib chinqirib yubordi, otini tezlab choptirib kelaverdi. Izvosh oldiga kelishi bilanoq, birovning yordamisiz otdan sakrab tushdi-da, amazonkasini ushlab olib, Dolli tomon yugurdi.

– Kelasan deb o‘ylar, kelmaysan deb qo‘rqrar edim. Voy, mana bu xursandchilikni qara! Qanchalik xursand bo‘lganimni ko‘z oldingga keltirolmaysan! – derdi Anna goh yuzini Dolliga surtib va o‘pib, goh o‘zini tortib va tabassum qilib.

Otdan tushib, o‘zları tomon kelayotgan Vronskiyga qarab:

– Mana bu xursandchilikni qara, Aleksey! – dedi.

Vronskiy baland kulrang shlapasini qo‘liga olib, Dollining yoniga keldi.

– Kelganingizga qanchalik xursand bo‘lganimizni aytsak, ishonmaysiz, – dedi Vronskiy aytgan so‘zlariga alohida ma’no berib va tabassum bilan oq, mustahkam tishlarini ko‘rsatib turib.

Vasenka Veslovskiy otdan tushmayoq qalpog‘ini oldi-da, lentalarini boshi ustida silkib, mehmonni xursandchilik bilan tabrikladi.

Arava yetib kelganda, Anna Darya Aleksandrovnaning savol nazari bilan qaraganini sezib:

– Bular knyajka Varvara bo‘ladilar, – deb javob qildi.

Darya Aleksandrovna:

– A! – dedi-yu, yuzida beixtiyor norozilik alomati paydo bo‘ldi.

Knyajka Varvara erining xolasi edi, Dolli buni eski vaqlardan beri bilsa-da, ammo hurmat qilmas edi. Knyajna Varvara butun hayotini badavlat qarindoshlarinikida tekinxo‘rlik bilan o‘tkazib kelganini Dolli bilardi; lekin hozir Vronskiyinikida, o‘ziga begona bo‘lgan bir odamnikida turganini bilib, eri uchun nafsi og‘ridi. Anna Dollining yuzidagi norozilik alomatlarini sezib, xijolat bo‘ldi, qo‘lidan amazonkasini tushirib yuborib, unga qoqinib ketdi.

Darya Aleksandrovna kelib to‘xtagan arava yoniga borib, knyajna Varvara bilan sovuqqina ko‘rishdi. Sviyajskiy ham tanish edi. U qiziq tabiatli oshnasining yosh xotini bilan qanday turganini so‘ragandan so‘ng, bir-biriga munosib bo‘lmagan otlar qo‘shilgan va qanotlariga yamoq solingen izvoshga bir ko‘z yogurtirib chiqdi-yu, xonimlarni o‘z aravasida borishni taklif qildi.

— Men bu aravada boray, — dedi Sviyajskiy. — Ot juda yuvosh, yana knyajna Varvara yaxshi haydaydilar.

— Yo‘q, o‘z aravangizda ketavering, — dedi shu yerga kelib turgan Anna, — biz izvoshda boramiz, — dedi-da, keyin Dollini qo‘ltig‘idan olib, izvosh tomon ketdi.

Darya Aleksandrovna o‘zi bir umr ko‘rmagan bu ajoyib, shinam aravani, bu ajoyib otlarni, o‘zini o‘rab olgan bu zebo, xushchaqchaq chehralarni ko‘rib, ko‘zları o‘ynardi. Tanish, sevgili Annasida yuz bergen o‘zgarish uni hamma narsadan ham ko‘proq hayratga soldi. Annani burunlari tanimagan, ayniqsa, Darya Aleksandrovna yo‘lda kelayotib o‘ylagan narsalarini miyasiga keltirmagan, kamroq e’tibor bilan qaraydigan boshqa xotin bo‘lsa Annada aytarli bir narsa borligini sezmgagan bo‘lardi. Annanining chehrasida shunday o‘tkinchi husn bor ediki, bu husn xotinlarda ishqqa mubtalo bo‘lib yurgan kezlardagina bo‘ladi; hozir Dolli Annanining shunday husnini ko‘rib esi og‘ib qolayozdi. Chehrasidagi hamma narsa: iyak va yuzlarida yaqqol ko‘rinib turgan chuqurchalari, lablarining andozi, yuzi atrofida uchib yurgandek ko‘ringan tabassumi, ko‘zlarining chaqnab turishi, harakatlaridagi zebolik, tezlik, ovozining tiniqligi, hatto o‘ng oyog‘ini sakratib yurishga o‘rgatish uchun otni minib borishga ruxsat so‘ragan Veslovskiyga bergen zarda aralash muloyim javobidagi ado ham — hamma narsasi juda-juda jozibador edi; yana bu narsalarini o‘zi ham sezib turgandek ko‘rinar, shuning uchun quvonar edi.

Ikkala xotin izvoshga kirib o‘tirishi bilan birdaniga ikkalasida xijolatpazlik paydo bo‘ldi. Anna Dollining diqqat bilan, savol nazari bilan qarayotganidan xijolat tortardi. Dolli bo‘lsa Sviyajskiyning so‘log‘i chiqib ketgan arava deb aytgan so‘zlaridan keyin Anna bilan tushgan iflos, eski izvosh tufayli xijolat chekardi. Filipp kucher bilan kontora xizmatchisi ham ayni shu narsani his etar edilar. Kontora xizmatchisi xijolatpazligini yashirish uchun xonimlarni shoshib-pishib izvoshga o‘tqazdi, lekin Filipp kucher qosh-qovoqlarini osiltirib bu sirtqi ustunlik ta’siriga berilmaslikka tayyorgarlik ko‘rib qo‘ydi. U to‘riq ayg‘irga bir qaradi-yu, chiroyli aravaga qo‘shilgan bu to‘riq ot faqat kalta-kalta safarlargagina bop, bir qo‘shilgan bo‘yicha issiqda qirq chaqirimlik yo‘lga chidamaydi, degan xayol bilan kulimsirab qo‘ydi.

Shaldiroq arava yonidagi hamma mujiklar o'rinalidan turishib, mehmonning kutib olinishiga qiziqib qarab turishar, o'z fikrlarini aytishar edi.

Peshonasini latta bilan tang'ib olgan jingalak soqol chol:

- Rosa xursand bo'lishyapti-ku, ko'rishmaganlariga ancha bo'lganmi deyman, – deyardi.
- Gerasim tog'a deyman, mana shu to'riq ayg'irda bog'lab qo'yilgan bug'doyni tashisa bormi, mazza bo'lardi-da!
- Anavinga qara. Anavi chalvorli xotin kishimi? – dedi mujiklardan biri, zaifona egarga minayotgan Vasenka Veslonskiyni ko'rsatib.
- Yo'q, erkak. Chaqqon minishini ko'rdingmi?
- Nima deysizlar, yigitlar, endi uxmlamaymiz-a?
- Ey, uxbab bo'ladimi! – dedi chol oftobga qiyshayib qarab. – Qara, choshgoh ham o'tib ketdi! Qani, chalg'ilarni ol, ishga tu-shaver!

XVIII

Anna Dollining ozib-to'zib ketgan, qiyngan, ajinlariga chang o'tirgan yuziga qarab, ko'nglidagi gaplarini, ya'ni Dolli ozib ketganini aytgisi kelardi; lekin o'zining husni ochilib ketganini, buni Dollining ko'zları aytib turganini eslab xo'rsindi-yu, o'zidan gap ochdi.

– Menga qarab turib: «Bu o'zini shu ahvolida baxtli deb bilarmikan?» deb o'ylaysan-da? – dedi Anna. – Nima ham derdim! Bo'yinga olish uyat; lekin men... men kechirib bo'lmaydigan darajada baxtliman. Yomon, juda yomon tush ko'rayotganingda birdan uy-g'onib ketasan-u, shu vahimalarning hammasi bekor ekanini, yo'q bo'lib ketganini sezasan; menda ham shunga o'xshash sehrli bir narsa ro'y berdi. Uyg'onib ketdim. Men dahshatli, azobli qiyognqlarni boshimdan kechirdim: endi, ancha vaqtlardan beri, ayniqsa, shu yerda tura boshlaganimizdan beri, o'zimni baxtli his qilaman!.. – dedi Anna Dolliga hurkak bir tabassum nazari bilan qarab.

Dolli o'zi xohlaganidan boshqacharoq, sovuqroq bir ohangda:

- Juda xursandman! – deb kulimsiradi. – Baxting ochilgani uchun xursandman. Menga nima uchun xat yozmading?
- Nima uchun? Shuning uchunki, yuragim dov bermadi... Mening ahvolim esingdan chiqqan, shekilli...

– Menga xat yozgani-ya? Yuraging dov bermadimi? Meni bilsayding, men... nazarimda...

Darya Aleksandrovna bugun ertalab miyasiga kelgan o'ylarini aytmoqchi bo'ldi-yu, lekin hozir bu narsani nima uchundir noo'rin deb bildi.

– Xayr, buni keyin gaplashamiz. Bu binolar qanaqa binolar? – deb so'radi Dolli, gapini boshqa yoqqa aylantirish uchun yam-yashil akatsiya va siren daraxtlari orqasida ko'rinish turgan qizil, yashil tomlarni ko'rsatib. – Xuddi shaharchaning o'zi-ya.

Lekin Anna javob qilmadi.

– Yo'q, yo'q! Nazaringda mening ahvolim qanday? Qanday deb o'ylaysan, qanday? – deb so'radi Anna.

– Menimcha... – deb Dolli gap boshlagan edi, lekin shu payt Vasenka Veslovskiy o'zining kalta jaketkasida zaifona egarning charmlariga gup-gup tusha-tusha, otni ular yonidan o'ng oyog'i bilan yo'rttirib o'tib qoldi.

– O'rgatibmanmi, Anna Arkadevna! – deb qichqirdi Vasenka.

Anna unga qaramadi ham; ammo Darya Aleksandrovnaga bu uzoq gapni izvoshda boshlab o'tirish noqulay bo'lib ko'rindi, shuning uchun fikrini qisqagina qilib aytib qo'ya qoldi:

– Mening nazarimda hech qanaqa yomon gap yo'q, – dedi u, – men seni hamma vaqt yaxshi ko'raman; agar birovni yaxshi ko'radigan bo'lsang, u odam o'zing xohlaganingcha bo'lgandagina emas, qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'raverasan.

Anna ko'zlarini dugonasidan oldi-da, bu so'zlarning ma'nosini to'la anglash uchun ko'zlarini suzib (bu Annada paydo bo'lgan yangi odat edi, buni Dolli bilmasdi) o'y surib ketdi. Keyin, buni o'zi xohlaganicha tushundi, shekilli, yana Dolliga qaradi.

– Agar biron gunohing bo'lsa, – dedi Anna, – shu kelganing, shu so'zlarining uchun kechirilgan bo'lardi.

Ana shunda Dolli Annaning ko'zlariga yosh qalqanini ko'rdi. Indamay Annaning qo'lini qisdi.

Bir daqiqa jim borishgandan keyin Dolli boyagi savolini yana qaytarib so'radi:

– Bu qanaqa binolar? Muncha ko'p-a!

– Bular xizmatchilarning uylari, zavod, otxonalar, – dedi Anna. – Mana bu yer bo'lsa parkning etagi. Hamma yoq tashlandiq bo'lib

yotgan ekan, Aleksey hammasini tuzattirdi. Shu mulkni juda yaxshi ko'radi, xo'jalik ishlariga shunday ehtiros bilan berilib ketdiki, men bunday qilar deb hech o'ylamagan edim. Chindan ham juda epchil odam! Nimagaki qo'l ursa, hammasini gullatadi. Zerikish u yoqda tursin, ishdan boshi chiqmaydi. Uni yaxshi bilaman, rejalik, ajoyib xo'jayin, hatto ro'zg'or ishlarida qattiqqo'l. Faqat ro'zg'or ishlaridagina. Boshqa massalada bo'lsa, o'n ming so'mlik pulning yuziga qarab o'tirmaydi, – derdi Anna shodiyona-quv tabassum bilan jilmayib; xotinlar sevgili kishisining faqat o'zigagina ma'lum bo'lган sirlari haqida hamisha shu taxlit shodiyona-quv tabassum bilan jilmayib turib gapirishadi. – Anavi katta binoni ko'ryapsanmi? Yangi kasalxona u. Chamamda, yuz ming so'mdan ortiqqa tushsa kerak. Uning topib olgani hozir shu. Bilasanmi, qayerdan bu narsa miyasiga keldi? Mujiklar pichanzorni arzonroqqa bersangiz deb so'rashgan ekan, Aleksey unamabdi, men xasissan deb ta'na qildim. Faqat shu sababdangina emas, albatta, boshqa sabablar ham bo'ldi – o'zining xasis emaslagini ko'rsatish uchun shu kasalxonani soldira boshladi. Men senga aytsam c'est une petitesse¹, lekin shu qilgani uchun muhabbatim yana ortib ketdi. Mana hozir uyni ko'rasan. Buvasidan qolgan uy, shuning uchun tashqarisini hech o'zgartirgani yo'q.

Dolli bog'ning rang-barang, yashil keksa daraxtlari orasida qad ko'tarib turgan zo'r-zo'r ustunli ajoyib uyga og'zi ochilib:

– Qanday yaxshi-ya! – deb yubordi.

– Rostdan ham yaxshi-a? Uy ichidan, tepadan qarasang, manzara juda ajoyib.

Mayda shag'al solinib, atrofiga gullar ekilgan hovliga kirishdi; hovlida ikkita xizmatkor chopib qo'yilgan gulzor atrofiga tarashlanmagan tosh terishayotgan edi, bularni ko'rib, ular darvozaxonada to'xtashdi.

Anna uy zinapoyasi oldidan olib ketilayotgan otlarni ko'rib:

– Ular kelishibdi! – dedi. – Anavi ot rostdan ham yaxshi-a? Chopqir. Juda yaxshi ko'raman. Bu yoqqa olib kel, qand ber. Graf qani? – deb so'radi yugurib chiqqan ikkita mulozimidan. Keyin Vronskiyning Veslovskiy bilan ro'paradan kelayotganini ko'rib: – A, ana o'zi! – dedi.

¹ Mayda narsa (*frans.*).

Vronskiy fransuzchalab:

– Knyaginyani qayerga joylaysiz? – deb so‘radi Annadan; keyin javob ham kutmay, Darya Aleksandrovna bilan yana salomlashib, bu safar qo‘lini ham o‘pdi. – Meningcha, balkonli katta xonaga joylasak.

– Yo‘q, yo‘q, u yer uzoq! Burchakdagи xonaga qo‘yaylik, tez-tez ko‘rishib turamiz. Yur uyga, – dedi Anna lakey olib chiqib bergen qandni arzanda otiga yegizib bo‘lib.

Veslovskiy zinapoya ustida turar edi; Anna unga qarab:

– Et vous oivliez votre devoir¹, – dedi.

Vasenka barmoqlarini jiletining cho‘ntaklariga suqib turib:

– Pardon, j’en ai fout plein les poches², – dedi kulimsirab.

Anna ot qandni yeayotganda ivitgan qo‘lini dastro‘molchasi bilan artib:

– Mais vones trop tard³, – dedi. Keyin Dollidan so‘radi: – Ko‘proq turasanmi? Faqat bir kungina? Yo‘q, bo‘lmagan gap.

– Va‘dam shunaqa, keyin bolalar... – dedi Dolli xijolat chekib; izvoshdan xaltachasini olish kerak bo‘lgani, yuzini juda ham chang bosganligini bilgani uchun u iymanayotgan edi.

– Yo‘q, Dolli, jonginam... xayr, ko‘ramiz. Yur, yur! – dedi-yu Anna Dollini bo‘lmasiga boshladi.

Dolliga berilgan bo‘lma Vronskiy taklif qilgan serhasham bo‘lma emas, Anna Dolli uchun ajratgan bo‘lma edi. «Dolli bizni kechiradi» degan edi Anna. Lekin bu bo‘lma shunday hashamatli ediki, Dolli bunday bo‘lmalarda bir umr turmagan, bu eng yaxshi chet el musofirxonalarining nomerlariga o‘xshatib bezatilgan edi.

Anna o‘z amazonkasida bir zumgina Dolli yoniga o‘tirib:

– Voy, jonginam-e, biram xursand bo‘ldimki! – dedi. – Qani, bolalaring qalay? Stivani bir qur ko‘rdim. Lekin u bolalari to‘g‘risida hech nima deyolmadi. Mening suyukli Tanyam qalay? Katta qiz bo‘lib qolgandir?

– Ha, juda katta bo‘lib qoldi, – dedi Dolli qisqagina qilib, keyin o‘z bolalari to‘g‘risida shunaqa sovuq javob qilgani uchun o‘ziga hayron qoldi. So‘ngra: – Levinlarnikida juda yaxshi turibmiz, – deb qo‘shib qo‘ydi.

¹ Vazifangizni esdan chiqaryapsiz (*frans.*).

² Kechirasiz, cho‘ntaklarim bilan bitta (*frans.*).

³ Ammo juda kech ko‘rinasiz (*frans.*).

— Agar bilsaydim, — dedi Anna, keyin: — mendan nafratlanmaganingni... hammalariningiz kelsangiz bo'lardi. Axir Stiva Alekseyning eski qadrdon do'sti-ku, — deb birdan qizarib ketdi.

— Shunda-yu, biz juda yaxshi... — deb javob qildi Dolli xijolat tortib.

Anna yana uni o'pib:

— Ha-ya, suyunganimdan shunday bema'ni gaplarni gapiryapman. Ammo-lekin kelganingga juda xursand bo'lyapman-da, jonginam! — dedi. — Sen hali men to'g'rimda nimalar o'ylaganingni aytib berganing yo'q; hammasini bilgim keladi. Ammo men qanday bo'lsam, shundayligimcha ko'rayotganing uchun xursandman. Birovlar meni bir narsani isbot qilmoqchi deb o'ylamasa bo'lgani, menga faqat shu kerak. Men hech nimani isbot qilmoqchi emasman, faqat yashamoqchiman, xolos; o'zimdan bo'lakka yomonlik qilmoqchi emasman. Bunga-ku, haqim bor, a? Xayr, bu uzoq gap, bafurja gaplashamiz. Hozir chiqib kiyinay, senga xizmatkor qizni yuboraman.

XIX

Darya Aleksandrova yolg'iz qolgandan keyin bo'lmasiga uy egasining ko'zi bilan qarab chiqdi. Uyga yaqinlashib kelayotganda va uy xonalaridan o'tayotganda, hozir esa o'z bo'lmasida ko'rgan narsalarining hammasi, unda to'qlik, zeb-ziynat, o'zi inglizcha romanlardagina o'qigan, lekin Rossiyada, ayniqsa, qishloqda hech qachon ko'rmagan, yangicha, yevropacha hashamat taassurotini qoldirardi. Fransuz gulqog'ozlaridan tortib, butun devorga qoqilgan gilamchagacha hamma narsa yangi edi. Karavot prujinali, kichkina to'shakli, yostiqlalar jildi chiroyli. Marmar yuvindiq, pardoz stoli, kushetka, stollar, kamin ustidagi tunch soat, eshik va deraza pardalari — bularning hammasi yangi, qimmatbaho buyumlar edi.

Xizmatini taklif qilib kirgan va Dollinikidan ko'ra bashangroq ko'ylak kiyib, sochlarni turmaklab olgan satang xizmatkor qiz ham shu uydagi narsalar singari yangi, qimmatbaho edi. Uning nazokati, latofati va xizmatga tayyorligi Darya Aleksandrovnaga yoqib tushgan bo'lsa ham, lekin uning oldida o'zini o'ng'aysiz his qilardi; yamoq tushgan koftasini yanglishib olib kelgani uchun xizmatkor qizdan nomus qilardi. Uyida o'zi faxrlanib yurgan o'sha yamoqlar uchun

uyalar edi. Uyda bo'lsa boshqa gap, chunki oltita koftochka uchun oltmis besh tiyindan yigirma to'rt gaz mato olish kerak bo'lar, bunda o'n besh so'mdan ortiqroq pul chiqar edi; hali bunga tikish, bezash chiqimlari kirmasdi; shunday qilib, eskini, yamoqli koftani kiyish bilan o'sha o'n besh so'm yonga qolgan edi. Ammo hozir xizmatkor qiz oldida uyalibgina qolmay, balki noqulay ahvolga ham tushib qoldi.

Darya Aleksandrovna eski tanishi Annushka kirgandan keyingina o'zini ancha yengil his qila boshladi. Bashang xizmatkor qiz begoyimga kerak ekan, shuning uchun Annushka Darya Aleksandrovna bilan qoldi.

Annushka Dollining kelganidan juda xursand bo'lgan, shekilli, og'zi tinmay gapirardi. Annushka begoyimning ahvoli to'g'risida, ayniqsa, grafning Anna Arkadevnaga bo'lgan sevgi va sadoqati to'g'risida gapirgisi kelib turganini sezib, shu haqda u og'iz ochishi bilanoq Dolli uni to'xtatib qo'ydi.

— Men Anna Arkadevna bilan birga o'sganman, shuning uchun ular menga hammadan ham azizroq. Biz nima ham deyardik. Chamamda, sevgining shunchalik bo'lishini...

— Ha, buni chiqarib ber, iloji bo'lsa, yuvib qo'yishsin, — deb Darya Aleksandrovna shu taxlitda gapni kesib qo'yardi.

— Xo'p bo'ladi. Kirxonamizga ikkita alohida xotin berilgan, kirlar bo'lsa mashinada yuviladi. Hammasiga grafning o'zlarini ko'z-quloiq bo'lib turadilar. Kiroyi er...

Anna kirib, Annushkaning laqillashlariga xotima berganda, Dolli juda suyunib ketdi.

Anna juda odmi, batist ko'ylak kiyib chiqqan edi. Dolli bu odmi ko'ylakka diqqat bilan razm soldi. Dolli bu xil odmilikning nimaligini, qanday pullar evaziga kelishini bilardi.

— Eski tanish, — dedi Anna Annushka to'g'risida.

Anna endi tortinmasdi. Endi o'zini og'ir, erkin tutardi. Dolli kelishi bilan tug'ilgan taassurotdan Anna endi o'zini tamoman o'nglab olganini ko'rди-da, o'zini yuzaki, loqayd qaraydigan kishiga soldi, hislari va sirli o'ylari yashirilgan dil qutisining qopqog'i yopiqday ko'rinardi.

— Qizchang qalay, Anna? — deb so'radi Dolli.

— Animi? (U qizi Annani shunday deb atardi) Sog'. Juda yaxshi bo'lib ketdi. Ko'rasanmi? Yur, ko'rsataman. Enaga masalasi boshimni

xo‘p og‘ritdi-da, – deb hikoya qila ketdi. – Bitta italyan enagamiz bor edi. O‘zi chiroylikkina edi-yu, esi pastroq chiqib qoldi! Jo‘natib yubormoqchi bo‘lgan edik, qizcha juda o‘rganib qolgani uchun hali saqlab turibmiz.

Dolli qizchaga qanday familiya qo‘ymoqchi ekanliklarini bilish maqsadida:

– Xo‘sh, nima qildinglar? – deb so‘ray boshlagan edi, birdan Annaning qovoqlari tushib ketganini sezib, savolning ma’nosini o‘zgartirib yubordi: – Xo‘p, nima qildinglar? Sutdan chiqardinglarmi?

Lekin Anna tushungan edi.

– Sen, aslida, buni so‘ramoqchi emas eding, a? Familiyasi qanaqa bo‘lishini so‘ramoqchi eding, shunday emasmi? To‘g‘ri, a? Alekseyni shu narsa qiy nab turibdi. Familiyasi yo‘q, ya’ni Karenina,

– dedi Anna ko‘zlarini suzib; shunda kipriklarining bir-biriga yopishib turgani ko‘rinar edi. Keyin birdan yuzi charaqlab ketdi. – Xayr, mayli, bu to‘g‘rida keyin bafurja gaplashamiz. Yur qizchani ko‘rsataman. Elle est ttres gentille¹. Emaklab qoldi.

Uylarning hammasidagi hashamatni ko‘rib, og‘zi ochilib qolgan Darya Aleksandrovnani bolalar bo‘lmasining hashamati yana ham battar hayratga soldi. Bu yerda Angliyadan keltirilgan aravachalar, yurishni o‘rgatadigan asboblar, emaklasin deb jo‘rttaga bilyardga o‘xshatib qilingan divan, osma belanchak, g‘alati, yangi vannalar bor edi. Bularning hammasi Angliyada qilingan, pishiq, puxta, aftidan, juda qimmatbaho narsalar edi. Bo‘lma katta, shipi baland, yorug‘ edi.

Ular kirishganda, qizaloq stol yonidagi kichkina kursida ko‘ylakchan o‘tirib bulon ichayotgan, butun ko‘krakchasiga bulon to‘kib yuborgan edi. Bolalar bo‘lmasida xizmat qiladigan rus qizi qizchaga ovqat berar, aftidan, o‘zi ham qizcha bilan birga ovqatlanardi. Bu yerda enagasi ham, sut emizuvchisi ham yo‘q edi: ular qo‘shni xonada edilar; chunki fransuzchani g‘alati qilib gapishtayotganlari eshitilib turardi; ular bir-birlari bilan faqat fransuz tilidagina gaplasha olishardi.

Yasanib-tusangan, novchadan kelgan, badbashara, qarashlari sovuq ingliz enaga Annaning tovushini eshitdi, shekilli, jingalak malla sochlarni selkillatib eshikdan kirdi-da, Anna uni hech to‘g‘rida

¹ Juda shirin qiz (*frans.*).

ayblamasa ham, darhol o‘zini oqlashga tushdi. Annaning har bir so‘ziga ingliz ayol shoshib-pishib bir necha marta: «Yes my lady»¹ deb qo‘ydi.

Qora qosh, qora soch, qizil yuz, biqqidek, pushti tan qizaloq o‘zi ko‘rmagan bu ayolga xo‘mrayib qaragan bo‘lsa ham Darya Aleksandrovnaga juda yoqdi; qizchaning salomatligiga Dollining hatto picha hasadi ham keldi. Qizchaning emaklashlari ham juda yoqdi. Bolalarining hech biri bunaqa emaklamagan edi. Bu qizaloq gilamga o‘tqazilib, orqasidan ko‘ylakchasi tortib qo‘yilganda, juda ham shirin bo‘lib ketdi. U xuddi ayiq bolasidek qora ko‘zlarini parpiratib kattalarga qarar, o‘ziga havaslari kelayotganidan quvonib, hadeb kulimsirar, oyoqlarini kerib, qo‘lchalariga og‘irligini solardida, yana qo‘lchalar bilan oldinga talpinardi.

Ammo bolalar bo‘lmasining umumiy qiyofasi, ayniqsa, ingliz enaga Darya Aleksandrovnaga sira ham yoqmadi. Darya Aleksandrovna odamlarni yaxshi biladigan Anna o‘z qiziga mana shunday xunuk, bedavo ingliz enaga olganini shu bilan izohladiki, Annanikiga o‘xshagan mana shunday noto‘g‘ri oilaviy hayot kechiradigan uylarga yaxshi enaga kelmas edi. Bundan tashqari, Darya Aleksandrovna o‘rtada o‘tgan bir necha so‘zdan Anna, emizuvchi xotin, enaga va chaqaloq ahil emasliklarini, Annaning kelishi taajjub bir hodisa bo‘lganligini darhol tushunib oldi. Anna qizchaning o‘yinchog‘ini olib bermoqchi bo‘lgan edi, topolmadi.

Hammasidan taajjubi shu bo‘ldiki, qizchaning tishi nechta ekanligini so‘raganda, onasi yanglishib ketdi, hatto u keyin chiqqan ikkita tishidan ham bexabar edi.

Anna bolalar bo‘lmasidan chiqayotganda eshik og‘zida yotgan o‘yinchoqlar ilashib ketmasligi uchun uzun etagini ko‘tarib oldi.

– O‘zimning bu yerda ortiqchaligimni bilib, ba’zan qattiq ezi-laman, – dedi Anna bolalar bo‘lmasidan chiqib. – Birinchi bolam vaqtida bunday bo‘lмаган edi.

– Men aksinchadir deb o‘ylab edim, – dedi Darya Aleksandrovna hayiqibroq.

Anna ko‘zlarini suzdi-da, xuddi uzoqdagi bir narsaga qaratgandek:

¹ Ha, xonim (*engl.*).

— Yo‘q, unday emas. Xabaring bordir, Seryojani ko‘rdim, — dedi. — Xayr, mayli, bu to‘g‘rida keyin bafurja gaplashamiz. Aytsam gapimga ishonmaysan, men oldimga ovqat uyib yuborilgan och odamga o‘xshayman: qaysi biriga qo‘l urishni bilmayman. Bu uylgan ovqat — sen bilan mening o‘rtamizda ochiladigan gap; men hech kim bilan ko‘ngil yorib gaplasha olmayman; shuning uchun gapni qaysi biridan boshlashni bilmayman: Mais je ne vous ferai graic de rien¹. Menga ko‘nglingdagini ochib solishing kerak. Ha, bizda shunday odamlarni ko‘rasanki, ular haqida fikringni aytmasang bo‘lmaydi, — deb Anna gap boshladи. — Xonimlardan boshlayman. Knyajna Varvara, sen uni bilasan, men ham sen bilan Stivaning knyajna to‘g‘risidagi fikrlaringizni bilaman. Stiva: knyajna hayotining butun maqsad va murodi Katerina Pavlovna xolamizdan o‘zining afzalligini isbot qilishdangina iborat, deydi; to‘g‘ri aytadi. Ammo o‘zi mehribon xotin, men undan juda minnatdorman. Peterburgda shunday damlar bo‘ldiki, menga bir ulfat zarur bo‘lib qoldi. O‘shanda shu knyajna to‘g‘ri keldi. Lekin, haq gapni aytsam, dilbar xotin. Jonimga ora kirdi. Mening ahvolim u yerdagi... Peterburgda qanchalik og‘ir bo‘lganligini fahmlay olmayotganiningni ko‘rib turibman, — dedi Anna so‘zini davom ettirib. — Bu yerda esa tamoman tinchman, baxtliman. Xayr, mayli, bu to‘g‘rida keyin gaplashamiz. Avval odamlarni aytib chiqay. Avvalo, Sviyajskiy, — dvoryanlar sarkardasi, juda boodob odam, lekin Alekseydan unga bir nima kerak. Bilasanmi, Alekseyning davlati katta, shuning uchun hozir, qishloqqa ko‘chib kelganimizdan keyin zo‘r nufuzga ega bo‘lishi mumkin. So‘ngra Tushkevich, — uni ko‘rgansan; Betsining yonida yurardi. Nazardan qolgandan keyin biznikiga kelgan. Alekseyning gapiga qaraganda, bu shunday odamlardan emishki, agar ularni o‘zlarini ko‘rsatganlaricha qabul qilinsa, juda xushhazm odam bo‘lar emish, knyajna Varvaraning aytishicha: et puis ilesf coommе il faut². So‘ngra Veslovkiy... buni o‘zing taniysan, juda dilbar yigit, — dedi Anna, shunda makkorona bir tabassumdan lablari jiyirilib ketdi. — Levinning bu yovvoyilarcha qilig‘i nimasi? Veslovskiy kelib Alekseyga aytuvdi, biz ishonmadik. Il est tres gentil et naif³, — dedi

¹ Lekin seni tirmoqcha ham ayamayman (*frans.*).

² Innaykeyin, boodob odam (*frans.*).

³ U juda dilbar, soddadil odam (*frans.*).

yana boyagiday kulimsirab. — Erkaklarga ishrat kerak, Alekseyga esa ulfat, shuning uchun bu odamlarning borligidan mammunman. Uyimizda xushvaqtlik, o‘yin-kulgi bo‘lib tursa bas, ishqilib. Aleksey boshqa narsalarni qo‘msab qolmasa bo‘ldi. Keyin xo‘jalik mudirini ko‘rasan. Nemis, yaxshi odam, ishini ham juda yaxshi biladi. Aleksey uni juda qadrlaydi. So‘ngra doktor, o‘zi yoshgina yigitcha, butunlay nigilist deb bo‘lmaydi, lekin, qara, ovqatni pichoq bilan yeysi... Ammo juda yaxshi doktor. Keyin arxitektor... Une petite conr¹.

XX

— Mana sizga Dolli, knyajna, juda ko‘rgingiz kelayotgan edi, — dedi Anna Darya Aleksandrovna bilan birga katta g‘ishtin ayvonga chiqib; knyajna Varvara ayvonning salqin yerida o‘tirib graf Aleksey Kirillovichning kursisi uchun kashtali jild tikayotgan edi. — Dolli tushlik ovqatgacha hech nima yegim yo‘q deyapti, siz ayting, nonushtalik olib kelishsin, men borib Alekseyni topib kelay.

Knyajna Varvara Dollini himoyasi ostiga olayotgandek shirin so‘z bilan qarshi olgandan so‘ng Annani hamma vaqt yaxshi ko‘rganligini, hatto Annani tarbiya qilgan o‘z opasi Katerina Pavlovnan dan ham ko‘proq yaxshi ko‘rganligini, hozir, hamma Annadan yuz o‘girib ketgan bir paytda, mana shu o‘tkinchi, eng og‘ir bir pallada Annaga yordam qilishni o‘zining burchi deb hisoblagani uchun Annalarnikiga kelib turganligini darhol izoh qila ketdi.

— Eri taloq xatini bergandan keyin yana o‘z g‘amxonamga ketaman, hozir esa foydam tegib qolishi mumkin. Burchim har qancha og‘ir bo‘lsa hamki, bajaraman, boshqalarga o‘xshab yuz o‘girib ketmayman. Aylana qolay sendan; kelib biram yaxshi qilding, biram yaxshi qildingki! Bular eng yaxshi er-u xotinlardek juda ahil, juda yaxshi turishadi. Bularga xudoning o‘zi hakamlik qiladi, biz emas. Masalan, Beryuzovskiy bilan Aveneva-chi... Nikandrovning o‘zi-chi... Vasilev bilan Mamanova-chi... xo‘sh, Liza Neptunova-chi... axir bular to‘g‘risida hech kim hech nima degani yo‘q-ku! Oqibatda nima bo‘ldi? Hamma boyagiday o‘z davrasiga oldi, innaykeyin, c‘est un interieur si joli, si comme il faut. Tout-a-fait al’ anglaise.

¹ Kichkinagina saroy (*frans.*).

On se reunit le matin eu brekfast et puis on se sepere...¹ Har kim ovqatgacha xohlagan narsasini qildi. Ovqat soat yettida. Seni yuborib, Stiva ko'p yaxshi qilibdi. Shularga yaqinroq tursa chakki bo'lmaydi. Bilasan-ku, onasi bilan akasi orqali har nimani qilish qo'lidan keladi. Innaykeyin, bular juda ko'p saxovatparvarlik qilishyapti. Kasalxona soldirayotganini o'zi aytgani yo'qmi senga? Ce sera admirable², – hammasini Parijdan keltiryapti.

Anna bilyard bo'lmasidan erkaklarni topib, ularni ayvonga boshlab chiqdi-yu, Dolli bilan knyajnaning suhbatlarini bo'lib qo'ydi. Ovqatga hali ancha vaqt bor edi; havo nihoyatda yaxshi bo'lgani uchun qolgan shu ikki soatlik vaqtini qanday o'tkazish to'g'risida turli takliflar bo'lди. Vozdvijenskiyda vaqtini o'tkazishning usuli juda ko'p bo'lsa-da, lekin hech biri Pokrovskiyda qo'llanilgan usullarga o'xshamas edi.

Veslovskiy chiroyli tabassumi bilan jilmayib turib:

– Une partie de lown tennis³, – dedi. – Biz yana ikkovimiz, Anna Arkadevna.

– Yo'q, ko'p issiq; yaxshisi, bog'da aylanib qayiqqa tushaylik-da, Darya Aleksandrovnaga suv bo'ylarini tomosha qildiraylik, – deb taklif qildi Vronskiy.

– Men hammasiga yo'q demayman, – dedi Sviyajskiy.

– Menimcha, aylanganimiz yaxshi, Dollining bahri ochiladi, shunday emasmi? Keyin qayiqqa tushamiz, – dedi Anna.

Shunga qaror qilishdi. Veslovskiy bilan Tushkevich cho'miladigan joyga ketishdi; qayiqni tayyorlab, o'sha yerda kutishadigan bo'lishdi.

Ikkita-ikkita bo'lib yo'lordan yurib ketishdi: Anna Sviyajskiy bilan, Dolli Vronskiy bilan bordi. Dolli o'zi tushib qolgan tamom yangi muhitdan biroz tortinib, tashvishlanib borardi. U Annanining qilmishini mavhum va nazariy ma'noda oqlash bilan birga ma'quillardi ham. Axloqli hayotning bir qolipda o'tishidan charchagan tamoman pok, axloqli xotinlar umuman kam uchramaganidek, Dolli ham, Annanining jinoyatkorona ishq-

¹ Bu yer juda shinam va batartib joyki, xuddi inglizchasiga ertalabki nonushtada to'planishib, keyin tarqalishib ketadi (*frans.*).

² Juda ajoyib bo'ladi (*frans.*).

³ Tennis o'yinida (*frans.*).

muhabbatini uzoqdan turib kechirar, hatto unga havasi ham kelardi. Bundan tashqari, Annani jon-dilidan sevardi. Amalda esa uni o‘zi uchun yot bo‘lgan bu odamlar orasida o‘zi uchun yangi bu sermulozamat odamlar muhitida ko‘rib o‘ng‘aysizlik tortardi. O‘zi qulay turmush kechirayotgani tufayli hamma narsani kechiraveradigan knyajna Varvarani ko‘rganda ko‘ngli, ayniqsa, ag‘darilib ketardi.

Dolli Annaning qilmishini umuman ma’qullasa ham, lekin shu ishiga sabab bo‘lgan kishini ko‘rishdan dili ozor topardi. Bundan tashqari, Vronskiy hech qachon unga yoqmas edi. Dolli uni juda kerak odam deb hisoblar, boyligidan boshqa keriladigan biron narsasi borligini bilmas edi. Ammo Vronskiy bu yerda, o‘z uyida, beixtiyor ilgarigidan ham savlatliroq ko‘rinib ketdi, shuning uchun Dolli uning oldida o‘zini erkin tutolmasdi. Yamoq koftochkasi tufayli xizmatkor qiz oldida qanday holga tushgan bo‘lsa, Vronskiy oldida ham o‘shanday xijolat tortar edi. Xizmatkor qiz oldida ko‘ylagining yamog‘idan uyalgan bo‘lmasa-da, lekin noqulay ahvolga tushib qolgani singari Vronskiy oldida ham o‘zi tufayli nomus qilmasa-da, lekin noqulaylik tortar edi.

Dolli iymanayotganini sezib, gap uchun mavzu qidirar edi. U Vronskiyning uyi bilan bog‘ini maqtash bunday mutakabbir kishiga manzur bo‘lmaydi deb hisoblasa-da, boshqa gap topolmagani uchun yana uning uyini maqtab, o‘ziga juda ham yoqqanligini aytdi.

– Ha, bu juda chiroqli bino, innaykeyin, qadimiy uslubda, yaxshi uslubda solingan, – dedi Vronskiy.

– Tashqi eshik oldidagi hovli sahni menga juda ham yoqdi-da. Ilgari ham shunday edimi?

– O‘, yo‘q! – dedi-yu Vronskiy, xursand bo‘lganidan yuzi charaqlab ketdi. – U hovlini shu yil bahorda ko‘rganingizdami!

Mana shundan keyin Vronskiy Dollining diqqatini uy va bog‘ bezaklarining turli ikir-chikirlariga oldin ehtiyyot bilan, keyin esa tobora berilib jalb qila ketdi. Vronskiy chorborg‘ini yaxshilash, bezash uchun ko‘p mehnat sarf qilib qo‘yib, har bir yangi odam oldida chorborg‘i bilan maqtanishini yaxshi ko‘rganligi, hozir esa Darya Aleksandrovnaning maqtovini eshitib, ich-ichidan quvonayotganligi ko‘rinib turardi.

– Soldirayotgan kasalxonamizni ko'rgingiz kelsa, agar char-chamagan bo'lsangiz, yaqin, yuring, – dedi Vronskiy zerikmaganini aniq bilish uchun yuziga tikilib.

– Anna, sen ham borasanmi? – deb so'radi Dolli.

Anna ham Sviyajskiya qarab:

– Biz ham boramiz. Biz ham boramiz-a? – dedi. – Mais li ne faut pas baisser le peuvre Veslovskiy et Tushkevich se morfondre la dans le dans le bateau¹, odam yuborib xabar qildirib qo'yish kerak. Ha, Alekseyning shu yerda qoldirib ketadigan yodgorligi bo'ladi bu, – dedi Anna, boyta kasalxona to'g'risida gapiroayotganda lablarida paydo bo'lgan hamon o'sha quv tabassum bilan Dolliga yuzlanib.

– O, juda katta ish qilinyapti! – dedi Sviyajskiy. Lekin Vronskiyning haybarakallachisi bo'lib ko'rinnmaslik uchun darhol boshqa kamchiliklardan og'iz ochdi. – Men bir narsaga hayronman, graf, – dedi Sviyajskiy, – sanitariya masalasida xalq uchun juda ko'p narsalar qilasiz-u, ammo-lekin mакtab to'g'risida beparvo qaraganingiz qiziq.

– C'est devanu tellement commun les ecoles², – dedi Vronskiy. – Bilasizmi, qiziqqanim uchun emas, ishqibozlik uchun. Kasalxonaga bu yoq bilan boriladi, – dedi Darya Aleksandrovna xiyobondan chiqiladigan chap yo'lni ko'rsatib.

Xonimlar shamsiyalarini yozib, yon tomondagi yolg'iz oyoq yo'lga o'tishdi. Bir qancha burilish-muyilishlardan o'tib borib eshikdan chiqishgandan so'ng Darya Aleksandrovna ro'parasida, baland joyda solib bo'linayozgan kattakon, serhasham qizil binoni ko'rdi. Hali bo'yalmagan tom tunukasi charog'on quyoshda ko'zlarni qamashtiradigan darajada yarqirab turardi. Bitgan bino yonida havozalar bilan o'ralgan yana bitta uy qurilayotgan edi: fartug'li ishchilar havozalarda turib g'isht terishar, ohak qorishmasi quyib, andoza bilan to'g'rillardilar.

– Ishingiz juda chaqqon ketyapti! – dedi Sviyajskiy. – Qaysi kuni kelganimda tomi yo'q edi.

– Kuzga hamma ish tayyor bo'ladi. Ichi qo'ldan chiqdi hisob, – dedi Anna.

¹ Lekin bechora Veslovskiy bilan Tushkevichni qayiq oldida kuttirib qo'yish yaramaydi (*frans.*).

² Maktab masalalari juda oddiy masala bo'lib qolgan (*frans.*)

– Yangi uyni nimaga solyapsizlar?

– Doktorlar bilan dorixonaga, – deb javob qildi-yu Vronskiy, o‘zi tomon kelayotgan kalta paltoli arxitektorni ko‘rib, xonimlardan uzr so‘ragach, u tomon ketdi.

Ishchilar ohak olishayotgan chuqurdan aylanib o‘tib, arxitektor bilan to‘xtadi, nima to‘g‘risidadir qizishib gapira boshladi. Anna nima gapligini so‘ragan edi:

– Fronton¹ pastlab ketyapti, – deb javob berdi.

– Poydevorni ko‘tarish kerak, deb aytmovdimmi, – dedi Anna.

– Ha, albatta, ko‘tarilsa yaxshi bo‘lardi, Anna Arkadevna; na chora, vaqt ketdi, – dedi arxitektor.

Sviyajskiy Annaning arxitekturadan xabardorligiga hayron qolgan edi, Anna:

– Ha, arxitekturaga juda qiziqaman, – deb javob qildi. – Hozirgi solinayotgan uy ham kasalxona binosiga monand bo‘lishi kerak edi, ammo buni solish xayoli keyin tug‘ildi-yu, rejasiz ish boshlab yuborildi.

Vronskiy arxitektor bilan gapni tugatgandan so‘ng xonimlarga qo‘silib, kasalxona ichiga boshlab kirdi.

Tashqaridan kam-ko‘stlari qilinayotgan va pastki qavatda devorlarni bo‘yayotgan bo‘lsalar ham, ustki qavat qariyb tayyor bo‘lgan edi. Serbar cho‘yan zinadan chiqishgandan so‘ng birinchi katta xonaga kirishdi. Devorlari marmar tusda bo‘yalgan, kattakon yaxlit derazalar o‘matilgan, faqat parket pol hali tugamagan edi; duradgorlar mo‘ljallagan kvadratni randalashayotgan ekan, darrov ishlarini qo‘yishdi-da, sochlarini to‘sib turgan peshonabog‘larini olib, xo‘jayinlar bilan salomlashdi.

– Bu – qabulxona, – dedi Vronskiy. – Bu yerda pyupitr, stol, shkafdan boshqa hech nima bo‘lmaydi.

– Bu yoqqa, bu yerdan o‘tamiz. Derazaga yaqin borma, – dedi Anna bo‘yoq quriganmi yo‘qligini tekshirib ko‘rib. – Aleksey, buyoq qurib qolibdi, – deb qo‘ydi keyin.

Qabulxonadan yo‘lakka o‘tishdi. Bu yerda Vronskiy ularga yangi usulda qurilgan ventilyatsiyani ko‘rsatdi. So‘ngra marmar vannalarini, purjinali ajoyib karavotlarni ko‘rsatdi. Keyin ketma-ket palatalarni, qaznoqni, choyshablar, ko‘ylak-lozimlar saqlanadigan

¹ Imorat peshtoqi (*tarj.*).

bo'lmani, so'ngra yangi usulda qurilgan pechkalarini, innaykeyin, kerakli narsalarni tashiganda yo'lakda sharpa chiqarmaydigan g'altak aravachalarini va boshqa juda ko'p narsalarni ko'rsatdi. Sviyajskiy yangi takomillashtirilgan uskunalarini yaxshi biluvchi mirishkor ko'zi bilan hamma narsaga baho berdi. Dolli shu yoshga kirib ko'rмаган narsalaridan ajablanar, hamma narsani tushunishni istab, hamma narsa to'g'risida batafsил savollar berar, bu esa, aftidan, Vronskiyi xursand qilardi.

— Ha, menimcha, bu Rossiyada tamoman to'g'ri qurilgan yagona kasalxona bo'ladi, — dedi Sviyajskiy.

— Tug'ruq bo'limi bo'lmaydim? — deb so'radi Dolli. — Qishloq sharoitida juda ham zarur-da. Men ko'pincha...

Vronskiy boodob kishi bo'lganiga qaramay, Dollining gapini kesib qo'ydi.

— Bu tug'ruqxona emas, kasalxona; bu yerda yuqumli kasallardan bo'lak hamma kasallar davolanadi, — dedi u. — Ha, mana buni qarang, — dedi keyin tuzaluvchilarga atab, yaqinda chet eldan sotib olib keltingan kursini Darya Aleksandrovnaning yoniga g'ildiratib kelib. — Bir qarang, — o'zi kursiga o'tirib, yurgizib-ko'rsatdi. — Kasal yo zaiflikdan yoki oyoqlari og'riqligidan yurolmasligi mumkin, ammo unga toza havo kerak, shunday paytlarda kursiga o'tiradi-yu, sayr qiladi...

Darya Aleksandrovnani hamma narsa qiziqtirdi, unga hamma narsa yoqdi, ammo mana shu sodda, chin ko'ngil bilan shu ishga qiziqqan Vronskiy hammadan ham ko'proq yoqdi. «Ha, juda dilbar, juda yaxshi kishi ekan», deb o'ylardi ba'zan gaplariga quloq solmay, lekin unga tikilib turib Vronskiyning yuziga sinchiklab qarar ekan, Annani xayoliga keltirardi. Vronskiy shu jo'shqinligi bilan Dolliga shu qadar yoqib qoldiki, u Annanining bunga qanday oshiq bo'lganligini endi tushuna boshladi.

XXI

Sviyajskiy yangi ayg'irni ko'rishni istar edi, shuning uchun Anna ot zavodiga boraylik deb taklif qilganda, Vronskiy:

— Yo'q, nazarimda, knyaginya charchagan bo'lsalar kerak, otlarga ham qiziqmaslar, — dedi. — Sizlar boraveringlar, men knyaginyani

uyga uzatib qo'yaman, keyin biroz gaplashamiz, – deb Dolliga murojaat qildi: – Agar malol kelmasa.

Darya Aleksandrovna birmuncha hayron bo'lib:

– Otlar to'g'risida men hech narsa tushunmayman, uyg'a qaytsam xursand bo'lardim, – dedi.

U o'zidan bir iltimosi borligini Vronskiyning yuzidan payqagan edi. Yanglismagan ekan. Eshikdan yana boqqa kirishlari bilanoq, Vronskiy Anna ketgan tomonga bir qaradi-da, Anna ovozlarini eshitmasligiga, o'zlarini ko'rmasligiga qanoat hosil qilgandan so'ng, gapni boshladi.

Vronskiy xijolat to'la ko'zлari bilan Dolliga qarab turib:

– Sizga gapim borligini payqadingiz, shekilli, a? – dedi, – Annaning do'stisiz, men bu xususda xato qilmayman. – Vronskiy shlapasini oldi-da, dastro'molchasini chiqarib, tepe sochlari to'kila boshlagan taqir boshini artdi.

Darya Aleksandrovna hech qanday javob qilmay, unga hayiqibroq qarab qo'ydi. Dolli u bilan yolg'iz qolganda, birdan yuragini vahima bosdi: Vronskiyning kulib turgan ko'zлari va jiddiyat to'la yuzlari qo'rqtib yubordi.

Dollining miyasidan: u men bilan nima to'g'risida gaplashmoqchi, deb turli fikr-xayolga bordi: «Bolalarim bilan mehmon bo'lib kelishimni so'rasa, men ko'nmasligim kerak, yo Moskvada Annaga dugonalik qilishimni so'rarmikan... yo Vasenka Veslovkiy va uning Annaga munosabatini so'rarmikan? Balki o'zini aybdor bilib, Kitidan gap ohib qolar?» Dolli faqat dilni siyoh qiladigan narsalarnigina o'yldi-yu, lekin Vronskiy gaplashmoqchi bo'lgan narsani hech topolmasdi.

– Sizning Annaga ta'siringiz kuchli, sizni juda yaxshi ko'radi u, – deb gap boshladi Vronskiy. – Menga yordam qilsangiz.

Darya Aleksandrovna uning jonli yuziga yuragi dov bermay, yana nima deyar ekan deb, savol nazari bilan qarab turardi; lipa daraxti soyasi orasidan tushib turgan quyosh yog'dusi goh Vronskiy yuzining bir chekkasini goh butunlayin yoritar, goh uning yuzi soyada xo'mrayib ko'rinar edi; ammo Vronskiy kaltagi bilan shag'al toshlarini ilib, yonida indamay borardi.

– Agar siz biznikiga kelgan bo'lsangiz, Annaning eski do'stlari orasida birinchi asl siz bo'lib chiqasiz – men knyajna Varvarani bu

hisobga qo'shmayman, – demak, siz bu yerga bizning ahvolimizni tushunganingiz uchun emas, yo'q, bu ahvolimizning qanchalik og'irligini bilganingiz holda, yana uni yaxshi ko'rganingiz, yordam qilish istagida bo'lganingiz uchun kelgansiz. Shunday tushunganim to'g'rimi? – deb so'radi Dolli tomonga o'girilib.

– Ha, albatta, – deb javob qildi Darya Aleksandrovna, shamsiyasini yig'ib turib. – Lekin...

– Yo'q, – deb Vronskiy uning gapini bo'lib qo'ydi-da, shu qiligi bilan suhbатdoshini noqlay ahvolga tushirib qo'yishi mumkinligini beixtiyor esidan chiqarib, to'xtadi; Dolli ham to'xtashga majbur bo'ldi. – Annaning ahvoli naqadar og'irligini hech kim mendan ortiq, mendan kuchli his qilmaydi. Agar meni qalbi, dili bor kishi deb hisoblab, meni shunday sharafga noyil qilsangiz, bu narsani osongina tushunib olasiz. Shu ahvolning sababchisi menman, shuning uchun ham hammadan ortiq sezaman.

Shu so'zni samimiyat va qat'iyat bilan aytgani uchun Darya Aleksandrovna Vronskiyiga beixtiyor zavqi kelib:

– Tushunaman, – dedi. – Lekin o'zingizni sababchi deb bilganingiz uchun mubolag'a qilyapsiz, deb qo'rqaman. Annaning ahvoli kiborlar olamida og'ir, albatta, men bunga tushunaman, – dedi yana.

– Kiborlar muhiti – do'zax! – qovoqlarini xo'mraytirib, shoshib gapirdi Vronskiy. – Peterburgda turgan o'sha ikki hafta ichida Anna tortgan ma'naviy azobdan og'irrog'ini tasavvur qilib bo'lmaydi... gaplarimga ishonishingizni iltimos qilaman.

– Shundog'-u, lekin bu yerda na Anna... na siz kiborlarga muhtoj emassizlar...

– Kiborlar! – dedi Vronskiy nafratlanib. – Kiborlarga muhtoj bo'lish zaril keptimi menga?

– Ahvol shunday bo'lгandan keyin – hamma vaqt shunday bo'lib qolishi ham mumkin – tinch, bemalol, baxtli bo'lib yashayverasizlar. Men Annadan sezib turibman: u baxtli, tamoman baxtli. Baxtli ekanini menga aytди ham, – dedi Marya Aleksandrovna kulimsirab; keyin shu gapni aytib turib, Anna chindan ham baxtlimikan, degan gumonga tushib qoldi.

Ammo Vronskiyning bu to'g'rida gumoni yo'q edi.

– Ha, ha, – dedi u. – Bilaman, keyingi barcha azob-u uqubatlari- dan keyin o'ziga kelib qoldi; chindan ham baxtli. Ammo hozirgi

kunda baxtli. Xo'sh, men-chi?.. Meni kelajak qo'rqitadi... kechirasiz, yurmoqchimisiz?

– Yo'q, baribir.

– Bo'lmasa, bu yerga o'tiraylik.

Darya Aleksandrovna xiyobon burchagidagi o'rindiqqa o'tirdi. Vronskiy ro'parasiga kelib turdi.

– Ko'rib turibman u baxtli, – deb Vronskiy boyagi so'zini yana takrorladi; shunda Darya Aleksandrovnaning Anna chindan ham baxtlimikan, degan gumoni o'zini yana ham battarroq hayratga solib qo'ydi. – Ammo ahvol shu taxlitda davom eta oladimi? Yaxshi ish qildikmi, yomon ish qildikmi, bu boshqa masala; ammo tole shu ekan, – dedi Vronskiy ruschadan fransuzchaga o'tib, – biz umrimizning oxirigacha qovushdik. Sevgining biz uchun eng muqaddas bo'lgan bog'lari bilan bog'landik. Bolamiz bor, yana qator-qator bola ko'rishimiz mumkin. Ammo qonun va hozirgi ahvolimiz chalkash, shunday ro'paramizda minglab g'ovlar turibdi; Anna esa, shuncha tortgan azob-u uqubatlaridan so'ng qalbi bilan erkin nafas olayotgani uchun bu g'ovlarni ko'rmaydi, ko'rgisi ham kelmaydi. Shunday bo'lishi tabiiy. Ammo mening ko'rmasligim mumkin emas. Mening qizim – qonun bo'yicha meniki emas; Kareninniki. Men bunday soxtagarchilikka ko'nmayman! – dedi Vronskiy qo'l harakati bilan buni rad etganday. Keyin qovoqlarini solib turib, Darya Aleksandrovnaga qarab qo'ydi.

Dolli unga javob qilmay yuziga qarab turardi. Vronskiy so'zini davom qildirdi:

– Xo'sh, ertaga o'g'il tug'ildi deylik, mening o'g'lim, qonun bo'yicha u ham Karenin bo'ladi; mening mulkimga ham, davlatimga ham merosxo'r bo'lommaydi; oilada nechog'lik baxtli bo'lmaylik, nechog'lik farzand ko'rmaylik, men bilan ular o'rtasida hech qanday bog' bo'lmaydi. Ular Karenin bo'lib ketishadi. Bu ahvolning qanchalik og'ir, qanchalik mudhishligini bir o'ylab ko'ring! Anna bilan shu to'g'rida gaplashishga harakat qilib ko'rdim. Bu gaplar jig'iga tegadi, xolos. Anna gapga tushunmaydi, men ham hamma dardimni unga ochib aytolmayman. Endi bu masalaga boshqa tomonidan qarang. Men-ku Annaning sevgisidan baxtiyorman-a, lekin biron ish qilishim kerakmi-yo'qmi! Men shunday ishni topdim, bu ishdan faxrlanaman ham, innaykeyin, bu ishimni ilgarigi oshna-og'aynilarimning saroydag'i

va xizmat sohasidagi ishlardan ancha olijanob ish deb hisoblayman. Endi, hech shubha yo'qki, bu ishimni ularning ishlariga hech-hech alishtirmayman. Men shu yerda, uyimda o'tirib ishlayman, shuning uchun baxtliman, mamnunman, baxtimiz uchun bizga ortiq hech nima darkor ham emas. Men hozirgi faoliyatimni yaxshi ko'raman. Cela n'est pas un pisaller¹, aksincha...

Darya Aleksandrovna gap shu yerga kelib taqalganda Vronskiy adashib ketganini sezdi, bu chekinishning nima hojati borligini yaxshiroq uqmagan bo'lsa ham, lekin Anna bilan gaplasha olmaydigan sirlaridan og'iz ochgandan keyin endi hamma narsani ochdi qilib gapirayotganini, qishloqdagi faoliyati masalasi ham, Annaga bo'lgan munosabati masalasi bilan bog'liq bo'lgan dard ekanini his etdi.

— Shunday qilib, gapimni davom qildiraman, — dedi Vronskiy hushiga kelib. — Eng muhim narsa shuki, ishga kirishgan paytimda ishimning o'zim bilan birga o'lib ketmasligiga, mendan keyin merosxo'rlarim qolishiga ishongan bo'lishim zarur — menda bo'lsa bunday ishonch yo'q. O'zi bilan sevgili xotinining bolalari o'ziniki bo'lmasligini, balki ularni ko'rishga ko'zi bo'lмаган, ularni nazarpisand qilmagan boshqa birovnikni bo'lib ketishini oldindan bilib turgan kishining ahvolini ko'z oldingizga keltirib qarang! Axir bu dahshat-ku!

Hayajoni kuchayib ketdi, shekilli, jim bo'lib qoldi.

— Ha, albatta, tushunaman. Xo'sh, Annanинг qо'lidan nima keladi? — deb so'radi Darya Aleksandrovna.

— Gapimdan maqsad shu-da, — dedi Vronskiy zo'rg'a o'zini bosib. — Annanинг qо'lidan keladi, hamma narsa Annaga bog'liq... o'z bolalarimni farzandlikka olishga ruxsat bering deb podshodan iltimos qilish uchun ham taloq kerak bo'ladi, taloq masalasi esa Annaga bog'liq. Eri taloq xatini berishga rozi bo'lган — o'sha vaqt eringiz taloq masalasini hal qilib qо'yayozgan edi. Bilaman, hozir ham yo'q demas edi. Faqat xat yozsa kifoya edi. Eri o'shanda: «Agar Anna rozi bo'lsa, men yo'q demayman», — degan. Albatta, — dedi Vronskiy qovog'ini solib, — faqat bu bag'ritosh odamlarningina qо'llaridan keladigan munofiqlik bu. Uni Anna eslaganda, qanchalik azobga tushishini biladi, bilgani uchun ham xat yozishini talab qiladi. Annaga qiyin bo'lishini tushunaman, albatta. Lekin sabablar shu

¹ Yaxshisi yo'qligi sababidan emas (*frans.*).

qadar muhimki, passer pardessus toutes ces finesse de sentiment¹ zarur bo'ladi. Il y va du bonheur et de l'existence d'Anne et de ses entents². Garchi menga og'ir bo'lsa, juda-juda og'ir bo'lsa ham, o'zimni o'ylayotganim yo'q, – dedi o'ziga qiyin bo'lgani uchun allakimga tahdid qilayotgandek. – Gap shunaqa, knyaginya, men najot langariga osilgandek, uyalmay-netmay, sizga osilib olaman. Eriga xat yozib, taloq xatini talab qildirish uchun Annani yo'lga solishda menga yordam bering!

Darya Aleksandrovna o'zining Aleksey Aleksandrovich bilan oxirgi marta uchrashganini darhol esiga olib:

– Ha, albatta, – dedi o'ychan bir qiyofada. Keyin Annani eslab, qat'iy qaror bilan takrorladi. – Ha, albatta.

– Annaga bo'lgan ta'siringizni ishga soling, bir ish qilingki, xat yozsin. Men bu to'g'rida Annaga bir nima deyishni xohlamayman, deyolmayman ham.

– Xo'p, gaplashib ko'raman. Tavba, nega o'zi buni o'ylamaydiya? – dedi Darya Aleksandrovna, Annaning ko'zini suzadigan yangi odat chiqarib olganini nima uchundir birdan eslab; gap xuddi ichki sirlariga borib taqalganda, Anna ko'zlarini suzib qo'yanini ham hozir esiga tushirdi. «Hayotning hamma tomonlarini ko'rmaslik uchun ko'zlarini qisib qaraydi, shekilli», – deb o'yladi Dolli. Keyin Vronskiyning yuzidagi minnatdorlik alomatlarini ko'rib: – Mutlaqo, o'zim uchun ham, Anna uchun ham gaplashib ko'raman, – deb javob qildi.

O'rinalardan turib, uyga qarab yurishdi.

XXII

Anna Dollining allaqachon qaytganini ko'rib, Vronskiy bilan uning o'rtasida o'tgan gapni so'rayotgandek qilib ko'zlariga diqqat bilan qaradi-yu, lekin so'ramadi.

– Ovqat vaqt ham bo'lib qoldi, shekilli, – dedi Anna. – Hali sen bilan durustroq ko'rishganimiz ham yo'q. Butun umidim oqshomdan. Endi borib kiyinish kerak. Meningcha, sen ham. Qurilishda hamma yog'imiz bulg'andi.

¹ His-tuyg'ularning bu hamma nozik joylaridan hatlab o'tish (*frans.*).

² Gap Anna bilan bolalarning baxti va taqdiri ustida ketyapti (*frans.*).

Dolli bo'lmasiga ketayotib, kulgisi qistadi. Kiyadigan boshqa kiyimi yo'q edi, chunki eng yaxshi kiyimi egnida edi; lekin ovqatga tayyorgarlik ko'rganini nima bilan bo'lsa ham bildirish uchun xizmatkor qizdan iltimos qilib ko'ylagini tozalatdi, yengligi bilan bantigini o'zgartirdi, boshiga to'r tashlab oldi.

Anna yana ham odmiroq bo'lgan uchinchi ko'yakda chiqqanda:

- Mana, qo'limdan kelgani shu bo'ldi, – dedi kulimsirab.

- Ha, biz bu yerda ham rasm-rusumlarga rioya qilamiz, – dedi Anna, o'zi yasan-tusan qilgani uchun kechirim so'rayotgandek qilib. – Kelganiningdan Aleksey juda xursand, u kamdan-kam shunaqa xursand bo'ladi. Juda ham mehri tushib qolibdi senga, – deb qo'shib qo'ydi. – Charchaganing yo'qmi?

Ovqatgacha biron masala to'g'risida gaplashgani vaqt qolmagan edi. Mehmonxonaga kirishganda, qora syurtukdag'i erkaklar bilan knyajna Varvara o'sha yerda edi. Arxitektor frak kiyib kelibdi. Vronskiy doktor bilan ish boshqaruvchisini mehmonga tanishtirdi. Arxitektorni bo'lsa kasalxonada tanishtirib qo'ygan edi.

Soqol-mo'ylovleri toza qirilgan yumaloq yuzi va ohorlangan oq galstugining banti yarqirab turgan semiz xizmatkor ovqat suzilganini xabar qildi. Xonimlar qo'zg'aldilar. Vronskiy Sviyajskiydan Anna Arkadevnani qo'ltiqlab olishini iltimos qilib, o'zi Dollining yoniga bordi. Veslovkiy Tushkevichdan ildamroq kelib qo'lini knyajna Varvaraga tutdi. Shuning uchun Tushkevich doktor va mudir bilan birga bordi.

Ovqat, yemakxona, idish-tovoq, xizmatkorlar, vino va tamaddilar uyning yangicha hashamatiga munosib va balki, yana ham hashamatliroq, yana ham yangroq bo'lib ko'rindi. Darya Aleksandrovna o'zi uchun yangilik bo'lgan bu hashamatni kuzatib borar, bu yerdagi hashamatlar o'z hayot tarziga nisbatan beqiyos baland bo'lgani uchun, bu yerda ko'rgan narsalarining hech birini o'z uyiga tatbiq qilish niyatida bo'lmasa ham, uy-ro'zg'or tebratib turgan beka ko'zi bilan beixtiyor hamma narsaga, hamma ikir-chikirlarga e'tibor qilar, bu narsalarni kim qildi, qanday barpo qildi deb o'z-o'zidan so'rab qo'yar edi. Vasenka Veslovskiy o'zining eri, hatto Sviyajskiy ham, innaykeyin, u biladigan juda ko'p odamlar bu narsalarni hech mahal o'yashmas edi-yu, lekin har qanday boodob xo'jayin o'z uyidagi quayliklarni vujudga keltirish uchun uncha zahmat chekmaganini,

aksincha, o‘z-o‘zidan bo‘lib qolganligini mehmonlariga sezdirishni xohlaydi, degan gapga ishonib kelishardi. Darya Aleksandrovna bo‘lsa bolalarga pishirib beriladigan kasha ham o‘z-o‘zidan tayyor bo‘lib qolmasligini bilardi. Shuning uchun uy-ro‘zg‘orni ustalik bilan boshqarish uchun kimning bo‘lsa-da, ozmuncha diqqat sarf qilmaganiga amin edi. Aleksey Kirillovichning dasturxonga ko‘z yogurtirganidan, bosh xizmatkorga kallasi bilan ishora qilganidan, o‘ziga sho‘rvaning xillarini taklif etganidan Dolli hamma narsa uy xo‘jasining g‘amxo‘rligi bilan qilinib, yana shu g‘amxo‘rlik orqasida saqlab kelinayotganini anglatdi. Bu narsalar Veslovskiyiga qanchalik bog‘liq bo‘lsa, Annaga ham, aftidan, shunchalik bog‘liq ko‘rinardi. Anna, Sviyajskiy, knyajna va Veslovskiy oldilariga qo‘yilgan noz-u ne’matlardan xursand bo‘lib o‘tirgan bir xil mehmonlar edi.

Anna faqat suhbat olib borishda bekalik qilardi. Lekin kichkina dasturxon tevaragida o‘zлari odatlanishmagan hashamatdan dovdirab qolmaslikka tirishgan va umumiy gurungga uzoq bosh qo‘sha olmaydigan tamoman boshqa muhit kishilari bo‘lmish ishboshqaruvchi bilan arxitektor huzurida olib borish nihoyatda qiyin bo‘lgan bu og‘ir suhbatni Anna o‘ziga xos nazokat bilan, tabiiylik bilan, hatto Darya Aleksandrovnaning payqashicha, mammuniyat bilan olib borardi.

Gap Veslovskiy bilan Tushkevichning o‘zлari yolg‘iz qayiqqa tushganlari ustida bordi; Tushkevich Peterburgdagi Yaxta-klubda o‘tkazilgan so‘nggi poygani hikoya qila ketdi. Lekin suhbat kesilgach, Anna payt poylab turib, arxitektorni sukutdan qutqazish uchun unga darhol gap otdi.

— Nikolay Ivanovich so‘nggi marta kelganlaridan beri, — dedi Anna Sviyajskiy to‘g‘risida, — yangi bino qad ko‘tarib qolganiga hayron bo‘lyaptilar, o‘zim ham har kun borib turaman-u, har kun ishning shunday jadal ketayotganiga hayron bo‘laman.

— Graf janoblari bilan ishlasang maza qilasan, — dedi arxitektor kulimsirab (u o‘z qadrini biladigan, hurmat burchini bajo keltiradi-gan vazmin odam edi). Guberniya ma’murlari bilan qilinadigan ishga sira o‘xshamaydi bu. U yerlarda quchoq-quchoq qog‘ozga yoziladigan narsalarni bu yerda grafga aytib beraman-u, uch og‘iz so‘z bilan masalani hal qilamiz.

— Amerika usuli, — dedi Sviyajskiy kulimsirab.

— Ha, u yerda binolar har tomonlama o‘ylab quriladi...

Gap Amerika Qo'shma Shtatlarida hokimiyatdan suiiste'mol qilinishiga ko'chgan edi, lekin Anna ish boshqaruvchini sukutdan qutqazish uchun gapni darhol boshqa yoqqa burib yubordi.

– Yanchiq mashinasini hech ko'rghanmisan? – deb so'radi Darya Aleksandrovnadan. – Seni yo'lda uchratganimizda, ko'rgani borgan edik. O'zim ham birinchi ko'rghanim.

– Qanaqa ishlar ekan? – deb so'radi Dolli.

– Bamisoli qaychiday. Taxtalari, yana juda ko'p mayda qaychilar bor. Mana bunday.

Anna qo'sha-qo'sha uzuk taqqan chiroyli, oppoq qo'llariga pichoq bilan sanchqi olib, ko'rsata boshladi. Uqtirayotgan narsasidan hech nima tushunib bo'lmasligini o'zi ko'rib tursa ham, lekin tilining shirinligini, qo'llarining esa chiroyliligin bilgani uchun yana izohini davom qildiraverdi.

Veslovskiy undan ko'z uzmay qarab turgan edi. Xushomadgo'ylik qilib:

– Pichoqlari ko'proq qalamtaroshga o'xshaydi, – dedi.

Anna miyig'ida kulimsirab qo'ydi-yu, lekin javob qilmadi. Ish boshqaruvchiga yuzlanib:

– Rostdan ham qaychiga o'xshamaydimi, Karl Fedorovich? – dedi.

– O ja, – deb javob qildi nemis. – Es ist ein ganz einfaches Ding¹, – deya mashinaning tuzilishini uqtira ketdi.

– Attang, o'zi bog'lamas ekan-da. Men Vena ko'rgazmasida o'zi bog'lab ham qo'yadigan mashinani ko'ruvdim, – dedi Sviyajskiy. – O'shandaqasi qulayroq bo'lardi-da.

– Es kommt drauf an... Der Preis vom Draht muss ausgerechnet werden². – Sukut qilib o'tirgan nemis gapga kirgandan keyin Vronskiyga yuzlandi: Das lasst sich ansechnen, Erlaucht³. – Nemis har xil hisoblarni yozib boradigan daftarchasi bilan qalami cho'ntagida edi, cho'ntagiga bir qo'l soldi-yu, lekin ovqat ustida o'tirganini eslab, buning ustiga, Vronskiyning ham sovuq bir nazar bilan qarab qo'yanini payqab, qo'lini tortib oldi. – In complicirt, macht zu viel Klopot⁴, – deb gapiga xotima berdi.

¹ O, albatta, bu juda oson narsa (*nemis*).

² Gap shundaki... sim narxini hisoblab chiqish kerak (*nemis*).

³ Buni hisoblab chiqish mumkin, graf janoblari (*nemis*).

⁴ Odamning boshini og'ritadigan og'ir ish (*nemis*).

— Wunseht man Dochots, so hat man auch Klopots¹, — dedi Vasenka Veslovskiy nemisning jig‘iga tegib. Keyin yana shunday tabassum bilan Annaga murojaat qildi: — Jadore l’allemand².

— Cessez³, — deb qo‘ydi Anna hazil-mutoyiba aralash bir jiddiyat bilan.

— Biz sizni daladan toparmiz, deb o‘ylagan edik, Vasiliy Semyonich, — dedi Anna kasalvand doktorga qarab, — daladamidингиз?

Doktor xo‘mrayib:

— Dalada edim, lekin juftakni to‘g‘rilab qoldim, — dedi hazil aralash.

— Demak, juda ajoyib ish qilibsiz-da.

— Judayam, asti so‘ramaysiz!

— Kampirning sog‘ligi qalay? Terlama emasdир deb o‘ylayman.

— Terlama deb ham bo‘lmaydi, lekin ahvoli yaxshi emas-da.

— Attang! — dedi-yu Anna, shu taxlit mehmonlariga hurmat burchini bajo keltirgandan keyin, o‘ziga qarashli odamlarga murojaat qila boshladi.

— Sizning izohingizga qarab mashina qilinadigan bo‘lsa deyman, Anna Arkadevna, juda qiyin bo‘lardi-da, — dedi Sviyajskiy hazillashib.

— Yo‘q, nimaga? — dedi Anna, keyin mashinaning qurilishi haqidagi o‘z izohida allaqanday shirin gap o‘tgan bo‘lsa, buni Sviyajskiy sezib qolibdi-da, deb kulimsirab gapira ketdi. Yoshlarga xos bo‘lgan bu yangicha noz Dolliga yoqmadi.

— Ammo Anna Arkadevnaning arxitekturadagi bilimi odamni ajablantiradi, — dedi Tushkevich.

— Albatta, kecha o‘zim ham eshitdim, Anna Arkadevna plintus to‘g‘risida gapi rayotgan edilar, — dedi Veslovskiy. — To‘g‘ri aytdimmi?

— Ko‘ra-ko‘ra ko‘zing pishib, eshita-eshita qulog‘ingga quyilganidan keyin bunga ajablanib bo‘ladimi, — dedi Anna. — Chamamda, uyni nimadan qilishlarini o‘zingiz bilmasangiz ham kerak?

Anna o‘zi bilan Veslovskiy o‘rtasidagi qochiriq gaplardan norozi bo‘lsa ham, yana beixtiyor berilib ketayotganini Darya Aleksandrovna ko‘rib o‘tirardi.

¹ Daromadni ko‘zlagan kishi bosh og‘rig‘iga ham chidab beradi (*nemis.*).

² Nemis tilini yaxshi ko‘rmaganidan-da. (*frans.*)

³ Bas qiling (*frans.*).

Vronskiy shunday paytlarda o‘zini Levindan tamoman bosh-qacha tutardi. Veslovskiyning laqillashlariga hech qanday ahamiyat bermas, aksincha, uning hazillarini ma’qullab ham qo‘yar edi.

– Bo‘lmasa ayting-chi, Veslovskiy, g‘ishtlarni nima bilan jips-lashtirishadi?

– Albatta, sement bilan-da.

– Yashang! Sement o‘zi nima?

– Loyga o‘xshagan... yo‘q, zamazkaga o‘xshagan narsa-da, – deb Veslovskiy hammani kuldirdi.

Ovqat qilib o‘tirganlar orasida gap goh siyg‘anib, goh qoqinib ketib, goh birovning izzati nafsiga tegib sira to‘xtamay davom qildi; gapga qosh-qovoqlarini solib indamay o‘tirgan doktor, ar-xitektor va ish boshqaruvchigina aralashmadi. Bir marta Darya Aleksandrovnaning ham jig‘iga tegib o‘tishdi, shunda Dolli alam qilganidan hatto qizarib ketdi; keyin esa o‘zim ortiqcha, bema’ni gap qilib yubormadimmikan, deb o‘ylanib qoldi. Sviyajskiy Levindan gap ochdi, uning mashinalar rus xo‘jaligida faqat zarar keltiradi, degan g‘alati gaplarini ayтиb berdi.

– Men bu janob Levinni bilish sharafiga noil emasman, – dedi kulimsirab Vronskiy, – lekin o‘zi qoralayotgan mashinalarni hech qachon ko‘rmagan bo‘lsa kerak. Agar ko‘rgan, sinagan bo‘lsa, u holda chet el mashinalarini emas, bironta rus mashinasini ko‘rgan. Bu xususda qanday muhokama bo‘lishi mumkin?

– Umuman, turkcha muhokama, – dedi Veslovskiy, Annaga kulimsirab turib.

– Uning muhokamalarini himoya qilish qo‘limdan kelmaydi, – dedi o‘tday lovillab Darya Aleksandrovna, – shunday bo‘lsa ham aytishim mumkin: u juda bilimli, o‘qigan kishi; agar shu yerda bo‘lsa bormi, sizlarga qanday javob berishni bilardi. Lekin men bilmayman.

– Men uni juda yaxshi ko‘raman, biz juda qalin og‘aynilarmiz, – dedi Sviyajskiy mehribonlik bilan kulimsirab. – Mais pardon, il est un petit peu toque¹, – masalan, zemstvoni ham, mirovoy sudyalarni ham keraksiz narsalar deb da’vo qilib, hech biriga bosh qo‘shishni xohlamaydi.

¹ Lekin, kechirasizlar, biroz tentaknamo qiliqlari bor (frans.).

Vronskiy muz solingan grafindan taglik yupqa stakanga suv quyib turib:

– Huquqimiz zimmamizga yuklayotgan burchlarimizni tushunmaymiz, shuning uchun burchlarimizni inkor qilamiz – bu biz ruslarga xos beparvolik, – dedi.

Darya Aleksandrovna Vronskiy o'zini baland olib aytgan bu gapidan jahli chiqib:

– O'z burchini Levindan ortiqroq bajaradigan odamni hali ko'rghanim yo'q, – dedi.

Bu gap Vronskiyning izzati nafsga tegdi, shekilli:

– Men, aksincha, – deb so'zini davom qildirdi. – Men, aksincha, meni borimcha ko'rghaningiz va buni aytib meni sharaflantirganingiz uchun juda minnatdorman, lekin mana bu Nikolay Ivanich (Sviyajskiyni ko'rsatdi) sharofati bilan meni mirovoy sudga faxriy rais qilganlarini aytayapman. Men qo'limdan keladigan har qanday ish qatori s'ezdga borishni ham, mujikning ot to'g'risidagi ishini muhokama qilishni ham o'shanday muhim burchim, deb hisoblayman. Agar meni zemstvo a'zosi qilib saylashsa, buni men o'zimga sharaf deb bilaman. Men zamindor sifatida ko'rib kelayotgan foydalarimni faqat shu xizmatim bilangina oqlashim mumkin. Sho'rimiz shundaki, katta zamindorlikning davlat doirasida ega bo'lishi kerak bo'lган аhamiyatiga tushunmaydilar.

Vronskiyning o'z dasturxonasi ustida haqligiga ko'ngli to'q ekanligini ko'rish, gaplarini eshitish Darya Aleksandrovnaga g'alati tuyulardi. Fikrlari bunikiga teskari bo'lган Levin ham o'z dasturxonasi ustida keskin-keskin muhokamalar yuritganini esladi. Lekin Dolli Levinni yaxshi ko'rар, shuning uchun tarafini olardi.

– Demak, kelajak s'ezdda sizni ko'zda tutamiz-da, a graf? – dedi Sviyajskiy. – Ammo sakkizinchida o'sha yerda bo'lish uchun barvaqtroq jo'nash kerak. Menikiga borib tushsangiz boshim osmonga yetadi. Shunday qilasiz-da, a?

– Sening veau-ferengga men biroz qo'shilaman, – dedi Anna. – Lekin uncha emas, – deb qo'shib qo'ydi kulimsirab turib. – Men bir narsadan qo'rqaman: oxirgi paytlarda bizda ijtimoiy vazifalar juda ko'payib ketyapti. Ilgarigi vaqtarda amaldorlar shuncha ko'п ediki, har bir ishga bittadan amaldor to'g'ri kelardi, mana endi jamoat arboblari ko'payib ketdi. Alekseyning bu yerga kelganiga atigi olti

oy bo‘libdi-yu, darrov beshtami-oltitami idoraga a’zo bo‘lib kiribdi – vasiy, sudy, a’zo, maslahatgo‘y, yana otga taalluqli bir narsa. Dutraiu que cela va¹ hamma vaqt shunga ketadi. Ishchilarning shuncha ko‘pligi faqat xo‘ja ko‘rsin uchun qilinayotgan ish bo‘lmasin deb qo‘rqaman. Siz qancha joyda a’zosiz, Nikolay Ivanovich? – deb Sviyajskiydan so‘radi. – Chamamda, yigirmatadan ortiq joyda bo‘lsangiz kerak.

Anna hazil aralash gapirayotgan bo‘lsa ham, lekin so‘zlarining ohangidan tajanglik sezilib turardi. Anna bilan Vronskiyini diqqat bilan kuzatib o‘tirgan Darya Aleksandrovna bu tajanglikni darhol payqab oldi. Shu gap mahalida Vronskiyning yuzi darhol jiddiy tus olganini ham payqadi. Darya Aleksandrovna buni ham, knyajna Varvara gapni boshqa yoqqa burib yuborish uchun Peterburgdag‘i tanishlar haqida darhol gap ochganini ham payqadi, keyin bog‘da Vronskiy o‘z faoliyati haqida noo‘rin gap qilganini eslab, ijtimoiy faoliyat to‘g‘risidagi bu masala Anna bilan Vronskiy o‘rtasidagi allaqanday janjal bilan bog‘liq ekanligini anglatdi.

Ovqatlar, ichimliklar, idish-oyoqlar – bularning hammasi juda yaxshi edi, lekin bular ham Darya Aleksandrovna ziyofatlarda va ballarda ko‘rgan idish-oyoqlar singari ko‘zga tashlanmaydigan xarakterda edi. Dolli esa bunday ziyofatlarga ko‘pdan beri bormagan edi; shuning uchun oddiy kunda, kichik bir davrada o‘tgan bu hashamatlar Dollida noxush taassurot qoldirdi.

Ovqatdan so‘ng ayvonga chiqib o‘tirishdi. Keyin lawn tennis o‘ynay boshlashdi. O‘yinchilar ikki to‘daga bo‘linishib, juda yaxshi tekislangan, shibalangan kroketgraund maydonchasida ustunlari zarhal bilan bo‘yalgan tarang to‘rning ikki tomoniga kelib turishdi. Darya Aleksandrovna ham o‘ynamoqchi bo‘ldi-yu, lekin anchagacha o‘yinga tushunolmadi, tushunganda esa shu qadar charchab qolgan ediki, knyajna Varvaraning yoniga o‘tirib, o‘yinni tomosha qildi. Dollining sherigi Tushkevich ham o‘yindan chiqdi; boshqalar esa o‘yinni uzoq davom qildirishdi. Sviyajskiy bilan Vronskiy ikkalasi juda yaxshi, vazmin o‘ynadi. Bular o‘zlariga tomon irg‘itilgan koptokni hushyorlik bilan kuzatishar, shoshmasdan, imillamasdan chaqqon yetib borishar, koptokning sakrashini kutib turib, ustalik bilan urib, to‘rdan oshirib o‘tkazishardi. Veslovskiy boshqalardan yomonroq o‘ynardi.

¹ Shunday hayot tarzi natijasida (*frans.*).

O'yinda juda qizishsa ham, lekin xushchaqchaqligi bilan hammani kuldirib turdi. Kulishlari, qichqirishlari bir zum ham tinmadi. U ham boshqa erkaklar singari xonimlar ijozati bilan syurtugini yechib tashlagani uchun oq, yengil ko'ylagi ichida tiqilib turgan barvasta chiroyli qomati, ter bosgan qizil betlari va chaqqon harakatlari bilan odamning miyasida mahkam saqlanib qolardi.

Shu kech Darya Aleksandrovna uxlagani yotib ko'zlarini endi yumishi bilanoq kroketgraundda u yoqdan bu yoqqa chopib yurgan Vasenka Veslovskiyni ko'rdi.

O'yin pallasida Darya Aleksandrovnaning vaqtichog' bo'lindi. O'yin mahalida Vasenka Veslovskiy bilan Anna o'rtasida davom qilgan g'amzabozlik, bolalar o'yinini kattalarning o'zları, bolalarsiz o'ynashlari – bu umumiy, g'ayritabiiy ahvol Dolliga yoqmagan edi. Lekin boshqalarning ta'blarini xira qilmaslik, bir amallab vaqtini o'tkazishlik uchun, damini olgandan keyin, yana o'yinga qo'shildida, o'zini juda xursand qilib ko'rsata boshladi. Butun kuni bilan o'zini shunday his qildi, go'yo u o'zidan ko'ra yaxshiroq artistlar bilan teatrda o'ynayotgandek bo'lar, o'zining yomon o'yini bilan butun ishni buzib qo'yayotgandek tuyulardi.

Dolli agar ko'ngliga sig'sa, ikki kun turib ketish niyati bilan kelgan edi. Lekin kechqurun, o'yin pallasida, ertagayoq jo'nash qaroriga kelib qoldi. Yo'lda ko'ziga juda ham xunuk ko'rinish ketgan azobbaxsh onalik tashvishlari bolalarsiz o'tgan shu bиргина kundan so'ng Dolliga boshqacha ko'rinish, uni o'ziga torta boshladi.

Oqshom choyidan va tungi qayiq sayridan so'ng Darya Aleksandrovna bo'lmasiga o'zi yolg'iz kirib, ko'ylaklarini yechib, yotish harakatida siyrak sochlarni tartibga sola boshlagandagina yengil tortdi.

Hozir Annaning kirishini o'ylasa ham ko'ngli xira bo'lar, o'z fikrlari bilan o'zi yolg'iz qolishni xohlardi.

XXIII

Dolli endi yotmoqchi bo'lib turganda Anna kechki kiyimida krib keldi.

Shu o'tgan kun davomida Anna ichki dardlari, hasratlari haqida bir necha bor og'iz ochgan bo'lsa ham, lekin bir-ikkita

so‘z aytar-aytmas: «Xayr, mayli, keyin yolg‘iz qolganda bafurja gaplasharmiz, senga aytadigan gapim shu qadar ko‘pki!» derdiyu, to‘xtab qolardi.

Mana hozir ikkovi xoli edi, shunday bo‘lsa ham Anna nimadan gapirishni bilmasdi. U hozir deraza oldida Dolliga qarab, ko‘nglidagi bitmas-tuganmasdek ko‘ringan hasratlarini bir-bir xayolidan o‘tkazib o‘tirar, lekin aytadigan gap topolmay hayron bo‘lardi. Nazarida, hozir hamma gap aytib bo‘lingandek tuyulardi.

– Kiti qalay? – dedi Anna chuqur xo‘rsingandan so‘ng Dolliga gunohkorlarcha qarab. – To‘g‘risini ayt, Dolli, mendan xafa emasmi?

– Xafa? Yo‘g‘-e, – dedi Darya Aleksandrovna kulimsirab.

– Mendan nafratlanar, jirkanar?

– Yo‘g‘-e! Lekin, o‘zing bilasan, bunday narsalar kechirilmaydi.

– Ha, ha, – dedi Anna yuzini o‘girib; keyin ochiq derazadan qarab o‘tirdi. – Lekin menda gunoh yo‘q edi. Gunoh kimda edi? Innaykeyin, gunoh degan narsaning o‘zi nima? Tavba, bundan boshqacha bo‘lishi mumkin edimi? Xo‘sh, sen nima deysan? Stivaga tegmasliging mumkinmidi?

– O‘zim ham hayronman. Menga qara, sen menga ayt shuni...

– Xo‘p, xo‘p, lekin Kiti to‘g‘risidagi gapimizni tugatganimiz yo‘q. Menga qara, Kiti baxtlimi? Erini juda ajoyib odam deyishadi.

– Ajoyib deyish ham kifoya qilmaydi. Bundan yaxshisini ko‘rgan emasman.

– Voy, xudoga shukur! Juda xursand qilding! Ajoyib odam deyish ham kamilik qiladi, – deb takrorladi Anna.

Dolli kulimsirab qo‘ydi.

– Kel, o‘zingdan gapir. Hali gaplashadigan gapim ko‘p. Biz...

– Dolli Vronskiyi nima deb atashini bilmay to‘xtab qoldi. Graf deyishini ham, Aleksey Kirillovich deyishini ham o‘ziga ep ko‘rmasdi.

– Aleksey bilan, – dedi Anna, – bilaman, Aleksey bilan gaplashdinglar. Ammo sendan bir narsani ro‘y-rost so‘ramoqchiman: o‘zim to‘g‘rimda, hayotim to‘g‘risida nima o‘ylaysan?

– Dabdurstdan qanday aytib bo‘ladi? Rosti, bir nima deyishimni bilmayman.

– Yo‘q, nima bo‘lsa ham aytasan... turish-turmushimni ko‘rib turibsan. Lekin esingdan chiqmasin, sen bizni yozda yolg‘iz emas-

ligimizda ko'ryapsan... Biz erta bahorda ko'chib ketamiz. Yolg'iz ikkalamizgina turardik, bundan keyin ham yolg'iz turamiz, mening bundan boshqa tilagim yo'q. Lekin faraz qil, men usiz turaman, yolg'iz turaman, bundan keyin ham shunday bo'ladi... Men hamma alomatlardan ko'rib turibman: bu ahvol takrorlanaveradi, umrining yarmini uydan tashqarida o'tkazadi, – dedi-da, o'rnidan turib kelib, Dolliga yaqinroq joyga o'tirdi.

E'tiroz bildirmoqchi bo'lib turgan Dollining gapini og'zidan olib:

– Albatta, – dedi, – albatta, uni zo'rlab tutib qololmayman. Tutayotganim ham yo'q. Aytaylik, bugun poyga, uning otlari chopadi, o'zi ham boradi. Juda xursandman. Lekin mening ahvolimni o'ylab ko'r, ko'z oldingga keltirib ko'r... e, buni gapirib nima ham qildim! – deb jilmaydi. – Qani, sen bilan nima to'g'risida gaplashdi?

– O'zim gapirmoqchi bo'lib turgan narsalardan gapirdi, shuning uchun unga advokatlik qilishim oson bo'ladi: ya'ni sening ahvolini... – Darya Aleksandrovna tutilib qoldi, – tuzatish, yaxshilash chorasi bormi-yo'qligidan gapirdi... bu narsaga mening qanday qarashimni o'zing bilasan. Har holda, agar iloji topilsa, erga tegishing kerak.

– Ya'ni taloq xatini ol demoqchisan-da? – dedi Anna. – Peterburgda mening oldimga kelgan birdan-bir xotin Betsi Tverskaya bo'ldi, bundan xabaring bormi? Sen taniysan-ku uni. An fond c'est la femme la plus depravee qui exiente¹. Erini eng iflos yo'llar bilan aldab, Tushkevich bilan aloqa qilib kelardi. Ana shu xotin ham, ahvolim to'g'rilanmaguncha, meni tanishni istamaganini aytdi. O'ylama, seni unga o'xshatayotganim yo'q... Seni bilaman, jonginam... Hozir beixtiyor esimga tushib ketdi-da... Shunday qilib, senga nima dedi u? – Anna yana qaytarib so'radi.

– U seni ham, o'zini ham o'ylab qiynalayotganini aytdi. Ehtimol, sen buni xudbinlik deb aytarsan, lekin xudbinlik bo'lganda ham, qonuniy, olilianob xudbinlik. Uning istagi, avvalo, qizini qonuniy yo'l bilan qiz qilib olish, senga er bo'lish, senga huquqli bo'lish.

– Men shu ahvolimda unga bir joriyamanki, qaysi bir joriya xotin menchalik joriya bo'la olarkin? – Anna qovoqlarini solib turib Dollining gapini bo'lib qo'ydi.

¹ Aslida, borib turgan buzuq xotin (*frans.*).

- Uning eng katta istagi... seni azob chekmasin, deydi.
- Bu bo‘ladigan gap emas! Keyin?
- Keyin, bolalaringiz o‘z familiyalarida bo‘lishini istaydi – bu o‘rinli gap.

Anna Dolliga qaramasdanoq ko‘zlarini suzib turib:

- Qanaqa bolalar? – deb so‘radi.
- Ani, keyin bo‘ladiganlari.
- Ko‘ngli to‘q bo‘lavversin, endi bola ko‘rmayman.
- Bola ko‘rmasligingni sen qayerdan bilasan?..
- Bo‘lmaydi, chunki bo‘lishini xohlamayman.

Anna Dollining yuzidagi sodda, maroq, hayrat va dahshat alomatlarini ko‘rib, shunday hayajonga tushib turganiga qaramay, kulimsirab qo‘ydi.

- Kasal bo‘lganimdan keyin doktor shunday dedi...
- Bo‘limgan gap! – dedi Dolli ko‘zlarini olaytirib. Bu narsa Dolli uchun oqibati juda katta bo‘ladigan, aqlga ham sig‘maydigan, imkonsiz narsaday tuyuldi; bu narsa keyincha Dollini juda ko‘p, juda ko‘p o‘ylashga majbur qilgan kashfiyotlardan biri bo‘ldi.

Bittadan yoki ikkitadan farzand ko‘radigan oilalarning sirini bordaniga ravshanlashtirib yuborgan bu kashfiyot Dollida shuncha ko‘p o‘ylar, mulohazalar, qarama-qarshi hislar uyg‘otdiki, u bir nima deyishga qodir bo‘lmay, ko‘zlarini olaytirib, Annaga hayronlik bilan qarab qoldi. Bugun yo‘lda kelayotib orzu qilgan narsasi shu edi, lekin hozir, bu narsaning mumkinligini bilgandan so‘ng, qo‘rqib ketdi. U bu narsani haddan ziyod murakkab masalaning haddan ziyod oson hal qilinishi deb bilardi.

- N’est ce pas immoral?¹ – dedi zo‘rg‘a biroz jim qolgandan keyin.
- Nima uchun? O‘zing o‘ylab ko‘r, men shu ikki narsadan birini tanlab olishim kerak: yo homilador bo‘lishim, ya’ni kasal bo‘lishim kerak yo bo‘lmasa erimning, baribir, erimning do‘sti, o‘rtog‘i bo‘lib qolishim kerak, – dedi Anna jo‘rttaga yuzaki, yengiltak bir ohangda.

Darya Aleksandrovna ilgari o‘zi uchun keltirgan bu dalillarni eshitdi-yu bularda ilgarigi qanoatdan asar ham yo‘qligini sezib:

- Ha-da, ha-da, – dedi.
- Sen uchun, boshqalar uchun, – dedi Anna xuddi Dollining o‘ylarini bilib olganday, – yana gumon bo‘lishi mumkin; lekin men

¹ Axir, bu axloqsizlik emasmi? (*frans.*)

uchun... tushungin, men axir xotini emasman, u meni sevishi mumkin bo‘lgan kungacha sevadi. Xo‘s, ana undan keyin sevgisini qanday saqlab qola olaman? Shu bilanmi?

Anna oppoq qo‘llarini qorni oldida cho‘zib ko‘rsatdi.

Darya Aleksandrovnaning fikr va xotiralari (kishi hayajonga tushganda shunday bo‘ladi), g‘ayrioddiy bir tezlikda miyasiga to‘planib, chuvala boshladи: «Men Stivani o‘zimga iydirib ololmadim, – deb o‘ylab ketdi Dolli; – meni tashlab, boshqaga ketdi; menga xiyonat qilgandan keyin topgan o‘sha birinchi yori ham, har qancha chiroyli, sho‘x bo‘lsa-da, baribir, ushlab qololmadi. Stiva uni ham tashlab, boshqasini topdi. Nahotki, Anna ham shu husni bilan graf Vronskiyini o‘ziga iydirib olib, ushlab qolsa? Agar graf Vronskiy shu narsani qo‘msaydigan bo‘lsa, albatta, bundan ham jozibadorroq, sho‘xroq pardoz va andozlarni topa oladi. Yalang‘och qo‘llari qanchalik oq, qanchalik go‘zal bo‘lmasin, to‘la qomati, bu qora sochlari, husniga husn qo‘shgan yuzi qanchalik chiroyli bo‘lmasin, u ham, mening jirkanch, ayananch, dilbar erim singari yaxshirog‘ini topib oladi».

Dolfi javob qilmasdi, faqat xo‘rsinibgina qo‘ya qoldi. Anna bu xo‘rsinishda norozilik borligini sezsa ham, yana so‘zini davom qildirdi. Uning ixtiyorida yana ham kuchliroq dalillar bor edi, bu dalillarga javob topib bo‘lmasdi.

– Sen buni yaxshi emas deysanmi? Yo‘q, chuqurroq o‘ylab boqish kerak, – dedi so‘zini davom qildirib, – mening ahvolim xotiringdan chiqyapti. Shu ahvolimda qanday qilib bola ko‘rgim keladi? Azobini aytayotganim yo‘q, azobidan qo‘rqmayman. O‘ylab ko‘r: bolalarimning ahvoli qanday bo‘ladi? Birovning familiyasi bilan yurgan bolalar – baxtsiz bolalar, bular dunyoga kelganlari uchun onalaridan, otalaridan, tug‘ilganlaridan uyaladigan bo‘lib o‘sishadi.

– Ha, barakalla, shuning uchun ham taloq xatini olish kerak.

Ammo Anna quloiq solmadi. U o‘zida necha bor qanoat hosil qildirgan dalillarini oxirigacha aytish tilagida edi.

– Bu yorug‘ dunyoga bebaxtlarni keltirmaslikka aqlim yetmasa, aqlning menga nima hojati bor?

Anna Dolliga bir qarab oldi, lekin javob kutmasdan, yana davom qildi:

– Men bu bebaxt bolalar oldida o‘zimni hamma vaqt gunohkorman deb, ezilib o‘tardim, – dedi. – Agar u bolalar dunyoga kelish-

masa loaqal baxtsiz bo'lishmaydi, agar baxtsiz bo'lishsa, u holda bir men aybdor bunga.

Darya Aleksandrovna o'ziga keltirgan dalillar ana shular edi; lekin hozir eshitib turib, bularning ma'nosiga tushunolmasdi. «Dunyoga kelmagan bolalar oldida qanday gunohkor bo'lish mumkin-a?» deb o'yldi Dolli. Shunda birdan miyasiga: «Grisha tug'ilman bo'lsa, boshqa biron sharoitda ahvoli yaxshiroq bo'-larmidi?» – degan fikr keldi. Bu fikr o'ziga shu qadar bema'ni, tuturiqsiz ko'rinish ketdiki, bu chuvalashib yurgan telba fikrlarni quvish uchun kallasini tebrata boshladи.

Dolli ijirg'anib:

– Yo'q, bilmayman, bu yaxshi emas, – deya oldi xolos.
– Lekin esingdan chiqarma-da: sen qanaqasan-u, men qanaqaman... bundan tashqari, – deb ilova qildi u o'z dalillarining kuch-lilagini, Dolliniki esa kuchsizligiga qaramay, bu narsaning yaxshi emasligiga har holda tan berayotgandek qilib gapirdi, – shu muhim tomonini ham esdan chiqarmaginki, men sening ahvolingdagi singari ahvolda emasman. Sening oldingda, bundan keyin bola ko'rmaslikni xohlaymanmi-yo'qmi, degan masala tursa, mening oldimda bola ko'rishni xohlaymanmi-yo'qmi, degan masala turadi. Buning farqi juda katta. Bilgin axir, men shu ahvolimda bola ko'rishni aslo xohlamayman.

Darya Aleksandrovna e'tiroz qilmadi. U o'zining Annadan juda uzoqlashib ketganini, oralarida hech qachon kelisha olmaydigan, shuning uchun og'izga olinmagani ma'qulroq bo'lgan talay-talay masalalar turganini birdan sezib qoldi.

XXIV

– Shuning uchun ham, iloji bo'lsa ahvolingni tuzatish harakatiga tushganing ma'qul, – dedi Dolli.

– Ha, iloji bo'lsa, – dedi Anna birdan tamoman boshqa, sokin, g'amgin tovush bilan.

– Nahotki taloq xatini olishning iloji bo'lmasa? Ering rozi emish-ku.

– Dolli! Bu to'g'rida aslo gapirgim yo'q.

Darya Aleksandrovna Annaning yuzida paydo bo'lgan iztirob alomatlarini sezib, apil-tapil:

– Xo‘p, gapirmaymiz, – dedi. – Bu narsani o‘ylaganda diling qon bo‘lib ketadi, ko‘rib turibman.

– Menmi? Tirnoqcha ham. Juda shod, juda mammunman. Ko‘rding-ku, je faisdes passions¹ Veslovskiy...

– Ha, rostini aytsam, Veslovskiyning qiliqlari menga yoqmadi, – dedi Darya Aleksandrovna, gapni boshqa yoqqa burish maqsadi-da.

– E, parvoyimga ham kelmaydi! Faqat Alekseyning qitig‘iga tegadi xolos; lekin qip-qizil yosh bola, «gah» desam qo‘limga qo‘nadi; bilasan-ku, bundaylarni qo‘limda qo‘g‘irchoq qilib o‘ynayman. Bu nima-yu, sening Grishang nima... Dolli! – Anna birdan gapni eski tomonga burib yubordi, – sen menga diling qon bo‘ladi, deding. Tushunolmaysan-da. Ahvolim sen tushunadigan darajadan battar, dahshatli. Shuning uchun qaramaslikka tirishaman.

– Ammo, menimcha, qarash kerak. Qo‘lingdan kelgan hamma narsani qilishing kerak.

– Qo‘limdan nima keladi? Hech nima! Sen meni Alekseyga teg deysan, men bo‘lsam buni xayolimga ham keltirmayman. O‘ylamayman ham! – deb takrorladi-yu, yuziga qip-qizil rang yugurdi. O‘rnidan turib, ko‘kragini rosladi. Og‘ir xo‘rsindi, keyin yengil odimlar bilan xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi, faqat orasira to‘xtab-to‘xtab qo‘yar edi. – O‘ylamaymanmi, a? O‘ylamagan va o‘ylaganim uchun o‘zimga ta’na qilmagan biron kunim, biron soatim yo‘q. Chunki bu to‘g‘ridagi o‘ylarim meni jinni qilishi mumkin. Jinni qilishi mumkin, – deb takrorladi. – Shu narsalarni o‘ylagan kunim morfinsiz u xlabelmayman. Xo‘p, yaxshi. Bafurja gaplashaylik. Menga taloq xatingni ol, deyishadi. Avvalo, u bermaydi. Hozir u grafinya Lidiya Ivanovnaning ta’sirida yuribdi.

Darya Aleksandrovna yuzini o‘girib u yoqdan bu yoqqa yurib turgan Annaga dardmand-xayrixoh bir nazar bilan o‘tirgan eridan qarab-qarab qo‘yardi.

– Harakat qilib ko‘rish kerak, – dedi sekingina Dolli.

– Harakat qilib ko‘rdik ham, deylik. Bu nima degan so‘z? – dedi Anna, ming martabal o‘ylangan, yod bo‘lib qolgan fikrini aytayotgandek. – Bu shu degan so‘zki, men, ya’ni uni ko‘rishga ko‘zi yo‘q bo‘lsa ham, yana o‘zini uning oldida aybdor hisoblagan

¹ Muvaffaqiyatlarim chakki emas (*frans.*).

bir kishi (uni olijanob odam deb hisoblayman), ya’ni men o’zimni xor qilib unga xat yozaman... xayr, men o’zimni zo’rlab bo’lsa ham xat yozdim, deylik. Unda yo haqoratomuz javobini olaman yo roziligini. Xo’p, roziligini oldim ham, deylik... – Anna shu mahal uyning narigi burchida edi, deraza pardasini bir nima qilib turib to’xtadi. – Roziligini oldim ham, deylik, xo’sh, o’g’... o’g’lim nima bo’ladi? O’g’limni menga berishmaydi-ku! Axir u men tashlab ketgan otasi oldida mendan nafratlanib o’sadi-ku! Tushungin axir, ikkovini, ya’ni Seryoja bilan Alekseyni baravar sevaman, hatto o’zimdan, jonimdan ortiq sevaman.

Anna bo’lma o’rtasiga keldi-da, ko’ksini qo’llari bilan ezib turib Dolli qoshida to’xtadi. Oq, nafis ko’ylakda qomati, ayniqsa, zo’r, sumbatli ko’rinardi. Boshini quyi solintirdi-da, parpirab turgan nam ko’zları bilan yamoq tushgan koftochkasi va kallapo’shida mung‘ayib, hayajonidan dag‘-dag‘ titrab o’tirgan kichkina, ozg’in, g’arib Dolliga yer ostidan qaradi.

– Men faqat shu ikki odamni sevaman, birini desam, ikkinchisidan mahrumman. Men ularni bir-biriga qovushtirolmayman, holbuki menga shunisi zarur. Agar qovushtirolmasam – u vaqtida menga ikki dunyo bir qadam. Axir bir yo’li bilan tugab ketar bu narsalar, shuning uchun bu to’g’rida gapirishga ojizman, gapirishni yomon ko’raman. Shunday qil: menga ta’na qilma, meni biron to’g’rida qoralama. Menga azob berayotgan narsalarni sen o’zingning pok qalbing bilan tushunishga ojizsan.

Anna yaqin kelib Dolli yoniga o’tirdi-da, gunohkor kishidek, yuziga tikilib qo’lidan ushladi.

– Nimalarni o’ylaysan? Nimalarni o’ylaysan mening to’g’rimda? Menden nafrat qilma. Men nafratga arzimayman. Ha, men shunday baxti qaroman. Agar dunyoda biron baxti qora, sho’rpeshona bo’lsa – o’sha men, – dedi-yu hasrat bilan yuzini Dollidan o’girib, yig’lab yubordi.

Dolfi yolg’iz qolgandan keyin Allohga munojot qilib, uxlagni yotdi, Anna o’zi bilan gaplashib turgan paytda unga ich-ichidan kuyib rahmi kelgan edi; ammo hozir uni o’ylashga o’zini majbur qilolmadi. Uyi va bolalari to’g’risidagi xotiralari juda boshqacha, o’zi uchun tamoman yangi bir latofat va allaqanday yangi nur, yog’dु ichida ko’z o’ngiga kela boshladi. O’z uyi, o’lan to’shami unga hozir

shu qadar aziz, shu qadar shirin ko‘rinib ketdiki, uning tashqarisida bir kunini ham o‘tkazishni xohlamay qoldi, ertaga mutlaqo jo‘nab ketishga qaror qildi.

Bu orada Anna kabinetiga qaytib kirib qadahni oldi-da, asosiy qismini morfiy tashkil qilgan doridan bir necha tomchi tomizib ichdi, keyin bir necha fursat qimir etmay o‘tirgandan so‘ng o‘zini bosib olib, ko‘ngli shod holda yotog‘iga kirib ketdi.

Yotog‘iga kirganda, Vronskiy unga razm solib qaradi. Anna Dollining bo‘lmasida uzoq qolib ketgani uchun u bilan shu haqda gaplashgan bo‘lishi kerak edi. Hozir uning chehrasidan o‘ziga ma’lum bo‘lgan o‘sha gaplarning izini qidirardi. Ammo goh haya-jonli, goh bosiq ko‘ringan va nimanidir yashirib turgan chehrasidan, garchi o‘ziga ma’lum bo‘lsa ham, lekin hamon o‘zini asir qiluvchi go‘zallikdan boshqa narsani topolmadi; Annaning o‘zi ham go‘zalligini anglar, Vronskiyga ta‘sir qilishni xohlardi. Vronskiy ular nima to‘g‘rida gaplashganlarini o‘zi yorilar degan umid bilan so‘ragisi kelmadidi. Ammo Anna faqat shu so‘zlarnigina aytdi:

- Dolli senga yoqqani uchun xursand bo‘ldim. To‘g‘rimi?
- Ey, Dollini anchadan beri bilaman-ku. Nazarimda, juda mehribon, mais excessivement terre-a-terre.¹ Shunday bo‘lsa ham, kelganidan juda xursandman.

Vronskiy Annaning qo‘lini ushlab, ko‘zlariga savol nazari bilan tikildi.

Anna bu tikilishni boshqacha tushunib, kulimsirab qo‘ydi.

Ertasiga ertalab, uy egalarining yalinib-yolvorishlariga qaramay, Darya Aleksandrovna yo‘l taraddudiga tushdi. Levinning kucheris o‘zining eski kaftanida, pochta aravasini haydovchilar kiyadigan shlapasida, har xil rangli otlar qo‘shilgan, qanotlari yamalgan kolyaskasini qovoqlarini solgan holda dadil haydab, qum sepilgan usti yopiq darvozaxonaga kirib bordi.

Knyajna Varvara hamda erkaklar bilan xayr-ma’zurlashishdan Darya Aleksandrovnaning ta‘bi xira bo‘ldi. Bir kun turgandan so‘ng o‘zi ham, uy egalari ham bir-birlariga munosib emasliklarini, shuning uchun tezroq ajralib qo‘ya qolish ma‘qulligini sezal boshladi. Yolg‘iz Annagini g‘amda qoldi. Anna Dolli kelgandan

¹ Lekin juda to‘pori (*frans.*).

keyin yuragida uyg'ongan hislarni endi, Dolli ketgach, hech kim bezovta qilolmasligini bilardi. Bu hislarni uyg'otish, bezovta qilish – Anna uchun jon og'rig'iday gap edi, shunday bo'lsa ham bu hislar bag'rining eng aziz parchasi ekanligini va shu tarzda hayot kechirganda bag'rining ana shu parchasini juda tez et qoplab borayotganligini bilardi.

Dalaga chiqishgandan keyin Darya Aleksandrovna o'zini yengil his etib, shu qadar huzur qildiki, xizmatkorlardan Vronskiyni yoqsanmiyo'qligini so'ragisi kelib ketdi; lekin u so'rashga ulgurmay, Filippning o'zi gap ochib qoldi:

– Boylikka-ku boy ekan-a, lekin sulini atigi uch hovuchdan berishdi. Xo'roz chaqirmay, otlar sulini pok-pokiza yalab yuborishdi. Uch hovuch nima degan narsa? Tishi orasida yo'q bo'lib ketadi. Hozir dehqonlarda sulining narxi qirq besh tiyin. Biz bo'lsak, kelgan odamlarning otiga yeganicha beramiz.

– Xasis boy ekan, – deb kontora xizmatchisi ham tasdiqladi.
– Qalay, otlari yoqdimi senga? – deb so'radi Dolli.
– Otlariga tarif yo'q! Yem-xashagi ham joyida. Bilmayman, sizga qanday bo'ldi-yu, lekin mening yuragim siqildi, Darya Aleksandrovna, – dedi u chiroyli, mehrli yuzini Dolliga o'girib.
– Ha, meniki ham siqildi. Qalay, kechgacha yetib bora olarmikanmiz?

– Yetib borish kerak.

Darya Aleksandrovna uyga yetib kelib, hammaning sog'-u salomat, vaqtি xush ekanini bilganidan keyin qilgan safarini, o'zini yaxshi kutib olishganini, Vronskiylar hayotining hashamatini, didlari yaxshi ekanini, ularning aysh-ishratlarini juda zo'r ishtiyoq bilan hikoya qilib berdi; lekin ularga qarshi hech kimni bir og'iz ham gapirtirmadi.

– Ularning dilbarliklarini, xushmuomalaliklarini anglash uchun Anna bilan Vronskiyni bilish kerak – men Vronskiyni hozir juda yaxshi bilib oldim, – derdi Dolli; u yerda his qilgan noxushlik va noqulaylik tuyg'ularini esidan chiqarib, endi tamoman samimiyat bilan gapirardi.

Vronskiy bilan Anna taloq xatini olishga hech qanday chora ko'rmasdan, yana o'sha eski ahvol va sharoitda butun yozni, kuzning ham bir qismini qishloqda o'tkazdi. Ular hech qayerga bormaymiz, deb kelishib olishgan edi; lekin o'zлari yolg'iz turgan sari, ayniqsa, kuz pallasida, mehmonsiz qolgan kezlarida bu tariqa hayot kechirishga chidayolmasliklarini, buni o'zgartirish zarurligini his qilib qoldilar.

Turmushlari shunday shirin ediki, nazarlarida, bundan yaxshisini umid qilib bo'lmasdi; yeganlari oldida, yemaganlari orqada, salomatliklari joyida, chaqaloqlari bag'rida, ikkalasining ham mashg'uloti bor. Anna mehmonlarsiz hamon o'zi bilan mashg'ul bo'lar, juda ko'p romanlar, rasm bo'lgan jiddiy kitoblar o'qir edi. Chet ellardan olib turadigan gazetalar va jurnallarda maqtałgan hamma kitoblarni yozdirib keltirar, keyin bu kitoblarni yolg'iz qolgan odamga xos zo'r diqqat va e'tibor bilan o'qib chiqardi. Bularidan tashqari, Vronskiy mashg'ul bo'lgan narsalarni ham kitoblardan va maxsus jurnallardan o'qib, o'rganib borardi, shuning uchun Vronskiy agronomiya, arxitektura, hatto ba'zan ot zavodlari hamda sport masalalari bilan to'g'ridan-to'g'ri Annaga murojaat qilaverardi. Vronskiy uning bilimiga, muhofazasiga hayron bo'lar, dastlabki paytlarda gumonsirab, dalil talab qilardi; Anna ham u so'rigan narsani kitobdan topib ko'rsatardi.

Kasalxona masalasi ham Annani qiziqtirardi. U faqat yordam qilibgina qolmay, ko'p narsani to'g'rilar, o'zi o'ylab topardi. Lekin eng asosiy mashg'uloti – o'zi edi – Annaning o'zi, Vronskiy uchun qanchalik qadrli, Vronskiy bahridan kechgan narsalarning o'mini qanchalik bosa olar ekanman, degan masala edi. Anna hayotning birdan-bir maqsadi bo'lib qolgan bu narsani, ya'ni faqat Vronskiyga yoqishgina emas, unga xizmat ham qilish tilagini Vronskiy qadrlardи, ammo shu bilan uni o'rab olish harakatida yurgan Annaning sevgi to'rlari orasida qiynalardi ham. Vaqt qancha ko'p o'tgan sari, o'zini shu to'r bilan qancha o'ralganini ko'rgan sari, bu to'rdan qutulish emas, bu to'r erkiga xalaqit berayotganmi-yo'qligini tekshirib ko'rish istagi ham shuncha kuchayib borardi. Erkin bo'lish istagi ana shu taxlitda kuchayib bormasa, shaharga, s'ezdga, poygaga borish kerak bo'lgan paytlarning har birida janjal chiqmasa, Vronskiy hayotdan to'la mamnun bo'lgan bo'lar edi. O'zi tanlagan rol, ya'ni rus

aristokratiyasining moyagini tashkil qilish kerak bo‘lgan badavlat zamindorlik roli didiga to‘la-to‘kis yoqib qolgan, shu bilan birga, hozir yarim yilcha shunday yashagandan keyin bu narsa xursandligiga yana xursandlik qo‘shar edi. Ishi ham uni tobora o‘ziga jalg qilib, yaxshi yurishib borardi. Kasalxona, mashinalar, Shveytsariyadan oldirib kelgan sigirlar, yana boshqa ko‘p narsalar juda-juda ko‘p pulga tushganiga qaramay, davlatini isrof qilmayotganiga, aksincha, orttirayotganiga amin edi. Gap daromad ustida, yog‘och, g‘alla, yung sotish, yerni ijaraga berish ustida ketayotganda, Vronskiy qattiq turib olar, narx-navoni mahkam tutib turar edi. Katta xo‘jalik ishlarida, mana shu va boshqa mulklarida, tavakkalchilikka bormay, eng oddiy yo‘lni tutar, mayda-chuyda ro‘zg‘or xarajatlarini nihoyatda tejar, hisobli ish olib borardi. Ul-bullarini sotib olishga undab, har qanday hisob-kitobni oldin katta qilib ko‘rsatishga, keyin esa o‘ylab ko‘rib, arzonroqqa olish mumkinligini, bundan katta foyda chiqishini topgan kishiga o‘xshab ko‘rinishni istagan nemisning barcha hiylakorligi va epchilligiga qaramay, Vronskiy uning nayranglariga uchmas edi. Vronskiy ish boshqaruvchining gaplarini eshitib, so‘rab-surishtirib, chet eldan olib kelinadigan yoki shu yerning o‘zida qilinadigan narsalarning Rossiyada hali ma’lum bo‘lmagan, odamlarda hayrat uyg‘ota oladigan eng yangi narsalar ekaniga ishongandan keyingina sotib olishga rozi bo‘lardi. Bundan tashqari, qo‘lida ortiqcha pul bo‘lgandagina katta sarf-xarajatlarga rozi bo‘lar, bu sarf-xarajatlarni qilib turib, eng mayda ikir-chikirlargacha hisobga olar, xarid qiladigan narsasi eng yaxshi narsalar bo‘lishini talab qilardi. Ishni qay taxlitda olib borayotganidanoq, boyligini isrof qilish u yoqda tursin, oshirib borayotgani ravshan edi.

Oktyabr oyida Kashin guberniyasida dvoryanlar saylovi bo‘ldi: u yerda Vronskiy, Sviyajskiy, Koznishev, Oblonskiylarning mulklari, Levinning esa kichkinagina joyi bor edi.

Bu saylov ko‘p sabablarga binoan va unda ishtirok qilgan shaxslarga qarab, afkor ommani o‘ziga jalg qilgan edi. Bu saylov to‘g‘risida ko‘p gaplar bo‘lgan va katta tayyorgarliklar ko‘rilgan edi. Bunaqa saylovnvi ko‘rmagan moskvaliklar, peterburgliklar va chet el kishilari saylovnvi ko‘rgani kelishdi.

Vronskiy Sviyajskiyga saylovga boraman, deb qachonlari va’da qilib qo‘ygan edi.

Sviyajskiy Vozdvijenskiyga tez-tez kelib-ketib turardi; saylov oldidan u yana Vronskiydan xabar oglani keldi.

Sviyajskiy kelmasdan bir kun oldin shu safar tufayli Vronskiy bilan Anna o'rtasida gap qochib, urishib qolayozishdi. Qishloqda odamni xun qilib yuboradigan eng og'ir yil pallasi kuz bo'ladi; shuning uchun Vronskiy kurashga bel bog'ladi-yu, saylovga ketayotganligini sovuqqina qilib aytdi; Anna bilan u hech mahal shunday sovuq gaplashmagan edi. Ammo Anna bu xabarni tamoman vazmin turib eshitdi, faqat qachon qaytishini so'radi: bu hol Vronskiyni hayron qoldirdi. Vronskiy Annaning bu vazminligiga tushunolmay, yuziga diqqat qilib qaradi. Anna uning ko'zlariga qarab kulimsirab qo'ydi. Vronskiy Annaning dardini shunday yashirish odatini bilar, Anna o'z rejalarini aytmay, o'zicha bir qarorga kelgandagina shunday vazmin bo'lib qolishini ham bilardi. Vronskiy bu narsadan qo'rqardi; u janjal chiqishini shu qadar xohlamasdiki, o'zi ishongisi kelgan narsaga – Annaning andishaliliga o'zini ishonayotganga soldi, chin ko'ngli bilan biroz ishondi ham.

- Zerikib qolmassan deb umid qilaman.
- Umid qilaman, – dedi Anna. – Kecha Gotedan bir yashik kitob oldim. Yo'q, zerikmayman.

«U o'zini shunday tutish fikriga tushibdi, yana yaxshi, – deb o'ylardi Vronskiy, – bo'lmasa hamma vaqt o'sha mojaro-mojaro».

Shunday qilib, Vronskiy Annani baqamti gaplashishga majbur qilmay, saylovga jo'nab ketdi. Ular aloqa bog'lashgandan beri bu bиринчи мarta oralarini ochti qilmay ketishi edi. Bir tomondan, bu narsa Vronskiyni xavotir qilar, ikkinchi tomondan esa u shunday bo'lgani yaxshi deb o'ylardi. «Oldin hozirgidaqa noaniq, yashirin dardga o'xshab ko'rinish turadi, keyin o'zi ham o'rganib ketadi. Har holda hamma narsamni unga berishim mumkin, lekin o'zimning erlik mustaqilligimni emas», deb o'ylardi Vronskiy.

XXVI

Sentyabrda Levin Moskvaga ko'chib o'tdi: Kiti o'sha yerda ko'z yorishi kerak edi. U Moskvada butun bir oy ishsiz yurdi; ana shu kunlarda Kashin guberniyasida mulki bo'lgan va kelajak saylovlar masalasida qizg'in ishtirok qilib kelgan Sergey Ivanovich saylovga

jo'nash taraddudiga tushib qoldi. Ukasini ham birga borishga taklif qildi; chunki ukasining Seleznevskiy uezdi bo'yicha saylov soqqasi bor edi. Bundan tashqari, Levinning chet elda turadigan opasining Kashinda juda zarur ishi bor edi; bu – vasiylik va yer ijarasining haqini undirish to'g'risidagi ish edi.

Levin hamon borsammi-bormasammi deb ikkilanib yurardi, lekin Kiti erining Moskvada zerikib qolganini ko'rib, borishiga maslahat berdi-da, unga aytmasdanoq, eriga sakson so'mlik dvoryan mundiri buyurtirdi. Shunday qilib, Levinning borishiga sabab bo'lgan asosiy narsa – ana shu mundir uchun to'langan sakson so'm bo'lди. Levin Kashinka jo'nadi.

Levin mana olti kundan beri Kashinda: har kuni majlislarga boradi, opasining hech o'nglanmayotgan ishi orqasidan yuguradi. Boshliqlarning hammasi saylov bilan band bo'lgani uchun vasiylik ishiga bog'liq bo'lgan eng oddiy masalani ham hal qilib bo'lmasdi. Ikkinchisi masala, ya'ni pulni undirish masalasi ham xuddi shunga o'xshash to'sqinliklarga uchradi. Ko'p ovora bo'lgandan keyin pulni bermaslik to'g'risidagi taqiqni bekor qildirdi; lekin har qanday xizmatga tayyor notarius talonni berolmadi, chunki raisning imzosi kerak edi; rais bo'lsa, o'rniga birovni qo'ymasdanoq, o'zi sessiyaga ketib qolibdi. Butun bu sarg'ayishlar, bu idorama-idora yugurishlar arzgo'y ahvolining noxushligini anglasa ham, lekin yordam qilish qo'lidan kelmaydigan nihoyatda shafqatli, yaxshi odamlar bilan gaplashishlar hech qanday natija bermaydigan bu ovoragarchiliklar, Levinda odamni qiyinaydigan, alam qildiradigan bir ojizlik hissini uyg'otardi; bu xil ojizlik hissi tushida birovni urolmay alam qilgan kishilarda bo'ladi. Levin o'zining eng shafqatparvar vakillari bilan gaplashib turganda tez-tez shu hisga tushib qolardi. Bu vakil Levinning mushkulini oson qilish uchun o'zining butun aqliy kuchini ishga solayotgandek, qo'lidan kelgan harakatini qilayotgandek ko'rindi. «Mana buni qilib turing, u yoqqa, bu yoqqa borib ko'ring», derdi-da vakili qayta-qayta, hamma narsaga xalaqit berib turgan o'sha mash'um kasofatdan qutulish rejasini tuza boshlardi. Ammo o'sha soati: «Yo'q, har holda to'xtab turish kerak. Mayli, unnab ko'ring», deb takrorlardi. Shundan keyin Levin unnab ko'rар, yurar, qatnardi. Uchragan odamlarining hammasi xushmuomala, shafqatli odamlar edi, ammo ishim bitdi deganda yana to'siq paydo bo'lardi. Levin

kim bilan kurashayotganini, ishi orqaga surilganidan kim manfaatdor ekanligini hech anglamas, bu esa uni qattiq xafa qilardi. Nazarida, bu sirni hech kim bilmaydigandek ko'rinardi; vakili ham bilmasdi. Agar Levin bu narsani ham, temir yo'l kassasiga faqat navbat bilangina kelish mumkinligini anglaganidek anglagan bo'lsa edi, unda alam ham qilmasdi, xafa ham bo'lmasdi; ammo ishi yuzasidan uchrab turgan to'sqinliklarni, ularning nimaga kerakligini Levinga hech kim uqtirib berolmasdi.

Ammo Levin uylangandan beri ancha o'zgarib ketgan – sabr-u toqatli bo'lib qolgan edi; agar hozir bu narsalarning nimaga kerakligini tushunmayotgan bo'lsa, o'zim bilganimdan keyin bir narsa deyishim yaxshi emas, ehtimol, shunday bo'lishi kerakdir, deb o'yldardi-da, jahlini chiqarmaslikka tirishar, o'zini bosardi.

Saylovga kelib, o'zi ham qatnashib turgan hozirgi paytda u hurmat qilgan yaxshi odamlar shu qadar jiddiyat va tirishqoqlik bilan jon kuydirib mashg'ul bo'layotgan ishni ham qoralamaslikka, ko'p talashmaslikka, balki uni tushunishga harakat qilardi. Ilgarilari saylov ishlariiga yengiltaklik bilan qarab kelgani uchun saylov unga juda bachkana, mayda masala bo'lib ko'rinardi; uylangandan keyin esa saylovnning juda ko'p yangi, jiddiy tomonlarini ko'rди, endi saylov ishlari jiddiy ahamiyatga ega deb o'laydigan va uning mazmunini qidiradigan bo'lib qoldi.

Sergey Ivanovich saylovda ko'zda tutilgan o'zgarishning ma'no va ahamiyatini Levinga tushuntirdi. G'oyat zo'r ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy ishlarni – vasiylik ishini ham (hozir Levin azobini tortib yurgan o'sha ish), dvoryanlardan to'planadigan nihoyatda katta mablag'larni ham, xotin-qizlar, erkaklar va harbiylar gimnaziyalarini ham, yangi nizom bo'yicha xalq maorifini ham, nihoyat, zemstvoni ham qonun bo'yicha o'z qo'lida saqlab kelayotgan guberniya dvoryanlar oqsoqoli Snetkov – maishati uchun juda ko'p pul sarflaydigan, eski dvoryanlik maslagida bo'lgan, shafqatparvar, o'ziga yarasha vijdonli, ammo yangi zamon talablarini sira tushunmaydigan bir odam edi. U hamma vaqt, hamma masalada dvoryanlar tarafini olar, xalq maorifining kengayishiga ro'y-rost qarshi turar, nihoyat katta ahamiyat kasb qilishi kerak bo'lgan zemstvoga ham dvoryanlar tabaqasi xarakterini berib kelardi. Uning o'miga zamona tushunchasiga ega bo'lgan yangi, ishchan, tamoman yangi bir odamni

qo'yib, ishni shunday olib borish kerak ediki, dvoryanlarga (ular dvoryan bo'lganliklari uchun emas, zemstvo unsurlari bo'lgani uchun) berilgan barcha huquqlardan guberniya miqyosida ichki ishlarni mustaqil idora qilish uchun mumkin bo'lganicha foyda chiqarib olish zarur edi. Hamma masalada boshqalardan har vaqt oldinda boradigan boy Kashin guberniyasida hozir shuncha ko'p kuch to'plangan ediki, agar ish loyig'icha olib borilsa, boshqa guberniyalar uchun, butun Rossiya uchun ibrat bo'lishi mumkin edi. Shu sababli hamma ishning ahamiyati zo'r edi. Snetkov o'rniga boshliq qilib Sviyajskiyni yoki Nevedovskiyni qo'yish taxmin qilinardi; eski professor Nevedovskiy qo'yilsa, yana ham yaxshi bo'lardi, chunki bu ko'p ajoyib, aqli odam hamda Sergey Ivanovichning qalin oshnasi edi.

Majlisni gubernator ochib dvoryanlarga qarata so'zlagan nutqida: saylanadigan mansabdorlarni yuzlariga qarab emas, xizmatlariga qarab, Vatan saodatini ko'zlab saylash kerak, degandan so'ng oljanob Kashin dvoryanlari ilgarigi saylovlardagi singari bu safar ham o'zlarining muqaddas burchlarini halol bajarishadi va podshoh-u a'zamning yuksak ishonchlarini oqlashadi, deb umid bildirdi.

Gubernator nutqini tugatgandan so'ng zaldan chiqib ketdi; dvoryanlar ham shovillashib, gurillashib, hatto ba'zilari quvonishib orqasidan ergashib chiqishdi-da, gubernator po'stinini kiyib, guberniya oqsoqoli bilan do'stona gaplashib turganda atrofini o'rab olishdi. Hamma narsaning tagiga yetish, hech bir narsani ko'zdan qochirmslikni istagan Levin ham shu olomon ichida turgan edi; u gubernatorning: «Lutfan, Marya Ivanovnaga aytib qo'ysangiz, xotinim yetimxonaga boradigan bo'lgani uchun ko'p afsus yeb qoldi», deganini eshitdi. Ana shundan keyin dvoryanlar chaqchaqlashib po'stinlarini kiyishdi-yu, jomega jo'nashdi.

Levin jomedha boshqalar bilan baravar qo'llarini ko'tarib va pratopopning so'zlarini takrorlab, gubernator umid qilgan narsalarni bajarishga eng vahimali qasamlar bilan ont ichdi. Cherkov ibodati Levinga hamma vaqt ta'sir qilardi, shuning uchun «Ushbu xochni o'paman» degan so'zlarni aytib turib, ana shu so'zlarni takrorlayotgan yosh va keksa odamlar olomoniga qaradi-yu, ko'ngli erib ketganini sezdi.

Syezdning ikkinchi va uchinchi kunlarida dvoryanlar mablag'i va xotin-qizlar gimnaziyasi to'g'risidagi ishlar ko'rildi; Sergey Ivanovich

bu ishlarning ahamiyati yo‘qligini aytgandan keyin Levin o‘z ishlari bilan bo‘lib, bu masalalarga e’tibor qilolmadi. To‘rtinchi kun guberniya idorasida guberniya mablag‘ini hisoblash, tekshirish ishlari bordi. Ana shu yerda yangi partiya bilan eski partiya o‘rtasida birinchi marta to‘qnashuv chiqdi. Mablag‘ni tekshirib chiqish vazifasi yuklangan komissiya mablag‘ning butunligini majlisga e’lon qildi. Guberniya dvoryanlari oqsoqoli o‘rnidan turdi-da, ishonch bildirganlari uchun dvoryanlarga tashakkur aytib turib yig‘lab yubordi. Dvoryanlar guldurab olqishlashgandan keyin, kelib qo‘lini qisishdi. Lekin shu payt Sergey Ivanovich partiyasiga mansub bo‘lgan dvoryanlardan biri komissiya guberniya dvoryanlari oqsoqolining nafsi og‘ritadi, degan andisha bilan mablag‘ni tekshirmagan emish, deb qoldi. Komissiya a’zolaridan bittasi ehtiyotsizlik qilib, bu gapni tasdiqlab qo‘ydi. Shu payt jussasi kichkina, yuzidan juda yosh ko‘ringan, lekin tilidan zahar tomib turgan bir janob: guberniya oqsoqoli mablag‘ yuzasidan hisob bersa huzur qilsa kerak edi, ammo komissiya a’zolarining nojo‘ya nazokatlari u kishini bu ma’naviy halovatdan mahrum qilib qo‘ydi, deb qoldi. Ana shundan keyin komissiya a’zolari o‘z xulosalaridan voz kechdilar. Sergey Ivanovich bo‘lsa: mablag‘ni yo tekshirilgan deb topish kerak yoki tekshirilmagan deb topish, degan mushkul muammoni oldinga surgandan so‘ng uni tahlil qilishga turdi. Qarshi partianing bir mahmadonasi chiqib, Sergey Ivanovichga qarshi gapirdi. So‘ngra Sviyajskiy, keyin yana tilidan zahar tomib turgan janob so‘zladi. Muzokara uzoq davom qildi, ammo biron qarorga kelinmadi. Bu to‘g‘rida uzoq tortishganlariga Levin hayron qoldi, ayniqsa, Sergey Ivanovichdan mablag‘ni isrof qilganmi-yo‘qligini so‘raganda, Sergey Ivanovichning:

– Be! U juda halol kishi. Lekin dvoryanlar ishini bu taxlit ota meroslarcha, eskicha idora qilib kelish usuliga zarba berishi kerak edi, – degan javobini eshitib, Levin yana besh battar hayron bo‘ldi.

Beshinchchi kuni uezd dvoryan oqsoqollari saylovi o‘tdi. Shu kun ba’zi uezdlarda shovqin ancha zo‘r bo‘ldi. Seleznhevsk uezdida Sviyajskiy muhokamaga qo‘yilmayoq bir og‘izdan oqsoqol qilib saylandi va shu kuniyoq Sviyajskiy ziyofat berdi.

Oltinchi kunga guberniya saylovlarini tayinlangan edi. Katta zallar ham, kichik zallar ham har xil mundirli dvoryanlar bilan to'lib ketdi. Ko'p odamlar faqat shu kunga kelgan edi. Qaysi biri Qrimdan, qaysi biri Peterburgdan, qaysi biri chet eldan kelgan, tanishlarini ko'p vaqtlardan beri ko'rmagan odamlar shu zallarda uchrashardilar. Guberniya stoli yonida, podsho portreti ostida muzokara borardi.

Katta va kichik zallarda dvoryanlar o'z to'plari bilan yurar, begona odamlar yaqinlashganda o'rtalaridagi gapning to'xtab qolishidan, ularga ishonchhsizlik, dushmanlik ko'zi bilan qarashlaridan, ba'-zilarining pichirlashib yo'lakning bir burchagiga ketib qolishlaridan har bir to'pning boshqa to'pdan yashirgan o'z siri borligi ko'rinish turardi. Dvoryanlar o'z qiyofalari bilan ikki tipga: eski va yangi tipdagisi dvoryanlarga ajralib turishardi. Eske tipdagilar ko'pincha yo tugmalari qadab qo'yiladigan eski dvoryan mundirida, yonlarida shpgaga, boshlarida shlapa bo'lardi yoki o'zlariga xos flotcha, suvoriycha, piyoda askarcha tutilgan mundirda bo'lardi. Qari dvoryanlarning mundirlari qadimiy usulda yelkalariga zar uqa qo'yib tikilgan edi; bu mundirlar, xuddi egalari o'sib, katta bo'lib qolgandek, kichkina, kalta, beli tor kelib qolgan edi. Yoshlar bo'lsa bellari past, yelkalari keng, tugmalari ochib qo'yilgan dvoryan mundirlarida, oq jiletkalarda yoki qora yoqali va adliya ministrligi tiktiradigan dafna tamg'ali mundirda edi. Majlisga husn berib, u yer bu yerda ko'rinish qoladigan saroy ahllariga xos mundirlar ham yoshlari egnida uchrardi.

Ammo yoshlari bilan qarilar to'piga ajralish – partiyalarga ajralishni bildirmas edi. Levin mushohadasiga qaraganda, ba'zi yoshlari eski partiyaga mansub bo'lsa, aksincha, eng qari dvoryanlarning ba'zilari Sviyajskiy bilan pichirlashib yurishar, demak, bular yangi partiyaning eng otashin tarafdarlari edilar.

Levin kichkina zalda, o'z odamlari papiros chekishib, tamaddi qilishib o'tirgan joyda ularning gaplariga qulq solib turar, bu gaplarni o'qish uchun bekorga ovora bo'lib diqqat bilan qulq berardi. Sergey Ivanovich o'z tevaragini o'rabi olgan odamlar markazida edi. U hozir Sviyajskiy bilan Xlyustovning so'zini eshitib turgan edi; Xlyustov ularning partiyasiga mansub bo'lgan boshqa bir uezd oqsoqoli edi.

Xlyustov o‘z uezd dvoryanlari bilan Snetkov huzuriga borishga va uni o‘z nomzodini qo‘yishni iltimos qilishga ko‘nmayotgan edi. Sviyajskiy bo‘lsa uni borishga undardi; Sergey Ivanovich ham shu rejani ma‘qullardi. O‘zlar tushirishmoqchi bo‘lishgan oqsoqoldan yana saylanishini so‘rab, dushman partiyasiga borib murojaat qilishning nima hojati borligini Levin hech tushunolmasdi.

Stepan Arkadich hozirgina yeb-ichib bo‘lib, og‘zini xushbo‘y, hoshiyali batist dastro‘molcha bilan arta-arta ular yoniga kelib qo‘shildi. Stepan Arkadich egnida kamergerlik mundiri bor edi.

U ikkala bakenbardini tuzata turib:

– Pozitsiya egallayapmiz deng, Sergey Ivanovich! – dedi.

Keyin gappa qulq solib turib, Sviyajskiyning fikrini quvvatladi.

– Bitta uezd kifoya, Sviyajskiy bo‘lsa, aftidan, oppozitsiyaga o‘tib olgan ko‘rinadi, – dedi. Bu so‘zlarga Levindan boshqa hamma tushunardi.

Keyin Levinga yuzlanib:

– Sen ham, deyman, Kostya, mazaxo‘rak bo‘lib qolganga o‘xshaysan, a? – dedi-yu, qo‘ltig‘idan oldi.

Levin jon-jon deb mazasiga tushunishni istardi-yu, lekin qanaqa gapligini hech anglayolmasdi. Suhbatlashib turganlar yonidan bir necha odim nari ketishgandan keyingina Levin Stepan Arkadichga guberniya oqsoqoldidan nima uchun yana saylanishni iltimos qilish kerakligiga hayron qolayotganini aytди.

– O saneta simplicitas!¹ – dedi-da Stepan Arkadich, keyin gapning nimaligini Levinga lo‘nda qilib aytib berdi.

Agar o‘tgan saylovlardagi singari hamma uezdlar guberniya oqsoqolini so‘rashgan bo‘lganda uni oq soqqalar bilan saylashardi. Bu nomatlub edi. Hozir esa sakkizta uezd iltimos qilishga rozi; mabodo ikkita uezd iltimos qilishdan bosh tortsa, Snetkov ham nomzodini qo‘yishdan bosh tortadi. Shunday bo‘lgandan keyin eski partiya o‘z a’zolaridan birortasini saylashi kerak bo‘ladi, chunki ko‘zlagan umidlari puch chiqib qoladi. Mabodo birgina Sviyajskiyning uezdi iltimos qilmasa, bu taqdirda Snetkov nomzodini qo‘yadi. Uni saylashadi, jo‘rttaga bu vazifani ustiga olishni iltimos ham qilishadi: shunday bo‘lganda qarshi partiya hisobdan adashadi, bizdan nomzod ko‘rsatilganda, soqqalarni shunga keltirib to‘kishadi.

¹ Dovdir! (*lot.*)

Levin tushundi, ammo oxirigacha emas, yana bir necha savol bermoqchi bo‘lib turuvdi, birdan odamlar shuvillashib, chug‘urlashib katta zal tomonga yurib qoldi.

Levin har yoqdan:

– Nima gap? Nima? Kimni? – Ishonch qog‘ozi? Kimga? Nima? – Rad qilyapti? – Ishonch qog‘ozi emas. – Flerovni qo‘yishmayapti. – Nimaga, sudda bo‘lgani uchunmi? – Bunday qilishaversa, hech kimni qo‘yishmaydi. Pastkashlik bu! – Qonun! – degan so‘zlarni eshitdi va qayooqqadir shoshayotgan, nimanidir ko‘rmay qolishdan qo‘rqayotgan odamlar bilan birga katta zalga kirdi-da, dvoryanlar orasida siqilib-siqilib yurib guberniya oqsoqolining stoli yaqiniga yetib oldi; u yerda guberniya oqsoqoli, Sviyajskiy va boshqalar jon kuydirib gap talashayotgan edi.

XXVIII

Levin ancha uzoqda turardi. Yonida xirillab nafas olayotgan bir dvoryan bilan poyabzalining qalin tag charmlarini g‘ijirlatayotgan boshqa bir dvoryan gaplarni aniq eshitishga xalaqit berardi. Levin uzoqdan faqat oqsoqolning muloyim ovozini, keyin tilidan zahar tomib turgan janob tovushini, so‘ngra Sviyajskiyning bir nimalar deganini eshitdi, xolos. Levinning tushunishicha, ular qonun moddasi to‘g‘risida va tergov ostida bo‘lgan kishi so‘zlarining ma’nosini ustida talashardilar.

Xaloyiq stol tomon borayotgan Sergey Ivanovichga yo‘l berdi. Sergey Ivanovich tilidan zahar tomib turgan janobning gapi tugashini kutib turib, qonun moddasiga bir qarab olsak to‘g‘riroq bo‘lardi, dedi va kotibdan shu moddani topishni iltimos qildi. Moddada ixtilof chiqquday bo‘lsa, ovozga qo‘yish kerakligi aytilgan edi.

Sergey Ivanovich moddani o‘qib chiqib, ma’nosini tushuntira boshlagan edi, novcha, semiz, biroz bukchaygan, mo‘ylovleri bo‘yalgan, yoqasi gardanini siqib turgan tor mundirli bir pomeshchik birdan gapni bo‘lib qo‘ydi. U stolga keldi-da, uzugi bilan stolni urib, baqira boshladi.

– Ovozga qo‘yamiz! Soqqa tashlab! Gap tamom! Soqqa tashlab!

Shu payt birdaniga bir necha ovoz eshitildi, endi uzukli novcha dvoryan tobora qizishib, yana battar qichqira boshladи. Shunday bo'lsa ham, nima deyayotganini uqib bo'lmasdi.

U ham Sergey Ivanovich taklif qilayotgan narsalarni gapi rayotgan edi; ammo, aftidan, Sergey Ivanovichni va uning butun partiyasini yomon ko'rsa kerak, undagi bu nafrat sezgisi butun partiyasiga ta'sir qildi-yu, garchi boshqalar birmuncha odob bilan gapirishgan bo'lishsa ham, baribir, ana shunday e'tirozlar bildirildi. Shov-shuv ko'tarildi, hamma narsa bir zumgina aralash-quralash bo'lib ketdi, natijada, guberniya sarkardasi tartib saqlashni iltimos qilishga majbur bo'ldi.

– Ovozga qo'yilsin! Ovozga qo'yilsin! Kimki dvoryan bo'lsa tushunadi. Biz qonimizni to'kyapmiz axir... Podshoh-u a'zamning ishonchi bor axir... oqsoqoliga qulq solish kerakmas, u xo'jayin emas... Ha, gap unda emas... Gap shu, soqqa tashlaymiz! Pastkashlik bu!.. – har yoqdan ana shunday g'azabli, qahrli hayqiriqlar eshitilardi. Yuzlar, ko'zlar so'zlardan ham qahrliroq edi. Bu yuz-ko'zlarda dahshatli nafrat bor edi. Levin nima gapligini sira anglamas, Flerov to'g'risidagi fikrni ovozga qo'yish kerakmiyo'qmi degan masalaning shu qadar ehtiros bilan muhokama qilinishiga hayron bo'lar edi. Sergey Ivanovich umumiy baxt-saodat uchun guberniya oqsoqolini amaldan tushirish kerakligini tushuntirib berayotganda aytgan asosiy fikrini esidan chiqargan edi; oqsoqolni amaldan tushirish uchun soqqa ko'proq bo'lishi kerak, soqqaning ko'proq bo'lishi uchun esa Flerovga ovoz huquqini berish kerak edi; Flerovga ovoz huquqini berish uchun esa qonun moddasini qanday tushunish kerakligini izoh qilib berish lozim edi.

– Bitta ovoz butun ishni hal qilishi mumkin, agar jamoat ishiga xizmat qilishni xohlasang, unda jiddiy va izchil bo'lishing kerak, – deb Sergey Ivanovich so'zini tamomladi.

Ammo Levin akasining bu gaplarini esidan chiqarib, o'zi hurmat qilib kelgan bu yaxshi kishilarning bunchalik hayajonga tushib bo'g'ilishlariga rahmi kelardi. U bu og'ir hisdan qutulish uchun muzokara tugashini ham kutib o'tirmay zalga chiqib ketdi, u yerda bufet yonida turgan lakeylardan boshqa hech kim yo'q edi. Idish-oyoqlarni artish, likobchalar va qadahlarni joy-joyiga qo'yish bilan ovora bo'lган lakeylarning tetik, xotirjam yuzlarini ko'rib, Levin xuddi sassiq xonadan toza havoga chiqqanday, kutilmagan bir

yengillik his etdi. Lakeylarning chehralarini ko'rib mamnun bo'ldi, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Mo'ysafid bakenbardli bir lakey hazillashib o'zining jig'iga tegayotgan boshqa yosh lakeylarga qo'l sochiqlarni taxlash usulini o'rgatib turib, ularga nafrat ko'zi bilan qarab-qarab qo'yganini ko'rganda, bu narsa Levinga juda ham yoqib ketdi. Levin keksa lakey bilan endi gaplashmoqchi bo'lib turganda, guberniyaning barcha dvoryanlarini o'z oti va otasining oti bilan bilish ixtisosiga ega bo'lgan vasiylik bo'limining sekretari – ushoqqina chol xayolini bo'lib qo'ydi.

– Buyursinlar, Konstantin Dmitrich, janoblarini akalari izlayaptilar, fikrlar ovozga qo'yilyapti, – dedi chol.

Levin zalga kirib, oq soqqa oldi-da, akasi Sergey Ivanovich ketidan saylov stoliga bordi; u yerda Sviyajskiy soqollarini tutamlab, hidlab turar, yuzida ta'sirli kinoya alomati bor edi. Sergey Ivanovich qo'lini yashikka suqib, soqqasini allaqayeriga yashirgandan so'ng Levinga joyni bo'shatib berib, o'zi shu yerda to'xtab qoldi. Levin yashik yoniga keldi, ammo nima gapligini tamoman esidan chiqarib qo'ygan edi, shuning uchun uyalib, akasi Sergey Ivanovichdan: «Qayerga solay!» deb so'radi. Juda past ovoz bilan so'radi, bundan tashqari, shu payt yaqinda odamlar gaplashib turishgan edi, shuning uchun ham savolimni hech kim eshitmaydi deb o'ylagan edi, ammo gaplashib turganlar birdan tinib qolishdi-yu, nojo'ya savol eshitilib ketdi. Sergey Ivanovich xo'mrayib oldi.

– Bu narsa har kimning maslagiga bog'liq, – dedi u keskin qilib.

Ba'zi birovlar iljayib qo'ydi. Levin qizarib, shosha-pisha qo'lini movut tagiga suqdi-da, soqqani o'ng tomonga tashladi, chunki soqqa o'ng qo'lida edi. Soqqani tashlab bo'lgandan so'ng, chap qo'lini suqish kerakligini eslab, darhol chap qo'lini suqdi, lekin vaqtি o'tgan edi, ana shundan keyin yana besh battar uyalib, tezroq eng orqadagi qatorlarga o'tib ketdi.

«R» harfini aytolmaydigan kotib:

– Saylash foydasiga yuz yigirma olti soqqa! Saylash qarshisiga to'qson sakkiz soqqa! – deb e'lon qildi. So'ngra kulgilar eshitildi: yashikdan bitta tugma bilan ikkita yong'oq ham chiqibdi. Dvoryanin Flerovga saylov huquqi berildi va natijada yangi partiya g'alaba qildi.

Shunday bo'lsa ham eski partiya o'zini yengilgan hisoblamasdi. Levin Snetkovdan nomzodini qo'yishni so'rashayotganlarini

eshitdi, keyin dvoryanlar olomoni bir nima gapisayotgan guberniya oqsoqolini o‘rab olganini ko‘rdi. Snetkov dvoryanlar iltimosiga javob qilib, dvoryanlarning ishonchlari haqida, ularning o‘ziga bo‘lgan muhabbatlari haqida gapirgandan so‘ng bunday muhabbatga o‘zi munosib emasligini, chunki butun xizmati dvoryanlarga sadoqatdan iborat bo‘lganini, bu yo‘lda o‘n ikki yil xizmat qilganini so‘zladi. U gapining orasida: «Kuchimning boricha insof bilan halol xizmat qildim, qadrlaringizga yetaman, tashakkur aytaman» iborasini bir necha bor takrorladi. Axir tomog‘iga kelib tiqilib qolgan yoshdan nafasi bo‘g‘ilib, zaldan chiqib ketdi. Ko‘zlariga yosh chiqargan narsa – o‘zigaadolatsizlik qilinayotganini o‘ylagani bo‘ldimi yo dvoryanlarga bo‘lgan muhabbatni yoki bo‘lmasa, o‘zi tushib qolgan ahvolning tangligi va yo dushmanlar qurshovida qolganini sezib turgani bo‘ldimi, har holda, boshqalarga ham hayajonining nuqsi urdi, dvoryanlarning ko‘pchiligi ta’sirlandi, Levining ham Snetkovga rahmi kelib ketdi.

Guberniya oqsoqoli eshikdan chiqishda o‘zini Levinga urib oldi.

– Iya, kechiring, xafa bo‘lmaysiz-da, – deb bu notanish odamga darrov uzr bildirdi; ammo yuziga qarab Levinni tanidi-da, hayiqib kulumisirab qo‘ydi. Levining nazarida, u bir nima demoqchiday tuyuldi-yu, lekin hayajonidan hech nima deya olmadi. Mundir va qizil jiyakli oq shim kiygan, xochlar taqqan qomati hamda yuzining ifodalari, shoshib-pishib yurishi – bularning hammasi Levinga ishi xarob ekanligini ko‘rgan quvg‘in jonivorni eslatdi. Oqsoqolning yuzidagi bu ifoda Levining yuragini ezib yubordi, chunki kechagina vasiylik ishi bilan uyiga borganda bu mehrli, bolajon kishini butun ulug‘vorligi bilan ko‘rgan edi. Eski mebellar qo‘yilgan katta uy; olifta bo‘lish u yoqda tursin, kir-chir, ammo hurmatnavoz qari lakeylar (xo‘jayinlarini o‘zgartirishni xohlamay qolgan eski krepostnoy dehqonlar bo‘lishsa kerak); boshida kallapo‘s sh va turkona sholro‘mol bo‘lgan qizining qizini, ya’ni shiringina nevarasini erkalatib o‘tirgan semiz, mehribon xotini; gimnazianing oltinchi sinfida o‘qib, hozir uyga kelgan va otasi bilan ko‘rishib turib, otasining yo‘g‘on qo‘lini o‘pgan azamat o‘g‘li; uy egasining ta’sirchan, muloyim so‘zları va harakatlari – bularning hammasi kecha Levinda beixtiyor hurmat va xayrixohlik uyg‘otgan edi. Bu chol hozir Levinga g‘arib va ayanchli ko‘rinib ketdi. U hozir chol ko‘nglini ko‘taradigan biron narsa aytishni istar edi.

– Demak, yana sarkardamiz bo‘lib qoldingiz-da? – dedi Levin.
Chol cho‘chib qayrilib qaradi-yu:
– Qaysi go‘rda, – dedi. – Charchadim, qarib qoldim. Mendan ko‘ra loyiqroq yoshroq odamlar xizmat qilishsin, mayli.

Shu so‘zlardan keyin oqsoqol yon eshikka kirib g‘oyib bo‘ldi.
Eng tantanali daqqa keldi. Darhol saylov boshlash kerak edi.
Har ikkala partiyaning sanoqchilari oq va qora soqqalarni barmoqlari bilan sanashardi.

Flerov ustidagi munozara yangi partiyaga Flerovning soqqasinigina emas, yana vaqt yutug‘ini ham bergen edi: chunki eski partiyaning nayrangi bilan saylovga qatnashish imkoniyatidan mahrum bo‘lib qolgan uchta dvoryanni ham olib kelish mumkin bo‘ldi. Bu dvoryanlardan ikkitasini, ichkilikka o‘ch bo‘lganlari uchun Snetkovning odamlari ichirib mast qilib qo‘yishgan, uchinchisining esa mundirini olib ketib qolishgan edi.

Yangi partiya bu voqealardan xabar topdi-yu, Flerov masalasi muhokama qilib turilgan paytda dvoryanga mundir kiydirib keltirish va mast qilib qo‘yilgan dvoryanlardan bittasini majlisga olib kelish uchun darhol izvoshda odam yubordi.

Mastlarni keltirish uchun borgan pomeshchik Sviyajskiyning yoniga kelib:

– Bittasini ustiga suv quyib, olib keldim, – dedi. – Bo‘laveradi, yaraydi.

– Qattiq mast emasmi? Yiqilib-netib ketmaydimi? – deb so‘radi Sviyajskiy boshini chayqab.

– Yo‘q, bardam. Ishqilib, mana shu yerda ichirishib qo‘yishmasa bo‘ldi... Bufetchiga tayinladim: hech bir yo‘sint bilan ichkilik bermanglar deb.

XXIX

Odamlar papiros chekishib, tamaddi qilishib turgan tor zal dvoryanlar bilan liq to‘la edi. Hayajon, hovliqish dam sayin kuchayib borar, hammaning yuzida besaranjomlik sezilib turardi. Ayniqsa, butun tafsilotdan va soqqalarning hisobidan xabardor bo‘lgan sanoqchilar ko‘proq hayajon ichida edi. Kelajak jangning farmonbardorlari shular edi. Boshqalar esa jang oldidagi oddiy askarlar singari jangga tayyorgarlik ko‘rishayotgan bo‘lsalar ham,

hozircha ko'ngilxushligi bilan ovora edilar. Biri tikka turib yo stol yoniga o'tirib tamaddi qilar; boshqasi og'zida papiros bilan uzun xonada u yoqdan bu yoqqa yurib, uzoq vaqtlardan beri ko'rmagan oshnasi bilan gaplashardi.

Levinning hech narsa yegisi ham kelmas, u chekmas ham edi; o'z yaqinlari, ya'ni Sergey Ivanovich, Stepan Arkadich, Sviyajskiy va boshqalar bilan topishib olib, ovqat yegisi kelmasdi, chunki ularning qizg'in suhbatlarida shtalmeyster mundiridagi Vronskiy ham qatnashayotgan edi. Levin uni kecha saylovda ko'rgan va uchrashmaslik uchun o'zini ehtiyyot qilib yurgan edi. U deraza yoniga keldi-da, atrofiga ko'z yogurtirib, tevaragida nimalar to'g'risida gaplashayotganiga qulq solib o'tirdi. Uning yuragi g'ash edi, chunki hamma nimaningdir g'ami, tashvishi bilan mashg'ul bo'lib, u yoqdan bu yoqqa yugurib yursa-yu, bir o'zi yoniga kelib o'tirgan eski flotcha mundirli, qarib-chirigan, lablarini chapillatib gapiradigan bir tishsiz chol bilan bekor, bemaroq o'tirs!

– Bu shunaqa rasvo! Men aytdim, ko'nmadi-da. Tavba! Uch yilda ham buncha yig'olmasdi! – Bo'yalgan sochlari mundirining kashtali yoqasiga tushib yotgan, biroz bukchaygan o'rta bo'yli pomeshchik, aftidan, maxsus saylovga kiyib kelgan yangi etiklarining poshnalarini yerda to'q-to'q urib, qaynab gapirdi. Keyin Levinga norozi bir nazar tashlab, shartta burilib ketdi.

Kichkina pomeshchik ingichka ovoz bilan:

– Ha, qalloblik bor, ko'rinish turibdi, – dedi.

Shundan keyin bir semiz generalni o'rab olgan bir to'da pomeshchik tez-tez yurib Levinga yaqinlashib kelaverdi. Pomeshchiklar gaplarini hech kim eshitmaydigan xilvatroq bir joy qidirib yurishgan bo'lsalar kerak.

– Qaysi beti bilan menga shunday dedi-ya: go'yo men uning shimini o'g'irla deb buyurgan emishman! O'zi sotib aroq ichgan. Uning knyazligi menga bir pul! Bunaqa gapni og'ziga olmasin, bu razillik!

– Shoshmang axir! Ular moddaga asoslanishyapti, – deyardi ikkinchi to'dadagilarning biri, – xotini dvoryan deb yozilgan bo'lishi kerak.

– Moddasi menga bir chaqa! Men zotini aytyapman. Olijanob dvoryanlar emish, ishonib ko'r shunaqlarga!

– General janoblari, yuring, fine champagne¹.

Yana bir to‘da odam nimagadir baqirib-chaqirib gapi rayotgan dvoryan orqasidan ergashib borardi: mast qilib qo‘yilgan uch dvoryanning biri shu edi.

– Men Marya Semyonovnaga hamisha ijara ga berib yuboring deb maslahat berib kelganman, bilaman-da, foyda ko‘rmaydi, – derdi yoqimli ovoz bilan, eski general shtabning polkovnigi mundirida yurgan oq mo‘ylovli pomeshchik. Levin Sviyajskiynikida ko‘rgan pomeshchik shu edi. Levin uni darhol tanidi. Pomeshchik ham Levinga razm bilan qaradi, shundan keyin salomlashdilar.

– Juda soz. Bo‘lmasam-chi! Juda yaxshi esimdasiz! Bultur Nikolay Ivanovichnikida, oqsoqolimiznikida ko‘rishganmiz.

– Xo‘sh, xo‘jaligingiz qalay ketyapti? – deb so‘radi Levin.

Pomeshchik Levin yonida to‘xtadi-da, taqdirga tan bergen kishidek, xotirjam bir qiyofada mutelarcha kulimsirab:

– Boyagidek, zarar beryapti, – dedi. Keyin: – Xo‘sh, sizni bu yoqlarga qanday shamol uchirdi? – deb so‘radi. – Bizning sourd’etat²da qatnashgani keldingizmi? – dedi fransuzchani yomon gapirsa ham, lekin dona-dona qilib. – Butun Rossiya yig‘ildi: kamergerlar ham, oz bo‘lmasa ministrlar ham, – degandan so‘ng, general bilan yurgan oq shimli, kamerger mundirli Stepan Arkadichning salobatli qomatiga ishora qildi.

– Men dvoryanlar sayloving ma’nosiga yaxshi tushunmayman, bunga iqror bo‘lishim kerak, – dedi Levin.

Pomeshchik unga qarab qo‘ydi.

– Tushunadigan nimasi ham bor edi? Hech qanaqa ma’nosи yo‘q. Qulagan, lekin inersiya kuchi bilan harakatni davom ettirib kelayotgan bir muassasa-da. Qarang, mundirlarning o‘ziyoq aytib turibdi: yarashtiruvchi sudyalar, o‘zgarmas a’zolar va shularga o‘xshaganlar majlisi, ammo dvoryanlarniki emas.

– Bo‘lmasa o‘zingiz nimaga keldingiz? – deb so‘radi Levin.

– Odат bo‘lib qolgan-da, shu xolos. Innaykeyin, aloqani uzmaslik kerak. Bir tomondan, ma’naviy majburiyat ham. So‘ngra, haq gapni aytganda, manfaat ham yo‘q emas. Kuyovim o‘zgarmas a’zolikka

¹ Konyakka (*frans.*).

² davlat o‘zgarishi (*frans.*).

saylanmoqchi; ular badavlat odamlar emas, shuning uchun kuyovni o'tkazish kerak. Anavi janoblarga bu yerda nima bor? – dedi guberniya stolida gapirgan boyagi tili zahar janobni ko'rsatib.

– Dvoryanlarning yangi avlodlaridan bu.

– Yangi bo'lsa, yangidir. Lekin dvoryanlarning yangi avlodi emas. Bular zamindorlar, biz bo'lsak pomeshchiklarmiz. Ular o'zlarini o'zlar qilib olishgan.

– Axir buni joni chiqqan muassasa deb aytdingiz-ku!

– Joni chiqishga-ku chiqqan-a, shunday bo'lsa ham, bunga biroz hurmat bilan qarash kerak edi-da. Loaql Snetkov... Yaxshimizmi, yomonmizmi, harqalay, ming yildan beri yashab, o'sib kelyapmiz. Bilasiz-ku, uyingiz oldiga bog'cha qilmoqchi, yerni tekislamoqchi bo'lsangiz, ko'rasizki, shu yerda yuz yil umr qilgan bir daraxt o'sib yetibdi... U yer bu yeri chirib, qarib qolgan bo'lsa hamki, yangi gulzoringizni deb o'sha qari daraxtingizni kesib tashlamaysiz, gulzoringizni shunday rejalashtirasizki, oqibatda o'sha daraxtdan ham foydalanasisiz. Bunaqa daraxtni bir yilda voyaga yetkazolmaysiz, – dedi pomeshchik yotig'i bilan, keyin darhol gapni boshqa yoqqa burib yubordi. – Xo'sh, o'zingizning xo'jaligingiz qalay?

– Uncha yaxshi emas. Besh foizgina.

– Shunaqa-yu, lekin o'zingizni hisobga olmayapsiz-da. Sizning ham biron qimmatningiz bordir axir? O'zimdan qiyos oling. Xo'jalikka urinmasdan oldin uch ming so'mlik xizmat daromadim bor edi. Hozir esa xizmatda yurgan vaqtimdagidan ko'proq ishlayman-u, sizga o'xhash, besh foiz foyda ko'raman, shunga ham xudoga shukur deyman. O'zimning mehnatim bo'lsa bekorga ketadi.

– Modomiki shunchalik zarar ko'rар ekansiz, bo'lmasa nega bunday qilasiz?

– Nima qilaylik bo'lmasa? Odatlanib qolganmiz, shunday qilmasak bo'lmaydi. Buni qo'yib turing, – dedi-da pomeshchik derazaga suyanib, keyin yana gapini davom ettirdi: – O'g'limning xo'jalik ishlariga hech ishtiyoqi yo'q. Olim bo'ladi, shekilli. Shuning uchun xo'jalik ishimni davom ettiradigan hech kimim yo'q, shunday bo'lsa ham unnab yotasan. Mana shu yil bog' qildim.

– Ha, ha, juda to'g'ri gap, – dedi Levin. – Men ham xo'jaligimdan foyda yo'qligini hamisha sezib turaman-u, yana baribir unnab yotaman... Er oldida qandaydir burching borligini sezasan kishi.

– Mana men sizga aytib beray, – dedi pomeshchik so‘zini davom qildirib, – mening bir savdogar qo‘schnim bor edi. Birga xo‘jalikni, bog‘ni aylandik. «Yo‘q, Stepan Vasilich, deydi, hamma narsangiz tartibida-yu, lekin, deydi, bog‘ingiz qarovsiz bo‘lib qolibdi», deydi. Holbuki bog‘imda tartib juda joyida. «Menga qolsa, anavi lipa daraxtini kesib tashlardim. Axir mingtacha lipa bor-a, har bittasidan ikitadan yaxshi lubok¹ chiqadi. Hozir lubok juda qimmat. Innaykeyin, lipadan imoratbop yog‘ochlar ham chiqarib olardim» deydi.

– Bu pulga esa chorva yoki arzon-garov yer sotib olardi-da, mujik-larga ijara berardi, – bu xil savdolar boshiga ko‘p tushgan bo‘lsa kerak, – Levin uning fikrini shu taxlitda kulimsirab turib tugatdi. – Shunday qilib davlat orttiradi. Siz bilan biz bo‘lsak, borimizni saqlab, bolalarimizga qoldirsak – xudoga shukur deymiz.

– Uylanibsiz emishmi? – dedi pomeshchik.

Levin mag‘rur bir mammuniyat bilan:

– Ha, – deb javob berdi. – Ha, shunisi g‘alati, – deb so‘zini davom qildi. – Umrni bekorga o‘tkazyapmiz, xuddi qadim zamonlardagi piri mug‘ondek o‘tni yondirib o‘tiramiz.

Pomeshchik istehzo bilan miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Bizning oramizda ham shunaqalar bor, masalan, oshnamiz Nikolay Ivanich yoki graf Vronskiy (bu kishi hozir qishloqqa ko‘chib keldi), bular agronomiya sanoatini o‘stirish payida yurishibdi; lekin bu narsa hozircha sarmoyaning boshiga suv quyishdan nariga o‘tmaydi, bundan hech qanday naf chiqmaydi.

– Menga qarang, nima uchun biz ham savdogar singari ish ko‘rmaymiz? Bog‘dagi daraxtlarni kesib, lubok qilmaymiz? – dedi Levin o‘zini hayron qilgan fikriga qaytib.

– Shuning uchunki, o‘zingiz aytgandek, o‘tni yondirib o‘tiramiz. Bog‘ni kesishni dvoryanlarga yarashadigan ish deb bilmaymiz. Dvoryanlik ishlari ham shu yerda, saylovda hal bo‘lmaydi, o‘z go‘shamizda hal bo‘ladi. Nimani qilish kerak, nimani qilmaslik kerakligini bilamiz. O‘z tabaqamizga xos instinct bilan bilamiz. Mujiklarni olaylik, bunday razm solib qarasam: yaxshi mujik darrov yerni ijara olishga intiladi. Yomon yer bo‘lsa ham, baribir, oladi, haydaydi. Bu ham ishning ko‘zini bilmaydi. To‘ppa-to‘g‘ri zarar.

¹ Po‘stloq.

– Biz ham shu-da, – dedi Levin. – Sizlarni ko'rganimdan nihoyatda xursand bo'ldim, – dedi Levin yonlariga kelayotgan Sviyajskiyni ko'rib.

– Siznikida ko'rishganimizdan beri bu birinchi marta uchrashishimiz, – dedi pomeshchik, – o'tirib, gaplashib qoldik.

Sviyajskiy kulimsirab:

– Yangi tartibni rosa so'kkandirsizlar? – dedi.

– Usiz gap tatiydimi?

– Yuragimizni bo'shatdik.

XXX

Sviyajskiy Levinni qo'ltig'idan olib, o'z to'dasiga qarab ketdi.

Endi Vronskiyning yonidan o'tmaslikning iloji qolmagan edi. U Stepan Arkadich va Sergey Ivanovich bilan to'g'ri Levin tomonga qarab turgan edi.

Vronskiy qo'lini Levinga uzata turib:

– Juda xursandman. Chamamda, sizni ko'rish sharafiga... knyaginya Shcherbatskayalarnikida noyil bo'lgan edim, shekilli, – dedi.

– Ha, uchrashganmiz, juda esimda, – dedi Levin lavlagiday qizarib; keyin yuzini darhol naryoqqa o'girib, akasi bilan gaplasha boshladi.

Vronskiy miyig'ida bir kulimsirab qo'ydi; Levin bilan gaplashishga ishtiyoqi yo'q edi, shekilli, yana Sviyajskiy bilan suhbatini davom ettirdi; ammo Levin akasi bilan gaplashib turib, tez-tez Vronskiy tomonga qarab qo'yar, hozirgi qo'pol muomalaman yuvish uchun nima to'g'risida gaplashsam ekan, deb boshi qotar edi.

Levin Sviyajskiy bilan Vronskiyga qarab:

– Endi ish kimga qarab turibdi? – deb so'radi.

– Snetkovga. Yo voz kechishi, yoki rozi bo'lishi kerak, – deb javob qildi Sviyajskiy.

– Nima qilibdi: rozi bo'libdimi-yo'qmi?

– Gap shunda-da, hayam demaydi, yo'q ham, – dedi Vronskiy.

– Rozi bo'lmasa, unda kim saylanadi? – deb so'radi Levin Vronskiyga qarab.

– Kim xohlasa, – dedi Svyajskiy.

– Siz xohlaysizmi? – deb so'radi Levin.

Sviyajskiy Sergey Ivanovich yonida turgan tili zahar janobga qo'rqa-pisa bir qarab oldi-yu, xijolat bo'lib:

– Zinhor, – dedi.

Levin gapdan adashganini sezib:

– Bo'lmasa kim? Nevedovskiymi? – dedi.

Lekin bu gap judayam qiziq bo'ldi. Nevedovskiy bilan Sviyajskiyning ikkovi ham nomzod edi.

– Men o'lsam ham rozi bo'lmayman, – dedi tili zahar janob.

Nevedovskiy – shu kishi edi. Sviyajskiy Levinni u bilan tanishtirib qo'ydi.

– Rosa jig'ingga tegdimi, deyman-a? – dedi Stepan Arkadich Vronskiyga ko'zini qisib. – Bu ham poygaday gap. Dov qo'ysa bo'ladi.

– Albatta, jig'ingga tegadi-da, – dedi Vronskiy. – Ishni bosh-laganingdan keyin oxiriga yetkazging keladi-da. Kurash! – dedi qovog'in solib.

– Sviyajskiy qanday ishbilarmon odam-a! O'zining foydasiga hal bo'lib qoldi-ku.

– Ha-da, – dedi Vronskiy parishonxotirlik bilan.

O'rtaga sukunat tushdi: Vronskiy shu sukunat paytida qayoqqa bo'lsa ham qarashi kerak edi-da: – Levinga, oyoqlariga, mundiriga, keyin yuziga qaradi, ko'zлari o'ziga xo'mrayib qarab turganini sezib, biron narsa deyish maqsadida.

– Bu qanday bo'ldi: doimo qishloqda turasiz-u, nima uchun yarashtiruvchi sudya emassiz? Egningizda yarashtiruvchi sudya mundiri yo'q, – dedi.

Levin dastlab ko'rishganda yo'l qo'ygan qo'pol muomalasini yuvish uchun hamma vaqt Vronskiy bilan gaplashish payida edi, shu sababli qovoqlarini solib turib:

– Shuning uchunki, yarashtiruvchi sudyani ahmoqona bir muassasa deb hisoblayman, – deb javob qildi.

– Men bunday deb o'ylamayman, aksincha, – dedi Vronskiy vazmin bir hayrat bilan.

– O'yinchoq, – deb Levin uning so'zini bo'lib qo'ydi. – Bizga yarashtiruvchi sudyalarning keragi yo'q. Sakkiz yil bo'ldi, ishim tushgani yo'q. Ishim tushgan bo'lsa, faqat rasvosi chiqarildi. Yarashtiruvchi sudya mendan qirq chaqirim narida turadi. Ikki

so‘mlik ishni deb, o‘n besh so‘mlik xarajatni bo‘ynimga olishim, advokat yuborishim kerak.

Keyin bir mujik tegirmonchining unini o‘g‘irlaganini, tegirmonchi uni o‘g‘ri qilganda, mujik tuhmat qildi deb tegirmonchi ustidan mirovoy sudyaga arz qilganini so‘zlab berdi. Bu gaplarning hammasi o‘rinsiz, bema’ni gaplar edi, Levin buni aytayotib o‘zi ham sezib turardi.

– U, juda alomat-ku! – dedi Stepan Arkadich o‘zining shirin tabassumi bilan jilmayib turib. – Qani yuringlar, ovozga qo‘yishyapti shekilli...

Shundan keyin tarqalib ketishdi.

Sergey Ivanovich ukasining nojo‘ya harakatini sezib:

– Hayronman, – dedi, – har qanday siyosiy andishadan shu qadar mahrum bo‘lish mumkin ekanligiga hayronman. Biz ruslarning bitta kamchiligimiz shu. Guberniya oqsoqoli – bizning dushmanimiz, sen bo‘lsang u bilan ami cocfion¹ va saylanishini iltimos qilasan. Graf Vronskiy bo‘lsa... men uni o‘zimga do‘sit qilolmayman; meni ovqatga taklif qildi, ammo bormayman! Har holda o‘z odamimiz, bunday bo‘lgandan keyin uni dushman qilib olishning nima hojati bor? So‘ngra, Nevedovskiydan nomzodini qo‘yish-qo‘ymasligini so‘raysan. Bunday qilinmaydi.

– Ey, bu narsaga tushunsam o‘lay agar! Bu hammasi bekorchi mashmasha, – dedi Levin qovoqlarini osiltirib.

– Bekorchi mashmasha deysan-u, o‘zing hamma narsani chatoq qilib o‘tirasan.

Levin indamadi. Keyin katta zalga kirib ketishdi.

Guberniya oqsoqoli ishning chappasidan ketganligini sezib tursa ham, o‘z nomzodini ovozga qo‘yishni hamma so‘ramagan bo‘lsa ham, yana saylanishga qaror qildi. Zal sukunatga cho‘mdi, sekretar baland ovoz bilan gvardiyachi rotmistr Mixail Stepanovich Snetkov guberniya oqsoqolligiga nomzodini qo‘yadi, deb e’lon qildi.

Uezd oqsoqollari soqqalar solingan likobchalarini o‘z stollaridan guberniya stoliga olib o‘tishdi, shundan keyin saylov boshlanib ketdi.

Levin oqsoqol orqasidan akasi bilan stolga yaqinlashganda Stepan Arkadich unga:

¹ Og‘iz-burun o‘pishasan (*frans.*).

– O'ng tomonga tashla, – deb pichirladi. Ammo Levin o'ziga tushuntirilgan yo'lni esidan chiqarib qo'ygan edi, shuning uchun: Stepan Arkadich «O'ng tomonga tashla» deb yanglishmaganmikan, deb vahimaga tushib qoldi. Axir Snetkov dushman edi-ku! Levin yashikka kelganda, soqqani qo'lida ushlab turgan edi, keyin xato qilganini o'ylab, yashikka tashlash oldida soqqani chap qo'liga o'tqazdi, shu taxlit chap tomonga tashladi shekilli ham. Yashik yonida turgan korchalon tirsagining birgina harakatidan soqqaning qaysi tomonga tashlanganini bilib, noxushlik bilan yuzini tirishtirdi. U sezgirlingini mashqlantirish uchun boshqa narsa topmagandek edi.

Hamma jim bo'ldi, shundan keyin soqqalar sanala boshlandi. So'ngra yoqlab tashlangan va qarshi soqqalar miqdorini bir kishi e'lon qildi.

Oqsoqol ko'pchilik ovoz bilan saylangan edi. Hamma yoqda shovshuv ko'tarildi, hamma o'zini eshikka qarab urdi. Snetkov pastga tushdi, dvoryanlar o'rab olishib, tabriklay boshlashdi.

– Endi tamom bo'ldimi? – deb so'radi Sergey Ivanovichdan Levin.

Sergey Ivanovich o'rniga Sviyajskiy kulimsirab javob qildi.

– Endi boshlanyapti. Oqsoqol nomzodi soqqani ko'p olishi mumkin.

Levin bu narsani ham butunlay esidan chiqargan edi. Shu masalada allaqanday bir nozik tomon borligini hozirgina esiga tushirdi. Lekin bu nozik tomonning nimadan iboratligini eslashga toqati yetmadni. Yuragi siqilib, xaloyiq ichidan tezroq chiqib ketgisi kelib qoldi.

Levin hech kim o'ziga e'tibor qilmagani, o'zi ham hech kimga kerak emasday ko'ringani uchun odamlar tamaddi qiladigan kichkina zalga sekin chiqib ketdi-yu, yana lakeylarni ko'rib, ancha yengil tortdi. Chol lakey Levinga ovqat taklif qilgan edi, u darrov rozi bo'la qoldi. Lo'ya bilan bitta kotlet edi-da, ilgarigi boy-badavlatlar to'g'risida lakey bilan biroz gaplashib o'tirgandan keyin, dilini xira qiladigan katta zalga yana qaytib kirishni xohlamay, balkonlarda aylangani ketdi.

Balkonlar bezangan-tuzangan xonimlar bilan liq to'la edi; ular pastdan ko'tarilayotgan gaplarning bittasini ham eshitmay qolmaslikka tirishib, panjaralardan pastga engashib o'tirishardi. Xonimlar yonida zebo advokatlar, gimnaziyalarning ko'zoynak taqqan muallimlari va ofitserlar yo'o'tirishar, yoki tikka turishardi. Hamma yerda saylovdan,

oqsoqolning qiynalib ketganidan va munozaralarning yaxshi bo'l-ganidan gap ketardi; Levin shu yerdagi to'dalarning birida akasini maqtashayotganini eshitib qoldi. Bir xonim yonidagi advokatga:

— Koznishevning so'zini eshitganim uchun biram xursandmanki! — derdi. — Uning gapini eshitganda och-nahorliging ham bilinmaydi. Jonga huzur! Qarang, hamma gapi ravshan, dona-dona eshitilib turibdi! Lekin sizlarning sudlariningizda hech kim bunday gapirmaydi. Maydel pitcha tuzukroq, lekin u ham hech qachon bunday chiroyli gapirmaydi.

Levin panjaradan bo'sh joyni topdi-yu pastga engashib, qulqola va tomosha qila boshladidi.

Hamma dvoryanlar to'siq orqasida o'z uezdлari bilan o'tirishardi. Zal o'rtasida mundirlи bir kishi turib, ingichka, lekin baland ovoz bilan e'lon qildi:

— Guberniya dvoryanlari oqsoqolligiga shtabrotmistr Yevgeniy Ivanovich Apuxtinning nomzodi ovozga qo'yiladi!

O'rtaga chuqur bir sukunat cho'kdi, keyin zaif, qari kishining ovozi eshitildi:

— Qaytib oldi!

— Yettingchi darajadagi chinovnik Pyotr Petrovich Bol ovozga qo'yiladi, — dedi yana boyagi ovoz.

Yosh, chinqiroq tovush eshitildi:

— Qaytib oldi!

Yana o'shanday ovoz chiqdi, yana o'shanday «qaytib oldi» javobi eshitildi. Bu mashmasha bir soatcha davom qildi. Levin panjaraga suyanib olib, qarab, qulqola solib turdi. Dastlab bu nima qilishgani ekan, deb hayron bo'ldi, bilgisi ham keldi; keyin buni bilish mushkul ekanligiga qanoat hosil qildi-yu, zerika boshladidi. So'ngra odamlar yuzida ko'rgan bu hayajon va g'azablarni eslab, yuragi siqla boshladidi: ketmoqchi bo'lib, pastga tushdi. Balkon dahlizidan o'tib ketayotib, o'sha yerda u yoqdan bu yoqqa yurib turgan qovoqlari shish, g'amgin bir gimnaziya talabasiga duch keldi. Zinada esa bir juft kishiga uchradi: biri poshnalarini taqillatib tez-tez yurib chiqayotgan xonim, ikkinchisi yengil-yengil odim tashlab kelayotgan prokuror yordamchisi edi.

Levin xonimni yonidan o'tkazib yuborish uchun o'zini chetga olib turganda, prokuror:

— Kechikmaysiz deb aytmabmidim, — dedi.

Levin tashqi eshik zinasiga kelib, po'stinining nomerchasini jilet cho'ntagidan endi olmoqchi bo'lib turgan edi, birdan sekretar kelib ushlab qoldi.

— Marhamat, Konstantin Dmitrich, ovozingizni bering, — dedi.

O'lsam ham ko'nmayman, deb turgan Nevedovskiyning nomzodi ovozga qo'yilgan edi.

Levin zal eshigiga keldi: eshik qulf edi. Sekretar taqillatgandan keyin eshik ochildi-yu, qip-qizarib ketgan ikkita pomeshchik Levin yonidan lip etib o'tib ketdi.

Qizarib ketgan pomeshchiklardan biri:

— Toqatim qolmadi, — dedi.

Pomeshchik orqasidan guberniya oqsoqolining yuzi ko'rindi. Bu yuzda — madorsiz, qo'rquv alomati bor edi.

— Chiqarma deb aytmabmidim senga! — dedi u qorovulga.

— Men chiqaribmanmi, sarkarda janoblari!

— Eh, Xudo! — dedi-yu, chuqur nafas olib, guberniya boshlig'i, oq shimli oyoqlarini horg'in-tolg'in bosgan, boshini quyi solintirgan holda zal o'rtasidan katta stol tomonga qarab yurib ketdi.

Mo'ljallangandek, soqqalarning ko'philigi Nevedovskiya tashlandi. Natijada, Nevedovskiy guberniya oqsoqolligiga saylandi. Ko'p odamlar vaqtichog' bo'ldi, ko'p odamlar mamnun bo'ldi, baxtiyor bo'ldi, ko'p odamlar shod-u xurram bo'ldi, ko'plar norozi va xafa bo'ldi. Guberniya boshlig'i kuyib-yondi, kuyib-yonganini yashirolmay qoldi. Xaloyiq s'ezdning birinchi kunida saylov majlislarini ochib bergan gubernator orqasidan qanday ergashgan bo'lsa, Snetkov saylanganda uning orqasidan ham qanday ergashgan bo'lsa, Nevedovskiy zaldan chiqa boshlaganda, uni ham o'rab olib, orqasidan shunday shod-u xurramlik bilan ergashib bordi.

XXXI

Yangi saylangan guberniya oqsoqoli va tantana qilgan yangi partianing ko'pgina tarafdarlariga shu kun Vronskiy ziyofat berdi.

Vronskiyning saylovga borishiga, avvalo, qishloqda zerikib qolgani, qolaversa, o'z erkiga bo'lган huquqini Anna oldida ko'rsatib qo'yishi zarurligi sabab bo'lган edi; bundan tashqari, zemst-

vo saylovlarida Vronskiy uchun jon kuydirgan Sviyajskiyni uezd oqsoqollari saylovida qo'llab-quvvatlash, shu bilan uning oldidagi burchini bajarish ham kerak edi; bulardan ham muhimrog'i, o'zi hozir tanlab olgan dvoryanlik va zamindorlik mavqeining barcha burch va majburiyatlarini qat'iy bajarishi lozim edi. Lekin bu saylov ishi o'zini shunchalik qiziqtirar, shunchalik asir qilar, buni shunchalik silliq bajararman, deb hech o'ylamagan edi. Vronskiy dvoryanlar muhitida tamoman yangi kishi edi, bunga qaramasdan, muvaffaqiyat qozondi; dvoryanlar orasida ancha nufuz orttirdim, deb o'ylashi xato emas edi. Uning nufuzi oshishiga davlati, aslzodaligi ko'proq sabab bo'ldi; Kashinda gullab-yashnab turgan bankni ta'sis qilgan, moliya ishlari bilan shug'ullanib yurgan eski tanishi, ya'ni Shirkav, shaharda unga bergen ajoyib uyi ham, Vronskiy qishloqdan olib kelgan pazanda oshpaz ham, Vronskiyga o'rtoq bo'lgan va ayni zamonda Vronskiy himoya qilib kelgan gubernator bilan do'stligi ham, hammasidan ham ko'proq – hammaga bab-baravar, bir xil, sodda munosabatda bo'lgani yordam qildi; bu munosabat uni kibr-u havosi baland deb yurgan aksar pomeshchiklarning fikrini tez orada o'zgartirib yubordi. A propos de bottes¹, telbalarcha bir jahl bilan o'ziga bir talay qovushmagan bema'ni gaplarni aytib yuborgan Kiti Shcherbatskayaga uylanib olgan ana shu beandisha janobni hisobga olmaganda, qaysi bir dvoryan bilan tanishmasin, uning o'ziga tarafdror bo'lib qolayotganini sezib turardi. Nevedovskiyning muvaffaqiyat qozonishida ta'siri kuchli bo'lganini o'zi ham ko'rib turar, boshqalar ham sezib turardi. Mana endi, o'z uyida, Nevedovskiyning saylanganini dasturxonasi ustida nishonlab, o'zi tanlagan odam tufayli tantana gashtini surib o'tiribdi. Saylov uni shunchalik qiziqtirdiki, poygada ot minari sovrinni yutib chiqqandan so'ng o'zining ham qatnashgisi kelib ketgani singari, uch yilgacha uylanib olsa, o'zining nomzodini ham qo'yish orzusiga tushib qoldi.

Hozir esa ot minar bayrami o'tkazilardi. Vronskiy stolning to'rida, o'ng qo'lida esa yosh gubernator, saroy generali o'tirardi. Hammaning nazarida u majlislarni tantana bilan ochadigan, nutq so'zlaydigan va Vronskiy ko'rib turganidek, hammada ko'r-ko'ronasiga hurmat uyg'otadigan guberniya xo'jayini edi; Vronskiyning nazarida esa pajlar korpusidagi laqabi bilan aytilganda bu Maslov Katka edi xolos;

¹ E yo'q, be yo'q (*frans.*).

bu Maslov Katka Vronskiy oldida uyalib-iymanib turar, Vronskiy esa unga mettre a son aise¹ harakat qilardi. Chap qo‘lida yosh, tebranmas, yuzidan zahar tomib turgan Nevedovskiy o‘tirar, Vronskiy u bilan soddacha muomalada bo‘lsa ham, ammo hurmat qilardi.

Sviyajskiy o‘zining muvaffaqiyatsizligini pisand qilmay, xushvaqt bo‘lib o‘tirardi. U Nevedovskiy sharafiga qadah ko‘tarib, bu men uchun muvaffaqiyatsizlik emas, dvoryanlar ergashishi kerak bo‘lgan yangi oqimning bundan yaxshiroq vakilini topib bo‘lmasdi, shuning uchun har bir vijdonli kishi hozirgi yutuq tarafida bo‘ldi va oqibat tantana qildi, dedi.

Stepan Arkadich ham vaqtini xushchaqchaqlik bilan o‘tkazgani va hamma mamnun bo‘lgani uchun xursand edi. Shinam dasturxon ustida saylov manzaralari bir-bir esga olindi. Sviyajskiy oqsoqolning yig‘i aralash nutqini kulgili qilib aytib bergandan so‘ng Nevedovskiya qarab: endi oqsoqol janoblari mablag‘ni tekshirishda ko‘z yoshlarini emas, boshqa murakkabroq usulni qo‘llaydilar-da, – dedi. Yana bir hazilkash dvoryan guberniya oqsoqoli bermoqchi bo‘lgan balga paypoqli lakeylar chaqirtiganini, agar yangi guberniya sarkardasi paypoqli lakeylar bilan bal bermasa, ularni endi qaytarib yuborishga to‘g‘ri kelishini aytdi.

Ovqat ustida hamma Nevedovskiya qarab, nuqul: «Bizning guberniya oqsoqoli» va «janobi oliylari» deb muomala qilib o‘tirdi.

Yosh juvonni erining familiyasi bilan bajonidil «madame» deb atagandek, bu gaplar ham og‘zilaridan tushmas edi. Nevedovskiy bo‘lsa bu laqabga parvosiz emas, hatto o‘zini undan jirkanadigan kishiga o‘xshatib ko‘rsatsa ham, lekin baxtiyor ekan va shu yerdagilarning hammasi mansub bo‘lgan yangi, liberal muhitga hech yarashmaydigan bir shodlik ko‘rsatib yubormaslik uchun no‘xtasini bo‘shatmay o‘tirgani ravshan ko‘rinib turardi.

Saylov natijasiga qiziquvchi odamlarga ovqat ustida bir necha telegramma yuborildi. Vaqt juda chog‘ bo‘lib ketgan Stepan Arkadich ham Darya Aleksandrovnaga shu mazmunda telegramma yubordi: «O‘n ikki soqqa bilan Nevedovskiy saylandi. Tabriklayman. Aytib qo‘y». Stepan Arkadich telegrammasini baland ovoz bilan aytib turib: «Ularni xursand qilib qo‘yish kerak», – dedi. Darya Aleksandrovna

¹ Dalda berishga (*frans.*).

bo‘lsa telegrammani oldi-yu bunga ketgan bir so‘m uchun uh tortib, telegrammaning ovqat oxirida berilganini angladi. U Stivaning ovqat oxirida «faire jouer le telegraph»¹ qilish odati borligini bilardi.

Ajoyib ovqatdan tortib (rus vinofurushlaridan sotib olinmay, to‘g‘ridan to‘g‘ri chet eldan keltirilgan) vinolargacha hamma narsa quling o‘rgilsin, alomat edi: hamma xushvaqt bo‘lib o‘tirdi. Sviyajskiy maslakdoshlaridan, liberallardan, yangi arboblardan, hammalari nihoyatda so‘zga burro yo boodob yigirma kishini to‘plab kelgan edi. Yangi guberniya oqsoqoli uchun ham, gubernator uchun ham, bank direktori uchun ham, «odamshavanda uy sohibi» uchun ham hazil aralash qadahlar ko‘tarildi.

Vronskiy mammun edi. Viloyatda shunday dilkashlik bo‘lishini xayoliga ham keltirmagan edi.

Ovqat oxirida kayflari yana ham taraq bo‘lib ketdi. Gubernator birodarlar foydasiga xotini tomonidan uyuştirilgan konsertga Vronskiyini taklif qildi; xotini Vronskiy bilan tanishish ishtiyoqida edi.

– U yerda bal bo‘ladi, bahona bilan bizning go‘zalimizni ham ko‘rasan. Juda ham soz bo‘ladi.

Vronskiy «Not in my line»², deb javob berdi, u shu iborani yaxshi ko‘rardi. Keyin kulimsirab, borishga va‘da qildi.

Hamma papiros tutashtirib, endi dasturxonidan turish taraddudiga tushganda, Vronskiyning kamerdineri patnusda xat bilan kelib qoldi.

– Vozdvijenskiydan chopar keltirdi, – dedi kamerdener ma’nodor qilib.

Vronskiy xo‘mrayib xatni o‘qib turganda, mehmonlardan biri fransuzcha qilib kamerdener to‘g‘risida:

– Qiziq, bu odam prokuror yordamchisi Sventitskiyga juda ham o‘xshar ekan, – dedi.

Xat Annadan kelgan edi. Vronskiy xatni o‘qimasdan oldinoq mazmunini bilardi. Saylov besh kunda tugar degan taxmin bilan juma kuni qaytaman deb va‘da qilgan edi. Bugun shanba edi, shuning uchun xat mazmuni vaqtida qaytmaganligi uchun ta’na-yu, kudurat-dan iborat bo‘lishini bilardi. O‘zi kecha kechqurun yuborgan xati hali yetib bormagan, shekilli.

¹ «Telegrafdan suiiste’mol» (frans.).

² Bu mening vazifam doirasiga kirmaydi (ingl.).

Xatning mazmuni o'zi kutgan narsalardan iborat bo'lsa ham, shakli kutilmagan, ayniqsa, ta'bini xira qiladigan edi. «Ani juda betob, doktor o'pkasi yallig'langan bo'lsa ajab emas, deydi. Bir o'zim yomon shoshib qoldim. Knyajna Varvaraning qo'lidan esa yordam qilish emas, xalaqit berishgina keladi. Seni kelarsan deb ilgari kuni kutdim, kecha kutdim, axir bo'lmay, bugun xabar oldirgani odam yubordim: nima bo'lding, nima qilib yuribsan? Bir ko'nglim o'zim bora qolay dedim-u, lekin senga manzur bo'lmasligini bilib, fikrimdan qaytdim. Qanday bo'lsa ham javob yozib yubor, shunga qarab ish tutay».

Bola kasal emish, o'zi bu yoqqa kelmoqchi emish. Qizi kasal emish-u, mana shunday g'arazli xat yozibdi-ya!

Saylovning bu mas'um xushchaqchaqligi va bahaybat og'ir muhabbat dargohiga yana qaytish kerakligi o'z qarama-qarshiliklari bilan Vronskiyni tang qilib qo'ydi. Qaytmaslikning iloji yo'q edi, shuning uchun birinchi poezd bilan kechasiyoq uyiga qarab jo'nadi.

XXXII

Vronskiy saylovga ketayotganda Anna u har safar u yoq bu yoqqa boradigan bo'lsa o'rtada chiqadigan janjal o'zini unga isitishi emas, sovutishi mumkinligini o'ylab, bu ayriliqqa chidash uchun o'zini qo'lidan kelgancha bosishga qaror qilgan edi. Ammo Vronskiy saylovga ketayotganini aytgani kirib, unga sipolik bilan sovuq nazar tashlagani Annanining nafsi og'ritdi; Vronskiy ketmasdanoq u tinchini yo'qotdi.

Anna o'zi yolg'iz qolgandan keyin Vronskiyning erkinlik huquqini talab qilib sovuq ko'z bilan qaraganini o'ylab ko'rib, har vaqttagiday bir xulosaga keldi, ya'ni o'zini oyoq osti qilayotganini anglatdi. «Qayerga borishni xohlasa, qachon borishni xohlasa – ixtiyori o'zida, haqi bor. Bir yoqqa borishgagina emas, meni tashlab ketishga ham haqi bor. Hamma narsaga haqi bor, lekin mening haqim yo'q. Lekin shuni bilib turib, shunday qilmasligi kerak edi. Xo'sh, aslida nima qildi!.. Sipolik bilan sovuq nazar tashladi, xolos. Albatta, buni aniq bilish, sezish qiyin. Lekin ilgarilari bunday qilgan emasdi, innaykeyin, bu qarashning ham tagida ma'no ko'p, – deb o'ylardi Anna. – Bu qarash soviy boshlaganini bildiradi».

U soviy boshlaganiga amin bo‘lsa ham, lekin qo‘lidan hech nima kelmas, burungi munosabatlarini hech bir jihatdan o‘zgartira olmas edi. Ilgarigidek, yana birgina sevgi va jozibasi bilangina uni ushlab qolishi mumkin edi. Agar mendan ko‘ngli sovib ketsa unda nima bo‘ladi, degan dahshatli o‘ylarini ilgaridek yana kunduzlari ish bilan, kechalari morfin ichish bilangina bosishi mumkin edi. To‘g‘ri, bitta chora, ya’ni qo‘l-oyog‘iga kishan bo‘lmaslik chorasi ham bor edi. – Anna uning muhabbatidan bo‘lak hech narsani xohlamasdi, – lekin o‘zini tashlab ketolmaydigan darajada orasi yaqin bo‘lishi kerak edi. Bu chora – taloq va nikohdan iborat edi. Shunday qilib, Anna shuni xohlab qoldi va umi, Stivami bundan og‘iz ochdi deguncha darrov rozi bo‘lishga qaror qildi.

Anna shu xil o‘ylar bilan besh kunini Vronskiysiz o‘tkazdi, bu besh kun – Vronskiy saylovda yurgan kunlari edi.

Anna vaqtini sayr-u safolar, knyajna Varvara bilan qilgan suhbatlar, kasalxonaga borish-kelishlar, ayniqsa, kitob o‘qish, birin-ketin kitob o‘qish bilan o‘tkazdi. Lekin oltinchi kuni, kucher Vronskiysiz kelganda, Anna u to‘g‘risidagi, uning o‘sha yoqlarda nimalar qilayotgani to‘g‘risidagi o‘ylarini ortiq hech narsa bilan bosolmay qoldi. Shu orada qizalog‘i betob bo‘lib qoldi. Anna qizalog‘iga qaray boshladи, lekin bu ham uni chalg‘itolmadi. Zero bolasi xavfli xasta emas edi. Qanchalik tirishib-tirmashmasin, baribir, u qizini yaxshi ko‘rolmasdi, o‘zini yaxshi ko‘rganga solay desa, bunga ham ko‘ngli bo‘lmasdi. Shu kun kechga borib, Anna o‘zi yolg‘iz qolganda Vronskiyning tashvishi yuragiga shunchalik vahima soldiki, bir ko‘ngli shaharga bormoqchi ham bo‘ldi. Lekin yaxshiroq o‘ylab boqqandan so‘ng, Vronskiyning qo‘liga borib tekkan qarama-qarshi mazmunli xatni yozdi-da, o‘zi o‘qib ham chiqmay, chopar orqali yubordi. Ertasiga ertalab Vronskiydan xat oldi-yu, qilmishiga pushaymon bo‘ldi. Vronskiy ketayotgan mahaldagidek yana sovuq nazar tashlashini Anna vahima bilan kutib turdi, ayniqsa, qizchaning kasali xavfli emasligini bilgandan so‘ng yana ham sovuqroq qilib qarashiga ishonib o‘tirdi. Shunday bo‘lsa ham Vronskiyga xat yozib yuborganiga xursand edi. Anna unga endi o‘zi og‘ir tushayotganiga, Vronskiy bu yoqqa juda og‘rinib, o‘yin-kulgisidan zo‘rg‘a kechib kelishiga aqli bovar qilsada, yana uning qaytishidan xursand edi. Og‘ir tushsa ham mayli,

ishqilib, shu yerda bo'lsa, Anna uni ko'trib tursa, har bir harakatini bilib tursa bas.

Anna mehmonxonada, chiroq tagida, Tenning yangi kitobini o'qib o'tirardi; u goh tashqaridagi shamolning g'uvillashiga qulqoq solar, goh ekipajning kelishini daqqaq sayin kutib intizorlik chekardi. Bir necha marta g'ildiraklar ovozini eshitganday bo'ldi, lekin har gal yanglishardi; nihoyat g'ildiraklarning sharpasigina emas, hatto kucherning ovozi ham, darvozaxonadagi g'ovur-g'uvur ham eshitildi. Pasyans qilayotgan knyajna Varvara ham shu ovozlarni eshitganini tasdiqladi, shunda Anna birdan o't bo'lib yondi-yu, sakrab turib ketdi, lekin boyta ikki marta xabar olib chiqqaniga qaramay, pastga tushish o'rniga turgan yerida qotib qoldi. Aldagani uchun birdan uyalib ketdi. Vronskiy o'zini qanday qabul qilishi o'ylab, yana ham battarroq vahimaga tushdi. Haqirlik hissi allaqachon tarqalgan edi; faqat uning norozi bo'lishidan qo'rqardi. O'tgan kuni qizchasi soppa-sog' bo'lib ketgani esiga tushdi. Xat yozib yuborgan kuni tuzalib qolgani uchun qizchasidan hatto ko'ngli ham ranjidi. Keyin Vronskiyning qo'l-oyog'i butun ekanligini, o'zi shu yerdaligini esladi. Ovozini eshitdi. Eshitdi-yu, hamma narsani esidan chiqarib, shodlik bilan oldiga yugurib chiqdi.

Vronskiy yuqorida chopib tushayotgan Annaga pastdan qarab:

– Qalay, Ani qalay? – dedi yuragi dukillab.

Vronskiy stulda o'tirgan, lakey esa oyog'idan issiq etigini sug'urayotgan edi.

– Tuzuk, yaxshi bo'lib qoldi.

– O'zing-chi? – dedi u ustini qoqib.

Anna ikki qo'li bilan uning qo'lini ushladi-da, ko'zlarini olmay, uni o'z bag'riga tortdi.

– Juda soz, – dedi u Annaga, sochlaring taralishiga, ko'ylagigasovuuqqina qarab, Vronskiy bu ko'ylakni o'zi uchun kiyib chiqqanini fahmlagan edi.

Bularning hammasi Vronskiyga yoqardi. Yoqqanda ham har safar yoqardi! Ammo Vronskiyning yuzida toshday sovuq bir ifoda paydo bo'ldi-yu, shu holicha qotib qoldi, Anna uning bunday qarashidan qo'rqrar edi.

Vronskiy qo'l soatini dastro'molchasi bilan artdi-da, Annanining qo'lini o'pib turib:

– Juda xursand bo‘ldim. Xo‘sh, o‘zing sog‘misan? – dedi.

«Baribir, – deb o‘ylardi Anna, – ishqilib, shu yerda bo‘lsa bas, shu yerda bo‘lganda esa meni sevmay turolmaydi, jur’at qilolmaydi».

Oqshom knyajna Varvara huzurida juda baxtli, juda xushchaqchaq o‘tdi; knyajka Varvara Vronskiy yo‘qligida Anna morfin ichganidan zorlandi.

– Na chora? Uxlayolmadim-da... har xil o‘ylar kelaverib uxlatmadi. Bu shu yerdaligida hech ichmasdim. Ha, ichmasdim hisob.

Vronskiy saylovdan gapirib berdi; Anna savollar berib, uni xursand qilgan narsadan – qozongan muvaffaqiyatlaridan gapirtirdi. Anna ham uni uyda qiziqtiradigan narsalarning hammasini so‘zlab berdi. Anna gapirib bergen narsalarning hammasi faqat xursand qiladigan narsalar edi.

Lekin vaqt tunga yaqinlashib, o‘zлari yolg‘iz qolishganda, Anna uni yana o‘ziga to‘la maftun qilib olganini ko‘rgandan keyin, xat tufayli ko‘zlarida ko‘ringan og‘ir taassurot izlarini yo‘qotish harakatiga tushdi.

Anna:

– Rostini ayt: xatimni olganingdan keyin jahling chiqqandir? Gapimga ishonmagandirsan? – deb so‘radi.

Anna shu so‘zni so‘radi-yu, lekin Vronskiyning ko‘ngli o‘ziga moyil bo‘lib tursa hamki, yana uni kechirmaganini payqadi.

– Ha, – dedi Vronskiy. – Xating juda g‘alati edi. Goh Anini kasal deysan, goh o‘zim bormoqchi edim deysan.

– Hammasi to‘g‘ri.

– Men ham gumon qilmayman.

– Yo‘q, gumoning bor. Norozisan, ko‘rib turibman.

– Tirnoqcha ham. Mening noroziligim shundaki, – bu to‘g‘ri gap, – burchlarim borligiga ishonging kelmaydi...

– Konsertga borish burchi...

– Qo‘y, bundan gapirmaylik, – dedi Vronskiy.

– Nimaga gapirmas ekanmiz? – dedi Anna.

– Men, zarur ishlar chiqib qolishi mumkin, demoqchiman xolos. Mana endi Moskvaga borishim kerak, uy ishi bilan... Voy Anna-ey, muncha tajangsan-a? Tavba, sensiz yashay olmasligimni bilmaysanmi axir?

— Agar shunday bo‘lsa, — dedi Anna birdan o‘zgarib ketgan ovozi bilan, — demak, shu kechirayotgan kunlarimiz senga og‘ir tuyulyapti... Ha, kelasan-u, bir kun turib, yana ketasan, bamisoli...

— Anna, bu bag‘ritoshlik axir. Men jonimni berishga tayyorman... Lekin Anna qulq solmadi.

— Moskvaga boradigan bo‘lsang, men ham birga boraman. Bu yerda qolmayman. Yo ajralishimiz, yo bo‘lmasa birga turishimiz kerak.

— Axir bu mening birdan-bir tilagim ekanligini bilasan-ku, lekin buning uchun...

— Taloq kerak? Xo‘p, unga xat yozaman. Bunday yasha-yolmasligimni ko‘rib turibman... Lekin Moskvaga birga boraman.

— Menga xuddi po‘pisa qilganday gapirasan. To‘g‘ri, sen bilan birga bo‘lishdan boshqa tilagim yo‘q, — dedi Vronskiy kulimsirab.

Vronskiy bu shirin so‘zлarni aytib turganda, uning ko‘zlarida yolg‘iz sovuq ifoda emas, ta’na qilingan, jonidan to‘yan odamning g‘azabli nigohi ko‘rinib ketdi.

Anna bu nigohni ko‘rdi, ma’nosini ham to‘g‘ri payqadi.

«Agar shunday bo‘lsa, bu baxtsizlik!» — derdi uning nigohi. Bu birgina lahza taassuroti edi-yu, lekin Anna buni keyincha hech esidan chiqarmadi.

Anna taloq qilishni so‘rab, eriga xat yozdi-da, Peterburgga ketayotgan knyajna Varvara bilan xayrlashib, noyabr oxirlarida Vronskiy bilan Moskvaga ko‘chib tushdi. Ular har kun Aleksey Aleksandrovichning javobini, ketidan taloq xatini kutishib, endi er-u xotinlardek birga tura boshlashdi.



YETTINCHI QISM

I

Levinlar uch oydan beri Moskvada turishardi. Bu ishdan yaxshi xabardor odamlarning mo'ljaliga qaraganda, Kitining oy-kuni allaqachonlar o'tib ketgan edi; Kiti bo'lsa hamon yukli yurardi, uning ahvoli ikki oy ilgari qanday bo'lsa, hozir ham shunday edi, ko'z yorish payti yaqinlashib qolganini ko'rsatuvchi nishona yo'q edi. Doktor ham, doya ham, Dolli ham, onasi ham, ayniqsa, ko'z yorish soatining yaqinlashib kelayotganini vahimasiz o'ylayolmaydigan Levin ham bardoshini yo'qotib, xavotirga tushib qoldi; birgina Kiti o'zini tamoman xotirjam his qilib, bamaylixotir yurardi.

Endi Kiti tug'iladigan, o'z nazarida esa allaqachon bunyodga kelgan chaqaloq uchun qalbida yangi muhabbat hislari uyg'onganini anglar, bu hisga zavq bilan berilar edi. Chaqaloq endi uning jigarporasi emas edi, u o'z hayoti bilan ba'zan undan alohida yashardi. Ko'pincha bu unga ozor berardi, lekin shu bilan birga, yuragida uyg'ongan yangi, g'alati shodlikdan kulgisi qistardi.

Kiti yaxshi ko'rgan odamlarining hammasi yonida edi, hamma unga shu qadar mehribon edi, unga shu qadar parvona edi, unga hamma narsa shu qadar yaxshi ko'rinaridiki, bu narsalarning tez orada tugalishini bilmaysaydi, Kiti bundan ham yaxshiroq, bundan ham lazzatliroq hayotni orzu qilmasdi. Uning uchun hayotning bu lazzatini buzib turgan bir narsa bo'lsa – bu erining o'zgarib ketgani edi; eri Kiti sevgan, qishloqda ko'rib yurgan eri emasdi.

Kiti uning qishloqdagi vazmin, dilkash va mehmondo'st xosiyatini sevardi. Shaharda esa har doim bezovta bo'lib, tipirchilab yurar, go'yo birov o'zini, o'zidan ham ko'proq Kitini xafa qilib qo'yishidan qo'rqayotgandek ko'rinaridi. Qishloqda, aftidan, o'zini o'z muhitida his qilardi, shekilli, shu sababdan hech qayerga

shoshilmas, hech qachon bekor ham yurmas edi. Shaharda bo'lsa, bir narsadan quruq qolayotgandek, doimo shoshar, lekin hech narsa qilmas edi. Kitining unga rahmi kelardi. Ammo boshqalarga ayanchli ko'rinmasligini Kiti bilardi; ba'zan sevgili kishisi boshqalarda qoldirayotgan ta'sirini aniqlash uchun uni begona odam o'rniда ko'rishga intilganlaridek, Kiti ham, aksincha, jamiyatda unga shu ko'z bilan qarab rashk qilishdan qo'rqrar, u Kitiga g'arib odam emas, balki o'z odobi bilan, ayollarga birmuncha eskiroq, uyatchanroq, nazokatli munosabati bilan; baquvvat qomati va Kiti nazarida, boshqacha, ma'noli chehrasi bilan jozibali odam bo'lib ko'rindi. Lekin Kiti uni sirdan emas, ichidan ko'rindi: Kiti bu yerda uning chinakam Levin emasligini ko'rindi; Kiti uning holatini o'ziga boshqa turda tasavvur etolmasdi. Shaharda yashashni bilmagani uchun ba'zan ko'nglida unga o'pka ham qilib qo'yardi; ba'zan esa hayotni o'ziga manzur bo'ladigan shaklda quraman deb eri chindan ham qiynalayotganini anglardи.

To'g'ridan ham, u nima qilishi kerak edi? Karta o'ynashni yomon ko'rindi. Klubga bormasdi. Oblonskiy singari xushchaqchaq kishilar bilan qo'shilib yurishning nima ekanligini Kiti endi bilardi... Bu ichish va ichgandan so'ng allaqayerlarga ketish degan so'z edi. Bunday hollarda erkaklarning qayerga borishlarini o'ylaganda Kiti vahimaga tushar edi. Bo'lmasa kiborlar muhitiga aralashsinmi? Lekin Kiti buning uchun yosh juvonlar bilan yaqinlashishdan lazzat topish kerakligini bilardi, shuning uchun Kiti buni xohlay olmasdi. Uyda o'zi, onasi va opalari bilan o'tirsinmi? Qari knyaz «Olya va Nadya» suhbatlari deb atagan opa-singillar suhbatini hadeb eshitib o'tirish Kitining qanchalik bahrini ochmasin, unga qanchalik yoqmasin, baribir, suhbat erini zeriktirishi mumkinligini ham bilardi. Bunday bo'lgandan keyin nima qilishi kerak edi? Bo'lmasa yozayotgan kitobini davom ettirsinmi? U buni ham qilib ko'rdi, kitobi uchun ko'chirmalar va ma'lumotlar to'plash maqsadida avval kutubxonalarga ham qatnadi; lekin Kitiga aytgan so'ziga qaraganda, qancha ko'p bekor yursa, vaqt shuncha kamayib borardi. Bundan tashqari, bu yerda kitobidan juda ko'p gapirib yuborgani uchun miyasida fikrlari chuvalib, kitobiga havasi qolmaganini ham Kitiga aytgan edi.

Shaharda o'tayotgan kunlarining bir foydasi shu ediki, bu yerda ular hech janjallashmas edilar. Shahar sharoiti boshqa edimi yo bu

masalada ikkovlari ancha ehtiyotli va andishali bo'lib qolishgan edimi, har nechuk, Moskvada rashk tufayli oralarida hech janjal chiqmadi, holbuki shaharga ko'chib kelayotganlarida bu narsadan juda qo'rqishgan edi.

Bu jihatdan har ikkalasi uchun juda muhim bo'lgan bir hodisa yuz berdi – Kiti Vronskiy bilan uchrashdi.

Kitini cho'qintirgan, uni hamisha yaxshi ko'rib kelgan qari knyaginya Marya Borisovna Kitini ko'rgisi kelib qoldi. Kiti yukli bo'lganidan hech qayoqqa chiqmay qo'ygan edi; shunday bo'lsa ham otasi bilan birga hurmatli kampirni ko'rgani borib, u yerda Vronskiy bilan uchrashib qoldi.

Kiti bu uchrashish paytida bir vaqtlar o'ziga shu qadar tanish bo'lgan odamni grajdan kiyimida ko'rib taniganda, nafasi bo'g'ziga tiqilib, yuragi dukirlay boshlagani, yuzi loladay qizarib ketgani uchun o'zidan o'pka qilishi mumkin edi. Lekin bu narsalarning hammasi faqat bir necha soniyagina davom qildi. Vronskiy bilan jo'rttaga baland ovozda gaplashayotgan otasi gapini tugatmasdanoq, Kiti Vronskiyning yuziga dadil qarashga, lozim bo'lsa, knyaginya Marya Borisovna bilan qanday gaplashsa, u bilan ham shunday gaplashishga yuragi dov beradigan darajada o'zini bosib oldi; eri shu yerda bo'lmasa ham, lekin uning ma'naviy borligini har dam sezib turardi; shuning uchun Kiti so'zlarining barcha ohangini, chehrasidagi tabassumini eri ma'qullaydigan qilib gapirishga tayyor edi.

Kiti u bilan bir necha og'iz so'zlashdi, Vronskiy saylovni hazil aralash «Bizning parlamentimiz» deb ataganda, Kiti bu hazilga hatto kulimsirab ham qo'ydi (hazilni tushunganligini bildirish uchun kulimsirashi kerak edi-da). Lekin darhol yuzini knyaginya Marya Borisovnaga o'girib oldi-yu, Vronskiy o'midan turib xayrlasha boshlaguncha u tomonga aqalli bir marta ham nazar tashlamadi; shundagina u Vronskiyga qaradi, lekin ta'zim bilan xayrlashayotgan kishiga qaramaslikni nazokatsizlik bo'ladi, deb o'ylagani uchungina qarab qo'ygani ravshan edi.

Kiti Vronskiy bilan ko'rishgani to'g'risida otasi og'iz ochmagani uchun minnatdor bo'ldi. Lekin knyaginya Marya Borisovnani ko'rib kelishganlardan so'ng, odatdag'i sayr mahalida otasining juda mehribon bo'lib qolganini, o'zidan xursand bo'lganini anglatdi. Kitining o'zi ham o'zidan mamnun edi. U Vronskiyga bo'lgan eski

hislarining butun xotiralarini qalbining chuqur bir yerida to'xtatib, sir boy bermaslik, zohiran emas, haqiqatda ham unga nisbatan beparvo, vazmin bo'lish uchun o'zida shunchalik kuch topishiga ishonchi komil emas edi.

Kiti knyaginya Marya Borisovnanikida Vronskiy bilan ko'rishganini aytganda, Levin undan battarraq qizarib ketdi. Buni eriga aytish qanchalik qiyin bo'lган bo'lsa, bu ko'rishish tafsilotini hikoya qilish besh battar qiyin bo'ldi, chunki Levin unga hech qanday savol bermay, faqat qovoqlarini solib yuziga qarab turardi.

— Sening u yerda yo'qligingga juda achindim, — dedi Kiti. — O'sha xonada bo'lмаганинга emas... Sen bo'lsang, men o'zimni bu qadar tabiiy tutolmasdim... Men hozir yana ham ko'proq qizaryapman, yana ham ko'proq, — derdi Kiti yig'laguday qizarib. — Tirqishdan qarab turganingga qizarmaganimni ko'rgan bo'larding.

Uning rostgo'y ko'zлari Kitining o'zidan mamnun ekanligini aytib turardi, shuning uchun Kiti qizarib-bo'zarib turganiga qaramay, Levin darhol ko'ngli joyiga tushib savollar bera boshladi; Kiti ham xuddi shu savollarga muntazir edi. Hamma narsani hatto Kitining dastlabki daqiqada qizarmasdan qololmaganini, keyin esa Vronskiyga birinchi marta uchrashgan odamga qanday muomala qilsa, u bilan ham shunday sodda, yengil muomala qilganini Levin ikir-chikirlarigacha bilgandan keyin ta'bi yorug' bo'lib, bundan nihoyatda xursand ekanligini, minba'd saylovdagi singari ahmoqona qiliqlar qilmasligini, balki Vronskiy bilan birinchi uchrashgandayoq unga do'stlarcha muomalada bo'lishga harakat qilishini aytdi.

— Dushmaning borligini, u bilan ko'rishish naqadar og'ir ekanligini o'ylasang, odam shuncha qattiq aziyat chekadi. Lekin men juda xursand bo'ldim, juda, — dedi Levin.

II

Levin soat o'n birlarda uyidan ketmasdan avval Kitining yoniga kirgan edi, u eriga:

— Shunday qil, albatta, Bollarnikiga kir, — dedi. — Klubda ovqat qilishingni bilaman, otam seni u yerga yozdirib qo'ygan. Erta bilan nima qilasan?

— Faqat Katavasovlarnikiga kirib chiqaman, — deb javob berdi Levin.

- Nega muncha erta bormasang?
 - Meni Metrov bilan tanishtirib qo'yaman deb va'da qilgan edi. Men kitobim to'g'risida u bilan gaplashib olmoqchi edim; Metrov peterburglik mashhur olimlardan, – dedi Levin.
 - Ha, maqolasini maqtagan oliming shumi? Xo'sh, keyin nima qilasan?
 - Ehtimol, opamning ishi bilan sudga ham borsam.
 - Konsertga-chi? – deb so'radi Kiti.
 - Bir o'zim borib nima qilaman!
 - Yo'q, boraver, yangi narsalar chalisharmish... Seni juda qiziqtirardi-ku. Sening o'rningda men bo'lsam, jon deb borardim.
 - Har holda, ovqatdan oldin uyga kirib chiqaman, – dedi Levin soatiga qarab.
 - Syurtugingni kiyib ol, to'g'ri grafinya Bollarnikiga borasan.
 - Ey, albatta, borishim zarurmi?
 - Ax, albatta! Eri biznikiga kelgan axir! Borsang, bir nima bo'lib qolasanmi? Kirasan, biroz o'tirasan, besh daqiqacha bodi-havodon gaplashasan, keyin turib chiqib ketasan.
 - Ey, aytam gapimga ishonmaysan-da, men ulardan shuncha begonalashib ketganmanki, kirishga uyalaman. Bir yot odam kirsa, hech qanaqa ishi bo'lmasa, xalaqt bersa, o'zining ham ta'bini xira qilsa-yu, indamay chiqib ketsa. Bu qanday bo'ladi axir?
- Kiti kulib yubordi.
- Axir bo'ydoqligingda borib turmasmidng?
 - Borib turardim, lekin hamisha xijolat tortardim, endi bo'lsa shunchalik begonalashib ketganmanki, xudo haqi, ularnikiga kirishdan ko'ra, ikki kun ovqat qilmaganim afzal. Shunchalik xijolat tortaman! Nazarimda, ular xafa bo'lishhib: «Ishing-ku yo'q ekan, nima qilib kelding?» deyishadiganday ko'rindi.
 - Yo'q, xafa bo'lishmaydi. Bu yog'iga men kafilman, – dedi Kiti kula-kula yuziga qarab. Keyin qo'lidan ushladi.
 - Xayr, yaxshi bor... Albatta, kirib o't.
 - U xotinini qo'lidan o'pib endi ketmoqchi bo'lib turgan edi, Kiti to'xtatib qoldi.
 - Kostya, xabaring bormi, menda faqat ellik so'm pul qolgan-a! Levin Kitiga tanish bo'lgan norozilik ohangi bilan:

– Xo‘p bo‘lmasa, kirib bankadan olaman. Qancha olay? – deb so‘radi.

– Yo‘q, shoshma, – dedi Kiti uni qo‘lidan ushlab. – Bu narsa meni xavotirga solib qo‘ydi, gaplashib olaylik. Nazarimda, beo‘rin sarf-xarajat qilayotganim yo‘g‘-u, lekin pul suvday oqib ketyapti. Yo evini qilolmayotibmizmikan?

Levin yo‘taldi, keyin yer ostidan Kitiga qarab turib:

– Yo‘g‘-e! – dedi.

Kiti bu yo‘talishning ma’nosini bilardi. Bu Kitidan emas, o‘zidan juda qattiq norozi ekanligini ko‘rsatadigan bir alomat edi; lekin pul xarajat qilinayotganidan emas, yo‘q, bu masalada ishi pachavaligini bilib, buni unutish harakatida yurganda yana esga solganlari uchun norozi edi.

– Sokolovga bug‘doyni sotib, tegirmonning pulini oldindan olgin, deb tayinlaganman. Har holda pul bo‘ladi.

– Yo‘q, men umuman pulni ko‘p xarjlab yuborayotganimizdan qo‘rqtyapman...

– Yo‘g‘-e, yo‘g‘-e, – deb takrorladi Levin. – Xayr, yaxshi qol, jonginam.

– Yo‘q, rosti, oyimlarning gaplariga kirganim uchun ba’zan afsuslanaman. Qishloqda qolsak, qanday yaxshi bo‘lardi! Mana endi hammangizni qiynab qo‘ydim, pulni ham ko‘p xarj qilib yuboryapmiz...

– Yo‘g‘-e, yo‘g‘-e. Uylanganimdan beri biror marta unday emas, bunday qilsam tuzuk bo‘lardi, deb hech aytganim yo‘q...

Kiti uning ko‘zlari ichiga tikilib turib:

– Rostmi? – deb so‘radi.

Levin bu so‘zlarni o‘ylab emas, faqat Kitini yupatish uchun aytgan edi. Lekin unga qarab, bu rostgo‘y dilbar ko‘zlarning o‘ziga savol nazari bilan tikilib turganini ko‘rdi-yu, endi o‘sha so‘zlarni butun qalbi bilan takrorladi. «Men Kitini tamoman esdan chiqaryapman», – deb o‘yladi-da, shu yaqin orada yuz beradigan hodisani esladi.

Levin uning har ikkala qo‘lini baravariga ushlab:

– Yaqin qoldimi? Sen qanday o‘ylaysan? – deb pichirladi.

– Bu to‘g‘rida shuncha ko‘p o‘yladimki, endi o‘ylamayoq qo‘ydim, qachonligini bilmayman.

- Qo‘rqmayapsanmi?
- Kiti istehzo aralash kulimsiradi.
- Zarracha ham.
- Bir gap bo‘lib qolsa, men Katavasovlarnikida bo‘laman.
- Yo‘q, hech nima bo‘lmaydi, o‘ylama ham. Dadam bilan xiyobonga chiqib, aylanib kelaman. Dollinikiga kiramiz. Ovqat oldidan seni kutib o‘tiraman. Ha-ya! Xabaring bormi, Dollining ahvoli juda yomonlashib boryapti? Qarzga botib o‘tiribdi. To‘lay desa puli yo‘q. Kecha oyimlar, Arseniy (opasi Lvovaning erini shunday deb atardi) uchalamiz o‘tirib shu haqda gaplashdik-da, Arseniy bilan seni Stivaning ko‘zini ochib qo‘ygani yuboradigan bo‘ldik. Juda yomon bo‘lib ketyapti. Bu gapdan dadamga og‘iz ham ochib bo‘lmaydi... Agar sen bilan u...
- Qiziq-ku, biz nima qila olamiz? – dedi Levin.
- Har holda Arseniyning oldiga borasan-ku; nima gapga to‘xtaganimizni u senga aytib beradi.
- Xo‘p, oldindanoq aytib qo‘yay: Arseniy nima desa men roziman. Bo‘pti, ularnikiga kiraman. Ha, aytgandek, mabodo konsertga boradigan bo‘lsam, Natali bilan boraman. Xayr endi, yaxshi qol.
- U bo‘ydoqligidan beri xizmat qilib kelgan, hozir esa shahardagi ro‘zg‘origa qarab yurgan qari Kuzma ko‘cha eshigining zinapoyasida Levinni to‘xtatdi.
- Mohruyni (qishloqdan keltirilib, aravaning chap tomoniga qo‘sib keltingan ot ismi) taqalashgan edi, lekin hali ham oqsayapti, – dedi chol. – Nima qilaylik?
- Qishloqdan keltirilgan otlar dastlabki kunlarda Levinni Moskvada ancha o‘ylatib qo‘ydi. U ot-ulov xarajatini mumkin qadar arzonroq tushirmoqchi bo‘lgan edi, ammo o‘zining otlari kirakash otlaridan qimmatga tushib ketdi, yana buning ustiga izvosh kira qilishga ham to‘g‘ri kelardi.
- Bor, yot tabibiga odam yuborishsin, balki bichilib qolgandir.
- Unday bo‘lsa, Katerina Aleksandrovna boradigan karetaga qaysisini qo‘saylik? – deb so‘radi Kuzma.
- Vozdvijenkadan Sivtsev Vrajskkacha og‘ir karetaga ikkita kuchli ot qo‘sish, bu karetani qor bosgan yo‘ldan chorak chaqirim joygacha sudratib olib borgandan so‘ng ko‘chada to‘rt soat to‘xtatib qo‘yish, buning uchun besh so‘m to‘lash hozir Levinni Moskvaga ko‘chib

tushgan dastlabki kunlaridagi singari hayratga solmasdi. Endi bu narsa tabiiy ko‘rinardi.

— Izvoshchiga ayt, bizning karetamizga ikkita ot keltirib qo‘sishsin, — dedi Levin.

— Xo‘p bo‘ladi.

Qishloqdan anchagina mehnat va harakat talab qiladigan mushkulotni shahar hayotining sharofati bilan shu tariqa oson hal qilgandan so‘ng, Levin ko‘chaga chiqdi-yu, izvosh chaqirgach, Nikitskaya ko‘chasiga qarab ketdi. Yo‘lda ortiq pul masalasini o‘ylamadi, sotsiologiya fanlari bilan shug‘ullanuvchi peterburglik olim bilan qanday tanishish, o‘z kitobi haqida u bilan qanday gaplashish to‘g‘risida o‘ylab bordi.

Qishloq ahliga g‘alati ko‘ringan, har tomondan chiqib kelaveradigan samarasiz, lekin zarur sarf-xarajatlar Levinni Moskvadagi faqat dastlabki kunlaridagina hayratga solardi. Endi esa bu xil xarajatlarga ortiq o‘rganib qolgan edi. Bu xarajatlarga u ham, odamlar aytganidek, aroqxo‘rlar aroqqa o‘rgangani singari o‘rganib qoldi. Birinchi qadah tomog‘ini kuydirib o‘tdi, ikkinchi qadah bir oz yengil ketdi, uchinchini qadah esa bamisoli bodom yog‘idek, tomog‘idan silliq o‘taverdi. Levin lakeyi bilan shveytsariga zarbof kiyim olish uchun birinchi yuz so‘mligini maydalaganda, hech kimga zarurati bo‘lman, ammo buning zarurati yo‘qligini ishora qilganda knyaginya bilan Kitining ajablanayotganlariga qaraganda, mutlaqo zarur bo‘lgan bu zarbof kiyim — yoz bo‘yi ishlatiladigan ikkita mardikor haqiga, ya’ni muqaddas haftadan to ro‘za kunlarigacha qilinadigan qariyb uch yuz mehnat kuniga, shunda ham tong yorishmay qosh qorayguncha qilinadigan og‘ir mehnat kuniga baravar ekanligini beixtiyor ko‘z o‘ngiga keltirdi, — shuning uchun bu yuz so‘mlik qog‘oz tomog‘ini kuydirib o‘tdi. Lekin qarindoshlariga beriladigan ziyofatga yigirma sakkiz so‘mlik oziq-ovqat sotib olish uchun mayda qilingan ikkinchi yuz so‘mlik esa garchi undan sarf qilingan bu yigirma sakkiz so‘m — terga pishib, inqillab-sinqillab o‘rishgan, bog‘lashgan, yanchishgan, shopirishgan, so‘ngra omborga keltirib to‘kishgan to‘qqiz chorak suliga baravar ekanligini xotiriga salsa ham, tomog‘idan har holda osongina o‘tib ketdi. Endi mayda qilinayotgan yuz so‘mliklar esa qachonlardan beri uni bu xil o‘ylarga tushirmas, bamisoli mayda

qushlarday qo‘lidan uchib chiqib ketaverdi. Pulni qo‘lga kirgizish uchun to‘kilgan mehnat shu pulga sotib olinayotgan narsalar bergen shukuh va halovatga munosibmidi-yo‘qmi, bu xil mulohazalar qachonlari ko‘ngliga kelmas edi. Ma’lum miqdordagi g‘allani ma’lum narxdan pastga sotib bo‘lmasligi to‘g‘risidagi xo‘jalik qoidalari ham esidan chiqib ketgan edi. Ko‘p vaqtlardan beri arzonga sotmay kelayotgan javdarisi bir oy bundan oldin berilgan narxdan choragiga yarim so‘mdan arzonga ketdi. Xarajat shunday bo‘lgandan keyin qarz olmay bir yil ham yashab bo‘lmasligi to‘g‘risidagi mulohazalar ham allaqachon ahamiyatini yo‘qotib qo‘yan edi. Faqat bir narsa – ertaga mol go‘shti sotib olishga naqd puli bo‘lishi uchun bankada pul saqlash, bu pullarning qaerdan kelayotganini surishtirmaslik kerak edi. U shu kungacha bu talablarga rioya qilib keldi: bankada hamisha puli bor edi. Ammo hozir bankada puli tugadi, endi qayerdan pul olishni bilmay qoldi. Kiti pul masalasini esiga solganda, Levinning ta‘bi xuddi shu vajhdan biroz xira bo‘lgan edi, ammo buni o‘ylab o‘tirishga vaqtি yo‘q edi, chunki u hozir Katavasovni, so‘ngra Metrov bilan tanishishni o‘ylab borardi.

III

Levin bu safargi Moskvaga kelishidan universitetda birga o‘qigan eski o‘rtog‘i professor Katavasov bilan yana ham ko‘proq yaqinlashib oldi; uylangandan beri u bilan ko‘rishmagan edi. Katavasov o‘z dunyoqarashining ravshanligi va soddaligi bilan Levinga yoqardi. Levin Katavasovning dunyoqarashidagi ravshanlikni tabiatning cheklanganligidan deb o‘ylasa, Katavasov Levin fikrlaridagi qaramaqshilikni aqliy intizomsizlikdan deb o‘ylardi; shunday bo‘lsa ham, Katavasovning dunyoqarashidagi ravshanlik Levinga, Levin tafakkuridagi intizomsizlikning ko‘pligi Katavasovga manzur edi, shu vajhdan tez-tez uchrashib, munozara qilib turishni yaxshi ko‘rishi.

Levin o‘z asarining ba’zi yerlarini o‘qib bergen edi – Katavasovga yoqdi. Kecha Katavasov Levinni xalq oldida o‘qilgan ma’ruzada uchratib, maqolasi Levinga juda ham manzur bo‘lgan mashhur Metrov hozir Moskvada ekanligini, Levinning asaridan og‘iz ochganda, Metrov juda qiziqqanini, Metrov ertaga soat o‘n birda o‘zinikiga kelishini, Levin bilan tanishish orzusida ekanini aytgan edi.

Katavasov Levinni kichik mehmonxonasida kutib olib:

– Kun sayin tuzalib boryapsiz, otam, xo'sh ko'rdik, – dedi. – Qo'ng'iroq jiringini eshitib, o'zimcha o'ylanib qoldim: nahotki vaqtida... xo'sh, qaratog'liliklar to'g'risida nima deysiz? Tabiatlari jangarimi?

– Nima bo'pti? – deb so'radi Levin.

Katavasov so'nggi xabarlarni bir necha og'iz so'z bilan aytib bergandan so'ng kabinetga kirib, Levinni o'rta bo'y, g'o'labir, istarasi issiq bir kishi bilan tanishtirdi. Metrov shu kishi edi. Biroz siyosatdan va Peterburgdagi olimaqom doiralarning so'nggi voqealarga qanday qarashlaridan gap ketdi. Metrov ishonchli manbalardan o'ziga ma'lum bo'lgan so'zlarni aytib berdi, bu so'zlarni shu munosabat bilan podsho va ministrlardan biri aytgan emish. Katavasov bo'lsa podshoning butunlay boshqa so'z aytganini eshitibdi, bu ham ishonchli gap emish. Levin u gapning ham, bu gapning ham aytlishi mumkin bo'lgan bir vaziyatni o'ylab topishga harakat qildi; oqibat, gap shu bilan tamom bo'ldi.

– Mana, mardikorning yerga bo'lgan munosabatidagi tabiiy shartlar to'g'risida butun boshli bir kitob yozib qo'yayozdi, – dedi Katavasov. – Men mutaxassis emasman, lekin shunday bo'lsa ham, insoniyatga hayvonot qonunlaridan tashqarida, o'ziga xos bir narsa deb qaramaydi, balki, aksincha, uning muhitga bog'liq ekanligini isbot qiladi va taraqqiyot qonunlarini shu borliqdan axtaradi; kamina bir tabiatshunos bo'lgani uchun bu narsa menga juda manzur bo'ldi.

– Bu juda qiziq narsa, – dedi Metrov.

Levin qizarib:

– Aslida, qishloq xo'jaligi haqida kitob yoza boshlagan edim, lekin qishloq xo'jaligining asosiy quroli bo'lgan ishchi kuchi masalasiga beixtiyor berilib ketib, tamoman kutilmagan xulosalarga kelib qoldim, – dedi.

Shundan keyin Levin oyoqlari ostidagi yerga avaylab qadam bosayotgandek, o'z nuqtai nazarini ehtiyyot bilan izoh qila ketdi. Levin Metrovning hammaga maqbul bo'lgan siyosiy-iqtisod ta'limiga qarshi maqola yozganini bilsa ham, ammo o'zining yangi qarashlariga Metrov qaysi darajada xayrixoh bo'la olishini bilmas, buni olimning ma'noli, xotirjam chehrasidan aniqlay ham olmasdi.

– Lekin rus mardikorining o'ziga xos sifatlari nimada deb o'ylaysiz? – deb so'radi Metrov. – Nima desam bo'ladi, ya'ni zoologik sifatlaridami yoki yashab turgan sharoitdam?

Levin bu savoldan uning o‘z fikrlariga qo‘silmaganligini payqadi; shunday bo‘lsa ham yana o‘z fikrini izoh qila ketdi; uning fikricha, rus mardikorining yerga qarashi, munosabati boshqa xalqlarnikidan butunlay o‘zgacha edi. Bu ahvolni isbot qilish uchun, uning fikricha, rus xalqi sharqda foydalanmay yotilgan poyonsiz yerlarni ishga solishni o‘z zimmasidagi burchi ekanini anglashdan kelib chiqqan, deb aytishga shoshildi.

– Xalqning umumiy burchi haqida xulosa chiqaraman deb xatoga ketib qolish hech gap emas, – dedi Metrov Levinning so‘zini bo‘lib.

– Mardikorning ahvoli hamisha uning yerga va sarmoyaga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq.

Metrov Levinning o‘z fikrini isbot etishiga yo‘l bermay, o‘z ta’limotining xususiyatlarini tushuntira ketdi.

Ta’limotining xususiyati nimadan iboratligini Levin tushunmadı, chunki tushunishga urinib ham o‘tirmadi. Metrovning ham maqolasida iqtisodshunoslarning ta’limotini rad qilganiga qaramay, boshqalar singari rus mardikorining ahvoliga faqat sarmoya, ish haqi va renta nuqtai nazaridangina qarayotganini ko‘rib turardi. Rossiyaning eng katta qismi bo‘lgan sharqda rentaning hali nol darajada ekanini, sakson millionli rus aholisining o‘ndan to‘qqizi oladigan ish haqi faqat o‘zlarinigina boqishga ketayotganini, sarmoyaning hali eng ibtidoiy qurollardangina iborat ekanini iqror qilishga majbur bo‘lsa ham, iqtisodshunoslar bilan ko‘p masalalarda kelisholmasa ham, ish haqi to‘g‘risida yangi nazariyasi bo‘lsa ham, buni hozir Levinga tushuntirayotgan edi, yana har bir mardikorga faqat yuqoridagi nuqtai nazar bilangina qarardi.

Levin behafsalalik bilan quloq solib, avval e’tiroz qilib o‘tirdi. U o‘z fikrini aytish uchun Metrovning so‘zini bo‘lmoqchi ham bo‘ldi, chunki Levinning xayolicha, o‘zining bu fikri Metrovning bundan keyingi izohlariga xotima berishi kerak edi. Ammo o‘zlarining masalaga tamoman boshqa-boshqa nuqtai nazar bilan qaraganlariga va bir-birlarining muddaolariga hech qachon tushuna olmasliklariga qanoat hosil etgandan keyin ortiq e’tiroz qilmay, faqat quloq solibgina o‘tirdi. Endi Metrovning so‘zлari o‘zini mutlaqo qiziqtirmay qo‘ydi; shunday bo‘lsa ham Levin uning so‘zlarini eshitib, ozmi-ko‘pmi huzur qilib o‘tirdi. Shunday bir olim odam Levinning bu borada yaxshi ma’lumoti borligiga katta e’tibor va ishonch bilan qaraganidan, ba‘zan

bu mavzuning katta-katta sohalarini birgina ishora bilan ko'rsatib o'tib, o'z fikrlarini shu qadar ishtiyoy bilan so'zlardiki, bu hol Levinning izzati nafsi qanoatlantirib borardi. Metrovning bu masalada o'z yaqinlarining hammasi bilan allaqachon gaplashib bo'lib, endi yangi uchragan har bir odam bilan bu haqda bajonidil gaplashganini, umuman, hali o'ziga ham uncha ravshan bo'limgan, ammo fikr-u zikrini band qilgan bu masala to'g'risida hamma bilan bahuzur gaplashib yurganini bilmay, Levin buni o'z layoqatiga bir sharaf deb o'yaldi.

Metrov izohlarini bitirar-bitirmas Katavasov soatiga qarab:

– Kechikyapmiz-da, – dedi.

Katavasov Levinning savoliga javob berib:

– Ha, bugun Svintichning ellik yillik yubileyi munosabati bilan havaskorlar jamiyatining majlisi bo'ladi, – dedi. – Pyotr Ivanovich bilan bormoqchi edik. Men uning zoologiyaga oid asarlari haqida so'zlab berishga va'da qilgan edim. Birga boraylik, juda qiziq bo'ladi.

– Ha, haqiqatan ham vaqtি bo'libdi, – dedi Metrov. – Birga boraylik, agar xohlasangiz, u yerdan to'g'ri biznikiga ketamiz. Asaringizni eshitishga juda havasmandman.

– Yo'g'-e. Hali asar bitganicha yo'q. Majlisga, mayli, jon deb boraman.

Katavasov narigi xonada fragini kiyib turib:

– Eshitdingalmi? Alovida fikr bayon qildim, – dedi.

Shunday qilib, universitet masalasidan gap chiqib ketdi.

Universitet masalasi shu yil qishda Moskvadagi juda muhim hodisalardan biri bo'ldi. Uchta keksa professor ilmiy kengashda yoshlarning fikrlarini qabul qilishmagan edi; shundan keyin yoshlar alovida fikr bayon qilishdi. Ba'zi bir xillarning tushunchasicha esa eng sodda, eng adolatli fikr edi; shu vajhdan professorlar ikki to'daga bo'linib ketishdi.

Katavasov mansub bo'lган to'da qarshi to'dani ayg'oqchilik va yolg'onchilikda ayblardi; u to'da bo'lsa bunisini bolalikda, nufuzli zotlarga hurmatsizlikda ayblardi. Levin universitetga aloqador bo'lmasa hamki, o'zi Moskvada ekanidan beri bu gapni bir necha marta eshitgan, o'zi ham fikrini aytgan, bu haqda bir xulosaga kelib qo'ygan edi; uchovlari eski universitet binosiga yetgunlaricha davom etgan bu suhbatga Levin qatnashib bordi.

Majlis boshlangan edi. Katavasov bilan Metrov ustiga movut yopilgan stol yoniga borib o'tirishdi, bulardan boshqa yana olti kishi bor edi; bir kishi qo'lyozma ustiga engashib olib, bir nimalar o'qirdi. Levin stol chetidagi bo'sh stullardan biriga o'tirib, yonida joylashgan bir studentdan nima o'qilayotganini pichirlab so'radi. Student Levinga norozi bir ko'z bilan qarab:

– Tarjimai hol, – dedi.

Olimning tarjimai holi Levinni qiziqtirmasa ham, beixtiyor quloq solib o'tirib, mashhur olimning hayoti haqida ba'zi qiziq, yangi narsalarni bilib oldi.

Qo'lyozma o'qib bo'lingandan keyin majlis raisi uni o'qib eshittirgan kishiga tashakkur izhor qildi; keyin shu yubiley munosabati bilan shoir Ment yozib yuborgan she'rni o'qib berib, shoir sha'niga bir necha og'iz so'z bilan minnatdorchilik bildirdi. Ana shundan so'ng Katavasov o'zining baland, chinqiroq tovushi bilan yubilyarning ilmiy asarlari to'g'risida yozgan ma'ruzasini o'qib eshittirdi.

Katavasov o'qishni tugatganda, Levin soatiga qarab, vaqt birdan oshganini ko'rди-yu, konsert boshlangunga qadar asarimni Metrovga o'qib bergani ulgurmeyman, deb o'ylanib qoldi; bundan tashqari, hozir o'qib berishga ishtiyooqi ham qolmagan edi. Ma'ruza o'qilib turilgan paytda ham Levin hamon boyagi gaplarni o'ylab o'tirdi. Metrovning fikrlarida ma'no bo'lsa bo'lgandir, ammo o'z fikrlarining ham ahamiyati borligi endi o'ziga ravshan bo'ldi; ular tanlab olgan sohalarda mustaqil ishlaganlaridagina bu fikrlar oydinlashishi va biron xulosaga keltirishi mumkin; ammo bu fikrlar birlashguday bo'lsa, bundan hech narsa chiqmasligi aniq edi. Shuning uchun Levin Metrov taklifidan voz kechishga qaror qilib, majlis oxirida uning yoniga bordi. Metrov rais bilan siyosat olamidagi yangiliklardan gaplashib turgan edi, Levinni rais bilan tanishtirib qo'ydi. Metrov Levinga aytgan gaplarini shu payt raisga ham aytdi, Levin ham bugun ertalab qilgan tanbeh va tazkiralarni takrorladi, ammo suhbatga rang-baranglik berish uchun hozirgina miyasiga kelgan yangi fikrlarini ham bayon qildi. Shundan keyin yana universitet masalasida gap chiqdi. Levin bu gaplarning hammasini eshitgani sababli Metrov taklifidan istifoda etolmagani uchun afsus yeb qolganini shoshib-pishib aytdi-yu, u bilan bosh egib xayrashgandan so'ng Lvovlarnikiga jo'nab ketdi.

IV

Kitining opasi Nataliga uylangan Lvov butun umrini poytaxtlarda va chet ellarda o'tkazgan, o'sha yerlarda tarbiya olib, o'sha ellarda diplomatik vazifalarни bajarib kelgan bir kishi edi.

Bultur diplomatlik sohasidagi xizmatini tashlab (biron dilsiyohlik orqasidan emas, u hech kim bilan hech mahal aytishib qolmagan edi), ikkita o'g'liga yaxshiroq tarbiya berish maqsadida Moskvadagi saroy mahkamalarining biriga xizmatga kirgan edi.

Urf-odatlari va dunyoqarashlarida keskin ziddiyat borligiga hamda Lvovning yoshi Levinnikidan kattaligiga qaramay, ular shu qish juda qalinlashib, bir-birini yaxshi ko'rib qolishgan edi.

Lvov uyda ekan, shuning uchun Levin xabar qilmasdanoq to'g'ri uya kirib kelaverdi.

Lvov egnida kamarli uy syurtugi, oyoqlarida yumshoq botinka, ko'zlarida ko'k pince-nez bilan keng kursida pyupitr ustiga qo'yilgan bir kitobni o'qib o'tirar, yarmigacha yonib kul bo'lган sigarasini chiroyli qo'lida ehtiyyot bilan nari tutib turardi.

Kumush rangli yaltiroq jingalak sochlari chiroyli, nozik va hali yosh chehrasining husniga husn qo'shar edi. Levinni ko'rganda uning chehrasi yorishib ketdi.

— Juda soz! O'zim odam yuboray deb turuvdim. Xo'sh, Kiti qalay? Mana bu yerga o'tiring, tinchroq... — O'midan turib, belanchak kursini Levinga surdi. — «Journal de st. Petersbourg»da chiqqan so'nggi tsirkulyarni o'qidingizmi? Meningcha, juda ajoyib, — dedi fransuzlardek boshqacha talaffuz bilan.

Levin Katavasovdan eshitgan Peterburg mish-mishlarini aytib, siyosatdan biroz gaplashgandan so'ng Metrov bilan tanishganini, majlisga borganini hikoya qilib berdi. Bu gaplar Lvovni juda qiziqtirdi.

— Siz bu ajoyib olimlar bilan bordi-keldi qilib turasiz, men shuningizga hasad qilaman, — dedi Lvov. Keyin gapga kirishib ketib, odaticha o'zi uchun qulayroq bo'lган fransuz tiliga darhol o'tib oldi. — To'g'ri, mening vaqtim yo'q. Qilib turgan xizmatim ham, bolalar bilan mashg'ulligim ham meni bu narsadan mahrum etadi; yana tortinmay aytsam: ma'lumotim ham juda kam.

— Men bunday deb o'ylamayman, — dedi Levin kulimsirab. Lvovning o'zini kamtar qilib ko'rsatish yoki chindan ham kamtar

bo‘lish niyati borligi uchun emas, balki o‘zi haqida chindan ham shunday fikrda bo‘lgani Levinni har vaqtdagiday eritib yubordi.

– Yo‘q, xuddi shunaqa! Ma’lumotimning naqadar kamligini hozir sezib qoldim. Bolalarimni tarbiya qilish uchun hatto ko‘pgina narsalarni yana esga olishim, sodda qilib aytganda, yodlashim kerak. Chunki birgina muallim kifoyat qilmaydi, balki sizning xo‘jaligingizda mardikorlar va ular ustidan nazoratchi kerak bo‘lganidek, bolalarga ham ko‘z-quloq bo‘lib turadigan bitta odam kerak. – U Buslayevning pyupitr ustida yotgan grammatikasini ko‘rsatdi. – Mana bu kitobni o‘qiyapman, buni Mishadan suvday bilishni talab qilishadi, holbuki bu juda-juda qiyin narsa... Qani, menga tushuntirib bering. U mana bu yerda...

Levin buni tushunib bo‘lmasligini, balki yodlash kerakligini uqtirmoqchi bo‘lgan edi, Lvov uning fikriga qo‘silmadi.

– Ko‘rdingizmi, siz shu narsada mendan kulyapsiz.

– Aksincha, men sizga qarab, kelajakda qilinadigan narsalarni, ya’ni bolalar tarbiyasini har vaqt sizdan o‘rganib kelaman, siz buni tasavvur etmaysiz-da.

– Oling-a, o‘rganadigan nima ham bor edi.

– Men faqat shuni bilamanki, – dedi Levin, – sizning bolalaringizdan yaxshiroq tarbiya ko‘rgan bolalarni hali ko‘rgan emasman, shuning uchun siznikidan afzalroq bolalarni orzu qilolmayman.

Lvov xursandligini bildirmaslikka tirishib ko‘rdi, lekin bo‘lmadi, yuzi tabassum bilan yorishib ketdi.

– Menikidan yaxshiroq bo‘lishsin. Mening birdan-bir tilagim shu. Mening o‘g‘illarim singari chet elda yashab, qarovsiz qolgan bolalar tarbiyasiga qanchalik mehnat sarf qilinganini siz hali bilmaysiz, – deb Lvov so‘z boshladi.

– Yo‘lga solib olasiz. Bolalaringiz juda qobiliyatli. Eng muhim – axloq tarbiyasi. Bolalaringizga qaraganimda, ulardan xuddi shu narsani o‘rganaman.

– Siz axloq tarbiyasidan gapirasiz. Bu narsaning nechog‘lik qiyinligini ko‘z oldiga keltirib bo‘lmaydi! Bir tomonini ne-ne azob bilan tuzatsangiz, boshqa tomoni ko‘ndalang bo‘ladi, yana kurash boshlanadi. Agar dinning yordami bo‘lmasa, – esingizdami, biz bu haqda gaplashgan edik, – dinning bu sohadagi yordami bo‘lmasa, hech bir ota faqat o‘z kuchi bilan bolalarini tarbiya qila olmasdi.

Levinni hamma vaqt qiziqtirib kelgan bu suhbat shaharga chiqish uchun kiyinib olgan go‘zal Natalya Aleksandrovnaning kirishi bilan bo‘lindi.

Natalya Aleksandrovna o‘ziga ko‘pdan ma’lum bo‘lgan bu dilkun suhbatni bo‘lib qo‘yaniga zarracha ham xafa bo‘lmay, aksincha, xursand bo‘lganday:

— Voy, shu yerdaligingizni bilmabman ham, — dedi. — Xo‘s, Kiti qalay? Bugun sizlarnikida ovqat qilaman. — Keyin eriga qarab gapirdi: — Menga qara, Arseniy, karetani sen olasan...

Shundan keyin bugungi kunni qanday o‘tkazish masalasi er-u xotin o‘rtasida muhokama qilina boshlandi. Eri o‘zi bilan birga ishlaydigan allakimni kutgani, xotini esa konsertga, so‘ngra janubi-sharq qo‘mitasining umumiy majlisiga borishi lozim bo‘lgani uchun ko‘pgina masalani hal qilish, o‘ylab olish kerak edi. Levin yaqin odam bo‘lgani tufayli bu reja muhokamasida qatnashishi lozim bo‘ldi. Shunday qarorga kelindi: Levin Natalya bilan konsertga, keyin umumiy majlisga boradi; Arseniyni olib kelish uchun karetani u yerdan idorasiga yuborishadi. Arseniy esa yana shu yerga kelib, Natalyani Kitinikiga eltilib qo‘yadigan bo‘ldi; yoki Arseniy mabodo ishini tugatolmasa, karetani qaytarib yuboradi, bu taqdirda Levin Natalya bilan birga ketadi.

— Bu meni yo‘ldan uryapti, — dedi Lvov xotiniga, — bolalarimizni juda ajoyib bolalar deb qulog‘imga quyyapti, holbuki yomon tomonlari ko‘pligini o‘zim bilaman.

— Arseniy haddan oshirib yuboradi, men hamisha aytaman, — dedi Natalya. — Kamolat axtaradigan bo‘lsang, hech qachon ko‘ngling to‘lmaydi. Bizlarni tarbiya qilishda bitta narsani haddidan oshirib yuborganmiz, deb dadam to‘g‘ri aytganlar: bizni ikkinchi qavatdagi pastakkina hujrada asrashib, ota-onamiz pastda turishgan; endi esa teskarisi bo‘lyapti: ota-onalar qaznoqda-yu, bolalar yasadoqda. Endi ota-onalar o‘zlarini o‘ylamasdan, nuql bolalarini o‘ylashlari kerak.

Lvov o‘zining chiroyli tabassumi bilan jilmaydi-da, xotinining qo‘liga qo‘lini tegizib:

— Shunisi yoqsa nima qilaylik? — dedi. — Bilmaganlar seni bolalarning o‘z onasi emas, o‘gay onasi deb o‘ylaydi.

Natali erining kitob varaqlarini kesadigan pichog‘ini tayinli joyga qo‘yib turib:

– Yo‘q, haddidan oshirib yuborilgan narsaning hech qanaqa xosiyati bo‘lmaydi, – dedi vazmingina.

– Ana xolos, qani, bu yoqqa kelinglar, mening komil o‘g‘illarim, – dedi Arseniy ichkariga kirib, Levinga ta’zim qilishgandan so‘ng o‘zi tomon kelayotgan chirolyi o‘g‘illariga; bular otalaridan bir nima so‘ramoqchiday ko‘rinishardi.

Levin bolalar bilan gaplashgisi, otalariga nima deyishlarini eshitgisi kelib turganda, Natali ularni gapga solib qoldi, buning ustiga, Lvovning xizmatdoshi Maxotin ham ichkari kirib keldi; Maxotin Lvov bilan allakimni kutib olgani borish uchun saroy ahllariga xos mundir kiyib olgan edi; ana shundan keyin Gertsegovina, knyajna Korzinskaya, duma va Apraksinaning tuyqusdan o‘lib qolgani to‘g‘risida qizg‘in gap boshlanib ketdi.

Levin o‘ziga berilgan topshiriqni esidan ham chiqarib qo‘ydi. Bu topshiriqlar dahlizga chiqqandagina esiga tushdi.

Lvov zinapoyada to‘xtab, xotini bilan uni uzatayotganda, Levin:

– Eh, Kiti Oblonskiy to‘g‘risida siz bilan bir narsani gaplashib olgin, devdi-ya, – dedi.

– Ha, ha, maman biz les beaux-frees-ning¹ unga hujum qilishimizni istaydilar, – dedi Lvov ham qizarib, ham kulimsrab. – Shunisi qiziqliki, nima uchun hujum qilishim kerak?

Yoqasi oq it barrasidan bo‘lgan yengsiz paltosini kiyib olgan Lvova so‘zning oxirini poylab turib:

– Xo‘p bo‘lmasa, men hujum qilaman. Oani, ketdik, – dedi.

V

Ertalabki konsertda ikkita juda maroqli narsa chalinardi.

Bulardan biri «Qirol Lir sahroda» fantaziysi, ikkinchisi esa Bax xotirasiga bag‘ishlangan kvartet edi. Har ikkalasi yangi uslubdagi yangi asar bo‘lganidan, Levin bular to‘g‘risida o‘zicha bir fikrga kelib qo‘ymoqchi bo‘ldi. U, qaynegachisini o‘z kursisiga kuzatib qo‘ygandan so‘ng ustunlar yonida to‘xtab, iloji boricha diqqat va hafsalá bilan tinglashga ahd qildi. Levin musiqa mahalida oq galstukli kapelmeysterning odam xayolini juda yomon bo‘lib yuboradigan qo‘l harakatlariiga, qulqlarini lentalar bilan mahkam bog‘lab konsertgä keladigan shlapali xonimlarga, yo hech bir narsa bilan band bo‘limgan

¹ Bojalar (*frans.*).

yoki xilma-xil ishlar bilan band bo'lsa-da, lekin musiqa eshitishga qiziqmag'an bu yerdagi barcha shaxslarga qaramaslikka, shu bilan o'z taassurotiga putur yetkazmaslikka, xayolini bo'lmay qulq solishga tirishdi. U musiqa shinavandalari va mahmadonalar bilan uchrashishdan o'zini olib qochib, yerga tikilgan holda tik turib eshitardi.

Lekin «Qirol Lir» fantaziyasiga qancha ko'p qulq solsa, bu haqda aniqroq bir fikrga kelish imkonidan ham shuncha ko'p uzoqlashib ketayotganini sezib borardi. Hislarning musiqiy ifodasi uzlusiz bir jarayon bilan bir yerga yig'ilgandek bo'lar, lekin darhol yangi uslubdagi musiqa ifodalari jarayoni parchalarga bo'linib, ba'zan esa bastakorning injiqligidan bo'lak hech nima bilan bog'liq bo'limgan, ammo nihoyatda murakkab sadolarga aylanib ketardi. Lekin ba'zan yaxshi uyushgan bu musiqa ifodalarining parchalari ham ko'ngilga yoqmas edi, chunki bular hech qanday tayyorgarliksiz tuyqusdan amalga kelardi. Shodlik ham, qayg'u ham, g'azab ham, shafqat ham, tantana ham baayni jinni jazavasi singari hech qanday asossiz maydonga kelardi. Shuning uchun hislar ham, jinni odamniki singari tuyqusidan o'tib ketardi.

O'yinga tushayotganlarni tomosha qilayotgan kar odam nimani his qilsa, Levin ham fantaziya chalinib turgan muddatda shu narsani sezib turdi. Pesa tugaganda shuncha zo'r diqqat bilan eshitgani evaziga hech qanday huzur qilmay, juda ham charchab ketganiga hayron bo'ldi. Hamma yoqdan gulduros olqishlar eshitildi. Hamma o'midan turdi, yurib gaplasha boshladи. Levin o'z hayratini bosh-qalarning taassurotiga qarab izoh etish uchun musiqa shinavandalarini qidirgani ketdi; keyin bir mashhur musiqa shinavandasining o'z tanishi Pestsov bilan gaplashib turganini ko'rib suyundi.

– Ajoyib! – dedi Pestsov yo'g'on ovozi bilan. – Salom, Konstantin Dmitrich. Kordeliyaning yaqinlashganini, das ewig Weibliche¹ timsoli bo'lgan bir xotinning shum taqdir bilan kurasha boshlaganini tasvir qilgan joyi, ayniqla, obrazli, nima desam bo'ladi, ha, bo'rtik bo'yoqlarga boy chiqqan. Shunday emasmi?

Levin fantaziyada qirol Lir sahroda tasvir etilganini butunlay esidan chiqarib:

¹ Mangu latofat (*nems.*).

– Axir Kordeliyaning bu yerda nima daxli bor? – deb qo'rqa-pisa so'radi.

– Kordeliya keladi... mana! – dedi Pestsov qo'lidagi atlas afishani barmog'i bilan chertib; keyin afishani Levinga berdi.

Levin fantaziyaning nomini hozirgina esladi-yu, afisha orqasiga bosilgan Shekspir she'rining ruscha tarjimasini o'qib chiqdi.

Suhbatdoshi ketib qolgani uchun gaplashgani boshqa odam bo'limganidan Pestsov Levinga qarab:

– Busiz asarni tinglab bo'lmaydi, – dedi.

Tanaffus mahalida Levin bilan Pestsov o'rtasida musiqada Vagner oqimining yutuq va kamchiliklari haqida munozara boshlandi. Vagnerning ham, unga ergashuvchilarning ham xatosi shundaki, – deb Levin isbotlardi, – musiqa boshqa san'at sohasiga o'tishni xohlaydi; odam basharasini rasm san'ati chizishi kerak bo'lgan holda poeziya tasvir etib xato qilganiday gap. Levin ana shunday xatoga pedestal ustidagi shoир haykali atrofidagi ilhom ko'lankasini marmaruda yo'nish xayoliga tushgan haykaltaroshni misol qilib ko'rsatdi. «Haykaltarosh yo'yan bu ko'lankalar ko'lankaga shu qadar kam o'xshaydiki, hatto zinapoyaga yopishib olishgan», – dedi Levin. Bu gap Levinning o'ziga juda manzur bo'ldi; lekin bu gapni ilgari Pestsovga aytganmiyo'qligi esidan chiqqan edi. Shuning uchun bu so'zni aytib qo'yib, o'zi uyalib ketdi.

Pestsov bo'lsa san'atning yagonaligini, u faqat san'at xillarining hammasini birlashtirgandagina yuksak maromiga yeta olishini isbot qildi.

Levin konsertning ikkinchi qismini durustroq eshitolmadi. Pestsov uning yonida turib olib, Levinga hadeb gapirar, ortiqcha, me'daga tegadigan, soxta soddaligi uchun bu pesani qoralar, uni rassomlik san'atiga dog' tushirib kelgan yolg'onchi Rafaelparastlarning asarlari bilan taqqoslar edi. Konsertdan chiqishda Levin yana ko'pgina tanishlari bilan uchrashdi, ular bilan ham siyosatdan, musiqadan va umumiy tanishlaridan gaplashdi: bular orasida graf Bolni ham ko'rdi; unikiga borishi kerakligi Levinning butunlay xayolidan ko'tarilgan edi.

Ularnikiga borish kerakligini Lvovaga aytgan edi, u:

– Bo'lmasa, hozir bora qoling, – dedi. – Balki sizni qabul qilishmas, unda mening oldimga, majlisga keling. Siz kelguningizcha shu yerda bo'larman.

Levin grafinya Bol uyining dahliziga kirib:

– Balki qabul qilishmas? – deb so‘radi.

Shveytsar Levinning po‘stini dadil yechirib turib:

– Marhamat, qabul qflishadi, – dedi.

Levin qo‘lqoplarining birini chiqgandan so‘ng, shlapasini tuzata turib: «Obbo, juda yomon bo‘ldi-da! U yerga kirib nima ham qildim? Axir ular bilan nimani gaplashaman?» deb uh tortdi.

Levin birinchi mehmonxonadan o‘tib ketayotib, eshik og‘zida grafinya Bolga duch keldi; grafinya Bol yuzlarini burishtirib, qahr bilan xizmatkoriga allanima buyurayotgan edi. Levinni ko‘rib kulimsiradi-da, odamlarning ovozi chiqib turgan narigi kichkina mehmonxonaga o‘tishni iltimos qildi. Bu mehmonxonada grafinyaning ikkita qizi bilan moskvalik polkovnik kursilarda o‘tirishgan edi; Levin bu polkovnikni tanirdi. Levin ularga yaqin kelib ko‘rishgandan so‘ng divan yonida shlapasini tizzasi ustida ushlab o‘tirdi.

– Rafiqangizning sog‘lig‘i qalay? Konsertga bordingizmi? Biz borolmadik. Oyimlar janozaga borishlari kerak edi.

– Ha, eshitdim... bemahal o‘lim, – dedi Levin.

Grafinya kelib divanga o‘tirdi, u ham Levinning qaylig‘idan hol so‘radi. Konsertga borganmi-yo‘qligini surishtirdi.

Levin javob qildi, Apraksinaning bevaqt vafot qilgani to‘g‘risidagi afsusini yana takrorladi.

– Sog‘lig‘ining ham mazasi yo‘q edi.

– Kecha operaga bordingizmi?

– Ha, bordim.

– Lukka juda yaxshi kuyladi.

– Ha, juda yaxshi kuyladi, – dedi-yu, Levin so‘ngra o‘zi to‘g‘risida nima deyishlarining aslo g‘amini yeb o‘tirmay, ashulachining porloq talanti to‘g‘risida yuz martabal eshitgan ta‘rifini takrorlay boshladи. Grafinya Bol o‘zini tinglayotganga solib o‘tirdi. Levin gapirib xumordan chiqqandan so‘ng, hozirgacha jim o‘tirgan polkovnik gapga tushib ketdi. Polkovnik ham operadan, sahnaning yoritilishidan gapirdi. Nihoyat, Tyurinikida bo‘lishi ko‘zda tutilgan folle journee-dan¹ shang‘illab gapirib kului, keyin o‘rnidan turib chiqib ketdi. Levin

¹ Qiyomat kun (*frans.*).

ham qo‘zg‘algan edi, ammo grafinyaning chehrasidan hali o‘zining ketishiga vaqtি borligini, yana bir-ikki daqiqa o‘tirishi kerakligini payqab qoldi. Shuning uchun yana o‘tirdi.

U bu yerga kelishi bilan naqadar bema’ni ish qilganini hadeb o‘ylayverganidan, gapirishga gap topolmay, jim o‘tirar edi.

– Siz umumiy majlisga bormaysizmi? Juda qiziq deyishadi, – deb grafinya so‘z boshlagan edi, Levin:

– Yo‘q delle-soeur-imga¹ kelib olib ketaman, deb va’da qilgan edim. – dedi.

O‘rtaga jimlik cho‘kdi. Ona bilan qiz yana bir-biriga qarab oldi.

Levin «Xayr, endi tursam bo‘ladi», deb o‘yladi-yu, o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Xonimlar uning qo‘lini qisib, rafiqasiga mille choses² aytishni so‘rashdi.

Shveytsar Levinnинг po‘stинини berayotib:

– Qayerda turadilar? – deb so‘radi-da, Levinnинг javobini yaxshi muqovalangan kattakon daftariga darhol yozib qo‘ydi.

Levin «Albatta-ku mening uchun baribir, ammo shunday bo‘lsa ham, odam yomon xijolat bo‘ladi, ko‘p ahmoqona narsa bu», deb o‘ylidi; keyin hamma ham shunday qiladi, degan fikr bilan o‘ziga tasalli berib, umumiy majlisga jo‘nadi: u yerdan qaynegachisini to-pib, uyga ketishi kerak edi.

Qo‘mitaning umumiy majlisida odam ko‘p edi, jamiyat a‘zolarining hammasi shu yerda desa bo‘lardi. Levin nutqlarga umumiy xulosa chiqarayotganlarida yetib keldi, hamma buni juda qiziq derdi. Xulosa o‘qib bo‘lingandan keyin odamlar bir-birlari bilan topishdi; Levin Sviyajskiy bilan uchrashdi, Sviyajskiy uni bugun kechqurun Qishloq xo‘jaligi jamiyatida o‘qiladigan juda qiziq ma’ruzaga, albatta, kelishini so‘radi; Levin bundan tashqari, hozirgina poygadan kelgan Stepan Arkadich hamda boshqa ko‘p tanishlari bilan ham ko‘rishdi. Levin majlis, pesa va sud to‘g‘risida har xil gaplar eshitdi, o‘zi ham gapirdi. Lekin miyasi charchaganini sezsa boshlagani uchunmi, suddan gapirib turib adashib ketdi; bu xatosini keyincha bir necha marta eslab, xijolat tortib yurdi. Rossiyada sud qilinayotgan bir ajnabiyyga jazo berilishi, uni chet

¹ Qaynegachi (*frans.*).

² Ming marta salom (*frans.*).

elga surgun qilish jazosi to‘g‘ri emasligini gapirganda, Levin kecha bir tanish bilan qilgan suhbatida eshitgan gaplarini takrorladi.

— Menimcha, uni chet elga surgun qilish ham cho‘rtan baliqni suvgaga qo‘yib yuborishday gap, — dedi Levin. Keyin u tanishidan eshitgan, hozir esa o‘zinikiday bayon qilgan bu fikrning Krilov masalidan olinganini, tanishi ham bu fikrni gazetadagi bir feletondan olib takrorlaganini esladi.

Levin qaynegachisi bilan uyga kelib, Kitini xushchaqchaq va sog‘-u salomat ko‘rgandan so‘ng, klubga ketdi.

VII

Levin klubga ayni vaqtida keldi. Mehmonlar ham, klub a’zolari ham u bilan bir vaqtida yetib kelishdi. Levin ko‘p vaqtidan beri, universitetni tugatgandan so‘ng Moskvada yashab, kibor jamiyatlariga qatnay boshlagandan beri klubda bo‘lmagan edi. Klubni, uning sirtqi ko‘rinishini esidan chiqarmagan bo‘lsa ham, lekin burunlari klubdan olib kelgan taassurotini butunlay unutgan edi. Ammo klubning kamalaknusxa keng hovlisiga karetasi kirib to‘xtagach, undan tusha solib zinaga oyoq bosganda, qo‘liga lenta bog‘lab olgan shveytsar jimgina eshikni oolib ta’zim qilganda, kalishlarini yuqoriga sudrab chiqishni ortiqcha zahmat bilib, shu yerga yechib ketishgan klub a’zolarining kalish va po‘stinlarini dahlizda ko‘rganda o‘zidan oldin chalingan qo‘ng‘iroqning sirli jarangini eshitib, ustiga gilam to‘shalgan sirli zinapoyadan chiqqach, maydonchadagi haykalni hamda yuqori qavat eshigi og‘zida klub xizmatkorlariga xos zarbof kiyim kiygan, shoshmasdan, imillamasdan eshikni oolib, mehmonga boshdan-oyoq qarab chiqqan uchinchi qari shveytsarni ko‘rganda, Levinning vujudini klubning eski taassuroti, istirohat, mammuniyat va nazokat hissi qamrab oldi.

Shveytsar klub qoidasiga ko‘ra shlapasini dahlizda qoldirishni unutgan Levinga:

— Shlapani marhamat qilsinlar, — dedi. — Juda kamnamo bo‘lib ketdilar. Knyaz sizni kecha yozdirib qo‘ydilar. Knyaz Stepan Arkadich hali kelganlari yo‘q.

Shveytsar Levinning o‘zinigina emas, hatto barcha tanish va qarindoshlarini ham bilardi, shuning uchun yaqin odamlarini darhol eslab o‘tdi.

Levin shirmalar to'silgan birinchi zaldan o'tib, mevafurush o'tirgan chap xonaga burildi-da, sekin-sekin yurib borayotgan choldan o'zib, odamlar shov-shuvi bilan to'la yemakxonaga kirdi.

U qariyb band qilingan stollar yonidan mehmonlarga ko'z tashlab bordi. Goh u yerda, goh bu yerda chala tanish va yaqin, xilma-xil odamlar, qarilar va yoshlar uchrardi. Hech birining yuzida na jahl va na tashvish alomati bor edi. Go'yo hammasi hayajon va tashvishlarini shlapalari bilan birga shveytsarga tashlab kelgan-u, endi hayotning moddiy ne'matlari sururini shoshilmasdan surgani to'plangandek edi. Sviyajskiy ham, Shcherbatskiy ham, Nevedovskiy ham, qari knyaz ham, Vronskiy ham, Sergey Ivanovich ham shu yerda edi.

– A! Nimaga kech qolding? – dedi kulimsirab knyaz yelkasi orqali Levinga qo'l cho'zib. Keyin jiletkasining tugmasiga qistirib qo'ygan qo'l sochiqsini tuzatib turib ilova qildi: – Kiti qalay?

– Tuzuk, salomat; ular uchovi uyda ovqat qilishyapti.

– Ha, Olya-Nadyalar. Xayr, bizning yonimizda bo'sh o'rinn yo'q. Anavi stolga bor-u, tezroq joy egalla, – dedi knyaz; keyin yoniga o'girilib baliq sho'rvali likobchani ehtiyyotkorlik bilan ola boshladi.

Anchagina naridan:

– Levin, bu yoqqa keling! – degan muloyim ovoz eshitildi. Bu Turovsinning ovozi edi. U bir yosh harbiy kishi bilan o'tirgan, yonlarida ikkita stul engashtirib qo'yilgan edi. Levin suyunib o'shalar yoniga bordi. U mehribon ulfatparast Turovsinni hamma vaqt yaxshi ko'rardi, u Levinga Kiti bilan izhori muhabbat qilishgan damlarini eslatardi, – ammo bugun, shuncha aqli qizg'in suhbatlardan keyin Turovsinning mehribon qiyofasi unga juda ham xush yoqib ketdi.

Bu joy siz bilan Oblonskiyniki, u hozir kelib qoladi.

Qomatini tik tutib o'tiradigan, ammo ko'zlar hamisha kulib turgan bu xushchaqchaq harbiy peterburglik Gagin edi. Turovsi ularni tanishtirib qo'ydi.

– Oblonskiy hamisha kechikadi.

– Ha, ana keldi.

Oblonskiy ular yoniga tez yetib kelib:

– Shu tobda keldingmi? – dedi. – Juda soz. Aroq ichdingmi? Yur bo'lmasa.

Levin o'rnidan turib, u bilan kattakon bir stol yoniga bordi; stol ustiga aroqlar va xilma-xil xushxo'r ovqatlar terib tashlangan edi. Bu

yerdagi yigirma xilcha ovqatdan ko'ngling tusaganini tanlab olsang bo'lardi, ammo Stepan Arkadich allaqanday tamaddini so'ragan edi, shu yerda turgan zarbof kiyimli lekeylardan biri darhol u so'ragan tamaddini keltirib berdi. Ular bir qadahdan aroq ichishib, stollariga qaytib kelishdi.

Baliq sho'rvasini ichib bo'lishlari bilanoq Gaginga shampan vinosi keltirishgan edi, u to'rtta stakanga bo'ldirib quydirdi. Levin taklif qilingan vinodan qaytmadi, u ham yana bir shisha shampan vinosi buyurdi. Qorni och bo'lgani uchun Levin zo'r ishtaha bilan yeb-ichar, hamsuhbatlarining sho'x, sodda gurunglariga zo'r bir mammuniyat bilan ishtirot qilardi. Gagin Peterburgda yoyilgan bir yangi latifani past ovoz bilan gapirib berdi; bu latifa pardasiz, ma'nisiz bo'lsa ham, shu qadar kulgili ediki, Levin bor ovozi bilan xaxolab kulib yubordi; qo'shnilariga unga qayrilib qarashdi.

– Bu ham: «Eh, bunga sira toqatim yo'q!» degan latifaga o'xshaydi. Bilasanmi shu latifani? – deb so'radi Stepan Arkadich. – Eh, qanday ajoyib latifa! Yana bir shisha keltir, – dedi lakeyga, so'ngra latifani hikoya qila boshladi.

Keksa lakey ko'pigi endi bosila boshlagan shampan vinosi to'la ikkita yupqa stakanni keltirdi-da, Stepan Arkadich bilan Levinga murojaat qilib:

– Pyotr Ilich Vinovskiy yubordilar, – dedi; shu bilan Stepan Arkadichning hikoyasini bo'lib qo'ydi.

Stepan Arkadich stakanni oldi-da, stolning narigi boshida o'tirgan taqirbosh, jiyron mo'ylovli bir kishiga bosh irg'ab qo'yib kulimsiradi.

– Kim u? – deb so'radi Levin.

– Biznikida bir marta ko'rgansan, esingdami? Yaxshi odam.

Levin ham Stepan Arkadich singari bosh irg'ab stakanni oldi.

Stepan Arkadichning latifasi ham juda kulgili ekan. Levin ham o'zi bilgan bir latifani aytib berdi, bu ham hammaga yoqdi. So'ngra otlardan, bugungi poygadan, Vronskiyning Atlas nomli oti birinchi mukofotni olganidan gap ochilib ketdi. Levin ovqatning qanday o'tganligini sezmay qoldi.

Ovqatni yeb bo'lishgandan keyin Stepan Arkadich bir novcha gvardiyachi polkovnik bilan o'zлari tomon kelayotgan Vronskiyga stulining suyanchig'i orqali o'girilib qaradi-da:

– A, mana o‘zлari ham kelishdi! – dedi qo‘lini cho‘zib.

Vronskiyning chehrasida ham klubdagilarga xos umumiy shodiyona beg‘amlik ko‘rinib turardi. U kayfi chog‘ bo‘lib Stepan Arkadichning yelkasiga suyandi-da, qulog‘iga bir nimalar pichirlagandan so‘ng, yana o‘shanday jilmayib turib Levinga qo‘lini uzatdi.

– Ko‘rishganim uchun juda xursandman, – dedi Vronskiy. – Sizni o‘sha kuni saylovda rosa axtardim, lekin odamlar ketib qoldi deyishdi.

– Ha, o‘sha kuniyoq jo‘nab ketdim. Hozirgina otingizdan gapirib turuvdik. Tabriklayman, otingiz juda tez chopar ekan, – dedi Levin.

– Sizning ham otlaringiz bordir?

– Yo‘q, otamniki bor edi; lekin esimda, bilaman.

– Sen qayerda ovqatlanding? – deb so‘radi Stepan Arkadich.

– Biz ustunlar orqasidagi ikkinchi stolda.

– Buni muborakbody qildik, – dedi novcha polkovnik. – Ikkinci imperator sovrinini oldi; buning otdan omadi bor, koshki edi men ham qimorda shunday omadli bo‘lsam.

– Ey, oltin vaqtni bekor ketkazib bo‘ladimi! Men qimorxonaga ketdim, – deb polkovnik stoldan uzoqlashdi.

Vronskiy Turovsining savoliga:

– Yashvin bu, – deb javob qilgandan so‘ng, yonlarida bo‘shagan o‘ringa o‘tib o‘tirdi. Tutilgan qadahni ichib, o‘zi ham bir shisha vino chaqirdi. Klub taassuroti orqasidami yo ichgan vinolari kayfi bilanmi, harqalay, Levin Vronskiy bilan eng yaxshi qoramol zoti ustida ochilib gaplashar, bu odamga qalbida hech qanday dushmanlik hissi yo‘qligidan xursand bo‘lardi. U hatto so‘z orasida xotini Vronskiyini knyagina Marya Borisovnanikida ko‘rganini, buni xotinidan eshitganini ham qistirib o‘tdi.

Stepan Arkadich:

– Eh, knyaginya Marya Borisovna juda alomat xotin-da! – dedi-yu, u to‘g‘risida bir latifa aytib, hammani kuldirdi. Ayniqsa, Vronskiy shu qadar xaxolab kulib yubordiki, Levin o‘zini u bilan tamoman yarashgan his etdi.

Stepan Arkadich o‘rnidan qo‘zg‘alib:

– Xo‘sh, basmi? – dedi kulimsirab turib, – yuringlar bo‘lmasa!

VIII

Levin stol yonidan turgandan keyin, yurganda qo'llari, ayniqsa, to'g'ri va yengil silkinib borayotganini sezib, baland shiftli xonalar orqali Gagin bilan bilyardxonaga tomon ketdi. Katta zaldan o'tib borayotganda qaynatasiga duch keldi.

Knyaz uni qo'lting'idan olib:

– Xo'sh? Bizning bekorchilar ma'budimiz yoqdimi senga? – deb so'radi. – Yur, biroz aylanaylik.

– Men ham biroz aylanib, tomosha qilsam deb turuvdim. Juda qiziq bo'ladi.

– Ha, sen uchun qiziq, men uchun qizig'i yo'q, seni qiziqtiradigan narsalar meni qiziqtirmaydi, – dedi knyaz yumshoq etiklar ichidagi oyoqlarini zo'rg'a-zo'rg'a sudrab kelayotgan, labi so'ljaygan, bukchaygan klub a'zosiga ishora qilib, – sen mana shunaqa chollarni ko'rasan-u, bular shunaqa palag'da bo'lib tug'ilishgan, deb o'ylaysan.

– Qanday palag'da?

– Mana ko'rdingmi, bunaqa gapni bilmaysan ham. Bu bizning klub istilohlarimizdan. Bilasanmi, tuxumni yumalatsa, haddan ortiq yumalataversa, shunaqa palag'da bo'lib qoladi. Biz ham shunaqamiz: umrimiz klubga borish-kelish bilan o'tadi, oxiri palag'da bo'lamiz. Sen kulasan-da, lekin biz qachon palag'da bo'lishimizni bilib turamiz. Knyaz Chechenskiyni taniysanmi? – deb knyaz so'rab qoldi; Levin uning kulgili bir narsa aytib bergisi kelayotganini payqadi.

– Yo'q, tanimayman.

– Yo'g'-e, bo'limgan gap! Ey, o'sha mashhur knyaz Chechenskiyda. Xayr, mayli, farqi yo'q. Ana o'sha har vaqt kelib bilyard o'ynaydi. Uch yil bundan avval hali palag'da bo'limgan edi, juda kerilib yurardi. O'zi boshqalarni palag'da deb atardi. Bir kun klubga kelsa, bizning shveytsarimiz... Vasiliy-da, taniysan-a! Ha, o'sha bo'rdoqi. Rosa oladigan xilidan-da. Ha, knyaz Chechenskiy undan: «Xo'sh, Vasiliy, qani ayt-chi, kimlar bor, kimlar yo'q? Palag'dalardan bormi?» deb so'rab qoladi. U ham dangal javob qiladi: «Siz uchinchisiz», deydi, Ha, mana shunaqa, og'ayni!

Levin knyaz bilan gaplashib va yo'liqqan tanishlar bilan salomlashib yurib, butun xonalarni aylanib chiqdi: stollar qo'yilgan va odatdagи qartabozlar maydalab o'yin boshlab yuborgan katta

qimorxonaga, shaxmat o'ynashayotgan va Sergey Ivanovich allakim bilan gaplashib o'tirgani divanli xonaga, bo'lma tuyilishidagi divan yonida, Gagin ishtirokida bir to'da xushchaqchaq ulfat shampans vinosi ichib turgan bilyardxonaga, Yashvin qimor o'ynayotgan stol tevaragida pul qo'yuvchilar devalanib turgan qimorxonaga ham kirib chiqishdi. Keyin sharpa chiqarmaslikka tirishib, qorong'i qiroatxonaga ham kirishdi; bu yerda serjahl bir yigit qalpoqli chiroqlar tagida o'tirib olib, u jurnalni qo'yib, bu jurnalni olar, bir taqir bosh general esa berilib kitob o'qir edi. Knyaz «aqlxona» deb atagan bo'limga ham kirishdi. Bu yerda uch nafar janob siyosat olamining so'nggi yangiliklari haqida qizg'in suhbat bilan band edi.

Knyazning ulfatlaridan biri uni shu xonada topib:

— Knyaz, marhamat qilsinlar, tayyor, — dedi; shundan keyin knyaz chiqib ketdi. Levin suhbatga biroz qulqoq solib o'tirdi; lekin bugun ertalabki gaplarni esladi-yu, birdan yuragi siqilib ketdi. Dast o'midan turib, Oblonskiy bilan Turovsvinni qidirib ketdi — bular bilan vaqtichog' bo'lardi.

Turovsvin qo'lida bir krujka ichkilik bilan bilyardxonadagi band divanda o'tirar, Stepan Arkadich esa Vronskiy bilan xonaning to'ridagi eshik og'zida allanima to'g'risida gaplashib turar edi.

— Anna zerikishga-ku zerikadi-ya, lekin ahvolining dudmalligi, qarorsizligi yuragini siqadi, — degan so'zlarni eshitib, Levin o'zini darhol chetga olmoqchi bo'lgan edi, birdan Stepan Arkadich:

— Levin! — deb chaqirib qoldi. Levin Stepan Arkadichning ko'zlarida yosh emas, namlik borligini ko'rди; u ichganda yoki yuragi qattiq ta'sirlanganda ko'zları hamisha shunday bo'lardi. Bugun esa ham ichgan, ham yuragi ezilib turgan edi. — Levin, ketma, — dedi. Aftidan, uni ketkizgisi yo'q edi, shekilli, bilagidan mahkam ushlab oldi.

— Bu mening eng samimiyl, eng qalin do'stim, — dedi Stepan Arkadich Vronskiyiga. — Sen ham men uchun yana ham qalinroq, yana ham azizroqsan. Shuning uchun ikkalangizning do'st bo'lishingizni, qalin bo'lishingizni xohlayman, bilaman, ikkalangiz ham yaxshi odamlarsiz.

Vronskiy mehribonlik bilan hazillashib:

— Demak, bir o'pishishimiz qolibdi-da, — dedi qo'l cho'zib. Levin cho'zilgan qo'lni shoshib ushladi-yu, mahkam qisdi.

– Juda xursandman, juda xursandman, – dedi Levin Vronskiyning qo‘lini qisib turib.

Stepan Arkadich darhol:

– Hoy kishi, bitta shampan keltir! – dedi.

Vronskiy ham:

– Men ham juda xursandman, – dedi.

Lekin Stepan Arkadich ham, ularning o‘zлari ham gaplashish orzusida bo‘lsalar-da, aksiga gap topilmadi, buni ikkalovi ham sezib turardi.

– Bu Anna bilan tanish emas, xabaring bormi? – dedi Vronskiyga Stepan Arkadich. – Men buni, albatta, Annaning yoniga olib bormoqchiman. Boramiz-a, Levin!

– Rostdanmi? – dedi Vronskiy. – Annaning boshi osmonga yetadi. Men ham hozir uyga ketardim-u, lekin Yashvindan ko‘nglim tinch emas, – deb gapiga qo‘sib qo‘ydi, – o‘yini tugaguncha shu yerda turmasam bo‘lmaydi.

– Nima bo‘pti, ahvoli yomonmi?

– Nuqlu yutqazyapti, uni mendan boshqa hech kim to‘xtatib qololmaydi.

– Nima qilamiz, bilyard o‘ynaymizmi? Levin, o‘ynaysanmi? Ha, juda soz, – dedi Stepan Arkadich. Keyin markerga buyurdi: – piramidaga qo‘y.

Marker bilyard sharlarini uchburchak ichiga allaqachon terib qo‘yib, qizil sharni ermak qilib yumalatib turgan edi.

– Allaqachon tayyor, – deb javob qildi u.

– Boshladik bo‘lmasa.

Bir qo‘l bilyard o‘ynashgandan so‘ng Vronskiy bilan Levin Gagin o‘tirgan stol yoniga kelib joylashishdi; ana shundan keyin Stepan Arkadichning taklifi bilan Levin unga pul qo‘ydi. Vronskiy goh stol orqasida o‘tirib, muttasil yoniga kelib turgan tanishlari bilan gaplashar, goh qimorxonaga Yashvindan xabar olgani kirar, Levin bo‘lsa ertalabki miya horg‘inligidan so‘ng huzur qilib dam olardi. Vronskiyga qarshi dushmanlik hissini ko‘nglidan chiqarib yuborgani uchun xursand bo‘lar, ko‘ngli joyiga tushib, nazokat va shodlik hissi bilan to‘lgan edi.

O‘yin tugagandan so‘ng Stepan Arkadich Levinni qo‘ltig‘idan oldi.

– Qani, Annaning oldiga ketdikmi? Hozir-a? A? Anna uyida. Men olib kelaman, deb qachonlari va'da qilganman. Kechqurun qayoqqa bormoqchi eding?

– Boradigan uncha zarur joy yo'q. Qishloq xo'jalik jamiyatining majlisiga boraman, deb Sviyajskiya va'da qiluvdim. Mayli, borsak bora qolaylik, – dedi Levin.

– Juda soz, ketdik! Qara-chi, mening karetam kelganmikan, – dedi lakeyga Stepan Arkadich.

Levin stolga keldi-da, tuzga tikib yutqazgan qirq so'mni to'ladi; eshik og'zida turgan keksa lakeyga allaqanday sirli yo'l bilan ma'lum bo'lган klub chiqimlarini bergandan so'ng, qo'llarini salanglatib, butun zallar orqali eshik tomon yurib ketdi.

IX

– Oblonskiyning karetasi! – deb o'shqirdi shveytsar yo'g'on ovozi bilan. Kreta yetib keldi, ikkalasi karetaga mindi. Kreta klub darvozasidan chiqib borayotgan dastlabki daqiqalardagina Levin klubdagi osoyishtalik, huzur va halovat, odamlarning xushtavozeligidan olgan taassuroti ostida edi; lekin kreta ko'chaga chiqar-chiqmas o'ydim-chuqur yo'lda aravaning silkinganini sezganda, ro'paradan kelayotgan izvoshchingning jahl bilan o'shqirganini eshitganda, xira yorug'da mayxonalar va do'konlarning qizil peshlavhalarini ko'rganda bu taassurot vayron bo'ldi, endi u o'z qilmishlarini o'ylashga tutindi, Annanikiga borish bilan yaxshi ish qilyaptimiyo'qligini o'zidan so'radi. Bunga Kiti nima deydi? Lekin Stepan Arkadich uni o'ylanishga qo'ymadi, xuddi ko'nglidagi shubhalarni payqab turgandek, gumanlarini tarqatib yubordi.

– Anna bilan tanishishingga juda xursand bo'lyapman, – dedi Stepan Arkadich. – Men senga aysam, Dolli qachondan beri shuni orzu qilib yurardi. Lvov ham Annanikiga borgan, hozir ham borib turadi. Garchi u mening singlim bo'lsa hamki, – deb Stepan Arkadich so'zini davom qildirdi, – dadil ayta olaman: Anna juda ajoyib juvon. Borganingda o'zing ko'rasan. Ahvoli juda og'ir, ayniqsa, hozir.

– Nima uchun, ayniqsa, hozir?

– Biz taloq xatini olish to'g'risida eri bilan muzokara olib boryapmiz. Eri rozi ham; lekin o'g'li borasida ishi biroz chatoqlashib

turibdi; natijada, allaqachon bitib ketishi kerak bo'lgan bu ish uch oydan beri cho'zilib ketyapti. Taloq xatini oldi deguncha, darhol Vronskiyga tegadi. Bu eski bosh og'riq odat, «Iso, quvon», degan odat qanchalik ahmoqona bir odat-a! Holbuki, bunga hech kim ishonmaydi, chunki bu odamlarning baxtiga raxna solib keladi, – deb Stepan Arkadich so'z orasiga qistirib ketdi. – Ana undan keyin ularning ham ahvoli menikidaqa, senikidaqa muayyan shaklga kiradi.

– Nimasi chatoqlashib turibdi? – dedi Levin.

– Ey, bu odamning yuragini qon qilib yuboradigan uzun gap! Bizda hamma vaqt ahvol shunaqa dudmal. Lekin gap shundaki, Anna uch oydan beri Moskvada yashab, undan taloq xatini kutib o'tiribdi; Moskvada esa hamma uni ham, erini ham taniydi; hech qayerga chiqmaydi, Dollidan bo'lak hech bir ayolni ko'rmaydi, chunki bilasanmi, odamlarning muruvvat qilib kelishlarini o'zi ham xohlamaydi; haligi tentak knyajna Varvara bo'lsa, Annaning yonida turishni nomunosib hisoblab, u ham ketib qolibdi. Ko'rdingmi, mana shunday ahvolga tushib qolgan boshqa bir xotin o'zini qo'yishga joy topolmasdi. Anna bo'lsa, hali o'zing ko'rasan, turmushini shunday yo'lga solgan, shunday vazmin, o'ziga munosib bir hayot kechiradiki, odam hayron qoladi. – Stepan Arkadich kareta derazasidan suqilib: – chapga, tor ko'chaga, cherkov ro'parasiga, – deb qichqirdi. Keyin o'n ikki daraja sovuqqa qaramay, oldi ochiq po'stinimi yana ham kengroq ochib yuborib: – Uh, juda yomon isib ketdi-da! – dedi.

– Axir qizchasi bor-ku; shu bilan ovunib yursa kerak? – dedi Levin.

– Sen, chamamda, har qanday xotinni urg'ochi, une couveuse¹ deb o'ylaysan, shekilli, – dedi Stepan Arkadich, – ovunadi, albatta, bolalari bilan ovunadi. Yo'q, qizchasini, chamamda, juda yaxshi tarbiya qiladi, ammo hech og'ziga olmaydi. Anna, avvalo, yozayotgan narsalari bilan band, shular bilan ovunadi. Mana shu-da, kinoya bilan kulimsirayapsan, lekin bekor kulasan. U bolalar uchun bitta kitob yozyapti, buni hech kimga og'zidan chiqarmaydi; lekin menga o'qib berdi, men ham qo'lyozmasini Vorkuyevga berdim, bilasan-ku, ha o'sha noshir... Chamamda, o'zi ham yozuvchi edi, shekilli. Bundaqa narsalarga fahmi zo'r; u juda ajoyib narsa chiqibdi, deydi. Nima,

¹ Kurk tovuq (*frans.*).

sen bu xotinni shunchaki bir adiba deb o'ylaysammi? Hechda. U hammadan avval hassos xotin, mana, borganingda o'zing ko'rasan. Hozir unikida bitta ingliz xizmatkor qiz va butun bir oila yashaydi, Anna shular bilan band.

– Nima, bu xayr-u saxovat qilish uchunmi?

– Mana shunaqa-da, sen hamma vaqt to'g'ridan qing'ir qidirib yurasan. Saxovatli ekanini ko'rsatish hissi emas, insoniy his, odamshavandalik, ya'ni Vronskiynikida o'z ishini yaxshi bilsa ham, lekin ichkilikka mukkasidan ketgan bir ingliz ot o'rgatuvchi bor edi. Butun ichkilikka berildi-yu, delirium tremens¹ kasaliga mubtalo bo'lib, bola-chaqasiga qaramay qo'ydi. Anna ingliz oilasining ahvolini ko'rib, yordam berdi, xabar olib turdi, hozir shu oila Annaning qo'lida; manmanlikka berilib, pul bilangina yordam qilayotgani yo'q, Annaning o'zi bolalarini rus tilidan gimnaziyaga tayyorlayapti, qizini esa o'zining yoniga olib kelvoldi. Hali borganingda ko'rasan.

Kareta hovliga kirib to'xtagandan keyin Stepan Arkadich yonida chanalar turgan zinadan qattiq qo'ng'iroq chaldi.

Stepan Arkadich eshikni ochgan kishidan Annaning uydamiyo'qligini so'roqlab ham o'tirmasdan, to'g'ri dahlizga kirdi. Levin yaxshi ish qilyapmanmi yo yomon ish qilyapmanmi, deb ko'ngli alag'da bo'lib, Stepan Arkadichning orqasidan kirib bordi.

Levin oynaga qarab, qizarib ketganligini ko'rdi; lekin mast emasligiga ishonchi komil edi, shuning uchun Stepan Arkadichga ergashib, gilam to'shalgan zinapoyadan yuqoriga chiqib bordi. Tepada Stepan Arkadichga yaqin odam singari ta'zim qilgan lakeydan Oblonskiy Anna Arkadevnanning yonida kim borligini so'rigan edi, lakey Vorkuyev janoblari borligini aytди.

– Qayerda o'tirishibdi?

– Kabinetda.

Stepan Arkadich Levin bilan birga devorlari qoramtil taxtadan qilingan, poliga yumshoq gilam to'shalgan o'rtamiyona yemakxonadan o'tib, nim qorong'i kabinetga kirdi; kabinetga kattakon, qoramtil qalpoqli birgina chiroq yorug' sochib turardi. Devordagi ikkinchi kichkina chiroq esa butun qomati bilan solingan bir juvon portretininga yoritadi. Levinning diqqati beixtiyor shu portretga tortildi. Bu

¹ Tutqanoq (*lot.*).

Annaning Italiyada Mixaylov tomonidan chizilgan portreti edi. Stepan Arkadich uch tabaqali oyna orqasiga o'tib ketdi, u yerdan eshitilib turgan erkak ovozi tinguncha, Levin porloq yog'du ostida romdan chiqib kelayotgandek ko'ringan portretga hushi ketib qarab turdi. U hatto qayerda ekanligini esidan chiqarib qo'ydi, gapirilayotgan gaplarni eshitmas, ko'zlarini bu ajoyib portretdan uza olmas edi. Bu portret emas edi, balki qora sochlari jingalak, yelka va qo'llari yalang'och, go'zal, jonli bir juvon edi; mayin tuk bosgan lablarida tolg'in bir tabassum bor edi, g'olibona va muloyim bir nigohi bilan Levinni uyaltirgan ajoyib ko'zlarini bor edi. Jonli bo'lganda bundan ortiq chiroyli bo'lmas edi.

— Meni juda xursand qildingiz, — degan ovozni eshitdi birdan Levin; o'ziga murojaat bilan aytilgan bu ovoz qulog'i ostida yangradi, bu portretiga Levinning hushi ketib qolgan juvonning ovozi edi. Anna uni kutib olish uchun oyna orqasidan chiqqan edi, ana shunda Levin kabinetdagi g'ira-shira yorug'likda portretdag'i qoramti, rang-barang ko'k ko'yakli o'sha juvonni ko'rdi, garchi u rasmdagi vaziyatda bo'lmasa ham, chehrasidagi ifodalar o'zgacha bo'lsa ham, lekin rassom portretda aks ettira olgan o'sha go'zallik bilan bir xil balandlikda edi. U hayotda portretdag'i qadar porloq bo'lmasa-da, lekin tirik siyosida portretda yo'q allaqanday yangi, jozibali narsalar bor edi.

X

Anna uni ko'rgani uchun yuragida uyg'ongan shodligini yashirmay, ro'parasiga kelib turdi. Kichkina, miqtin qo'lini bamaylixotir uzatishida, Vorkuyevni tanishtirishida, shu yerda ish bilan mashg'ul bo'lgan chiroylikkina malla qizni ko'rsatib, uni o'z tarbiyasiga olganini aytishida, Levin hamisha o'zini vazmin va tabiiy tutadigan katta kibor jamiyatiga mansub ayollarda bo'ladigan yoqimli, tanish muloyimlik borligini ko'rdi.

— Juda-juda xursand qildingiz, — deb yana takrorladi Anna; bu oddiy so'zlar Levin uchun Annaning og'zidan chiqqanidan negadir boshqacha ma'no kasb etdi. — Men sizni ko'p vaqtadan beri taniyman; ham Stiva bilan do'stligingiz, ham qaylig'ingiz tufayli... sizni yaxshi ko'raman; qaylig'ingizni juda kam bilaman, lekin u menda go'zal

bir gul, xuddi rostmana gul taassurotini qoldirgan! Qarang, yaqinda ona bo'ladi!

Anna shoshmasdan, bamaylixotir gapirar, onda-sonda ko'zlarini Levindan akasiga ko'chirar, Levin ham o'zining Annada yaxshi taassurot qoldirganini sezib turardi; ana shundan keyin Levin Annani xuddi yosh bolalik chog'laridan beri tanib kelgandek, o'zini uning yonida erkin, sodda, xushhol sezsa boshladi.

Anna Stepan Arkadichning «Papiros cheksak bo'ladimi?» degan savoliga javoban:

– Biz Ivan Petrovich bilan Alekseyning kabinetida xuddi shuning uchun o'tiribmiz-da, chekish mumkin, – dedi. Keyin «Chekasizmi?» degan savol o'rniga, Levinga bir qaradi-yu, toshbaqa kosasidan qilingan papirodonni oldiga tortib, bitta papirosh chiqardi.

– Bugun ahvoling qalay? – deb so'radi akasi.

– Tuzuk. Har vaqtligi asab.

Stepan Arkadich Levinni portretga zimdan qarab-qarab qo'yayotganini sezib:

– Juda alomat solingan, a? – dedi.

– Urimda bundan yaxshi portret ko'rgan emasman.

– Yana shunaqa ham o'xshaydiki, a? – dedi Vorkuyev.

Levin ko'zlarini portretdan olib originalga qaradi. Levinni o'ziga qarab turganini his qilganda, Annaning yuzi g'alati bir yog'du sochib porladi. Levin qizarib ketdi; u xijolat bo'lganini yashirish uchun Darya Aleksandrovnani qachon ko'rganligini Annadan so'ramoqchi bo'lган edi, ammo Anna gap boshlab qoldi.

– Biz hozir Ivan Petrovich bilan Vashchenkovning so'nggi rasmlari to'g'risida gaplashib o'tirgan edik. Siz o'sha rasmlarni ko'rganmisiz?

– Ha, ko'rganman, – deb javob berdi Levin.

– E, kechirasiz, men sizning gapingizni bo'lib qo'ydim. Siz bir nima demoqchi edingiz...

Levin Dollini qachon ko'rganligini so'radi.

– Kecha keluvdi, Grisha tufayli gimnaziyaga juda jahli chiqib yuribdi. Chamamda, lotin tili muallimi Grishaga nohaq muomala qilayotgan emish.

Levin yana Anna boshlagan suhbatga qaytdi.

– Ha, o'sha rasmlarni ko'rganman. Menga unchalik yoqqani yo'q, – dedi.

Levin endi bugun ertalabki singari ishga kosibchasiga qaraydigan odam ko'zi bilan qarab gapirmsas edi. Anna bilan gaplashganda har bir so'z alohida ma'no kasb etardi. U bilan gaplashish qanchalik yoqimli bo'lsa, ovozini eshitish yana ham ko'proq huzur bag'ishlardi.

Annaning gaplari tabiiy va bama'ni edi, bama'ni bo'lsa ham parvosizlik bilan gapirib, o'z fikrlariga hech qanday qimmat bermas, aksincha, suhbатdoshining fikrlariga ko'proq qimmat berardi.

Gap san'atdagi yangi oqim va fransuz rassomlarining Tavrotga chizgan yangi suratlari ustida borardi. Vorkuyev rassomni intihosiga yetkazilgan qo'pol realizmda ayblardi. Levin fransuzlar san'atda shartlilikni haddidan oshirib yuborishgan, shuning uchun ular realizmga qaytish bilan o'zlarini katta xizmat qilgan deb o'ylaydilar. Yolg'onchilikka chek qo'yishlarining o'zida bir she'riyat borligini ko'radilar, dedi.

Levin shu vaqtgacha aytgan biron aqlli so'zidan bunchalik lazzat olgan emas edi. Anna bu fikrga tahsin qilgamidan chehrasi birdaniga charaqlab ketdi. Anna kulib yubordi.

– Men asliga juda o'xshagan portretni ko'rganda kulgan odamga o'xshab kulyapman, – dedi Anna. – Siz aytgan fikrlaringiz hozirgi fransuz rassomlari va san'atini, hatto adabiyotini ham, masalan: Zola, Daudetni ham tamomila tavsiflab berdi. Kim biladi, balki ular o'z Conceptions-larini¹ oldin hamisha uydurma, shartli shakllardan tuzishar va butun combinaisons² tayyor bo'lgandan keyin, bu uydurma shakllar jonlariga tegib, tabiiyroq, haqqoniyroq shakllar o'ylab topishga kirishishar.

– Barakalla, mana bu tamoman to'g'ri gap! – dedi Vorkuyev.

– Klubga boruvdinglarmi? – deb so'radi akasidan Anna.

Levin hozir Annaning birdaniga butunlay o'zgarib ketgan go'zal, o'ynoqi yuzidan ko'zlarini uzolmay: «Ha, ha, xotin kishi degan mana shunday bo'lsa!» deb hushi ketib o'ylanib qoldi. Annaning egilib akasiga nimalar deganini Levin eshitmadni. Chunki chehrasining o'zgargani Levinni mahliyo qilib qo'ygan edi. Bir zumgina avval o'z osoyishtaligi bilan nihoyat go'zal ko'ringan chehrasi birdaniga g'alati bir maroq, g'azab va g'urur alomatlarini aks ettira boshladni.

¹ Konsepsiya (*frans.*).

² Kombinatsiya (*frans.*).

Lekin bu atigi bir daqiqagina davom etdi. Anna bir nimani eslay olmayotgandek qilib ko'zlarini suzdi.

– Shunaqa, xayr mayli, bu gapning hech kimga qizig'i yo'q, – dedi Anna, keyin darhol ingliz qizga murojaat qildi:

– Please order in the drawing-room¹.

Qizcha o'rnidan turib chiqib ketdi.

– Qalay, bu qiz epaqaga kelyaptimi? – deb so'radi Stepan Arkadich.

– Juda ham-da. Nihoyatda uddaburon, shirin tabiat qiz.

– Borib-borib, buni o'z qizingdan ortiq sevib qolasan.

– Erkak kishining aytadigan gapi shu-da. Sevgining katta, kichigi bo'lmaydi. Qizimning qalbimdagi o'rni boshqa, buniki – boshqa.

– Men ham Anna Arkadevnaga shuni aytyapman, – dedi Vorkuyev, – agar shu ingliz qiziga sarf qilayotgan mehnatning yuzdan birini rus bolalarini tarbiya qilish sohasidagi umumiy ishimizga sarf qilgan bo'lsalar edi, Anna Arkadevna nihoyatda katta foydali ish qilgan bo'lardilar.

– Na chora, nima desangiz deng, qo'limdan kelmadi-kelmadi-da. Graf Aleksey Krillovich (graf Aleksey Krillovich so'zlarini aytib turib, Anna uzr so'rayotgandek hurkak bir nazar bilan Levinga qarab oldi; Levin ham ehtirom bilan bosh egib, uning gapini maqulladi) meni qishloq maktabi bilan shug'ullanishga rag'batlantirdi. Men bir necha bor maktabga bordim ham. Bolalar juda yaxshi, lekin shu ishga berilib ketolmadim. Siz mehnatdan gapirdingiz. Mehnat tagida muhabbat bor. Muhabbat esa tashqaridan kelmaydi, unga buyurib bo'lmaydi. Mana men shu qizni yaxshi ko'rib qoldim, lekin qanday yaxshi ko'rib qolganimni o'zim ham bilmayman.

Anna yana Levinga qarab oldi. Annaning tabassumi ham, qarashlari ham Levingning fikrini qadrlaganidan, shu bilan birga, birlarining fikrlarini tushunishlarini bilib turganidan dalolat berardi, shuning uchun ham bu so'zlarni faqat Levingagina qaratib aytar edi.

– Men buni yaxshi tushunaman, – deb Levin javob berdi. – Maktabga va umuman shularga o'xshash muassasalarga odam jonini tikib qo'yolmaydi, nazarimda, shuning uchun ham bu xil xayriya muassasalari hamisha juda kam mahsul beradi.

¹ Marhamat qilib aytsangiz, mehmonxonaga choy keltirishsin (*ingl.*).

Anna biroz jim turgandan so'ng kulimsirab yubordi.

– Ha, ha, – deb tasdiq etdi Anna. – Men hech shunday qilolmadim. Je n'ai pas le coeu rassez large¹ murdor qizchalar tarbiyalanadigan butun boshliq bir yetimxonani yaxshi ko'ra olsam. Cela ne m'a jamais- reussi.² Holbuki bu yo'l bilan o'zlariga position sociale³ qozongan xotin kishilar ozmuncha emas. Hozir esa, ayniqsa – dedi; Anna bu so'zлarni ishonch bilan g'amgin bir ohangda, zohirda akasiga qarab aytgandek tuyulsa ham, haqiqatda Levinga mo'ljallab aytgani oshkora ko'rini turardi, – mana hozir biron narsa bilan shug'ullanishga ehtiyoj sezib turgan bir paytimda, shu narsaning uddasidan chiqolmayapman. – Anna birdan qoshlarini jiyirdi-yu, (Levin Annaning o'zi haqida gapirayotgani uchun o'ziga jahli chiqqanini fahmladi), gapni boshqa yoqqa burib yubordi. Levinga qarab shunday dedi: – Sizning yomon vatandosh ekanligingizni bilaman, shunday bo'lsa ham, sizni qo'limdan kelganicha himoya qilib kelganman.

– Iya, meni qanday himoya qilasiz?

– Sizga qarshi hujumlardan. Xayr, mayli, choyga marhamat qilmaydilarmi? – dedi Anna saxtiyon muqovali kitobni qo'liga olib o'rnidan turdi.

Vorkuyev kitobga ishora qilib:

– Menga bering, Anna Arkadevna, – dedi. – Juda qimmatli kitob bu.

– Voy, yo'q, hali xom bu.

Stepan Arkadich singlisiga:

– Men bunga aytdim, – dedi Levinni ishora qilib.

– Chakki qilbsan. Mening yozganlarim – avaxtada ishlagan Liza Mertsalova bir mahallar menga sotgan naqshli savatchalarga o'xshagan narsa. Liza Mertsalova mahbuslarga boshchilik qilardi, – dedi Anna Levinga qarab. – O'sha sho'rliklar sabr-matonat bobida mo'jizalar yaratdilar.

Levin o'ziga benihoya yoqib qolgan bu juvonda yangi bir xislat ko'rdi. Unda aql, zebolik va go'zallikdan tashqari, yana rostgo'ylik ham bor edi. Anna o'z ahvolining naqadar og'irligini undan yashirishni

¹ Mening yuragim shu qadar keng emaski (*frans.*).

² Bu narsani hech qachon uddalay olgan emasman (*frans.*).

³ Ijtimoiy mavqe (*frans.*).

istamas edi. Anna bu so‘zlarni aytib, chuqur xo‘rsindi, shunda chehrasi bordaniga jiddiy tus olib, toshday qotib qoldi. Yuzidagi bu ifoda Annani yana ham ochib yubordi; ammo bu yangi ifoda edi; bu ifoda rassom portretda chizgan saodat nuri bilan yoritilgan, saodatbaxsh ifodalardan boshqacha edi. Levin portretga va akasini qo‘lidan ushlab, baland eshik tomon ketayotgan Annanining qomatiga yana bir marta qaradi-yu, qalbida Annaga nisbatan uyg‘ongan malohat va shafqatdan o‘zi ham hayron bo‘ldi.

Anna Levin bilan Vorkuyevdan mehmonxonaga kirishlarini iltimos qilib, o‘zi akasi bilan bir nima to‘g‘risida gaplashib qoldi. Levin: «Taloqdan, Vronskiydan, klubda u nima qilib yurganidan, mendan gaplashsa kerak», deb o‘yladi. Annanining Stepan Arkadich bilan nima to‘g‘risida gaplashayotgani Levinning es-hushini shu qadar olib qo‘ygan ediki, Anna Arkadevnaning bolalar uchun yozgan romani va uning fazilatlari haqida Vorkuyev gapiroayotgan gaplar qariyb quloqlariga kirmas edi.

Choy ustida ham o‘sha yoqimli, mazmunli suhbat davom etdi. Suhbatga mavzu qidirish uchun biron daqiqa o‘ylash u yoqda tursin, aksincha, og‘zilariga kelib turgan gaplarini aytishga ulgurishmaganini, o‘zlarining gaplarini jon-dillari bilan to‘xtatib, boshqalarning gaplarini mammuniyat bilan eshitayotganlarini his etib o‘tirishdi. Levinga faqat Annanining so‘zlarigina emas, balki Vorkuyevning, Stepan Arkadichning so‘zlarini ham Anna diqqat bilan tinglab, luqma tashlab turgani tufayli alohida ma’no kasb etgandek tuyulardi.

Levin bu maroqli suhbatga ko‘z-quloq bo‘lib o‘tirib, Annanining husn-jamoliga, aql-u hushiga, ong va bilimiga, ayni zamonda soddaligi va dildorligiga havasi kelardi. U quloq solar, o‘zi ham so‘zlar va hamma vaqt Annanining ichki dunyosini o‘ylar, hislarini payqashga tirishardi. Ilgarilari Annani juda yomon qoralab kelganiga qaramay, endi miyasida qaynayotgan allaqanday fikrlar zo‘ri bilan Annani oqlar, shu bilan birga, Vronskiy buning qadriga to‘la yetmaydi, deb rahmi kelar, qo‘rqr edi. Soat o‘n birda Stepan Arkadich o‘rnidan qo‘zg‘alib ketmoqchi bo‘lganda (Vorkuyev ilgariroq chiqib ketgan edi), Levin o‘zini hozirgina kelgandek his qildi. Shuning uchun afsus yeb o‘rnidan turdi.

Anna uni qo‘lidan ushlab va jozibador ko‘zlarini bilan tikilib turib:

– Yaxshi boring, – dedi. – Que la glace est rompue¹ juda xursandman.

Anna uning qo‘lini qo‘yib yuborib, ko‘zlarini suzdi.

– Qaylig‘ingizga aytib qo‘ying: men uni burungiday yaxshi ko‘raman; agar hozirgi ahyolim vajhidan meni ma’zur ko‘ra olmasa, u holda meni bir umr ma’zur ko‘rmasligini orzu etaman. Ma’zur ko‘rish uchun esa mening boshimdan kechgan azob-u uqubatlarni kechirish kerak; bu azoblardan uni xudo asrasin.

– Albatta, ha, albatta, aytaman... – dedi Levin qizarib.

XI

Levin Stepan Arkadich bilan muzdek havoga chiqqanda: «Naqadar ajoyib, dilbar va g‘arib bir ayol», – deb o‘ylandi.

Stepan Arkadich Levingning butunlay mag‘lub bo‘lganini ko‘rib:

– Xo‘sh? Men senga aytmabmidim? – dedi.

– Ha, – deb javob berdi Levin o‘ychan bir holda, – misli yo‘q juvon! Aqli ekanligini qo‘yaver, lekin samimiy ham, shunisi odamni hayron qoldiradi. Uvolki, asti so‘rama!

– Xudo nasib qilsa, yaqinda hamma ish to‘g‘ri bo‘lib ketadi. Shunaqa, bilmay turib, odamni oldindan yomonotliqqa chiqarma, – dedi Stepan Arkadich karetaning eshigini ochib. – Yaxshi bor, yo‘limiz bir emas.

Levin yo‘l bo‘yi Annani, u bilan bo‘lgan eng sodda suhabatlarini o‘ylab bordi; chehrasidagi ifodalarni ikir-chikirlarigacha bir-bir xayolidan o‘tkazdi, bularni o‘ylagan va xayolidan o‘tkazgan sari Annaga hamdard bo‘lib, unga yuragi achishib, shu taxlitda uyga yetib bordi.

Uyda Katerina Aleksandrovnaning salomatligini, opalari yaqindagina ketganligini aytib, Kuzma Levinga ikkita xat berdi. Levin keyin xayolini bo‘lib yurmaslik uchun xatlarni shu yerda, dahlizdayoq o‘qib chiqdi. Xatlarning biri ishboshchi Sokolovdan edi. Sokolov bug‘doyni sotib bo‘lmasligini, chunki besh yarim so‘mdan ortiq berishmayotganlarini, boshqa yerdan esa pul topishning iloji yo‘qligini

¹ Birinchi qadamning uchun (*frans.*).

yozgan edi. Ikkinchı xat opasidan kelgan edi. Opasi ishni haligacha bir yoqlik qilmagani uchun Levindan o'pkalanardi.

«Na chora, ortiq berishmagandan keyin besh yarim so'mdan sotamiz-da», – Levin ilgarilari hal qilinishi o'zi uchun juda og'ir bo'lgan bu birinchi masalani shu taxlitda osongina hal qildi. Keyin ikkinchi xat to'g'risida: «Qiziq, bu yerda odamning hech vaqt bo'lmaydi», – deb o'ylandi. Levin opasi iltimos qilgan ishni haliga dovur bartaraf qilmagani uchun o'zini opasi oldida aybdor his qilardi. «Bugun tag'in sudga bormadim, lekin bugun haqiqatan ham vaqtim bo'ljadi». Levin bu ishni mutlaqo ertaga bartaraf qilishni ko'ngliga tugib, xotinining yoniga ketdi. Keta turib, bugungi kun hodisalarini bir zumda xayolidan kechirib chiqdi. Bugungi kun hodisalari faqat gap-so'zdan iborat edi: bu so'zlarni o'zi eshitgan, bu so'zlarda o'zi ham qatnashgan edi. Suhbat shunday mavzular ustida bordiki, agar u qishloqda bo'lsa, bularning hech biri bilan shug'ullanib o'tirmasdi. Bu yerda esa bu gap-so'zlar juda odamni qiziqtirardi. Bu gap-so'zlarning hammasi ham yaxshi edi; faqat ikkita narsa Levinga uncha yoqmadi: biri – uning cho'rtan baliq to'g'risidagi gapi, ikkinchisi esa o'zining Annaga yuragi ezilib achinishida allanima borligi edi.

Levin kirsa, xotini qayg'urib, zerikib o'tirgan ekan. Uch opasingilning tushlik ovqati juda lazzatli o'tishi mumkin ekan, ammo uni juda ko'p kutishibdi, kuta-kuta ko'zлari to'rt bo'libdi, axiyri hammasi zerikibdi, opalari ketib, Kitining o'zi yolg'iz qolibdi.

Kiti Levinning juda boshqacha, charaqlab turgan ko'zlariga qarab shubhalanib:

– Qani ayt-chi, o'zing nimalar qilding? – deb so'radi. Ammo erining hamma narsani oqizmay-tomizmay aytishiga xalaqit bermaslik uchun uning so'zlarini qanday e'tibor bilan eshitayotganini yashirib, oqshomni qanday o'tkazganligi to'g'risidagi hikoyasiga ma'qullovochi bir tabassum bilan qulq solib o'tirdi.

– Xullas, Vronskiyni ko'rganimga juda xursand bo'ldim. O'zimni yo'qotmay u bilan bemalol gaplashdim. Bilasanmi, endi u bilan hech qachon ko'rishmaslikka tirishaman, ishqilib, oramizdagi sovuqlik ko'tarilsinda, – dedi-yu, Levin hech qachon ko'rishmaslikka tirishgani holda darhol Annaning huzuriga chopganini eslab, qizarib ketdi. – Mana, masalan, biz xaloyiqni ichadi, deymiz; bilmayman,

kim ko‘p ichar ekan: oddiy xaloyiqmi yo bizning tabaqamizmi? Oddiy xalq loaql bayramda ichadi, lekin...

Ammo xaloyiqning ichishi to‘g‘risidagi mulohazalar Kitini qiziqtirmas edi. Kiti erining qizarib ketganini ko‘rgan edi, u hozir shuni bilishni istardi.

– Xo‘sish, keyin qayerga bording?

– Stiva qo‘yarda-qo‘ymasdan Anna Arkadevnaning oldiga olib bordi.

Levin shu gapni aytdi-yu, loladek qizarib ketdi; Annanikiga borish bilan yaxshi ish qilgan-qilmaganligi to‘g‘risidagi gumonlari uzil-kesil hal bo‘ldi. U bunday qilmasligi kerakligini endi bildi.

Levin Annaning nomini tilga olganda, Kitining ko‘zlarini juda g‘alati olayib, chaqnab ketdi, lekin u o‘zini bosib olib, hayajonini yashirdi va shu bilan erini aldadi. U faqat:

– E! – deb qo‘ya qoldi.

– Unikiga borganimga rostdan ham jahling chiqmas? Stiva qo‘ymadi. Dolli ham xohlagan ekan, – deb Levin so‘zini davom qildirdi.

– Yo‘q-yo‘q, – dedi Kiti; ammo u qaylig‘ining o‘zini zo‘rg‘a bosib turganligini, lekin bundan o‘zi uchun hech qanday yaxshilik chiqmasligini ko‘rdi.

Levin Annadan, uning mashg‘ulotidan va Kitiga aytib qo‘yishni topshirgan so‘zlaridan hikoya qilib turib:

– Juda dilbar, juda, juda ham g‘arib, yaxshi juvon ekan, – dedi.

Levin hikoyasini tugatganda, Kiti:

– Ha, albatta, juda g‘arib, bechora, – deb qo‘ydi. – Kimdan xat olding?

Levin kimlardan olganini aytdi-da, Kitining xotirjamligidan ko‘ngli to‘q bo‘lib, yechingani ketdi.

Qaytib kirganda, Kiti hamon boyagi kursida o‘tirardi. Levin yoniga kelishi bilan Kiti unga bir qaradi-yu, ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

– Nima bo‘ldi? Nima bo‘ldi? – deb so‘radi Levin, nima bo‘lganligini ilgaridan bilgani holda.

– Bu yaramas xotinga oshiq bo‘lgansan, u seni sehrlab olgan. Buni ko‘zlarindan ko‘rdim, ha, ha! Buning oqibati nima bo‘ladi endi? Sen klubga borib ichgansan, ichgansan, o‘ynagansan, keyin

borgansan... tag'in kimning oldiga? Yo'q, ketamiz... ertagayooq men bu yerdan jo'nab ketaman.

Levin ancha pallagacha xotinini yupata olmadi. Axiyri, shafqat hissi ichkilik ta'siri bilan qo'shilib, o'zini yo'ldan urganini, Annaning nayranglariga uchganini, bundan bu yoq o'zini undan olib qochishligini bo'yniga olgandan so'nggina Kitini yupatishga muvaffaq bo'ldi. U Moskvada shuncha uzoq vaqt yolg'iz gap-so'z bilan ovqat yeish va ichish bilan yashab kelib, o'zini erkalatib qo'ygan edi, buni chin qalbidan e'tirof qilar edi. Er-u xotin kechasi soat uchgacha gaplashib o'tirishdi. Faqat soat uchdagina tamoman apoq-chapoq bo'lishib, uyquga ketishdi.

XII

Anna mehmonlarni kuzatgandan so'ng, o'tirmasdan, xonada u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Anna g'ayrishuuriy tarzda butun oqshom bo'yi Levinda o'ziga nisbatan sevgi hissi uyg'otish uchun qo'lidan kelganicha harakat etgan bo'lsa ham (so'nggi vaqtarda yosh kishilarga nisbatan shunday harakat qilardi), bir kechada xotinli va nomusli bir odamni imkonli boricha o'ziga maftun eta olganini bilsa ham, garchi Levin o'ziga juda-juda yoqib qolgan bo'lsa ham (erkak kishilar nazarida Vronskiy bilan Levin o'rtasidagi farq juda kattaligiga qaramasdan, Anna xotinlik sifati bilan ularda bir o'xshashlik borligini ko'rardiki, Kiti ham xuddi shu vajdan ham Vronskiyini, ham Levinni yaxshi ko'rgan edi), Levin uydan chiqar-chiqmas, Anna uni o'ylamay qo'ydi.

Bir o'y, faqat birgina o'y uni ming maqomga solib qiynar edi. «Agar men boshqalarga, bu oilali, xotinini sevadigan bir kishiga shu qadar ta'sir qila olsam, nega endi u menga shu qadar sovuq?.. Yo'q, sovuq emas, meni yaxshi ko'radi, men buni bilaman. Lekin hozir qandaydir yangi bir narsa bizni bir-birimizdan ayiryapti. Nega butun oqshom qorasini ko'rsatmaydi? Yashvinni tashlab ketolmasligini, o'yinga ko'z-quloi bo'lib turishi kerakligini Stivadan ayttirib yuboribdi. Yashvin boyaqish bu yerda nima qilib yuribdi? Xayr, bu gapni to'g'ri ham deylik. U hech vaqt yolg'on gapirmaydi. Lekin shu to'g'riliqida boshqa narsa bor. O'zining boshqa ishlari borligini menga ko'rsatish uchun bu tasodifdan foydalangan. Men

buni bilaman, men bunga roziman. Ammo buni menga isbot qilib o'tirishning nima hojati bor? U menga bo'lgan sevgisining ozodligiga xalaqit bermaslik kerakligini menga isbot qilmoqchi. Ammo menga isbot kerak emas, muhabbat kerak. U mening shu yerda, Moskvada hayotim nechog'liq mushkul ekanligini tushunishi kerak edi. Ajabo, mening hayotim ham hayotmi? Men hayot kechirayotganim yo'q, balki kundan-kunga uzoqlashib borayotgan so'nggi yechimni bir yoqlik bo'lishini kutib o'tiribman. Yana javob yo'q! Stiva ham Aleksey Aleksandrovichning oldiga borolmayman, deydi. Men bo'lsam, yana unga xat yozolmayman. Hech narsaga qo'lim bormaydi, hech narsaga qo'l urolmayman, hech narsani o'zgartirolmayman, o'zimni bosaman, intizorlik chekaman, o'zimga har xil ermaklar topaman – o'zimni ingliz oilasi bilan, yozish-chizish bilan, o'qish bilan ovora qilaman, lekin bularning hammasi yolg'on, bularning hammasi yana o'sha morfin. Menga rahmi kelishi kerak edi», – derdi o'zi o'ziga kuyganidan ko'zlariga yosh chiqqanini sezib.

U Vronskiyning paydar-pay bosgan qo'ng'iroq jarangini eshitidda, apil-tapil ko'z yoshlari artdi, ko'z yoshlari artish bilan kifoyalanmay, chiroq yoniga o'tirib, kitobni ochdi va o'zini xotirjam ko'rsatishga tirishdi. Vronskiyning va'da qilgan vaqtida kelmagani uchun noroziligini, faqatgina noroziligini ko'rsatishi, ammo o'z dardini, ayniqsa, o'ziga achinganini zinhor unga ko'rsatmasligi kerak edi. Annaning o'z-o'ziga rahmi kelishi mumkin edi. Lekin Vronskiyga emas. Anna kurashni istamasdi, Vronskiyni kurashmoqchi bo'lgani uchun ta'na qilardi, oqibatda esa beixtiyor o'zi kurash vaziyatiga tushib qolardi.

Vronskiy tetik va sho'x bir qiyofada yaqiniga kelib:

- Qalay, zerikkaning yo'qmi? – deb so'radi. – Qimor o'lgur yomon narsa-da!
- Yo'q, zerikkanim yo'q, innaykeyin, zerikmaslikka qachonlardan beri odatlanib qolganman. Stiva bilan Levin keldi.
- Ha, ular sening oldingga kelishmoqchi edi. Qalay, Levin yoqdimi senga? – dedi Vronskiy Annaning yoniga o'tirib.
- Hozirgina ketishdi. Yashvin nima bo'ldi?
- O'n yetti ming so'm yutib olgan edi, ketaylik, dedim. Sal bo'lmasa men bilan birga ketuvdi ham. Yana o'yinga qaytib borib, endi yutqazyapti.

Anna birdan ko‘zlarini ko‘tarib unga qaradi-da:

– Bo‘lmasa nimaga qolding? – deb so‘radi. Yuzida sovuq kek, adovat ifodasi bor edi. – Stivaga: Yashvinni olib ketgani qolyapman, debsan. Baribir, yana tashlab kelibsan.

Vronskiyning yuzida ham kurashga tayyorlikning sovuq ifodasi ko‘rindi.

– Avvalo, men undan senga bir nima deb qo‘yishni iltimos qilganim yo‘q, qolaversa, men hech qachon yolg‘on gapirmayman. Aslida, qolgin bor edi – qoldim, – dedi Vronskiy xo‘mrayib. Bir daqiqacha jum qolgandan so‘ng Anna tomonga egilib: – Anna, bu gaplarning nima keragi bor, nima keragi bor? – dedi-da, Anna qo‘lini qo‘yadi degan niyat bilan o‘z hovuchini ochib turdi.

Vronskiyning malohatga da‘vagini ko‘rib, Anna xursand bo‘ldi. Ammo kurash shartlari bo‘yin egishga yo‘l qo‘ymayotgandek, g‘azabidan tug‘ilgan g‘alati bir kuch orzulariga taslim bo‘ldirmas edi.

– Albatta, qolging kelgan ekan – qolibsan. Sen ko‘ngling tusaganini qilasan. Lekin bu narsalarni nechun menga aytasan? Nima uchun? – deya ketdi Anna tobora tutaqib. – Nahotki birov sening haqqi huquqingga chang solayotgan bo‘lsa? Agar sen o‘zingning haqli ekanligingni ko‘rsatishni xohlayotgan bo‘lsang, mayli, haqli bo‘la qol.

Vronskiyning hovuchi yumildi, o‘zini orqaga tortdi, yuzi avvalgidan ham o‘jar tus oldi.

Anna diqqat bilan unga razm solgandan so‘ng, Vronskiyning yuzidagi o‘zining jahlini chiqarib turgan ifodaga birdan ot topib:

– Sen buni azbaroyi o‘jarlikdan qilasan, – dedi, – ha, o‘jarlikdan. Sen men bilan kurashingda g‘olib chiqasanmi-yo‘qmi – shuni o‘ylaysan, men bo‘lsam... – yana Annaning o‘ziga rahmi kelib, yig‘lab yuboray dedi. – Koshki edi mening dardim nimada ekanligini bilsang! Hoziriday, men bilan yovlashganday, ha, xuddi yovlashganday muomala qilganingni sezib yurganimni bilsayding, buning men uchun nima demak ekanligini anglasayding! Agar shunday daqiqalarda baxtsizlikka naqadar yaqin, yaqin ekanligimni bilsayding, – Anna yuzini chetga o‘girib, yig‘isini yashirishga urindi.

Vronskiy uning jonidan to‘yanini avzoyidan ko‘rib dahshatga tushdi-da, yana u tomonga egilib:

– Axir biz nimani talashamiz-a? – dedi-yu, Annaning qo‘lini olib o‘pa boshladи. – Men nima gunoh qildim? Yo men uydan tashqarida

vaqtimni chog‘ qilib yuribmanmi? Yo men xotinlardan o‘zimni olib
qochmayapmanmi?

– Qochmay ko‘rgin edi! – dedi Anna.

Vronskiy uning hasrat chekayotganidan ta’sirlanib:

– Ayt bo‘lmasa, seni tinchitish uchun nima qilay? Baxtli bo‘lishing
uchun har nima qilishga tayyorman, seni hozirgidaqa dog‘-u hasratdan
xalos qilish uchun jonimni ham ayamayman, Anna! – dedi.

– Hech nima bo‘lgani yo‘q, hech nima bo‘lgani yo‘q! – dedi Anna. –
O‘zim ham bilmayman: yakka-yolg‘iz turganimdanmi, asablarim
buzilganidanmi... xayr, bu gapni bas qilaylik. Qani, poyga nima
bo‘ldi? Menga aytganing ham yo‘q, – deb so‘radi Anna, har holda
o‘z foydasiga hal bo‘lgan g‘alaba tantanasini yashirishga tirishib.

Vronskiy kechki ovqat so‘ragandan so‘ng poyga tafsilotini aytib
bera boshladi; lekin Anna uning so‘z ohanglarida, hamon sovuqlashib
borayotgan ko‘z qarashlarida Anna qozongan g‘alaba uchun uni
kechirmaganligini, Anna yengmoqchi bo‘lgan o‘sha o‘jarlik hissi
yana unda qaror topganligini ko‘rib turdi. Vronskiy unga avvalgidan
sovukroq muomala qilar, bo‘yin eggani uchun pushaymondek
ko‘rinardi. Ana shunda Anna o‘ziga g‘alaba keltirgan so‘zlarini,
ya’ni «men dahshatli bir baxtsizlik qarshisida turibman, o‘zimdan
qo‘rqaman», degan so‘zlarini eslab, bu qurolning xavfli ekanini,
ikkilamchi ishlatish mumkin emasligini angladi. Anna bo‘lsa o‘zlarini
bir-biriga bog‘lab turgan muhabbat yonida allaqanday ashaddiy
kurash ruhi joylanib olganini, bu ruhni na uning qalbidan va na
o‘zining qalbidan quvib chiqara olmasligini sezib turardi.

XIII

Odam bolasi o‘rganib ketmaydigan hech bir sharoit yo‘q; ayniqsa,
tevaragingdagи odamlarning ham shunday yashab turganlarini
ko‘rganda, albatta, o‘rganasan. Levin hozirgi sharoitda tinchgina yotib
uxlashi mumkinligiga bundan uch oy avval hech bir ishona olmas
edi; bemaslak, bema’ni hayot kechirib, qurbindan ortiqcha sarf-xarajat
qilishdan, aroqxo‘rlikdan (klubda bo‘lgan narsalarni boshqa so‘z bilan
atay olmasdi), bir mahallar xotini yaxshi ko‘rib qolgan bir kishi bilan
kelishmagan do‘stona muomalalar qilganidan, yo‘ldan ozgan xotin
deb atashdan boshqasiga til bormaydigan bir ayol uyiga borib, o‘ziga

yarashmagan qiliq qilganidan, bu ayolga ishqibozlik qilib, keyin o‘z xotinini ranjitgandan so‘ng – mana shunday bir sharoitda bamaylixotir uxbay olishiga hech-hech ishona olmasdi. Ammo horg‘inlik, uyqusiz o‘tgan tun, ichilgan vino kasofati bilan dang qotib uxbab qoldi.

Ertalab soat beshda eshikning g‘ichillab ochilishi uyg‘otib yubordi. U sapchib turib, atrofiga qaradi. Kiti yonida yo‘q edi. Lekin to‘sinqorqasida qimirlayotgan yorug‘ni ko‘rdi, Kitining oyoq tovushini eshittdi.

– Nima bo‘ldi?.. Nima gap? – deb uyqusirab so‘radi. – Kiti! Nima bo‘ldi?

Kiti qo‘lida sham bilan to‘sinqorqasidan chiqib:

– Hech nima, – dedi. Keyin juda ham shirin, ma’nodor bir tabassum bilan jilmaydi: – biroz tobim qochganday bo‘ldi.

Levin qo‘rqib ketdi.

– Nima bo‘ldi! Boshlandimi? Boshlandimi? – deb ustma-ust so‘radi. – Odam yuborish kerak, – dedi-yu, darhol turib, kiyina boshladi.

Kiti kulimsirab, uni qo‘lidan ushladi.

– Yo‘q, yo‘q, hech gap yo‘qqa o‘xshaydi. Biroz tobim qochdi xolos. Hozir bosildi, – dedi Kiti.

Kiti shundan keyin karavot yoniga kelib shamni o‘chirdi-da, yotib jim bo‘ldi. Kitining xuddi nafasini qisib turgandek jimib ketishi, ayniqsa, to‘sinqorqasidan chiqib, «hech nima» degan vaqtidagi juda boshqacha hayajon va malohati Levinda shubha tug‘dirgan bo‘lsa ham, qattiq uyqusi kelib turgani uchun o‘sha zahoti uxbab qoldi. Nafasi ichiga tushib, jim bo‘lib qolgan o‘sha soatda Kiti xotinlar hayotida yuz beradigan g‘oyat ulug‘ hodisani kutib yoniga kirib qimirlamasdan yotganda, uning aziz, dilbar qalbida nimalar bo‘lganini Levin keyincha anglatdi. Soat yettida Kiti qo‘lini yelkasiga teggizib, sekin shivirlaganda uyg‘onib ketdi. Kiti uni uyg‘otishga ham achinar, ham u bilan gaplashgisi kelardi; go‘yo uning qalbida shu ikki istak o‘rtasida kurash borardi.

– Kostya, qo‘rqma, hech gap yo‘q. Lekin, nazarimda... Lizaveta Petrovnaga odam yuborish kerak.

Sham yana yoqib qo‘yilgan edi. Kiti karavotda so‘nggi kunlarda to‘qiy boshlagan ishini qo‘lida ushlab o‘tirardi.

Kiti Levinning vhima bosgan yuzini ko‘rib:

– Qo‘rqma, aylanay, hech gap yo‘q. Men tирnoqcha ham qo‘rqmayman, – dedi-da, Levinning qo‘lini ko‘ksiga bosib, keyin lablariga keltirdi.

Levin o‘zini yo‘qotib sakrab turdi-da, ko‘zlarini Kitidan olmay xalatini kiyib, unga tikilgancha to‘xtab qoldi. Chiqish kerak bo‘lsa ham, lekin ko‘zlarini Kitining ko‘zlaridan ayira olmasdi. Kitining chehrasini sevmasmadi, ifodalarini, boqishlarini bilmasmidi, ammo uni hech mahal bu xilda ko‘rmagan edi. Kecha uni xafa qilganini eslab, hozirgi ahvoldagi Kiti oldida o‘zining nechog‘lik qabih, pastkash ekanligini ko‘z o‘ngiga keltirdi! Kallapo‘shi ostidan chiqib turgan mayin sochlar qurshovidagi lola yuzidan suyunch va qat’iyat yog‘ilib turardi.

Kitining umumiy xarakterida g‘ayritabiiylik va g‘ayrisamimiylik nechog‘liq oz bo‘lsa-da, butun pardalar birdaniga ko‘tarilib, qalb gavhari ko‘zlarida porlay boshlaganda, Levin ko‘z o‘ngida yaqqol ko‘ringan bu latofatdan aqlini yo‘qotib qo‘ydi. Kiti, Levin sevgan o‘sha Kiti, pardasi ko‘tarilgan shu soflikda, soddalikda yana ham ravshanroq ko‘zga chalinardi. U Levinga kulimsirab qarab turardi; lekin birdan qoshlari o‘ynadi, boshini baland ko‘tardi, tez yaqinlashib Levinning qo‘lini ushladi, butun vujudi bilan bag‘riga suqildi, issiq nafasi yuziga gupillab urdi. Kiti azob chekar, go‘yo azobidan Levinga shikoyat qilar edi. Odati bo‘yicha dastlab Levin o‘zini aybdor deb his qildi. Lekin Kiti ko‘zlarida shunday bir latofat bor ediki, bu latofat Levindan o‘pka qilish u yoqda tursin, balki uni shu azoblar tufayli yaxshi ko‘rganligini aytib turardi. Levin bu azob-larning sabablarini topish va uning jazosini berish uchun beixtiyor: «Aybdor men bo‘lmasam, boshqa kim axir?» – deb o‘ylandi: lekin o‘rtada aybdor yo‘q edi. Kiti azob chekar, zorlanar, bu azoblardan tantana qilar, quvonar, ularni sevardi. Levin Kitining qalbida go‘zal bir narsa sodir bo‘layotganini ko‘rar, lekin bu nima edi? – buni anglay olmay qiynalardi. Bu uning tushunchasidan yuksak narsa edi.

– Men oyimlarga odam yubordim. Sen tez Lizaveta Petrovnaga chop... Kostya!.. Hozir tuzuk, bosildi.

Kiti eridan uzoqlashib, qo‘ng‘iroqni chaldi.

– Qani endi, bor. Pasha kelyapti. Hozir yaxshiman.

Levin Kitining kechasi olib kelgan qo‘l ishini yana to‘qiy boshlaganini ko‘rdi-yu, hayron bo‘lib qoldi.

Levin bir eshikdan chiqqanda, ikkinchi eshikdan xizmatkor qiz kirganini eshitdi. U eshik og‘zida to‘xtab, Kitining xizmatkor qizga mufassal topshiriqlar bergenini, keyin qiz bilan birga karavot o‘rnini o‘zgartira boshlaganini eshitdi.

Levin kiyinib bo‘ldi-da, hali izvoshchilar kelmagani uchun aravasini qo‘sghunlaricha, yana yotoqxonaga chopib kirdi. Oyoq uchida yurib emas, nazarida, qanot chiqarib uchib kirganday bo‘ldi. Ikkita xizmatkor qiz yotoqxonada allanarsalarni tashvish bilan u yoq bu yoqqa olib qo‘yayotgan edi. Kiti yurib turib tez-tez ilmoqlar yasab to‘qir, buyruqlar berardi.

– Men hozir doktorga boraman. Lizaveta Petrovnaga odam ketdi, lekin o‘zim ham uchrayman. Biron narsa kerak emasmi? Ha, Dolliga xabar qilmaymizmi?

Kiti eriga bir qarab qo‘ydi, aftidan, gaplariga qulq solayotganday ko‘rinardi. Qoshlarini jiyirib, qo‘lini siltadi-yu:

– Xo‘p, xo‘p, bor, bor, – dedi shoshib.

Levin mehmonxonaga endi krib edi hamki, yotoqxonadan ayanchli bir faryod eshitildi, lekin darhol tindi. U taqa-taq to‘xtab, nima bo‘lganini anchagacha bilolmay turdi.

Levin o‘z-o‘ziga: «Ha, Kiti bu», – dedi-yu, boshiga chang solib pastga qarab yugurdi.

– Yo Xudo, rahming kelsin! Yo Xudo, o‘zing kechir! – deb iltijo qila ketdi Levin, kutilmaganda birdan og‘ziga kelgan so‘zlarni aytib. Dinga e’tiqod qilmaydigan bu odam bu so‘zlarni faqat tilidagina aytmas edi. Ko‘nglidagi shak-shubhalar emas, balki dinga shuurli suratda ishonishi mumkin emasligi to‘g‘risidagi qanoati ham hozir shu paytda Xudosiga yolvorishiga zarracha xalaqit bermasligini bilardi. Bu narsalarning hammasi hozir to‘zonday qalbidan uchib ketdi. Modomiki o‘zini, qalbini, sevgisini Xudoning ixtiyorida ekanligini sezgandan keyin yana kimga iltijo qila olardi.

Ot hali tayyor emas edi; lekin u jismoniy quvvati kuchayganini, oldida turgan ishlarni o‘ylab, g‘ayratga kirganini his etdi, bir daqiqasini ham zoe ketkizmaslik uchun otni ham kutib o‘tirmay, o‘zi piyoda yo‘lga chiqdi; orqasidan yetib borishni Kuzmaga topshirdi.

U muyilishda bir izvoshchining shoshib kelayotganini ko‘rdi. Lizaveta Petrovna kichkina chanada, baxmal paltosiga burkanib, boshiga ro‘mol o‘rab olib kelayotgan edi. Levin uning hozir juda

ham boshqacha ko'ringan jiddiy, hatto salobatli yuzini tanib, suyunganidan: «Xudoga shukur, xudoga shukur!» deb yubordi. Izvoshni to'xtattirmasdanoq Lizaveta Petrovnaning yoniga yugurib bordi.

— Ikki soatcha bo'ldi, deng? Ortgani yo'qmi? — deb so'radi Lizaveta Petrovna. — Pyotr Dmitrichni topasiz, lekin shoshiltirmang. Innaykeyin, dorixonadan qoradori oling.

Levin darvozasidan o'zining oti chiqib kelayotganini ko'rib:

— Chamangizda, eson-omon ko'z yorib oladimi? Xudoyo, o'zingning rahming kelsin, o'zing madad qil, parvardigori olam! — dedi-yu, chanaga sakrab chiqib Kuzmaning yoniga o'tirdi-da, doktornikiga qarab haydatdi.

XIV

Doktor hali uyg'onmagan ekan; lakey «Kech yotdilar, uyg'ot-manglar deb tayinlaganlar, o'zлari ham yaqinda turadilar», — deb aytdi. Lakey lampa shishalarini tozalar, bu ish bilan juda band ko'rindi. Lakeyning chiroq shishasiga butun fikri zikri bilan berilib ketgani, Levin qalbida yuz berayotgan hodisaga beparvo qarashi oldin uni ajablantirgan bo'lsa ham, keyin biroz o'ylanib ko'rib, qalbida yuz berayotgan hislarni hech kim bilmasligini, bilishga ham majbur emasligini, shu sababli bu parvosizlik devorini sindirib, maqsadga yetish uchun ham yaxshi o'ylab, og'ir bo'lib, qat'iy harakat qilish kerakligini anglatdi. Levin jismoniy quvvatining oshganini va qiladigan ishlarini o'ylab, diqqati kuchayib borganini sezdi-da, o'z-o'ziga: «Shoshilish ham, hech narsani ko'zdan qochirish ham kerak emas», — derdi.

Levin doktoring hali turmaganini bilib, boshida paydo bo'lган turli-tuman rejalaridan mana shunisiga to'xtadi: Kuzmaga xat yozib berib, uni boshqa doktorga yuboradi; o'zi bo'lsa dorixonadan qoradori olib keladi; qaytib kelguncha doktor turmasa, unda lakeyga pul qistirib, agar u ko'nmasa, zo'rlik qilib kiradi-yu, har nima bo'lsa ham doktorni uyg'otadi.

Dorixonaning ozg'in dorifurushi ham shu yerda kutib turgan izvoshching dorisini, boyagi chiroq shishasini beparvolik bilan tozalayotgan lakey singari bamaylixotir tayyorlab bo'lgandan so'ng,

Levinga qoradori sotgani unamadi. Levin shoshilmaslikka, qonini qizdirmaslikka tirishib, doktor bilan doyaning nomlarini aytdi-da, qoradorining nimaga kerakligini tushuntirib, dorifurushni ko'ndirishga tirishdi. Dorifurush qoradorini sotish mumkinmi-yo'qligini to'siq orqasidagi odamdan nemischalab so'radi, u yerdan rozilik olgandan keyin shisha bilan voronkani oldi, katta shishadan kichik shishaga imillab dori quydi, kichik shishaga qog'oz yopishtirdi, Levinning iltimosiga ham qaramay, shisha og'zini mahkamladi, hatto qog'ozga ham o'ramoqchi bo'ldi. Bunisiga Levin toqat qilolmadi; dorifurush qo'lidan shishani yulib oldi-yu, kattakon oynaband eshik tomon yugurdi. Levin kelsa, doktor hali ham turmabdi; lakey endi yerga gilam solish bilan ovora edi, u doktorni uyg'otishga ko'nmadi. Levin shoshilmasdan cho'ntagidan o'n so'mlik qog'oz pulni oldi-da, sekin-sekin gapirib, lekin vaqtidan o'tkazmasdan pulni lakeyga berdi-yu, Pyotr Dmitrich (ilgarilar nazariga ilmay kelgan Pyotr Dmitrich hozir Levinga naqadar buyuk, naqadar mo'tabar bir kishi bo'lib tuyulardi!) xohlagan vaqtingizda kelavering, deb va'da qilganini, shuning uchun jahli chiqmasligini uqtirdi: shu sababli hozir kirib uyg'otishi mumkinligini aytdi.

Lakey rozi bo'lib yuqori chiqib ketdi, Levinni esa qabulxonada kutishini iltimos etdi.

Doktorning eshik orqasida yo'talgani, yurgani, yuvingga va bir nimalar deyayotgani Levinga eshitilib turdi. Oradan uch daqiqagina vaqt o'tgan bo'lsa ham, bu Levinga bir soatdan ortiq ko'rindi, sabri chidamay:

– Pyotr Dmitrich, Pyotr Dmitrich! – deb qiya ochiq eshikdan yolvoruvchi bir tovush bilan chaqirdi. – Xudo xayringizni bersin, meni qabul qiling. Mayli, qanday bo'lsa ham hozir qabul qiling. Ikki soatdan ortib ketdi.

Ichkaridan:

– Hozir, hozir! – degan ovoz chiqdi; Levin bu so'zlarni doktor kulimsirab turib aytganini eshitib, hayron bo'ldi.

– Bir daqiqagina...

– Hozir.

Doktor etiklarini kiyguncha ikki daqiqa o'tdi, kiyimlarini kiyib, sochlarini taraguncha yana ikki daqiqa o'tdi.

Levin zorlanuvchi bir tovush bilan:

— Pyotr Dmitrich! — deb endi gap boshlagan edi, lekin doktor ichkaridan kiyinib-taranib chiqib qoldi, «Bu odamlarda vijdon yo‘q, — deb o‘ylandi Levin, — biz bu yerda o‘lib yotibmiz-u, bular taranib o‘tirishadi!»

Doktor o‘z vazminligi bilan Levinning qitig‘iga tegmoqchi bo‘layotgandek:

— Ertangiz xayrli bo‘lsin! — dedi unga qo‘lini cho‘zib. — Shoshilmang. Xo‘s, nima gap?

Levin qaylig‘ining ahvoli haqidagi luzumsiz tafsilotlarni mumkin qadar oqizmay-tomizmay aytishga shoshildi va doktorning hoziroq birga borishini qayta-qayta iltimos qilib, o‘z hikoyasini tez-tez bo‘lib turdi.

— Yo‘q, bunaqa shoshilmang. Axir siz bilmaysiz-ku. Men, ehtimol, kerak emasdirmam, lekin va‘dam bor, boraman. Lekin shoshilishning hojati yo‘q. Marhamat, o‘tiring, bir finjon qahva ichib olasizmi?

Levin doktorga qarab, ko‘zi bilan mendan kulyaptimi-yo‘qmi deb so‘ragandek bo‘ldi. Ammo kulish doktorning xayoliga ham kelgani yo‘q edi.

— Bilaman, bilaman, — dedi doktor kulimsirab, — o‘zim ham bola-chaqali odamman; lekin biz erkaklar shunday damlarda juda ayanchli holga tushib qolamiz. Menga o‘zini qaratib yuradigan bir xotin bor, o‘sha xotinning eri shunday paytlarda hamisha otxonaga qochib kirib ketadi.

— Pyotr Dmitrich, siz nima deysiz? Nazaringizda, eson-omon ko‘z yorib olarmikan, a?

— Ko‘nglingiz to‘q bo‘laversin, eson-omon qutulib oladi, bunga butun assoslар bor.

Levin qahva keltirgan lakeyga joni chiqib bir xo‘mraydi-yu:

— Bo‘lmasa hozir borasizmi? — deb doktordan so‘radi.

— Biror soatlardan so‘ng.

— Yo‘g‘-e, xudo xayringizni bersin!

— Unday bo‘lsa, keling, qahvamni ichib olay.

Doktor qahvasini ichgани o‘tirdi. Ikkalasi jim bo‘lib qoldi.

Doktor og‘zidagi bulkani chaynab turib:

— Turklarni rosa savalashyapti-ku. Kechagi telegrammani o‘qidingizmi? — dedi.

– Yo‘q, toqatim qolmadi, – dedi Levin o‘rnidan sakrab turib.
Demak, chorak soatdan keyin yetib borasiz, a?

- Yarim soatdan keyin.
- Chin so‘zmi?

Levin uyg‘a qaytayotib, yo‘lda knyaginyaga duch keldi: ikkalasi birga yotoqxona eshigiga kelishdi. Knyaginyaning ko‘zlariga yosh chiqqan, qo‘llari dir-dir titrar edi. Levinni ko‘rdi-yu, quchoqlab yig‘lab yubordi.

Knyaginiya shu mahal ro‘paradan chiqib kelgan Lizaveta Petrovnaning qo‘liga yopishib:

– Nima gap, jonginam Lizaveta Petrovna? – dedi. Lizaveta Petrovnaning yuzi yorishgan bo‘lsa ham, tashvish alomatlari bor edi.

– Ish joyida ketyapti, – dedi Lizaveta Petrovna, – yo‘lga soling, yotsin. Yotsa yaxshi bo‘ladi.

Levin uyqudan uyg‘onib, yuz berayotgan voqeani anglagan daqiqasidan boshlab hech narsani o‘ylamaslikka, fikr va tuyg‘ularini qulf-kalit qilib qo‘yishga, qaylig‘ining ta‘bini xira qilmay, aksinchcha, unga orom va dalda berishga, qarshisidagi qiyinchiliklarga matonat bilan chidashga tayyorlangan edi. U nima bo‘lishini, oqibati qanday bo‘lishini, odatda, bu qancha vaqt davom etishini aslo o‘ylamas, bu xil o‘ylarning miyasiga kelishiga sira-sira yo‘l qo‘ymas edi; Levin besh soatcha chidashga, yuragini shu muddat ichida bosib turishga xayolan tayyorlangan. Bu esa unga mumkindek ko‘ringan edi. Ammo doktornikidan qaytib kelib, Kitining hamon azob ichida ekanini ko‘rgandan so‘ng, tez-tez «Yo Xudo, o‘zing kechirgaysan, madad qilgaysan!» deydigan, oh urib, boshini ko‘kka ko‘taradigan bo‘ldi; bunga chiday olmasligini, yig‘lab yuborish yo qochib ketish mumkinligini sezib, vos-vos bo‘lib qoldi. U azob ichida qolgan edi. Holbuki, endigina bir soat o‘tgan edi.

Lekin bu bir soatdan keyin yana bir soat, ikki, uch va Levin sabr qila olishi uchun o‘zi belgilagan eng uzoq muddat, ya’ni besh soat o‘tgan bo‘lsa-da, ahvol yana boyagicha qolaverdi, shunday bo‘lsa ham u sabr qildi, chunki sabr qilishdan boshqa chorasi qolmagan edi; daqiqa sayin sabri tugab borganligini, yuragi achinishdan hali zamon yorilajagini sezib turardi.

Lekin daqiqa ketidan daqiqalar, soat ketidan soatlar o‘tib, vahima va iztirob hissi avjiga minib bordi.

Hayotning butun sharoiti (bu sharoitsiz hech narsani tasavvur qilib bo'lmaydi) Levin uchun ortiq ahamiyatini yo'qotgan edi. U vaqt tushunchasini yo'qotdi. Kiti uni o'z yoniga chaqirar, Levin ham uning ter bosgan qo'lini ushlab turar, Kiti esa goh g'ayrioddiy bir kuch bilan uning qo'lini qisar, goh uni o'zidan itarib yuborardi, shu daqiqalar Levinga goh soatlar qadar uzoq, goh daqiqalar qadar qisqa bo'lib tuyulardi. Lizaveta Petrovna to'siq orqasidagi shamni yoqib qo'ysangiz, deb iltimos qilganda, kun og'ib, soat besh bo'lганини bildiyu, hayron bo'lди. Agar unga hozir ertalab ekanligini, soatning ham endi o'n bo'lганини aytsalar, u bu qadar hayron qolmagan bo'lди. Shu muddat ichida nima bo'lганини qancha oz bilsa, shu vaqt ichida qayerda bo'lганини ham shuncha kam bilardi. Levin qaylig'ining yallig'langan, goh hayrat va iztirob aks etgan, goh jilmayib, unga taskin bergen chehrasini ko'rardi. Levin qizargan, titragan, oq sochlari to'zg'igan, lablarini tishlab, ko'z yoshlarini yutib turgan knyaginyani ham, Dollini ham, yo'g'on-yo'g'on papiroslar chekib yurgan doktorni ham, yuzidan qat'iyat, matonat va tasalli alomatlari barq urib turgan Lizaveta Petrovnani ham, qovoqlarini solib olib, zalda aylanib yurgan qari knyazni ham ko'rardi. Lekin ularning qanday kirib, qanday chiqqanlarini, qayerda turib, qayerda bo'lганларини Levin bilmasdi. Knyaginya goh doktor bilan yotoqxonada, goh dasturxon tuzalgan kabinetda ko'rinish qolar, goh u knyaginya emas, Dolli bo'lib qolardi. Keyin Levin o'zini qayoqqadir yuborishganlarini esladi. Bir qur divan bilan stolni olib kelgani yuborishdi. Levin bu narsalarni Kitiga deb o'ylab, jon-dili bilan keltirdi, faqat keyingina bu narsalardan o'ziga yotoq tayyorlaganligini bildi. So'ngra uni bir narsa so'rab kelgani doktor turgan kabinetga yuborishdi. Doktor so'ragan narsasiga javob qilgandan so'ng dumadagi boshboshdoqlikdan gap ochdi. Keyin uni knyaginyaning yotoqxonasidan kumush romiga zar yogurtirilgan Iso suratini olib kelgani yuborishdi; shunda knyaginyaning kampir xizmatkori bilan birga shkafcha ustidagi Iso suratini olaman deb, qandilni sindirib qo'ydi: knyaginyaning xizmatkori qaylig'ingizdan ham, qandilning singanidan ham xavotir bo'lманг, deb tasalli berdi, shundan keyin Isoning suratini olib kelib, Kitining bosh tomoniga, yostiq orqasiga avaylab qistirib qo'ydi. Lekin bu narsalarni qayerda, qachon, nima uchun qilganini o'zi bilmasdi. U nima uchun knyaginya qo'lidan ushlaganini, o'ziga rahmi kelib qaraganini, tasalli bergenini,

Dolli ovqat yeb olishni so‘rab, yotoqdan olib chiqib ketganligini, doktorning ham o‘ziga jiddiy bir suratda yuragi achishib qaraganini, dori taklif qilganini ham tushunmas edi.

U bundan bir yil muqaddam guberniya shahrining musofirxonasida Nikolay akasining o‘lim to‘shagida yuz bergen hodisa singari bir hodisa yuz berayotganligini bilar, his qilardi. Lekin unisi alamlı, bunisi esa quvonchli edi. Ammo u qayg‘uli hodisa ham, bu quvonchli hodisa ham hayotning butun oddiy sharoitidan bir xil tashqarida edi, bu oddiy hayotda go‘yo shunday bir tuynuk bor ediki, undan allaqanday yuksak, samoviy bir narsa ko‘rinib turardi. Bu narsa xuddi o‘shanday og‘ir edi, xuddi o‘shanday qiyinchilik bilan yuz berar edi; bu yuksak narsaga qaragan kishining ruhi o‘zi ilgarilari hech vaqt idrok qilmagan balandlikka ko‘tarilar, aqli esa ruhi ketidan yetolmay, orqada qolar edi.

Dindan shu qadar uzoq muddat chetda qolganiga va undan tamoman ajrab ketganday ko‘ringaniga qaramay, bolalik va o‘smirlilik chog‘laridagi singari ollohga xuddi o‘shanday imon bilan munojot qilayotganini sezib, nuqlu: «yo xudo, o‘zing kechirgaysan, o‘zing madad bergaysan!» deyardi.

Shu muddat davomida u bir-biridan farq qiluvchi ikki xil kayfiyat ta‘siri ostida edi. Yo‘g‘on papirosni paydar-pay chekib, keyin og‘zigacha to‘lib ketgan kuldon chetiga bosib, o‘chirib o‘tirgan doktor, Dolli va qari knyaz bilan ovqatdan, siyosatdan, Marya Petrovnaning kasalligidan so‘zlashib o‘tirgan, xotinini ko‘rmagan vaqtda bir boshqa kayfiyatda edi Levin shunday paytlarda yuz berayotgan hodisani bir daqiqagina tamoman esdan chiqarar, shunda o‘zini xuddi uyqudan uyg‘onib ketgandek sezardi; Levin xotinining boshida o‘tirganda butunlay boshqa kayfiyatda bo‘lar, Kitining tortayotgan azobidan yuragi yorilguday bo‘lar, lekin yorilmas, o‘zi esa xudoga iltijo qilishdan charchamas edi. Har safar yotoqxonadan kelgan faryodni eshitib hushiga kelganda, dastlabki daqiqada kechirgan g‘alati sarosimalik uni yana qamrab olardi; har safar xotinining faryodini eshitganda o‘rnidan sakrab turib ketar, o‘zini oqlagani Yugur, yo‘lda ketayotib, o‘zining aybdor emasligini eslar, qaylig‘ini himoya qilishni, unga yordam berishni istardi. Lekin unga qarardi-yu, yordam berishning iloji yo‘qligini ko‘rib, vahimaga tushar, yana: «Yo Xudo, o‘zing kechirgaysan, o‘zing madad qilgaysan!» –

derdi. Vaqt qancha ko'p o'tgan sari ikkala kayfiyati ham shuncha kuchayib borar edi: qaylig'i ko'zidan nari bo'lganida, Levin ham uni esdan chiqarib qo'yar, uning huzurida esa tortayotgan azoblarini ko'rib, qattiq qiynalar va o'zini ojiz his etardi. U o'midan sakrab turar, biron yoqqa qochib ketgisi kelar, lekin yana Kitining oldiga yugurib kirardi.

Ba'zan qaylig'i qayta-qayta chaqiraverganda, Levin uni ayblardi. Lekin uning kulimsirab turgan itoatkor chehrasini ko'rganda, «Seni qiynab qo'ydim», degan so'zlarini eshitganda, xudoni ayblardi-yu, ammo xudoni eslaganda, darhol tavba qilar, gunohlarini kechirishini so'rар edi.

XV

U vaqtning kechmi, ertami ekanligini bilmas edi. Shamlarning hammasi yonib bo'layozgan edi. Dolli hozirgina kabinetga kirib, doktorga mizg'ib olsangiz bo'lardi, deb taklif qildi. Levin doktorning ko'zbo'yoqchi gipnozchi to'g'risidagi hikoyasiga quloq solib, papirosining uchidagi kulga qarab o'tirardi. Dam olish payti bo'lgani uchun u o'z kayfi bilan band edi. Hozir nima voqeа yuz berayotgani butunlay xayolidan chiqqan. Doktorning hikoyasini eshitib, tushunib o'tirardi. Birdan hech mahal eshitilmagan bir faryod ko'tarildi. Bu faryod shu qadar vahimali ediki, Levin o'tirgan joyida qotib qoldi, lekin nafasini ichiga yutib, doktorga qo'rqa-pisa savol nazari bilan yalt etib qaradi. Doktor kallasini yonga bukib quloq soldi-yu, ma'qullab kulimsiradi. Ro'y berayotgan hodisalar shunday g'ayrioddiy ediki, Levin hayratlanmay qo'ydi. «Shunday bo'lishi kerakdir», – deb o'ylab, o'midan ham qo'zg'almadı. Bu kimning faryodi edi? U sakrab turdi-yu, oyoq uchlarida yotoqxonaga kirib, Lizaveta Petrovna bilan knyaginyaning yonidan o'tib borib o'z o'rniga, Kitining boshiga kelib turdi. Faryod tingan bo'lsa ham, lekin bu yerda bir nima o'zgargani sezilib turardi. Ammo nima hodisa bo'lganini u ko'rgani ham, tushungani ham yo'q, ko'rishni ham, tushunishni ham xohlamasdi. Lekin bu o'zgarishni Lizaveta Petrovnaning yuzidan ko'rib turardi: Lizaveta Petrovnaning iyaklari biroz titrab turgan, ko'zlarì Kitiga tikilib qolgan bo'lsa hamki, oqarib ketgan yuzida jiddiyat va qat'iyat bor edi. Kitining qattiq azob chekib

yallig‘langan bir tutam sochi yopishib qolgan terli yuzi Levinga o‘girilgan, Levinning qarashiga muntazir, ko‘tarilgan qo‘llari esa uning qo‘llarini ushslashni istar edi. Terlab ketgan qo‘llari bilan uning sovuq qo‘llarini ushlagandan so‘ng yuziga keltirib bosa boshladi.

— Ketma, ketma! Qo‘rqayotganim yo‘q, qo‘rqayotganim yo‘q! — dedi u shoshib. — Oyi, baldog‘imni olib qo‘ying. Xalaqit beryapti. Sen qo‘rqayotganing yo‘qmi? Mana hozir, mana hozir, Lizaveta Petrovna...

Kiti shoshib, bidirlab gapirar, jilmaygisi kelardi. Shu vaqt birdan yuzi burishdi, Levinni o‘zidan nari itardi.

— Yo‘q, bu dahshatli! O‘laman, o‘lib qolaman! Bor, bor! — deb qichqirdi Kiti, ana shunda yana boyagi hech nimaga o‘xshamagan faryod ko‘tarildi.

Levin boshini changallab, xonadan chopib chiqib ketdi.

Dolli orqasidan:

— Hechqisi yo‘q, hechqisi yo‘q, yaxshi boryapti! — deb qoldi.

Ular nima desalar desin, ammo Levin endi hamma ish barbod bo‘ldi, deb bilardi. U qo‘sni xonada boshini eshikka suyab turar, allakimning o‘zi hech mahal eshitmagan chinqirig‘ini, bo‘kirishini eshitar, chinqirgan bu narsa — ilgari Kiti deb atalgan narsa deb bilardi. Bolani endi orzu qilmasdi. U endi bu boladan nafratlanardi. U endi Kitining hatto yashashini ham istamas, faqat bu dahshatli azoblarningina tugashini istardi.

Levin ichkari kirib kelgan doktoring qo‘liga chang solib:

— Doktor! Bu qanday gap axir? Ayting, bu qanday azob axir? Yo, Xudo! — dedi.

— Tamom bo‘lyapti, — dedi doktor. Bu so‘zlarni aytayotganda yuzida shu qadar bir jiddiyat bor ediki, Levin tamom bo‘lyapti so‘zlarini «jon beryapti» degan ma’noda tushundi.

U es-hushini yo‘qotib, yotoqxonaga chopib kirdi. Dastavval ko‘rgan narsasi — Lizaveta Petrovnanning chehrasi bo‘ldi. Uning yuzi yana ham jiddiy tus olgan, qosh-qovoqlari yana ham battar osilgan edi. Kitining yuzini tanib bo‘lmagdi. Uning yuzi o‘rnida endi tirishib-bujmayib ketgan, g‘alati tovushlar chiqarayotgan qo‘rqinchli bir narsa bor edi. Levin yuragini yorilayotganini sezib, boshini karavot taxtasiga tashladi. Vahimali faryod tinmagan edi; bu faryod yana ham dahshatli tus oldi, keyin u dahshatning xuddi so‘nggi

pardasiga ko‘tarilib bo‘lgandek birdan tindi. Levin o‘z qulqlariga ishonmasa ham, lekin shubhaga o‘rin qolmagan edi: faryod tindi, ohista harakatlar, shitir-shitirlar, hansirashlar eshitildi: shu dam Kiti jonli, muloyim, baxtli bir tovush bilan harsillab: «Tamom bo‘ldi», – dedi.

Levin boshini ko‘tardi. Kiti misli ko‘rilmagan darajada ochilib ketgan edi; majolsiz qo‘llarini odeyal ustiga tashlab, qimir etmay yotardi; u Levinga jimgina qarab, kulimsirashni istar, lekin kula olmas edi.

Ana shunda Levin so‘nggi yigirma ikki soat ichida yashab kelgan sirli, dahshatli, uzoq bir olamdan bir zumda ilgarigi oddiy olamga tuyqusdan qaytarilganini sezdi; lekin bu olam shu qadar yangi baxt nurlarini sochardiki, bunga bardosh berolmadı. Tarang tortilgan hayajon torlari uzildi. U hech vaqt kutmagan bir shodlik yig‘isi, ko‘z yoshlari vujudini shu qadar to‘ldirdi, shu qadar larzaga keltirdiki, u ancha vaqtgacha gapirolmay goldi.

Levin qaylig‘ining karavoti yoniga kelib tiz cho‘kdi, uning qo‘lini lablariga keltirib o‘pdi; bu qo‘l ham barmoqlarining majolsiz harakatlari bilan uning o‘pishlariga javob qildi. Bu orada o‘rnining oyoq tomonida, Lizaveta Petrovnaning chaqqon qo‘llarida yangi bir xilqat hayoti xuddi pilpillab yonayotgan chiroq kabi tebranar, ilgari mayjud bo‘limgan bu xilqat o‘zi uchun ayni huquq, mazmunli hayot talab qilardi, uning o‘zi kabi xilqatlar vujudga keltirishi muqarrar edi.

– Tirik! Tirik! Buning ustiga, yana o‘g‘il! Xavotir qilmang! – dedi Lizaveta Petrovna titrab turgan qo‘li bilan chaqaloq orqasiga shap-shap urib. Levin Lizaveta Petrovnaning so‘zlarini eshitdi.

Kitining ham:

– Rostmi, oyi? – degan ovozi eshitildi.

Unga knyaginyaning faqat hiq-hiq yig‘isigina javob bo‘ldi.

O‘rtaga tushgan sukunat ichida onasining savoliga eng to‘g‘ri javob bo‘lib butunlay boshqacha bir ovoz eshitildi; bu ovoz xonada gapirilayotgan past, ehtiyyotli ovozlardan tamoman bo‘lakcha edi. Bu – qayerdan paydo bo‘lganligi kishini hayron qoldiradigan yangi inson, xilqatning hech narsani pisand qilmagan dadil, jasur chirqirashi edi.

Agar ilgari Levinga Kiti o‘ldi, sen ham u bilan birga o‘lding, bolalaringiz farishtalar, xudoyi taolo qoshlaringizda, – deb aytishsa, Levin bu gapga hech ajablanmagan bo‘lardi; lekin endi haqiqiy

olamga qaytgandan so'ng Kitining sog'-u salomatligini, jon-u jahdi bilan chirqirayotgan xilqat o'zining o'g'li ekanligini anglash uchun butun aqlini zo'r berib ishga solardi. Kiti salomat qolgan, to'lg'oq azoblari tugagan edi. Levin endi ta'rifdan tashqari baxtiyor edi. U bu narsani anglar, bu bilan baxtiyor edi. Xo'sh, chaqaloq nima qilib yuribdi? Qayerdan keldi, nima uchun keldi, o'zi kim u?.. Levin bu narsaga sira ham tushunmas, bu fikrga sira ham ko'nikib ketolmasdi. Bu allaqanday ortiqcha narsaday tuyulardi, shuning uchun bunga uzoq vaqtlargacha ko'nikolmay yurdi.

XVI

Soat to'qqizdan oshgan edi; qari knyaz, Sergey Ivanovich va Stepan Arkadich Levinlarnikida yangigina ko'z yorigan yosh ona to'g'risida gurunglashib bo'lgandan so'ng, u yoq bu yoqdan gaplashib o'tirishardi. Levinning quloqlari ularda bo'lsa ham, lekin xayoli boshqa narsada edi: bugun ertalabgacha bo'Igan narsalarni beixtiyor eslar, kecha, bu voqeaga qadar o'tgan umrini xotirlardi. Nazarida, shundan yuz yil o'tib ketganday tuyular edi. U o'zini qo'l yetmas bir yuksaklikda his etar, suhbatdoshlarini xafa qilmaslik uchun o'sha yuksaklikdan tushishga harakat qilardi. Og'zi gap bilan bo'lsa ham, fikr-u zikri xotinida, hozirgi ahvolning mayda-chuyda tomonlarida, o'g'lida edi; u o'g'li borligiga o'zini ko'niktirmoqchi bo'lardi. Uylanganidan keyin uning nazarida o'ziga ma'lum bo'lмаган ayollar olami endi yangi ma'no kasb etgan, hozir Levinning nazarida shu qadar yuksaklarga ko'tarilgan ediki, uni xayol quchog'iga sig'dirishdan ojiz edi. Levin kecha klubda qilishgan ovqat to'g'risidagi gapni eshitib o'tirib: «Hozir Kiti nima qilyapti ekan, uxlayaptimikan? Ahvoli qanday bo'ldi ekan? Nimalarni o'layotibdi ekan? O'g'lim Dmitriy chinqiryaptimikan?» deb o'yldi. Oxiri suhbat o'rtasida, yo'q, gap o'rtasida sapchib turib, uydan chiqib ketdi.

— Menga xabar qil, yoniga kirsam bo'larmikan, — dedi knyaz.

— Xo'p, hozir, — dedi-yu, Levin imillab o'tirmasdan to'g'ri qaylig'ining bo'lmasiga qarab ketdi.

Kiti uxlamagan, o'g'lini cho'qintirish marosimi haqida onasi bilan sekin-sekin gaplashayotgan edi.

Kiti taranib-tusangan, boshiga havorang bezakli chiroyli chepchik kiygan holda qo'llarini odehyal ustiga chiqarib qo'yib chalqancha yotgan edi; eriga nigoh tashlab, shu nigohi bilan uni o'ziga tortdi. Levin yaqinlashgan sari Kitining azalgi nurli chehrasi yana yorishib ketdi. Chehrasida g'alati bir o'zgarish bor edi; bu o'zgarish murdalar yuzida ko'rinaradigan ulviylikni eslatardi; ammo murdalar yuzida ayrilish alomati bo'lsa, bunda topishish nishonasi bor edi. Yana Levingning yuragida xotini ko'z yorayotgan paytda qo'zg'agan hayajonga o'xshagan bir hayajon paydo bo'ldi. Kiti uning qo'lini ushlab, uxlaganmiyo'qligini so'radi. Levin javob qilolmadi, ko'ngli buzilib borayotganini sezib, yuzini o'girib oldi.

— Hech narsani bilmay yotib qolibman, Kostya! — dedi Kiti. — Endi qushdayman.

Kiti unga qarab yotgan edi, birdan yuzi o'zgarib ketdi. Chaloqning yig'laganini eshitib:

— Menga beringlar, — dedi. — Olib keling, Lizaveta Petrovna, Kostya ham ko'rsin.

Lizaveta Petrovna qip-qizil g'alati qimirlab turgan allaqanday narsani ko'tarib kelayotib:

— Mana, mana, dadasi ham ko'rsin, — dedi. — Shoshmang, oldin yasanib olaylik. — Lizaveta Petrovna qimirlab turgan bu qizil narsani karavotga qo'ydi-da, yo'rgaklarini yechib, bir barmog'i bilan ko'tardi va aylantirib allanarsalar sepgandan so'ng, yana yo'rgakka o'radi.

Levin bu murg'ak, nimjon xilqatga qaradi-da, qalbida unga nisbatan otalik hislarining nishonasini qidirishga tirishib ovora bo'ldi. U chaqaloqdan faqat jirkanayotganini his etardi. Lekin uni yalang'ochlaganlarida, cho'pday ingichka qo'lchalariga, qo'lchalar singari barmoqli, hatto boshqalaridan farq qilib turgan boshmaldoqli oyoqchalariga ko'zi tushganda, Lizaveta Petrovna bu tarvaqaylagan qo'lchalarini yumshoq prujina singari bosib, turib bez lattalarga o'rayotganini ko'rganda, bu xilqatga yuragi shu qadar achishdi, Lizaveta Petrovna unga lat yetkazadi, deb shu qadar qo'rqdiki, borib doyaning qo'lidan ushladi.

Lizaveta Petrovna kulib yubordi.

— Qo'rqmang, qo'rqmang!

Chaqaloq yo'rgaklanib, qo'g'irchoqqqa o'xshab qolgandan so'ng Lizaveta Petrovna o'z ishidan faxrlanayotgandek, bolani bir

tebratdi-yu, Levin o'g'lini butun chiroyida ko'rsin deb, orqaroqqa tisarildi.

Kiti ham ko'zlarining qirini o'sha tomonga tashlab yotardi.

– Olib keling, olib keling! – dedi u o'rnidan turib ketguday bo'lib.

– Hay-hay, Katerina Aleksandrovna, sizga nima bo'ldi!
Qimirlash yaramaydi-ya! Shoshmang, hozir olib borib beraman.
Keling, bizning qanday azamat yigitligimizni dadamiz bir ko'rsinlar!

Lizaveta Petrovna qimirlayotgan, boshini yo'rgak chetiga yashirayotgan bu g'alati, qizil xilqatini bir qo'li bilan (ikkinchi qo'lining barmoqlari likillayotgan boshchani gardanidan tirab turardi) ko'tarib, Levinga uzatdi. Bu xilqatning ham burni, qisiq ko'zları, chapillab turgan lablari bor edi.

– Ajoyib bola! – dedi Lizaveta Petrovna.

Levin xafa bo'lib xo'rsindi. Bu ajoyib bola unda faqat jirkanch va ayanch hissinigina uyg'otar edi. Bu his u kutgan hisga sira ham o'xshamasdi.

Lizaveta Petrovna chaqalojni hali o'rganmagan ko'krakka to'g'-rilab yotqizib qo'yguncha, Levin teskari o'girilib turdi.

Birdan jaranglagan kulgi ovozi boshini ko'tarishga majbur qildi.
Kiti kulayotgan edi. Chaqaloq ema boshlagandi.

Lizaveta Petrovna:

– Hay-hay, bas, bas! – desa ham, Kiti chaqalojni ayirmas edi.
Buvak onasining qo'lida uxlab qoldi.

Kiti chaqalog'ini otasi ko'ra oladigan qilib aylantirdi-da:

– Mana endi ko'r, – dedi. Buvakning chollarnikiga o'xshagan yuzchasi yana battar tirishdi, keyin aksirdi.

Levin ko'ngli iyib ketganidan ko'zlariga yugurgan yoshni zo'rg'a tiyib, kulimsiradi-da, xotinining qo'lini o'pib, qorong'i uydan chiqdi.

Bu kichkina xilqatga nisbatan o'zida uyg'ongan his kutgan hisga aslo o'xshamas edi. Bu hisda ko'nglini shod-xurram qiladigan hech bir narsa yo'q edi; aksincha, bu azob beruvchi yangi bir vahima edi. U shu bilan o'zining yana bir zaif tomoni borligini sezdi. Dastlabki paytlarda bu sezgi shu qadar iztirobli, bechora xilqat lat yemasaydi degan vahmi shu qadar kuchli bo'ldiki, Levin chaqaloq aksirganda yuragida uyg'ongan g'alati, bema'ni shodlik, hatto mag'rurlik hissini bu vahima zo'ridan sezmay qoldi.

XVII

Stepan Arkadichning ishlari chatoq edi.

O'rmonning uchdan ikki qismi uchun olingan pullar yeb bo'linib, qolgan uchdan bir qismining puli o'n foiz chegirish sharti bilan savdogardan barvaqt olib bo'lingan edi. Savdogar qolgan pulni bermay qo'ydi, chunki Darya Aleksandrovna o'z mulkiga bo'lgan huquqini shu qish birinchi marta ochiq-oshkor himoya qilib, o'rmonning qolgan uchdan bir qismi uchun to'lanadigan pulini olishga tuzilgan shartnomaga qo'l qo'yishdan bosh tortdi. Oyligining hammasi ro'zg'or xarajatlariga va bitmas-tuganmas mayda qarz-qurzlarga ketardi. Pul qurigan edi.

Stepan Arkadichning fikricha, bu nojo'ya edi, odamni noqulay ahvolga tushirib qo'yar edi, ahvol bu tariqa davom qilmasligi kerak edi. Uning fahmicha, bu ahvolning sababi haddan ziyod kam maosh olganida edi. Bundan besh yil ilgari ko'ziga yaxshi ko'ringan amali endi hech yoqmay qoldi. Bank direktori Petrov – yiliga o'n ikki ming so'm; shirkat a'zosi Sventitskiy o'n yetti ming; bankni ta'sislagan Mitin – ellik ming so'm oladi. Stepan Arkadich: «Chamamda, uxlab qolgan bo'lsam kerak, meni eslaridan chiqarishgan-da», deb o'ylardi. Shuning uchun quloqlari ding, ko'zлari javdirab qoldi, natijada, qish oxirlarida o'ziga bopta bir joy topib, hujumga o'tdi; bu hujumni oldin Moskvadan, xola-ammalari, tog'a-amakilari, oshna-og'aynilari orqali boshladi. Ish bitgandan keyin esa ko'klamda o'zi Peterburgga qarab jo'nadi. Bu – yilda ming so'mdan ellik ming ming so'ngacha maoshi bo'lgan turli-tuman amallardan biri edi; bu xil amallar, serpora, issiq o'rinalar hozir burungidan ko'proq uchrardi; bu amal janubiy temir yo'li kredit-qarz balansi agentligi bilan bank idoralarining birlashgan komissiyasiga a'zolikdan iborat edi. Bu amal ham shunga o'xshagan boshqa hamma amallar singari bir odamda bo'lishi qiyin bo'lgan nihoyatda katta bilim va ishchanlikni talab qilar edi. Bu har ikki sifatga ega bo'lgan bironta odam topilmagani uchun bu amalgalga haromxo'r odam o'tirganidan ko'ra, har holda, halol odam o'tirishi ma'qul edi. Stepan Arkadich esa majoziy ma'nodagi halol odam bo'lish bilan birga, haqiqatan ham halol odam edi. Moskvada halol arbob, halol yozuvchi, halol jurnal, halol idora, halol maslak degan so'zlarni shu ma'noda ishlata dilar; bu so'z odam yo'idoranining haromxo'r emasligini

bildirish bilan birga, balki payti kelganda hukumatni chaqib olishga qobil ekanliklarini ham bildirardi. Stepan Arkadich Moskvada bu so'z ishlatiladigan muhitda o'ralashib yurganidan halol odam deb hisoblanar, shuning uchun bu amalga boshqalardan ko'ra ko'proq haqi bor edi.

Bu o'rinni yilda yetti mingdan o'n ming so'mgacha daromad keltirar edi, shu bilan birga, Oblonskiy hukumat idorasidagi xizmatini tashlamasdanoq bu o'rinni egallashi mumkin edi. Bu o'rinni ikki ministr, bir xonim va ikki yahudiyga bog'liq edi; bu odamlar bilan gap bir yerga qo'yilgan bo'lsa ham, Stepan Arkadich ularni Peterburgga borib ko'rishi kerak edi. Bundan tashqari, Stepan Arkadich singlisi Annaga Karenindan taloq xususida qat'iy javob olib kelishga va'da qilgan edi. Shunday qilib, Dollidan ellik so'm so'rab oldi-yu, Peterburgga jo'nab ketdi.

Stepan Arkadich Kareninning kabinetida uning rus moliyasining yomon ahvolda ekanligi sabablari haqidagi loyihasiga qulq solib, o'zining ham, Annaning ham ishidan gap ochish uchun loyihami o'qib bo'lishini poylab o'tirardi.

Aleksey Aleksandrovich ko'zoynaksiz o'qiyolmay qolgan edi. U ko'zoynagini olib, sobiq qaynag'asiga savol nazari bilan qaraganda, Stepan Arkadich:

– Ha, juda to'g'ri, – dedi, – tafsiloti e'tibori bilan juda to'g'ri, lekin har nima bo'lganda ham zamonamizning prinsipi hurlikdir.

Aleksey Aleksandrovich:

– Shundayku-ya, lekin men hurlik prinsipi o'z ichiga oladigan boshqa prinsipni oldinga suryapman, – dedi «o'z ichiga oladigan» so'zlariga urg'u berib; keyin shu prinsip tilga olingan joyini yana o'qib berish uchun tag'in ko'zoynagini taqdi.

Aleksey Aleksandrovich hoshiyalarini keng qoldirib, chiroli xat bilan yozilgan qo'lyozmasini varaqlab, odamda ishonch tug'diradigan joyni yana o'qib berdi.

U ko'zoynagi ustidan Oblonskiyga qarab:

– Men homiylik tizimining ayrim shaxslar manfaati uchun emas, umumiy baxt-saodat uchun – ham past, ham baland sinflar uchun bir xil bo'lishini xohlayman, – dedi. – Lekin ular bu narsani tushuna olmaydilar, ular faqat shaxsiy manfaatlari bilangina bo'lib, chiroli so'zdan nariga o'tmaydilar.

Stepan Arkadich Kareninning ular, ya'ni Kareninning loyihalarini qabul qilishni xohlamaganlar va Rossiyada butun yovuzliklarning sababchilari bo'lganlar nimalar qilishib, nimalar o'ylashayotgani to'g'risida gap boshlaganda suhbatning tugalishi yaqin ekanligini bilardi: shu sababli hurlik prinsipidan bajonidil voz kechdi-yu, Aleksey Aleksandrovichning fikriga to'la qo'shilib qo'ya qoldi. Aleksey Aleksandrovich jim bo'lib, qo'lyozmalarini o'ychanlik bilan varaqlay boshladи.

— Ha, aytmoqchi, — dedi, — Stepan Arkadich, — sendan bir iltimosim bor edi; Pomorskiy bilan ko'rishganingda, paytini topib aytib qo'ysang: Janubiy temir yo'llar kredit-qarz balansi birlashgan agentligida bo'shayotgan komissiya a'zoligi o'rnini egallash ishtiyoqida edim.

Yuragiga jo bo'lib qolgan bu o'rinning nomini aytishga tili o'rganib qolgani uchun Stepan Arkadich buni hech adashmasdan tez gapirdi.

Aleksey Aleksandrovich bu yangi komissiyaning ishi nimadan iboratligini so'rab, o'ylanib qoldi. Bu komissiyaning ishida o'z loyihalariga qarshi biron narsa yo'qmikan deb o'ylardi. Lekin bu yangi idoraning faoliyati juda murakkab bo'lgani, o'zining loyihalari esa juda katta bir sohani qamrab olgani uchun bunga darhol fahmi yeta olmasdi; shu sababli ko'zoynagini tushirib:

— Aytib qo'yishim mumkin, bunga shubha yo'q, — dedi, — nima uchun xuddi shu o'rinni egallamoqchisan?

— Maoshi yaxshi, to'qqiz ming so'mgacha. Mening mablag'im esa...

— To'qqiz ming so'm, — deb takrorladi Aleksey Aleksandrovich qosh-qovog'ini osiltirib. Bu maoshning kattaligi unga Stepan Arkadich ilinjida bo'lgan faoliyat shu jihatdan o'z loyihalarining asosiy ma'nosiga zid ekanligini xotirlatdi; uning loyihalari esa hamma vaqt tejab-tergashni nazarda tutardi.

— Menimcha, bizning zamonamizda bu katta maoshlar hukumatimiz olib borayotgan soxta iqtisodiy assiette¹ nishonasidir; men bu haqda yozganman ham.

— Xo'sh, sen qanday bo'lsin deysan? — dedi Stepan Arkadich. — Xayr, faraz etaylik, bank direktori o'n ming so'm oladi — axir

¹ Siyosat (frans.).

shunga loyiq-ku! Yoki injener yigirma ming so‘m oladi. Na chora, bor gap!

– Mening nazarimda, maosh tovar uchun to‘lanadigan haq, shu vajhdan talab va taklif qonuniga munosib bo‘lishi kerak. Agar maosh bu qonundan tashqariga chiqib ketsa, masalan, institutni tugatgan va bir xil bilim, bir xil iste’dodga ega bo‘lgan ikki injenerdan bittasi qirq ming organini, ikkinchisi esa ikki ming so‘m bilan cheklanganini: hech qanday maxsus ma’lumotga ega bo‘lmagan huquqshunoslarni, gusarlarni katta maosh bilan jamiyat banklarining direktorligiga tayinlaganlarini ko‘raman-u, maoshning talab va taklif qonuniga qarab emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri odamlarning yuziga qarab tayinlanayotganligiga qanoat hosil qilaman. Bu narsaning o‘zi muhim bir suiste’mol bo‘lib, davlat xizmatiga katta zarar yetkazadigan bir jinoyatdir. Nazarimda...

Stepan Arkadich kuyovining so‘zini shoshib-pishib bo‘ldi.

– Shundaydir-u, lekin yangi tashkil topayotgan idoraning foydali ekaniga ham tan ber-da. Nima desang de, ammo jonli ish! Bu ish halollik bilan yo‘lga solinsa, nihoyatda xursand bo‘lishadi, – dedi Stepan Arkadich halollik so‘ziga urg‘u berib.

Lekin halol so‘zining Moskvadagi ma’nosini Aleksey Aleksandrovich tushunmas edi. Shuning uchun:

– Halollik faqat salbiy sifat, xolos, – dedi.

– Pomorskiyga bir og‘iz aytib qo‘ysang, esdan chiqmaydigan ish qilarding, – dedi Stepan Arkadich. – Gaplashib o‘tirganingda mundog’...

Aleksey Alkssandrovich:

– Chamamda, bu narsa ko‘proq Bolgarinovga bog‘liq bo‘lsa kerak, – degan edi, Stepan Arkadich qizarib:

– Bolgarinov qarshi emas, xo‘p deyapti, – dedi.

Bolgarinovning oti tilga olinganda Stepan Arkadichning qizarib ketgani bejiz emas edi: u shu bugun ertalab yahudiy Bolgarinovning qabulida bo‘lgan va bu narsa unda yomon taassurot qoldirgan edi. Qilmoqchi bo‘lgan ishining yangi, jonli, haloł ish ekaniga Stepan Arkadichning imoni komil edi; lekin shu bugun ertalab Bolgarinov qabulxonasiga kelgan boshqa arizachilar bilan birga uni ham ikki soatcha atayin kuttirib qo‘yganda, noqlay ahvolga tushib qoldi.

Ryurik nasli-nasabidan bo'lgan knyaz Oblonskiy bo'la turib bir juhudning qabulxonasida ikki soat sarg'aygani uchunmi yoki hukumat xizmatini qila turib, umrida biringchi marta ota-bobosining yo'lidan bormay, yangi sohaga qadam qo'yayotgani uchunmi, noqulay ahvolga tushib qolgan edi. Bolgarinov qabulxonasida sarg'aygan shu ikki soat mobaynida Stepan Arkadich bakenbardlarini tuzata-tuzata u yoq bu yoq aylanib yurar, ish bilan kelgan boshqa odamlar bilan gaplashar, juhud qabulini kutib qanchalik sarg'ayganligini keyin hikoya qilib berish uchun gap o'yalar, shu orada his qilib turgan narsalarini boshqalardan, hatto o'zidan ham tirishib-tirmashib sir saqlar edi.

Shu muddat davomida o'zini noqulay his qilib, jahli chiqib turgan bo'lsa ham, lekin sababini o'zi ham bilmasi: ishim tushdi juhudga, vaqtim ketdi behuda, qabilida tuzgan gapidan hech nima chiqmaganidanmi yo boshqa sababdanmi, haytovur, ta'bi xira edi. Bolgarinov uning izzati nafsi anchagina xorlab, maza qilib oldi, shekilli, nihoyatda zo'r izzat va hurmat bilan qabul qilib, iltimosini qariyb rad etganda, Stepan Arkadich bu narsani mumkin qadar tezroq esdan chiqarishga shoshildi. Mana hozir esladi-yu, birdan qizarib ketdi.

XVIII

Stepan Arkadich biroz jim turgandan va bu noxush taassurotini o'zidan quvgandan so'ng:

– Senda yana bitta ishim bor, buning qanaqa ishligini o'zing bilasan. Anna to'g'risida, – dedi.

Oblonskiy Annaning otini aytar-aytmas Aleksey Aleksandrovichning avzoyi butunlay o'zgarib ketdi: tetikligi yo'qolib, yuzi oqarib murdadek bo'lib qoldi. U o'tirgan kursisida aylanib, ko'z-oynagining g'ilofini sharaq etkazib yopdi-da:

– Menden nima istaysiz, muddaongiz nima? – dedi.

– Qaror, biron qaror, Aleksey Aleksandrovich. Endi men senga («tahqir etilgan er» demoqchi bo'ldi-yu, lekin bu so'z ishni buzib qo'yishidan qo'rqib, boshqa so'zlarni ishlatdi) davlat odami sifatida emas (bunisi ham o'rinsiz chiqdi), balki oddiy bir odam bo'lganidan, shunda ham mehr-u shafqatli va nasroniy odam bo'lganidan murojaat qilaman. Sen Annaga rahm qilishing kerak, – dedi Stepan Arkadich.

Karenin past tovush bilan:

- Ya’ni, nimada rahim qilishim kerak? – dedi.
- Ha, achinish kerak. Men shu yil qishni uning yonida o’tkazdim, agar sen ham men kabi uning ahvolini ko‘rgan bo‘lsang, sening ham yuraging achishar edi. Ahvoli og‘ir, juda ham og‘ir.

Aleksey Aleksandrovich chiyillab, ingichka bir tovush bilan javob berdi:

– Nazarimda, Anna Arkadevna xohlagan narsalariga erishgan bo‘lsa kerak.

– Eh, Aleksey Aleksandrovich, xudo haqi, o’tgan narsalarni eslab o’tirmaylik! O’tgan ishga salovat, deydilar. U nimani xohlaganini, nimani kutib o’tirganini o‘zing bilasan – taloq qilishingga intizor.

– Lekin men o‘g‘limning menda qoldirishini talab etganim uchun Anna Arkadevna taloqdan voz kechyapti, deb xayol qilibman. Men shunday javob qilib, ishni tugadi, deb o‘ylovdim. Hozir ham tugagan deb hisoblayman, – dedi Aleksey Aleksandrovich.

Stepan Arkadich kuyovining tizzasiga qo‘lini tekkizib:

– Yo‘q, xudo haqi, qizishma, – dedi. – Ish tugagani yo‘q. Agar gapning po‘skallasini aytishimga ijozat bersang, aslida, ish bunday bo‘lgan edi: ajrashgan paytingizda sen mumkin qadar olajanoblik ko‘rsatding; sen unga hamma narsani – ozodlikni, hatto taloqni ham berding. Anna bu olajanobligingdan minnatdor bo‘ldi. Yo‘q, ko‘nglingga boshqa gap kelmasin. Ha, minnatdor bo‘ldi. Shu qadar minnatdor bo‘ldiki, o‘zini sening oldingda gunohkor sezgani uchun o‘sha dastlabki daqiqalarda bu narsalarni o‘ylamadi, o‘ylashga qurbi yetmas ham edi. Natijada, hamma narsadan voz kechdi. Lekin zamon va haqiqat ahvolining izardobi ekanini, boshi berk ko‘chaga kirib qolganini ko‘rsatdi.

Aleksey Aleksandrovich qoshlarini chimirib, uning gapini bo‘ldi:

– Anna Arkadevnaning hayoti meni qiziqtira olmaydi.

Stepan Arkadich muloyimlik bilan e’tiroz etdi:

– Ruxsat et, men bunga ishonmayman. Ahvoli o‘zi uchun juda og‘ir, hech kim uchun bundan manfaat yo‘q. Qilmishiga yarasha bo‘ldi, dersan. Anna shunday deb o‘ylashingni bilgani uchun ham sendan iltimos qilmaydi-da. U biron narsa so‘rashga yuragi dov bermaganini ochiq-oshkor aytyni. Lekin men, hamma qarindoshlari,

uni sevguvchilar sendan iltimos qilamiz, senga yalinib-yolvoramiz. Nima uchun u azob chekishi kerak? Bundan kimga foyda?

— Kechirasiz, sizlar meni aybdor qilib qo'yyapsizlar-ku, — dedi Aleksey Aleksandrovich.

Stepan Arkadich yana uning qo'liga qo'lini tegizdi-yu, bu qilig'i kuyovini yumshatishiga ishongandek:

— Yo'g'-e, unday emas, mening gapimga tushun, — dedi. — Men faqat ahvolining og'irligini aptyapman, sen uni yengillashtirishing mumkin, shunday qilsang, baribir, hech narsa yo'qotmaysan. Men ishni shunday to'g'rيلامани, o'zing ham sezmay qolasan. Va'da qilgansan axir.

Aleksey Aleksandrovich ranggi bo'zarib, lablari qaltirab, zo'rg'a:

— Ilgari va'da qiluvdim. Ishni o'g'lim masalasi hal qiladi deb o'ylovdim. Bundan tashqari, Anna Arkadevnaga oljanoblik ta'sir qilar degan umidda edim... — dedi.

— U hali hamma narsani sening oljanobligingga havola qilib qo'ygan. U o'zi tushib qolgan yomon ahvoldan qutqazishingni iltimos qiladi, yalinib-yolvorib so'raydi. Hozir o'g'lini talab qilayotgani yo'q. Aleksey Aleksandrovich, shafqatli odamsan. Bir zum bo'lsa ham uning ahvolini ko'z oldingga keltir. Hozirgi ahvolida taloq masalasi uning uchun hayot-mamot masalasi-ya! Agar ilgari taloq qilishga va'da bermaganingda, taqdiriga tan berib, qishloqda qolardi. Lekin sen va'da qilgansan. Shuning uchun senga xat yozib, Moskvaga ham keldi. Mana endi Moskvada, har bir ko'ringan tanish yuragiga xanjar bo'lib sanchilayotgan bir yerda, kun sayin masalaning hal bo'lishini kutib, olti oydan beri turibdi. Axir bu ham o'limga hukm qilingan kishini bo'ynida sirtmoq bilan: balki o'larsan, balki kechirilarsan, degan va'da bilan oylarcha saqlash bilan bir-ku. Unga rahming kelsin, u yog'ini qo'yib ber, o'zim to'g'rيلامан... Vos scruples'...

— Men buni aytayotganim yo'q, buni emas... — dedi Aleksey Aleksandrovich jirkanish bilan uning so'zini bo'lib. — Balki va'da qilishga haqim bo'lmagan narsani va'da qilgandirman.

— Nima, endi va'dangdan bosh tortmoqchimisan?

— Iloji bor narsani bajarishdan men hech qachon bosh tortgan emasman, lekin bergen va'damning iloji qanchaligini o'ylashim uchun fursat kerak.

¹ Sening nafsoniyating... (frans.)

– Yo‘q, Aleksey Aleksandrovich! – dedi Oblonskiy o‘rnidan sakrab turib. – Bu gapingga ishona olmayman! Anna shu qadar baxtsizki, hech bir xotin bundan ortiq baxtsiz bo‘lmaydi, shuning uchun iltimosini qaytarolmaysan...

– Berilgan va’daning ilojiga qarab. Vous protessez d’etre un libre penseur¹. Lekin men dindor odam bo‘lganim uchun bunday muhim masalada nasroniga qarshi harakat qilolmayman.

– Lekin, mening bilishimcha, nasroniy jamiyatida ham, bizda ham taloqqa yo‘l qo‘yiladi, – dedi Stepan Arkadich. – Taloqqa bizning cherkovimiz ham yo‘l qo‘yadi. Ko‘rib turibmiz...

– Yo‘l qo‘yadi, lekin bu ma’noda emas.

– Aleksey Aleksandrovich, men senga hayron bo‘lib qoldim, – dedi Oblonskiy biroz jim turgandan so‘ng. – Uning hamma harakatini kechirgan, nasroniylik aqidasi bilan ish ko‘rib, hamma narsani qurban qilishga tayyor turgan sen emasmidring? (Biz sening harakatlaringni taqdirlamaganmidik?) «Ko‘ylagingni yechirib olganlarida, kamzulingni ham qo‘shib ber», deb o‘zing aytmabmiding? Mana endi...

– Iltimos qilaman, – Aleksey Aleksandrovich birdan turib ketdi, rangi bo‘zardi, iyagi qaltirab, gapira ketdi: – iltimos qilaman, iltimos qilaman sizdan... bas qiling bu gapni.

– Xayr, kechir, seni xafa qilgan bo‘lsam, meni kechir, – Stepan Arkadich xijolat bo‘lganidan kulimsirab, unga qo‘lini cho‘zdi, – men faqat o‘zimga topshirilgan so‘zni aytdim, xolos.

Aleksey Aleksandrovich qo‘lini berdi, biroz o‘y surib turgandan keyin bir fikrga kelib:

– O‘yashim, keyin bunga yo‘l-yo‘riq topishim kerak. Indinga uzil-kesil javobimni aytaman, – dedi.

XIX

Stepan Arkadich chiqib ketmoqchi bo‘lib turganda, Korney kirib:

– Sergey Alekseyevich! – dedi.

– Kim bu Sergey Alekseyevich? – deb Stepan Arkadich so‘ramoqchi bo‘ldi-yu, lekin darhol eslab: – Eh! Seryoja! – dedi. – «Sergey Alekseyevich» desa, departament direktorimi deb

¹ Sening hur fikrli kishi degan noming bor (*frans.*).

o'ylabman. – Keyin esladi: «Anna Seryojani ko'rib kelgin deb iltimos qiluvdi».

Anna o'zini yuborayotganda, hurkak va ayanch bir qiyofada: «Har holda uni ko'rasan. Yaxshilab bil: qayerda, yonida kim bor, innaykeyin, Stiva... agar iloji bo'lsa! Iloji bordir-u, a?» degan so'zlarini xotirladi. Stepan Arkadich «agar iloji bo'lsa» degan so'zlarning ma'nosini anglagan edi, agar iloji bo'lsa talog'imni shunday bersinki, o'g'lim o'zimda qolsin, degan ma'noda edi... Hozir Stepan Arkadich bu to'g'rida o'yashning ham foydasi yo'qligini bildi, shunday bo'lsa ham jiyanini ko'rishdan xursand bo'lди.

Aleksey Aleksandrovich o'g'liga onasidan hech vaqt og'iz ochmasliklarini qaynag'asiga eslatib, undan onasi to'g'risida churq etmaslikni iltimos qildi.

– Bizning beparvoligimiz orqasida o'sha safar onasini ko'rgandan keyin qattiq betob bo'lib qoldi, – dedi Aleksey Aleksandrovich. – Bir nima bo'lib qoladimi, deb yomon qo'rqdik. Lekin to'g'ri muolaja qilingani hamda yoz kunlari dengizda cho'milgani salomatligini saqlab qoldi. Hozir doktorning maslahati bilan uni maktabga berdim. Chindan ham o'rtoqlari unga yaxshi ta'sir qilishdi, hozir soppa-sog' bo'lib ketdi, o'qishi ham yaxshi.

Stepan Arkadich egniga ko'k pidjak, uzun shim kiygan, dadil, betakkalluf kirib kelgan keng yag'rinli, chiroyli bolani ko'rib kulimsiradi.

– E, azamat yigit bo'lib qolibdi-ku! Kichkina Seryoja emas, kattakon Sergey Alekseyevich! – dedi u.

Bola sog'lom, xushvaqt ko'rinaridi. U tog'asiga yot odamday ta'zim qilgan bo'lsa ham, taniganidan keyin qizarib, darhol undan teskari o'girilib oldi. Keyin otasining yoniga kelib, maktabidan olgan darslar bahosini ko'rsatdi.

– Ha, chakki emas, boraver, – dedi otasi.

– Ancha ozib, bo'yiga tortib qolibdi; go'daklikdan chiqib kaptatta bola bo'lib qolibdi, juda xursand bo'ldim, – dedi Stepan Arkadich. – Meni taniyapsanmi?

Bola yalt etib orqasiga qaradi.

– Taniymain, mon onele,¹ – deb javob berdi tog'asiga qarab, tag'in darrov qosh-qovog'ini solib oldi.

¹Tog'amsiz (*frans.*).

Tog‘asi uni yoniga chaqirib, qo‘lidan ushladi.

– Xo‘s, ishlar qalay? – dedi u gaplashmoqchi bo‘lib, lekin nima to‘g‘risida gaplashishni bilmas edi.

Bola qizarib-bo‘zardi, javob qilmasdan, qo‘lini tog‘asining qo‘lidan sekin tortdi. Stepan Arkadich qo‘lini qo‘yib yuborar-yubormas, otasiga nima qilay degandek bir qarab oldi-yu, qafasdan chiqarilgan qushday shaxdam odimlar bilan uydan chiqib ketdi.

Seryoja onasini so‘nggi marta ko‘rganiga bir yil bo‘lgan edi. Ana o‘shandan beri onasi to‘g‘risida hech nima eshitmagan edi. O‘sha yili uni maktabga berishdi, Seryoja o‘rtoqlari bilan tanishib, ularni sevib qoldi. Onasi bilan ko‘rishgandan so‘ng uni betob qilib qo‘yan orzu va xotiralar endi Seryojaning xayoliga kelmasdi. Bu orzu va xotiralar esiga tushganda, bularni ayb narsa deb, o‘g‘il bolaga emas, qizlarga yarashadigan narsa deb, xayolidan quvishga tirishardi. U otasi bilan onasi o‘rtasida ularni bir-biridan ajratgan janjal borligini, o‘zining peshonasiga esa otasi bilan qolish bitilganini bilar, bu fikrga o‘zini ko‘niktirishga tirishardi.

Oناسига о‘хшаган тог‘асини ко‘риб, дили сиёҳ бо‘лди, чунки бу нарса у аyb hisoblagan xotiralarni xayolida uyg‘otdi. Kabinet eshigi yonida kutib turganda qulqlariga chalingan ba‘zi so‘zlardan, ayniqsa, отаси билан tog‘asining aftlaridan onasi haqida gap ketayotganligini payqagani uchun ham yuragi besh battar siqilib ketdi. Seryoja bilan birga turgan va o‘zi qaramog‘ida bo‘lgan otasini qoralamaslik, ayniqsa, pastkashlik deb hisoblagan hissiyotga berilmaslik uchun o‘zining tinchini buzgани kelgan бу tog‘aga qaramaslikka, u eslatib turgan odamни о‘ylamaslikka tirishdi.

Lekin Stepan Arkadich ketma-ket chiqib uni zinapoyada ko‘r-di-yu, yoniga chaqirdi; tog‘asi tanaffus mahallari vaqtini qanday o‘tkazishini so‘raganda, Seryoja tog‘asi bilan gaplashdi, chunki u hozir otasi yonida emas edi.

У tog‘asining savoliga:

– Hozir maktabda temir yo‘l o‘yini o‘ynaymiz, – deb javob berdi. – Bunday qilamiz; ikkita bola o‘rindiqqa o‘tiradi. Bular yo‘lovchilar. Bitta bola bo‘lsa o‘rindiqqa tikka turadi. Hammamiz o‘rindiqqa qo‘shilamiz. Qo‘l bilan qo‘shilsa ham, kamar bilan qo‘shilsa ham bo‘ladi, keyin zallardan zallarga tortamiz. Eshiklar oldin ochib qo‘yilgan bo‘ladi. Lekin konduktor bo‘lish juda mushkul-da!

Stepan Arkadich kulimsirab:

- Haligi tik turganmi? – deb so‘radi.
- Ha, bu ishda dadil, chaqqon bo‘lish kerak, ayniqsa, birdan poezd to‘xtab qolganda yoki biron yo‘lovchi yiqilib tushganda.

Stepan Arkadich Seryojaning onasini kiga o‘xshagan, ortiq bola ko‘zlar holatidan chiqib, ma’sumligini anchagina yo‘qotgan o‘ynoqi ko‘zlariga hasrat bilan qarab:

- Ha, bu hazilakam emas, – dedi. – So‘ngra Aleksey Aleksandrovichga Annadan og‘iz ochmaslikka va’da qilgan bo‘lsa ham, so‘zida turolmadi. Birdan:

– Hech onangni eslaysanmi? – deb so‘rab qoldi.

Seryoja darrov:

- Yo‘q, eslamayman, – dedi-yu, loladay qizarib, tumtayib oldi. Bundan keyin tog‘asi undan bir og‘iz ham so‘z eshitmadi.

Slavyan murabbiy shogirdini yarim soatdan so‘ng zinapoyadan topib, uning jahli chiqqanini ham, yig‘layotganini ham anchagacha aniqlay olmadi.

- Nima bo‘ldi, yiqilganingizda bir yeringiz qattiq lat yedimi? – dedi murabbiy. – Men aytdim-a sizga: xavfli o‘yin deb. Maktab mudiriga ham aytib qo‘yish kerak.

– Yiqilib, bir yerimga lat yetkazsam hech kim sezmasdi. Ko‘nglingiz to‘q bo‘lsin.

– Yo‘qsa nima bo‘ldi?

– Qo‘ying meni! Eslaymanmi, eslamaymanmi... uning nima ishi bor? Eslab nima qilaman? Meni o‘z holimga qo‘ying! – U endi murabbiysiga emas, butun dunyoga qarab gapirdi.

XX

Stepan Arkadich har mahalgiday, Peterburgda vaqtini bekor o‘tkazmadi. Peterburgda singlisining talog‘ini olish, xizmat masalasini gaplashishdan tashqari, uning ta‘biri bilan aytganda, Moskvaning diqqinafa muhitidan keyin har vaqtdagiday, toza havo olishi kerak edi.

Moskva, cafes chantants¹ va omnibuslariga qaramay, har holda ko‘mak botqog‘iga o‘xshardi. Stepan Arkadich buni hamma vaqt

¹ Ochiq sahnali qahvaxona yoki restoran.(frans.)

sezib turardi. Moskvada, ayniqsa, bola-chaqasi yaqinida turganda, ruhi tushib ketardi. Moskvadan hech qayoqqa jilmay, u yerda uzoq qolib ketganda, xotinining yomon muomalasi va o'pka-ta'nasi, bolalarining sihat-salomatligi va tarbiyasi, xizmatga doir mayda masalalar ta'bini xira qila boshlardi; hatto qarzlarini ham o'ylab besaranjom bo'lardi. Lekin Peterburgga kelib, hamisha aralashib yuradigan muhitda, Moskvadagi singari zavqsiz, bema'ni hayot emas, chinakamiga hayot kechiradigan muhitda tura boshlagach, bu o'yłari o't taftidan erigan mum shamday erib g'oyib bo'lib ketardi.

Xotini-chi?.. Bugun knyaz Chechenskiy bilan gaplashdi. Knyaz Chechenskiy xotinli, bola-chaqali odam, kap-katta bo'lib qolgan paj o'g'illari bor ekan; qonunsiz turadigan yana boshqa xotini ham, undan orttirgan bolalari ham bor ekan. Birinchi xotini ham yaxshi ekan-u, lekin knyaz Chechenskiy ikkinchi xotini yonida ko'proq huzur qilar ekan. Katta o'g'lini ikkinchi xotininikiga birga olib borar ekan; u Stepan Arkadichga bu narsa o'g'lining voyaga yetishiga foydasi borligini aytgan. Bunday gapga Moskvada nima deyishar ediylkin?

Bolalari-chi? Peterburgda bolalar otalarining turish-turmushlariga xalaqit berishmaydi. Bolalar tarbiyaxonalarda tarbiya olishadi. Bolalar hayot lazzatini surishlari, ota-onalar esa zahmat chekib, ularning g'amlarini yeishlari kerak, degan vahshiyona tushunchani Moskvada tarqatuvchilar, masalan, Lvovga o'xshaganlar bu yerda yo'q edi. Bu yerda inson o'qimishli kishilarga yarashadigan taxlitda o'zi uchun yashashi kerak, deb tushunardilar.

Xizmati-chi? Bu yerda xizmat ham Moskvadagi singari odamni ezib tashlaydigan, umidsizlik tug'diradigan og'ir yuk emas edi; bu yerda xizmatdan manfaat bor. Ko'rshib turish, xizmat ko'rsatish, o'tkir so'z aytish, birovlarni turli shakllarda taqlid qilish orqasida odamning birdaniga mansabi ko'tarilib ketadi. Masalan, kecha Stepan Arkadich ko'rgan Bryantsev birinchi a'yon bo'lib oldi. Bunday xizmatdan manfaat bor.

Ayniqsa, Peterburgda pul muomalasiga bo'lgan munosabat Stepan Arkadichga tasallli berar edi. O'z tarzi hayotiga qarab, yilga kamida ellik ming so'mning boshiga suv quyib kelayotgan Bartnyanskiy kecha shu haqda ajoyib so'z aytdi.

Tushlik ovqatdan oldin Stepan Arkadich gaplashib o'tirib Bartnyanskiyga:

– Nazarimda, sen Mordvinskiyga yaqin bo‘lsang kerak, – dedi, – baraka topkur, mening to‘g‘rimda bir og‘iz aytib qo‘ysang, hech unutmaydigan ish qilarding-da. Men ko‘z ostimga olib qo‘ygan bitta o‘rin bor. Agentlik a‘zosi...

– Ey, baribir, esimda qolmaydi... menga qara, bu temir yo‘l ishida juhudlarga qo‘silib nima qilasan-a?.. Nima desang de-yu, lekin bu bir razolat!

Stepan Arkadich buni «moyli joy» deb atamadi, buni Bartnyanskiy, baribir, uqmas edi.

– Pul kerak, tirikchilik chatoq bo‘lib qoldi.

– Tirikligingni ko‘rib yuribsan-u!

– Tiriklikka-ku tirikman-a, lekin qarzim bor.

– Yo‘g‘-e? Ko‘pmi? – deb so‘radi Bartnyanskiy uning ahvoliga achinib.

– Juda ko‘p, yigirma ming so‘mcha.

Bartnyanskiy sharaqlab kulib yubordi.

– O‘, baxtli odam ekansan! – dedi u. – Mening esa bir million so‘m qarzim bor, lekin qup-quruqman, shunday bo‘lsa ham, ko‘rib turibsan, o‘lganimiz yo‘q!

Stepan Arkadich uning gap-so‘zdagina emas, haqiqatda ham to‘g‘ri ekanligini ko‘rdi. Jivaxovning uch yuz ming so‘m qarzi bor ekan, yonida esa bir chaqasi ham yo‘q; shunday bo‘lsa ham noppazin yuribdi. Yurganda ham qandini urib yuribdi! Graf Krivtsovning allaqachon janozasini o‘qib qo‘yishibdi-yu, hali ham ikkita xotinini gullatib yuribdi. Petrovskiy besh million so‘mmi pok-pokiza yeb bo‘pti, shunday bo‘lsa ham yana boyagiday yashaydi, hatto moliya ishlarini boshqarib, yiliga yigirma ming so‘m maosh oladi. Bundan tashqari, Peterburg Stepan Arkadichga jismoniy jihatdan ham shukuh berardi. Peterburg uni yashartirardi. Moskvada esa goho sochlarining oqiga qarar, ovqatdan so‘ng uxbab qolar, zinadan bir-bir qadam tashlab, harsillab chiqardi; yosh juvonlar yonida zerikar, ballarda o‘yinga tushmay o‘tirardi. Peterburgda esa o‘zini o‘n yosh yashargan his qilardi.

U Peterburgda o‘zini yaqindagina chet eldan qaytib kelgan olt-mish yashar knyaz Pyotr Oblonskiy kecha aytgan ahvolda his qilardi.

– Biz bu yerda yashash yo‘lini bilmaymiz, – degan edi Pyotr Oblonskiy. – Ishonasanmi, butun yozni Badenda o‘tkazdim; ey, nimasini aytasan, qirchillama yigitga o‘xshadim-qoldim. Yosh juvonni

ko'rsam, miyamga nimalar kelmaydi... ovqatni boplab qilasan, ozroq ichib olasan, qarabsanki, kuchga to'lib, lorsillab ketibsan. Rossiyaga qaytib keldim, – xotinimning oldiga, yana qishloqqa borish kerak, – ey, aytsam ishonmaysan, ikki haftadan keyin xalat kiyib oldim, ovqatga kiyinmay chiqadigan bo'ldim. Yosh juvonlarni o'ylash qayoqda! Butunlay qaridim-qoldim. U dunyonи o'ylashdan boshqa narsa qolmadи. Parijga bordim – yana mixday bo'ldim.

Stepan Arkadich ham Pyotr Oblonskiy sezgan farqning xuddi o'zini sezib turardi. Moskvada uning ham shu qadar hafsalasi pir bo'lib qolardiki, agar u yerda uzoq tursa, xudo ko'rsatmasin, u dunyo g'amini yeydigan bo'lib qolardi: Peterburgda esa o'zini yana noppa nozin odam his qilardi.

Knyaginya Betsi Tverskaya bilan Stepan Arkadich o'rtasida uzoq vaqlardan beri nihoyatda g'alati bir munosabat davom etib kelardi. Stepan Arkadich hamisha unga hazil aralash jigarso'xtalik qilar, Betsining yoqtirganini bilgani uchun hazillashib pardasiz narsalar aytardi. Karenin bilan gaplashgan kunining ertasiga Stepan Arkadich Betsinikiga kelib, o'zini shu qadar yosh his etdi, bu hazil aralash jigarso'xtalik va yolg'on-yashiq so'zlarida bexosdan shu qadar haddan oshib ketdiki, oqibatda, yoqasini qanday tutqazishni bilmay, o'ralashib qoldi; sho'riga, Betsi unga yoqmas, balki ko'nglini ag'darardi. Oralaridagi munosabatning bu xil tus olishiga sabab shu ediki, Stepan Arkadich Betsiga yoqardi. Shuning uchun knyaginya Myagkaya kelganda Stepan Arkadich juda suyundi. Chunki knyaginya o'zining kelishi bilan ular o'rtasidagi mahramlikka xotima bergen edi.

– Ha, siz ham shu yerda ekansiz-ku, – dedi knyaginya Myagkaya Stepan Arkadichni ko'rib. – Xo'sh, bechora singlingiz qalay? Meni unaqa deb o'ylamang, – deb gapiga qo'shib qo'ydi. – Hamisha, ayniqlsa, Annadan yuz ming marta battar bo'lganlar unga hujum boshlashgandan beri: «Anna ajab qildi!» deydigan bo'ldim. Annanining Peterburgda ekanini menga xabar qilmagani uchun Vronskiyini aslo kechirmayman. Jon-jon deb oldiga ham borardim, qayoqqa borsa, birga ham yurardim. Shunday qiling, mening muhabbatimni aytib qo'ying, baraka topkur. Qani, singlingizdan gapiring, eshitaylik.

Stepan Arkadich soddadil odam bo'lganidan knyaginya Myagkayaning «Qani, singlingizdan gapiring, eshitaylik» degan so'zlarini chin yuragidan aptyapti deb o'ylab:

— Ha, ahvoli og‘ir, u... — deb so‘z boshlagan edi, knyaginya Myagkaya odatini qilib, darrov uning gapini bo‘ldi-yu, o‘zi gapira ketdi.

— Anna mendan boshqa hamma qiladigan ishni qildi, lekin boshqalar qilg‘iliqlarini yashirib yurishadi; Anna bo‘lsa odamlarni aldamadi, ajab qildi. Innaykeyin o‘sha ovsar erini tashlab ketgani ham juda yaxshi bo‘ldi. Meni kechirasiz-da. Hamma kuyovingizni aqli, juda aqli odam derdi, men bir o‘zim tentak deb yurardim. Mana endi Lidiya Ivanovna bilan, keyin Landau bilan topishib olgandan so‘ng, hamma ovsar deydigan bo‘ldi; menga qolsa, jon-jon deb hech kimning gapiga qo‘shilmas edim, lekin bu safar iloji yo‘q.

— Qani, bu gapning ma’nosi nima ekan, baraka topkur, bir tushuntirib yuboring, — dedi Stepan Arkadich. — Kecha singlim masalasida oldiga borib, uzil-kesil javob qilishini so‘radim. Javob bermay, o‘ylab ko‘raman, dedi; bugun ertalab esa javobini olish o‘rniga, shu kun kechqurun meni grafinya Lidiya Ivanovnanikiga taklif qilgan qog‘ozini oldim.

Knyaginya Myagkaya suyunib:

— Ha, ha, shundog‘-shundog‘! — dedi. — Ular Landauning fikrini so‘rashadi.

— Nega Landau fikrini? Nima uchun? Landau nima o‘zi?

— Iya, hali lules Landau, le fameux lules Landau, le clairvoeventni¹ bilmaysizmi? Landau ham bir tentak odam, lekin singlingizning taqdiri o‘shanga bog‘liq. Viloyatda yashovchilar hayotda mana shunaqa narsalar bo‘lib turganidan bexabar-da. Bilsangiz, Landau Parij magazinlarining birida Commis² ekan. Bir kun doktorga boribdi-yu, qabulxonada uqlab qolib, uyqusida hamma kasallarga maslahat bera boshlabdi. Maslahatlari ham juda g‘alati. Bir kun Yuriy Meledinskiyning — bilasiz-a shu kasalni? — xotini Landau ni eshitib qolibdi-yu, topib erining oldiga olib kelibdi. Hozir erini davolayapti. Chamamda, eriga hech qanday foyda yetkazgani yo‘q, nimaga desangiz, eri boyagiday majolsiz, shunday bo‘lsa ham Landauva ishonib, uni birga olib yurishadi. Rossiyaga ham olib kelishdi. Bu yerda hamma unga sajda qila boshladti, mana hozir hammani davolayapti.

¹ Jyul Landoni, bashorat qiladigan mashhur Jyul Landonya (*frans.*).

² Prikazchik, gumashta (*frans.*).

Grafinya Bezzubovani shifolagan ekan, yaxshi ko'rib qolib, o'g'il qilib olibdi.

– Qanday o'g'il qilib oladi?

– Shunday, o'g'il qilib olibdi-da. Endi u Landau emas, graf Bezzubov. Lekin gap bunda emas, boshqa yoqda; men Lidiyani juda yaxshi ko'raman, lekin to'g'risini aytishim kerak, miyasi joyida emas, nimaga desangiz, Lidiya ham ana o'sha Landauga osilib oldi; hozir Landausiz Lidiyaning ham, Aleksey Aleksandrovichning ham ishi bitmaydi. Shu sababli singlingizning taqdiri hozir ana o'sha Landauning, boshqacha qilib aytganda, graf Bezzubovning qo'lida.

XXI

Stepan Arkadich Bartanyanskiyda yaxshilab ovqatlangandan va mo'l-ko'lgina konyak ichgandan so'ng grafinya Lidiya Ivanovnanikiga tayinlangan vaqtidan faqat ozgina kechikib keldi.

Stepan Arkadich Aleksey Aleksandrovichning tanish paltosi bilan boshqa bir g'alati, oddiy paltoni ko'rib:

– Grafinyaning huzurida yana kim bor? Fransuzmi? – deb so'radi shveytsardan.

– Aleksey Aleksandrovich Karenin bilan graf Bezzubov, – dedi shveytsar salobat bilan.

Stepan Arkadich zinadan chiqib borayotib: «Knyaginiya Myagkaya topibdi, – deb o'ylandi. – G'alati! Lekin grafinya bilan inoqlashib olsam, zarar qilmasdi. So'zi o'tadigan tanishlari juda ko'p-da. Agar Pomorskiyga bir og'iz aytib qo'ysa bormi, ishlar besh-da».

Tashqari hali yop-yorug' bo'lsa ham, grafinya Lidiya Ivanovnaning pardalari tushirib qo'yilgan kichkina mehmonxonasida allaqachon chiroq yoqib qo'yilgan edi.

Chiroq tagidagi yumaloq stol yonida grafinya bilan Aleksey Aleksandrovich bir nima to'g'risida sekin-sekin gaplashib o'tirardi. Bo'yi o'rtamiyona, ozg'in, lekin sag'ri ayollarniki singari katta, tizzalari ichkari tomonidan buzik, rangida bir qatra qoni bo'lmasa ham, chehrasi chiroqli, uzun sochlari syurtugining yoqasiga tushib turgan bir shahlo ko'z kishi xonanинг narigi chetida devordagi portretlarni tomosha qilib turardi. Stepan Arkadich uy bekasi va Aleksey Aleksandrovich bilan ko'rishgandan so'ng notanish kishi tomonga yana bir marta beixtiyor qarab qo'ydi.

Grafinya Oblonskiyni hayron qilgan yumshoq, muloyim bir tovush bilan:

— Monsieur Landau! — deb murojaat qilgandan so'ng ularni tanishtirdi.

Landau darrov o'girilib qaradi, yaqin kelib Stepan Arkadichning cho'zilgan qo'liga o'zining ter bosgan, jonsiz qo'lini kulimsirab qo'ydi-yu, yana darhol uzoqlashib, portretlarni tomosha qila boshladi. Grafinya bilan Aleksey Aleksandrovich bir-biriga tagdor qilib qarab olishdi.

Grafinya Lidiya Ivanovna Stepan Arkadichga Karenin yonidan joy ko'rsatib:

— Sizni ko'rganim uchun, ayniqsa, shu bugun ko'rganim uchun xursandman, — dedi. Keyin fransuzga, so'ngra darhol Aleksey Aleksandrovichga bir qarab olib, past tovush bilan gapirdi: — Sizga uni Landau deb tanishtirdim, lekin o'zingiz ham bilarsiz, haqiqatda graf Bezzubov. Faqat bu unvonini yoqtirmaydi.

— Ha, eshitdim, — dedi Stepan Arkadich, — grafinya Bezzubovani shifolagandan keyin u butunlay sog'ayib ketgan emish.

— Grafinya bugun mening oldimga keldi, ko'rib biram yuragim achishdi! — dedi grafinya Aleksey Aleksandrovichga qarab. — Bu ayriqliq unga juda ham og'ir. Uning uchun katta zarba!

— Nima, muqarrar ketmoqchimi? — deb so'radi Aleksey Aleksandrovich.

— Ha, Parijga ketyapti. Kecha bitta ovoz eshitibdi, — dedi grafinya Lidiya Ivanovna Stepan Arkadichga qarab.

Oblonskiy bu odamlar orasida o'zi tushunmaydigan allaqanday hodisa yuz berayotganligini yoki yuz berishi kerakligini payqadi, iloji boricha ehtiyyot bo'lishga tirishib:

— O', ovoz! — dedi takrorlab.

O'rta tushgan bir daqiqalik sukunatdan so'ng grafinya Lidiya Ivanovna suhbatning asosiy mavzuiga kirishayotgandek muloyimgina jilmayib:

— Sizni ko'p vaqtlardan beri taniyman, endi yaqindan taniyotganim uchun juda xursandman, — dedi Oblonskiyga. — Les amis le nos amis sont nos amis¹. Lekin do'st bo'lish uchun do'st qalbidan

¹ Do 'stlarimizning do 'stlari – bizning do 'stlarimiz (*frans.*).

xabardor bo'lish kerak: men bo'lsam sizni Aleksey Aleksandrovichga shunday munosabatda emassiz, deb qo'rqaman, – dedi grafinya Lidiya Ivanovna chiroyli, o'ychan ko'zlarini ko'tarib. – Nima to'g'risida gapirayotgan gapimni fahmlayotgandirsiz?

Oblonskiy masala nima ustida ekanligini yaxshi fahmlamagani uchun umumiy gaplar bilan cheklanish maqsadi-da:

– Qisman tushunaman, grafinya, Aleksey Aleksandrovichning ahvoli... – deb gap boshlagan edi, grafinya Lidiya Ivanovna:

– Undagi o'zgarish zohiriyo o'zgarish emas, qalban o'zgarish, – dedi qat'iy qilib. U shu so'zлarni aytayotganda, o'rnidan qo'zg'alib, Landau tomonga o'tgan Aleksandr Aleksandrovichni ma'shuqa ko'zлari bilan kuzatib turdi. – Uning qalbi o'zgargan, unga yangi qalb ato bo'lган. Shuning uchun unda yuz bergen o'zgarishni durustroq fahmlamagansiz, deb qo'rqaman.

Stepan Arkadich grafinyaning qarashiga muloyim qarash bilan javob berib, ko'zlarini suzib:

– Ya'ni bu o'zgarishni umumiy tarzda tasavvur qila olaman. Biz Aleksey Aleksandrovich bilan hamma vaqt do'st edik, hozir ham... – dedi, ikki ministrdan qaysi biriga grafinyaning yaqinligini aniqlash va grafinya orqali qaysi biridan iltimos qilishni o'ylab.

– Unda yuz bergen o'zgarish yaqin kishilariga bo'lган muhabbat hissini kamaytirmaydi, aksincha, undagi o'zgarish bu muhabbatni oshiradi. Lekin mening gaplarimga tushunmaysiz, deb qo'rqaman. Choy ichasizmi? – dedi grafinya patnusda choy keltirgan lakeyga ko'zi bilan ishora qilib.

– U qadar emas, grafinya. Albatta, uning bu baxtsizligi...

– Ha, bu baxtsizlik oliy baxtga aylandi, qalbi yangilangandan keyin shu baxt bilan to'ldi, – dedi grafinya Stepan Arkadichga ma'shuqalarcha qarab.

Stepan Arkadich ichida: «Chamamda, ikkala vazirdan ham iltimos qildirsam bo'ladiganga o'xshaydi», – deb o'yladi.

– O, albatta, grafinya, – dedi Stepan Arkadich, – menimcha, bu o'zgarishlar shu qadar maxfiyki, hech kim, hatto eng yaqin odami bu xususda og'iz ochib gapirgisi kelmaydi.

– Aksincha! Biz gapirishimiz, bir-birimizga yordam qilishimiz kerak.

– Albatta, bunisi shubhasiz, lekin aqidalarimizda shu qadar farq bo‘lardiki, bundan tashqari... – dedi Oblonskiy muloyimgina kulimsirab.

– Muqaddas haqiqatda farq bo‘lishi mumkin emas.

– O, albatta, lekin... – dedi-yu Stepan Arkadich xijolat bo‘lib, tilini tishlab qoldi. Gap din ustida ketayotganligini fahmladi.

Aleksey Aleksandrovich Lidiya Ivanovnaga yaqin kelib, ma’noli bir shipshish bilan:

– Nazarimda, hozir uxlaydi, – dedi.

Stepan Arkadich yalt etib o‘girildi. Landau deraza yonidagi kursining orqa va yon tomonidagi suyanchig‘iga tayanib, boshini solintirib o‘tirgan edi. O‘ziga qarashganlarini sezib, boshini ko‘tardi-yu, bolalarnikiga o‘xhash sodda bir tabassum bilan jilmaydi.

Lidiya Ivanovna:

– Parvo qilmang, – dedi-da, muloyim bir harakat bilan stulni Aleksey Aleksandrovichga surib qo‘ydi. – Men sezdim... – deb keyin gap boshlagan edi, lakey xat ko‘tarib kirib keldi. Lidiya Ivanovna xatga tez ko‘z yogurtirib chiqqach, o‘tirganlardan afv so‘rab, juda tezlik bilan javob yozib bergandan so‘ng yana stolga qaytib keldi. So‘ngra boshlagan gapini davom ettirdi: – Men sezdim: moskvaliklar, ayniqsa, erkaklar dinga juda ham parvosiz odamlar bo‘lishar ekan.

– O, yo‘q, grafinya, nazarimda, moskvaliklar dinni qattiq ushlab shuhrat chiqarishgan bo‘lishsa kerak, – dedi Stepan Arkadich:

Aleksey Aleksandrovich horg‘in bir tabassum bilan unga jilmayib:

– Shundaydir-u, lekin mening fahmimcha, afsuski, siz dinga parvosiz qaraydiganlar toifasidansiz, – dedi.

– Dinga qanday parvosiz qarab bo‘ladi-ya! – dedi Lidiya Ivanovna.

Stepan Arkadich odamni eritadigan muloyim tabassumi bilan:

– Bu masalada men parvosiz emasman, kutish pallasidaman, – dedi. – Mening uchun bu masalalarni hal qilish payti keldi, deb o‘ylamayman.

Aleksey Aleksandrovich bilan Lidiya Ivanovna bir-biriga qarab olishdi.

– Biz uchun bu masalalarning hal etish payti kelganmi-yo‘qligini hech vaqt bilolmaymiz, – dedi Aleksey Aleksandrovich qat’iy qilib. – Biz tayyormi-yo‘qmi o‘ylashimiz kerak emas: barakat insonlarning mulohazalariga bog‘liq narsa emas; barakat ba’zan uning yo‘lida

jon kuydirganlarga nasib bo'lmay, Savl singari tayyorlanmaganlarga nasib bo'ladi.

Shu payt fransuzning harakatlariga ko'z tashlab o'tirgan Lidiya Ivanovna:

– Yo'q, chamamda, hali erta, – dedi.

Landau o'rnidan turib, ular yoniga keldi.

– Men ham eshitsam ijozatmi? – deb so'radi u.

Lidiya Ivanovna unga suzilib qarab:

– O, albatta, faqat sizga xalaqit bergim yo'q edi, marhamat, o'tiring, – dedi.

Aleksey Aleksandrovich so'zini davom qildirdi:

– Yog'dudan mahrum bo'lmaslik uchun ko'zlarimizni yummasligimiz kerak.

– Ah, uning doim qalbimizda yashaganini sezishdan olgan huzur-halovatimizni koshkiydi siz ham bilsangiz! – dedi grafinya Lidiya Ivanovna baxtiyorlik bilan kulimsirab.

– Lekin inson bu yuksaklikka ko'tarilish uchun ba'zan o'zini qobiliyatsiz his qilishi mumkin, – dedi Stepan Arkadich: u dinning yuksakligini e'tirof qilish bilan riyokorlik qilayotganini sezib tursa ham, lekin Pomorskiyga bir og'iz so'z aytish bilan u xohlagan o'rnini olib berishi mumkin bo'lgan bir shaxs oldida o'zining erkin fikrli kishi ekanini tan olishga jur'at qila olmadi.

– Ya'ni, gunohi xalaqit beradi, demoqchisiz-da? – dedi Lidiya Ivanovna. – Lekin bu xato fikr. Dinga e'tiqod qiluvchilar uchun gunoh yo'q, gunohi yuvilgan. Pordon, – deb ilova qildi grafinya yana bitta xat ko'tarib kirgan lakeyga qarab. Grafinya bu xatni o'qib, og'zaki javob qildi. – Ertaga ulug' knyaginya huzurlarida, deng. – So'ngra suhabatni davom ettirdi: – dinga e'tiqod qiluvchilar uchun gunoh yo'q.

– Shunday-yu, lekin din amaliyotsiz o'likdir, – dedi Stepan Arkadich hadisdan shu jumlanı eslab, birligina tabassumi bilan o'z mustaqilligini himoya qilib.

Aleksey Aleksandrovich bilan Lidiya Ivanovna amaliyot to'g'risida ancha-muncha gap talashgan bo'lishsa kerak, Aleksey Aleksandrovich birmuncha ta'nali qilib:

– Ana Xovoriyun Iakov hadislaridan biri, – dedi grafinya. – Mana shu hadisning xato talqin etilishi qancha zarar yetkazdi-ya! Hech bir narsa odamlarni dindan shu talqin qadar jirkantirmaydi.

«Menda amaliyot yo‘q, shuning uchun dingga ishona olmayman», holbuki, bu talqin hech qayerda aytilmagan. Buning teskarisi aytilgan.

Grafinya Lidiya Ivanovna jirkanuvchi bir nafrat bilan:

– Xudoyi taolo uchun zahmat chekish, ro‘za bilan ruhimizni pok etish – bular monaxlarimiz o‘ylab chiqargan vahshiyona tushunchalardir, – dedi. – Holbuki, bu narsalar hech qayerda aytilmagan. – U saroyda, yangi vaziyatda uyalib-tortinib turgan malika xizmatidagi yosh qizlarga dalda beradigan o‘sha tabassumi bilan Oblonskiyga jilmayib turib, ilova qildi: – Bu ancha sodda, ancha oson.

Aleksey Aleksandrovich grafinyaning so‘zlarini ko‘z qarashlari bilan ma’qullab:

– Bizga bizning yo‘limizda jafo chekkan hazrati Iso najot berdi, – dedi.

Lidiya Ivanovna:

– Vous comprenez l’anglais?¹ – deb so‘radi va tasdiq javobini olgandan so‘ng o‘rmidan turib borib, rafdag‘i kitoblarni qaray boshлади. Keyin Karenenga savol nazari bilan bir qarab olib: – Men «Safe and Happy»dan² yoki «Under the wing»dan³ o‘qib bermoqchiman, – dedi. Aytgan kitobini topib, yana joyiga kelib o‘tirgandan so‘ng kitobni ochdi. – Bu juda muxtasar. Bunda dinka e’tiqod tug‘diradigan va bu dunyoning barcha huzur-halovatlaridan yuksak bo‘lgan, inson qalbini to‘ldirgan baxt-saodat yo‘li tasvir etilgan. Dindor kishi baxtsiz bo‘la olmaydi, chunki u yolg‘iz emas. Mana hozir o‘zingiz ko‘rasiz. – Grafinya endi o‘qimoqchi bo‘lib turganda, yana lakey kirib qoldi. – Borozdinami? Ertaga soat ikkida, deng. – Grafinya barmog‘ini kitobning ochilgan yeriga qo‘ydi-da, horg‘in, chiroyli ko‘zlarini ro‘parasiga tikib, uh tortdi. – Ha, chinakam e’tiqod mana bunday ta‘sir qiladi. Siz Mari Saninani taniysizmi? Uning boshiga tushgan baxtsizlikni bilasizmi? Yolg‘iz bolasidan judo bo‘ldi. Dog‘-u hasratda qoldi. Xo‘s, oqibat nima bo‘ldi? Oqibat shu bo‘ldiki, do‘smini topdi, mana endi o‘g‘lining vafoti uchun xudodan minnatdor bo‘lib yuribdi. Ana e’tiqod beradigan baxt!

¹ Inglizcha tushunasizmi? (*frans.*)

² «Sof va xushbaxt» (*ingl.*).

³ «Qanot ostida» (*ingl.*)

– O, albatta, bu juda... – dedi Stepan Arkadich, kitob o'qishsa, o'zimga kelib qolarman deb xursand bo'lib. Keyin: «Yo'q, bugun iltimos qilmaganim ma'qul ko'rindi, ishqilib, ishni chalkashtirib yubormay, eson-omon chiqib ketsam bo'lgani», deb o'yaldi.

Grafinya Lidiya Ivanovna Landau qarab:

– Siz inglizchani tushunmaganingiz uchun zerikib qolasiz-da, lekin o'qib beradigan joyim qisqa, – dedi.

Landau ham o'shanday tabassum bilan jilmayib:

– O, tushunaman, – dedi-yu, ko'zlarini yumib oldi.

Aleksey Aleksandrovich bilan Lidiya Ivanovna bir-biriga tagdor qilib qarab olishgandan so'ng o'qish boshlandi.

XXII

Stepan Arkadich bu yerda eshitgan yangi, g'alati gaplardan kallasi g'ovlab ketganligini sezib o'tirardi. Peterburg hayotining murakkabligi uni umuman hayajonga solar, Moskvada o'rganib qolgan hayot turg'unligidan chiqarar edi; ammo bu murakkablikni o'ziga yaqin, tanish odamlar muhitida bo'lganda sevar, shundagina tushunardi; bu yot muhitda esa kallasi shishib, hamma narsani qamrab olishga qurbi yetmay qoldi. Stepan Arkadich grafinya Lidiya Ivanovnaning so'zlariga quloq solib, Landauning chiroyli, sodda yoki mug'ambir (qandayligini o'zi ham bilmasdi) ko'zlarini o'ziga tikilib qolganini sezgach, kallasi shishib og'irlashganini payqay boshladi.

Miyasida turli-tuman fikrlar chuvalib borardi. «Mari Sanina bolasi o'lgani uchun xursand... bir chekib yuborsam, yaxshi bo'lardi-da... ruhni pok saqlab qolish uchun faqat ishonish kerak xolos emish, bu narsani qanday qilishni monaxlar bilmas ekan-u, grafinya Lidiya Ivanovna bilar ekan... Nega boshim og'irlashib ketyapti-ya? Konyakdanmikan yoki bu narsalarning g'alatiligidan? Bu yerda, nazarimda, hech qanday nojo'ya ish qilmagan bo'lsam kerak. Shunday bo'lsa ham, endi undan iltimos qilib bo'lmaydi. Bular odamlarni ibodat qilishga majbur etadi, deyishadi. Meni ham majbur qilib qolishmasin tag'in. Bu borib turgan nodonlik bo'ladi-ku. O'qiyotgan narsalari juda bema'ni, lekin talaffuzi yaxshi. Landau Bezzubov. Nega u Bezzubov? Birdan Stepan Arkadich jag'i qarishib, esnoq kelib qolganini sezdi. Esnashni yashirish uchun bakenbardlarini tuzatib

junjikdi. Shundan keyin ko'zi uyquga ketib, xurrak ota boshlaganini sezdi. Grafinya Lidiya Ivanovnaning «uxlab qoldi» degan ovozini eshitgandan keyingina uyg'ondi...

Stepan Arkadich cho'chib uyg'ondi-yu, qo'lga tushganini payqab, o'zini gunohkor his qildi. Lekin «uxlab qoldi» deyilgan so'zning o'ziga emas, Landauga taalluqli ekanini ko'rib, ko'ngli tasalli topdi. Fransuz ham Stepan Arkadich singari uxlab qolgan edi. Ammo Stepan Arkadichning uxlab qolgani, o'zining fahmicha, ularni xafa qilishi mumkin edi (aslida, buni ham o'nglagani yo'q, chunki hamma narsa unga shunaqa g'alati ko'rinardi), Landauning uxlab qolgani esa ularni, ayniqsa, grafinya Lidiya Ivanovnani haddan tashqari xursand qildi.

Lidiya Ivanovna sharpa chiqarmaslik uchun shoyi ko'ylagining tirilib qolgan joylarini ehtiyyotlik bilan tuzatib va hayajoni orqasida Kareninni Aleksey Aleksandrovich emas, «mon ami»¹ deb atadi:

– Mon ami, donnez lui la main. Vous voyez?² – keyin, kirib kelgan lakeyga imo qildi: – Jim! Qabul qilinmasin.

Fransuz boshini kursining orqasiga suyab uxlab o'tirar yoki o'zini uxlayotganga solar, tizzasida turgan terli qo'lini elas-elas qimirlatib, bir nimani ushlamoqchi bo'layotgandek ko'rinardi. Aleksey Aleksandrovich o'rnidan turdi-da, ehtiyyot bo'lib boraman deb stolga tegib ketdi; keyin fransuz yoniga borib, qo'lini uning qo'liga qo'ydi. Stepan Arkadich ham turdi, uxlab qolgan bo'lsam uyqumni qochiray degan maqsadda ko'zlarini katta-katta ochib, goh unga, goh bunga qaray boshladи. Bu narsa chindan ham o'ngida bo'layotgan edi. Shundan keyin Stepan Arkadich kallasi g'ovlab borayotganini sezdi.

– Que la personne qui est arrivee la derniere, celle qui demande, qu'elle sorte! Qu'elle sorte!³ – dedi fransuz ko'zlarini ochmay.

– Vous m'excuserez, mais vous vagez... Revenez vers dix heures, encore mieux demain⁴.

¹ Do'stim (*frans.*).

² Do'stim, qo'lingizni bering unga. Ko'ryapsizmi? (*frans.*)

³ Keyingi kelgan kishi chiqib ketsin, so'rayotgan kishi chiqib ketsin! Chiqib ketsin! (*frans.*)

⁴ Kechiring meni, lekin ko'rib turibsiz... soat o'nda keling, yana ham yaxshisi ertaga keling (*frans.*).

— Qu'elle sorte!¹ — dedi fransuz chidamsiz takrorlab.

— C'est moi, n'est ce pas?²

Stepan Arkadich savoliga tasdiq javobi oldi-yu, Lidiya Ivanovnadan qiladigan iltimosini ham, singlisi to‘g‘risidagi masalani ham unutib, shu yerdan tezroq qutulish tilagida oyoqlarining uchida yurib, zaharlangan uydan qochgan kishiday ko‘chaga chopib chiqdi-da, tezroq hushiga kelish uchun izvoshchi bilan uzoq gaplashib, hazillashdi.

Stepan Arkadich fransuz teatriga tomoshaning oxirgi pardasiga yetib keldi; keyin tatar qo‘lidan shampan vinosi ichib, ichi suygan muhitda biroz nafasini rostlab oldi. Shunday bo‘lsa ham shu kecha kayfi juda buzuq bo‘idi.

Stepan Arkadich Peterburgda Pyotr Oblonskiynikiga tushgan edi; uyga qaytsa, Betsidan xat kelgan ekan. U chala qolgan suhbatlarini oxiriga yetkazishni juda xohlaganini, shuning uchun ertaga kelishini so‘rab yozibdi. Stepan Arkadich bu xatni o‘qib bo‘lib, yuzini tirishtirishga ham ulgurmay, pastdan og‘ir bir narsani ko‘tarib kelayotgan odamlarning dupuri eshitilib qoldi.

Stepan Arkadich qaragani chiqdi. Keltirilgan narsa yasharganini pesh qilgan Pyotr Oblonskiy edi. U shu qadar mast ediki, zinadan chiqolmadi: lekin Stepan Arkadichni ko‘rib, meni turg‘izib qo‘yinglar deb buyurdi; keyin Stepan Arkadichga yopishib, uning bo‘lmasiga kirdi-da, kechani qanday o‘tkazganligini hikoya qila turib uxbab qoldi.

Stepan Arkadichning kayfi bugun buzuq edi, bu hodisa unda kamdan-kam yuz berardi, shuning uchun uzoq uxbab may yotdi. Nimaniki eslamasin, hammasi jirkanch tuyulardi; lekin Lidiya Ivanovnaning uyida o‘tkazgan oqshomi hammasidan ham jirkanch, uyatli bir narsaday esiga tushdi.

Ertasiga u Aleksey Aleksandrovichdan Annani taloq qilishga rozi emasligi to‘g‘risida qat‘iy javob oldi va qaror kecha fransuzning yasama yoki chin uyqusida aytilgan so‘zlarga asoslanganligini anglatdi.

¹ Chiqib ketsin (*frans.*).

² Menga aftyapsiz, shunday emasmi? (*frans.*)

XXIII

Oila hayotida biron qarorga kelish uchun er-u xotin o'rtasida kuchli adovat yoki muhabbat bo'lishi kerak. Er-u xotin o'rtasidagi munosabat aniq bo'limganda, ya'ni yuqoridagi shartning unisi ham, bunisi ham bo'limganda; hech bir ishga qo'l urib bo'lmaydi.

Yillar o'tsa ham, er-u xotin bir-birining me'dasiga tekkan bo'lsa ham, ko'p oilalar eski o'rinlarida saqlanib qoladi. Bunga sabab faqat shuki, o'rtalarida nizo ham, ahillik ham bo'lmaydi.

Quyosh bahordagi singari emas, yozdag'i singari qizdirib, bulvarlardagi daraxtlar yaproqlar bilan, yaproqlar esa chang bilan qoplanganda, Vronskiy ham, Anna ham issiqqa bardosh berolmay qoldi; lekin qachonlardan beri Vozdvijenskoe qishlog'iiga jo'nash fikrida ekanliklariga qaramay, ikkovlari ham me'dalariga tekkan Moskvada qolib ketdilar. Chunki so'nggi vaqtarda o'rtalaridagi totuvlik yo'qolgan edi.

Ular o'rtasiga nifoq solgan asabiylikning hech qanday zohiriylab sababi yo'q edi; yarashish uchun qilingan harakatlar bu tajanglikni bartaraf qilish u yoqda tursin, balki kuchaytirar edi. Buning ichki sabablari bor edi: Anna Vronskiyning muhabbatini kamaygani orqasida tajang bo'lsa, Vronskiy Annani deb o'zini og'ir ahvolga solib qo'ygani uchun pushaymon bo'lgani, Anna joniga ora kirish o'mniga, ahvolini yana ham og'irlashtirayotganligi uchun asabiylashar edi. U ham, bu ham tajangliklarining sababini aytmas, bir-birlarini nohaq deb hisoblashar, har narsadan bahona topib, buni bir-birlariga, isbot qilishga tirishardilar.

Annaning nazarida, Vronskiyning borlig'i – barcha odatlari, fikr-o'yłari, orzu havaslari, butun ma'naviy va jismoniy vujudi biringa narsadan – xotinlarga muhabbatdan iborat edi; Annaning sezishicha, yolg'iz o'zigagina bag'ishlanishi lozim bo'lgan bu muhabbat kamayib qolgan edi; demak, Annaning mulohazalariga ko'ra, Vronskiy muhabbatining bir qismini boshqalarga yoki boshqa xotinga bag'ishlayotgan bo'lishi kerak, – shuning uchun Anna rashk qilardi. Anna uni biron boshqa xotinga emas, muhabbatining kamayganiga rashk qilardi. Rashk qilish uchun biron vasilasi bo'limgani uchun, u shu vasilani qidirardi. Orada kichik bir narsa yuz bersa, u darhol bir narsani qo'yib, ikkinchi narsaga rashk qila

boshlardi. Anna Vronskiyning goh bo'ydoqlik mahallarida osongina aloqa qilishi mumkin bo'lgan dag'al xotinlarga, goh u uchrasha oladigan kibor xonimlarga, goh o'zi bilan aloqasini uzib, uylanish niyatida yurgan xayoliy qizga rashk qilardi. Bu so'nggi rashk uni hammasidan ko'proq qynar edi; buning sababi bor edi: Vronskiy bir kuni u bilan dilkashlik qilib turgan mahalda ehtiysizlik qilib, onasi o'g'lini yaxshi bilmasligini, knyajna Sorokinaga uylan, deb avraganini aytib qo'ygan edi.

Shu sababli, Annaning rashki kelib, Vronskiyga jahl qilar va har bir narsadan bahona axtarardi. Ahvolini og'irlashtirgan narsalarga Vronskiyni aybdor deb o'yldi. Moskvada ikki olov o'rtasida azob ichida kechirgan intazorlik kunlarini, Aleksey Aleksandrovichning imillagani va qarorsizligini, o'zining yakka tanholigini – bularning hammasini Anna Vronskiyga to'nikar edi. Agar u yaxshi ko'rsa, Annaning boshiga tushgan ahvolning butun og'irligini anglar, uni bu ahvoldan qutqarar edi. Anna qishloqda emas, Moskvada turganiga ham Vronskiy aybdor. Vronskiy qishloq ishlariga boshi bilan sho'ng'ib keta olmadi, holbuki, Anna shuni xohlar edi. Vronskiyga ulfat kerak bo'lidi, shuning uchun Annani mana shu dahshatli ahvolga solib qo'ydi, bu dahshatli ahvolning og'irligini tushungisi kelmadi. O'g'lidan bir umr judo bo'lib qolganiga ham yana Vronskiy aybdor.

Oralarida kamdan-kam bo'lib turadigan dilkashlik daqiqalari ham Annaga taskin bermasdi: Anna hozir uning erkalashlarida xotirjamlik va kibr-u havolik alomatlarini ko'rardi, ilgarilari ko'rilmagan bu alomatlar Annani g'ijintirar edi.

Qosh qorayib qolgan edi. Anna Vronskiyning ko'cha shovqini kamroq eshitiladigan kabinetida uning bo'ydoqlar ziyofatidan qaytishini kutib, u yoqdan bu yoqqa yurar, kechagi janjallarini ipidan ignasigacha birma-bir xayolidan kechirar edi. Anna yuragida o'mashib qolgan haqoratlri so'zlardan boshlab, bu so'zlarni aytishga sabab bo'lgan narsalarni qidira ketdi; oxiri suhbatlarining ibtidosiga kelib yetdi. Hech kimning ko'nglini og'rita olmaydigan shunday beozor bir narsadan janjal chiqib ketganiga Anna uzoq vaqtgacha ishona olmadi. Haqiqatda esa shunday bo'lidi. Vronskiy xotin-qizlar gimnaziyasini ortiqcha hisoblab, uni masxara qildi, Anna bo'lsa himoya qildi – janjal xuddi mana shundan boshlanib ketdi. Vronskiy umuman xotin-qizlarning bilim olishlariga hurmatsizlik qilib, o'z fikrini bildirgandan

so'ng, Anna himoyasi ostida ingliz qiz Gannanining fizika bilimiga hech ham muhtoj emasligini aytdi.

Bu narsa Annaning g'ashiga tegdi. Unga bu so'zlar o'zining mashg'ulotiga haqoratli bir piching bo'lib tuyuldi. Shundan keyin Anna yuragida jarohat ochgan bu so'zlar evaziga Vronskiyning ham yuragida jarohat ochadigan bir so'z topib aytdi.

— Mehribon kishi sifatida mening his va tuyg'ularimni yuz-xotir qilarsiz degan umidda bo'imasam ham, har holda shunchaki bir nazokatda bo'larsiz deb umid qilardim, — dedi Anna.

Haqiqatan ham, bu gap Vronskiyga alam qildi, u qizarib, xunuk bir so'z aytdi. Anna unga nima javob qilganini eslay olmasdi, lekin Vronskiy ham uning ko'nglini og'ritmoqchi bo'ldi, shekilli, shu chog' nimagadir:

— Sizning bu qizga bo'lgan ixlosingiz meni hech qiziqtirmaydi, men to'g'risini aytyapman, chunki ixlosingizning g'ayritabiiy ekanligini ko'rib turibman, — dedi.

Og'ir hayotini yengil qilish uchun ne-ne mashaqqatlar bilan o'ziga qurib olgan hayotini Vronskiy bag'ritoshlik bilan buzayotgani, mug'ambirlikda, g'ayritabiiylikda ayblab, insofsizlik qilayotgani Annani tutaqdirib yubordi. Shuning uchun:

— Ko'p afsuski, sizga faqat qo'pol va moddiy narsalargina ravshan, faqat shu narsalargina tabiiy ko'rindi, — dedi-yu, kabinetdan chiqib ketdi.

Kecha kechqurun Vronskiy uning yoniga kirganda bo'lib o'tgan janjal to'g'risida og'iz ochishmagan bo'lishsa ham, lekin buning izi yuraklarida qolganini har ikkovi ham sezib turar edi.

Vronskiy bugun kun bo'yи uyda bo'lmadi; Anna u bilan urishib qolgani uchun o'zini shu qadar yolg'iz, ahvolini shu qadar og'ir his qila boshladiki, o'rtada bo'lib o'tgan narsalarning hammasini unutish, Vronskiyni kechirish, u bilan yarashish, o'zini ayplash, uni oqlash fikriga tushib qoldi.

«Ayb o'zimda. O'lguday tajangman, bema'ni rashk qilaman. U bilan yarashib olaman, qishloqqa chiqib ketamiz, u yerda o'zimni bosib olaman», — derdi Anna o'ziga.

«G'ayritabiiy» — Anna o'zini hamma narsadan ham ko'proq tahqir etgan bu so'zlar emas, bu so'zlarni jo'rttaga jonni og'ritish uchungina aytilganini birdan esiga tushirdi.

«Uning nima demoqchi bo‘lganini bilaman: «O‘z qizini sevmay, o‘zga qizini sevish g‘ayritabiyy narsa, demoqchi edi. Bolalarga bo‘lgan mehr-u muhabbatimni, mening Seryojaga bo‘lgan mehr-u muhabbatimni u qaydan bilsin? Men o‘shani deb o‘g‘limdan kechdim! Yo‘q, bu so‘zni mening jonimni og‘ritish uchun aytgan! Yo‘q, u bo‘lak xotinni yaxshi ko‘radi, boshqacha bo‘lishi mumkin emas».

Anna o‘zini yupatish uchun ilgarilari necha bor xayolidan o‘tkazgan o‘ylarini yana bir marta miyasidan kechirib, yuragida yana o‘sha alam paydo bo‘lganini sezdi-yu, o‘z ahvoldidan qo‘rqib ketdi: «Nahotki iloji bo‘lmasa? Nahotki men hamma aybni o‘zimga ololmasam? – Shundan keyin yana boshidan o‘ylay boshladi. – U rostgo‘y, vijdonli odam, meni yaxshi ko‘radi. Men uni sevaman, yaqinda taloq xatimni olaman. Yana nima kerak? Og‘ir bo‘lish, ishonish kerak. Men hamma narsani o‘z ustimga olaman. Ha, u hozir kelsa, ayb menda bo‘lmasa ham, ayb menda edi deb aytaman, keyin qishloqqa chiqib ketamiz».

Anna ortiq o‘ylamaslik, asabini buzmaslik uchun qo‘ng‘iroq chalib xizmatkorini chaqirdi-da, qishloqqa jo‘nash uchun sandiqlarini kiritib, ul-bullarini joylashga buyrdi.

Soat o‘nda Vronskiy keldi.

XXIV

Anna unga peshvoz chiqib, yuzida aybdor, mo‘min kishi ifodasi bilan:

– Qalay, yaxshi o‘tdimi? – deb so‘ragan edi, Vronskiy:

– Odatdagicha, – deb javob berdi-yu, bir qarashdayoq Annaning kayfi chog‘ ekanligini payqadi. U Annaning goh aynib, goh tuzalishiga o‘rganib qolgan edi, shuning uchun bugun, ayniqsa, xursand bo‘ldi, chunki o‘zining ham kayfi juda chog‘ edi.

Vronskiy dahlizdagi sandiqlarga ishora qilib:

– Yaxshi qilibsiz! Juda soz! – dedi.

– Ha, qishloqqa chiqib ketish kerak. Sayr qilgani borgan edim, shunday rohat qildimki, qishloqqa chiqib ketgim kelib qoldi. Sening ham bu yerda qo‘lingni ushlab turgan ishing yo‘qdir?

– Mening ham birdan-bir tilagim shu. Hozir kiyimlarimni o‘zgartirib kelaman, gaplashamiz. Ayt, choy keltirishsin.

U kabinetga kirib ketdi.

Vronskiyning: «judə soz» degan so‘zlarida haqoratga o‘xshagan bir narsa bor edi; injiqligini bas qilgan go‘daklarga shunday deyilardi; Annaning aybdorlarcha qisilib, uning esa kerilib aytgan gaplari ohangidagi qarama-qarshilik yana ham tahqirli edi; Anna yuragida bir zumgina kurash orzusi bosh ko‘targanini sezgan bo‘lsa ham, o‘zini zo‘rg‘a qo‘lga olib, bu hayajonini bosdi-yu, Vronskiyini yana ochiq chehra bilan kutib oldi.

Vronskiy qaytib chiqqanda, Anna bugungi kunni qanday o‘tkazganini, qishloqqa jo‘nash rejasini so‘zlab berdi; bu so‘zlarni ilgari tayyorlab qo‘ygan edi.

– Bilasanmi, menga ilhom kelib qoldi deyish mumkin. Bu yerda taloqni kutib o‘tirishning nima hojati bor-a? Qishloqda kutilsa ham bo‘ladi-ku, baribir emasmi? Ortiq sarg‘ayishga toqatim qolmadi. Taloqqa ilhaq bo‘lishni ham, taloq to‘g‘risidagi gap-so‘zlarni eshitishni ham xohlamayman. Mening hayotimga minba’d bu narsaning nuqsi urmaydi – men shunday qarorga keldim. Sen ham shu gapga qo‘shilasanmi?

Vronskiy uning hayajonli yuziga tashvish bilan qarab:

– Ha, albatta! – dedi.

Anna biroz jim turgandan so‘ng:

– Xo‘s, u yerda nima qildinglar? Kim keldi? – deb so‘radi.

Vronskiy mehmonlarning nomlarini aytди.

– Ziyofat yaxshi bo‘ldi, qayiq musobaqasi ham tuzuk o‘tdi, hamma narsa ko‘ngildagiday bo‘ldi, lekin Moskvada ridiculesiz¹ o‘tirisholmaydi. Bir xonim kelib hunarini ko‘rsatdi, Shvetsiya qirolichasiga suzishni o‘rgatadigan muallima ekan.

– Voy o‘lay! Cho‘mildiyammi? – deb so‘radi Anna xo‘mrayib.

– Ey, ustiga allaqanday qizil costume de natation² kiyib olibdi; qari, biram xunuk. Xayr, shunday qilib qachon jo‘naymiz?

– Qanday ahmoqona qiliq! Nima balo, boshqacha suzar ekanmi?

– dedi Anna Vronskiyiga javob bermay.

– Hech qanday boshqachaligi yo‘q. Ahmoqona qiliq, – dedim-ku men ham. Qani, qachon yo‘lga chiqaylik deysan?

¹ Kulgili narsa (*frans.*).

² Cho‘milish kiyimi (*frans.*).

Anna ta'bini xira qiladigan fikrlarini quvmoqchi bo'lgandek boshini silkidi.

– Qachon deysanmi? Qancha barvaqt ketsak, shuncha yaxshi. Ertaga ulgurmaymiz. Indinga.

– Ha... yo'q, to'xta. Indinga yakshanba, men oyimlarning oldilariga borishim kerak, – dedi Vronskiy; u onasining nomini aytishi bilanoq Anna shubha to'la ko'zlar bilan o'ziga tikilib qolganini sezib shoshib qoldi. Shoshib qolgani Annaning gumonlariga tasdiq bo'lib tushdi. Anna jahli chiqib, o'zini orqaga tortdi. Endi uning ko'zlariga Shvetsiya qirolichasiga suzishni o'rgatuvchi muallima emas, Moskva yaqinidagi qishloqlardan birida grafinya Vronskaya bilan birga turgan knyajna Sorokina ko'rindi. Anna:

– Ertaga borib kelsang bo'lmaydimi? – deb so'ragan edi, Vronskiy:

– Bo'lmaydi-da! Men bir ish bilan ketyapman. Shu ishga taalluqli ishonch qog'ozi bilan pul ertaga tayyor bo'lmaydi, – deb javob qildi.

– Bundan bo'lsa, hech qachon qishloqqa chiqib ketolmaymiz.

– Nimaga endi?

– Men undan keyin chiqib ketmayman. Dushanba kuni chiqib ketsak – xo'p, bo'lmasa – yo'q.

– Nima vajhdan? – Vronskiy hayron qolayotgandek qilib so'radi. – Buning hech qanday ma'nosi yo'q-ku!

– Bu narsaning sen uchun hech qanday ma'nosi yo'q, chunki men xayolingga ham kelmayman. Holimni anglashni istamaysan. Mening bu yerda bitta yupanchim bo'lsa – u ham Ganna edi. Sen bo'lsang buni mug'ambirlik deysan. Qizingni yaxshi ko'rmaysan, o'zingni shu ingliz qizini yaxshi ko'rganga solasan, bu qilig'ing g'ayritabiyy, deding-ku kecha; bu yerda qanday hayot men uchun tabiiy bo'la oladi? Men shuni bilmoqni istar edim!

Anna bir zumgina hushiga kelib, qaroriga qarshi harakat qilayotganidan vahimaga tushdi. Lekin o'zini halok etayotganini bilib tursa ham, yana o'zini ushlay olmadni, Vronskiyning nohaqligini ko'rsatmasdan turolmadni, unga bo'yin egolmadni.

– Men hech qachon bunday deganim yo'q; men bu tasodify muhabbatga xayrixoh emasman, dedim.

– Sen-ku hamma vaqt rostgo'yliging bilan maqtanib kelasan, xo'sh, nima uchun to'g'risini aytavermaysan?

Vronskiy yuragida bosh ko'tarayotgan g'azabini bosib, past ovoz bilan:

– Men hech qachon maqtanmayman ham, hech qachon yolg'on gapirmayman ham, – dedi. – Ko'p afsuski, sen hurmat qilmaysan...

– Hurmatni bo'sh erni,.muhabbat band qilishi kerak bo'lgan erni yashirish uchun o'ylab chiqarishgan. Agar mendan ko'ngling qolgan bo'lsa, aytib qo'ya qol: ham yaxshi bo'ladi, ham vijdonsi harakat qilgan bo'lasan.

Vronskiy stuldan turib ketdi.

– Yo'q, bunga chidab bo'lmaydi! – dedi u qichqirib. Keyin Annaning yonida to'xtab, asta-sekin gapira boshladi: – Nima uchun mening sabr torimni chertasan-a? – dedi Vronskiy, yana ham ko'proq narsalarni aytishi mumkin bo'lgan holda o'zini bosib turgan kishi qiyofasida. – Tor uzilishi mumkin.

Anna Vronskiyning butun yuzida, ayniqsa, shafqatsiz, bahaybat ko'zlarida aniq ifodalangan nafratni ko'rib, vahima bilan qichqirdi:

– Siz shu so'zingiz bilan nima demoqchisiz?

– Shuni demoqchimanki... – deb Vronskiy gap boshlagan bo'lsa ham, lekin to'xtab qoldi. – Mendan nima istashingizni so'ramoqchiman.

– Nima istashim mumkin? Meni tashlab ketmang, deb iltimos qiladi, meni shu narsanigina xohlaydi deb o'ylaysiz, – dedi Anna Vronskiy aytmay qoldirgan gapini fahmlab. – Lekin men bu iltimosni qilishni xohlamayman, bu ikkinchi darajali narsa. Men muhabbat istayman, muhabbat esa yo'q. Demak, hamma narsa bitdi!

Anna eshikka qarab yurdi.

Vronskiy hamon qoshlarini chimirib turib, Annani qo'lidan ushlab:

– To'xta! – To'x...ta!.. – deb to'xtatdi. – Nima gap o'zi? Men qishloqqa uch kundan keyin jo'naylik dedim, sen bo'lsang shu gapim uchun meni yolg'onchi qilding, vijdonsiz odamga chiqarding.

Anna avvalgi janjalda aytilgan so'zlarini eslab:

– Ha, yana qayta aytaman, hamma narsasini mening yo'limda qurbon qilganini hadeb pesh qilaveradigan odam vijdonsiz odamdan battar, qalbsiz odam, – dedi.

– Yo'q, sabr-u toqatning ham chegarasi bo'ladi! – Vronskiy Annaning qo'lini qo'yib yubordi.

Anna: «U mendan nafratlanadi, bu ravshan ko‘rinib turibdi», – deb o‘yladi-da, indamasdan, orqasiga ham qaramasdan, uydan gandiraklab chiqib ketdi.

Anna o‘z bo‘lmasiga kirib: «U boshqa xotinni yaxshi ko‘radi, bu yana ham ravshanroq ko‘rinib turibdi», – dedi o‘ziga, keyin boyta aytgan so‘zlarini takrorladi: – Men muhabbat istayman, lekin muhabbat yo‘q. Demak, hamma narsa bitdi, bitirish kerak.

«Lekin qanday?» – deb Anna o‘zidan so‘radi-da, toshoyna oldidagi kursiga kelib o‘tirdi.

Endi qayerga – o‘zini tarbiya qilgan xolasinikiga yoki Dollinikiga boradimi, yo bo‘lmasa o‘zi yolg‘iz chet elga boshini olib ketadimi, hozir u kabinetda nima qilyapti, bu urishlari uzil-kesilmi, yo bo‘lmasa yarashib olishning iloji bormi, Peterburgdagi avvalgi tanishlari endi o‘zi to‘g‘risida nima deyishar ekan, bunga Aleksey Aleksandrovich qanday qarar ekan, Vronskiydan ajralgandan so‘ng holi nima bo‘lar ekan – shu va shularga o‘xhash juda ko‘p fikrlar Annaning miyasiga kelsa ham, u butun ko‘ngli bilan bu fikrlarga berilmash edi. Uning ko‘nglida bitta dudmal fikr bor edi. Annani yolg‘iz shu fikrgina qiziqtirsa ham, u tutqich bermash edi. Anna yana bir marta Aleksey Aleksandrovichni eslab, ko‘z yorgandan so‘ng kasal bo‘lgan paytlarini, o‘shanda o‘zini tark etmagan hislarini ham yodiga oldi. «Nega o‘lib keta qolmadim?» – dedi u o‘shanda aytgan so‘zlarini va o‘shanda tuygan hislarini eslab. Ana shunda Anna ko‘nglidagi narsani birdan tushunib qoldi. Ha, bu narsa – hamma masalani hal qila biladigan o‘sha fikr edi. «Ha, o‘lish!..»

«Aleksey Aleksandrovichning ham, Seryojaning ham rasvolik va sharmandaligi, o‘zimning ham dahshatli sharmandaligim shu o‘lim bilan yuviladi. O‘lsam, u pushaymon bo‘ladi, afsus qiladi, yaxshi ko‘radi, men tufayli azob chekadi». Anna o‘ziga achinganidan lablarini burishtirgan va shu holda labida qotib qolgan bir tabassum bilan kursida o‘tirib, chap qo‘lining barmoqlaridagi uzuklarini goh chiqarib, goh taqar, o‘zi o‘lgandan so‘ng Vronskiy tushadigan holatni turli tomonidan xayolida gavdalantirardi.

Yaqinlashib kelayotgan oyoq dupuri, Vronskiyning dupuri Annaning xayolini bo‘ldi. U o‘zini uzuklarini joyleyatgan kishiga solib, qayrilib qaramadi ham.

Vronskiy Annaning yoniga kelib uni qo'lidan ushladi-da, past ovoz bilan:

— Anna, mayli, xohlasang, indinga ketaylik, — dedi. — Men hammasiga rozman.

Anna churq etmadi.

— Ayt, nima deysan? — deb so'radi Vronskiy.

— O'zing bilasan, — dedi-yu Anna o'zini bosib qololmay, shu on piqillab yig'lab yubordi. Keyin piqillab yig'lab turib: — Qo'y meni, qo'y, tashlab ketaver! — dedi. — Men ertaga ketaman... Butunlay boshimni olib ketaman. Men nima degan odamman? Buzuq xotinman! Bo'yningga osilgan toshman. Seni qiyashni xohlamayman, xohlamayman! Seni bu azobdan qutqazaman. Sen meni yomon ko'rasan, boshqani yaxshi ko'rasan!

Vronskiy yalinib, uni yupatishga tirishdi, rashk qilish uchun hech qanday asos yo'qligini, hamma vaqt sevganini, hozir ham sevishini, bundan keyin ham sevishini, endi avvalgidan ham ortiqroq sevishini aytdi.

— Anna, o'zingni ham, meni ham nega buncha qiyinarsan? — derdi Vronskiy uning qo'lini o'pib. Hozir Vronskiyning yuzida nozik tuyg'ular ifodasi bor edi, Anna uning ovozini ko'z yoshlari bo'g'ib turganini eshitganday bo'ldi, keyin shu yoshlarning namini qo'lida sezdi. Ana shunda Annaning telbalaracha rashki bir zumda telbalaracha ehtiros o'tiga aylandi; Anna uni quchoqladi, boshidan, bo'ynidan, qo'llaridan bo'sa oldi.

XXV

Anna, butunlay yarashib olganliklarini his etib, qishloqqa jo'nash taraddudiga ertalabdanoq kirishib ketdi. Kecha bir-birlariga yon bosganliklari uchun qishloqqa dushanbami yo seshanbami kuni ko'chish xususida bir qarorga kelmagan bo'lsalar ham, Anna bir kun ilgari yo bir kun keyin jo'nashlari o'zi uchun tamoman farqsiz ekanligini sezib turgani holda, yana zo'r berib yo'l taraddudini ko'rayotgan edi. Vronskiy allaqachon kiyinib, Annaning bo'lmasiga odatdagidän barvaqtroq kirib kelganda, Anna ochiq sandiq yonida ul-bullarini tanlab turgan edi.

— Men hozir oyimlarnikiga borib kelaman, menga pulni Yegorov-dan berib yuborishar. Unda ertaga jo'nasak bo'ladi, — dedi Vronskiy.

Annaning kayfi qanchalik yaxshi bo'lsa ham, Vronskiyning chorbog'ga, onasining yoniga borishini aytgani yuragiga nashtarday sanchildi.

– Yo'q, ertaga o'zim ham ulgurmayman, – dedi-yu Anna, darhol: «Demak, bu ishlarni men xohlaganimdek qilsa bo'lar ekan-ku» – deb o'ylandi. – Yo'q, xohlaganiningni qilaver. Yemakxonaga chiqib tur, men hozir boraman; mana bu keraksiz narsalarni olib qo'yay. – Anna bir quchoq latta-puttalarni ko'tarib turgan Annushkaga yana bir narsani berdi.

Anna yemakxonaga kirganda, Vronskiy qovurdoq yeb o'tirgan edi. Anna uning yoniga, qahva qo'yilgan stol oldiga kelib o'tirdi-da:

– Bu uylar shunchalik jonioqga tegdiki, aytsam ishonmaysan, – dedi. – Bu chambres garnies-lardan¹ ham xunukroq. Bularda na fayz bor va na xosiyat. Ana shu soat, mana bu pardalar, ayniqsa, devorlarga yopishtirilgan qog'ozlar ko'nglimga uribdi. Nazarimda, Vozdvijenskiy jannatga o'xshaydi. Otlarni qaytarib yubormaysanmi?

– Yo'q, ular bizdan keyin borishadi. Nima, sen biron yoqqa bormoqchimiding?

– Vilsonnikiga borib kelmoqchi edim. Ko'yaklarimni eltib bermoqchiman. Demak, ertaga aniq ketamiz-a? – dedi Anna xushchaqchaq bir ovozda; keyin birdan yuzi o'zgarib ketdi.

Vronskiyning kamerdineri Peterburgdan kelgan telegrammaning tilxatini so'rab kirdi. Vronskiyning telegramma olishida hech qanday ayb narsa bo'lmasa ham, u allanimani Annadan yashirmoqchi bo'lgandek, tilxat kabinetda ekanini aytdi-yu, darhol Annaga murojaat etdi.

– Ertaga hamma ishimni, albatta, tugataman.

Anna uning so'ziga qulq solmay:

– Telegramma kimdan kelibdi? – deb so'radi.

Vronskiy malol kelayotganday qilib:

– Stivadan, – deb qo'ya qoldi.

– Voy, nimaga ko'rsatmading menga? Stiva bilan mening o'rtamda qanday sir bo'lishi mumkin?

Vronskiy kamerdinerini chaqirib olib, telegrammani keltirishni buyurdi.

¹ Musofirxona (*frans.*).

– Ko‘rsatgim kelmaganining boisi shuki, Stiva telegrammavozlikni yaxshi ko‘radi; hali hech nima hal bo‘lmay turib telegramma berishning nima hojati bor ekan?

– Taloq to‘g‘risidami?

– Ha. Hali-beri hech nima qilomaganini yozibdi. Yaqinda uzilkesil javob berar emish. Mana, o‘qib ko‘r.

Anna telegrammani titrab turgan qo‘llariga olib, Vronskiy aytgan so‘zlarni o‘qidi. Telegrammaning oxirida: «Umid oz, lekin men qo‘limdan kelganini ham, kelmaganini ham qilaman», degan ilova ham bor edi.

Anna qizarib:

– Taloqni qachon olsam ham, hatto olmasam ham menga baribir, deb kecha aytdim-ku, – dedi. – Buni mendan yashirib o‘tirishning hech luzumi yo‘q edi. «Xotinlar bilan yozishgan xatlarini ham mendan shunday yashirishi mumkin, yashiradi ham», – deb o‘yladi Anna.

– Aytmoqchi, Yashvin bugun ertalab Vaytov bilan kelmoqchi edi, – dedi Vronskiy, – chamamda, Pevsovning boru burdini yutib olibdi – oltmisht ming so‘mcha, buni to‘lashga Pevsovning qurbi etmas.

Vronskiy gapni boshqa yoqqa burib yuborish bilan Annaning jahli chiqqanini ochiq-oshkor ko‘rsatmoqchi bo‘lgani Annani xunob qildi.

– Yo‘q, – dedi, – nima uchun bu xabar meni shu qadar qiziqtirdiki, uni mendan yashirish kerak, deb o‘ylaysan? Men buni xayolimga keltirishni ham xohlamayman, deb aytdim-ku senga! Sen ham menga o‘xhab bu narsaga ko‘p qiziqmasang yaxshi bo‘lardi.

– Mening qiziqishimning boisi bor: men hamma narsada aniqlik bo‘lishini yoqtiraman, – dedi Vronskiy.

Anna uning so‘zlaridan emas, gapidagi sovuq xotirjamlik ohangidan tutaqib:

– Aniqlik og‘izda emas, qalbda bo‘lishi kerak, – dedi. – Senga bu nima uchun kerak bo‘lib qoldi?

Vronskiy peshonasini tirishtirib: «Voy, xudo, yana muhabbatga tushdi», – deb o‘ylandi.

– Nima uchun kerakligini o‘zing bilasan-ku: sen uchun, ko‘radigan bolalaring uchun, – dedi Vronskiy.

– Bola ko‘rmayman.

– Ko‘p afsus.

Anna uning: «Sen uchun va bolalar uchun» deganini butunlay esidan chiqardi, hatto eshitmadni ham, shuning uchun:

– Senga bu narsa faqat bolalar uchun kerak, meni hech o‘ylamaysan-a? – dedi.

Bola ko‘rish masalasi ko‘p vaqtlardan beri janjalga sabab bo‘lib kelar, Annanining jig‘iga tegar edi, Vronskiyning bola tirkog‘iga zorligini: «U husnimning qadriga yetmaydi» deb tushunardi.

– Ey, «sen uchun» ham dedim-ku. Hammadan ko‘proq sen uchun, – deb takrorladi u. Xuddi bir yeri og‘riyotgandek peshonasini tirishtirdi, – chunki men aminman, tajangligingga asosan ahvolingning noaniqligi sabab bo‘lyapti.

Anna uning so‘zlariga quloq solmadi, balki Vronskiyning ko‘zları ichidan masxara qilib mo‘ralab turgan sovuq, bag‘ritosh hakamga vahima bilan tikilib: «Ha, mana endi o‘zini anoyilikka solmayapti, menga bo‘lgan butun nafrati ochiq-oshkor ko‘rinyapti», – deb o‘ylandi.

– Sababi bu emas, – dedi Anna, – men bu gapingga hatto tushunolmayman ham, men-ku butunlay sening hukmingdaman, sen bo‘lsang tajangligimning sababi shu narsa bo‘lishi mumkin deysan. Bu ahvolimda qanday noaniqlik bor? Aksincha.

– Ko‘p afsuski, mening gaplarimni tushunging kelmayapti, – dedi Vronskiy o‘z fikrini aytish uchun uning so‘zini o‘jarlik bilan bo‘lib, – noaniqlik shundaki, sen meni boshi ochiq deb hisoblaysan.

– Bu masalada tamoman xotirjam bo‘lishing mumkin, – dedi-yu Anna yuzini teskarı o‘girib olib, qahvasini icha boshladı.

U sinchalog‘ini ko‘tarib, chashkani og‘ziga keltirdi. Bir necha qultum ichgandan so‘ng yana o‘girilib Vronskiyga qaradi-yu, qo‘li ham, qilig‘i ham, ichayotganda lablari orasidan chiqqan tovush ham Vronskiyning ta‘bini xira qilayotganini yuzidagi nishonalardan ravshan ko‘rdi. Keyin qaltiroq turgan qo‘lidagi chashkani qo‘yib turib:

– Onang nimalarni o‘yaydi, seni qanday uylantirmoqchi – bu narsalarining men uchun hech qanday farqi yo‘q, – dedi.

– Lekin biz bu to‘g‘rida gaplashayotganimiz yo‘q-ku.

– Yo‘q, xuddi shu to‘g‘rida gaplashyapmiz. Toshurak xotin, mayli, u kampirmi yo juvonmi, sening onangmi yoki begonami, baribir, meni qiziqtirmaydi, men unday xotinni tanishni istamayman.

– Anna, sendan iltimos qilaman, onamni behurmat qilma.

– O‘g‘lining baxt-u saodati nimada ekanligini qalbi bilan anglamagan xotin – toshyurak xotin.

Vronskiy ovozini ko‘tarib, qahri bilan:

– Iltimosimni yana qaytaraman: men hurmat qilgan onamni behurmat qilma, – dedi.

Anna javob qilmadi. Uning o‘ziga, yuziga, qo‘llariga tikilib turib, kechagi yarash manzarasini va uning ehtirosli erkalashlarini butun tafsiloti bilan xotirladi. «Boshqa xotinlarni ham xuddi shunday erkalagan, erkalaydi, erkalashni xohlaydi!» deb o‘ylandi. Keyin unga nafrat bilan qarab:

– Sen onangni yomon ko‘rasan. Bu faqat quruq gap, quruq gap! – dedi.

– Agar shunday bo‘lsa, u holda...

– Bir qarorga kelish kerak, men qarorga keldim, – dedi-yu Anna chiqib ketmoqchi bo‘ldi; lekin shu payt Yashvin kirib keldi. Anna u bilan ko‘rishib, to‘xtab qoldi.

Qalbidagi his-tuyg‘ulari qaynab toshgan bir paytda hayot yo‘li ayrilib ketadigan joyda turgani, buning oqibati dahshatli bo‘lishi mumkinligini sezib turgan bir holda nima uchun, nima uchun shunday bir daqiqada, hamma sirdan ertami-kechmi voqif bo‘ladigan bir begona oldida soxtakorlik qilish kerak – Anna buni bilmas edi; shunday bo‘lsa ham, ko‘nglida quturgan hislarini darhol bosdi-yu, o‘tirib, mehmon bilan gaplasha boshladi.

– Xo‘s, ishlaringiz qalay? Qarzingizni undirdingizmi? – deb so‘radi Yashvindan.

– Chakki emas; chamamda, hammasini ololmaydiganga o‘xshayman, chorshanba kuni esa ketishim kerak. – Keyin o‘rtadagi janjalni payqadi, shekilli, ko‘zlarini suzib Vronskiyga qaradi-da: – o‘zlarining qachon jo‘naysizlar? – deb so‘radi.

– Indinga jo‘naymiz, shekilli, – dedi Vronskiy.

– Jo‘namoqchi bo‘lib yurganlaringga ham ancha bo‘lib qoldi chog‘i.

Anna Vronskiyning ko‘zlariga tik qarab turib:

– Lekin bunisi uzil-kesil, – dedi; Annaning bu qarashida: endi yarashamiz deb o‘ylamagin, degan ishora bor edi. Keyin Yashvinga gapirib turgan so‘zini davom ettirdi: – O‘sha bechora Pevsovga nahotki rahmingiz kelmasa-ya?

– Rahmim keladimi-yo‘qligini hech qachon o‘zimdan so‘ramabman, Anna Arkadevna. Mening butun bor-u yo‘g‘im mana shu yerda, – deb yon cho‘ntagini ko‘rsatdi, – mana endi badavlat bo‘lib qoldim! Bugun tag‘in klubga boraman, kim biladi, balki u yerdan gado bo‘lib chiqarman. Men bilan qimor o‘ynashga o‘tirganki bor, meni hatto ko‘ylagimgacha yutib olishni xohlaydi, men ham shunday. Ana shunday qilib kurashamiz, hamma maza shunda-da.

– Bordi-yu, uylanigan bo‘lsangiz, unda xotiningizning holi ne kechardi? – dedi Anna.

Yashvin kulib yubordi.

– Shuning uchun ham uylanmay yurgandirman-da; uylanish esimga ham kelgani yo‘q.

Vronskiy so‘zga aralashib:

– Xo‘s, Gelsingfors-chi? – dedi-yu, kulimsirab o‘tirgan Annaga bir qarab qo‘ydi.

Ko‘zlari bir-biriga to‘qnashganda, Annaning yuzi birdan sovuq, jiddiy tus oldi; u xuddi «Esimdan chiqqani yo‘q. Qaror o‘sha-o‘sha», deyayotgandek bo‘ldi. Keyin Yashvinga:

– Nahotki hech vaqt birovga ishqingiz tushmagan bo‘lsa? – dedi.

– Ey Xudo! Necha martalab tushgan! Lekin, bilasizmi, birovlar qimorga o‘tirishadi-yu, rendez-vous¹ payti kelganda o‘rinlaridan turib ketaverishadi. Menga esa kechqurungi qimorga kechikishimga yo‘l qo‘ymaydigan muhabbat kerak. Men ishni shunaqasiga to‘g‘rilab yuraman.

– Yo‘q, men bunaqasini so‘rayotganim yo‘q, haqiqiysini so‘rayapman. – Anna Gelsingforsdagisini demoqchi bo‘ldi-yu, lekin Vronskiy aytgan so‘zni og‘ziga olgisi kelmadi.

Vronskiyning ayg‘irini sotib oglani kelgan Voytov ichkariga kirganda, Anna o‘rnidan turib uydan chiqib ketdi.

Vronskiy uydan chiqib ketmasdan avval Annaning bo‘lmasiga kirdi. Anna o‘zini stolda bir nima qidirayotganga solmoqchi bo‘ldi, lekin aldashga vijdoni bo‘lmay, sovuq bir nazar bilan yuziga tikkasiga qaradi. Keyin fransuzchalab:

– Sizga nima kerak? – deb so‘radi.

– Gambettaning guvohnomasi, uni sotdim, – dedi Vronskiy; u shunday bir ohangda gapirdiki, bu ohang so‘zlardan ham ravshanroq

¹ Vasl (frans.).

qilib: «Izoh berib o'tirishga vaqtim yo'q, baribir, hech narsa chiq-maydi», degan ma'noni bildirdi.

«Uning oldida mening hech qanday aybim yo'q. Agar o'zini jazolamoqchi bo'lsa, tant pis pour elle¹, – deb o'ylandi Vronskiy. Lekin chiqib ketayotganda, nazarida, Anna bir nima deganday bo'ldi; birdan unga rahmi kelib, yuragi achishib ketdi.

– Nima deding, Anna? – dedi.

Anna ham sovuq, xotirjam bir ohangda:

– Hech nima, – deb javob qildi.

Vronskiy: «Hech nima bo'lsa, tanf pis, – deb o'yladi-yu, yuragi uvishdi, keyin o'girilib yurib ketdi. Uydan chiqib ketayotganda, oynada Annaning sarg'aygan yuzini, titrab turgan lablarini ko'rди. Shunda to'xtamoqchi, unga tasalli beradigan biron so'z aytmoqchi bo'ldi, ammo aytadigan so'zini o'ylab topguncha oyoqlari uni bo'lmasdan olib chiqib ketdi. U bugun kunini uydan tashqarida o'tkazdi, kechqurun qaytib kelganda, xizmatkor qiz Anna Arkadevnaning boshi og'rib qolganini, shuning uchun uning huzuriga kirmasligini iltimos qilganini aytdi.

XXVI

Shu mahalgacha nuqul janjal bilan o'tgan biron kun bo'lмаган edi. Bugun birinchi marta shunday bo'ldi. Nafsilamr, buni janjal deb ham bo'lmasdi. Bu Vronskiyning soviganligini ochiq-oshkor tasdiqlar edi. U ot guvohnomasini olgani kirganda Annaga shunday qaradiki, ajabo, shunday ko'z bilan qarash mumkinmidi? Annaga qarasayu, alamidan yuragi pora-pora bo'lganini ko'rsa-yu, tag'in yonidan indamay, loqayd-parvosiz o'tib ketaversa-ya? U Annadan sovigan, balki undan nafratlanadi ham, chunki boshqa xotinni yaxshi ko'rib qolgan – bunisi ravshan edi.

Anna Vronskiy aytgan achchiq-tirsiq gaplarni esladi, aytgisi kelgan va aytishi mumkin bo'lgan so'zlarni xayoliga keltirdi, natijada, dard-u alami ortib ketdi.

Vronskiy: «Men sizni ushlab turganim yo'q, – deya olardi. – Xohlagan yeringizga keta bilasiz. Ehtimol, eringizning oldiga qaytish uchungina undan ajramagandirsiz. Qaytavering. Pul kerak bo'lsa, xo'p, beraman. Aytинг, necha so'm kerak?»

¹ O'ziga qiyin (*frans.*).

Vronskiy Anna tasavvurida dag‘al bir odam aytishi mumkin bo‘lgan eng shafqatsiz so‘zlarni aytdi, shuning uchun Anna bu so‘zlarni chindan ham Vronskiy aytgandek, uni kechirmadi.

Shundan keyin u: «Bu rostgo‘y, vijdonli kishi meni yaxshi ko‘raman, deb kechagina ont ichmabmid? Men ham ko‘p martalab bekorga qon bo‘lmabmidim?» – dedi o‘ziga.

Anna Vilsonnikiga borib-kelishga sarf qilgan ikki soatidan boshqa butun kunini shubhalar ichida o‘tkazdi: endi ish tamommi yoki yarashishga umid bormi, hozir boshini olib ketsinmi yo uni bir marta ko‘rsinmi? Anna uni butun kuni bilan kutdi; kechqurun esa boshi og‘rib qolganini aytishni buyurib, bo‘lmasiga kirib ketganda: «Xizmatkor qizning ogohlantirishiga ham qaramay yonimga kirma, demak, meni hali yaxshi ko‘radi. Kirmasa, demak, ish tamom. Unda nima qilishimni bilaman!» – deb ko‘ngliga tugib qo‘ydi.

Anna kechqurun eshik oldiga kelib to‘xtagan izvoshning taqir-tuqurini, Vronskiyning oyoq dupurini, xizmatkor qiz bilan gaplashganini eshitdi: u o‘ziga aytilgan gapga ishonib, boshqa hech narsani surishtirmay, bo‘lmasiga kirib ketdi. Demak, ish tamom.

Ana shunda Vronskiyning qalbida Annaga bo‘lgan muhabbatini tiriltiradigan, uni jazolaydigan, Annaning ko‘ngliga kirib olgan shaytonning vasvasasi bilan Vronskiyga qarshi olib borayotan kurashda g‘alaba qozontiradigan birdan bir vosita, ya’ni o‘lim Annaning ko‘z o‘ngida ravshan namoyon bo‘ldi.

Endi Vozdvijenskiyga jo‘nash yo jo‘namaslikning, eridan taloq xatini olish yo olmaslikning Anna uchun farqi qolmadidi – bular luzumsiz narsalar edi. Endi yolg‘iz bir narsa – uni jazolashigina kerak edi.

Anna hamisha uqlash uchun ichadigan qoradorisini odatdagi me’yorda suza turib: «Hammagini birato‘la ichsam-u o‘lardim-qolardim», – deb o‘yladi; bu narsa unga shu qadar oson, shu qadar jo‘n bo‘lib ko‘rindiki, fursat qo‘ldan ketganda Vronskiyning nechog‘lik azob chekishini, pushaymon bo‘lishini, o‘zini yodlab sog‘inib-sarg‘ayishini o‘ylab huzur qila boshladi. Anna yonib bo‘layozgan birgina sham yorug‘ida shiftning piramonidagi qubbali naqshlarga, shirmadan tushib, shiftning bir qismini to‘sib turgan ko‘lankaga qarab, o‘rnida ko‘zları ochiq yotar, o‘zi o‘lib ketib, Vronskiy uchun yolg‘iz bir xotiragina bo‘lib qolganda, u qanday his-tuyg‘ular ichida qolishini

ko'z o'ngiga ravshan keltirar edi. O'shanda Vronskiy: «Annaga shunday shafqatsiz so'zlarni aytishga qanday tilim bordi-ya? Unga hech nima demasdan, qanday qilib uydan chiqib ketdim-a? Endi u yo'q. Anna bizni butunlay tashlab ketdi. Anna o'sha yoqda...» – deydi. Birdan ko'lanka lopillab ketdi, butun piramon, butun shiftni bosdi, boshqa tarafdan boshqa ko'lankalar bular tomonga qarab yugurdi; bir zumgina ko'lankalar yo'q bo'ldi, lekin keyin yana shiddat bilan chopishib, tebranib kelishib bir-biriga qo'shildi. So'ngra hamma yoqni qorong'i bosdi. «O'lim!» deb o'yladi Anna. Shundan keyin yuragiga shunday bir vahima tushdiki, o'zi qayerda ekanligini anchagacha bilolmadi; yonib bo'lib o'chgan sham o'rniga boshqasini yoqish uchun titroq qo'llari bilan gugurt qidirib, anchagacha topolmadi. «Yo'q, bo'ldi – yashash kerak! Axir men uni yaxshi ko'raman-ku. Axir u meni yaxshi ko'radi-ku! Bu narsalar o'tar-ketadi!» – derdi Anna. U hayotga qaytish shodligidan ko'z yoshlari oqib betlaridan yumalab tushayotganini sezib turardi. Ana shundan keyin yuragini to'ldirgan vahimadan qutulish uchun shoshib Vronskiyning kabinetiga ketdi.

Vronskiy kabinetida dong qotib uxbab yotgan edi. Anna uning yoniga keldi-da, yuziga yuqorida sham tutib, uzoq tikilib qoldi. Mana endi Vronskiy uxbab yotganda, Annaning unga muhabbatni shu qadar jo'shdiki, yuzini ko'rib, sevgi yoshlarini tutolmay qoldi; lekin u bilardi. Agar Vronskiy hozir uyg'onib ketsa, Annaga o'zining haqligini da'vo qiluvchi sovuq bir nazar bilan qaraydi, Anna ham unga bo'lgan muhabbatini aytishdan avval, uning o'zi oldida nechog'lik aybdor ekanini isbot qilishga majbur bo'ladi. Anna uni uyg'otmasdan o'z bo'lmasiga qaytdi-da, yana bir marta qoradori ichgandan so'ng ertalabga yaqin og'ir, chala-chulpa uyquga ketdi; uyqusida o'zini sezib yotdi.

Vronskiy bilan aloqa qilmasdan oldin bir necha marta ko'rgan vahimali tushini ertalab yana ko'rib, uyg'onib ketdi. Paxmoq soqolli chol temir ustiga engashib olib, bir nima qilar, fransuzcha ma'nosiz so'zlar aytib to'ng'illardı; Anna har vaqt mana shu dahshatli tushi vaqtida chol o'ziga parvo qilmay, qo'lidagi temir bilan Anna ustida turib allaqanday qo'rqinchli narsalar qilayotganini sezib yotardi. Hozir ham shunday bo'ldi. U uyqusidan uyg'onganda, butun badanini sovuq ter bosgan edi.

Anna o'rnidan turganda, kechagi kun g'ira-shira esiga tushdi.

«Janjallashdik. Shu vaqtgacha bir necha marta bo'lgan narsa yana bo'lidi. Men unga boshim og'rib qolganini ayttirdim, yonimga kirmadi. Ertaga qishloqqa jo'naymiz, o'zini ko'ray, yo'nga tayyorlanishimiz kerak», – dedi Anna o'ziga. Keyin uning xonada ekanini bilib, o'sha yoqqa ketdi. Mehmonxonadan o'tib ketayotganda, ko'cha eshigi oldiga arava kelib to'xtaganini eshitib, derazadan qaradi: u yerda bir kareta turar, binafsha shlapali yosh bir qiz boshini karetadan chiqarib, eshik qo'ng'irog'ini chalayotgan lakeyga bir nima deb buyurar edi. Dahlizda gaplashgandan keyin allakim yuqoriga chiqdi, so'ngra mehmonxona yonidan Vronskiyning oyoq dupuri eshitildi. U shaxdam odimlar bilan zinadan tushib borardi. Anna tag'in derazaga keldi. Ana, u shlapasiz ko'cha eshididan chiqib karetaga yaqinlashdi. Binafsha shlapali yosh qiz unga bitta xaltacha berdi. Vronskiy kulimsirab unga bir nima dedi. Karella yurib ketdi; Vronskiy yana shaxdam odimlar bilan zinadan yugurib chiqdi.

Annaning ko'nglini qoplab olgan tuman birdan tarqaldi. Kechagi hislari xasta dilini yana qattiqroq siqdi. Butun kunini uning uyida, u bilan birga o'tkazish darajasida tubanlashib ketganini hozir Anna anglay olmasdi. U qarorini aytish uchun Vronskiyning kabinetiga kirdi.

Vronskiy Annaning yuzidagi dardli, tantanali ifodani ko'rishni ham, tushunishni ham xohlamay:

– Sorokina qizi bilan keldi; oyim yuborgan pul bilan qog'ozlarni keltirib berishdi. Kecha ololmagan edim. Boshing qalay, tuzukmi? – dedi xotirjam bir ohangda.

Anna kabinet o'rtasida indamasdan Vronskiyga tikilib turardi. Vronskiy unga bir qaradi-yu, bir zumgina xo'mrayib, qo'lidagi xatni o'qiyverdi. Anna o'girilib, kabinetdan sekin-sekin chiqib keta boshladи. Vronskiy uni to'xtatib qolsa bo'lar edi, lekin u eshikka yetib qoldi: Vronskiy shunda ham indamadi, faqat ag'darilayotgan xat varag'ining shitirlashigina eshitildi.

Anna eshik og'ziga yetganda:

– Ha, aytgandek, – dedi u, – ertaga muqarrar ketamiz-a? Shundaymi?

Anna unga yuzini o'girib:

– Siz ketasiz, men emas, – dedi.

- Anna, axir bunday umr qilib bo‘lmaydi!..
- Siz ketasiz, men emas, – dedi Anna takrorlab.
- Bunga chidab bo‘lmaydi!
- Siz... pushaymon bo‘lasiz, – deb Anna chiqib ketdi.

Vronskiy bu hasratlı so‘zlarning ma'yus ohangidan qo‘rqib ketdi, u o‘rnidan sapchib turdi-yu, Anna orqasidan yugurmoqchi bo‘ldi, lekin o‘ziga kelib, yana joyiga o‘tirdi, tishlarini g‘ijirlatib, qovoqlarini soldi. Uning nazarida yarashmagan qiliq bo‘lgan bu do‘q qonini buzgan edi. «Men qo‘limdan kelgan hamma narsani qilib ko‘rdim, – deb o‘yladi, – endi bitta chora qoldi u ham bo‘lsa – parvosizlik». Ana shundan keyin shaharga, so‘ngra vakolatnomaga qo‘l qo‘ydirish uchun yana onasining yoniga borish taraddudini ko‘ra boshladи.

Anna kabinetdan keyin yemakxonadan uning oyoq dupurini eshitdi. Vronskiy mehmonxona eshigi oldida bir to‘xtadi. Lekin Annaning bo‘lmasiga burilmadi, faqat o‘zi yo‘g‘ida Voytov kelsa, ayg‘irni berib yuboravingilarni, deb tayinladi. So‘ngra Anna eshik oldiga izvosh keltirishganini, eshik ochilganini, Vronskiy yana tashqariga chiqqanini eshitdi. Lekin u yana dahlizga qaytib kirdi, kimdir yuqoriga yugurib chiqdi. Bu Vronskiyning esidan chiqqan qo‘lqoplarini olib tushgani chiqqan kamerdiner edi. Anna derazaga kelib qaradi: Vronskiy qaramasdanoq qo‘lqoplarini oldi, qo‘li bilan kucherning orqasidan turtdi, unga bir nima dedi. So‘ngra derazaga qaramasdan, izvoshda odatdagagi vaziyatda o‘tirdi, oyoqlarini mingashtirdi. Qo‘lqoplarini kiyib, muyilishda ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

XXVII

Anna deraza yonida turib: «Ketdi! Endi tamom!» – dedi; bunga javoban kechasi sham o‘chganda uyni qoplagan qorong‘ilik va ko‘rgan vahimali tushi qoldirgan taassurot bir-biri bilan qo‘shilib, qalbini sovuq bir vahimaga to‘ldirdi.

Anna: «Yo‘q, bu mumkin emas!» – deb qichqirdi va bo‘lmadan o‘tayotib qo‘ng‘iroqni qattiq chaldi. U yolg‘iz qolishdan shunchalik qo‘rqib ketdiki, xizmatkor kirishini ham kutib o‘tirmay, o‘zi uning oldiga bordi.

- Biling-chi, graf qayerga ketdi ekan, – dedi Anna.
- Xizmatkor grafning otxonaga ketganligini aytgandan so‘ng:

– Agar biron yoqqa bormoqchi bo‘lsalar, foytun hozir qaytib keladi, shuni aytib qo‘yinglar deb tayinladilar, – dedi.

– Yaxshi. To‘xtang. Hozir xat yozib beraman. Xatni Mixayloga bering, otxonaga eltid bersin. Tez yetkazsin.

Anna o‘tirib, shu so‘zlarni yozdi:

«Ayb menda. Uyga qayt, gaplashamiz. Xudo haqi kel, men qo‘rqpapman».

Anna xatni konvertga solib, xizmatkorning qo‘liga berdi.

U hozir yolg‘iz qolishdan qo‘rqa boshladi. Xizmatkor ketgandan keyin bo‘lmasidan chiqib, bolalar xonasiga qarab yurdi.

Anna xayol parishonligi bilan bolalar bo‘lmasida Seryojasini ko‘rmoqchi edi, lekin Seryoja o‘rnida o‘zining betlari qizil, sochlari qo‘ng‘iroq, do‘ndiq qizchasi ko‘rganda, miyasiga kelgan birinchi fikr shu bo‘ldi: «Yo‘q, yo‘q, bu Seryoja emas, hech ham u emas! Qani uning moviy ko‘zlari, dilbar, hurkak tabassumi?» Qizaloq stol yonida o‘tirar, po‘kakni zo‘r berib stolga taqillatib urar, charosday qora ko‘zchalarini onasiga tikib, ma’nosiz qarar edi. Anna ingliz xonimning savoliga javoban o‘zining sog‘-u salomatligini, ertaga qishloqqa jo‘nashlarini aytgandan so‘ng qizchasi yoniga o‘tirib, grafindan chiqarilgan po‘kakni uning oldida pildirata boshladi. Lekin qizchaning baland ovoz bilan sharaqlab kulishi, qoshlarini chimirib o‘ynatishi Vronskiyni uning ko‘z o‘ngida shu qadar jonlantirib yubordiki, u zo‘rga yig‘isini bosib jadal o‘rnidan turdi-da, uydan chiqib ketdi. «Nahotki hamma narsa tamom? Yo‘q, bu bo‘ladigan gap emas! – deb o‘ylardi Anna. – Qaytib keladi. Lekin o‘sanda jilmaygani, o‘sha qiz bilan gaplashgandan keyin jonlanib ketganining sababini menga qaysi til bilan aytib beradi? Mayli, aytmasa ham ishonaman. Agar ishonmasam, unda bir narsadan boshqa ilojim qolmaydi – bu narsani esa xohlamayman».

Anna soatga qaradi. O‘n ikki daqiqa o‘tgan edi. «Xatimni allaqachon oldi, hozir yo‘lda kelyapti. Oz qoldi, yana o‘n daqiqagini... Hay, birdan kelmasa-chi? Yo‘q, bu bo‘ladigan gap emas! Lekin shunday qilish kerakki, yig‘laganimni payqamasin. Borib, betimni yuvib olay. Ha-ya, sochimni taraganmanmi-yo‘qmi? – deb so‘radi u o‘zidan. Lekin taraganmi-yo‘qligini eslay olmadidi. Boshini qo‘li bilan silab ko‘rdi. «Ha, tarabman; lekin qachon taraganim hech esimda yo‘q». U qo‘liga ham ishonmay, haqiqatan ham sochini taraganmi-

yo'qligini ko'rish uchun toshoyna oldiga keldi. Sochlari taralgan edi, ammo qachon taralganini hech eslolmadi. Anna oynada ko'ringan bo'g'riqib ketgan yuziga, g'alati porillab, o'ziga hurkib qarab turgan ko'zlariga tikilib: «Bu kim ekan?» – deb o'ylandi. Keyin o'zini tanib, birdan «Iya, menman-ku», – dedi-da, hamma yog'iga ko'z yogurtirib, uning o'pishtalarini sezalashdi, seskanib, yelkalarini qisdi. So'ngra qo'lini lablariga keltirib o'pdi.

«Nima bo'ldi, jinni bo'lyapman, shekilli», – deb bo'lmasiga qarab yurdi; Annushka bo'lmasini yig'ishtirayotgan edi. Anna xizmatkor qiz yoniga kelib to'xtadi: uning yuziga qaramasdanoq:

– Annushka, – dedi nima deyarini o'zi bilmasa ham. Xizmatkor qiz uning fikrini payqagandek.

– Darya Aleksandrovnaniqiga bormoqchiydingiz, – dedi.

– Darya Aleksandrovnaniqigami? Ha, boraman.

«O'n besh daqiqa u yoqqa, o'n besh daqiqa bu yoqqa. U kelyapti, hozir kelib qoladi. – Soatini chiqarib qaradi. – Meni shunday ahvolda qoldirib ketishga qanday ko'ngli bo'ldi-ya? Men bilan yarashmasdan qanday tura oladi?» – Derazaga kelib, ko'chaga qaray boshladi. Bu mahalgacha allaqachon kelishi kerak edi. Lekin hisobdan adashgan bo'lishi mumkin edi, shuning uchun Vronskiy ketgan paytni eslashga, daqiqalarni yana sanashga tutindi.

O'zining soatini solishtirib ko'rgani katta soat yoniga kelganda, ko'cha eshibi oldiga bir arava kelib to'xtadi. Anna derazadan qarab Vronskiyning foytuni ekanini ko'rди. Lekin zinadan hech kim chiqavermadidi. Pastdan faqat ovozlargina eshitildi. U Vronskiyning foytunida qaytib kelgan o'z chopari edi. Anna uning oldiga tushdi.

– Grafni topolmadik. Ular Nijegorod yo'liga ketib qolgan ekanlar.

Ikki beti qizil, xushchaqchaq Mixaylo Anna topshirgan xatni qaytarib berayotganda:

– Hay-hay, senga nima bo'ldi? – dedi Anna.

«Ha, yuborgan xatimni olmabdi», – deb esladi Anna.

Keyin o'z chopariga:

– Shu xat bilan to'g'ri qishloqqa, grafinya Vronskayanikiga bor. Darhol javobini olib kel, – dedi.

«Xo'sh, o'zim-chi, o'zim nima qilaman?» – deb o'ylandi.

«Ha, o'zim Dollinikiga boraman; to'g'ri, bo'lmasa jinni bo'lib qolaman. Darvoqe, telegramma yuborishim ham mumkin». Shundan keyin telegramma yozdi:

«Siz bilan gaplashishim kerak, hozir yetib kelng».

Anna telegrammani yuborib, o'zi kiyingani ketdi. Kiyinib, shlapasini boshiga kiyib bo'lgandan so'ng, ancha yo'g'on tortib, sumbatda bo'lib turgan Annushkaning ko'zlariga yana qaradi. Uning kichkina, mehribon, targ'il ko'zlarida oshkor bir achinish alomati bor edi.

Anna chor-nochor o'zini kursiga tashlab:

- Annushka, aylanay, nima qildim endi? – dedi yig'lab turib.
- Nimaga xavotir bo'lasiz, Anna Arkadevna! Axir bunday narsalar bo'ladi-ku. Darya Adeksandrovnananikiga boring, bahrangiz ochiladi,
- dedi xizmatkor qiz.

Anna o'ziga kelib o'rnidan turdi-da:

- Ha, bora qolay, – dedi. – Mening yo'g'imda telegramma kelsa, Darya Aleksandrovnalarnikiga yuboringlar... yo'q, o'zim qaytib kelaman.

Anna yuragining qattiq dukirlab urayotganiga vahima bilan qulop solib: «Ha, o'ylayverish kerak emas, biron narsa qilish, yaxshisi, biron yoqqa ketish kerak», – dedi-yu, jadal uydan chiqib, izvoshga o'tirdi.

Pyotr izvoshdagi o'ringa chiqishdan avval:

- Qayoqqa haydashni buyuradilar? – deb so'radi.
- Znamenka ko'chasiga, Oblonskiylarnikiga.

XXVIII

Havo ochiq edi. Ertalabdan beri maydalab yog'ib turgan yomg'ir tindi; havo yaqindagina ochilib ketdi. Tomlarning tunukalari, trotuarlarning plitalari, yo'llarning toshlari, izvoshlarning g'ildirak va charmlari, mis va temirlari – hammasi may quyoshida yarqirab turardi. Soat uch bo'lganidan ko'chalardagi qatnovning eng kuchaygan payti edi.

Anna, bo'z otlar chopib ketar ekan, tarang ressorlari ustida sezilar-sezilmas silkinib borayotgan osoyishta foytunning burchagida o'tirib olib, g'ildiraklarning tinimsiz shaqir-shuqurlari va toza havoda tez-tez o'zgarib turgan taassurotlar ostida so'nggi kunlarning hodisalarini

xayolidan bir-bir o‘tkazib, o‘z ahvolining unda tuyulganidan butunlay boshqacha ekanini ko‘rdi. Endi o‘lish fikri ham unga ilgarigidek vahimali, ravshan ko‘rinmas, o‘limning o‘zi ham ortiq birdan-bir chora bo‘lib tuyulmas edi. Endi u o‘zini o‘zi shunchalik yerga urgani uchun o‘zini koyir edi. «Meni kechirishini yolvorib so‘radim. Ixtiyorimni topshirib qo‘ydim. O‘zimni aybdor deb bo‘ynimga oldim. Nima uchun? Tavba, usiz turolmaymanmi?» Anna usiz qanday tura olishi to‘g‘risidagi savolga javob ham bermay, ko‘chalardagi peshlavhalarni o‘qiy boshladi: «Kontora va ombor. Tish doktori». Ha, Dolliga hammasini aytaman. U Vronskiyni yomon ko‘radi. Ko‘nglim og‘risa ham, uyat bo‘lsa ham, mayli, hammasini Dolliga aytaman. U meni yaxshi ko‘radi, nimani maslahat ko‘rsa, qilaman. Endi Vronskiyga bo‘yin egmayman; o‘zimni unga tarbiyat qildirib qo‘ymayman. Filippov, kalach nonlar. Bular xamirni Peterburgga olib borishar emish. Moskvaning suvi juda yaxshi-da. Mitishchi quduqlari va chalpaklari. Shundan keyin uzoq, uzoq o‘tmishda, endi o‘n yettiga kirgan chog‘larida xolasi bilan Troitsaga borganini esladi. Yana otda borgan edim. Nahotki o‘sha qo‘llari qip-qizil qiz men bo‘lsam? U mahallar men yetisha olmaydigan ajoyib ko‘ringan narsalarning ko‘pi endi ma’nosiz, ahamiyatsiz bo‘lib qoldi, u mahallar ixtiyorimda bo‘lgan narsalarga endi men o‘lsam ham yetisha olmayman. O‘zimni shunchalik qora yerga urishimga o‘sha mahallar ishona olarmidim? Xatimni olib, rosa keriladi, rosa mamnun bo‘ladi! Lekin men unga ko‘rsataman... Bu rangdan mucha sassiq hid keladi. Nega ular hadeb bo‘yashadi. Hadeb binolar qurishadi-ya? Modalar va kiyimlar!.. – deb Anna peshlavhani o‘qidi. Bir erkak unga salom berdi. U Annushkaning eri edi. Anna Vronskiy aytgan so‘zni eslab: «Bizning tanimizga tushgan qurtlar, – dedi. – Bizning tanimizga? Nima uchun bizning tanimizga? Shunisi dahshatlik, o‘tmishni tub-tomiri bilan yulib tashlab bo‘lmaydi. Yulib tashlab bo‘lmaydi. Lekin o‘tmish xotirasini xaspo‘shab ketama». Shu on Anna Aleksey Aleksandrovich bilan o‘zi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan narsalarni, bularni esdan qanday chiqarganini xotirladi. «Dolli meni ikkinchi eridan chiqyapti, shuning uchun meni nohaq, deb o‘ylar balki, ajabo, men haq bo‘lmochimanmi? Haq bo‘lolmayman!» dediyu, yig‘lagisi kelib ketdi. Lekin o‘tib ketayotgan ikkita qizning nimaga kulishlari mumkinligini darhol o‘ylashga tutindi. «Bo‘lsa-bo‘lmasa,

ishq-muhabbatdan gaplashayotishgandir-da? Ishq savdosining nechog'lik g'amgin, tushkun narsa ekanligini bilishmaydi... Xiyobon va bolalar. Uchta bola chopishib, ot-ot o'ynashyapti. Seryoja! Endi men hamma narsadan judo bo'laman. Uni qaytarib keltirolmayman. Ha, agar qaytmasa, hamma narsadan judo bo'laman. Poyezdga kechikib qolib, endi yetib kelgan bo'lsa ham ajab emas. Yana o'zingni xor qilmoqchimisan? – dedi u o'ziga. – Yo'q, Dollilarnikiga kiraman-u, bor gapni aytaman: men baxti qora bo'ldim, men shunga loyiqliman, men aybdorman, har holda bebaxtman, menga yordam qil, deyman. Bu otlar, bu foytun, – bu foytunda o'zimga o'zim biram jirkanch ko'rinaman – bularning hammasi uniki, lekin bularni men endi ko'rmayman».

Anna Dolliga aytadigan butun dard-u alamlarini ifoda qila biladigan so'zlarni o'ylay-o'ylay, jo'rttaga yuragiga tuz sepib, zinadan chiqib bordi. Dahlizga kirgandan keyin kim bor? – deb so'radi.

– Katerina Aleksandrovna Levina, – dedi lakey.

«Kiti! Bir mahallar Vronskiy oshiq bo'lgan o'sha Kiti, – deb o'yladi Anna. U Kitiga uylanmaganiga afsus yeydi. Meni esa nafrat bilan eslab, men bilan topishganiga afsuslanadi».

Anna kelgan paytda opa-singil chaqaloqni boqish to'g'risida maslahatlashib o'tirgan edi. Suhbatlariga xalal bergen mehmonni Dollining o'zi kutgani chiqdi.

– Voy, hali ketganing yo'qmi? Bugun o'zim bormoqchiydim, – dedi Dolli, – bugun Stivadan xat oldim.

Anna Kitini ko'rish uchun tevaragiga alanglab:

– Biz ham telegramma oldik, – dedi.

– Aleksey Aleksandrovichning muddaosi nima ekanligiga tushunolmaganini, lekin javob olmasdan qaytmasligini yozibdi.

– Men yoningda birov bormikan deb o'ylovdim. Xatni o'qisam bo'ladimi?

Dolli xijolat bo'lib:

– Ha, Kiti bor, – dedi, – bolalar bo'lmasida o'tiribdi. Qattiq betob edi.

– Eshiddim. Xatni o'qisam bo'ladimi?

– Hozir olib kelaman. Lekin Aleksey Aleksandrovich oyog'ini tirab olmabdi; aksincha, Stiva umid borligini aytibdi, – dedi Dolli eshik og'zida to'xtab.

– Mening umidim yo‘q, javobiga zormasman, – dedi Anna.

Anna yolg‘iz qolgandan so‘ng: «Bu nimasi, Kiti men bilan ko‘rishishni o‘zi uchun razolat deb hisoblaydimi? – deb o‘yladi. – Kim biladi, balki haqdir. Bu bir haqiqat bo‘lsa ham, lekin bir mahallar Vronskiyni yaxshi ko‘rgan Kiti buni menga ro‘kach qilmasligi kerak edi. Bilaman, meni shu ahvolimda biron ta boobro‘ xotin qabul qilolmaydi. Bilaman, Vronskiy bilan topishgan daqiqamdan boshlab hamma narsamni uming yo‘lida fido qilganman! Fidokorligimning mukofoti shu bo‘ldi! O, ko‘rishga ko‘zim yo‘q uni! Nima uchun ham bu yerga keldim? Holim yana ham yomon, yana ham og‘ir bo‘ldi. – Anna narigi xonada opa-singillarning o‘zaro gaplashganlarini eshitdi. – Endi Dolliga nima ham deyman? O‘zimning bebaxtligimni aytib, Kitini suyuntiraymi? O‘zimni uning himoyatiga taslim qilaymi? Yo‘q, baribir, Dolli ham hech nimaga tushunmaydi. U bilan gaplashadigan gapim ham yo‘q. Faqat Kitini ko‘rsam, ularning hammasidan nafratlanganimni, endi menga hech bir narsaning farqi yo‘qligini ko‘rsatsam yaxshi bo‘lar edi».

Dolli xatni olib kirdi. Anna o‘qib chiqib, indamasdan qaytarib berdi.

– Men buni bilardim, – dedi Anna. – Meni bu narsa zarracha ham qiziqtirmaydi.

Dolli Annaga maroq bilan qarab:

– Nega endi? Men bo‘lsam, aksincha, umidvorman, – dedi. Dolli uni hech bir mahal mana shunday g‘alati, tajang holda ko‘rmagan edi. – Qachon qishloqqa chiqib ketasan? – deb so‘radi.

Anna ko‘zlarini suzib, ro‘parasiga qarab o‘tirardi. Dollining savoliga javob bermadi.

Anna eshik tomonga qarab qizardi-yu:

– Nega Kiti mendan qochadi? – deb so‘radi.

Dolli yolg‘onni do‘ndirolmash edi, shuning uchun o‘ng‘aysizlanib:

– Voy, yo‘g‘-ey! Chaqalog‘ini emizyapti, hech epini qilolmaydi, maslahat berdim... Kelganiningni eshitib juda suyundi. Hozir kiradi, – dedi. – Ha, mana keldi.

Kiti Annaning kelganini eshitib, oldiga chiqishni xohlamagan edi, Dolli qo‘ymadi. Kiti o‘zini qo‘lga olib ichkari kirdi, qizarib-bo‘zarib Anna yoniga keldi. Keyin unga qo‘lini berib, qaltiroq tovush bilan:

– Men juda xursandman, – dedi.

Kiti ichida bu buzuq xotinga bo‘lgan dushmanchilik hissi bilan unga shafqatli bo‘lish istagi o‘rtasida kurash borgani uchun qisilib, tortinayotgan edi; lekin Annanинг chiroyli, istarasi issiq yuzini ko‘rdi deguncha dushmanchiligi bir zumda yo‘q bo‘ldi.

— Mabodo men bilan ko‘rishgingiz kelmaganda ham, men bunga ajablanmas edim. Men hamma narsaga ko‘nikib qolganman. Kasal bo‘ldingizmi? Ha, biroz o‘zgarib qolibsiz, — dedi Anna.

Kiti Annanинг o‘ziga dushman ko‘zi bilan qarayotganini sezib turardi. U Annan Ning bunday qarashini bir mahallar o‘ziga homiylik qilgan bu juvonning endi o‘zining oldida noqulay ahvolga tushib qolganligidan deb bilib, unga yuragi achishdi.

Ular Kitining kasal bo‘lganidan, chaqaloqdan, Stivadan gaplashgan bo‘lishsa ham, Annani hech biri qiziqtirmagani ko‘rinib turardi.

Anna o‘rnidan turayotib:

- Sen bilan xayrлаshgани keluvdim, — dedi.
- Qachon jo‘namoqehisizlar?

Lekin Anna javob qilmay yana Kitiga yuzlandi. Kulimsirab turib:

— Sizni ko‘rganim uchun juda xursand bo‘ldim, — dedi. — Sizning ta’rifingizni shuncha ko‘p eshitdimki, hatto eringiz ham aytdi. Eringiz mening oldimga keluvdi, u menga juda yoqdi, — dedi; u bu so‘zni yomon niyat bilan aytgan edi. — Hozir qayerdalar?

- Qishloqqa ketganlar, — dedi Kiti qizarib.
- Mendan salom aytинг, albatta, salom aytинг.

Kiti Annan Ning ko‘zlariga hamdard tikilib turib:

— Albatta, aytaman! — dedi soddalik bilan.
— Xayr endi, yaxshi qol, Dolli! — Anna Dollini o‘pdi. Kitining qo‘lini qisib, shoshib chiqib ketdi.

Kiti opasi bilan xoli qolganda:

— Hali ham burungiday, hali ham o‘shanday jozibador, juda chiroyli! — dedi. — Lekin nimagadir odamning rahmi keladi! Juda ham rahmi keladi!

— Yo‘q, bugun ahvoli juda ham boshqacha, — dedi Dolli. — Dahlizga kuzatib chiqqanimda, yig‘lagisi kelib turganga o‘xshab ko‘rindi.

Anna boy a uydanchiqqanda o'zini qanday ahvolda sezgan bo'lsa, hozir foytunga undan battarraq ahvolda chiqib o'tirdi. Avvalgi azobiga endi xo'rlik va haqirlik hislari ham qo'shilgan edi; Anna bu narsani Kiti bilan ko'rishganda ravshan his etdi.

— Qayoqqa haydashimni buyuradilar? Uygami? — deb so'radi Pyotr.

Anna endi qayoqqa borishini o'yamasdanoq:

— Ha, uygaga, — dedi.

«Ular menga allaqanday qo'rjinchli, tushunib bo'lmaydigan taajjub narsaga qaraganday qarashdi-ya! — Anna yayov ketayotgan ikki kishiga qarab o'ylandi: — U hamrohiga shuncha harorat bilan nimalarni gapir-yapti ekan? Tavba, ko'nglidagi narsalarni birovga aytib bo'ladimi? Men ham Dolliga aytmoqchi edim, yaxshi hamki, aytmadim. Aytsam, bebaxtligimdan xursand bo'lardi. Xursandligini-ku yashiradi-ya, lekin u hasad qilgan huzur-u halovatim uchun jazomni tortganimga suyunar, u his qilgan asosiy narsa shu suyunch bo'lardi. Kiti-chi, u juda qattiq suyunardi. Men bu narsalarni besh barmog'imday bilaman! Men eriga odatdagidan ortiq mulozamat qilganimni Kiti biladi. Shuning uchun u rashk qiladi, meni ko'rolmaydi, hatto nafratlanadi. Uning nazarida men axloqsiz xotinman. Agar axloqsiz xotin bo'lganimda, erini o'zimga oshiq qilib olardim. Albatta, xohlasam. Ha, bir qur xohladim ham. — Shu mahal Annaning ro'parasidan yuzi qip-qizil, semiz bir janob izvoshda kelaverdi; u Annani tanishim deb o'ylab, yaltiroq shlapasini yaltiroq taqir boshi ustida ko'tardi-yu, yanglishganini tushunib, o'tib ketaverdi. Anna shu janob to'g'risida: — Mana bu o'zidan mamnun, — deb o'yladi. — U meni taniyman deb o'yladi. Lekin u ham dunyoda meni taniydig'an har qanday odamchalik kam taniydi. Men o'zim ham o'zimni taniyolmayman, bilmayman. Fransuzlar aytganidek, men faqat ishtahamni bilaman. — Ko'chada ikkita bola muzqaymoq sotib yurgan janobni to'xtatdi; u boshidan kuvasini olib, lungisining uchi bilan yuzini artdi. Anna bularni ko'rib: — Ana bularning ko'ngli iflos muzqaymoqni qo'msab qolibdi. Bular mazasini bilishsa kerak, — deb o'yladi. — Hammamizning ham ko'nglimiz shirin, mazali narsani tusaydi. Konfet bo'lmasa, iflos muzqaymoqni. Kiti ham shunaqa: Vronskiy bo'lmasa, Levinni xohladi. Shuning uchun

menga ko'zi kuyadi. Shuning uchun meni ko'rolmaydi. Hammamiz ham bir-birimizni ko'rolmaymiz. Men Kitini, Kiti meni. Mana shu gap to'g'ri. Tyutkin coiffeur. Je me fais coiffer par¹ Tyutkin... U kelganda shu gapni aytaman, – deb o'ylandi-yu, kulimsirab qo'ydi. Lekin shu payt qiziq gapni aytadigan hech kimi yo'qligini esladi. – Hech qanday kuladigan, vaqt ni chog' qiladigan narsa yo'q. Hammasi jirkanch. Kechki ibodat zangini chalishyapti. Anavi savdogar o'lib-tirilib cho'qinyapti! Xuddi bir narsani tushirib yuboradiganday qo'rjadi. Nimaga kerak ekan-a bu cherkovlar, bu zang urishlar, bu yolg'on-yashiriqlar? Anavi jon-u jahdlari bilan so'kishayotgan izvoshchilar singari biz ham bir-birimizni ko'rishga ko'zimiz yo'qligini yashirish uchungina kerak-da. Yashvin: «Men bilan qimorga o'tirgan odam ichimdag'i ko'ylagimgacha yutishni xohlaydi, men ham uni», deydi. Mana bu gap to'g'ri!»

Bu o'ylar uni shu qadar band qildiki, shu o'ylar bilan uyiga yetib kelganini bilmay qoldi. Uni qarshilagani chiqqan shveysarni ko'rgandagina Vronskiyga xat bilan telegramma yuborgani esiga tushdi.

– Javob bormi? – deb so'radi Anna. Shveysar:

– Hozir qarayman, – dedi-yu, kontorkaga qarab, undan telegramma solingen nafis kvadrat konvertni olib berdi. Anna: «Soat o'ndan oldin borolmayman, Vronskiy», degan so'zlarni o'qidi.

– Chopar qaytdimi?

– Yo'g'-a, – dedi shveysar.

Anna: «Agar shunday bo'lsa, men ham nima qilishimni bilaman, – deb o'yladi-yu, yuragida mujmal bir g'azab va qasos ehtiyoji tug'ilganini sezib, yuqoriga chopib chiqib ketdi. – Men o'zim oldiga boraman. Butunlay ketishdan avval yuragimdagi bor gapni aytib olaman. Hech qachon hech kimdan ana shu kishi qadar nafratlanmaganman!» – deb o'ylandi. Keyin uning qoziqdagi shlapasini ko'rib, jirkanganidan seskanib ketdi. Anna Vronskiyning telegrammasi o'zi yuborgan teleogrammaga javob ekanini, yuborgan xatini hali olmaganini fahmlamadi. U Vronskiyni hozir onasi va Sorokina bilan bamaylixotir gaplashib, o'zining iztirobalaridan quvonib o'tirganini tasavvur etdi. Qayerga borishini hali bilmasa ham

¹ Sartarosh. Mening sochlariimni Tyutkin taraydi (*frans.*).

o‘z-o‘ziga: «Ha, tezroq borish kerak», – dedi. Anna bu dahshatli uyda sezayotgan his-tuyg‘ulardan tezroq qutulish harakatida edi. Bu uydagi xizmatkorlar, devorlar, buyumlar – bularning hammasi unda nafrat va g‘azab uyg‘otar, uni og‘ir bir narsaday ezardi.

«Ha, temir yo‘l stansiyasiga borish kerak, bu ham bo‘lmasa, o‘sha yerga borib, aybini ochib tashlash kerak». Anna gazetalarni axtarib, poyezdlar jadvalini qaradi. Poyezd kechqurun soat sakkiz-u ikki daqiqada jo‘nar edi. «Ha, ulguraman». Anna izvosh tayyorlashni buyurib, bir necha kunga yetgulik narsalarni yo‘l xaltasiga joylay boshladи. U endi bu yerga qaytib kelmasligini bilardi. Miyasiga kel-gan rejalar qatorida shu narsani ham dudmalgina hal qilib oldi: stansiyada yoki grafinyaning mulkida yuz beradigan hodisadan keyin Nijegorod temir yo‘li bilan birinchi uchragan shaharchaga borib, o‘sha yerda tushib qoladigan bo‘ldi.

Ovqat stolga keltirib qo‘ylgan edi; Anna ovqat yoniga kelib, non bilan pishloqni hidlab ko‘rdi-da, yeyiladigan narsalarning ham-masini ko‘nglini ag‘darganiga qanoat hosil qilgandan so‘ng izvoshni keltirishga buyurib, o‘zi tashqariga chiqdi. Vaqt choshgohdan o‘tgan, uyning ko‘lankasi butun ko‘chani qoplab olgan edi: havo ochiq bo‘lganidan oftob tushib turgan yerlar iliq edi. Ul-bullarini ko‘tarishib kuzatgani chiqqan Annushka ham ul-bularni izvoshga yuklagan Pyotr ham, aftidan, norozi ko‘ringan kucher ham – hammasi uni jirkantirib, o‘z so‘zlari va harakatlari bilan g‘ashiga tegardi.

- Pyotr, sen menga kerak emassan.
- Bo‘lmasa, biletni kim oladi?
- Mayli, xohlaganingni qil, menga baribir, – dedi bo‘g‘ilib Anna.

Pyotr sakrab foytun oldiga chiqdi-da, qo‘llarini biqiniga tirab turib, vokzalga haydashni buyurdi.

XXX

Foytun yo‘lga tushdi-yu, mayda toshlar yotqizilgan ko‘chada gursillab, silkina-silkina yurib ketdi; taassurotlar yana birin-ketin o‘zgara boshladи; shunda Anna: «Ana, yana boshlandi! Men hamma narsani uqa boshladim», – dedi o‘ziga.

«Aytgandek, juda yaxshi o‘ylagan keyingi o‘yim nima to‘g‘risida edi? – Anna o‘ylagan narsalarini eslashga tirishdi. – Tyutkin coiffer?

Yo‘q, bu emas. Ha, aytgandek, Yashvinning gapi to‘g‘risida: odamlarni bir-biriga bog‘lab turgan birdan bir narsa – yashash uchun kurash-u, nafrat xolos. – Anna to‘rt otlik foytunga tushib, aftalaridan, shahar tashqarisiga vaqtichog‘lik qilgani ketayotgan jo‘ralarga xayolan murojaat qildi: – Yo‘q, bekor ketyapsizlar. Olib ketayotgan itingiz ham sizlarga yordam qilolmaydi. O‘zligingizdan qochib ketolmaysiz». Pyotr qaragan tomonga ko‘z tashlab boshi likillab borayotgan o‘lguday mast bir fabrika ishchisini ko‘rdi; uni mirshab allaqayoqqa olib ketayotgan edi. «Ha, mana bu qochsa ajab emas, – deb o‘yladi Anna. – Graf Vronskiy bilan biz ham bu huzur-u halovatni topolmadik, garchi bundan ko‘p narsa kutgan bo‘lsak ham». Shundan keyin Anna o‘zi bilan Vronskiy o‘rtasida bo‘lgan va ilgari o‘ylashdan qochib yurgan munosabatini mana shu ravshan yoruqqa birinchi marta soldi, chunki u bu yorug‘da hamma narsani ko‘ra boshlagan edi: «U mening nimamga zor edi; muhabbat shuhratparastligini qondirish istagi qadar emas edi». Anna uning so‘zlarini, topishgan kunlarida itoatkor ovchi it muqomlarini eslatuvchi qiliqlarini xotirladi. Endi hamma narsa shuni tasdiqlardi. Ha, muvaffaqiyati bilan maqtanmoqchi bo‘lgan. Albatta, muhabbat ham bor edi, lekin ko‘proq hissasi muvaffaqiyatdan tug‘ilgan g‘urur edi. U men bilan maqtanardi. Endi bu narsalar o‘tib ketdi. G‘ururlanadigan narsasi qolmadi. Endi g‘ururlanmaydi, balki xijolat bo‘ladi. U mendan olishi mumkin bo‘lgan hamma narsani oldi, endi mening keragim qolmadi. Mendan bezib ketdi, endi menga nisbatan faqat nomussizlik qilmaslikka tirishadi. Sarsongarchilikka xotima berish uchun erimdan ajratib, menga uylanish istagida ekanligi kecha og‘zidan chiqib ketdi. U meni yaxshi ko‘radi, lekin qanday? The zest is gone¹. – Anna Manej maydonida otda ketayotgan qizil yuz gumashtaga qarab: – Bu o‘zidan mamnun, hammani hayron qoldirmoqchi, – deb o‘ylandi, – ha, u mendan ilgarilarli olgan lazzatini ololmaydigan bo‘lib qoldi. Agar uni tashlab ketsam, yurak-yuragidan xursand bo‘ladi».

Bu bir taxmin emas edi – buni Anna hayotning va insonlar munosabatining ma‘nosini endi ochib ko‘rsatayotgan ravshan yorug‘da ko‘rib turardi.

«Mening muhabbatim hamon o‘t olib, xudbinlashib, uniki esa kundan kunga so‘nib boryapti, shuning uchun ham bir-birimizdan

¹ Dami qaytgan (*ingl.*).

ayrilyapmiz, – deb Anna o'yini davom qildirdi. – Endi buning chorasi yo'q. Men butun borlig'im bilan unga bog'langanman, uning ham butun borlig'i bilan meniki bo'lishini talab qilaman. U esa kundan kunga mendan uzoqlashishni istaydi. Biz topishish uchun bir-birimizga peshvoz chiqdik, keyin esa turli tomonga qarab ajrab boryapmiz. Endi buni o'zgartirib bo'lmaydi. U meni bema'ni rashk qilasan, deydi; men o'zimga bema'ni rashk qilaman, deyman; lekin bu noto'g'ri gap. Men rashk qilmayman. Noroziman. Lekin... – Anna og'zini ochdi va birdan miyasiga kelgan fikrdan hayajonlanib, nariroq surilib o'tirdi. – Men uning erkalashlarini ehtiros bilan sevuvchi ma'shuqasi emas, boshqa biron narsa bo'la olsam koshki edi; lekin men boshqa narsa bo'lishni xohlamayman, epini ham qilolmayman. Mana shu istagim bilan uni o'zimdan jirkantiraman, u esa meni g'azablantiradi; haqiqatan ham, bu boshqacha bo'la olmaydi. U meni aldamaydi. Sorokinani ko'z ostiga olib qo'yaganini, Kitiga oshiq emasligini, menga vafosizlik qilmasligini, ajabo, bilmaymanmi? Men bularning hammasini bilaman, lekin bilganim bilan mushkulim oson bo'lmaydi-ku, agar u meni sevmasa-yu, faqat burchini bajo keltirish uchun mehribonlik qilsa, ardoqlasa, men xohlagan narsa bo'lmasa, – bu axir qahr-u g'azabdan ming chandon battar-ku! Bu – do'zax! Hozirgi ahvolim esa do'zaxning o'zi. U meni ko'p vaqtlardan beri yaxshi ko'rmaydi. Muhabbat tugagan joyda esa nafrat boshlanadi. Bu ko'chalarni men hech bilmayman. Tog'dek uylar, uylar, odamlar.. Odamlarning son-u sanog'i yo'q, hammasi ham bir-birini ko'rolmaydi. Xo'p bo'lmasa, baxtli bo'lish uchun o'zim xohlagan narsamni o'ylab chiqaray. Xo'pmi? Taloq olaman, Aleksey Aleksandrovich Seryojani menga beradi, men ham Vronskiyga tegaman». Anna Aleksey Aleksandrovichni tilga olgan soati uni mo'min, jonsiz, so'nik ko'zlarini, ko'k tomirlı oppoq qo'llarini, gap ohanglarini, barmoqlarini qisirlatishini favqulodda bir ravshanlik bilan xuddi tirik kishiday ko'z oldiga keltirdi-da, o'rtalarida bo'lgan va u ham muhabbat deb atalgan hisni esiga olib, jirkanganidan junjikib ketdi. «Xo'p, talog'imni olib, Vronskiyga tegdim ham. Xo'sh, undan keyin Kiti menga bugungidaqa qaramay qo'yadimi? Yo'q. Seryoja ham mening ikkita erim borligini so'ramay, o'ylamay qo'yadimi? Vronskiy ikkalamizning o'rtamizda qanaqa yangi his bo'lishi mumkin deb o'ylasa bo'ladi? Baxt to'g'risida og'iz ochmay

qo‘ya qolay, faqat azobning o‘zi bo‘lmasligi mumkinmikan? Yo‘q, aslo yo‘q! – deb javob berdi Anna endi zarracha ham ikkilanmasdan. – Bo‘lmasligi mumkin emas! Hayotdagи yo‘llarimiz ajralib boryapti, men uni baxtsiz qilyapman, u meni. Endi uni ham, meni ham odam qilib bo‘lmaydi. Butun sa‘y-harakatlar qilindi, tandan jon chiqdi. Ha, anavi gadoy xotin chaqalog‘ini ko‘tarib olibdi. U odamlarning o‘ziga rahmi keladi deb o‘ylaydi. Ajabo, biz bu dunyoga faqat bir-birimizni ko‘rolmaslik, so‘ngra o‘zimizni ham, boshqalarni ham qiyash uchun kelmaganmizmi? Ana gimnaziya talabalari ketishyapti, kulishyapti. Seryoja-chi? – Anna o‘g‘lini esladi. – Men ham Seryojani yaxshi ko‘raman deb o‘ylab, mehrim bilan mast-alast bo‘lib yurardim. Lekin usiz ham yashadim-ku, boshqa bir muhabbat uchun undan kechdim-ku, shu muhabbat bilan mast-alast bo‘lib yurgan paytlarimda bolamdan kechganim uchun shikoyat qilmadim-ku». Ana shundan keyin Anna muhabbat deb atagan narsasini jirkanib esladi. Anna o‘zining ham, hamma insonlarning ham hayotini ravshan ko‘ra olganidan quvona boshladи. «Men ham, Pyotr ham, kucher Fyodor ham, anavi savdogar ham, bu e‘lonlar bizni taklif qilayotgan Volga bo‘ylarida yashovchilar ham shunday, hamma yerda, hamisha shunday», – deb o‘ylardi Anna Nijegorod stansiyasining pastak binosiga yaqinlashib qolganlarida. Ularni ko‘rib hammollar yugurishib kelganda, Pyotr:

– Obiralovkaga olaymi? – deb so‘radi.

Anna qayerga, nimaga kelganini butunlay esidan chiqarib qo‘yan edi, shuning uchun savolni zo‘rg‘a tushundi. Pullik hamyonini Pyotrga uzatib:

– Ha, – dedi-yu, qizil xaltachasini olib, foytundan tushdi.

Anna olomon orasidan birinchi klass zaliga qarab borar ekan, ahvolining butun ikir-chikirlarini va o‘zini ikkilantirgan qarorlarini sekin-sekin yodiga tushirdi. Goh umid, goh umidsizlik eski og‘riqlar jarohatlagan, hilvirab qolgan yuragining yaralarini timdalar edi. Anna yulduz shaklli divanda o‘tirib, poyezdni kuta boshladи: zalga kirib chiquvchilarga (bularning hammasi ko‘nglini ag‘darar edi) nafrat bilan qaradi: goh stansiyaga qanday kelishini, Vronskiyga qanday xat yozishini, nimalar ezishini, goh Vronskiyning hozir (Annaning iztirobda ekanini tushunmay) o‘z ahvoldidan onasiga zorlanayotganini, o‘zi ularning uyiga qanday kirib borishini, Vronskiyga nimalar deyishini o‘yladi. Goh turmushining yana

baxtli bo'lib ketishi mumkinligini, Vronskiyini naqadar azob bilan sevganini, endi esa ko'rishga ko'zi qolmaganini, yuragi juda yomon urayotganini o'yladi.

XXXI

Qo'ng'iroq chalindi; shumshuk, behayo, shoshma-shoshar, shu bilan birga, o'zları qoldirgan taassurotga e'tiborlari baland yosh-yalanglar zaldan o'tib ketdi; egniga zarbof kiyim, oyoqlariga botinka kiyib olgan hayvonsifat to'pori Pyotr ham zaldan o'tib, Annani vagonga kuzatib qo'yish uchun uning yoniga keldi. Anna shovqin-suron ko'tarishib turgan erkaklar yonidan platformada o'tib ketayotganda ular jim bo'lib qolishdi; ulardan biri ikkinchisiga allanima deb shipshidi, albatta, xunuk so'z aytgan bo'lsa kerak. Anna vagonning baland pog'onasiga chiqdi-da, kupega yolg'iz o'zi kirib, bir mahallar oppoq bo'lган, endi esa kirlangan prujinali divanga o'tirdi. Divanga qo'ygan xaltasi prujina ustida bir necha bor irg'ishlagandan so'ng jimb qoldi. Pyotr deraza oldida zar hoshiyali shlapasini ko'tarib xayrashgan bo'ldi-da, ahmoqlarcha tirjaydi, behayo konduktor eshikni yopib, qulflab qo'ydi. Keng chopon kiygan bir nogiron xotin (Anna bu xotinni xayolan yalang'ochlab, nogironligidan vahimaga tushdi), yana bitta qiz soxta kulgi bilan pastdan yugurib o'tdi.

— Katerina Andreevnankida, hammasi o'sha yerda, ma tante¹, — deb qizaloq qichqirdi.

Anna: «Hali mushtumday qiz-u, bu ham rasvo bo'lган, qiy-shanglaydi», — deb o'yladi. Keyin hech kimni ko'rmaslik uchun jadal o'midan turib, bo'sh vagonning narigi tomonidagi derazasi yoniga borib o'tirdi. Boshidagi furajkasi tagidan patak sochlari chiqib turgan, hamma yog'i kir-chir badbashara bir mujik shu deraza yonidan vagon g'ildiraklariga engashib qarab o'tib ketdi — «Bu xunuk mujik menga tanish ko'rinati-ya», — deb o'yladi Anna. Shundan keyin tushi esiga keldi-yu, vahimadan titrab, narigi eshik tomonga o'tib ketdi. Konduktor eshikni ochib, bir er-xotinni kirgizdi.

— Tashqariga chiqadilarmi?

Anna javob bermadi. Konduktor ham, ichkari kirganlar ham Annanining parda to'sib turgan yuzidagi vahimani sezmadni. Anna

¹ Xola (frans.).

yana boyagi burchakka kelib o'tirdi. Er-u xotin ro'paraga o'tirib diqqat bilan, lekin zimdan Annaning ko'ylagiga tikilib qoldi. Er ham, xotin ham Annaga jirkanch ko'rinaridi. Er Annadan papiros chekishga ijozat so'radi; lekin papiros chekish uchun emas, u bilan gaplashish uchun so'raganligi ravshan edi. Rozilik olgandan so'ng chekishdan ko'ra ko'proq so'zlashgisi kelganini xotiniga fransuzchalab ayta boshladi. Ular atayin Anna eshitsin deb, bema'ni narsalarni gapishtashar edi. Anna ularning bir-birlaridan bezor bo'lganliklarini va bir-birlarini ko'rishga ko'zлari yo'qligini ravshan ko'rib turardi. Darhaqiqat, bunday ayanchli, nogiron odamlardan nafratlanmay bo'lmas edi.

Ikkinchi qo'ng'iroq chalindi; keyin yuklar tashila boshlandi, shovqin-suron, kulgilar eshitildi. Hech kimning suyunib-shodlanishiga hech qanday asos yo'qligi Annaga shu qadar ravshan ediki, bu kulgilar g'ashiga tegib, jonini og'rita boshladi. Bularni eshitmaslik uchun qulqolariga paxta tiqib olgisi keldi. Nihoyat, uchinchi zang urildi, hushtak, so'ngra parovoz gudogi eshitildi, vagonlar silkindi, ro'parasida o'tirgan erkak cho'qinib oldi. Anna unga jahl bilan qarab: «Bir so'rash kerak edi: u bu qilg'i bilan nimani bildirmoqchi ekan?» – deb o'ylandi. U xonim yonidan derazaga qarab, yaqinlarini kuzatgani chiqqan va platformada tik turgan, xuddi orqaga suzib ketayotgandek ko'rinishgan odamlarni tomosha qila boshladi. Anna tushgan vagon relslar ulangan joylarda bir xil silkinib, platforma yonidan, tosh devor, temir lavha va boshqa vagonlar yonidan o'tib ketdi: g'ildiraklar relslarda xiyol zing'llab tekis g'ildirab borar, derazadan yorqin oqshom quyoshi tushar, shabada pardani o'ynar edi. Anna vagondagi qo'shnilarini esidan chiqardi; endi u sekin silkinib borayotgan vagonda o'pkasini to'ldirib toza havo olar, yana xayol surardi:

«Ha, aytgandek, nimada to'xtab edim? – Ha, hayotni azob-u uqubatdan iborat qilib qo'ymaydigan biron chora o'ylab topolmasligim, hammamiz faqat azob-u uqubat ko'rish uchungina dunyoga kelganimiz, buni hammamiz bila turib, yana o'zimizni aldash uchun har xil bahonalar o'ylab chiqarishimiz ustida to'xtab edim. Haqiqatni ko'rganingga nima ham qila olasan!»

Annaning ro'parasida o'tirgan xonim fransuzchalab: – Aql insonga o'zini bezovta qilayotgan narsalardan qutulish yo'lini topish

uchun berilgan, – dedi; keyin topgan bu gapidan xursand bo‘ldi, shekilli, basharasini burib tamshanib qo‘ydi.

Bu so‘zlar Annaning miyasiga kelgan o‘ylarga javobday bo‘lib tushdi.

«Bezovta qilayotgan narsalardan qutulish», – deb takrorladi Anna. So‘ng qizil yuz er bilan uning ozg‘in xotiniga qarab, bu dardman xotin o‘zini tushunilmagan xotin hisoblaganini, eri aldashini va xotinidagi bu tushunchani quvvatlab kelishni payqadi. Anna ularning o‘tmishini, yuraklarining xilvat joylarini xuddi chiroq tutib ko‘rganday bo‘ldi. Lekin bu yerda qiziqadigan narsalar bo‘lmaganidan o‘z o‘ylarini davom qildirdi.

«Ha, bu narsa meni juda bezovta qiladi, aql esa shu bezovtalikdan qutulish uchun berilgan; demak, qutulish kerak. Qaraydigan narsang bo‘lmagandan keyin, bularning hammasi razil, past narsalar bo‘lgandan keyin nima uchun shamni o‘chirmaslik kerak? Lekin qanday qilib? Bu konduktor nega xodalar ustidan yugurib o‘tdi, narigi vagondagi yoshlari nega qichqirishadi? Nega gaplashishadi, nega kulishadi? Hamma narsa nohaq, hamma narsa yolg‘on, hamma narsa aldov, hamma narsa yovuzlikdan iborat!..»

Poyezd stansiyaga kelganda, Anna boshqa yo‘lovchilar bilan birga tashqariga chiqdi-da, xuddi moxovlardan qochgandek, ulardan qochib, platformaga borib turdi; u bu yerga nima uchun kelganini eslashga harakat qildi. Ilgarilari o‘ziga iloji bor bo‘lib ko‘ringan narsalar endi aqliga hech sig‘mas, ayniqsa, o‘zini tinch qo‘ymayotgan bu badburush odamlar olomonining shovqin-suronida buni tushuna olmasdi. Goh hammollar yoniga yugurib kelishib, xizmatlarini taklif qilishadi: goh yoshlari poshnalarini platforma taxtalarida dukurlatib o‘tishadi, baland ovoz bilan gaplashib unga qarashadi; goh ro‘paradan kelayotgan odamlar yo‘l beraman deb urilib ketishadi. Anna javob kelmagan bo‘lsa, yana nari ketishini esladi-da, hammollardan birini to‘xtatib, Vronskiyga xat olib borgan kucher shu yerdami-yo‘qligini so‘radi.

– Graf Vronskiy? Ular yuborgan odam hozirgina shu yerda edi. Knyaginiya Sorokina bilan qizini kutib olishdi. Kucherning basharasi qanaqa?

Anna hammol bilan gaplashib turganda, kelishgan ko‘k kamzul kiyib, soatining zanjirini osiltirib olgan qizil yuz, xushchaqchaq kucher Mixaylo kelib xatni berdi; u topshiriqni shunday yaxshi

bajarganidan mag'rur ko'rinardi. Anna konvertni ochdi, o'qimasdan avval yuragi dukurlab ura boshladi.

Vronskiy parvosizlik bilan shu so'zlarni yozgan edi:

«Ko'p afsuski, xat menga vaqtida yetib kelmadi. Soat o'nda bo'laman».

«Shundog! Men buni kutgan edim!» – dedi Anna o'ziga o'zi zaharxanda qilib.

Anna Mixayloga qarab past ovoz bilan:

– Xo'p, sen uyga ketaver, – dedi. U shuning uchun past ovoz bilan gapirdiki, yuragining potirlab urishi nafas olishiga xalaqit berayotgan edi. Keyin unga ham emas, o'ziga ham emas, balki o'zini azob chekishga majbur qiluvchiga tahdid bilan murojaat qilib: «Yo'q, o'zimni senga azoblantirib qo'ymayman!» – dedi-yu, stansiya yonidagi platforma bilan yurib ketdi.

Platformada yurgan ikkita oqsoch qiz boshlarini orqaga o'girib, Annaga qarashdi-da, uning egnidagi kiyimidan gapishtidi. Annanинг ustidagi krujevani ko'rib. «Asl krujeva ekan», – deyishdi. Yigitlar Annani holi-joniga qo'yishmas edi. Ular yana Annanинг yuziga qarab kulishdi, g'ayritabiyy bir ovoz bilan qichqirishib, yonidan o'tib ketishdi. Stansiya boshlig'i ham ketayotib, Annanинг ketishketmasligini so'radi. Kvas sotib yurgan bola ko'zlarini Annadan olmas edi. Anna platforma bo'ylab hamon uzoqlashib borar edi. «Yo rabbiy, qayerga boraman?» – deb o'yladi. Platformaning oxiriga yetib to'xtadi. Ko'zoynakli bir janobni kutgani chiqqan xonimlar bilan bolalar yoniga yetganda, ular kulgilarini ham, gaplarini ham to'xtatib, Annaga qarab qolishdi. Anna odimini tezlatib, ular yonidan uzoqlashdi; endi platformaning chetiga yetib qoldi. Shu payt yuk poyezdi kelaverdi. Platforma titray boshladi. Annaga o'zi yana poyezdda ketayotgan bo'lib ko'rindi.

Vronskiy bilan birinchi marta uchrashganida poyezd bosib ketgan odam shu on birdan esiga tushdi-yu, nima qilish kerakligi miyasiga keldi. Vodokachkadan relslarga tushiladigan pillapoyalar dan shaxdam, yengil odimlar bilan tushib, o'zining qoq yonidan o'tib borayotgan poyezdga taqalib kelib to'xtadi. Anna vagonlarning tagiga, vintlariga, zanjirlariga va birinchi vagonning sekin-sekin g'ildirab borayotgan katta cho'yan g'ildiraklariga qarab, oldingi

g‘ildirak bilan orqadagisining o‘rtasini, bu o‘rta nuqta o‘ziga qachon yetib kelishini ko‘zlar bilan chamlab turdi.

Anna vagon soyasiga, shpallar ustiga to‘kilgan ko‘mir aralash qumga qarab: «O‘sha yerga! – dedi o‘ziga, – o‘sha yerga, g‘ildiraklarning o‘rtasiga, ana shunda uni ham jazolayman, hammadan ham, o‘zimdan ham qutulaman».

Anna birinchi vagonning qoq o‘rtasiga o‘zini tashlamoqchi bo‘ldi, lekin qo‘lidan chiqara boshlagan qizil xaltasi xalaqit berib, kechikib qoldi: o‘rta nuqta o‘tib ketdi. Endi keyingi vagonni kutish kerak bo‘ladi. Odam cho‘milgani borib, o‘zini suvga tashlashga tayyorlanib turgan paytda yuragida uyg‘onadigan hisga o‘xhash bir his Annani qamrab oldi. U cho‘qinib oldi. Cho‘qinar ekan, odat bo‘lib ketgan harakatlar qalbida qizlik va bolalik chog‘larining bir qator xotiralarini uyg‘otdi; ana shunda hamma narsani uning ko‘zlaridan yashirib turgan zulmat pardasi birdan parchalandi, hayot o‘zining o‘tmishidagi porloq shodiyonalari bilan bir zumgina ko‘z o‘ngida gavdalandi. Lekin u yaqinlashib kelayotgan ikkinchi vagonning g‘ildiraklaridan ko‘zlarini olmagan edi. Orqa-oldin g‘ildiraklarning qoq o‘rta nuqtasi tenglashgan paytda qizil xaltachasini irg‘itib, boshini yelkalari ichiga oldi-yu, o‘zini vagon tagiga tashladi, qo‘llarini yerga tirab, darhol turib ketgisi kelgandek, yengil harakat bilan tiz cho‘kib oldi. Xuddi shu on qilib qo‘ygan ishidan dahshatga kelib: «Qayerdaman? Nima qilib qo‘ydim? Nima uchun?» – deb Anna turmoqchi, o‘zini orqaga tashlamoqchi bo‘ldi; lekin allaqanday bahaybat, omon bermaydigan bir narsa kelib boshiga urildi, orqasidan turtib yuborib, sudrab ketdi. Anna kurashning ortiq iloji qolmaganini sezib: «Yo Rabbij, o‘zing kechir gunohlarimni!» – dedi. Mujik allanimalar deb to‘ng‘illab, temir ustida ishlardi. Shu’lasida hayajon, aldov, alam, yovuzlik to‘la kitobni o‘qigan sham har vaqtdagidan ham balandroq lopillab yondi, ilgari zulmat ichida qolib ketgan narsalarni Annaga yoritib ko‘rsatdi, chirsillab so‘na boshladi va oxir abadiy so‘ndi.



SAKKIZINCHI QISM

I

Oradan qariyb ikki oy o'tib ketdi. Saraton ham yarim bo'lib qoldi, Sergey Ivanovich esa Moskvadan jo'nash taraddudini endi ko'ra boshladi.

Bu muddat ichida Sergey Ivanovichning hayotida ba'zi hodisalar ro'y berdi. Olti yillik mehnatning samarasi bo'lgan va «Yevropa bilan Rossiyyada davlat tuzumining asoslari hamda shakllarini ko'zdan kechirish tajribasi» deb atalgan kitobini tugatganiga ham bir yildan ortiqroq vaqt o'tdi. Bu kitobning ba'zi bo'limlari va kirish so'zi vaqtli nashriyotda bosilgani hamda qolgan qismlari Sergey Ivanovich tomonidan o'z doirasiga mansub kishilarga o'qib berilgani uchun bu asarda yuritilgan fikrlar jamoat uchun tamomila yangi bir narsa bo'la olmasdi; shunday bo'lsa ham Sergey Ivanovich, kitobim nashr etilganda jamiyatda jiddiy taassurot qoldiradi, agar fanda bir to'ntarish yasamaganda ham, har holda, fan olamida kuchli hayajon uyg'otadi, deb umid qilardi.

Bu kitob diqqat bilan pardozlangandan keyin o'tgan yili bosilib, turli nashriyotlarga yuborilgan edi.

Sergey Ivanovich kitobi to'g'risida hech kimdan fikr so'ramas, kitobning qanday tarqalayotganini so'ragan do'stlariga malol kelganday soxta bir loqaydlik bilan javob berar, kitobning qanday sotib olinayotganini ham surishtirmas, faqat kitobining jamiyat va adabiyotda qoldirishi mumkin bo'lgan dastlabki taassurotlarini o'tkir ko'z va zo'r diqqat bilan kuzatib borardi.

Lekin oradan bir hafta o'tdi, ikki, uch hafta o'tdi hamki, jamiyatda hech qanday taassurot alomati ko'rinnadi; uning mutaxassis va olim do'stlari ba'zan kitobidan gap ochib qolishar, lekin bu gaplar tabiatsozlik uchungina ochilgani ko'riniib turardi. Boshqa tanishlari

esa bu kitobning ilmiy mazmuniga qiziqmaganliklari uchun Sergey Ivanovich bilan gaplashganlarida kitobni og‘izlariga ham olishmas edi. Hozirgi paytda butunlay boshqa narsa bilan mashg‘ul bo‘lgan jamiyatda tamoman bir loqaydlik hukm surardi. Adabiyotda ham bir oydan beri kitob haqida lom-mim deyilmadi.

Sergey Ivanovich taqriz yozishga qancha vaqt ketishini butun ikir-chikirlarigacha hisoblab chiqdi, lekin mo‘ljalidan bir oy, ikki oy o‘tib ketdi-yu, bu xususda hech kim og‘iz ochmadni.

Faqat «Shimol qo‘ng‘izi» nomli jurnalda, ovozi yo‘qolgan ashulachi Darbantini hajv qilib yozilgan felyetonda, Koznishevning kitobi to‘g‘risida yo‘l-yo‘lakay bir necha haqoratomuz so‘z aytilgan edi; bu so‘zlar Sergey Ivanovichning kitobi allaqachon omma tomonidan qoralanib, umum masxarasiga sabab bo‘lganini ko‘rsatardi.

Nihoyat, uchinchi oyga kelib bir jiddiy jurnalda tanqidiy maqola chiqdi. Sergey Ivanovich maqola muallifini tanir edi. Uni bir qur Golubsovnikida ko‘rgan edi.

Maqola muallifi juda yosh va no‘noq felyetonchi bo‘lishiga qaramay, qalami g‘oyat o‘tkir edi-yu, lekin ma‘lumoti haddan tashqari oz bo‘lishi ustiga, shaxsiy munosabatlarda yuraksiz ham edi.

Sergey Ivanovich maqola muallifidan qattiq nafratlanganiga qaramay, maqolani tom bir hurmat bilan o‘qishga kirishdi. Maqola dahshatli edi.

Felyetonchi kitobni boshdan-oyoq teskari tushungan bo‘lsa kerak. Shunday bo‘lsa ham u kitobdan juda ustalik bilan misollar keltirgan; bu misollar kitobini o‘qimaganlarga (kitobni qariyb hech kim o‘qimagan bo‘lsa kerak) uning balandparvoz so‘zlar, shunda ham noo‘rin ishlatilgan (buni qo‘yib ketilgan savol alomatlari ko‘rsatib turardi) iboralar yig‘indisidan boshqa narsa emasligini, kitob muallifining butunlay avom ekanligini ravshan ko‘rsatar edi. Bu maqola shu qadar o‘tkir so‘zlar bilan yozilgan ediki, Sergey Ivanovichning o‘zi ham bunday o‘tkir so‘zlarni jon deb ishlatar edi, dahshatli tomoni ham xuddi shunda edi.

Sergey Ivanovich taqrizchi keltirgan dalillarning to‘g‘riligini insof bilan tekshirib chiqqan bo‘lsa ham, masxara qilingan bu nuqson va kamchiliklar ustida bir zum ham to‘xtamadi (chunki bu nuqson va kamchiliklar jo‘rttaga tanlab olingani nihoyatda ravshan edi), balki maqola muallifi bilan qanday ko‘rishi, qanday gaplashganini butun

ikir-chikirigacha darhol eslashga o'tirdi. Sergey Ivanovich: «Biron to'g'rida ko'ngliga qattiq tegmabmidim ekan?» – deb o'z-o'zidan so'radi.

Sergey Ivanovich bu yigitning savodsizlarcha ishlatgan bir so'zini tuzatib qo'yanini esladi-yu, maqolaning ma'nosiga darrov tushunib oldi.

Bu maqoladan keyin kitob haqida matbuotda ham, og'izlarda ham bir kalima bo'lsin so'z aytilmadi; shundan keyin Sergey Ivanovich olti yil o'tirib, shu qadar ishtiyoy va og'ir mehnat bilan yozilgan asarning nom-u nishonsiz bo'lib ketganini ko'rdi.

Kitobni yozib bitirgandan so'ng, ilgarilari vaqtining ko'proq qismini band qilib kelgan kabinet ishi tugab qolgan edi, bu hol Sergey Ivanovichning ahvolini besh battar og'irlashtirib qo'ydi.

Sergey Ivanovich aqli, bilimli, sog'lom, faol odam edi, endi butun kuch-g'ayratini qayerga sarf qilishni bilmasdi. Mehmonxonalarda, qurultoylarda, majlislarda, qo'mitalarda va gapirish mumkin bo'lgan yerlarning hammasida qilinadigan gap-so'zlar vaqtning faqat bir qisminigina olardi; lekin u ko'p vaqt shaharda yashagan bir kishi bo'lgani uchun Moskvaga kelgach, butun umrini gap-suhbatlar bilan o'tkazgan tajribasiz ukasiga o'xshab butun vaqtining gap-so'z bilan o'tishiga yo'l qo'ymas edi, shu sababli Sergey Ivanovichning bo'sh fursati ham, aqliy kuchi ham ko'p edi.

Kitobi muvaffaqiyatsizlikka uchragani orqasida ahvoli og'ir bo'lib qolgan kunlarida, baxtiga g'ayridinlar, amerikalik do'stlar, Samaradagi ocharchilik, ko'rgazmalar, spiritizm' masalalari o'rnini avvallari ustini kul bosib yotgan slavyanlar masalasi egalladi-yu, Sergey Ivanovich ilgarilari ham bu masalani qo'zg'ovchilardan biri bo'lgani uchun butun boshi bilan shu masalaga sho'ng'ib ketdi.

Shu kunlari Sergey Ivanovich mansub bo'lgan muhitda slavyan masalasi-yu, Serbiya urushidan boshqa hech narsa og'izga olinmas ham, yozilmas ham edi. Bekorchilar, odatda, vaqtlarini o'tkazish uchungina qiladigan narsalar o'rnini endi slavyanlar masalasi band qildi. Ballar, kontsertlar, ziyofatlar, o'tirishlar, xotinlar bezagi, pivo, mayxonalar – hammasi slavyanlarga husni tavajjuh ko'rsatilayotgandan darak berardi.

¹ Arvoohlар bilan so'zlashish mumkin degan bema'ni da'yoga ishonish (*tarj.*).

Bu to‘g‘rida aytilgan va yozilgan narsalarning ko‘pchiligiga Sergey Ivanovich qo‘shilmasdi. U slavyan masalasining ham jamiyatni mashg‘ul qilgan navbatdagi ermaklardan biri bo‘lib qolganini ko‘rib turardi; bu ish bilan mashg‘ul bo‘lgan odamlar orasida tamagirlar, shuhratparastlar ko‘pligini ham ko‘rib turardi. U gazetalar o‘zlarini ko‘rsatish va boshqalarni soyada qoldirish maqsadidagina juda ko‘p luzumsiz va mahobatli narsalarni bosayotganlariga ham tan berardi. Toleyi kelishmagan, xafa qilingan odamlar, armiyasi yo‘q bosh qo‘mondonlar, vazirlik mahkamasi bo‘lmagan vazirlar, jurnali yo‘q jurnalistlar, partizanlari yo‘q partiya rahbarlari, bu umumiy ijtimoiy qo‘zg‘alishda oldinga otilib chiqib, boshqalardan qattiqroq qichqirayotganlarini ko‘rib turardi. Bu masalada yengiltaklik va kulgili narsalar ko‘pligini ham ko‘rib turar, lekin jamiyat sinflarini shubhasiz birlashtirayotgan umumiy ruhiy ko‘tarinkilikni ham ko‘rib, bunga tan berardi, chunki bunga xayrixoh bo‘lmaslikning iloji yo‘q edi. Dindosh va qarindosh slavyanlarning qirg‘inga uch-rayotganligi sitamidiyalarga xayrixohlik, zolimlarga esa nafrat hislari uyg‘otardi. Ulug‘ ish yo‘lida kurashayotgan serblar bilan qoratog‘liklarning qahramonliklari butun xalqda birodarlariga quruq so‘z bilan emas, amaliy ish bilan yordam qilish istagini tug‘irdi.

Ayni zamonda Sergey Ivanovichni xursand qilgan yana bir narsa – afkor ommada tug‘ilayotgan fikrlar edi. Jamoat o‘z tilagini aniq bayon qilmoqda edi. Sergey Ivanovich aytganidek, xalq ruhi o‘z ifodasini topgan edi. Sergey Ivanovich bu ish bilan shug‘ullangan sari unga bu ishning yana ham kengayishi va butun bir davrni tashkil etishi lozimligi shunchalik ravshan bo‘ldi.

U butun borlig‘ini bu ulug‘ xizmatga bag‘ishlab, kitobini xayoliga ham keltirmay qo‘ydi.

Endi uning bo‘sh vaqt yo‘q edi, shu sababdan kelayotgan xatlarga, qilinayotgan talablarga javob berishga ulgurmay qoldi.

Sergey Ivanovich butun bahori bilan yozining bir qismini ish bilan o‘tkazib, faqat iyul oyidagina qishloqqa, ukasining yoniga ketish harakatiga tushdi.

U qishloqqa ikki haftagini dam olgani va eng tabarruk yer bo‘lgan xilvat qishloqda xalq ruhining ko‘tarilish manzaralarini tomosha qilgani borayotgan edi; chunki uning o‘zi ham, poytaxt va shahar

aholisi ham bu ko'tarinkilikka amin edi. Katavasov ham ko'pdan beri Levinnikiga borish to'g'risidagi va'dasini bajarish xayolida yurardi; u ham Sergey Ivanovich bilan birga jo'nadi.

II

Kursk temir yo'l stansiyasi bugun tirband edi; Sergey Ivanovich Katavasov bilan stansiyaga kelib karetadan tushdi-yu, orqasida yuk bilan kelayotgan xizmatkoriga qarashga ulgurmuy, to'rtta izvoshda ko'ngillilar kelib qolishdi. Xonimlar ularni guldastalar bilan kutib olishdi, orqalarida yopirilib kelayotgan olomon bilan birlikda stansiyaga kirishdi.

Ko'ngillilarni kutib olgan xonimlardan biri zaldan chiqib, Sergey Ivanovichdan fransuzchalab:

– Siz ham kuzatgani keldingizmi? – deb so'radi.

– Yo'q, knyaginya, men o'zim ketyapman. U kamnikida dam olmoqchiman. Siz hamma vaqt odamlarni kuzatib turasizmi? – dedi Sergey Ivanovich miyig'ida kulib.

– Na chora, iloji yo'q, – deb javob berdi knyaginya. – Bizdan ham sakkiz yuz kishi ketdi, deyishdi, rostmi? Men shunday desam, Malvinskiy ishonmayapti.

– Sakkiz yuzdan ortiq. Agar to'g'ridan to'g'ri Moskvadan yuborilmaganlar ham hisobga olinsa, mingdan ortib ketadi, – dedi Sergey Ivanovich.

Xonim suyunib:

– Yashang, men ham shunday degandim! Hozircha bir million so'mgacha iona yig'ilibdi, to'g'rimi? – dedi.

– Ko'proq, knyaginya.

– Bugungi telegrammani qarang-a! Turklarni yana tor-mor qilishibdi.

– Ha, o'qidim, – dedi Sergey Ivanovich. Ular so'nggi telegraphma xabarlaridan gaplashishdi; bu telegrammalar hamma punktlarda turklar uch kundan beri surunkasiga mag'lubiyatga uchrab qochayotganlarini, ertaga hal qiluvchi jang bo'lishi kutilayotganini bildirardi.

– Ha, aytmoqchi, chiroyli bir yigit ko'ngilli bo'lib ketishni xohlab iltimos qiluvdi, bilmayman, nima uchundir ishkak chiqarib turishibdi. Men uni taniyman, sizdan iltimos qilmoqchi edim,

kam bo‘lmang, ikki enli xat yozib bersangiz. Uni grafinya Lidiya Ivanovna yuboribdi.

Sergey Ivanovich ko‘ngilli bo‘lib ketishni xohlagan yigit to‘g‘risida knyaginya bilgan narsalarni ipidan ignasigacha surishtirib bilgandan so‘ng birinchi klass zaliga kirdi-da, bu ishga mutasaddi bo‘lgan kishiga xat yozib, knyaginyaga berdi.

Sergey Ivanovich knyaginyani yana topib, xatni berayotganda, knyaginya tantanali va chuqur ma’noli bir tabassum bilan jilmayib:

– Bilasizmi, mashhur graf Vronskiy... shu poyezdda ketyapti, – dedi.

– Uning ham ketayotganini eshitgan edim, lekin qachon ketishini bilmasdim. Shu poyezdda ekanmi?

– Ha, men ko‘rdim. Shu yerda; faqat onasi kuzatib boryapti. Har holda shunday qilgani ma’qulroq.

– O, albatta.

Bular gaplashib turgan paytda olomon yonlaridan o‘tib, ovqat stoliga yopirilib bordi. Bular ham yaqinroq borishdi va qo‘lida qadah bilan ko‘ngillilarga qarab nutq so‘zlayotgan bir janobning baland ovozini eshitishdi. «Dinimiz uchun, insoniyat uchun, og‘a-inilarimiz uchun fidoyi bo‘laylik! – deya janob hamon ovozini ko‘tarib gapirar edi. – Ona Moskvamiz fotiha berib, sizlarni ulug‘ ishga yuboryapti. Omon bo‘linglar!» dedi u so‘zining oxirida baland ovoz bilan yig‘lamsirab.

Hamma: «Omon bo‘linglar!» deb qichqirdi; shundan keyin yana yangi olomon zalga yopirilib kirib, oz bo‘lmasa knyaginyani yiqitib yuborayozdi.

Stepan Arkadich birdan olomon orasida paydo bo‘lib qoldi; u shodiyona bir tabassum bilan:

– E, knyaginya, qalay? – dedi. – Juda shirin, issiq gap qildi, a, to‘g‘rimi? Ofarin! Iya, Sergey Ivanovich ham shu yerda-ku! Siz ham o‘z tomoningizdan bir necha og‘iz so‘z aytsangiz, bilasizmi, ruhni ko‘taradigan so‘z aytsangiz chakki bo‘lmasdi. – Keyin Stepan Arkadich Sergey Ivanovichni qo‘lidan ushlab sekin o‘ziga tortdi-yu, nozik, ehtiyyotli bir hurmat bilan kulimsirab, gapiga qo‘shib qo‘ydi: – Siz gapni juda qotirasiz.

– Yo‘q, bo‘lmaydi, hozir ketyapman.

– Yo‘l bo‘lsin?

– Qishloqqa, ukamning oldiga, – deb javob berdi Sergey Ivanovich.

– Unday bo‘lsa xotinimni ko‘rar ekansiz. O‘zim ham xat yozib yubordim-u, lekin siz oldin ko‘rasiz: meni ko‘rganingizni all right¹ ekanini aytib qo‘ying, baraka topkur. O‘zi tushunadi. Ha, aytmoqchi, bunisini ham aytib qo‘yarsiz, baraka topkur, meni birlashgan... kommissiyaga a‘zo qilib tayinlashdi. Ha, ha, o‘zi tushunadi. Bilasizmi, les petites miseres de la vie humaine², – dedi u xuddi uzr so‘rayotgandek grafinyaga murojaat qilib. – Myagkaya esa (Liza emas, Bibish) mingta miltiq, o‘n ikkita hamshira yuboryapti. Aytmovdimmi sizga?

– Ha, eshitdim, – deb qo‘ya qoldi Koznishev malol kelgandek.

– Attang, yo‘lga chiqib qolibsiz-da, – dedi Stepan Arkadich.

– Ko‘ngilli bo‘lib ketayotganlardan ikkitasiga, peterburglik Dimer-Bartnyanskiy bilan o‘zimizning Grisha Veselovskiyiga ertaga ziyofat beryapmiz. Ikkovi ham ketyapti. Veselovskiy yaqinda uylanuvdi. Azamat yigit-da! Shunday emasmi, knyagini? – deb xonimdan so‘radi.

Knyaginiya javob bermay Koznishevga qaradi. Lekin knyaginiya bilan Sergey Ivanovich o‘zidan qutulgilari kelib turgandek ko‘rinishsa ham, bu narsa Stepan Arkadichni xijolat qilmadi. U kulimsirab goh knyaginyaning shlapasidagi patga, goh bir narsa esiga tushgandek tevaragiga qarab-qarab qo‘yardi. Qo‘lida krujka bilan yonlaridan o‘tib ketayotgan xonimni chaqirib, krujkaga besh so‘mlik qog‘oz pul solib qo‘ydi.

– Pulim borida bu krujkalarga loqayd qarab turolmayman, – dedi. – Bugungi telegramma xabarlari zo‘r-a? Barakalla, azamat qoratog‘liklar!

Knyaginiya Vronskiyning shu poyezdda ketayotganini aytganda, Stepan Arkadich:

– Rostdan-a! – deb qichqirib yubordi. Stepan Arkadichning yuzida bir zumgina qayg‘u ko‘rindi, lekin birgina daqiqadan keyin har qadamida silkinib, bakenbardlarini tuzata-tuzata Vronskiy o‘tirgan xonaga kirganda, Stepan Arkadich singlisining jasadi ustida faryod

¹ Ishlar joyida (*engl.*).

² Inson hayotida bo‘ladigan mayda-chuyda ta’bi xiralik (*frans.*).

ko‘tarib yig‘laganini butunlay unutdi-yu, Vronskiyni bir qahramon, qadrdon do‘st kabi qarshiladi.

Oblonskiy ular yonidan ketar-ketmas, knyaginya Sergey Ivonovichga:

– Har qancha kamchiligi bo‘lsa ham, har holda taqdirlash kerak, – dedi. – Chinakam rus tabiatli, slavyan tabiatli kishi! Faqat uni ko‘rsa, Vronskiyning ta‘bi xira bo‘larmikan, deb qo‘rqaman. Nima desangiz ham bu odamning ko‘rganlarini o‘ylasam, ko‘nglim buzilib ketadi. Yo‘lda bir gaplashib ko‘ring.

– Xo‘p, to‘g‘ri kelsa gaplasharmiz.

– Men uni hech qachon yoqtirgan emasman. Lekin bu harakati har qancha gunohi bo‘lsa yuvib ketadi. Bir o‘zигина ketmay, o‘з hisobidan butun bir eskadronni ham olib ketyapti.

– Ha, eshitdim.

Zang urildi. Hamma eshikka qarab yugurdi.

Knyaginya egnida uzun palto, boshida serbar hoshiyali qora shlapa bilan onasini qo‘ltig‘idan olib kelayotgan Vronskiyga ishorat qilib:

– Ana o‘zi! – dedi.

Oblonskiy uning yonida nima to‘g‘risidadir hayajonlanib gapirib borardi.

Vronskiy Stepan Arkadichning gapini xuddi eshitmayotgandek, qovoqlarini solib, ro‘parasiga qarab olgan edi.

Oblonskiyning ishorasi bilan bo‘lsa kerak, Vronskiy knyaginya bilan Sergey Ivanovich turgan tomonga qarab indamasdan shlapasini ko‘tarib qo‘ydi. Qarigan, iztirob alomatlari bo‘rtib turgan yuzi xuddi toshday qotib qolgandek ko‘rinardi.

Platformaga chiqishgandan so‘ng Vronskiy onasini indamay oldinga o‘tkazib yuborib, o‘zi vagonga kirib g‘oyib bo‘ldi.

Platformada: «Xudoyo, podshohimni o‘zing asra»¹; so‘ngra: «Urра! Omon bo‘linglar!» degan sadolar yangradi. Ko‘ngilllardan biri, bo‘yi novcha, ko‘kragi ichiga cho‘kkan yosh bir yigit kigiz shlapasi bilan guldaстasini boshi ustida silkitib ta’zim qilardi. Uning orqasidan furajkasi moy bosgan, soqoli ko‘kragi bilan bitta bo‘lib turgan katta boshli bir kishi bilan yana ikkita ofitsер ham chiqib ta’zim qildi...

¹ Chor Rossiyasining davlat madhiyasi shu so‘zlar bilan boshlanardi (*tarj.*).

III

Sergey Ivanovich knyaginya bilan xayrlashdi-yu, shu on yoniga kelgan Katavasov ikkalasi odam bilan liq to'la vagonga kirgandan so'ng poyezd yurib ketdi.

Saritsin stansiyasida poyezdni yoshlar «Senga shon-u sharaflar bo'lzin!» degan ashula bilan kutib olishdi; ashulani juda kelishtirib, xor bo'lib aytishdi. Ko'ngillilar yana vagonlardan boshlarini chiqarib ta'zim qilishdi, Sergey Ivanovich bo'lsa yana ularga e'tibor qilmadi; Sergey Ivanovich ko'ngillilarga ishi ko'p tushgani va ularning umumiy basharasini yaxshi bilgani uchun hech qiziqmas edi. Katavasov bo'lsa o'zining ilmiy ishlari vajhidan ko'ngillilarni tomosha qilishga vaqt topolmagani uchun ularga juda qiziqar, Sergey Ivanovichdan ularning ta'rifini so'rardi.

Sergey Ivanovich unga ikkinchi klass vagoniga borib ko'ngillilarning o'zлari bilan gaplashib ko'rishni maslahat etdi. Keyingi stansiyada Katavasov bu maslahatni bajo keltirdi.

Poyezd to'xtaganda Katavasov ikkinchi klass vagonga o'tib, ko'ngillilar bilan tanishdi. Ular vagon burchagida baland ovoz bilan gaplashib o'tirishar, yo'lovchilarning hozir kirib kelgan Katavasovning e'tibori o'zlarida ekanini bilishgani yuzlaridan sezilib turardi. Ko'kragi botiq novcha yigit hammadan ham qattiqroq gapirardi. U mast edi, shekilli, o'zlarining idorasida bo'lib o'tgan bir voqeani gapirib berayotgan edi. Ro'parasida Avstriya gvardiyasining harbiy kiyimini kiygan, yoshi anchaga borib qolgan bir ofitser o'tirgan edi. U hikoyaga kulimsirab o'tirib qulqoq solar, ora-sira gapni kesib-kesib qo'yardi. To'pchi mundiri kiygan uchinchi ko'ngilli ular yonidagi jomadonda o'tirar, to'rtinchisi esa uxlab yotardi.

Katavasov novcha yigit bilan gaplashib, uning yigirma ikki yoshiga qadar kattakon davlatinisovurgan moskvalik badavlat bir savdogar ekanligini bilib oldi. U erkalab, po'palab o'stirilganligi, salomatligining zaifligi uchun Katavasovga yoqmadi; u kayf qilib olgan, hozirgi paytda o'zini qahramonlarcha harakat qilyapman, deb o'ylasa kerak, kurakda turmaydigan gaplarni aytib, maqtanib o'tirar edi.

Iste'fodagi ikkinchi ofitser ham Katavasovda yomon taassurot qoldirdi. Bu kishining qilmagan ishi, kirmagan ko'chasi qolmagan

ko‘rinardi. Temir yo‘lda ham ishlabdi, mudir ham bo‘libdi, fabrikasi ham bo‘libdi; hamma narsani gapirar, luzumsiz-o‘rinsiz ilmiy so‘zlar ishlatardi.

Ko‘ngillilarning uchinchisi, ya’ni to‘pchi, aksincha, Katavasovga juda yoqib qoldi. U kamtar, kamsuxan odam edi; aftidan, iste’fodagi gvardiyachining bilimiga, savdogarning esa qahramonlarcha fidokorligiga qoyil qolib, o‘zi to‘g‘risida bir og‘iz ham gapirmay o‘tirardi. Katavasov undan Serbiyaga nima maqsadda ketayotganini so‘raganda, u kamtarlik bilan.

– Nima qilay, hamma ketyapti. Serblarga ham yordam qilish kerak-da. Odamning yuragi achishar ekan, – dedi.

– To‘g‘ri, u yerda, ayniqsa, sizdaqa to‘pchilar kam, – dedi Katavasov.

– Men artilleriyada juda oz xizmat qilganmanda; kim biladi, balki meni piyodalar yoki otliqlar qismiga tayin etishar.

Katavasov to‘pchining yoshiga razm solib, martabasi ancha yuqori bo‘lishi kerakligini o‘yladi, keyin:

– Nimaga piyodalar qismiga tayinlashadi, hammadan ham ko‘proq to‘pchilarga ehtiyoj bor-ku? – dedi.

– Men artilleriyada oz xizmat qilganman, o‘zim iste’foga chiqqan yunkerman, – dedi-yu, to‘pchi imtihon berolmaganining sababini tushuntira ketdi.

Bu narsalarning hammasi Katavasovda yomon ta’sir qoldirdi; ko‘ngillilar stansiyaga ichgani chiqishganda, Katavasov biron kishi bilan gaplashib, o‘zidagi yomon taassurotni tekshirib ko‘rmoqchi bo‘ldi. Harbiy kiyim kiygan bir chol Katavasovning ko‘ngillilar bilan qilgan suhbati asnosida quloq solib o‘tirgan edi. Katavasov shu chol bilan xoli qolgandan keyin unga murojaat qildi.

U o‘z fikrini aytish, shu bilan birga, cholning ham fikrini bilish uchun dudmal qilib:

– O‘sha yoqqa ketayotganlar ichida har xil odamlar bor ekan, – dedi.

Chol ikki urushni ko‘rgan harbiy kishi edi. U harbiy kishining qanday bo‘lishini bilardi, shuning uchun bu janoblarini qiyofalari va gaplaridan, yo‘lda flyajkani ko‘tarib og‘izlariga tutishlaridan ularni yaxshi askarlar deb hisoblamasdi. Bundan tashqari, chol uyezd

shahrining aholisidan bo‘lgani uchun o‘z shaharlarida hech kim ishga olmagan bir aroqxo‘r, o‘g‘ri, muddatidan oshiq xizmat qilgan askarning ham ketayotganini hikoya qilib ber.noqchi bo‘ldi. Lekin jamiyatning hozirgi ahvoli ruhiyasiga ko‘ra jamoatga qarshi biron fikr aytish, ayniqsa, ko‘ngillilarni qoralash xavfli ekanini o‘z tajribasidan bilgani uchun chol ham Katavasovga zimdan qarab o‘tiraverdi. Keyin ko‘zlar bilan kulimsirab turib:

— Na chora, u yerda odamlar kerak-da, — dedi. Ana shundan keyin ikkalasi so‘nggi urush xabarlaridan gapga tushib ketdi. Ammo so‘nggi xabarlarga ko‘ra, turklar hamma punktlarda tor-mor qilingan bo‘lsa, u holda ertaga kim bilan jang qilinadi, degan ishtibohlarini bir-biridan yashirib qoldilar. Shunday qilib, ikkovi ham o‘z fikrini aytmay, ajrashib ketdi.

Katavasov o‘zining vagonga kirgandan keyin olgan taassurotini Sergey Ivanovichga gapirib turib, beixtiyor yolg‘on so‘zladi; gapi-ning mazmunidan ko‘ngillilar juda alomat yigitlar edi.

Shaharning katta stansiyasida ko‘ngillilarni tag‘in ashulalar va olqishlar bilan kutib oldilar, yana qo‘llarida krujka bilan iona to‘plab yurgan xotinlar, erkaklar ko‘rindi, yana guberniyalik xonimlar ko‘ngillilarga guldstastalar tutib, ular bilan bufetga bordilar; lekin bu tantanalar Moskvadagidan ancha zaif, ancha kichik edi.

IV

Poyezd guberniya shahrida to‘xtaganda, Sergey Ivanovich bufetga bormay, platformada qolib, u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

U Vronskiy tushgan vagon kupesi yonidan birinchi marta o‘tayotganda, derazaning pardasi tushirib qo‘yilganini payqadi. Ikkinci marta o‘tayotganda esa qari grafinyaning deraza yonida turganini ko‘rdi. U Koznishevni yoniga chaqirdi.

— Mana, o‘g‘limni Kurskkacha kuzatib ketyapman, — dedi grafinya.

Sergey Ivanovich deraza yonida to‘xtab, unga qaradi.

— Ha, eshitdim, — dedi u. Keyin Vronskiyning kupeda yo‘qligini sezib, gapiga qo‘sib qo‘ydi: — bu ishi uning ajoyib fazilatli ekaniga dalil.

— Rost aytasiz, boshiga tushgan falokatdan keyin nima ham qilardi deysiz.

— Juda yomon hodisa bo‘ldi-da! — dedi Sergey Ivanovich.

— Oh, tortgan azobimni asti so‘ramang! Bu yoqqa kirsangiz-chi... tortgan azobimni asti so‘ramang! — dedi takrorlab Sergey Ivanovich kupega kirib, divanda yonma-yon o‘tirganda. — Odam bolasi ko‘z oldiga hech keltirolmaydigan bir falokat bo‘ldi! Boyaqish olti haftagacha hech kim bilan gaplashmadi, men yalinib-yolvorib, zo‘rg‘a ovqat yegizib turdim. Uni bir zum ham yolg‘iz qo‘yib bo‘lmay qoldi. O‘zini o‘ldirishi mumkin bo‘lgan hamma narsasini berkitib tashladik; biz pastki qavatda turganimiz uchun bir nima qilib qo‘yishini bilish qiyin edi. Bilasiz-ku, o‘sha xotinning kasriga bir marta o‘zini otdi, — dedi grafinya; bu voqeani eslaganda, kampirning qoshlari chimirilib ketdi. — Ha, u shunday xotinlar qavlida ketdi. Hatto o‘limning ham eng razil, eng qabihini tanladi.

Sergey Ivanovich xo‘rsinib:

— Bu xususda biz bir nima deyolmaymiz, grafinya, — dedi, — lekin buning siz uchun naqadar og‘ir bo‘lganlini tushunaman.

— Ax, nimasini aytasiz! Men o‘shanda o‘zimning chorborg‘imda edim, o‘g‘lim ham o‘sha kuni kelgan edi. Bir vaqt xat olib kelishdi. U ham javob yozib yubordi. U xotinning yonginamizdag stansiyada ekanidan bizning aslo xabarimiz yo‘q edi. Kechqurun endi hujramga kiruvdimki, mening Meri degan xizmatkor qizim stansiyada bir xonim o‘zini poyezd tagiga tashlaganini aytib qoldi. Miyamga bir narsa urilganday bo‘ldi! O‘sha xotin ekanligini darrov tushundim. Og‘zimdan chiqqan birinchi so‘z shu bo‘ldi: o‘g‘limga ayt manglar, dedim. Lekin allaqachon aytib qo‘yishgan ekan. Kucheris o‘sha yerda ekan, hammasini ko‘ribdi. Hujrasiga chopib kirsam, afti-angoriga qarab bo‘lmaydi, dahshat! Churq etmadidi. Otiga mindi-yu, choptirib ketdi. U yerda nima bo‘lganini bilmayman, lekin o‘g‘limni stansiyadan olib kelishganda, u murda edi. Hatto men ham taniyolmay qoldim. Doktor prostration complete¹ dedi. Keyin biram quturdiki!

— Ax, nimasini aytay! — dedi grafinya qo‘l siltab. — Boshimizga ko‘p yomon kunlar tushdi! Yo‘q, nima desangiz deng, yomon xotin edi. Axir odam ham shunaqa qaysar bo‘ladimi? Shu bilan o‘zining boshqachaligini isbot qilmoqchi bo‘lgan-da! Ana, isbot qildi ham. O‘zini ham juvonmarg qildi, noppa-nozin ikkita erkakni — o‘zining eri bilan mening sho‘rlik bolamni ham halok qildi.

¹ Ruhiy tushkunlik (*frans.*).

– Eri nima bo‘ldi? – deb so‘radi Sergey Ivanovich.

– Eri xotinining qizini oldirib ketdi. Dastlab nima desa, Alyosha hammasiga ko‘naverdi. Mana endi o‘z qizini bir begonaga berib yuborgani uchun o‘zini qo‘yarga joy topolmay yuribdi. Lekin o‘g‘lim lafzidan qaytolmaydi. Karenin dafn marosimiga kelganda, uni Alyosha bilan uchrashirmslikka harakat qildik. Eri uchun bu judolik har holda u qadar og‘ir emas. Endi qo‘l-oyog‘i bo‘sadi. Lekin sho‘rlik bolam o‘zini unga fido qilib qo‘ygan edi. Shu xotinni deb hamma narsaning bahridan o‘tgan – mansabidan ham, mendan ham kechgan edi. Shunday qilsa hamki, sho‘rlik o‘g‘limga achinmadi, bechora bolamni tiriklayin o‘ldirdi. Qasddan shunday qildi. Yo‘q, nima desangiz deng, u eng iflos, dinsiz xotin qavlida ketdi. Xudoning o‘zi kechirsin meni, lekin o‘g‘limning halok bo‘lganini ko‘rsam, uni nafrat bilan tilga olmay tuolmayman.

– Xo‘sh, hozir ahvoli qalay?

– Xudoning o‘zi dodimizga yetdi-yu, Serbiya urushi chiqdi. Men bir qari kampirman, bunday narsalarga aqlim etmaydi, lekin xudo dodimga yetib, shu urushni chiqardi. Albatta, men onasiman, shuning uchun qo‘rqaman: buning ustiga, ce n’ est pas tre’s bien vu a Peterbourg.¹ Lekin iloji qancha? Uning ko‘nglini faqat shu narsagina ko‘tarishi mumkin edi. Do‘sti Yashvin bor-budini qimorga yutqazib, Serbiyaga ketmoqchi bo‘lib qolibdi. Biznikiga kelib, uni ham yo‘ldan urdi. Hozir uning fikr-u zikri shu urush. Umringizdan baraka toping, uni xoli topib gaplashsangiz, bahri ochilarmikan, deymanda. Qayg‘usi kuchli. Dard ustiga chipqon degandek, buning ustiga tishi ham og‘rib qoldi. Sizni ko‘rsa, juda xursand bo‘ladi. Ha, shunday qiling, baraka topkur, gaplapping, u mana bu tomonda yuribdi.

Sergey Ivanovich juda xursand bo‘lganligini aytib, poyezdnинг u tomoniga o‘tdi.

V

Vronskiy shlapasini ko‘zlarigacha tushirgan, qo‘llarini uzun paltosining cho‘ntaklariga solib olgani holda platformaga uyilib tashlangan yuklarning kechki qiyg‘och soyasida, xuddi qafasdagi yirtqich hayvondek, yigirma qadam u yoqqa boradi-yu, yana cho‘rt

¹ Peterburgda bunga yomon ko‘z bilan qarasharmish (*frans.*).

o'girilib orqasiga qaytadi. Sergey Ivanovich yaqinroq kelganda, uni Vronskiy ko'rib tursa ham, lekin o'zini ko'rmaganga solayotgandek tuyuldi. Buning Sergey Ivanovich uchun farqi yo'q edi. U Vronskiy bilan shaxsxiy g'arazda bo'lishni o'ziga munosib ko'rmas edi.

Shu dam Vronskiy Sergey Ivanovichning nazarida ulug' ish qilayotgan muhim bir arbob edi, shuning uchun Koznishev uning ko'nglini ovlashni, unga dalda berishni o'zining burchi deb bildi. U Vronskiyga yaqinlashdi.

Vronskiy to'xtadi, tikilib qaradi, taniganidan keyin esa Sergey Ivanovichga bir necha qadam peshvoz yurib borib, qo'lini qattiq qisib ko'rishdi.

– Ehtimol, men bilan ko'rishgingiz kelmagandir, – dedi Sergey Ivanovich, – lekin sizga biror foydam tegmاسmikan, degan umiddaman.

– Boshqalardan ko'ra sizni ko'rganimda yuragim kamroq qisiлади, – dedi Vronskiy. – Meni kechiring. Hayotda meni mamnun qiladigan narsa qolmadidi.

Sergey Ivanovich Vronskiyning azob chekayotganligi ochiq-oydin ko'rinib turgan yuziga tikilib:

– Tushunaman, shuning uchun ham sizga xizmatimni taklif qilmoqchiman, – dedi. – Xohlaysizmi, Ristichga, Milanga xat yozib beray?

Vronskiy uning gapini arang tushunayotgandek:

– Yo'g'-ey! – dedi. – Agar yo'q demasangiz, birga yuraylik. Vagonlar dimiqib ketdi. Xat dedingizmi? Yo'q, tashakkur, o'lish uchun tavsiyanomaning keragi yo'q. Balki turklarga shunday bir... – deb, og'zining bir cheti bilan kulimsiradi. Ko'zлari esa g'azab aralash ihtirob alomatini saqlab qoldi.

– Shunday-u, lekin oldindan qulog'i pishiqtirib qo'yilgan odam bilan aloqa qilishingiz, ehtimol, osonroq bo'lar, har holda, shunday aloqa zarur-ku. Tag'in o'zingiz bilasiz. Sizning bu qaroringizni eshitib juda xursand bo'ldim. Hozir ko'ngillilarga hujum shunday katta bo'lyaptiki, sizday bir odam jamiyat ko'zida ularning obro'larini baland ko'tarib yuboradi.

– Men bir odam sifatida shuning uchun yaxshimanki, hayotning men uchun zarracha ham qiymati yo'q. Lekin jang-u jalalda dushman safini yorib o'tish yoki halok bo'lishim uchun menda yetarli jismoniy kuch bor – bunisini ham bilaman. Hozir menga keraksizgina bo'lib

qolgan emas, hatto me'damga ham tegib ketgan jonioymi qurban qiladigan joy topilgani uchun xursandman. Birontasiga asqatib qolar axir bu sabil jon. – Istagan ohangida gapirishiga ham xalaqit berayotgan tishining tinmay lo'qillab og'rishidan Vronskiyning jahli chiqib, sabrsizlik bilan yuzini burishtirib qo'ydi.

– Men sizga bir karomat qilib qo'yay: xuddi yangidan tug'ilganday bo'lib ketasiz, – dedi Sergey Ivanovich ko'ngli buzilib. – Akukalarni zulm va istibdoddan qutqarish o'lishga ham, yashashga ham arziyidigan ulug' bir maqsaddir. Xudoym sizga ham jismoniy, ham ruhiy quvvat ato qilsin, – deya ilova qildi qo'lini Vronskiyga cho'zib.

Vronskiy Sergey Ivanovichning qo'lini mahkam qisdi. Keyin so'zlarini chertib-chertib:

– Ha, bir qurol sifatida biron narsaga yarab qolarman, lekin odam sifatida men bir vayronaman, – dedi.

Mahkam tishining zirqirab og'rib, og'zini so'lakayga to'ldirib qo'yanidan gapirishga xalaqit berardi. U jim bo'lib rels ustida sekinsta sirg'anib kelayotgan tender g'ildiraklariga qarab qoldi.

Ana shunda ichini timdalagan dog'-u hasrat birdan tish og'rig'ini bir zumgina esidan chiqartirdi. Boshiga sho'r tushgandan beri ko'rishayotgan tanishi bilan qilgan suhbatni ta'sirida hamda tender bilan relslarga ko'zi tushganda birdan Anna, ya'ni o'zi temir yo'l kazarmasiga telbalarcha chopib kirganda Annadan qolgan narsalar esiga tushib ketdi: yaqindagina hayot jo'sh urib turgan, endi esa kazarma stolida, yot-u begonalar ko'zida Annaning jasadi ibosiz bir ravishda qonlarga belanib yotardi; sog' qolgan chakkalari, gajakli boshi, og'ir kokillari orqaga tashlangan; go'zal chehrasida, yarim yumuq qizg'ish lablarida achinarli, tinib qolgan ochiq ko'zlarida vahimali bir ifoda bor edi; bu ifoda urishib qolishganda Vronskiyga «Shoshmang, hali pushaymon bo'lasiz» degan o'sha dahshatli so'zini ayтиб турганга о'xshardi.

Vronskiy Annani so'nggi daqiqada xotirasida qolgan shafqatsiz-intiqomchi bir xotin sifatida emas, balki uning o'zi ham birinchi marta stansiyada ko'rganidagi singari baxt qidirib, baxt bag'ishlab turgan mehribon, sirli, go'zal Annani xotirlashga tirishdi. U Anna bilan o'tgan eng shirin damlarini eslashga tirishdi, lekin bu damlar abadiy zaharlangan edi. U Annani faqat tantana qilgan, hech kimga luzumi bo'lмаган, unutilmas bir afsus-nadomatga sabab bo'lган

po'pisasini yoriga yetkazgan bir ayol sifatida eslar edi. Vronskiy tishining og'rig'ini ortiq sezmay qoldi, tomog'iga tiqilgan yig'idan yuzi burishdi.

U platformadagi yuklar yonida ikki marta u yoqdan bu yoqqa jimgina yurganidan so'ng o'zini qo'lga olib, vazmin tutib, Sergey Ivanovichga murojaat qildi.

— Kechagi telegrammadan keyin boshqa xabar eshitganingiz yo'qmi? Ha, turklarni uchinchi marta mag'lub qilishibdi; lekin ertaga uzil-kesil zarba beriladigan jang qilinarmish.

Shundan keyin Milanning qirol deb e'lon qilinganidan, buning oqibati juda xunuk bo'lishidan gaplashishdi-yu ikkinchi qo'ng'iroydan so'ng ajrashib, vagonlariga kirib ketishdi.

VI

Sergey Ivanovich Moskvadan qachon chiqishini bilmagani uchun ukasidan arava yuborishini so'rab, telegramma qilmagan edi. Sergey Ivanovich bilan Katavasov stansiyada kira qilishgan bir tarantaschada, chang-to'zondan xuddi habash singari qorayib, Pokrovskoyedagi uylariga soat o'n ikkilarda yetib kelishganda, Levin uyida yo'q edi, Kiti otasi-yu opasi bilan balkonda o'tirgan edi, qaynag'asini tanib, kutib olgani pastga chopib tushdi.

Kiti Sergey Ivanovichga qo'l bergandan so'ng unga peshonasini tutib:

— Kelishingizni xabar qilmaganingizni qarang, voy, ayb emas-mi! — dedi.

Sergey Ivanovich:

— Qo'yavering, juda soz keldik, sizlarni ham bezovta qilmadik, — deb javob berdi. — Shunday chang bo'ldimki, sizga qo'limni tegizishga ham qo'rqaman. Ish bilan juda band edim, shuning uchun ham qachon jo'nashimni bilmadim. — Keyin kulimsirab turib: — Ana xolos, dunyo g'avg'olaridan uzoqda, o'zimizning rohatijon go'shamizda maza qilib o'tiribmiz, deng! — dedi. — Mana, oshnamiz Fedor Vasilevich ham axiyri joyidan qo'zg'aldi.

Katavasov qo'lini Kitiga uzatdi-da, yuzi qop-qorayib ketganidan juda ham yaltirab ko'ringan tishlarini ko'rsatib jilmaydi-yu, odatdag'i hazilkashligini qilib:

– Lekin men negr emasman, hozir yuvinaman, keyin ko‘rasiz, kelishgan odam bo‘lib qolaman, – dedi.

– Kostya juda xursand bo‘ladi. Xutorga ketuvdi, keladigan vaqt ham bo‘lib qoldi.

– Hali ham xo‘jaligi bilan ovora deng. Chindan ham rohatijon go‘sha, – dedi Katavasov. – Biz esa shaharda Serbiya urushidan bo‘lak hech nimani ko‘rmaymiz. Xo‘sh, bu masalaga oshnam qanday qaraydi? Qarashi ham deyman, boshqachadir?

Kiti Sergey Ivanovichga birmuncha xijolatpazlik bilan qarab:

– Nega endi boshqacha bo‘lsin, – deb javob berdi. – Bo‘lmasa Kostyaga odam yuboraman. Ha, aytmoqchi, dadam biznikida mehmon bo‘lib turibdilar. Yaqinda chet eldan qaytib keldilar.

Kiti Levinga odam yuborish, chang bosgan mehmonlarni yuvintirish uchun ularning birini kabinetga, ikkinchisini esa Dolli turgan katta xonaga olib borish, mehmonlarga nonushta tayyorlash haqida buyruqlar bergandan so‘ng homiladorlik mahalida mahrum bo‘lgan tez yurish huquqidan foydalanib, balkonga yugurib chiqib ketdi.

– Sergey Ivanovich bilan professor Katavasov kelibdi, – dedi Kiti. Knyaz:

– Uh, rosa bo‘g‘ilar ekanmiz! – degan edi, Kiti otasining yuzidagi masxara alomatini sezib, undan xuddi bir nimani iltimos qilayotgandek, kulimsirab turib:

– Yo‘q, ota, juda dilkash odam, Kostya ham yaxshi ko‘radi uni, – dedi.

– Men ham hech nima deganim yo‘q.

Kiti opasiga yuzlanib:

– Jonginam, sen ularning oldiga bor, o‘shalarga qara, – dedi. – Ular Stivani stansiyada ko‘rishiwdi, salomat emish. Men Mityaning oldiga boray, xuddi o‘chakishgandek ertalabki choydan beri emizganim yo‘q. Hozir uyg‘onib olib, toza yig‘layotgandir, – dedi-yu, Kiti suti iyiganini sezib, bolalar hujrasiga shoshib kirib ketdi.

Kiti haqiqatan ham adashmagan (chaqalojni hali sutdan chiqarmagan edi), sutning iyiganidan bolasi ochiqqanini to‘g‘ri topgan edi.

Hali bolalar hujrasiga yetmay, chaqalog‘ining qichqirayotganini bilgan edi. Kelsa, haqiqatan ham qichqirib yig‘layotgan ekan.

Bolasining ovozini eshitib, qadamini tezlashtirdi. Lekin u qancha tez yursa, bolasi ham shuncha qattiq chinqirardi. Chaqaloqning ovozi yaxshi, baquvvat bo'lsa ham, lekin ochiqib, sabri tugab qolganini bildirardi.

Kiti stulga o'tirdi-da, bolasini emizishga tayyorlanib:

– Ancha bo'ldimi yig'layotganiga, doya xola, ancha bo'ldimi? – deb shoshib-pishib so'radi. – Qani-qani, tezroq bera qoling menga. Voy xola-yey, muncha ivrisiysiz-a, kallapo'shini keyin kiygizarsiz!

Bola ochiqqanidan o'pkasi to'lib yig'lardi.

Butun vaqtini deyarli bolalar hujrasida o'tkazadigan Agafya Mixaylovna:

– Onam, axir bunday qilib bo'lmaydi, – dedi. – Yaxshilab o'rabbirmash kerak. Ha-ha-ha-ha! – deya ovuta ketdi bola boshida onasiga e'tibor ham qilmay.

Enaga bolani olib borib berdi. Agafya Mixaylovna esa iyib ketib, bola orqasidan kelardi. Bola chinqirig'idan ham balandroq ovoz bilan:

– Taniyapti, taniyapti. Xudo haqi, taniyapti, aylanay Katerina Aleksandrovna, meni taniydi! – derdi.

Ammo Kiti Agafya Mixaylovnaning so'zlarini eshitmas, u ham chaqaloq singari toqati toq bo'lardi.

Shoshib qolganlardan ish anchagacha o'ngolmadi. Chaqaloq o'ziga kerakli joyga emas, boshqa joyga yopishar, jahli chiqardi.

Chaqaloq bo'g'ilib, qattiq chinqirgandan va bir necha bor quruq yutinganidan so'ng ona-bola baravariga tinchiganini sezib, ikkalasi jimib qoldi.

Kiti qo'li bilan bolasini silab ko'rib:

– Bu bechora ham terlab ketibdi, – deb pichirladi. Keyin u chaqaloqning surilib tushgan kallapo'shi tagidan, nazarida quvlik bilan qarab turgandek tuyulgan ko'zlariga, bir me'yorda qimirlab turgan betlariga, doirasimon aylantirayotgan qizil kaftli qo'lchasiga ko'z qirini tashlab, ilova qildi: – Bu sizni taniyotganini qayerdan bilasiz?

Kiti Agafya Mixaylovna tasdig'iga javob berib:

– Bo'Imagan gap! Taniydigan bo'lsa, oldin meni tanir edi, – dedi kulimsirab.

U shuning uchun kulimsiradiki, garchi tilida tanimaydi desa ham, chaqaloqning Agafya Mixaylovnani tanish bilan birga, hamma narsani

bilib, tushunib turishiga, so'ngra hech kim bilmaydigan yana ko'p narsalarni ham bilishi, tushunishiga, Kitining o'zi ham, ona bo'la turib, shu narsalarni faqat uning sharofati bilangina bilib-tushunib olganiga ko'nglida tan berar edi. Agafya Mixaylovna uchun, enaga uchun, bobosi uchun, hatto otasi uchun ham Mitya o'ziga moddiy parvarish talab qiladigan bir tirik jon edi xolos; onasi uchun esa qachonlardan beri bir qator ruhiy munosabatlarni birga boshidan kechirgan ma'naviy xilqat edi.

– Hali uyg'onsin, inshoollo, o'zingiz ko'rasiz. Bir munday qilsam, qo'zichog'imning yuzi yorishib ketadi. Baayni oftob chiqdimi deysiz, – dedi Agafya Mixaylovna.

– Bo'pti-bo'pti, uyg'onganda ko'ramiz, – deb Kiti pichirladi. – Endi boringlar, uxlaydi.

VII

Agafya Mixaylovna oyoqlarining uchida yurib chiqib ketdi; enaga esa derazalarning pardalarini tushirdi-da, chaqaloq karavotining doka pashshaxonasidagi pashshalarni va o'zini deraza oynagiga urayotgan qovog'arini haydab chiqarib, so'liy boshlagan oq qayin shoxini qo'liga oldi-yu, ona-bolani yelpib o'tirdi.

– Juda yomon isib ketdi-da! Xudoyim yomg'ir bersaydi, – dedi enaga.

Kiti sekin-sekin tebranib va ko'zchalarini dam ochib, dam yumib yotgan Mityaning borgan sari sekinroq qimirlay boshlagan, bilagi xuddi ip bilan bo'g'ib bog'lagandek ko'ringan momiq qo'lchasini astagina bosib turib:

– Ha-ha, jim-m-m... – dedi. Bu mitti qo'l Kitining tinchini olib qo'yidi: u bu qo'lchan ni o'pgisi kelar, lekin chaqalog'ini uyg'otib qo'yishdan qo'rqib, o'pishga yuragi betlamas edi. Mitti qo'l, nihoyat qimirlashdan to'xtab, ko'zlar ham yumildi. Chaqaloq o'z ishini davom ettirib, uzun va qayrilma kipriklarini ora-sira ko'tarardi-da, ola qorong'ida qora ko'ringan nam ko'zları bilan onasiga faqat qarab-qarab qo'yardi. Enaga ham yelpishini to'xtatib, uxbab qolgan edi. Ustki qavatdan qari knyazning gurillagan ovozi va Katavasovning qahqahasi eshitilardi.

Kiti: «Mening yo'g'imda suhbatlari juda qizib ketdi, shekilli, – deb o'ylandi, – attang, Kostya uyda yo'qda. Tag'in arixonaga kirib

qolgan chiqar. Hadeb o'sha yoqqa ketaverishi odamning yuragini qissa ham, mayli, men xursandman. Unga ermak bo'ladi. Hozir u bahordagidan ancha xushchaqchaq, yaxshiroq bo'lib qoldi.

Yo'qsa, qosh-qovog'i tushib, shunday xafa bo'lib yurardiki, ahvolini ko'rib, qo'rqrar edim. Juda qiziq odamda!» – Kiti kulimsirab pichirladi.

Kiti erini qiyagan narsani bilardi. Uni e'tiqodsizligi qiyndi. Agar Kitidan: «Eringiz shu e'tiqodsizligi bilan yashayversa, kelajak hayoti halok bo'lishiga ishonasizmi?» deb so'rashsa, u erining halok bo'lishiga ishonganini aytar edi: lekin bunga qaramasdan uning e'tiqodsizligi Kitining baxtiga raxna sololmasdi; Kiti e'tiqodsiz odam uchun najot yo'qligini tan olsa ham, dunyoda erining qalbini hamma narsadan ortiq sevgani uchun uning e'tiqodsizligini o'ylab kulimsirar, uni o'zicha «qiziq odam-da» deb aytar edi.

«Nega u yil o'n ikki oy nuqul allaqanday falsafiy kitoblarni o'qir ekan? – deb o'ylanadi Kiti. – Agar bu narsalarning hammasi shu kitoblarda yozilgan bo'lsa, u holda bularni tushunib oladi. Agar ularda yozilgan narsalar haqiqat bo'lmasa, unda nimaga o'qiydi? O'zi: jon deb e'tiqod qillardim, deydi. Unday bo'lsa nega e'tiqod qilmaydi? Yo juda ko'p o'ylagandanmikan-a? Ko'p o'ylashi esa tanholigidan, yolg'izligidan, uzzukun yolg'iz, bir o'zi. Biz bilan hamma narsa to'g'risida gaplasholmaydi. Mehmonlar, aynijsa, Katavasov bahrini ochsa kerak, deb o'layman. Katavasov bilan munozara qilishni yaxshi ko'radi», – deb o'yladi-yu, darhol fikrida Katavasovni qayerga joylash – alohidami yoki Sergey Ivanovich bilan birga joylash kerakmi, deb xayol qila boshladi. Shunda miyasiga bir o'y keldi; tuyqusdan kelgan bu o'y uni hayajonga solib seskantirib yubordi, hatto Mityani ham bezovta qildi; Mitya bezovta qilingani uchun onasiga bir xo'mrayib qarab qo'ydi. «Kir yuvuvchi xotin yuvgan kirlarini olib kelmagan bo'lsa kerak, mehmonlarga solinadigan choyshablarning hammasi ishdan chiqqan. Agar chorasini ko'rmasam, Agafya Mixaylovna Sergey Ivanovichga ishlatilgan choyshabni solib qo'yadi», – deb o'yladi; bu o'y miyasiga kelar-kelmas, yuziga qon yugurdi.

Kiti: «Ha, tayinlayman», – dedi ko'nglida; keyin boyagi o'ylariga qaytib, qandaydir muhim, ma'naviy bir narsa ustida o'ylab tagiga yetolmaganini esladi-da, u narsaning nima ekanligini xotirlay boshladidi. «Ha, Kostyaning e'tiqodsizligi», – deb yana kulimsirab esiga oldi.

– Xo'sh, e'tiqodsiz bo'lsa nima! Shtal xonimga o'xshash dindor bo'lgandan yoki chet elda ekanimda men orzu qilgan qizlarga o'xshaganidan ko'ra, Kostyaning butun umr shunday qola qolgani ma'qul. Yo'q, u riyokorlik qilolmaydi».

Levining shu yaqinda ko'rsatgan mehribonligi birdan ko'z o'ngiga keldi. Bundan ikki hafta oldin Stepan Arkadich Dolliga tavba qilib xat yuborgan edi. Stepan Arkadich Dolliga yolvorib, mulkingni sotib, sha'n-u sharafimni saqlab qol, qarzlarimni to'lab olay deb so'ragan edi. Dollining dudi osmonga chiqdi, eridan nafrati qo'zg'adi, undan jirkana boshladi, goho rahmi kelib, goh ajrashmoqchi, iltimosini qaytarmoqchi bo'ldi, lekin oxirida mulkining bir qismini sotishga rozilik berdi. Shu voqeadan keyin erining o'ylab qolganini, ko'ngliga chizib qo'ygan maqsadini qanday qilib amalga oshirishini bilmay xijolat bo'lib yurganini, axiyri Dollining izzati nafsiga tegmasdan unga yordam qilishning birdan-bir chorasini topganini, Kitiga mulkining bir qismini Dolliga berishni taklif qilganini, bu narsa ilgari o'zining xayoliga kelmaganini eslab, Kiti ixtiyorsiz kulimsirab qo'ydi.

«Shunday bir odamni e'tiqodsiz deb bo'ladimi? Shunday qalbga ega bo'lgan, birovni, hatto yosh go'dakni ham xafa qilib qo'yishdan qo'rqa digan bir odamni-ya! Nimaiki bo'lsa boshqalarga bo'lsin, deydi. O'ziga hech nimani ravo ko'rmaydi. Sergey Ivanovich Kostyaga xuddi o'zining gumashtasidek qaraydi, Kostyaning burchi shu deb o'laydi. Opasi ham shunaqa. Hozir Dolli ham bolalari bilan uning qanotiga kirib oldi. Har kun uning oldiga kelib-ketib turadigan mujiklarni aytmaysizmi, Kostya go'yo ularga xizmat qilishga majburday.

«Ha, sen ham otangdan ibrat olgin, faqat otangga o'xshash odam bo'lgin», – dedi-yu, Kiti Mityani kichkinagina betchasidan o'pgandan keyin enagasiga berdi.

VIII

Levin o'lim to'shagida yotgan mehribon akasini ko'rganda, birinchi marta hayot va mamot masalalariga o'zi yangi aqida deb atagan nuqtayi nazardan, ya'ni bolalik va o'smirlik davridagi diniy aqidalar o'rnini asta-sekin egallab olgan yangi nuqtayi nazardan qaraganda (yigirma yoshidan o'ttiz to'rt yoshiga qadar o'tgan

davrda shu yangi aqidada edi), u o‘limdan ko‘ra hayotdan, hayotning qayerdan, nima uchun, nima maqsadda paydo bo‘lganini, nimadan iboratligini zarracha ham bilmaganidan qo‘rqib ketdi. Organizm, organizmnинг buzilishi, moddaning yo‘qolmasligi, kuchning saqlanish qonuni, taraqqiyot kabi so‘zlar endi uning ilgarigi diniy e’tiqodlari o‘rnini oлgan so‘zlar edi. Bu so‘zlar va bular bilan aloqador bo‘lgan tushunchalar aqliy maqsadlar uchun juda bopta so‘zlar bo‘lsa ham, lekin hayot uchun hech nima bermasdi; ana shundan keyin Levin issiq po‘stini doka kiyimga alishtirib oлgan va birinchi marta qahraton sovuqda o‘zining baribir yalang‘och ekaniga, endi azob ichida halok bo‘lishi muqarrarligiga muhokama yo‘li bilan emas, balki vujudi bilan shak-shubhasiz ishongan kishi ahvoliga tushib qolganini birdan his qildi.

Levin hech to‘g‘rida bosh qotirmay, bu haqda o‘ziga hisob ham bermay ilgarigidek yashab kelgan bo‘lsa ham, o‘sha daqiqadan beri o‘zining bu gumrohligi uchun yuragida bir qo‘rquv borligini muttasil sezib turar edi.

Bundan tashqari, o‘zining e’tiqodi, aqidasi deb hisoblagan narsasi, yolg‘iz gumrohlik emas, shu bilan birga, bilishi lozim bo‘lgan narsasini bilishiga imkon bermaydigan chigal fikrlar ekanini ham sal-pal sezib turardi.

Uylanganidan keyingi dastlabki paytlarda his qilgan yangi sevinch, yangi vazifalar bu fikrlarni butunlay bo‘g‘ib tashlagan edi; lekin so‘nggi vaqtarda, xotini ko‘z yorgandan so‘ng Moskvada bekor yurgan kezlarida uni bir masala bezovta qila boshladi; bu masala Levinni holi joniga qo‘ymay, o‘zining hal etilishini qistar edi.

Levinni nazarida, bu masala shundan iborat edi: «Agar o‘z hayotim talab qilgan savollarga nasroniylik bergen javoblar meni qanoatlantirmsa, u holda qanday javoblar qanoatlantiradi?» Ana shundan keyin u o‘z aqidalari saqlangan xazinasini ag‘dar-to‘ntar qildi-yu, lekin bu savolga biron ta javob emas, hatto javobga o‘xshagan biron ta narsa ham topolmadidi.

Levin oziq-ovqatni o‘yinchoqlar va qurol-aslahalar sotiladigan do‘kondan qidirib yurgan kishiga o‘xshab qolgan edi.

U endi shuursiz, ixtiyorsiz bir holda har qanday kitobdan, har bir suhbatdan, har qanday odamdan bu savollarga javob qidirardi.

O‘z doirasiga mansub va o‘z yoshidagi odamlarning ko‘philigi o‘zlarining burungi e’tiqodlarini Levin singari yangi aqidalarga almashtirib olishib, bunda biron falokat borligini ko‘rmay, bundan tamoman mammun va xotirjam bo‘lib yurishardi; bu esa Levinni hamma narsadan ham ortiq ajablantirar, ta’bini xira qilardi. Shu asosiy masaladan boshqa Levinni qiyinayotgan bo‘lak masalalar ham bor edi: bu odamlar samimiy odamlarmi? Ular o‘zlarini jo‘rttaga shu kepataga solib ko‘rsatayotganlari yo‘qmi? Yoki o‘zining fikr-u xayolini band qilgan savollarga ilm-fan bergen javoblarni ular o‘zidan, ya’ni Levindan boshqacha, ravshanroq tushunishadimi? Shunday qilib, Levin bu savollarga javob beruvchi odamlarning fikrlarini ham, kitoblardagi bayonlarni ham tirishib o‘rganib bordi.

Bu savollar fikr-u xayolini band qila boshlagan paytlardan beri axtarib topgan narsalarning biri shu bo‘ldiki, o‘smirlik chog‘laridagi va universitet doirasidagi xotiralarini kavlashtirib boqsa, o‘sha mahal din yoshini yashab bo‘ldi, endi u butunlay tugadi, degan fikrga kelib xato qilgan ekan. Hayotda o‘zini yaxshi tutgan, Levinga yaqin turgan odamlarning hammasi dinga ishonardi. Qari knyaz ham, o‘zining mehri tushib qolgan Lvov ham, Sergey Ivanovich ham, hamma ayollar ham, xotini ham, dastlabki bolalik chog‘larida Levin qanday ishongan bo‘lsa, bular ham dinga shunday ishonardi, rus xalqining, o‘zi hurmat qilgan bu xalqning yuzdan to‘qson to‘qqizi ham xudoga sig‘inadi.

Levin axtarib topgan narsalarning ikkinchisi shu bo‘ldi: u talay-talay kitoblarni o‘qib chiqqandan keyin shunday bir qanoatga keldiki, o‘zi bilan bir xil nuqtayi nazarda bo‘lgan odamlar bundan boshqa narsani ko‘zda tutmaydilar; javob topilmasa, Levin o‘zini yashay olmaydigandek his qilib kelayotgan masalalarni ular hech qanday izohsiz inkor qiladilar-u, Levinni aslo qiziqtira olmaydigan butunlay boshqa masalalarni, chunonchi, organizmlarning rivojlanishi, ruhning mexanik izoh va shular kabi masalalarni hal qilishga tirishadilar.

Bundan tashqari, xotini ko‘z yorgan paytda Levin uchun g‘ayrioddiy bir hodisa yuz berdi. Xudoga ishonmaydigan bu odam birdan ibodat qila boshladi va ibodat qilib turganda xudoga ishondi. Ammo u payt o‘tib ketdi. O‘tgandan keyin esa o‘sha kayfiyatiga hayotdan biron o‘rin topib berolmadi.

O‘sha paytda haqiqatni bilganiga iqror bo‘lolmasdi.

Endilikda yanglisyapti, chunki bu masalani xotirjam o'ylay boshladi deguncha hamma narsa chilparchin bo'lib ketadi; o'sha mahal yanglighaniga ham iqror bo'lolmasdi, chunki o'sha paytdagi ruhiy kayfiyatini qadrlar, uni bir zaiflik shukuhi deb qabul etsa, o'sha damlar xotirasini tahqirlagan bo'lardi. Levin ziddiyat azobida qovurilar, bundan qutulish uchun butun ma'naviy kuchini ishga solardi.

IX

Bu fikrlar uni goh bo'sh, goh qattiq qiyinab azoblab tursa ham, lekin xayolidan hech nari ketmasdi. Levin mutolaa qilar, o'ylar va qancha ko'p o'qisa, qancha ko'p o'ylasa, ko'zlagan maqsadidan o'zining shuncha uzoqlashib borayotganini his qilardi.

Oxirgi paytlarda Moskvada, keyin qishloqda o'z savollariga materialistlarning kitoblaridan javob topolmasligiga ishonchi komil bo'lgandan so'ng hayotni materialistchasiga tushuntirmaydigan Platon, Spinoza, Kant, Shelling, Gegel, Shopengauer kabi ko'p faylasuflarning kitoblarini qayta-qayta o'qib chiqdi.

Boshqa ta'limotlarni, ayniqlas, materialistik ta'limotlarni rad qiladigan asarlarni o'qiganda yoki o'zi o'ylab raddiy javob topganda, fikrlari o'ziga juda samarali ko'rindi; lekin masalalarни hal qiladigan bir narsani o'qib yoki o'zi o'ylab hallini topdi deguncha, ayni bir hol hamma vaqt takrorlanaverardi. Ruh-iroda, hurlik, substansiya kabi dudmal so'zlarga berilgan ta'riflarga berilib, faylasuflar yoki uning o'zi-o'ziga qurgan so'zlar tuzog'iga atayin ilinardi-yu, go'yo bir narsani anglay boshlagandek bo'lardi. Lekin fikrlarining sun'iy jarayonini unutib, bu fikrlar silsilasidan borganda miyasiga kelgan va uni qanoatlantirgan narsaga o'zi yashab turgan hayotdan ruju etsa, bu sun'iy bino xuddi qog'ozdan yasalgan uyday birdan yiqilar, bu bino hayotda aqldan ham muhimroq bo'lgan narsani nazar-pisand qilmay, o'rinnari almashtirilmish ayni so'zlardan qurilgani ayon bo'lardi.

Bir kun Shopengauerning kitobini o'qib o'tirib, uning iroda so'zi o'rniga muhabbat so'zini qo'ydi; bu yangi falsafa ikki kungacha uning ko'nglini tinchitib keldi, keyin yana ko'ngli sovidi; so'ngra bunga hayot ko'zi bilan qaraganda, bu falsafa ham vayron bo'ldi, bu ham dokadan qilingan, isitmeydigan ko'ylak bo'lib chiqdi.

Akasi Sergey Ivanovich Xomyakovning diniy kitoblarini o'qib chiqishni maslahat ko'rди. Levin Xomyakov asarlarining ikkinchi tomini o'qib chiqdi-da, kitobning munoqashali, chirolyi, o'tkir uslubi boshda ixlosini qaytarganiga qaramay, cherkov haqidagi ta'limotiga qoyil qoldi. Ilohiy haqiqatlarni idrok etish qobiliyati ayri-ayri odamlarga berilgan emas, balki bir-birlariga mehr-u muhabbat bilan bog'langan odamlar jumlasiga – cherkovga berilgan, deyilgan fikr uni dastlab juda hayratga solib qo'ydi. Ishini xudoga, uzoqdagi sirli xudo, halloq va hokazolarga sig'inishdan boshlaguncha imon keltiruvchi hamma bandalarni birlashtirgan, o'zi xudoga sig'ingan, shu vajdan o'zi pok va tabarruk bo'lgan, odamlar ko'zida yashab turgan cherkovga e'tiqod qilish; xudoga sig'inishi, tavba etishni cherkovdan o'rganish osonroq ekanligi to'g'risidagi fikr Levinni xursand qilgan edi. Ammo keyinchalik bir katolik yozuvchining cherkov tarixi bilan bir pravoslav yozuvchining cherkov tarixini o'qib chiqib, mohiyati jihatdan gunohsiz bo'lgan bu har ikki cherkovning bir-birini inkor qilganini ko'rgandan so'ng, Xomyakovning cherkov to'g'risidagi ta'limotidan ham hafsalasi pir bo'ldi, natijada, bu bino ham falsafa sohasidagi bino singari yiqlilib, changi osmonga sovildi.

U shu bahor ichi, goh hud, goh behud, dahshatli kunlarni boshidan kechirdi.

Levin o'z-o'ziga: «O'zimning nima ekanligimni, dunyoga nima uchun kelganligimni bilmay turib yashashim mumkin emas. Buni bilish esa qo'limdan kelmaydi, demak, yashashim ham mumkin emas», – derdi.

«Poyonsiz zamon va makonda, bitmas-tuganmas materiyalar orasida, poyonsiz fazoda bir pufak-organizm bor, bu pufak biroz turgandan so'ng yorilardi, ana shu pufak – menman».

Bu odamni qiyinaydigan, haqiqatga xi洛 narsa edi, shunday bo'lsa ham bu inson tafakkurining asrlardan beri shu sohada qilib kelgan mehnatining birdan bir so'nggi natijasi edi.

Bu inson tafakkurining so'nggi bosqichi edi, inson fikrining barcha qidirishlari hamma sohalarida deyarli ana shunga suyanib ish olib bordi. Bu hukmron bir aqida edi, shuning uchun Levin boshqa hamma aqidalardan ravshanroq ko'ringan bu aqidani beixtiyor o'ziga singdirib oldi. Lekin u bu aqidani o'ziga qachon, qanday singdirib olganini o'zi ham bilmasdi.

Ammo bu faqat haqiqatga xilof emas, shu bilan birga, allaqanday yovuz bir kuchning shafqatsiz pichingi edi, bu kuch shu qadar yovuz, shu qadar jirkanch ediki, unga bo'ysunmay bo'lmasdi.

Bu kuchdan qutulish kerak edi. Qutulish esa har kimning ixtiyorida edi. Yovuz kuchning bu asoratiga xotima berish kerak edi. Buning iloji esa birgina o'lim edi.

Ana shunday qilib, bu baxtiyor oila egasi, sog'lom tanli Levin bir necha bor o'zini o'zi o'ladirish darajasiga keldi va axiyri o'zini osib qo'ymaslik uchun chilvirini yashirib qo'ydi, o'zini otib qo'ymaslik uchun ovga miltiq ko'tarib borishdan qo'rqib qoldi.

Ammo Levin o'zini otmadi ham, osmadi ham, kunini ko'rib yuraverdi.

X

Levin o'zining nima ekanligini, nima uchun yashayotganligini o'ylaganda, bunga javob topolmay xun bo'lardi; lekin bu narsalarni o'zidan so'ramaganda esa o'zining nimaligini, nima uchun yashayotganligini bilgandek bo'lardi, chunki aniq va dadil harakat qilar, yashardi: hatto bu so'nggi vaqtarda ilgarigidan ancha aniq, ancha mustahkam ishtiyoy bilan yashardi.

Levin iyun oyining boshlarida qishloqqa qaytib kelib, yana o'zining odatdagagi ishlariga kirishib ketdi. Qishloq xo'jaligi, mujiklar va qo'shnilar bilan aloqasi, ro'zg'or ishlari, opasi bilan akasinining o'z qo'lidagi ishlari, xotini, qarindoshlari bilan aloqasi, bolasining tashvishi, arichilikka shu bahordan yuragida uyg'ongan yangi havasi – bularning hammasi uni ertadan to qora kechgacha band qilardi.

Levin ilgarigi vaqtlardagidek bu ishlarga biron umumiy nuqtayi nazardan qarab, ularni oqlab kelgani uchungina qiziqmas edi; aksincha, bir tarafdan, umum foydasini ko'zlab qilgan ilgarigi ishlari muvaffaqiyatsiz chiqqani, ikkinchi tarafdan, o'z fikrlari bilan band bo'lgani va har yoqdan zimmasiga tusha boshlagan ishlarning miqdori ko'pligi uchun umum foydasi yo'lidagi har xil mulohazalaridan voz kechgan edi; shu sababli u qilib turgan ishlarini qilishga o'zini majbur deb bilgani va boshqacha harakat etolmagani uchungina bu ishlar uni mashg'ul qilardi.

Ilgarilari (bu qariyb bolalik chog'laridan boshlanib, voyaga yetganga qadar kuchayib bordi) hamma uchun, insoniyat uchun,

Rossiya uchun, butun qishloq uchun biron xayrli ish qilishga tirishib yurgan kezlarida bu xususdagi fikrlaridan lazzat topardi, lekin bu sohadagi ishi yurishmasdi. Bu ishning zarurligiga ko'nglida to'la ishonch yo'q edi, boshda g'oyat zo'r ko'ringan faoliyatining o'zi ham kichraya-kichraya oxirida yo'q bo'lib ketardi; endi, uylangandan keyin esa hayotda kundan kun faqat o'zi uchungina yashash bilan kifoyalana boshlagach, garchi hozirgi faoliyatini o'ylaganda yuragida yilt etgan biron shodlikni topolmasa ham qilayotgan ishining zarurligiga ishonar, ishi avvalgidan ancha yurishib, kundan kunga zo'rayib, ulg'ayib borayotganini ko'rib turardi.

Endi u o'zi istamagan holda bamisoli omoch singari yerga kundan kunga chuqurroq kirib borar, yer palaxsalarini ag'darmay, yuzaga chiqolmasligini bilardi.

Oиласининг ота-бобоси одатланаб қолган қоидада билан, я'ни айни та'лим-тарбия шароитида yashashi, болаларининг ham айни шаклда тарбиyanishi shubhasiz kerak edi. Qorni ochgan kishining ovqat qilishi zarurdek, bu ham zarur edi; ovqat yeyish uchun uni tayyorlash qanchalik zarur bo'lsa, buning uchun Pokrovskoyedagi xo'jalik mashinasini ham xuddi shunday daromad keltiradigan qilib yo'lga solish zarur edi. Qarzni to'lash qanchalik zarur bo'lsa, ota-bobosidan meros қолган yerini ham shunday ahvolda saqlash shubhasiz zarur edi; tikkan uylari va ekkan daraxtlari uchun Levin bobosiga qanday tashakkur bildirgan bo'lsa, uning o'g'li ham yerni meros qilib olgandan so'ng otasiga shunday tashakkur bildirsin. Buning uchun yerini ijara ga bermay, o'zi ishlatishi, chorva saqlashi, dalalarni go'nglashi, daraxt o'tqazishi kerak.

Qo'lingda ko'tarib turgan bolani tashlab yuborishing mumkin bo'lmanidek, Sergey Ivanovichning ham, opasining ham, maslahat so'rab keladigan va bunga odatlanib қолган mujiklarning ham ishlarini tashlab bo'lmazı. Mehmon bo'lib kelgan qaynegachisining bolalari bilan, o'z xotinining ham chaqalog'i bilan rohatda yashashlari uchun g'amxo'rlik qilishi kerak, bunga kunining loaqlal kichik bir qismini ajratmaslikning iloji yo'q edi.

Bu tashvishlarning hammasi qush ovi va yangi asalarichilik bilan birlikda Levin o'yga tolgan paytlarda uning uchun hech qanday ma'noga ega bo'lmay qoladigan hayotini to'ldirib turardi.

Bundan tashqari, Levin nima qilishi kerakligini yaxshi biladi, xuddi shunga o'xshash bu narsalarni qanday qilishni, qaysi ishning qaysi biridan muhimroq ekanini ham yaxshi biladi.

U mardikorlarni arzon-garovga yollash kerakligini bilardi; lekin oldin haq to'lab qo'yib, ularni qul qilib olish, kamroq haq to'lash har qancha foydali bo'lsa ham, bunday qilish kerak emas edi. Yut kelganda mujiklarga achinsa ham, lekin ularga somon sotish mumkin edi; karvonsaroy bilan mayxona foyda keltirsa ham baribir bularni yo'qotish kerak edi. O'rmondan o'g'rincha daraxt kesganlarni iloji boricha qattiqroq jazolashi lozim, lekin ekinga qo'yib yuborilgan qoramoldan esa jarima olib bo'lmasdi, garchi bu narsa qo'riqchilarining jahllarini chiqarib, mol egalarini hayqirtirmay qo'ysa ham, ekinga tushgan qoramolni egasiga qaytarib bermasdan bo'lmasdi.

Sudxo'rga oyiga o'n foizdan foyda to'layotgan Pyotrga pul qarz berib, uni qutqarib olish kerak edi; lekin qarzlarini to'lamay kelayotgan mujiklarning to'lamay qo'yishlariga va to'lash muddatlarini kechiktirishlariga yo'l qo'yib bo'lmasdi. O'tloqdag'i pichanni o'rdirmay, butun pichanni nobud qilgani uchun prikazchikni kechirish mumkin emas edi; lekin daraxt ko'chatlari o'tqazilgan sakson botmon yerdagi pichanlarni ham o'rib bo'lmasdi. Og'asi vafot qilgani uchun ish mahalida uyiga ketib qolgan mardikorni kechirib bo'lmasdi, har qancha joni achisa ham, ishga chiqolmagan kuni uchun oyligidan ushlamay qololmasdi, lekin qarilarga, hech qanday luzumi bo'limgan hovli xodimlariga oylik bermay bo'lmas edi.

Levin uyga qaytgandan keyin, dastavval, betob yotgan xotinining yoniga kirish kerakligini ham bilardi: o'zini uch soatdan beri kutib o'tirgan mujiklar esa yana kutaverishlari mumkin; Levin asalarini inlariga solishdan juda shukuh qilsa hamki, bu shukuhdan mahrum bo'lish kerakligini, asalarilarni uyaga solish vazifasini cholga topshirib qo'yib, o'zi uni arixonaga qidirib kelgan mujiklar bilan gaplashishga majbur ekanligini ham bilardi.

U yaxshi ish qilayotganini ham, yomon ish qilayotganini ham bilmasdi, endi buni isbot qilib o'tirish u yodqa tursin, hatto bu to'g'rida og'iz ochish va o'ylashdan ham o'zini olib qochardi.

Muhokama uni shubhaga solar, nima kerag-u nima kerak emasligini ko'rishga xalaqit berardi. U o'y-xayollarga berilmay yashaganda esa qalbida benuqson bir hakam borligini har dam sezib turar, bu

hakam bosilishi mumkin bo‘lgan ikki qadamning qaysi biri yaxshi, qaysi biri yomon ekanligini ajrim qilardi, kerak bo‘lgan ishning aksini qildi deguncha, Levin bu narsani darhol his etardi.

O‘zining nimaligi, dunyoda nima uchun yashayotganligini bilmasdan, bilish imkonli borligini ham ko‘rmasdan shu taxlit yashar, bilmaganligidan azob chekib, o‘zini o‘ldirib qo‘yishdan qo‘rqrar, shunday bo‘lsa ham yana hayotda o‘zining maxsus, aniq yo‘li bilan bardam odim tashlab borardi.

XI

Sergey Ivanovich Pokrovskoye qishlog‘iga kelgan paytda Levin eng mashaqqatlari kunlardan birini kechirmoqda edi. Ish qaynab turgan palla edi; bu pallada butun xalq mehnatda shunday bir g‘ayrat bilan jonbozlik ko‘rsatardiki, hayotning boshqa hech bir sharoitda bunday fidokorlik ko‘rsatilmaydi; agar shunday fidokorlik ko‘rsatgan odamlarning o‘zlarini bu fazilatlarining qadrlariga yetsa, agar bu ahvol har yili takror etilmasa, agar bu jonbozlikning oqibati bu qadar oddiy bo‘lmasa, u holda bu fidokorlikning qadr-u qimmati juda yuksak bo‘lar edi.

Javdari bilan sulini o‘rib yanchish, tashish, pichanni oxirigacha o‘rish, yerni shudgorlash, urug‘likni yanchish, lalmi ekish – bu narsalar oson, oddiy ish bo‘lib ko‘rinadi; holbuki bu ishlarni vaqtida bartaraf qilish uchun qishloqning butun aholisi kattadan kichigigacha shu uch-to‘rt hafta ichida odatdagidan uch baravar ortiqroq tinmay ishlashi, kvas, piyoz, qora nonga qanoat qilib, bug‘doy va suli bog‘larini kechalari tashib yanchishi, bir kecha-kunduzda juda ko‘p deganda ikki-uch soatgina uxlashi kerak. Shunisi ham borki, har yil butun Rossiyada shu ahvol.

Levin umrining ko‘p qismini qishloqda, xalq bilan yaqin alo-qada o‘tkazgani uchun ish qaynagan pallalarda xalqning bu umumiy jonbozligi o‘ziga ham ta’sir qilganini sezib turardi.

Levin saharlab o‘rnidan turdi-da, birinchi javdar ekinini, sulilarni tashib g‘aramlashganini ko‘rgani bordi; keyin xotini bilan qaynegachisi turadigan paytda uyga qaytib, ular bilan qahva ichgandan so‘ng xutorga piyoda jo‘nadi; xutorda yangi o‘rnatilgan yanchish mashinasini bugun yurgizib, urug‘lik tayyorlashlari kerak edi.

Levin shu bugun ishboshchisi bilan, mujiklar bilan, uyda esa xotini, Dolli, uning bolalari, qaynotasi bilan gaplashib turgan paytlarida ham birgina narsani, ya’ni so’nggi vaqtarda xo’jalik tashvishlaridan tashqari fikr-u xayolini qamrab olgan narsani kun bo’yi o’ylab, o’zining: «Men nimaman? Qayerdaman? Dunyoga nima uchun kelganman?» degan savollariga javob axtarib yurdi.

Levin po’stlog‘i archilgan ho’l oqterak to’sinlari ustiga xushbo‘y yaproqlari to‘kilmagan shumurt shoxlari bostirilgan, usti poxol bilan yopilgan yangi bostirma salqinida turib, goh yanchilayotgan xirmondan quruq achchiq changlarning ko’tarilishiga, goh jazirama quyosh nur sochib turgan pichan g‘aramiga, goh hozirgina saroydan olib chiqilgan yangi xashakka, goh chug‘urlashib tom tagidan uchib chiqqan, qanotlarini silkita-silkita darvoza cho‘piga qo‘nayotgan olabosh, oq to‘sh qaldirg‘ochlarga, goh nim qorong‘i chang bostirma ichida uymalashgan odamlarga lang ochib tashlangan darvozadan qarab, g‘alati-g‘alati o’ylarga cho‘madi:

«Bu narsalar nima uchun qilinyapti, a? – deb o’ylardi. – Nega men bu yerda turib, ularni ishlashga majbur qilyapman? Nima vajdan ular javlon urishadi, nima uchun jonbozlik qilayotganlarini ko‘rsatishga tirishishadi? Men taniydigan anavi Matryona kampir nima vajdan jonini ayamaydi? (yong‘in mahali ustiga to‘sins tushib ketganda men shu kampirni shifolagan edim) – deb o’yladi, oftobda kuyib qoraygan yalang oyoqlarini omborning o‘ydim-chuqur, zarang poliga qattiq bosib don kurayotgan ozg‘in qishloqi xotinni ko‘rib: – O‘shanda tuzalib ketdi, lekin bugun bo‘lmasa ertaga, ertaga bo‘lmasa o‘n yildan keyin uni ham ko‘mishadi, ana u vaqt na bundan va na anavi egniga qizil jun matodan kamzul kiygan, chaqqon, nozik harakatlar bilan don shopirayotgan tannozdan asar qolmaydi. Uni ham ko‘mishadi, anavi chavkar axtani esa tez kunda yerga tiqishadi, – Levin oyoqlari tagidagi charxni arang aylantirayotgan otga qarab o’yladi; ot hansirab nafas olar, nafasining zo‘ridan burun katakkali kerilib ketar edi. – Uni ham go‘rga tiqishadi, soqoliga somon yopishgan, sochi jingalak, oq ko‘ylagining yag‘rini yirtiq mardikor Fedorni ham ko‘mishadi. U esa javdar bog‘larini yechadi, allanimalar buyuradi, xotinlarga o‘shqiradi, mashina g‘ildiragining qayishini epchillik bilan tuzatadi. Shunisi muhimki, ularningina emas, hatto meni

ham ko'mishadi, mendan ham asar qolmaydi. Shunday bo'lgandan keyin bu mashmashalarning nima keragi bor-a?»

Levin shu narsalarni o'ylab turib, soatiga qarab-qarab qo'yari, bir soatda qancha yanchishlarini bilmoqchi bo'lar edi. Kunlik topshiriqni shunga qarab berish uchun buni, albatta, bilish kerak edi.

Levin: «Hali zamon soat bir bo'ladi, bular esa endi uchinchi g'aramni yancha boshlashdi», – deb o'yjadi-yu, javdar poyalarini mashinaga tashlab turgan mardikor yoniga keldi-da, mashinaning shovqinidan ham balandroq qichqirib, kam-kam berib turish kerakligini aytди.

– Ko'p tashlayapsan, Fyodor! Qara, tiqilib qolyapti, shuning uchun ish yurishmayapti-da. Me'yorda tashla!

Ter yuziga chang qo'nib qoraytirib yuborgan Fyodor qichqirib, bir nima deb javob bergen bo'lsa ham, lekin, baribir, Levin aytgandek qilmadi.

Levin mashina barabaniga yaqin keldi. Fyodorni nari surib qo'yib, poyalarni mashina og'ziga o'zi tashlay boshladi.

Mujiklar ovqat qiladigan payt yaqinlashib qolgan edi; Levin o'sha paytgacha ishlagandan so'ng mardikor bilan birgalikda xirmondan chiqdi-da, urug'likka deb keltirilib, hafsalan bilan taxlab qo'yilgan sariq javdari poyalarining g'arami yonida gapga kirishib ketdi.

Poyalarni mashina og'ziga tashlab turgan bu mujik bir mahallar Levin yerini sheriklikka berib kelgan uzoq qishloqdan ekan. Endi esa u yer hovli qaroliga ijaraga berilgan edi.

Levin bog' tashlab turuvchi Fyodor bilan shu yer haqida gap ochib, shu yerni Platon kelasi yili ijaraga olarmikan deb so'radi; Platon o'sha qishloqlik badavlat, yaxshi mujik edi.

Mujik ter bosgan qo'ynidan boshqlarni chiqarib turib:

– Narxi qimmat, Konstantin Dmitrich, Platon foyda qilolmaydi, – dedi.

– Iya, ana Kirillov foyda qilyapti-ku!

– Ey, Konstantin Dmitrich, bu Mityuxa (hovli qorovulini mujik nafrat bilan shunday deb atadi) deganingiz foyda qilmay, kim foyda qilsin! U mardikorlarga balo-qazodek yopishib oladi, ishqilib, aytganini qildiradi-da, o'zining nasroniyiga ham joni achishmaydi. Fokanich (Platon cholni shunday deb atadi) amakim unaqa emas, odamning terisini shilib olarmidi? Tor kelganda qarz beradi, joyi

kelganda kechib yuboradi. Shunday qilib, zarar ko'radi-da. Shunaqa odamoxun u.

– Xo'sh, nimaga kechib yuboradi?

– Qaydam, kechib yuboradi-yu; bundan chiqdi, odamlar har xil bo'lar ekan-da; birovlar faqat o'zim bo'lay deydi, masalan, Mityuxa faqat qornini o'ylaydi, Fokanich bo'lsa insofli chol. U oxirat uchun yashaydi, xudoni yodidan chiqarmaydi.

Levin qichqirib:

– Qanday qilib Xudoni yodidan chiqarmaydi? Qanday qilib oxirat uchun yashaydi? – deb yubordi.

– Qandayligi ma'lum, haqqoniy, xudojo'y odam. O'zingiz bilasiz, odamlar har xil. Mana, masalan, sizni olsak, siz ham hech kimni xafa qilmaysiz...

Levin hayajonidan nafasi tiqilib:

– Ha, ha, yaxshi qol! – dedi-yu, o'girilib hassasini olgandan keyin uy tomon shaxdam odimlar bilan yurib ketdi. Mujikning: «Fokanich oxirat uchun yashaydi; haqqoniy, xudojo'y odam», degan so'zlarini eshitganda xira va mujmal bo'lsa ham, lekin ma'noli fikrlar xuddi qulflug'liq joyidan yopirilib chiqqanday Levinning miyasini to'ldirdi, hammasi bir maqsadga intilib, miyasida aylandi, ko'zlarini o'z yog'dusi bilan qamashtirdi.

XII

Levin katta yo'lda katta-katta qadam tashlab ketar ekan, miyasi-dagi fikrlarni emas (hali bu fikrlarni tagigacha tushunib yetganicha yo'q), ilgarilari hech vaqt sezmagan ruhiy holatni kuzatib borardi.

Mujik aytgan so'zlar qalbiga bir elektr uchquniday ta'sir qildi-yu, xayolidan hech mahal ketmagan tarqoq, alohida-alohida zaif fikrlarini bordaniga o'zgartirib, ularni bir butun qilib yig'di. Levin erini ijaraga berish to'g'risida gapirib turganda ham bu o'ylar xayolidan ketmagan, o'zi esa sezmagan edi.

U qalbida yangi bir narsa paydo bo'lganini his qilar, buning nimaligini hali bilmasa ham, yana uni sezib lazzatlanardi.

«Odam o'z nafsi uchun emas, xudo uchun yashashi kerak. Lekin qanday xudo uchun? Mujik aytgan so'zlardan ham bema'niroq narsalarni aytish mumkinmi? U: «Odam o'z nafsi uchun yashamasligi

kerak», – dedi, ya’ni o‘zimiz tushungan, bizni o‘ziga mahliyo qilgan, biz xohlagan narsalar uchun yashamay, hech kim tushunmaydigan allaqanday narsa uchun, hech kim tushuna va aniqlay olmaydigan xudo uchun yashashimiz kerak ekan. Xo‘s, bu nima degan so‘z? Fyodorning bu bema’ni so‘zlarini tushunmadimmi? Tushunganimdan keyin esa bu so‘zlarning to‘g‘riligiga shak keltirdimmi? Yo bu so‘zлarni ahmoqona, dudmal, xato so‘zlar deb bildimmi?

Yo‘q, bu so‘zлarni u qanday tushunsa, men ham xuddi o‘shanday tushundim, hayotda tushunadigan har qanday narsamdan ham aniqroq, to‘laroq tushundim, hayotga hech qachon shak keltirmagan bo‘lsam, bunga ham aslo shak keltirolmayman. Buni hamma, butun dunyo tushunadi, yolg‘iz bu narsaga shak keltirmay, bu bilan kelishadi.

Fyodor hovli qaroli Kirillovni o‘z nafsi uchun yashaydi, deydi. Bu to‘g‘ri, bama’ni gap. Biz hammamiz ham aql-idrokli odamlar bo‘lganimizdan, o‘z nafsimiz uchun yashay olmaymiz. Mana endi o‘sha Fyodor: odamning o‘z nafsi uchun yashashi yaxshi emas, haqttaolo uchun yashashi kerak, deydi; men uning maqsadini bir og‘iz so‘zidanoq fahmlab oldim! Men ham, bundan necha asrlar ilgari o‘tgan va hozir yashab turgan millionlarcha odamlar ham, mujiklar, ruhan qashshoqlar ham, bu to‘g‘rida fikr va qalam yuritgan va o‘zlarining chuchmal tillari bilan xuddi shu gapni gapiradigan donishmandlar ham, bizning hammamiz ham mana shu: «Nima uchun yashash kerak va nima yaxshi», deyilgan birgina tushunchaga kelganda bir-birimizning fikrlarimizga qo‘shilamiz. Men butun odamlar bilan birligalikda faqat bir narsanigina mukammal, shubhasiz, aniq bilaman, bu bilganimni aql-idrok kuchi bilan izoh qilib bo‘lmaydi, chunki u aql-idrokdan tashqarida, uning hech qanday sababi, hech qanday oqibati yo‘q.

Agar saxovatli ish biron sabab bilan qilinsa, demak, u saxovat bo‘lolmaydi; agar uning oqibati – mukofoti bo‘lsa, demak, u bu ahvolda ham saxovat bo‘lolmaydi. Demak, saxovat sababdan ham, oqibatdan ham xoli bo‘lishi kerak.

Lekin men buni bilaman, hammamiz bilamiz.

Men esam mo‘jiza axtarib yuribman, menda ishonch tug‘diradigan mo‘jizani ko‘rmaganim uchun achinib yuribman. Mana doim mavjud bo‘lgan, meni har tomonidan o‘rab olgan, imkon doxilida bo‘lgan birdan bir mo‘jiza ko‘z o‘ngimda turibdi-yu, men esa payqamabman!

Ajabo, bundan ham ortiqroq mo'jiza bo'la oladimi?

Nahotki butun chigallarim yechilgan, butun iztiroblarim endi xotima topgan bo'lsa?» – Levin na jaziramani va na charchaganini payqamay, uzoq vaqtlardan beri tortib kelayotgan iztiroblarining xotima topganini his etib, chang yo'lida shu xil o'ylanib borar edi. Bu his uni shunchalik suyuntirardiki, buning haqiqat ekaniga ishonolmasdi. Hayajonining zo'ridan nafasi tiqilib yurishga majoli qolmagandan keyin yo'ldan o'rmonga burildi-da, oq teraklar soyasiga, o'rilmagan o't ustiga kelib o'tirdi. Levin shlapasini ter bosgan boshidan olib, semiz, ko'm-ko'k o'rmon ko'katlari ustiga yonboshlab yotdi.

Keyin ro'parasidagi toptalmagan ko'katlarga tikilib qoldi; yovvoyi arpa poyasidan o'rmalab chiqayotgan, borib-borib yo'lidagi yaproqdan o'tolmay qolgan xonqizining harakatini kuzatib turib o'ylana ketdi: «Endi es-hushimni yig'ishtirib olishim, hammasini bataysil o'ylashim kerak. Hammasini boshdan-oyoq o'ylab chiqishim kerak, – dedi-yu, qo'ng'izchaga xalaqit bermasin deb yo'lidagi yaproqni qayirib, qo'ng'izchani boshqa poyaga o'tkazib yuborish uchun bo'lak ko'katni egib berdi. – Meni nima suyuntiryapti? Men nimani kashf etdim?

Men burunlari o'zimning tanimda, bu ko'katda, innaykeyin, manavi xonqizining ham tanida (buni qarang, u ko'katga o'tishni xohlamay, qanotchalarini yozib uchib ketdi) fizik, kimyoiy va fiziologik qonunlarga binoan moddalar almashib turadi, derdim. Holbuki, hammamizda, hatto manavi oq teraklarda, bulutlarda, xira dog'larda ham rivojlanish bor. Nimadan rivoj topadi? Nimaga qarab rivoj topadi? Rivoj bilan kurashning oxiri, poyoni bormi? Bu poyonsizlikda go'yo biron yo'nalish, kurash bo'lishi mumkindek! Bu yo'lda fikrlarim zo'r berib ishlaganiga qaramay, hayotimning mazmuniga, orzu va intilishlarimning ma'nosiga tushunolmay hayron bo'lib yurardim. Holbuki, orzu-tilaklarimning ma'nosni menga shu qadar ayonki, men doim shu orzu-tilaklarim bilan yashayman; mujik ana shu orzu-tilaklarimni aytib: xudo uchun, oxirat uchun yashashi kerak, deganda ajablanib, suyundim.

Men hech narsa kashf etganim yo'q. Men faqat bilgan narsamnigina aniqlab oldim. Men o'tmish umrimdagina emas, hozir ham menga hayot berib turgan kuchni angladim. Men qalloblikdan qutulib, egamni tanidim.

Ana shundan keyin Levin shu so'nggi ikki yil ichida miyasida aylangan fikrlarini qisqagina qilib o'zicha takrorladi; dastlab, umidsiz bir ahvolda yotib qolgan mehribon akasining o'limini ko'rganda miyasiga ravshan fikrlar kelgan edi.

Levin har qanday odam uchun, jumladan, o'zi uchun ham kelajakda azob-u uqubatdan, o'limdan va abadiy uyqudan boshqa hech nima yo'qligini o'sha payt birinchi marta ravshan tushungan, bu taxlit yashab bo'lmaydi, o'z turmushim allaqanday iblis masxara qilgan narsaga o'xshab qolmasligi uchun yo hayotimning mohiyatini tushunib olishim yoki o'zimni otib o'ldirishim kerak, degan qarorga kelgan edi.

Ammo Levin unisini ham, bunisini ham qilmadi. Aksincha, yashashda, his qilish, fikrlashda davom etdi, hatto o'sha mahal uylanib ham oldi, ko'p shod-u xurramliklar ko'rdi, hayotining mohiyatini o'ylamagan kezlarida o'zini baxтиyor sezib yurdi.

Xo'sh, bu nimaniko'rsatadi? Bu uning yaxshi yashab, yomon o'ylarga berilib ketganini ko'rsatadi.

U ona suti bilan tanasiga singdirib olgan ma'naviy haqiqatlar bilan (o'zi ham anglamasdan) yashardi-yu, lekin o'ylaganda bu haqiqatlarga tan bermay, ulami chetlab o'tardi. Tarbiya orqali suyagiga singgan e'tiqodlarga ixlos qilish bilan yashay olishi mumkinligi endi ravshan bo'ldi.

«Agar shu e'tiqodlarim bo'lmasa, o'z nafsim uchun emas, xudo uchun yashash kerakligini bilmasam, unda men nima bo'lardim, qanday yashar edim? Unda talonchilik qillardim, yolg'on gapirardim, odam o'ldirardim. Hayotimning asosiy quvonchini tashkil qilgan narsalardan hech biri bo'lmas edi». Levin tasavvur kuchini har qancha zo'r lab boqsa hamki, nima uchun yashayotganini bilmagan taqdirda o'zi o'xhab qolishi aniq bo'lgan o'sha yirtqich maxluqni ko'z oldiga keltirolmadi.

«Men savolimga javob axtardim. Lekin aql savolimga javob berolmadı, chunki aql bilan savolimni umumiy o'lchov bilan o'lchab bo'lmaydi, hayotning o'zi nimaning yaxshi, nimaning yomonligini menga o'rgatib, savolimga javob berdi. Men buni bilib olish uchun birona ish qilganim yo'q, menga bu narsa boshqa hamma narsalar bilan birgalikda berilgan, shuning uchun berilganki, men buni boshqa biron yerdan bilib ololmasdim.

Men bu narsani qayerdan bildim? Men yaqin odamingni bo‘g‘ish emas, sevish kerakligini aqlim bilan topdimmi? Menga buni yoshligimda aytgan edilar, men bunga jon deb ishongan edim, chunki menga ko‘nglimda bor narsani aytgan edilar. Xo‘s, buni kim kashf etdi? Aql kashf etgan emas. Aql yashash uchun kurashni va orzularimning ushalishiga xalaqit beruvchilarning hammasini bo‘g‘ishni talab qilgan qonunni kashf etgan. Bu aql xulosasi. Bosh-qani sevishni esa aql kashf etolmasdi, chunki boshqani sevish aqldan emas».

U muk tushib oldi-da, ko‘katlarning o‘zaklarini sindirmaslikka tirishib bir-biri bilan chiga-chiga: «Ha, takabburlik», – deb qo‘ydi.

«Shunda ham aqlning faqat takabburligigina emas, ahmoqligi ham. Eng yomoni esa aqlning quvligi, ha, xuddi quvligi. Xuddi aql fribgarligi», – deb takrorladi u.

XIII

Ana shunda Dollining yaqinda bolalari bilan qilgan janjali esiga tushib ketdi. Bolalar yolg‘iz qolishib, malinani sham o‘tida qizdirishayotgan, sutni og‘izlariga favvora qilib quyishayotgan ekan. Onalari ustlaridan chiqib qolib, ular nobud qilayotgan narsani kattalar qanchadan qancha mehnat evaziga qo‘lga kiritganlarini, bu mehnat ular uchun qilinganini, agar do‘lchalarini sindirishsa, choy ichishga hech narsa bo‘lmasligini, agar sutni to‘kishsa, yeydigan hech narsa bo‘lmay ochdan o‘lishlarini Levin yonida nasihat qila boshlagan edi.

Bolalar onalarining bu so‘zlariga xotirjamlik, ishonchiszlik bilan qovoq solib quloq berishganini ko‘rib, Levin hayron bo‘ldi. Ular qiziqib o‘ynayotgan o‘yinlarining to‘xtatib qo‘yilganidan xafa bo‘lib, onalari aytgan so‘zlarning bittasiga ham ishonishmadni. Darhaqiqat, ishona ham olmasdilar, chunki o‘zları qanday ko‘p narsalardan foydalananib kelayotganlarini tasavvur etolmas, shuning uchun o‘zlarining qorinlariga kerak narsani nobud qilayotganlarini xayollariga ham keltirmasdilar.

«Bu narsalar o‘z yo‘liga, – deb o‘ylashardi bolalar, – bularda hech qanday qiziq, muhim narsa yo‘q, chunki bu narsalar har vaqt bo‘lgan, bundan keyin ham bo‘ladi. Doim bo‘laveradi. Biz bu to‘g‘rida o‘ylamasak ham bo‘ladi, hammasi tayyor; biz bo‘lsak

o'zimizga biron ta yangi, qiziq o'yin o'ylab topishni xohlaymiz. Mana, o'ylab ham topib edik: chashkaga malina solib, sham o'tida qizdira boshlagan edik, sutni esa bir-birimizning og'zimizga favvoraga o'xshatib purkayotgan edik. Bu yangi o'yin ko'nglimizni shod qildi, sutni chashkadan ichgandan ko'ra favvora qilib ichganda maza bo'lar ekan».

«Tabiat kuchining ahamiyatini, inson hayotining ma'nosini aql-idrokimiz vositasi bilan axtarar ekanmiz, ajabo, biz ham xuddi shu bolalarday qilmaganmizmi, men ham shunday qilmaganmanmi?» deb Levin o'yini davom ettiradi.

«Inson uzoq zamonlardan beri bilgan, bilganda ham mukammal bilgan va shuni bilmaganda kun ko'rishi qiyin bo'lgan narsalarni insonga xos bo'lмаган таажиб фикрлар vositasi bilan shu insonning o'ziga tushuntirayotgan hamma falsafiy nazariyalar ham, ajabo, bolalarning xuddi shu qiliqlarini qilmayaptimi? Har bir faylasuf hayotining tub ma'nosini Fyodor mujikchilik oldindan shubhasiz bilgani holda (ammo undan zarracha ham ravshanroq bilmaydi), yana shubhali fikrlar vositasi bilan allaqachon hammaga ma'lum bo'lgan narsaga qaytmoqchi bo'lgani, ajabo, uning nazariyasi taraqqiyotidan ravshan ko'rinxaymadi?

Qani bolalarni o'z mayllariga qo'yib beraylik, tirikchiligini o'zlar qilishsin, idish-oyoq yasashsin, sigir sog'ishni va hokazolarni bilih sin. Ana shunda sho'xlik qilisharmikan? Ochlikdan o'lishardi. Qani, bizda ham xoliqning birligiga ishonch tug'dirmay turib o'z ehtiroslarimiz, fikr-o'yalarimiz bilan qo'yib beringlar-chi! Yoki yaxshilikning nimaligini bilmaganimiz, ma'naviy tushkunlikning ma'nosiga bormaganimiz holda bizni ham maylimizga qo'yib bersinlar-chi!

Qani, shu tushunchalarsiz biron narsani qilib ko'ring-chi!

Biz ma'naviy jihatdan to'q bo'lганимиз учун qo'limizga tushgan narsani vayron qilamiz. Xuddi bolalarga o'xshaymiz!

Tavba, mujik bilan bir qatorda men ham tushunib olgan, ko'nglimni joyiga tushirgan bu shodlik qayerdan paydo bo'ldi? Men buni qayerdan topdim?

Men xudoga sig'inish ruhida, nasroniylik tushunchasida tarbiyalangan odam bo'lганим учун nasroniylik menga bergen ma'naviy ne'matlar bilan to'lib-toshganim va shu ne'matlardan foydalanib

yashaganim holda, bolalar singari u narsalarni anglamasdan nobud qilaman, ya'ni hayotim uchun kerakli narsalarni nobud qilmoqchi bo'laman. Lekin hayotimning muhim pallasi kelganda, sovqotgan, ochiqqan bolalar singari men ham Xudoga munojot qilaman: to'qlikdan kelib chiqadigan bolalarcha quturishlarim menga savob bo'lib yozilmasligini bolalik sho'xliklari uchun onalaridan dakki yegan bolalardan ham kamroq his qilaman.

Ha, bilgan narsalarimni aql-idrok kuchi bilan bilmadim, balki menga ayon bo'ldi, ravshan bo'ldi, endi men buni yurak sezgisi bilan bilaman, cherkov talqin etgan yagona narsaga e'tiqod qilish yo'li bilan bilaman.

«Cherkov? Cherkov!» – deb takrorladi-yu, Levin narigi yonboshiga ag'darilib olgandan keyin uzoq-uzoqlarga, naryoqdan soyga tushib kelayotgan podaga qarab qoldi.

Levin hozirgi osoyishtaligini buzish mumkin bo'lган narsalarni xayoliga keltirib: «Lekin men cherkov talqin qilgan narsalarning hammasiga ishona olamanmi? – deb o'yladi o'zini sinab ko'rish uchun. U cherkovning hamisha o'ziga ko'proq g'alati tuyulgan, o'zini ozdirgan ta'limotlarini jo'rttaga eslay boshladi. – Xilqat nima? Aytgandek, borliqni nima bilan izohlagan edim? Borliq bilanmi? Hech narsa bilanmi? – Shayton bilan gunoh nima? – darvoqe, yovuzlik, yomonlikni nima deb izoh qilyapman?.. Najot beruvchi kim?

Lekin men hech narsani, hech narsani bilmayman, boshqalar qatorni menga ham aytilgan narsalardan boshqa hech narsani bilolmayman».

Endi uning nazarida cherkov talqin etgan e'tiqodlar ichida eng muhim narsani, ya'ni insonning Xudoga – saxovatga ishonishdan iborat bo'lган birdan-bir vazifasiga shikast yetkaza oladigan bironta e'tiqod yo'q edi.

Cherkov talqin etgan har bir e'tiqodga nafs uchun emas, haqiqat uchun xizmat qiladigan bir e'tiqod deb qarash mumkin edi. Har bir e'tiqod haqiqatga qarshi bormasdi emas, balki muhim hisoblangan va yerda har doim zuhur etib turgan mo'jizaning sodir bo'lishi uchun ham zarur edi; bu mo'jiza esa har bir kishining millionlarcha turlituman odamlar bilan: donolar va nodonlar bilan, bolalar va qarilar bilan, umuman hamma bilan, mujik, Lvov, Kiti, gado va shohlar

bilan birgalikda ayni bir narsani hech shak keltirmay anglay olishidan va taqdirlasa arziydig'an, biz qadrlab kelgan ma'naviy hayotni qura bilishdan iborat edi.

Endi chalqancha tushib olib, baland, bulutsiz osmonga qarab yotardi. «Nima, men osmonning poyonsiz fazo ekanligini, yumaloq gumbaz emasligini bilmaymanmi? Lekin ko'zlarimni har qancha suzib, har qancha tikilib qaramayin, baribir, men osmonning na yumaloqligi va na chegaralanganligidan boshqa narsani ko'ra olmayman; fazoning poyonsizligini bilsam hamki, qattiq moviy Gumbazni ko'rib turganim uchun, shubhasiz, haqliman, ko'zlarimni qattiq tikib, osmonning naryog'ini ko'rishga intilganimda esa yana ham ko'proq haqliman».

Levin o'ylariga xotima berdi-da, o'zaro nima to'g'risidadir bahri dillari ochilib, tashvish bilan gaplashayotgan allaqanday sirli ovozlarga quloq solib qolgandek bo'ldi.

Levin baxtiga ishonishdan qo'rqb: «Nahotki imonimni topgan bo'lsam? – deb o'ylandi. Keyin tomog'iga tiqilib kelgan yig'isini ichiga yutdi-da, yosh to'la ko'zlarini ikkala qo'li bilan arta turib: – o'zingga shukur, parvardigor!» – dedi.

XIV

Levin ro'parasiga qarab podani, keyin qorabayiri qo'shilgan aravasini, podaga yaqin kelib, podachi bilan nima to'g'risidadir gaplashgan kucherini ko'rdi; so'ngra yaqinginasidan arava g'ildiraklarining dukurini, semiz otining pishqirganini eshitdi; lekin u o'z fikrlari bilan shu qadar band ediki, kucher nima uchun kelyapti degan o'y xayoliga ham kelmadı.

Kucher yoniga kelib uni chaqirgandagina, Levin o'ziga keldi.

– Begoyim yubordilar. Akangiz bilan yana bir janob keldi.

Levin aravaga o'tirib, jilovini qo'liga oldi.

Levin uyqudan turgan kishiday, anchagacha es-hushini yig'ish-tirib ololmadi. U semiz otiga, uning terlab ketgan but oralariga, qayish ishqagan bo'yniga, yonida o'tirib borayotgan Ivan kucherga qarar, akasini kutganini eslar, uzoq qolib ketganim uchun xotinim bezovta bo'layotgandir deb o'ylar, akasi bilan birga kelgan mehmonning kim ekanligini o'ylab topishga intilar edi. Akasi ham, xotini ham, noma'lum mehmon ham endi uning ko'zlariga

ilgaridan butunlay boshqacha bo'lib ko'rinardi. Hamma odamlar bilan qiladigan muomalasi endi unga boshqa bo'ladigandek tuyulardi.

«Endi akam bilan ilgarigi vaqtlardagi singari chetlashib yurmaymiz, endi talashib-tortishmaymiz; Kiti bilan hech qachon janjallahshmaymiz; mehmon kim bo'lsa ham, baribir, unga yaxshi muomala qilaman, mehribonlik qilaman; xizmatkorlarga ham, Ivanga ham boshqacha qarayman».

Levin toqatsizlikdan pishqirib, surib ketayotgan yuramol otining jilovini mahkam tortib borar, bo'sh qolgan qo'llarini nima qilarini bilmay, kuylagini tuzatish bilan ovora bo'lib o'tirgan Ivanga qarab-qarab qo'yari, u bilan gaplashishga bahona qidirar edi. Levin Ivanga, tirkishni baland tortib bog'lab chakki qilibsan, demoqchi bo'lardi-yu, lekin bu gap ta'naga o'xshab qolardi, uning esa shirin gaplar gapirgisi kelardi. Miyasiga esa boshqa gap kelmasdi.

Kucher jilovni ushlab tuzatdi-yu:

– O'ng tomonga buring, ro'parada to'ngak bor, – dedi.

Levin kucherning aralashganidan jahli chiqib:

– Qo'y, jilovga ham tegma, menga ham o'rgatma, – dedi. Har vaqt ishiga aralashganlarida, Levinning mana shunday jahli chiqib ketishi mumkin edi; lekin hayot bilan yuzma-yuz kelganimda ruhiy kayfiyatim meni darhol o'zgartirib yuboradi, deb qilgan taxmini naqadar xato ekanini shu on anglab, xafa bo'ldi.

Uyiga yetishga chorak chaqirim qolganda, Levin ro'parasidan chopib kelayotgan Grisha bilan Tanyani ko'rib qoldi. Ular aravaga chiqishib:

– Kostya pochcha! Oyimlar ham kelyaptilar, buvamlar ham kelaptilar, Sergey Ivanovich ham, yana bir kishi ham kelyapti, – deb chug'urlay ketishdi.

– U kishi kim ekan?

Tanya:

– Judayam vahimali! Qarang, qo'llarini nuql bunday qiladi, – dedi-yu, aravada turib Katavasovga taqlid qildi.

Tanyaning harakati Levinga allakimni eslatdi, shuning uchun u kulimsirab:

– Qarimi yo yoshmi? – deb so'radi.

«Kim bo'lsa ham, ishqilib, dilni siyoh qiladigan odam bo'lmasinda!» – deb o'ylandi Levin.

Levin aravani tuyilishda burdi-yu, peshvoz chiqqanlar orasida boshiga chipta shlapa kiyib olib, qo'llarini xuddi Tanya taqlid qilganday salanglatib kelayotgan Katavasovni ko'rib tanidi. Katavasov falsafa sotishni juda yaxshi ko'rardi; falsafa bobidagi bilimlarini hech qayerda falsafa bilan mashg'ul bo'lman tabiatshunoslardan o'rganib olgan edi; so'nggi paytlar Levin u bilan Moskvada ko'p munozara qilishgan edi.

Uni taniganda dabdurustdan Levining esiga tushgan narsa o'sha munozaralardan biri bo'ldi, Katavasov o'sha munozarada o'zini yengib chiqdim, deb yurgan bo'lsa ham ajab emasdi.

«Yo'q, endi munozara ham qilmayman, hech bir yengil-yelpi fikrlar ham aytmayman», – deb o'ylandi Levin.

U aravadan tusha solib akasi bilan, keyin Katavasov bilan ko'rishgandan so'ng xotinini surishtirdi.

– U Mityani Kolokka (uylari yonidagi o'rmonning nomi) olib ketuvdi. Uy isib ketgani uchun o'sha yerda saqlamoqchi, – dedi Dolli.

Levin bolani o'rmonga olib chiqishni xotiniga hech maslahat ko'rmas, bunday qilish xavfli deb bilar edi; bu xabarni eshitib, dili siyoh bo'ldi.

– Shunaqa, bolasini u yoqdan bu yoqqa ko'tarib yuradi, – dedi kulimsirab knyaz. – Men unga muzxonaga olib kirib saqlay qol, deb maslahat beruvdim.

– Kiti arixonaga bormoqchi edi. Seni o'sha yerda deb o'ylovdi-da. Biz ham o'sha yoqqa ketayotuvdik, – dedi Dolli.

Sergey Ivanovich boshqalardan orqaroqda qolib, ukasi bilan tenglashdi-da:

– Xo'sh, nima qilyapsan? – deb so'ragan edi, Levin:

– Aytarli hech narsa qilayotganim yo'q. Eskicha, xo'jalik ishlari bilan ovoraman, – deb javob berdi. – Ko'proq turasanmi? Seni kutaverib ko'zlarimiz to'rt bo'ldi.

– Ikki haftacha turaman-da. Moskvada ishim juda ko'payib ketdi.

So'zlashib turganda, aka-ukaning ko'zları bir-biri bilan to'qnashdi; Levin akasi bilan do'stona, ayniqsa, sodda muomalada bo'lishni

harvaqt orzu qilib kelardi, hozir bu orzusi yana ham kuchli ekaniga qaramay, akasining ko‘zlariga qarashdan tortindi. Nima deyishini bilmay, ko‘zlarini pastga tushirdi.

Sergey Ivanovich Moskvada ishlari juda ko‘pligini aytish bilan Serbiya urushi hamda slavyan masalasiga ishora qilib o‘tgan edi; Levin Sergey Ivanovichga yoqadigan, e’tiborini Serbiya urushi va slavyan masalasi to‘g‘risidagi gaplardan chalg‘itadigan mavzuni qidirib, Sergey Ivanovichning kitobidan gap ochdi.

– Qalay, kitobingga taqriz yozildimi? – deb so‘radi.

Sergey Ivanovich bu savolning jo‘rttaga berilganidan kulimsirab:

– Bunga kimning qo‘li tegadi, deysan; o‘zim esa boshqalardan ham ko‘proq bandman, – dedi. Keyin oq teraklar ustida ko‘ringan oq bulutlarni shamsiyasi bilan ishora qilib, ilova etdi: – Buni qarang, Darya Aleksandrovna, yomg‘ir yog‘adi.

Levin akasi bilan o‘zi o‘rtasida adovat bo‘limganda ham, sovuq munosabat o‘rnashidan o‘zini olib qochish tilagida yurar edi: lekin yuqorida aytilgan so‘zlardan keyin aka-uka o‘rtasida yana o‘sha sovuq munosabat o‘rnashdi.

Levin Katavasovga yaqinlashib:

– Juda yaxshi qildingiz-da kelib, – dedi.

– Anchadan beri kelish harakatida edim. Endi to‘yib gaplashamiz.

Qalay, Spenserning kitobini o‘qib chiqdingizmi?

– Yo‘q, hali o‘qib tushirganim yo‘q, – dedi Levin, – darvoqe, endi menga keragi ham yo‘q.

– Nega endi? Juda qiziq kitob edi-ku. Nima uchun keragi yo‘q deysiz?

– Meni qiziqtirgan savollarga Spenserdan ham, unga o‘x-shaganlardan ham javob topolmasligimga imonim komil bo‘lib qoldi. Endi...

Lekin Katavasovning chehrasidagi vazmin, xushnud ifoda Levinni birdan hayratga keltirdi; u shu suhbat bilan o‘zining ta’bini xira qilib qo‘yganiga yurak-yuragidan achindi-yu, ko‘ngliga tugib qo‘ygan niyatini eslab, gapini to‘xtatdi.

– Xayr mayli, keyin gaplasharmiz, – deb ilova qildi; keyin hammaga qarab: – Agar arixonaga borayotgan bo‘lsalaringiz, bu yoqqa yuringlar, mana bu so‘qmoq bilan boramiz, – dedi.

Ular tor so‘qmoq bilan borib, bir tomoni boshdan oxirigacha sariq, binafsharang yovvoyi gullar bosgan, oralarida baland bo‘yli, to‘q yashil o‘zakli butalar o‘sib yotgan, o‘ti hali o‘rilmagan yalanglikka yetishganda, Levin mehmonlarini yosh oq teraklarning quyuq ko‘lankasidagi o‘rindiq bilan to‘ngaklarga o‘tqazdi; bu o‘rindiq bilan to‘ngaklar arixonaga kelib, asalarilardan qo‘rqadigan tomoshabinlarga atayin tayyorlab qo‘yilgan edi. O‘zi esa bolalar bilan kattalarga non, bodring va yangi asal olib kelgani ketdi.

Levin so‘qmoqda iloji boricha sekinroq yurishga tirishib, yonveridan tez-tez uchib o‘tishayotgan asalarilarning zing‘illashlariga qulqoq sola-sola oxiri kulbaga ham yetdi. Dahliz yonida bitta asalari Levingning soqoliga o‘ralashib vizillay boshlagan edi, u ehtiyyot bilan bo‘shatib yubordi. Salqin dahlizga kirib, qoziqdasi osiqli to‘rini oldi-da, uni yuziga tutib, qo‘llarini cho‘ntaklariga solgandan so‘ng tevaragi o‘rab olingan arixonaga kirdi; o‘tlari o‘rib olingan bu yerda har biri o‘z tarixi bilan Levinga tanish bo‘lgan eski ari uyalari qoziqlarga qator qilib bog‘lab qo‘yilgan edi; chetanlarga esa shu yili o‘tqazilgan yosh arilarning inlari osib qo‘yilgan edi. Erkak arilar bilan asalarilar inlarining og‘zida, bir yerda qaynashib, uchishib o‘ynashar; bol keltirgan va bolga ketayotgan arilar esa o‘rmonda gullab turgan lipa daraxtlari bilan in o‘rtasida muttasil uchib turar edi.

Levingning qulqolari ostida goh ish bilan band bo‘lib, viz-viz uchishayotgan mehnatkash arilarning, goh bekorchi erka arilarning, goho o‘z boyliklarini dushmandan qo‘riqlab, chaqishga shaylanib turgan qo‘riqchi arilarning vizillashlari eshitilardi. Chetanning orqasida bir chol chambar yasayotgan edi, u Levingning kelganini ko‘rmay qoldi. Levin uni chaqirmsdanoq arixonaning o‘rtasiga kelib to‘xtadi.

Voqelik Levingning kayfini allaqachon buzib qo‘ygan edi, u endi o‘zini yig‘ishtirib olishni istar, shu sababli yolg‘iz qolgani uchun ham xursand bo‘ldi.

U darrov Ivanga achchig‘langanini, akasiga sovuq muomala qilganini, Katavasovga ham yengil-yelpi gaplar aytganini esladi.

Levin: «Nahotki bu foniylar kayfiyat bo‘lsa, nahotki biron iz qoldirmay o‘tib ketsa?» – deb o‘ylandi. Lekin xuddi shu payt yana avvalgi kayfiyatiga qaytdi-yu, o‘zida qandaydir yangi, muhim bir o‘zgarish yuz bergenini sezib, quvondi. Uning o‘zi topgan kayfiyatini

voqelik faqat bir nafasgina xiralashtirib qo'ygan, aslida esa bu kayfiyat qalbida salomat edi.

Hozir tevaragida uchishib tahdid solayotgan, uni alahsitayotgan, jismoniy osoyishtaligini buzib, g'ujmayishga majbur qilayotgan asalarilar singari u aravaga tushigan soati tashvishlari ham qamrab olib, uni ruhiy hurriyatdan mahrum etib qo'ygan edi; lekin bu holat shu tirikchilik tashvishlari bilan band bo'lgan paytlardagina yuz berdi. Asalarilar hujumiga qaramay, jismoniy kuchi zararlanmagani kabi yangi idrok etgan ma'naviy kuchi ham zararlanmagan edi.

XV

Dolli bolalariga bodring bilan asal bergandan so'ng:

- Bilasanmi, Kostya, Sergey Ivanovich poyezdda kimni ko'rib-di? – dedi. – Vronskiyni! Serbiyaga ketayotgan emish.
- Yana bir o'zi emas, o'z hisobidan butun bir eskadron olib ketapti! – dedi Katavasov.

– Ha, bu ishi unga yarashadi, – deb qo'ydi Levin. Keyin Sergey Ivanovichga yuzlanib, ilova qildi: – Iya, haligacha ko'ngillilar ketaptimi?

Sergey Ivanovich javob qilmadi; u chashkaning chetiga solingen va oq katakchalaridan oqib turgan asalga yopishib qolgan tirik asalarini to'mtoq pichog'i bilan sekin-sekin chiqarish bilan ovora edi.

Katavasov bodringni qars-qurs yeb turib:

- Ketganda qanday! Kecha stansiyada nima bo'lganini bir ko'rsangiz edi! – dedi.

Bu suhbat Levindan oldin boshlangan bo'lsa kerak, qari knyaz davom ettirib:

– Xo'sh, buni qanday tushunish kerak? Xudo xayringizni bersin, Sergey Ivanovich, tushuntirib bering. Bu ko'ngillilar qayoqqa ketishapti, kim bilan jang qilishadi? – deb so'radi.

Sergey Ivanovich oyoqchalarini zo'rg'a-za'rg'a qimirlatayotgan, asalga bo'yalgan arini chiqardi-da, pichog'idan terak bargiga o'tqazayotib:

- Turklar bilan, – dedi kulimsirab.
- Iya, turklarga kim urush e'lon qildi? Ivan Ivanovich Ragozov bilan grafinya Lidiya Ivanovna-yu Shtal xonimmi?

— Hech kim urush e'lon qilgani yo'q, odamlar qon-qardoshlarining iztiroblariga achinishib, shularga yordam qilishmoqchi xolos, — dedi Sergey Ivanovich.

Levin qaynotasining yonini oldi.

— Lekin knyaz yordam berilayotganini so'rayotgani yo'q, urushni so'rayapti, — dedi Levin, — knyaz: hukumatning ruxsati bo'lmay turib, ayrim shaxslar urushda qatnasha olmaydi, deyapti.

— Kostya, bu asalaringga qara! Hozir bizni chaqib oladi! — dedi Dolli yovvoyi aridan o'zini qo'riqlab.

— Ey, bu asalari emas, yovvoyi ari-ku, — dedi Levin.

Katavasov Levin bilan munozaralarga kirishmoqchi bo'ldi, shekilli:

— Qani, qani, bilaylik-chi, bu to'g'rida sizning nazariyangiz qanday ekan? — dedi. — Nima uchun ayrim odamlarning haqlari yo'q?

— Mening nazariyam shunday: bir tomondan, urush shunday bir hayvoni, shunday bir shafqatsiz, dahshatlari narsaki, nasroniy dinidagi odamni bir yoqqa qo'yib turaylik, boshqa har qanday odam ham urushni boshlash mas'uliyatini zimmasiga ololmaydi, bu mas'uliyatni urush qilish o'zining burchi hisoblangan va urush qilishga majbur bo'lgan hukumatgina zimmasiga ololadi. Ikkinchi tomondan, ilmiy jihatdan ham, sog'lom aql bilan qaralganda ham, davlat ishlarida, ayniqsa, urush ishlarida grajdalar shaxsiy irodalariga qarab ish ko'rmaydilar.

Sergey Ivanovich bilan Katavasov e'tiroz etishga shaylanib turgan edi, shuning uchun ikkovi baravariga gapira boshladi.

— Hamma gap shunda-da, otam; ba'zi hollarda hukumat fuqarolarning irodalarini amalga oshirmaydi, ana shunda jamiyat o'z irodasi bilan ish qiladi, — dedi Katavasov.

Lekin Sergey Ivanovichga bu e'tiroz yoqmadni, shekilli, Katavasovning so'ziga qovog'ini solib, boshqa bir gap aytidi:

— Sen masalani bu xilda qo'yib bekor qilasan. Aslida, urush e'lon qilinmagan bo'lsa ham, hozir insoniy bir his, nasroniycha bir his izhor qilinyapti. Axir qon-qardoshlarimizni, dindoshlarimizni o'ldirishyaptida! Mayli, dindoshlarimizni, qon-qardoshlarimizni emas, shunchaki bolalarni, xotin-xalajlarni, qari-qartanglarni o'ldirishyapti deyaylik; bu zulmni ko'rgandan keyin inson hissi g'alayonga keladi, ana shundan keyin rus kishilari bu dahshatlarga barham berish uchun

yordamga yugurishadi. Faraz qil, sen ko'chada ketib boryapsan, qarasang: mastlar bitta xotinni, yo bolani urishyapti; fikrimcha, bu kishilarga qarshi urush e'lon qilinganmi-yo'qligini so'rab o'tirmaysan, balki ularga tashlanib kaltaklanganni qutqazasan.

– Lekin o'ldirmasdim, – dedi Levin.

– Yo'q, o'ldirarding.

– Bilmayman. Agar shunday voqeani ko'rsam, o'shanda yuragimda uyg'ongan bevosita hisga qarab ish ko'rardim; lekin oldindan bir nima deyolmayman. Slavyanlarni jabrlayotganlarga qarshi bunday bevosita his yo'q, bo'lishi ham mumkin emas.

– Ehtimol, senda yo'qdir. Lekin boshqalarda bunday his bor, – dedi Sergey Ivanovich norozi bo'lidan qovoqlarini osib. – Xalq orqasida pravoslavlarning «haromi agaryanlar» zulmi ostida ezilgani to'g'risida rivoyatlar bor. Xalq o'zining qon-qardoshlari jafo chekayotganini eshitib, tilga kirdi.

Levin xohlamayroq:

– Ehtimol, – dedi, – lekin men bundayligini sezayotganim yo'q; men ham xalqning bir zarrasiman, men bu narsani sezmayapman.

– Mana men ham, – dedi knyaz. – Men chet elda yashadim, gazetalar o'qib turdim, tan berishim kerak, ruslar slavyan birodarlarini birdan bunday yaxshi ko'rib qolganliklarini Bolgariya dahshatlari boshlanmasdan oldin hech tushunmas edim; mening esa ularga hech qanday muhabbatim yo'q-ku! Men yo shunday battolman, yo bo'lmasa Karlsbad menga shunaqa ta'sir qilyapti, deb o'ylab, juda xafa edim. Lekin bu yerga keldim-u, tinchidim-qoldim, nimaga desangiz, ko'rdimki, slavyan birodarlar bilan emas, faqat Rossiya bilangina qiziqadigan mendan bo'lak odamlar ham bor ekan. Mana, Konstantin.

– Bu ishda ayrim shaxslar fikrining hech qanday ahamiyati yo'q, – dedi Sergey Ivanovich, – butun Rossiya, butun xalq o'z ra'yini bildirib turgan bir paytda, ayrim odamlarning fikrlariga ehtiyoj qolmaydi.

– Yo'q, kechirasiz meni. Men bundayligini ko'rayotganim yo'q. Xalq buni yetti uxbab tushida ham ko'rgani yo'q, – dedi knyaz.

Dolli gapga qulq solib o'tirgan edi, u:

– Yo'q, otajon. Nega unday deysiz? Yakshanba kuni cherkovda ko'rmadingizmi? – dedi. Keyin bolalarga qarab, kulimsirab turgan

cholga gapirdi: – Mumkin bo'lsa, sochiqni bersangiz. Unday emasdир, nimagaki, hamma...

– Ha, yakshanba kuni cherkovda nima bo'la qopti? Popga buyurishgan, pop ham duo qilgan-da. Har safar xutba o'qilganda qavm hech narsaga tushunmaydi, xo'rsinib qo'ya qoladi, bu safar ham shunday bo'ldi-da, – dedi knyaz so'zini davom ettirib. – Innaykeyin, ularga cherkovda xayri ehson yig'iladi deb aytishdi, ular ham bir chaqa, ikki chaqadan chiqarib berishdi. Nimaga berishdi – buni o'zlar ham bilishmaydi.

– Xalqning bilmasligi mumkin emas; xalq o'z taqdirini hamisha bilib turadi, bunday paytlarda esa xalq taqdiri o'ziga oynaday ravshan ko'rindi, – dedi Sergey Ivanovich asalari boquvchi cholga qarab.

Mosh-guruch soqolli, kumush rang qalin sochli xushro'y chol, bu gaplarga tushunmayotgan, tushunishni ham istamayotgan bo'lsa kerak, qo'lida asal to'la kosa bilan baland qomatini rostlab, qimir etmasdan yuqoridan bu janoblarga qarab turar edi.

Chol boshini ma'noli bir tarzda chayqab, Sergey Ivanovichning so'ziga:

– Ha, xuddi shunaqa, – dedi.

– Ha, barakalla, mana bundan so'rang. Bu hech nimani bilmaydi ham, o'ylamaydi ham, – dedi Levin. So'ngra choldan so'radi. – Mixaylich, sen urush to'g'risida hech nima eshitdingmi? Cherkovda o'qilgan duoni-chi? Sen nima deb o'ylaysan? Nasroniy larga tarafkashlik qilib urushishimiz kerakmi?

– Biz o'ylab nima qilamiz? Bizning o'rnimizda imperator Aleksandr Nikolayevich o'layapti-ku, hamma to'g'rida bizni bir yoqqa qo'yib o'zi o'ylandi. U ko'proq biladi. – Keyin nonning jildini yeb bo'layozgan Grishaga ishorat qilib, Darya Aleksandrov-nadan so'radi: – Yana non olib kelaymi? O'g'ilchaga yana beraymi?

Sergey Ivanovich:

– Mening so'rab o'tirishim kerak emas, – dedi, – biz haq vaadolat yo'lida xizmat qilish uchun hamma narsasini tashlab, Rossiyaning har tarafidan kelayotgan, o'z fikrlarini, maqsadlarini ochiq-oydin bildirayotgan yuzlarcha odamni ko'rdik, ko'rib turibmiz ham. Ular yo'chaqalarini iona qilishyapti yoki o'zlar ketishyapti; nimaga ketishayotganlarini ham ochiq aytishyapti. Xo'sh, buning ma'nosini bo'ldi?

— Meningcha, buning ma’nosи shuki, — dedi Levin qizisha boshlab, — sakson millionlik xalq ichidan, hozirgidek yuzlab emas, balki jamiyat orasida mavqeyini yo‘qotgan, beboshlik bilan kun ko‘rayotgan o‘n minglab odam hamma vaqt topiladi; bunday odamlar Pugachyov shaykasiga kirishdan ham, Xivaga, Serbiyaga jo‘nashdan ham toymaydi...

Sergey Ivanovich xuddi o‘zining so‘nggi boyligini himoya qilayotgandek tutaqib:

— Men senga yuzlab odam deganim yo‘q, beboshlik bilan kun ko‘rvuchilar ham deganim yo‘q, men senga xalqning eng yaxshi vakillari deyapman! — dedi. — Xo‘s, ionalar-chi? Bu masalada butun xalq o‘zining munosabatini bildirdi.

— Bu «xalq» degan so‘zingiz juda ham mujmalda, — dedi Levin. — Bo‘lis mirzolari, muallimlar, ming mujikdan bittasi nima gapligini bilsa ajab emas. Sakson milliondan qolgani esa Mixaylichga o‘xshash, o‘z xohishini bildirish u yoqda tursin, balki nima to‘g‘rida xohish bildirish kerakligini zarracha ham tushunmaydi. Shunday ekan, buni xalq irodasi deb aytishga qanday haqimiz bor?

XVI

Sergey Ivanovich dialektikada tajribali bo‘lsa ham, e’tiroz bildirmay, gapni darrov boshqa sohaga burib yubordi.

— Ha, agar sen xalqning ruhini arifmetika yo‘li bilan bilmoxchi bo‘lsang, u holda, albatta, bunga erishish juda qiyin. Innaykeyin, bizda ovoz berish qoidasi joriy qilinmagan, joriy qilish ham mumkin emas, chunki bu narsa xalqning xohishini bildirmaydi, lekin buni bilishning boshqa yo‘llari bor. Buni mavjud vaziyatdan, yurak sezgisidan bilib olishadi. Men hali jim yotgan xalq dengizida harakatga kelgan va har qanday beg‘araz kishiga oydin bo‘lgan suv osti jarayonlarini gapiroyotganim yo‘q; chuqr o‘ylab, jamiyatga nazar tashla. Ziyolilar olamining barcha xilma-xil partiyalari avvallari bir-birlariga dushman bo‘lganlariga qaramay, endi birikib ketdi. Har qanday ixtilof xotima topdi, ijtimoiy organlarning hammasi faqat bir narsadan dam uradi, hammani qamrab olib, bir tomonga olib borayotgan tabiiy kuchni sezib qoldi.

— Ha, bu gazetalarning hammasi bir tilda sayrashadi, — dedi knyaz. — Bunisi to‘g‘ri. Momaqaldoiroq oldidan hamma baqalar bir

xil qurillashganidek, bular ham shunaqa bir xil sayrashadi. Bularning dastidan hech nimani eshitib bo‘lmaydi.

— Baqami, baqa emasmi, menga baribir, men gazeta chiqarmayman, shuning uchun ularni himoya ham qilib o‘tirmayman; lekin men ziylolar olamidagi hamfikrlilikni gapiryapman, — dedi Sergey Ivanovich ukasiga qarab.

Levin javob bermoqchi bo‘lib turgan edi, qari knyaz so‘zini og‘zidan ilib ketdi.

— Xayr, bu hamfikrlik to‘g‘risida ham boshqa bir narsa deyish mumkin, — dedi knyaz. — Mana, masalan, mening kuyovcham Stepan Arkadichni oling, siz uni taniysiz, u hozir komissiya komitetidan a’zolik vazifasini olyapti. Yana nima baloni ham, bunisi esimdan chiqdi. Faqat u yerda qilinadigan hech ish yo‘q. Na chora, Dolli, bu sir emas axir! Lekin sakkiz ming so‘m daromadi bor. Qani, siz undan bir so‘rab ko‘ring-chi: shu xizmati foydalimikan? Ha, sizga eng foydali xizmat deb isbot ham qilib beradi. Yana u rostgo‘y odam, to‘g‘ri, sakkiz ming so‘mining foydali ekaniga ishonmay ham bo‘lmaydi.

Sergey Ivanovich knyazning gaplarini noo‘rin hisoblab nafsi og‘ridi, keyin:

— Aytmoqchi, xizmatga kirganini Darya Aleksandrovnaga aytib qo‘ysangiz deb iltimos qilgan edi, — dedi.

— Gazetalarda hukm surgan hamfikrlilikning ma’nosi shu. Menga aytib berishdi: urush chiqsما، siz urushni zarur deb hisoblaysizmi؟ Juda soz. Kimda-kim urushni targ‘ib qilsa, uni oldinda jang qiladigan maxsus legionga yuborish kerak, hammaning oldiga tushib, hujum va hamla qilsin!» deb juda boplab yozgan.

— Men ko‘p gazetalarni xushlamayman, lekin bu adolatsizlik, — dedi Sergey Ivanovich.

Knyaz so‘zini davom ettirdi:

— Men faqat bitta shart qo‘ymoqchi edim. Alphonse Karr¹ Prussiya bilan qilingan urush oldida: «Nima, siz urushni zarur deb hisoblaysizmi؟ Juda soz. Kimda-kim urushni targ‘ib qilsa, uni oldinda jang qiladigan maxsus legionga yuborish kerak, hammaning oldiga tushib, hujum va hamla qilsin!» deb juda boplab yozgan.

Katavasov tanish muharrirlarni bu terma legionda tasavvur qilib:

— Bu muharrirlar «ish» ko‘rsatardi! — dedi sharaqlab kulib.

¹ Alfons Karr (*frans.*).

Dolli:

– Ey, hammasi qochib ketadi, faqat xalaqit berishadi, xolos, – degan edi, knyaz:

– Agar qo'chishsa, yo orqasidan o'qqa tutish yoki kazaklarga quvdirib qamchilatish kerak, – dedi.

Sergey Ivanovich bo'lsa:

– Meni ma'zur ko'rasiz-da, knyaz, bu-ku bir hazil, lekin yomon hazil, – dedi.

– Men buning hazilligini ko'rmayapman, bu... – Levin so'z boshlagan edi, Sergey Ivanovich bo'lib qo'ydi.

– Jamiyatning har bir a'zosi o'ziga munosib ish qilishi kerak, – dedi Sergey Ivanovich. – Shuning uchun fikr odamlari ham jamiyat fikrini bayon qilish bilan o'z burchlarini ado etishyapti. Yakdillik va afkor ommani to'la ifoda etish bir tomondan gazetalarining xizmati bo'lsa, ikkinchi tomondan, quvonchli bir holdir. Yigirma yil avval biz og'zimizni ham ocholmasdik, hozir esa rus xalqining ovozi chiqib qoldi, bu xalq bir tan, bir jon bo'lib qo'zg'alishga, asoratdagi birodarlari uchun jonini qurban qilishga tayyor; bu ulug' qadam, bu kuch nishonasidir.

– Lekin faqat jonini qurban qilishgagina emas, turklarni o'ldirishga ham tayyor, – dedi Levin hadiksirab. Keyin suhbatni o'zini mashg'ul qilgan fikrlarga bog'lab, gapiga qo'shib qo'ydi: – Xalq odam o'ldirish uchun emas, o'zining oxirati uchun qurban beryapti, qurban berishga tayyor ham.

Katavasov kulimsirab:

– Iya, oxirat uchun? Men sizga aytsam, bu tabiatshunos bir odamning tiliga kelishi qiyin so'z. Oxirat uchun deganingiz nimasidi? – dedi.

– Ey, qo'ysangiz-chi, o'zingiz bilasiz-ku!

– Voy, tirnoqcha ham tushunsam, xudo ursin! – dedi Katavasov kulib.

Sergey Ivanovich Injilning Levinni hamisha hamma narsadan ko'proq xijil qilib kelgan yerini eng ravshan bir narsaday soddagina misol keltirib e'tiroz etdi:

– Iso: «Men tinchlik keltirmadim, qilich keltirdim», degan.

Ular yonida turgan chol o'ziga ittifoqo tashlangan nazarga javob tariqasida:

- Bu to‘g‘ri gap, – deb yana boyagi so‘zini takrorladi.
 - Katavasov bo‘lsa:
 - Yo‘q, otam, yengildingiz, yengildingiz, butunlay yengildingiz! – deb qichqirdi.
- Levin alamidan qizardi, lekin yengilgani uchun emas, o‘zini tutolmay munozaraga kirishib ketgani uchun alam qilib qizardi.
- «Yo‘q, ular bilan munozara qilolmayman, ularda o‘q o‘tmaydigan zirh bor, men esa yalang‘ochman», deb o‘ylandi.

Levin akasi bilan Katavasovni o‘zining iddaolariga ishontira olmasligini qanchalik ko‘rib tursa, ular bayon qilgan fikrlarga o‘zining qo‘shilishiga ishonchi yo‘qligini ham shunchalik ko‘rib turardi. Ular targ‘ib qilayotgan narsa Levinni halok qilib qo‘yayozgan o‘sha aql takabburligi edi. O‘nlab odamning, shular jumlasidan, akasining ham poytaxtga kelgan hovliqma ko‘ngillilardan eshitgan so‘zlariga suyanib, biz xalqning fikr va irodasini gazetalar orqali ifoda qilyapmiz, deyishlariga, innaykeyin qasos olish va odam o‘ldirish haqidagi fikrlarni bayon qilishlariga Levin qo‘sila olmas edi. U bu narsaga shuning uchun qo‘sila olmas ediki, o‘zi birga yashab turgan xalq ichida bunday fikrlar borligini ko‘rmagan, o‘zi ham bunday fikrda bo‘lмаган edi (u esa o‘zini rus xalqini tashkil etgan odamlardan biri deb hisoblardi), asosan shuning uchun qo‘shilolmasdiki, umumning baxti nimadan iboratligini xalq bilan birlikda o‘zi ham bilmas, bilishga qodir ham emas edi, lekin har bir kishining qo‘lidan keladigan saxovat qonuni qattiq turib bajarilgandagina bu umum baxti-saodatiga erishish mumkinligini aniq bilardi, shuning uchun urushni xohlay olmas, har qanday umumiy maqsad uchun urushni targ‘ib ham qila olmas edi. U Mixaylich bilan varyaglar (kelgindilar)ning chaqirilishi to‘g‘risidagi rivoyatlarda o‘z fikrini bayon qilgan xalq bilan birlikda: «Bizning xonimiz va xoqonimiz bo‘ling. Biz sizga to‘la itoat qilamiz, biz bunga jon-u dilimiz bilan va’da beramiz. Butun zahmatni, butun haqirlikni, butun qurbonni o‘z zimmamizga olamiz; lekin biz hukm qilolmaymiz, qaror ham qilolmaymiz» derdi Sergey Ivanovichning so‘ziga qaralsa, shuncha qimmat tushgan huquqlaridan xalq endi yuz o‘girmoqda edi.

Levin: «Agar afkor omma gunohlardan pok bir hakam bo‘lsa, u holda nima uchun inqilob bilan kommunal slavyanlar foydasiga

qilinayotgan harakat singari qonuniy emas?» demoqchi ham bo'ldi. Lekin bularning hammasi hech narsani hal qilolmaydigan fikrlar edi. Ammo bir narsa shubhasiz ayon edi, shu tobda qilinadigan munozara Sergey Ivanovichning jahlini chiqarardi, shuning uchun munozara qilish yaxshi emasdi; Levin jim bo'ldi-yu, mehmonlar e'tiborini ko'kda yig'ilgan qora bulutlarga jalb etib, yomg'ir yog'may turib tezroq uyga qaytishini maslahat ko'rdi.

XVII

Knyaz bilan Sergey Ivanovich aravaga tushib jo'nashdi; qolganlar esa shaxdam odimlar bilan uyga yayov ketishdi.

Lekin goh oqarib, goh qorayib turgan bulutlar ko'k yuzini shu qadar tez qoplab borardiki, yomg'ir quyib yubormasdan uyga yetib olish uchun odimlarini yana ham ildam bosishlari kerak edi. Is aralash tutunga o'xshagan oldindagi qop-qora bulutlar ko'k yuzida haddan tashqari bir shitoblik bilan pastlab suzib kelardi. Uyga ikki yuz odimcha qolganda birdan shamol turdi, endi har dam sel quyib yuborishi mumkin edi.

Bolalar ham qo'rqib, ham suyunib chinqirishib yugurishardi. Darya Aleksandrovna ham oyoqlariga o'ralashib qolayotgan yubkasini zo'rg'a-zo'rg'a tuzatib, bolalaridan ko'zlarini uzmay chopib borardi. Erkaklar bo'lsa, shlapalarini ushlab olib, katta-katta qadam tashlab borishadi. Ular zinapoya oldiga kelib yetishlari bilanoq kattakon bir tomchi tunuka tarnov qirrasiga urilib parchalandi. Bolalar, bular orqasidan kattalar chaq-chaq urishib o'zlarini tom panasiga oldilar.

Levin o'zlarini dahlizda qo'lida durra va ro'mol bilan kutib olgan Agafya Mixaylovnadan:

— Katerina Aleksandrovna qani? — deb so'ragan edi, Agafya Mixaylovna:

— Sizlar bilan deb o'ylovdik, — dedi.

— Mitya-chi?

— Kolokda¹ bo'lsa kerak, enagasi ham o'sha yerda.

Levin kattakon jun ro'molni uning qo'lidan yulib olib, Kolokka qarab yugurdi.

¹ Kolok – cho'l o'rtasidagi kichkina o'rmon.

Shu qisqa muddatda qora bulut qalin joyi bilan quyosh yuzini shu qadar to'sib oldiki, xuddi kun tutilganday, hamma yoq qop-qorong'i bo'lib ketdi. Shamol xuddi jo'rttaga qilayotgandek, o'jarlik bilan yo'lini to'sib Levinni to'xtatar, lipa daraxtlarining yaproqlari bilan gullarini uzar, oq qayinlarning shoxlarini xunuk, g'alati bir kepatada yalang'ochlab, har narsani: akatsiyalarni ham, gullarni ham, ko'ktatlarni ham, daraxtlarning uchlarini ham bir tomoniga egardi. Bog'da ishlayotgan qizlar, chirqirashib o'zlarini xizmatkorlar uyiga urdilar. Qattiq jaladan hosil bo'lgan oq parda uzoqdagi o'rmon bilan yaqindagi dalaning yarmini to'sib qo'yib, endi shiddat bilan Kolok tomon bostirib kelmoqda edi. Havodan maydalab yog'ayotgan yomg'irning rutubatli isi sezilib turardi.

Levin boshini egib olib, qo'lidagi ro'molni yulib olmoqchi bo'lgan shamol bilan olisha-olisha Kolokka yaqinlashganda dub orqasida oqarib ko'ringan narsani endi ko'rghan ham ediki, birdan hamma yoq charaqlab ketdi, yer yuzini olovga o'xshagan bir narsa qopladi, boshi ustida osmon gumbazi qarsillab singanday bo'ldi. Levin qamashib qolgan ko'zlarini ochdi-yu, o'zi bilan Kolok o'rtasiga yomg'ir tortib qo'ygan qalin parda orasidan qarab, o'rmon o'rtasidagi tanish eman daraxtining uchi juda ham g'alati o'zgarib qolganini ko'rdi. Levin dahshatga tushdi, «Nahotki sinib tushgan bo'lsa?» – deb o'yladi tobora qadamini tezlatib; eman boshqa daraxtlar orqasida ko'zdan g'oyib bo'ldi; Levin kattakon bir daraxtning boshqa daraxtlar ustiga gursillab yiqliganini eshitdi.

Chaqmoq, momaqaldiroq guldurosi Levinni dahshatga soldi, bir onda vujudi muzdek bo'lib ketdi.

– Xudoyo! Xudoyo, ularning ustiga yiqlmagan bo'lsin-da! – deb iltijo qildi u.

Eman allaqachon yiqlilib bo'lgan edi; ana shundan keyin eman ularni bosib qolmasin-da, deb qilgan iltijosi bema'nilik ekanini Levin darhol xayolidan o'tkazgan bo'lsa ham, hozir shu bema'ni iltijodon boshqa biron narsa qilishga qodir emasligini bilgani uchun iltijosini yana takrorladi.

Levin Kitilar har doim o'tiradigan joyga chopib borib ularni topolmadi.

Ular o'rmonning narigi tomonida, qari lipa daraxti tagida Levinni chaqirishayotgan edi. Qoramtil kiyimli (haligina kiyimlari oq rangda

edi) ikki kishi allanarsa ustida engashib turardi. Bular Kiti bilan enaga edi. Levin ular yoniga chopib kelganda, yomg‘ir asta-asta tinib, havo yorisha boshlagan edi. Enaga ko‘ylagining etaklari quruq bo‘lsa ham, Kitining ko‘ylagi jiqqa ho‘l bo‘lib, badaniga yopishib qolgan edi. Boya momaqaldiroq gulduraganda qanday maqomda turishgan bo‘lsa, hozir yomg‘ir tunganiga qaramay, yana o‘sha maqomda turishardi. Ikkalasi ham yashil soyabon aravachaning ustiga engashib olgan edi.

Levin ichi suv bilan to‘liq botinkasini hali yer shimmagan ko‘-lobda shaloplatib yugurib keldi-yu:

– Tirikmisizlar? Sog‘misizlar? Xudoga shukur! – dedi.

Kiti ivib, betlari qizarib ketgan edi; u yuzini Levinga o‘girib, bujmayib qolgan shlapasi ostidan qo‘rqa-pisa kulimsirab turardi.

Levin alamiga chidolmay, xotinini koyib ketdi:

– Uyat emasmi axir! Hayronman, odam degan shunchalik ham beg‘am bo‘ladimi?

– Xudo haqi, menda ayb yo‘q. Endi ketamiz deb turuvdik, bulg‘anib qoldi. Tozalash kerak bo‘ldi-da. Biz ham hozirgina... – deya Kiti uzr ayta boshladi.

Mitya soppa-sog‘, quruq edi, pishillab uxbab yotardi.

– Xayr, xudoga shukur! Nimalar deganimni o‘zim ham bilmay qoldim!

Ho‘l yo‘rgaklarni yig‘ishtirishdi; enaga bolani aravachadan chiqarib, ko‘tarib oldi. Levin xotinining yonida bordi, jahli chiqqani uchun o‘zidan koyinib, enagadan yashiriqcha Kitining qo‘lini qisib qo‘ydi.

XVIII

Levin turli-tuman suhbatlarda aqlining faqat tashqi tomoni bilan ishtirok etgandek ko‘ringan bo‘lsa ham, o‘z ichida yuz berishi lozim bo‘lgan o‘zgarishdan hafsalasi pir bo‘lsa ham, yana qalbi kun bo‘yi shodlik bilan to‘liq ekanini sezib turdi.

Yomg‘irdan keyin yer juda loy bo‘lgani uchun aylangani chiqib bo‘lmasdi; bundan tashqari, bulutlar haligacha ufqdan ketmay, osmonning dam u chetida, dam bu chetida guldurab, qorayib o‘tib turardi. Shuning uchun ular kunduzning qolgan qismini uyda o‘tkazishdi.

O'rtada ortiq munozara chiqmadi, aksincha, tushlik ovqatdan so'ng hammaning kayfi ochilib ketdi.

Katavasov oldin xonimlarni o'zining qiziq hazillari bilan kuldirdi; u bilan bиринчи мarta tanishganda bu hazillar hammaga juda manzur bo'lardi. Keyin u Sergey Ivanovichning qutqusi bilan uy pashshalari to'g'risidagi qiziq kuzatishlarini, erkak pashshalar bilan urg'ochi pashshalarning xarakterlarini, hatto basharalari ham har xil ekanligini gapirib berdi. Sergey Ivanovich ham ochilib o'tirdi; choy mahalida ukasining qutqusi bilan sharq masalasining kelajagi to'g'risidagi o'z qarashlarini juda sodda, juda chiroyli qilib gapirib bergen edi, hamma diqqat bilan qulq solib o'tirdi.

Faqat Kitigina uning gaplarini oxirigacha eshitolmadi, uni Mityani cho'miltirgani chaqirib chiqib ketishdi.

Kiti chiqib ketgandan so'ng bir necha daqiqa o'tgach, Levinni ham bolalar bo'lmasiga chaqirtirib ketishdi.

Levin choyni yarim-yorti qoldirdi-da, qiziq suhbatni oxirigacha eshita olmaganiga afsus yeb va nima uchun chaqirganlardan tashvishlanib bolalar bo'lmasiga chiqib ketdi; odatda, uni faqat muhim paytlardagina chaqirishardi.

Sergey Ivanovichning ozod qilingan qirq millionli slavyanlar dunyosining Rossiya bilan birlikda tarixda yangi davr boshlashi kerakligi to'g'risidagi rejasi butunlay yangi bir narsaday Levinni juda qiziqtirgan edi; u shu rejani oxirigacha eshitolmaganiga va o'zini nima uchun chaqirganlarini bilmay, ham tashvishlanib, ham hayron bo'lib turganiga qaramay, mehmonxonadan chiqib xoli qolar-qolmas, darhol shu bugun ertalab miyasiga kelgan o'ylarini esladi. Slavyanlar masalasining butun dunyo tarixida tutgan o'rni to'g'risidagi butun bu mulohazalar qalbida yuz berayotgan narsalarga nisbatan shu qadar ahamiyatsiz bo'lib ko'rindiki, Levin bularning hammasini bir lahzadayoq unutdi-yu, yana ertalab qalbida uyg'ongan his-tuyg'ularga berildi.

U miyasida kechgan fikrlarni ilgarigidek, boshdan-oyoq eslab o'tirmadi (bunga ehtiyoj yo'q edi), o'ziga rahnamo, o'ylariga aloqador bo'lgan o'sha hislarga darhol berila qoldi; natijada, qalbidagi bu hisning burungidan ancha kuchli, aniq ekanligini sezdi. Ilgari o'zini tinchitish uchun biron narsa o'ylab topish maqsadida miyasiga kelgan fikrlarni boshdan-oxir eslashi va axtargan hissini shu yo'l bilan topishi

kerak bo'lardi, hozir esa bunday qilmadi. Hozir, aksincha, shodlik va farog'at hissi avvalgidan jonliroq edi, fikri esa hissidan orqada qolib borardi.

Levin peshayvondan o'tib ketayotib, qoraya boshlagan osmonda ko'zga chalinib turgan ikkita yulduzni ko'rib, birdan eski o'ylarini esladi: «Ha, ko'kka qarab, osmon gumbazini ko'rghanimda, men uning yolg'on emasligini o'ylar, shu bilan birga, nimanidir o'ylab tagiga yetolmas, nimanidir o'zimdan yashirar edim, – deb o'ylandi. – Lekin u yerda nima bo'lganda ham, baribir, inkor qilib bo'lmaydi. O'ylab ko'rsang bo'ldi, hamma narsa ravshan bo'ladi-qoladi!»

Bolalar bo'lmasiga kirib ketayotganda, o'zidan yashirgan narsaning nimadan iboratligini esladi. Bu shunday ibodat edi: agar Xudoning haqligiga asosiy isbot uning o'zi kashf etgan saxovat bo'lsa, u holda bu kashfiyot nima uchun faqat nasroniy dini bilangina chegaralandi? Buddistlar bilan musulmonlarning bu kashfiyotga qanday aloqasi bor, axir ular ham saxovatni targ'ib qilishadi, saxovat yo'lidan borishadi-ku!

Levin bu savolga o'zida javob bor deb bilardi, lekin javobni ko'nglidan o'tkazishga ulgurmay, bolalar bo'lmasiga kirib qoldi.

Kiti yenglarini shimarib olib, vannada suvni shopirlatib yotgan chaqaloq ustida qarab turgan edi; u erining oyoq dupurini eshitib o'girildi-yu, kulimsirab, uni yoniga chaqirdi. U orqasi bilan suzib, oyoqchalarini tipirchilatayotgan do'mboqqina chaqaloqning boshi tagidan bir qo'lini o'tkazib ushlab turar, ikkinchi qo'li bilan esa gubkani bola ustida bir me'yorda siqib suv oqizardi.

Eri yaqin kelganda, Kiti:

– Buni ko'r! – dedi. – Agafya Mixaylovna to'g'ri aytibdi. Odamni taniydigan bo'lib qolibdi.

Gap Mityaning bugundan e'tiboran yaqin kishilarining hammasini taniydigan bo'lib qolgani ustida ekan.

Levin vannaga yaqin kelishi bilanoq Mityaning tanishini tajriba qilib ko'rishdi; tajriba to'la muvaffaqiyatli chiqdi. Jo'rttaga shu maqsadda chaqirilgan oshpaz xotin bola ustiga engashgan edi, u qovoqlarini solib, unga borishni istamay, boshini tebratdi. Kiti engashgan edi, chaqaloq jilmaydi, mitti qo'llarini gubkaga uzatdi, lablarini cho'zdi, suyunganidan shunday bir g'alati ovoz chiqardiki, Kiti bilan enagagina emas, Levin ham o'zida yo'q sevinib ketdi.

Chaqaloqni vannadan bir qo‘lda ko‘tarib olishdi, ustidan toza suv quyishdi, choyshabga o‘rashdi, artishdi, keyin qulqlarni bitirib chinqirayotgan bolani onasiga keltirib berishdi.

Kiti ko‘kragida chaqalog‘i bilan odatdagи o‘rniga xotirjam o‘tirib olgandan so‘ng:

– Bunga mehr qo‘ya boshlaganing uchun xursandman, – dedi eriga. – Juda xursandman. Bo‘lmasa, juda xafa bo‘lib yuruvdim. Sen unga hech mehrim yo‘q, devding-da.

– Yo‘g‘-ey, nahotki men mehrim yo‘q deb aytgan bo‘lsam? Men faqat hafsalam pir bo‘ldi degan edim, xolos.

– Voy, Mityadan hafsalang pir bo‘lganmi?

– Yo‘q, undan emas, o‘zimning o‘yimdan hafsalam pir bo‘lgan; men bundan ko‘proq narsani kutgan edim. Men vujudimning kutilmagan yangi, yoqimli hislar bilan to‘lishini kutgan edim. Qarabsanki, buning o‘rniga yuragimda birdan jirkanch hissi paydo bo‘ldi, ayanch hissi...

Kiti quchog‘idagi bolasini cho‘miltirish uchun boyaga chiqarib qo‘ygan uzuklarini nozik barmoqlariga taqib turib, erining so‘zlariga diqqat bilan qulq solib o‘tirdi.

– Yuragimda xursandlikdan ko‘ra, vahima, ayanch hislari, ayniqsa, ko‘proq edi. Bugun momaqaldiroq mahalida yuragimni qamrab olgan vahimadan keyin uni qanchalik yaxshi ko‘rganimni angladim.

Kitining chehrasini tabassum charaqlatdi.

– Juda qo‘rqib ketdingmi? – deb so‘radi Kiti. – Men ham yomon qo‘rqib ketdim, lekin hozir momaqaldiroq o‘tgan bo‘lsa ham, juda yomon qo‘rqib turibman. Borib, eman daraxtini ko‘rib kelaman. Katavasov qanday dilkash kishi ekan-a! Umuman, butun kunimiz bugun juda yaxshi o‘tdi. Xohlasang, sen ham Sergey Ivanovich bilan juda yaxshi gaplashar ekansan... Xayr, ularning oldiga chiq, yo‘qsa, vannadan keyin bu yer hamma vaqt isib, bug‘ bosib ketadi...

XIX

Levin bolalar bo‘lmasidan chiqib, o‘zi yolg‘iz qolgandan so‘ng o‘sha mujmal o‘ylarini yana darhol esiga oldi.

Odamlar gurungi eshitilib turgan mehmonxonaga kirish o‘rniga, peshayvonda to‘xtadi-da, tirsaklarini panjaraga suyab, osmonni tomosha qila boshladi.

Butunlay qorong‘i tushgan edi; u janub tomonga qarab qoldi, u tomonda qora bulut ko‘rinmasdi. Bulutlar qarshi tomonga yig‘ilgan edi. O‘sha tomonda chaqmoq chaqar, uzoq-uzoqlardan momaqaldiroq guldurosi eshitilardi. Levin bog‘dagi lipa daraxtlaridan bir me'yorda tomib turgan tomchi ovoziga quloq solar, burchak shaklidagi tanish yulduzlar turkumiga, bu uchburchak o‘rtasidan o‘tgan Somon yo‘liga va uning tarmoqlariga qarab tomosha qilardi. Har gal yashin chaqdi deguncha, chaqnagan yulduzlar ko‘zdan g‘oyib bo‘lar, yashin so‘ndi deguncha, xuddi epchil bir qo‘l sochib yuborgandek yulduzlar yana joy-joylarida paydo bo‘lardi.

Levin hali o‘ziga ma’lum bo‘lmagan shubhalarini qalbida allaqachon hal qilib qo‘yganini oldindan his etib, o‘z-o‘zidan: «Xo‘s, yuragimni nima siqyapti?» – deb so‘radi.

«Ha, xudojo‘ylikning ochiq-oshkor, shubhasiz nishonasi – xayr-u saxovat qonunlaridir; xudo haqiqatni ochib, shu qonunlarni bu dunyoga hadya qildi, xayr-u saxovat qonunlarni men ham ko‘nglimda sezib turibman; men bu qonunlarni e’tirof etish bilan boshqa odamlarga qo‘shilaman, balki o‘z xohishimdan qat’iy nazar, dindorlar cherkov deb atagan yagona tashkilotga shu odamlar bilan birlikda allaqachon bog‘langanman. Xo‘s, yahudiylar, muslimonlar, konfutsiychilar, buddaparastlar – xo‘s, bular kimlar? – Levin xavfli ko‘ringan mana shu savolni o‘ziga berdi. – Nahotki mana shu yuz millionlab kishilar eng yaxshi ne’matdan mahrum bo‘lsa, axir bu ne’matsiz hayotning ma’nosi yo‘q-ku! – Levin o‘ylanib qoldi, lekin darhol xatosini tuzatib: – Iya, men nimani so‘rayapman? – dedi o‘ziga. – Men butun bashariyat orasidagi xil-xil e’tiqodlarning xudoga munosabatini so‘rayapman. Men tumanli dog‘lar bilan to‘liq bu olamdan Xudoning umumiyl zuhurini so‘rayapman. Men nima qilyapman? Aql bilan yetishib bo‘lmaydigan ma’no shaxsan menga, mening qalbimga ayon bo‘lsa-yu, tag‘in men bu aql bilan, so‘z bilan shu narsani bayon qilaman deb o‘jarlik qilsam!»

Levin oq qayinning eng yuqorigi shoxiga nisbatan o‘rnini ancha o‘zgartirgan yorug‘ sayyoraga qarab, o‘zidan so‘radi: «Yulduzlarning yurmasligini, nima, men bilmaymanmi? Lekin yulduzlarning harakatiga qarab turib, yerning aylanishini hech tasavvur qilolmayman, shuning uchun ham yulduzlar yuradi desam haqliman.

Agar astronomlar yerning butun murakkab, xilma-xil harakatlarini hisobga olishsa, u holda biron narsani tushunishar, biron narsani hisoblab chiqisharmidi? Samoviy jismlarning masofalari, og'irliliklari, harakatlari, o'z yo'lidan chetga burilishi to'g'risidagi hayratomuz xulosalari qimirlamaydigan yer atrofidagi sayyoralarning ko'zga ko'rinish turadigan harakatlariga, hozir o'zim ham ko'rib turgan harakatlariga asoslangan; asrlar bo'yи millionlarcha odamlar bu harakatni ko'rib kelgan, samoviy jismlar hamma vaqt bir xilda harakat qilib kelgan, bundan keyin ham shunday harakat qiladi va har qachon tekshirib ko'rilsa bo'ladi. Shuning uchun astronomlarning ko'zga ko'ringan osmonning bir meridianga, bir ufqiy chiziqqa nisbatan qanday o'rin tutganiga suyanmay chiqargan xulosalari qanchalik behuda, qanchalik omonat bo'lsa, mening ham hamma uchun hamma vaqt ayon bo'lgan, bundan keyin ham ayon bo'ladigan, mening qalbimga nasroniylik jo qilgan va qalbimda har mahal sinab ko'riliishi mumkin bo'lgan saxovat tushunchasiga suyanmay chiqaradigan xulosalarim ham, xuddi o'shanday, behuda, omonat bo'lib chiqardi. Boshqa e'tiqodlar va ularning xudoga munosabati masalasiga kelsak, bu masalani yechishga mening haqim ham, imkonim ham yo'q».

Kiti ham o'sha yo'l bilan mehmonxonaga o'tib ketayotgan edi, uning birdan:

– Iya, hali ham shu yerdamisan? – degan ovozi eshitildi. Keyin yulduzlar yorug'ida erining yuziga tikilib turib so'radi: – Yo biron narsadan xafa bo'ldingmi?

Lekin shu on birdan yashin chaqnadi; agar yashin yulduzlarni to'sib, Levinni yoritib yubormaganda, Kiti uning yuzini baribir ko'rolmagan bo'lardi. Kiti yashin yog'dusida uning yuzi tamomila xotirjam, shod ekanini ko'rib, eriga qarab jilmaydi.

«U tushunadi, nimalarni o'ylayotganimni biladi, – deb o'yladi Levin. – Unga aytaymi-yo'qmi? Mayli, aytaman». Lekin u endi aytaman deb turganda, Kiti gapirib qoldi.

– Menga qara, Kostya! Baraka topkur, burchakdag'i xonaga borib qara, Sergey Ivanovichni qanday joylashibdi ekan, – dedi Kiti. – Men borsam, uyat bo'ladi. Qara-chi, yangi chinnichanoqni keltirib qo'yishibdimi?

Levin qaddini rostladi-da, uning qo'lini o'pib:

– Xo‘p, boraman, albatta, boraman, – dedi.

Kiti o‘zining oldiga tushib ketganda, Levin: «Yo‘q, aytish kerak emas, – deb o‘ylandi. – Bu faqat o‘zim uchungina vojib, muhim va so‘z bilan ta’rif qilib bo‘lmaydigan sir.

O‘g‘limga nisbatan kutgan hissim kabi bu yangi his ham men orzu qilgan darajada meni o‘zgartirmadi, baxtiyor qilmadi, birdan ko‘zimni ochmadi. Kutilmagan hech qanday narsa ham bo‘lmadi. E’tiqodim esa, – bu e’tiqodmi-yo‘qmi, – nima ekanligini o‘zim ham bilmayman, lekin bu his sira sezdirmasdan iztiroblarim bilan birga qalbimga kirib, o‘sha yerda mahkam joylashib oldi.

Ivan kucherga yana avvalgidek zarda qilaveraman, yana gap talashaveraman, yana noo‘rin gapiraveraman, qalbimning eng muqaddas nuqtasi bilan o‘zgalar, hatto xotinim ko‘ngli o‘rtasidagi devor avvalgidek qolaveradi, o‘z vahmim uchun xotinimni qoralab, buning uchun yana pushaymon bo‘laveraman, nima uchun ibodat qilganimni aqlim kuchi bilan anglamasam ham, yana ibodat qilaveraman, – lekin endi mening hayotim, butun hayotim, uning har bir daqiqasi, boshimga nimalar tushishidan qat’iy nazar, ilgarigidek bema’ni hayot bo‘lmaydi, balki uning mazmuni, mohiyati, shubhasiz, xayr-u saxovatdan iborat bo‘ladi, men hayotimni xayr-u saxovat bilan to‘ldirishga qodirman!»





MUNDARIJA

Beshinchi qism.....	3
Oltinchi qism	140
Yettinchi qism.....	283
Sakkizinchi qism.....	403

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

Lev Nikolayevich Tolstoy

ANNA KARENINA

Roman

Ikkinchchi kitob

Nashr uchun mas'ul *M. Bo'ronov*

Nashrga tayyorlovchi *S. Saidmurodov*

Tarjimon *M. Ismoiliy*

Muharrir *S. Saidmurodov*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhihlar: *L. Abduqodirova, A. Umirova*

Kompyuterda sahifalovchi *F. Hasanova*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.

Bosishga 2020-yil 31-yanvarda ruxsat etildi. Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'oz'i.

«Times New Roman» garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 29,0. Nashr tabog'i 27,02.

Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma №19-759.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz

www.iptd-uzbekistan.uz





L.N. Tolstoy

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-25-949-2

A standard linear barcode representing the ISBN number.

9 789943 259492